N. ATAYEVA, M. SALAYEVA, S. HASANOV

UMUMIY PEDAGOGIKA

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

N.ATAYEVA, M.SALAYEVA, S.HASANOV

UMUMIY PEDAGOGIKA

(Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari)

O‘quv qo‘llanma

II kitob

O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Turon fanlar akademiyasining akademigi Halimboy Boboyevning umumiy tahriri ostida

TOSHKENT – 2015

UO'K: 37(075)
KBK 74.00
A-87

A-87 **N.Atayeva, M.Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O'quv qo'llanma. II kitob. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 800 bet.**

ISBN 978–9943–10–884–4

Mazkur o'quv qo'llanmaning II kitobi pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari, milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik-metodologik asoslari, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti asoslari hamda pedagogik mahorat va zamonaviy pedagogik texnologiya asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Har bir mavzu matnidan so'ng takrorlash va munozara yuritish uchun savollar, topshiriqlar, testlar, intellektual treninglar berilgan. Bu esa o'quv mashg'uloti davomida talabaning olgan bilimini mustahkamlashga zamin yaratadi, mustaqil fikrlashga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni jonlantirishga, tahsil oluvchining faoliyatini oshirishga yordam beradi va muammoli o'qitish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining bakalavriat talabalari va magistratura yo'nalishlari magistrantlari hamda malaka oshirish kurslari tinglovchilari, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

INV. 1092/2
12/3
URDU
KIROATXONA
UO'K: 37(075)
KBK 74.00

Mas'ul muharrir:
J.G'.Yo'ldoshev – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:
H.Omonov – pedagogika fanlari doktori, professor;
Sh.Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor;
M.Hoshimova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv qo'llanma Toshkent moliya institutining ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga asosan nashr etildi (2010-yil 15-maydagi 4-sonli bayonnoma).

ISBN 978–9943–10–884–4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

Ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Islom Karimov

KIRISH

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligini tobora namoyon qilmoqda. Shuning uchun **insonparvarlik ma'naviy barkamollik, ezgulik, tashabbuskorlik, dunyoviy va diniy uyg'unlik, milliy istiqlol g'oyasi bozor iqtisodiyoti asosidagi insonparvar demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning bosh tamoyili sifatida qabul qilindi.**

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov: **«Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.**

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor»,[1] – ekanligini alohida qayd qilib o'tgan.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarish innovatsion rivojlanishga katta ahamiyat berilishi lozim bo'ladi. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorlarida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalana oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifalarini hal etish bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A.Karimov o'zining **«O'zbekiston buyuk kelajak sari»** asarida ta'kidlaganidek: **«O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi.**

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999, 95-bet.

Bu – mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi»[1].

Yuqorida tilga olingan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda **«Umumiy pedagogika»**ning muhim tarmoqlaridan **pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari**ning ahamiyati kattadir.

Hozirgi kunda **pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari** ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

Ushbu **«Umumiy pedagogika» (pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari)** o'quv qo'llanmasining II kitobida pedagogika fanining umumiy va ilmiy-metodologik asoslari, pedagogika nazariyasining jamiyat va shaxs taraqqyotidagi o'rni, didaktika ta'lim nazariyasi; ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va vositalari; zamonaviy ta'lim texnologiyalari; tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, qoidalari, tamoyillari (prinsiplari); tarbiyaning umumiy metodlari; tarbiya turlari (shakllari)ga umumiy tasnif; tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsni qayta tarbiyalashning o'zaro bog'liqligini pedagogik-psixologik asoslari; pedagogik mahorat madaniyati va pedagogik muloqot madaniyati asoslariga oid mavzular yoritib berilgan. Har bir mavzu matnidan so'ng takrorlash va munozara yuritish uchun savollar, topshiriqlar, testlar, intellektual treninglar berilgan. Bu esa o'quv mashg'uloti davomida talabaning olgan bilimini mustahkamlashga zamin yaratadi, mustaqil fikrlashga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni jonlantirishga, tahsil oluvchining faoliyatini oshirishga yordam beradi va muammoli o'qitish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmada uchraydigan ayrim juz'iy xatolar va me'yoriga yetmagan o'rinlar uchun uzr so'raydi, bildirilgan beg'araz, tanqidiy fikrlar va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

[1] I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T. : «Sharq», 1998, 67-bet.

I BO'LIM. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

I bob. PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. PEDAGOGIKA FANINING OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir bolaning onadan dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki u ma'lum layoqat qobiliyat kurtaklari bilan tug'iladi. Lekin u ***inson, shaxs*** sifatida oilada ota-onalar; jamiyatda esa **o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar hamda turli jamoalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati orqali shakllanadi.** Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalari yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida pedagogika fani va pedagogik ta'lim vujudga keldi.

Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni va shaxsning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Pedagogika dastlab yoshlarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan bo'lsa, sekin-asta bu sohadagi izlanishlar doirasi kengaya bordi. Hozirgi kunda pedagogika barkamol shaxsni shakllantirish qonuniyatlari to'g'risidagi fan sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, ta'lim davlat standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, uni tashkil etish shakllari va qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Yaqin vaqtgacha falsafaning bir tarmog'i hisoblangan pedagogikaning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslari yaratilib, pedagogika fanlar majmui paydo bo'ldi. Bizningcha, pedagogika turkumiga kiruvchi fanlar majmuini 4 yirik guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Barcha pedagogikaga

oid fanlarga asos bo'lgan **pedagogika tarixi va nazariyasi** guruhiga pedagogika tarixi, didaktika va umumiy pedagogika kiradi.

Umumiy pedagogika guruhiga – uzluksiz ta'lim jarayonining har bir bosqichidagi pedagogik jarayonning o'ziga xosligini asoslab beruvchi – **oila pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi va kattalar pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, harbiy pedagogika, menejment pedagogikasi, iqtisodiy pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi** va boshqa tarmoqlarga bo'lingan. Undan tashqari, sezgi organlarining biron bir turi ishlamaydigan kishilarga bilim berishning o'ziga xos tomonlarini o'rganuvchi maxsus pedagogika guruhiga – **surdopedagogika, tiflopedagogika va olifrenopedagogika**lar kiradi. Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi **uslubiyat (metodika)ni ham**, o'z navbatida – **maktabgacha ta'lim uslubiyati, umumta'lim uslubiyati, kasb-hunar ta'limi uslubiyati, oliy ta'lim uslubiyati, malaka oshirish uslubiyati** va boshqa tarmoqlardan iborat. Bu pedagogik fanlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri-birini taqozo etadi, biri - birini to'ldiradilar (1-shakl).

Pedagogika tarixi va nazariyasi asosini tashkil qiluvchi birinchi guruhning uchta pedagogik fan tarmoqlariga umumiy tasnif beradigan bo'lsak, bularning uchalasi boshqa pedagogik fan tarmoqlariga asos bo'lib, o'zaro bog'liqdirlar.

Didaktika va umumiy pedagogikada ishlab chiqilgan asosiy prinsiplar, qoidalar va maxsus tushunchalar maktab hamda maxsus pedagogika guruhlaridagi pedagogik fan tarmoqlari, didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni, ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xosligidan kelib chiqib o'zgartiradilar va o'z sohasiga moslashtiradilar.

Uslubiyat (metodika) ham maxsus va uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi pedagogikalar kabi ta'limning o'ziga xos turi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni o'z sohasiga moslashtiradi va soha uslubiyatini yaratadi. Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rganishning qonuniyatlarini o'rganuvchi uslubiyat (metodika) fanining ham xizmatlari beqiyos kattadir. Hozirgi kunda o'quv yurtlarida tarix o'qitish, matematika o'qitish, til o'qitish, adabiyot o'qitish, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (uslubiyati) fanlari o'qitilmoqda.

1-shakl

Pedagogika fanlari majmui



O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida, pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslarida, mazmunida ta'lim-tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, shaxsning barakamollik darajasi va sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu islohiy o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiqida pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslari kengayishiga zamin yaratdi.

Pedagogika fanining obyekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy va metodologik hamda amaliy asosini ta'minlovchi fan emas, balki barkamol inson shakllanishini va rivojlanishini ta'min-

lovchi ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichiga oladi. Shuning uchun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi milliy ta'lim modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh obyekti va subyekti sifatida qaraladi. Ma'lumki, pedagogika fani ta'lim va tarbiyaning inson rivoji, barkamol shaxs va mutaxassis shakllanishida ta'lim-tarbiya tizimini o'z ichiga olmaydigan etnik, antropologik, genetik, tarixiylik, mustaqillik, tabiiy-ekologik, instinktiv, ruhiy-hissiy bilish, rivojlanish, komillik omillariga ham suyanadi. Bundan tashqari, pedagogika fani oldiga mustaqil fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Hozirgi kunda pedagogika fani ta'lim va tarbiyada hayot jarayonining hamma sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa ham, u o'zining barkamol inson ta'lim-tarbiyasida juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeini egallay olmagan bo'lardi. Shuning uchun ham **«Ta'lim to'g'risida»**gi qonunda va **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** (1997-yil)da ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi va dolzarb vazifasi qilib belgilandi.

Pedagogika fanida bu ustuvor yo'nalish va ulug'vor vazifa **«milliy ta'lim modeli»**dan kelib chiqib, har bir mavzu, tushunchalarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarini bajarishning metodologik, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta'lim tizimini boshqarishga doir bo'limlarida asoslab beriladi.

Shunday qilib, pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim-tarbiya nazariyasining mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida bilim, o'quv, amaliy ko'nikma va malakalar, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Demak, boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi va jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanib bormoqda.

Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni rivojlanishini, barkamol insonni tarbiyalashni tasavvur qilish qiyin, albatta.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida mustaqil fan sifatida rivojlanib borayotgan pedagogika fani ham o'z predmeti (mavzusi)ga ega.

Pedagogika fanining predmeti o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, metodlari, vositalari bilan

yoshlarni, bo'lajak mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

2-shakl



3-shakl


PEDAGOGIKA FANINI O'RGATISHDA ALOHIDA AHAMIYAT BERISH LOZIM BO'LGAN JIHATLAR
Dars (mashg'ulotlar)ni olib borishda talabalar yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish
Ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyalaridan keng foydalanish
Ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin ko'nikmalariga e'tibor qaratish
Ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirishga, ta'limning eskicha metodlarini qo'llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarini insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillik eng oliy qadriyat, uni asrab avaylash esa muqaddas burch ekanini o'quvchi-talabalarning qalbi va ongiga singdirish
Mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan maqsadlar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish

Pedagogika fanining maqsadi:

– Respublikamizda barkamol avlodni voyaga yetkazishning bir butun holatidagi muammolarini hal qilish;

– ta'lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;

– umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

– pedagogika – tarbiyashunoslik qonun-qoidalarini ilg'or pedagogik tajribalar asosida boyitib borish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash tadbirlarini belgilash;

– uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal qilish;

– «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish va h.k.

Pedagogika fanining vazifalari:

– Sharq va G'arbda xalq yaratgan og'zaki ijodiyoti, ya'ni xalq pedagogikasi, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoniga tatbiq etish;

– komil insonni tarkib toptirishning qonuniyatlari va zaruriy sifatlarini aniqlash;

– pedagogikadagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi va xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga amal qilish;

– ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini ta'lim muassasasi amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak iqtisodchi o'qituvchilar va mutaxassislarga o'rgatish;

– ta'lim muassasasini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib bo'lajak o'qituvchilar va mutaxassislarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish va h.k.

Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, metod va usullari, vositalari umuman, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak. Pedagogika fanining mazmuni, maqsad va vazifalarining yangilanish va rivojlantirish yo'li quyidagi to'rtta asosiy negizga asoslanadi:

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini singdirish;

– xalqimizning milliy urf-odatlari, an'analari, ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

– shaxsning o‘z qobilliyat va imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

– vatanparvarlik va insonparvarlik.

Shu asosdan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, pedagogika fanining maqsad va vazifalari ancha kengayganligini ko‘rsatadi.

4-shakl



1.2. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MILLIY MAFKURANING PEDAGOGIK ASOSLARI

«Istiqlol mafkurasi ko'pmillatli O'zbekiston xalqining shu g'oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir».[1]

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari – xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma'naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida insonning ulug'ligi va mo'tabarligi g'oyasi yotadi. Chunki mamlakatning hayoti, farovonligi mehnatkash insonlarning xususan, yoshlarning faoliyatiga bog'liq.

5-shakl

[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2000, 6-bet.

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiylik tamoyili xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan **«Kuch – adolatdadir»** degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan. U mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishida, ayniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan.

Milliy istiqlol g'oyasi chuqur pedagogik asoslariga ega. Bunda bir tomondan, jahon pedagogikasidagi umuminsoniy qadriyatlar, ikkinchidan, Sharq pedagogikasi va madaniyati, uchinchidan esa, yurtimizda o'tgan qomusiy allomalarning pedagogik merosi o'z o'rniga ega. Ana shu asosda yaratilgan g'oya va mafkura hozirgi zamonda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, haqiqiy iymonga aylanmog'i lozim.

Muxtasar qilib aytganda, milliy mafkuramizning pedagogik asoslari deganda ajdodlarimizning pedagogik tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, jahon xalqlari pedagogikasi, urf-odatlari, qadriyatlari, hozirgi zamondagi pedagogik qarashlar va ta'limotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi fikr va xulosalar tushuniladi.

Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy istiqlol mafkurasi, quyidagi pedagogik mohiyatga ega:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umuminsoniy tamoyillarga zid kelmaydi;

– xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning tarixiy va ma'naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

– adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki bu, ulug' g'oyalar istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsad, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi;

– Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarining aniq maqsad sari yo'naltiruvchi, uyushtiruvchi mohiyatga ega ekanini ifodalaydi;

– jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekiston Respublikasi buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada anglashimizga, ertangi kunga bo'lgan qat'iy ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir;

– millati va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida Vatanning muqaddasligini har bir fuqaro ongiga singdirishga xizmat qiladi;

– jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Bu milliy istiqlol g'oyasining fikrlar rang-barangligi, e'tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillariga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi.

6-shakl



Milliy istiqlol mafkurasining asosiy umumbashariy tamoyillari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashda yordam berish;

– qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish;

– xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;

– davlatning bosh islohotchi ekanligiga va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanganligi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillari xizmat qiladi.

7-shakl



Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

– qonun ustuvorligi;

– inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;

– turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;

– diniy bag‘rikenglik;

– dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik;

– o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘zlashtirish va hokazo.

URDU KIROATXONA

DAVLAT UNIVERSITETI INV. № 1092/2 KUTUBXONASI

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. **Komil inson deganda biz eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli shaxsni tushunamiz. Ongli, bilimli odam har narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'rib o'z o'y-fikrini, xulosasini mantiq asosida quradi.**

8-shakl



Tarixga nazar tashlasak, komil inson xarakteri va xulq-atvori qanday degan masala bilan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Nodira, Anbar otin, Furqat, Komil Xorazmiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar shug'ullanib, o'z asrlarida muhim fikrlarni bayon etganlar. Nihoyat, buyuk mutafakkir-pedagoglarimiz talqin etgan **Komil inson** xarakteri, ezgu va odil xislatlarni sanab sanog'iga yetish qiyin.

Mutafakkir pedagoglarimiz uni uch xislatga jam qilganlar: «**Saxo – bor narsani hech kimdan qizg'anmaslik; Safo – qalbni kibru – havo, gina-qudrat, qasd-g'azabdan poklash; Vafo–hamma vaqt xalq xizmatida bo'lish**».

Shunday qilib, **Saxovatlilik** faqat moddiy yordam bilan emas, balki o'zgacha ilm ato etish bilan ham bo'ladi. **Safolik** (poklik) esa birovning qalbini nurga to'ldirish. **Vafolik** o'zganing baxtidan xushnud bo'lishidir.

Demak, **Komil inson** o'z xarakteri, axloqi va odobi bilan o'zgani tarbiyalaydi, o'ziga baxt ato etadi. *Uning xarakteri, odob-axloqi* jamiyatda tipikdir, xarakter tipiklashmasa komillik bo'lmaydi.

Zero, **Komil insonda** ezgu va odil xarakterni shakllantirish uchun qalbni tarbiyalamoq lozim. Mutafakkirlarning fikricha, kishilarda besh xil qalb bor: «**O'lik qalb – hech narsaga intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin yordamga muhtoj qalb; g'ofil qalb – hikmat (onglilik) nuridan bebahra qalb; uyg'oq qalb – nuri bor, biroq tarbiyaga muhtoj qalb; tirik qalb – o'z baxtini topgan va o'zgaga baxt beruvchi qalb**».[1] Komil inson ana shunday tirik qalbga ega bo'lish bilan ulug' xarakterga erishadi. Demak, biz butun milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani tarbiya jarayonida qo'llashda har bir yosh avlodning qalbi, ongi va shuuridagi tuyg'ularini shakllantirishga, *qalbi va ongini* yot unsurlardan asrashga, nihoyat, undagi ezgu tuyg'ularni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berishimiz kerak.

Darhaqiqat, **Komil inson** g'oyasi – ham milliy, ham ma'naviy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukamallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir. Bu g'oya – nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga *ilhomlantirgan*.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning kelajagi yo'q.

Insonning insonligi birinchi navbatda, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Ma'naviy-axloqiy barkamol inson o'z onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a'zolari, qo'ni-

---

1. Do'stjonov, M. Mirhamidov, S.Hasanov. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. O'quv qo'llanma. –T.: «IQTISOD - MOLIYA», 2006, 399-bet.

qo'shnilari, mahalla-ko'yi, umuman, butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'uradi; tevarak-atrofini o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishga intiladi; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi; ota-bobolaridan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlaydi; milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyil bo'ladi; birovning og'irini yengil qilishni odat qiladi; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qiladi, unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatadi; Vatanni himoya qilish, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashaydi; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qiladi, va'daga vafoli bo'lishni o'ziga kasb qilib oladi va h. k.

9-shakl

Madaniyat barkamol insonni shakllantirish vositasidir. Madaniyatli komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hammisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Demak, **Komil inson** shaxsini shakllantirish jarayonida ta'lim-tarbiya borasidagi barcha imkoniyatlar va qadriyatlardan to'liq foydalanmoq kerak. Har qanday tarbiya umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'langandagina yaxshi samara beradi. Har holda jahondagi turli davlatlarda, mamlakatlarda amalga oshirilgan tarbiya metodlari, ishlari, mazmuni, mohiyati, undan ko'zlangan mahsulotlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, **Komil inson** g'oyasining maqsadi:

– ***birinchidan,*** *inson, uning* kamoloti butun ta'lim-tarbiya tizimining markazida turmog'i lozim. Inson inson uchun degan fikr oliy qadriyat, oliy maqsad bo'lib qolishi buning uchun eng avvalo yoshlarning, ularga ta'lim-tarbiya berayotgan barcha o'qituvchi-tarbiyachilarning Alisher Navoiy aytganlaridek, «o'zining dili pok bo'lmog'i lozim»;

– **ikkinchidan,** O'zbekiston jahonga yuz tutdi, jahon ham O'zbekistonga o'z bag'rini ochmoqda. Binobarin, endigi mutaxassis kadrlar jahon xalqlari bilan doimiy muloqotda bo'ladilar. O'zbekistonga, uning xalqiga har bir kadrning shaxsiy sifatlariga qarab baho beradilar, munosabat belgilaydilar. Bunday sharoitda bo'lajak mutaxassis o'z kasbining qay darajada ustasi ekanligi, ayni chog'da O'zbekiston *fuqarosi sifatidagi fazilatlariga* qarab xorijliklar mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar. Buni har bir yosh avlod nazarda tutishi, shundan kelib chiqib ta'limga munosabat belgilashi, o'z-o'zini va milliy o'zligini anglashi muhimdir. Ya'ni yoshlarda o'z Vatani, xalqi oldidagi yuksak mas'uliyat hissini barqaror qilish taraqqiyotning yangi, yuqori darajasiga erishishning o'zi ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirishni dolzarb masala sifatida qo'ymoqda.,

– **uchinchidan,** bozor iqtisodi munosabatlarini O'zbekistonda shakllantirishning o'ziga xos va o'ziga mos xususiyati shundan iboratki, bu munosabatlar ijtimoiy yo'naltirilgan mazmunga ega bo'ladi. Ana shu munosabatlarni shakllantiradigan va unda faoliyat ko'rsatadigan kadrlarning ichki dunyosi – **«Meni»** yuksak ideallar, milliy qadriyatlar asosida qaror topishi uchun ta'lim-tarbiya tizimining butun yo'nalishi insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Ya'ni bozor iqtisodiy munosabatlari shaxsda hayvoniy hirslar va firibgarlik xislatlari rivoji uchun emas, aksincha, insoniy fazilatlar to'la ravishda ro'yobga

chiqishiga xizmat qilsin. Boshqacha aytganda, bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga pirovard ijtimoiy maqsad emas, balki har tomonlama kamol topgan, imon-e'tiqodli, yuksak madaniyatli insonlarni voyaga yetkazish, ular o'z qobiliyatlari, iste'dodlarini erkin ruyobga chiqarish uchun qulay sharoit sifatida qaralmog'i lozim;

10-shakl



– **to'rtinchidan,** ta'lim va tarbiyaning uzluksiz jarayoni insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishining nazariy va ilmiy jihatlari shu sohada mehnat qilayotgan kadrlarning ongi va qalbidan zarur darajada

o'rin olishi kerak. Ular ta'lim-tarbiyani **«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»**ni amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida amalga oshirishlari lozim.

Milliy istiqlol g'oyasini, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti strategiyasini, o'zbek xalqning buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda, yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunday jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Milliy istiqlol g'oyasini singdirishda har bir ota-ona farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim-tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab etishi nihoyatda muhimdir. Bunda oilaning ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishish zarur. Bu davrdagi barcha bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning hamma amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

– Vatan tuyg'usini shakllantirish;
– ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
– milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
– ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
– oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
– mahallaning demokratiya va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.

Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning mohiyati. Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi – bu istiqlol g'oyaviy tarbiyadir. Bu inson, ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.

Bu shaxsning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu – tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

11-shakl



Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning maqsadi. Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom g'oyalar va fikrlar tarzida – xalq tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning xususiyatlaridan biridir.

Istiqlol g'oyaviy tarbiyaning eng muhim omillaridan biri oiladir. Oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-

nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida yoshlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyosdir.

Mafkuraviy ta'lim-tarbiya tizimi va funksiyalari quyidagilardan iborat:

12-shakl



Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi mehnatsevarlik omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan mehnat jamoalari bo'lib, turli millat va diniy e'tiqodga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlikka chorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltirish muhim omil vazifasini bajaradi.

13-shakl



Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyo-qarash, e'tiqod, imon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televidenie, gazeta-jurnallar, badiiy kinofilmlar hamda badiiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va bola ko'ziga qarab

turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir gapni aytishi lozim bo'lsa, bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va yuzidagi samimiyat bilan fikrini o'qtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo'ladi. Shu bois auditoriyalarda o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqot ta'lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyatga egadir.

14-shakl



Sog'lom dunyoqarash, mas'uliyat, imon va e'tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy obyektiv shart-sharoitdagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

a) ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit;

b) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishi;

d) yoshlarning bilim darajasi;

e) odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, erkin fikrlashga o'tish.

Mustaqillik davri yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari sharoitlari aynan tafakkur va fikrdagi o'zgarishlarni taqozo etadi, ana shu jarayon birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, unda bu ijtimoiy qatlam vakillari bilan birga yoshlar tashabbus ko'rsatishi, o'z dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir o'tkazishi kerak.

Mafkuraviy tarbiya ma'lum tizimga ega bo'lib, bu tizimdagi xilma-xil bo'g'inlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu borada mafkuraviy tarbiya subyektlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyat a'zosi sifatida, inson doimo turli guruh jamoalarning vakili sifatida ularning ta'siri ostida bo'ladi. Ya'ni har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlariga mansub bo'lgan millat, xalq, professional (kasbiy) toifa, jamoa oilaning ijobiy yoki salbiy ta'siri bo'ladi.

Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatda siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

– makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi ijtimoiy ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari;

– mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi darajali ta'sirlargina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki *«qush uyasida ko'rganini qiladi»* deganlaridek, ayniqsa, o'zbekchilikda oilasi, nasli-nasabi, mahallasi, ta'lim olgan bilim dargohiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlamaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini kamstish ham to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, sobiq sho'rolar tuzumi davrida jamiyat a'zolarining mute, tobe, ixlossiz, ba'zi bir jihatdan imonsiz bo'lib kamol topishiga zamin yaratgan ediki, bunga asosan o'sha muhitdagi nosog'lom, inson qadrini yerga uruvchi iqtisodiy siyosat va mafkura sabab bo'lgan.

Mafkurani amalga oshiruvchi shaxsdan avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobiliyati, uning nutqi, o'ziga ishonch va boshqalar talab qilinadi. Mafkurachilarning ish uslubi, o'zida mavjud bilim tushunchasi, g'oyalarni asosiy qilib olgan holda, birinchi navbatda yoshlarda, qolaversa, keng xalq ommasi ongida mustahkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatishdir. Bunda u muloqotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, bahs-munozara kabilardan

foydalanadi. Aynan ana shu faoliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq mahoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Hissiy ta'sir usullari – o'rinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika kabilar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

15-shakl



Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muhim xislat – gapirayotgan kishining yoqimtoyligidir. Bu ham notiqqa nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida notiqning murojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyoli, olimlar va o'qituvchilar auditoriyasida

mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikrlar, mulohazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

16-shakl



Notiqning nima haqida gapirayotgani (axborotning mazmuni) ham mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, shaxsga ham aqlan asoslangan (ratsional), ham emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli, tushungan shaxslar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosiy ma'lumotni tez qabul qilib, unga ishonsa kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq

shaxslar esa ko'proq yurakka yaqqin, emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotga o'ch bo'ladi. *Mafkuraviy axborot yozma tarzda yetkazilishi mumkin. Birinchisiga gazeta, jurnallar, kitoblar darsliklar, yozma manbalarda mujassamlashgan ma'lumotlar kiradi, ikkinchisiga ma'ruza, darsni bayon etish, munozara va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali ham yetkazilishi mumkin.* Muhimi, ular ham ma'naviyat va o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

17-shakl



1.3. PEDAGOGIKA FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

Fanning metodologik muammolariga barcha davrlarda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bugun ham mamlakatimizda bilimning bu sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda. Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori mavhum pog'onasi murakkab, yechimi birmuncha

qiyin bo'lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Tabiiyki, ularning ilmi bilishning eskicha yondashulari yordamida hal etilishi mushkul. Metodologiya ham amaliyot talabalaridan ortda qolishi, ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq holda rivojlanmasligi mumkin emas.

Birinchi navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishi e'tibor qaratilgan. Boshqa tomondan, metodologiyaning dunyoqarash jihatlari – chuqur nazariy umulashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning *tezlashuvini ta'minlashda* o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos bo'lish, milliy istiqlol g'oyasini omma ongiga singdirish, bunda ommaviy kommunikatsiyaning barcha vositalaridan foydalanish sezilarli samara berishi sir emas.

Metodologiya – (yunoncha-metodlar haqida ta'limot) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo'llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyatini yo'llari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o'rganadi.

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. Birinchi navbatda u keng ma'noda – fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, barcha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, metodologiya fan sifatida obyektiv borliqni bilish haqida ta'limot (nazariyasi)dir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar (shu jumladan, pedagogika) uchun ilmiy bilish nazariyasini anglatadi. Demak, metodologik bilimlarning umumiy tizimida metodologiya o'rnini aniqlashtirish uchun mavjud.

Aniq fanlar metodologiyasi umumiy metodologiyaga tayangan holda:

1. Uning talablarini muayyan fan obyekti tashkil etadigan hodisa va jarayonlarni o'rganishga tatbiq etadi.

2. O'zida bilishning aniq ilmiy metodlari haqidagi nazariyani o'rganilayotgan hodisa va jarayon qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda mujassamlashtiradi.

Pedagogika – boshqa rivojlangan fanlar qatori o'zining alohida predmetiga, nazariy prinsiplariga ega va alohida tadqiqot

metodologiyasi biluvga tortilgan obyektiv voqelikning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olgan holda qo'llaydi.

Metodologik muammolarni ishlashdagi siljishlarning mavjudligiga qarmasdan, qator nazariy-metodologik muammolar yechimsiz qolyapti. Yetarlicha tadqiq qilinmayapti. Fikrimizcha, metodologik muammolarni ishlab chiqish kamida ikki shartni hisobga olishni taqozo etadi.

Birinchi shart – pedagogika birmuncha dolzarb muammolari bilan maktab, akademik litsey, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining amaliy vazifalari o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish lozim. Bu bizni sxolistik nazariyalashtirishdan, umumiy mulohazalashdan tiyib turadi. Asosiy e'tiborni shunday tadqiqot yo'nalishlari va muammolariga qaratish lozimki, natijada pedagogika fanining hayotiy muhim masalalari yechimini topish uchun metodologik yondashuvlar bilan bizni qurollantirishsin, ta'lim va tarbiyaviy jarayonning amaliy vazifalari yechimini ta'minlashsin.

Ikkinchi shart – metodologiya va pedagogika nazariyasi muammolarini ishlab chiqishga yuksak malaka va tajribaga ega, ilmiy jihatdan yetuk universitet, institut hamda ilmiy tadqiqot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarni jalb etish lozim.

Metodologiyaga e'tiborning kuchayishi, kun tartibida turganligining obyektiv omillari mavjud: mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida kuchli fuqarolik jamiyati qurilmoqda va ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos holda tubdan yangilandi. Bu yangi modelning muvaffaqqiyati ko'p jihatdan pedagogik tadqiqotlar natijasiga, umuman, pedagogika fanining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Dastlab pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning mantiqi, metodologik tavsifi bilan bog'liq quyidagi masalalar aniqlashtirilmog'i lozim:

– pedagogikaning nazariy tadqiqotlari samarasini oshirish;

– pedagogik tajribani o'rganish va natijalaridan foydalanish;

– pedagogik tajriba-sinov, uning mohiyati, metodikasini oydinlashtirish;

– fan yutuqlarini ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish muammolari;

– tarbiyaga yaxlitlikda yondashish, bunda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati;

– pedagogika fanini milliy va umuminsoniy tajribalar asosida rivojlantirishning metodologik jihatlari va h.k.

URDU KIROATXONA

DAVLAT ... KUTUBXONASI 1092/2

Anu shu savollar doirasidan ma'lum bo'ladiki, mavjud bilimlar bilan yashash, zamonaviy talab va ehtiyojlarga befarq qarash, mumkin emas. Bunday sharoitda tabiiyki, «tayanch» nuqta amaliyot bo'lishi lozim, ya'ni zamonaviy ta'limi holati – haqiqiy haqiqat mezoni hisoblanadi. Amaliyot ta'siri ostida nazariya ilmiy kashfiyotlarning asosiy omiliga aylanadi. Faqat keng va har tomonlama tashkil etilgan amaliyotgina faoliyatning kamchiligini va yetilmaganligini hamda ayni vaqtda pedagogik voqelikni bilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilinishi va rivojlantirishning tarixiy ahamiyati – bu ta'limning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan – **«inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi»** (23-modda) – prinsipiga amal qilgan holda insoniylikka yo'naltirilganligidir. Insoniy ustuvorlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsipi sifatida O'zbekiston Respublikasi **«Ta'lim to'g'risida»** gi qonunida ham o'z ifodasini to'liq topgan: *«Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi» (3-modda).*

Demak, bu mantiqan aytganda, **«bitiruvchi»**ni tayyorlashdan **«erkin shaxs»**ni shakllantirishga o'tishni anglatadi. Chunki erkin fikrga ega inson, ma'lumotli shaxs nafaqat ijtimoiy tizim ichida harakatlanadi, balki uni o'zgartirishda ham faol bo'ladi. U olam va odam munosabatlarini umuminsoniy qadriyatlar kontekstida qabul qiladi.

Bugun mamlakatimizda qator o'qituvchilarimiz pedagogik g'oyalar targ'ibotchisiga aylanishda, o'zlari ham bevosita targ'ibotchilik faoliyatini namoyish qilmoqdalar, tasdiqlangan dastlabki materiallar bilangina emas, balki o'zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka, mustaqillikka intilish hozirgi zamon o'qituvchisining shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurdi, endi an'anaviy o'qitish tizim o'z o'rnini milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orilgan va qat'iyan ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga bo'shatib beryapti. Pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta'lim mazmunini yiriklashtirish, natijalarini oldindan belgilash, o'qitishni psixologiyalashtirish, kompyuterlashtirish, interfaol o'qitish va tarbiya metodlari, ta'limni boshqarishga qaratilgan yondashuvlar vujudga keldi. Shu o'rinda metodologik muammolarning quyidagi yo'nalishlariga, uning alohida tomonlariga qisqacha izoh berishga harakat qilamiz.

Pedagogika predmeti va uning chegarasi

Pedagogik tadqiqot bu yo'nalishi ba'zi e'tirozlarni paydo qilishi mumkin. Chunki aksariyat ko'pchilik pedagogika predmeti va uning chegarasi allaqachon aniqlangan, deb o'ylashadi: u – **tarbiya haqidagi fandir**. Bu ta'rif pedagogikaga ko'p asrlar oldin berilgan, ma'lum ma'noda an'anaviy ta'rif deyish mumkin. Afsuski, bu izoh bugungi kun talabiga to'liq javob bera olmaydi, qator hollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta'sir doirasini toraytiradi. Gap shundaki, pedagogik adabiyotlarda **«tarbiya»** atamasining o'zi turlicha izohlanadi: *1) keng ijtimoiy – insonga o'rab turgan ijtiomiy muhit ta'siri; 2) keng pedagogik – o'quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat; 3) tor pedagogik – tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy ishlar tushuniladi; 4) birmuncha torroq – tarbiyaviy kuch yo'naltirilgan maydoncha, masalan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarini shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi – (Yu.K. Babanskiy).*

*Pedagogika ta'lim haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta'limiy faoliyat bilan shug'ullanadilar (V.V.Kraevskiy). Shunday ekan, pedagogikani ta'lim va tarbiya haqida*gi fan sifatida talqin etish to'g'ri bo'ladi. Bu o'z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotida anglatadi. Shu sabadan birmuncha aniq ta'rif quyidagicha bo'lishi mumkin: **pedagogika – bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandir.**

Ma'lumki, shaxsni shakllantirishda *irsiyat, muhit,* pedagoglarning maqsadli faoliyati, insonning xususiy faoliyati va o'z-o'zini tarbiyalash kabi omillar katta imkoniyatlarga ega. Taklif qilinyotgan ta'rif fanning mavqeini pasaytirmaydi, aksincha, uning qator afzalliklarini sanab o'tishi mumkin: birinchidan, pedagogik faoliyat o'rni shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari *(irsiyat, muhit va b.)* orasida belgilab boradi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida ta'lim va tarbiya ahamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, **«tarbiya»** atamasi qaysi ma'noda (tor yoki keng) ishlatilishini ko'rsatish zaruratidan soqit qiladi.

Shaxsni shakllantirish muammosi bilan sotsiologiya, falsafa, psixologiya, etika va boshqa qator fanlar shug'ullanishadi. Agar sosiologiya tarbiyani ijtimoiy rivojlanishning omili sifatida qarasa, psixologiya tarbiyaga shaxsni ruhiy rivojlanishi vositasi tarzida murojaat qiladi. Etika tarbiya masalalarini axloqiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan talqin etadi. Bu fanlardan farqli o'laroq, pedagogika shaxsni shakllan-

tirishning ikki tabiatini tadqiq qiladi, ularning tuzilmasini aniqlashtiradi, qonuniyatlarini ishlab chiqadi, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar texnologiyasini loyihalaydi.

Pedagogika fani predmetini aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o'zaro ta'sir doirasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu muammo hozircha umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, aslida *kadrlar tayyorlash milliy modeli* asosida ham mazmun jihatdan, ham mantiqiy bog'lanishlar jihatdan uning tavsifnomasi ishlab chiqilishi lozim.

Har bir fanning rivojlanish doirasini tadqiqotlarni tabaqalashtirish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligining xilma-xilligiga bog'liq holda muhokama qilinishi lozim.

Mustaqillik yillarida pedagogika fanlari tizimi ham birmuncha kengayib bormoqda. Bu esa pedagogika fanining o'z obyekti, predmeti, ilmiy tushunchalar tarkibi, ularning mantiqi, nazariya va amaliyot mutanosibligi kabi qator savollarni yangicha talqinda ifodalash zarurati mavjud. Boshqacha aytganda, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar pedagogikani o'rganadigan fan paradigmasini almshatirish g'oyasini vujudga keltirayapti.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta'limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funksiyasi kuchayayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini o'z predmeti sifatida qabul etish yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqeini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari surdi.

Pedagogika metodologiyasi

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik (yoki ixtiyoriy boshqa) tadqiqotlari samarli tashkil etish va yetkazish mumkin emasligini anglatadi.

Ijodiy jarayon bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya funksiyasi asosida aniqlash.

Metodologiya alohida fan sifatida ikki funksiyani bajaradi: **deskriptiv** *(ifodalovchi)* va **perskriptiv** *(me'yorlovchi).* Birinchisi – obyektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchining ishlashi uchun mo'ljal olishga shart-sharoit tug'diradi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: metodologiya ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologiya bilimlar tizimi va faoliyatlar tizimi sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asosi quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

– pedagogikani obyektiv borliqni ma'naviy o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli ilmiy asoslash;

– pedagogika sohasidagi ishlarni fanga taalluqliligini aniqlash:

– maqsadning o'ziga xosligi; maxsus tadqiqot obyektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xilligi;

– pedagogik tadqiqotlarni guruhlarga ajratish;

– tadqiqot tavsifnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazlari, himoya qilinadigan holatlar, yangiliklar, fan uchun muhimligi, amaliyot uchun muhimligi;

– pedagogik tadqiqot mantiqi;

– pedagogika fanlari tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy asos mavqeidan aniqlash.

Falsafiy nuqtayi nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va qurish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Bu yerda qaysi faoliyat haqida fikr yuritilyapti?

Ilmiy faoliyat nazarda tutilyaptimi yoki pedagogik faoliyat?

Bu savolga javobni quyidagi tahlil natija asosida topish mumkin.

Agar o'qituvchi kundagi odatiy nomahsul (**reproduktiv**) faoliyat bilan mashg'ul bo'lib, har doim o'zi o'zlashtirgan bir xildagi texnologiya bilan ish ko'rsa *«dars beruvchi»* sifatida faoliyat ko'rsatsa, bu yerda metodologiya haqida gap bo'lishi mumkin emas. Aksincha, *mahsuldor* (**produktiv**) faoliyat namoyish etib, misol uchun, ilmiy-

tadqiqiy pedagogik faoliyat ko'rsatsa yoki o'zining xususiy mualliflik o'qitish tizimini yaratsa, shubhasiz, metodologik faoliyat vujudga keladi. Keyingi holatda ikki qarama-qarshi tushuncha – *loyiha va refleksiya* – asosiy o'ringa ko'tarilyapti. Ma'lumki, har qanday mahsuldor faoliyat loyihalash ko'nikmalarini talab etadi. Ilmiy-tadqiqiy ishlarning quyidagi bosqichlari – ziddiyatlarni aniqlash, muammoni ifodalash, farazlarni qurish va h.k. – mantiqan tadqiqot loyihalash usulidir.

Amaliy pedagogik faoliyatda ham ta'lim (tarbiya) tizimlarini loyhalash ishlari amalga oshiriladi. Bunga *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»* asosida yaratilgan zamonaviy ta'lim tizimi, uni rivojlantirish konsepsiyasi *(«portlash effekti»)* misolida iqror bo'lishimiz mumkin.

Ijodiy faoliyatni tashkil etishda har doim refleksiya – loyihaning, jarayon va natijalarning doimiy tahlili muhim o'rin tutadi.

Xulosa sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi ham, amaliy pedagogik faoliyat metodologiyasi ham quyidagi uchlik yaxlitligida qurilishi mumkinligini ta'kidlash lozim:

«loyiha texnologiya (ilmiy-tadqiqiy yoki pedagogik) refleksiya» (A.M. Novikov).

Bu yondashuvlarga tayanib hamda mavjud adabiyotlar tahlili asosida pedagogika metodologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogik nazariya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo'lga kiritish bo'yicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplarini, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Chunki, birinchisi *«qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin»* degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy

savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimga qaratiladi[1].

Pedagogikaning ilmiy tili

Zamonaviy fan rivojiga bog'liq holda fan tilining metodologik masalalari ham kun tarbida turadi. Fanda tildan foydalanish muammosi ilmiy fan sifatida pedagogikani ham chetlab o'ta olmaydi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida amaliy faoliyatda va bilish jarayonida ikki asosiy vazifani bajaradi:

1) insonlar o'rtasida aloqa vositasini o'taydi

2) tafakkur shakli sifatida to'plangan bilimlarni qayd etish va saqlash, tizimlashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, til bilan qator fanlar –lingvistika, psixologiya, semiotika (belgilar haqidagi fan), falsafa shug'ullanadi. Metodologiya tilni ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni qayta ishlash, ilmiy axborotlarni to'plash va saqlash vositasi sifatida o'rganadi.

Pedagogika boshqa fanlar qatori milliy tildan ilmiy axborotlarni shakllantirish, ishlov berish, saqlash va uzatishning universal vositasi sifatida foydalaniladi.

Biz tilda turli darajadagi tushunchalarga tayanamiz. **Tushuncha** – bu predmetlarning umumiy va o'ziga xos sifatlari haqidagi fikrdir. Tushuncha asosida predmetlar o'xshashligi va farqlari aniqlanadi.

Albatta, tushunchalar mohiyatini anglashda odamlar ham bir-biridan farqlanadi. Shu boisdan milliy til so'zlari ham bir xil emas, ular amaliy faoliyatda turlicha muhimlik kasb etadi va muloqot jarayonida tekislanib, aniqlanib boraveradi.

Har qanday fan, jumladan, pedagogika ham aniq tushunchalar tizimini talab etadi. U milliy til asosida yaratiladi va ilm tili, ya'ni pedagogikning tushuncha-toifalar tizimi shakllanib boradi. Toifa tushunchadan bir bosqich yuqori turadi va ayni vaqtda o'zida ularning belgi va xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu bois toifa tushunchadir, biroq barcha tushunchalar toifa bo'la olmaydi.

Pedagogika bo'yicha ilmiy tilni shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bu fan ham boshqalari qatori hayotiy tildan ko'plab atamalarini qabul qiladi. (**«shakl», «metod», «tarbiya» va b.**). Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir.

---

[1] G.I. Saransev. Metod obucheniya kak kategoriya metodiki prepodovaniya// Pedagogika, 1998 g., №1, s. 28-34.

Shu bois mumkin qadar tushunchalarni faol ilmiy muloqot tarkibiga kiritish uchun aniqlashtirish, chegaralashga harakat qiladi.

Pedagogikada ilmiy nutqning lug'at zaxirasi yangi, maxsus terminlar va ta'riflar bilan boyib boradi: *(«pedagogik texnologiya», «innovatsiya faoliyat» va b.)*, ba'zan bunday boyish boshqa fanlar evaziga ham bo'lishi mumkin *(«boshqarish», «axborot texnologiyasi»)* yoki eski ta'riflar yangicha talqinda ifodalanadi. Misol uchun *«o'qitish metodi»* ning an'anaviy ta'rifi (belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi o'qituvchi va o'quvchi-talablarning o'zaro harakat usullari) go'yo o'zgarmaydigandek edi. Biroq Gegel ta'limotiga ko'ra, *metod harakatdagi obyektni o'rganish usulidir.* Shunga asosan, o'qitish metodiga berilgan eng so'nggi va yangi ta'rif quyidagicha: *o'qitish metodi – bu harakatdagi o'quv materialini o'rganish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning hamkorlikdagi faoliyat usullaridir.*

Foydalanilayotgan atamalarning aniq ta'rifi va maxsus pedagogik lug'atini shakllanishi pedagogika fani tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Bu fanning o'ziga xos tomoni shundaki, uning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo'lgani uchun tushunish birmuncha yengil kechadi. Shu sabali maxsus pedagogik tillar nafaqat o'qituvchi va tarbiyachiga tushunarli, balki ularni ota-onalar, o'quvchi-talabalar va keng jamoatchilik ham tez hazm qilishadi. Boshqa tomonidan odatdagi til bilan ilmiy tilning yaqinligi fan sifatida pedagogika uchun xususiy bo'lgan metodik xarakterdagi jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Maxsus pedagogik atamalar sifatida qo'llanilayotgan tushunchalar induktiv tarzda hammaga tushunarli *(ta'lim, tarbiya, o'qitish va b.)*, ular o'ta aniqlikni talab qiladigan vaziyatlarni vujudga keltirmaydi. Shu boisdan bu tushunchalar milliy tilda tavsiflangan holda turlicha ta'riflanadi va o'z navbatida aniqligini bir qadar yo'qotadi. Fikrimizning isboti uchun *«tarbiya»* tushunchasining mohiyatini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarni keltirish mumkin. Biroq tushunchalarni aniq ta'riflash ilmiy pedagogik g'oyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish pedagogikada ham kuzatiladi. Pedagogika o'z tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalaydi. Keyingi vaqtlarda pedagogik hodisalar tahlil uchun kibernetika, informatika, matematika, mantiq fanlarining tushuncha va ramzlaridan keng foydalanilmoqda.

Erishilgan yutuq bilan fan tilining rivojlanishi to'xtamaydi, u vaqt o'tgan sayin rivojlanib boraveradi. Shubha yo'qki, pedagogika fanlarining ilmiy tiliga oid metodologik savollar e'tiboridan tushmaydi, qolaversa, har bir ilmiy termin jiddiy tadqiqotlar natijalari asosida vujudga keladi. Qo'llanilayotgan atamalarning bir xilligi ma'lum ilmiy sohada hodasalarni bir xilda tushunishga imkon beradi, bilishning bugungi taraqqiyoti kecha erishilgan yutuqlarga tayanadi, ya'ni hammasini yangidan boshlashga hojat qolmaydi.

Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi

Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiy xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan, pedagogik bilimlar rivojining o'ziga xosligi bilan, uchinchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o'zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, obyektiv voqelik hodisasi sifatida tarbiyaning muhim qonuniyatlari va tamoyillarini ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagi yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish.,

2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalni o'rganish.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganish zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani obyekti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari *(metod, shakl va b.)* o'rganishga uringan holda bir narsani unuti-shadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi – bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir.

Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiy kamchiliklar:

– Mavzularning dolzarb pedagogik muammolar yechimiga qaratilmaganligi, ularda yangi, konseptual g'oyalarning yo'qligi;

– farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi;

– jiddiy xulosalarning yo'qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi;

– shablonlik (bir qolipdalilik)

– tavsiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yo'qligi va boshqa cheklaydigan asosiy omillar;

– malakaning yetarli emasligi;

– umrini yashab bo'lgan sobiq sovet pedagogikasi g'oyalaridan xalos bo'la olmaslik;

–tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalan bilmaslik va h.k.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar tashkil topgan tushunchalarining an'anaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining o'z predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni yangicha talqinda qo'ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ular qatorida:

– pedagogikada ilmiy fakt muammosi;

– tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi;

– o'qitish tarkibi, tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy asoslash;

– nazariya va amaliyot kabi fundamental tadqiqotlar ham o'z yechimini kutyapti;

Tadqiqot sifat–samaradorligi metodlarga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogik hodisalarning obyektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi. Afsuski, ularni yoritishga bag'ishlangan ishlar kam, borlari ham rus tilida, o'zbek tilida bu soha bo'yicha birorta yirik pedagogik asar yo'q

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko'ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutila-

yotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan hamkorlik o'rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va h.k.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda – metodologiyani chuqur o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik-sintetik jamlanmasi va h.k. Tadqiqotchi tafakkurining xarakteri haqidagi savol birmuncha mulohazalidir. Bu murakkab jarayonni to'liq tasvirlashga da'vogarlik qilmagan holda jihatlariga e'tiborni qaratamiz:

Obyektivlik qaralayotgan hodisa va jarayonlarning qandaydir begona, yot tadqiqot uchun muhim bo'lmagan taassurot va ta'sirlardan holi bo'lishni, narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini, undagi o'zgarishlarni xolisona ifodalashni ta'minlaydi.

Aniqlik tadqiqotning barcha mualajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va h.k.

Tanqidiylik boshlang'ich ma'lumotlarni sog'lom baholashni tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni qurishdagi shubhasiz uzluksiz va qonuniy darajasi bilan, agar ular yangi faktlarga zid kelib, dalillarni to'g'ri va chuqur tushuntira oladigan konsepsiya topilsa, ulardan voz kechish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Muayyanlik va izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligida, tadqiqot mantiqiga amal qilishda, shart-sharoitlarni hisobga olishda, ilmiy apparat tushunchalarining bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Tizimlilik o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflashga intilishda, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish, konsepsiyalarni, nazariyalarni shakllantirishda yuzaga chiqadi.

Xullas, ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi belgilashda obyektivlikni, muayyanlikni, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona chog'ishtirishni, haqiqatni bilish yo'lining to'g'riligini, tajriba natijalarini, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madani-

yatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rin tutadi.

Yuqorida ta'kidlanganlar turli soha vakillarining ilmiy tafakkuriga tegishlidir. Shu bilan birga pedagog-tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlar bilan farqlanib turadi.

Birinchidan, u yetarlicha pedagogik tajribaga ega bo'lishi, kamida besh-o'n yillik pedagogik jarayonning *«ichida qaynashi»* kerak. Shundagina, bu jarayonning siru sinoatlaridan voqif bo'ladi, uning nozik, ko'z ilg'amas joylarini topadi, muammoni anglay oladi, mavjud ziddiyatlarni shakllantiradi va yangi yechimini qidira oladi.

Ikkinchidan, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Ma'lumki shogirdni tayyorlashda kuchli shaxslar ko'magiga tayanish bizda qadimdan sinalgan usul. Ustoz o'zining zaif tomonlarini shogirdiga oshkor qilmagan holda o'zidanda kuchliroq ustoz huzuriga yuborishni lozim topgan. *Misol uchun Mashrab hurfikrlilikda tashna edi. Birinchi ustozi Mulla Bozor Oxund (XVII asr) Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloh Ofoq Hojaga jo'natadi. Sababi Bozor Oxund shogirdining fikrlashini bo'lib qo'yishi, o'zi bilmagan holda unga zarar yetkazishi mumkin edi. Natijada Mashrab Ofoq Hoja huzurida valiy bo'lib etishadi.*

Pedagogik tadqiqotchi obyektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi - talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda undan ehtiyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbiga, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur yetmasligi lozim.

Xullas, pedagogik voqelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'lom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart ekan.[1]

Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar pedagogik tadqiqotlarning asoslarini belgilashda pedagogikaning metodologik muammolarini umumnazariy muammolar bilan almashtirib, *«statistik metodologiya», «pedagogik metodologiya»* kabi ifodalarda noto'g'ri talqin qilayotgan hollarga duch kelinmoqda. Sababi falsafa fanigina metodologik baza hisoblanadi, uning barcha bo'limlari, tushunchalar, qonuniyatlari, toifalari metodologik ahamiyat kasb etishi e'tirof qilingan. Shu bilan birgalikda filosofiyani metodologiya bilan to'liq almashtirish ham

[1] N.Saidahmedov. Zamonaviylik, metodologiya, pedagogika.//UZLUKSIZ TA'LIM, 2004-yil 2-son, 17-26-betlar.

yaramaydi: metodologiya – bu boshdan - oxir filosofiya emas, balki uning asosiy funksiyalarini, ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Shunday qilib, hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi filosofiyadir. *Filosofiyaning bosh masalasi esa obyektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mavjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning yetakchi mavqeini qadimdan faylasuflar tan olishgan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida pedagogik fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika fanining metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy filosofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi.*[1]

1.4. PEDAGOGIKA FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TARMOQLARI

Pedagogika fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, ta'lim mazmuni va tarbiyaning kelgusidagi istiqbollari, yo'llari va usullarini ko'rsatib boradi. Pedagogika fanida bir-biri bilan bog'langan asosiy tushunchalar mavjud bo'lib, quyida ularning ayrimlarini sharhlaymiz:

Tarbiya – o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda, kasb-hunar kollejlarida, oliy ta'lim muassasalarida va jamoatchilik ta'sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni **bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan, ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.**

[1] N.Saidahmedov. Pedagogika fani metodologiyasi xususida. // Xalq ta'limi, 2000-yil 1-soni, 34-37-betlar.

Bilimni hayotda ko'p samara beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

Ko'nikma – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va o'quvchi - talabalarda ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

Malaka – o'quvchi-talabalarning bilim egallash va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o'qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo'lishdir.

Umuman, iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Mahorat – turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutlaq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir.

Odob - axloq – shaxsning o'ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sabab tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

Shaxs – jamiyat a'zosi sifatida, o'z-o'zining anglashi va tafakkur faoliyatining obyektivligi, muloqotda hamda kamolotga yetishida nasl (irsiyat) biologik, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning axloqiy sifatlari – shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo'ladi: bilag'onlik, obyektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va h.k. hisoblanadi.

Shaxs shakllanishi – inson bioijtimoiy mavjud bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot – tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni shaxsning shakllanish jarayoni. Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yetakchi o'rinni egallaydi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni,

shuningdek, o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Shaxsning har tomonlama kamolga yetishi – ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil qiladigan hamma kuchlarni to'liq rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik muhit – ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (*o'qituvchi – o'quvchi – talabalar orasidagi*) munosabatlar majmui.

Ijtimoiy muhit – kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi va shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o'zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitish.

Ichki muhit – shaxsning o'ziga xos hayotiy faoliyati, xarakterning o'ziga xosligi, hayotiy tajriba va irsiy tafakkur ko'nikmalari majmui, odatdagi ruhiy holatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va voqelikka munosabatlarning o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to'ldirishi va boyitishi.

Irsiylik – shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, ota-ona tomonidan irsiy birliklar orqali o'tadigan birliklar.

O'z-o'zini anglash – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtayi nazaridan baho bera olishi.

Faoliyat – qandaydir shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsad sari yo'naltirilgan harakat.

Ta'lim-tarbiyaning insoniyligi – pedagogik jarayonni, ya'ni ta'lim-tarbiya beruvchi bilan o'quvchi-talabalar orasidagi pedagogik munosabatlarni o'ta insoniy (o'zaro izzat-hurmat va muhabbat) ruhida amalga oshirish.

Ta'limni demokratlashtirish – muayyan jamiyat va konkret shaxs ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqib, ma'lum bilimlar turi va hajmini erkin holda tanlab olish.

Tizim – *(yunoncha «sistema»)* so'zidan olingan bo'lib, bo'laklardan hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.

Pedagogika fani uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga olgan tarmog'iga aylandi va o'zining ilmiy-

nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada bularning barchasi pedagogika fanining alohida tarmoqlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan, **pedagogika tarixi** mustaqil tarmoq sifatida, pedagogika fanining tarixan rivojlanishini o'zida aks ettirdi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning bugungi kundagi ahamiyati, mutafakkirlarning pedagogik merosidan foydalanish zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Pedagogika tarixi pedagogik ta'limotlar tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etib, pedagogik g'oyalarning salbiy pedagogik g'oyalarga qarshi kurashi tarixini, hukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar, hur fikrlar, ta'lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi.

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero, o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni, shuningdek, hamma fuqarolarni tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshlariga va kasbiy omilkorligini shakllantirishga qaratilgan **maktabgacha ta'lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, yoshlar pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, menejment pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi, harbiy pedagogika, iqtisodiy pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va boshqa tarmoq pedagogikalari vujudga keldi.** Bu tarmoq pedagogikalari maktabgacha, umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi.

Bulardan tashqari **defektologiya** deb ataluvchi maxsus pedagogika: **surdopedagogika** (kar va soqov), **tiflopedagogika** (ko'zi ojiz); **oligofrenopedagogika** (aqliy rivojlanishdan orqada qolgan); **logopediya** (nutqi yaxshi rivojlanmagan) tarbiyalanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanadi.

18-shakl

Pedagogikaning asosiy tarmoqlari



Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rgatishning qonuniyatlarini o'rganuvchi **metodika,** ya'ni **uslubiyat** fanining xizmatlari beqiyosdir.

1.5. PEDAGOGIKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. *«Falsafa»* fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni his qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanish qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziiologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi mustaqillik sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirish O'zbekiston hukumatining qarorlarida, mustaqil O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, nutqlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turgan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy zaruriyatdan kelib chiqqan holda, yoshlarga pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta, ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta'lim nazariyasini, ta'lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyidagi tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarining ko'pligi ko'zga tashlanib turadi:

19-shakl



Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda, yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga

muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasidagi tarbiyalanuvchilarning xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning psixologiyasini chuqur o'rganishda bir qator metodlarni qo'llashi mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. **Adabiyotlarni o'rganish metodi.**
2. **Pedagogik kuzatish metodi.**
3. **Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan).**
4. **Pedagogik so'rash metodi.**
5. **Test sinovlari metodi.**
6. **Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.**
7. **Eksperement-tajriba-sinov metodi.**
8. **Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi.**
9. **Matematika va kibernetika metodi.**
10. **Modellashtirish metodi.**

20-shakl



Ta'lim metodlarini tanlash bilan bir qatorda o'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o'rganishi hamda tahlil qilishi shart.

Adabiyotlarni o'rganish metodi – tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogika, psixologiya, madaniyat, iqtisod, siyosatga doir adabiyotlar va dissertatsiyalar o'rganishda qo'llaniladi.

Pedagogik kuzatish – odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Suhbat metodi – so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan, bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat metodi – ta'lim muassasasi o'qituvchilari va o'quvchi-talabalar jamoasi hamda ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko'p metodlari mavjud:

– guruhlar bilan;
– intensiv;
– sinash va h.k.

Pedagogik so'rash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni *(«ha», «yo'q»)* ham taqozo etishi mumkin.

Test sinovlar metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada, tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga,

to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi – bunda o'quvchi-talabalarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o'quvchi-talabalarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinf yoki kursidan qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, ta'lim muassasasining moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Eksperiment-tajriba-sinov metodi – ushbu tajriba asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi – ta'lim sohasiga, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'quv binosi qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika metodlari – o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta'lim berish, ta'lim-muassasasi hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlardir.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta'lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabhalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mas'uliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo'lgan metodlardan biridir. Zero, shaxs tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Pedagogika – yunoncha **«pedagogos»** atamasidan kelib chiqqan bo'lib, **«bola yetaklovchi»** degan ma'noni bildiradi. Qadimgi Yunonistonda quldorlarning farzandlarini o'quv muassasasiga olib boradiganlarni **«pedagogos»** deb atashgan. Keyinchalik bu atamaning ma'nosi birmuncha o'zgaradi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va tarbiya bilan shug'ullangan shaxslar **«pedagog»** deb atala boshlangan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh avlodning

tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti faqat yoshlar tarbiyasigina emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham hozirda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagilarni ham o'qitish va tayyorlash, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

Pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanguncha uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarni yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarini o'z ichiga olgan tarmog'iga aylandi. Bularning barchasi pedagogikaning alohida tarmoqlarga ajralishiga sabab bo'ldi.

Milliy pedagogika – muayyan davlat Konstitutsiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonunlari hamda istiqbolli rivojlanish dasturi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, xalqning milliy-ma'rifiy merosi va ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan jahon miqyosidagi yutuqlar asosisida shakllangan hamda millatning muayyan tarixiy rivojlanish jarayonidagi talablariga javob beruvchi ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va usullarini ifodalovchi ilm-fan majmuidir.

Pedagogikaning asosiy tushunchalari – pedagogika fani ham boshqa faoliyat sohalari singari o'zining maxsus tushunchalariga ega, ilmiy tilda uni pedagogik **kategoriyalar** deyiladi.

Pedagogik faoliyat – jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yoshlarni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon – o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalar, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish-o'rganish, tarbiyalash jarayonida kechadigan munosabatlar tizimi.

Metod – maqsadga etishishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir-choralar yoki usullar majmuidir.

Metodika – maqsadlarga etishishda qo'llaniladigan metodlar tizimidir.

Metodik asos – shaxs maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo'lib, xizmat qiladigan maqsad ko'rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuidir.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogika fanining predmeti va obyektini izohlab bering?
2. Pedagogika fanining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari (kategoriyalari)ni tushuntirib bering.

3. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan Sharq mutafakkirlarining qaysi asarlarini bilasiz?
4. Pedagogik metodologiya nima?
5. Pedagogika tarmoqlari qaysilar?
6. Milliy pedagogikani yaratish zaruriyati nimada?
7. Mafkuraviy tarbiya nima?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Pedagogikaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Pedagogik fanlar majmui va uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Pedagogika faning metodologik asoslari.
4. Milliy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.
5. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika fanining o'rni.
6. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik asoslari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. «Pedagogika» atamasining aynan ma'nosi nima?
a) grekcha, ta'lim-tarbiya jarayoni;
b) ruscha, pedagog-o'qituvchi;
c) yunoncha, «pedagogos» bola yetaklovchi;
d) o'zbekcha, bolashunoslik;
e) yunoncha, «donishmandlar suhbati».

2. Mutafakkir pedagoglardan qaysi biri ta'lim va tarbiyani aniq ta'riflab bergan?
a) Abu Nasr Forobiy;
b) Alisher Navoiy;
c) Yan Amos Komenskiy;
d) Abdulla Avloniy;
e) Behbudiy.

3. Qanday shaxslarni pedagog deb atashgan?
a) ota-onani;
b) maxsus tayyorlangan o'qimishli donishmandlarni;
c) tarbiyachini;
d) bilim beruvchini;
e) ta'lim-tarbiyaga rahbarlik qiluvchini.

4. Pedagogikani fan sifatida qaysi mutaffakkir aniq va tushunarli qilib ta'riflagan?
a) Al-Xorazmiy;
b) Abu Rayhon Beruniy;
c) Yan Amos Komenskiy;
d) Abdulla Avloniy;
e) A.C.Makorenko.

5. «Maktab» atamasining ma'nosini to'g'ri ta'rifini toping.
a) «maktab» yunoncha so'z bo'lib, «bo'sh vaqt, mehnatdan dam olish»;
b) «donishmandlar» bilan suhbat;
c) ta'lim-tarbiya maskani;
d) muloqot;
e) o'qish-o'rgatish.

6. «Al-hosil, bizlar uchun yo hayot–yo mamot, yo najot–yo halokat, yo saodat–yo falokat masalasidir...», degan dono fikrlarning muallifi kim?

a) Fitrat;
b) Behbudiy;
c) Abdulla Avloniy;
d) Sadriddin Ayniy;
e) Abdulla Qodiriy.

7. Tarbiya qaysi faoliyat mahsuli hisoblanadi?

a) mehnat;
b) o'qish;
c) ko'nikma;
d) malaka;
e) tajriba.

8. «Ta'lim va tarbiya egizakdir» iborasining muallifi kim?

a) Rudakiy;
b) Behbudiy;
c) Abdurahmon Jomiy;
d) Alisher Navoiy;
e) Xisrav Dehlaviy.

9. Pedagogika fanining maxsus tarmog'i qanday ataladi?

a) defektologiya;
b) tiflopedagogika;
c) oligofrenopedagogika;
d) surdopedagogika;
e) barcha javoblar to'g'ri.

10. Qaysi fan pedagogikaning metodologik asosi hisoblanadi?

a) psixologiya;
b) falsafa;
c) sotsiologiya;
d) tarix;
e) pedagogika tarxi.

11. Pedagogika fanlari tarmoqlarida birinchi o'rinda qaysi pedagogika tarmog'i turadi?

a) umumiy pedagogika;

b) maktabgacha ta'lim pedagogikasi;

c) maxsus pedagogika;

d) kasb-hunar ta'limi pedagogikasi;

e) oliy ta'lim pedagogikasi.

12. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy tadqiqot metodlari yetakchi hisoblanadi?

a) pedagogik kuzatish va so'rash metodlari;

b) test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;

c) eksperement – tajriba – sinov metodlari;

d) matematika – kibernetika metodlari;

e) barcha javoblar to'g'ri.

13. Jamiyat mafkurasi nima?

a) inson manfaatlarini ifoda etuvchi, bexatar, tinch-totuv, farovon turmushga yo'llovchi manba;

b) muqaddas an'analarimizni anglash;

c) xilma-xil fikrlar va g'oyalarni bir bayroq ostiga birlashtirish;

d) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

e) fikrlar xilma-xilligi va hurfikrlik.

14. Milliy mafkura vositasida nimaga erishiladi?

a) el-yurt birlashadi;

b) iqtisodiyot rivojiga erishiladi;

c) ma'rifatga erishiladi;

d) barqarorlikka erishiladi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

15. Komil inson g'oyasi nima?

a) komil inson g'oyasi – odamzodga xos yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni ezgulikka undaydigan olijanob g'oya;

b) komillik – mehr – muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir;

c) komil inson g'oyasi azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan;

d) komil inson – qullik, mutelik, boqimandalikdan butunlay xolos bo'lgan, o'z maslagi, vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydigan, ogoh va faol insondir;

e) barcha javoblar to'g'ri.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iboratligini izohlab bering.

№	Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Izohi
1	2	3

2. Tarbiya nima?

№	Tarbiya tushunchasi	Izohi
1	2	3

3. Ta'lim nima?

№	Ta'lim tushunchasi	Izohi
1	2	3

4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntirib bering?

№	Falsafa	Psixologiya	Sotsiologiya	Fiziologiya	Boshqa fanlar aloqadorligi
1	2	3	4	5	6

5. «Metod», «metodika» va «metodologik asos» tushunchalarini izohlab bering?

№	Metod	Metodika	Metodologik asos
1	2	3	4

«Metodologiya» nima?

№	Metodologiya tushunchasi	Izohi
1	2	3

6. Pedagogikaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?

№	Asosiy pedagogik tushunchalar	Izohi
1	2	3

7. Ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llashning ahamiyatini tushuntirib bering?

№	Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari	Izohi
1	2	3

8. Pedagogika fanining tarmoqlarini tushuntirib bering?

№	Pedagogika fanining tarmoqlari	Izohi
1	2	3

9. Ta'lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?

№	Ta'lim	Tarbiya
1	2	3

10.Komil inson deganda nimani tushunasiz?

№	Komil inson	Tushuncha
1	2	3

11.Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik asoslarini izohlab bering?

№	Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik asoslari	Izoh
1	2	3

II BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA JAMIYAT TARAQQIYOTI

II bob. PEDAGOGIKA NAZARIYASINING JAMIYAT VA SHAXS TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

2.1. IJTIMOIY-PEDAGOGIK JARAYONLAR JAMIYAT VA SHAXS TARAQQIYOTINING OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

Xalqaro terrorizm, hududiy mojarolar va urushlar, siyosiy qarama-qarshiliklar, millatlararo, konfessiyalararo mojarolar, «madaniyat, mentalitetlar urushi», ekologik tanglik, ekologik halokat xavfi, «inson – jamiyat – tabiat» tizimidagi keskinlik, giyohvandlik va narkotik moddalar bilan savdo-sotiq qilish, millat genofondi va salomatligi, jamiyatdagi qonunbuzarlik va jinoyat, ijtimoiy beto-qatlik, yoshlarning ma'naviy-axloqiy yo'nalganligining yo'qotganligi, «ommaviy madaniyat» tomonidan xalqning urf-odatlari, eng yuksak orzu-umidlari, ma'naviy-axloqiy va madaniy-tarixiy umuminsoniy qadriyatlarning siqib chiqarilishi – mana uchinchi ming yillikda insoniyat duch kelgan va inson hamjamiyatiga tahlika solayotgan eng muhim muammolarning ba'zi ko'rinishlari.

Bunday holda savol tug'ilishi tabiiy: **bunga ta'limning nima aloqasi bor? Ta'lim qanday qilib mamlakat xavfsizligini ta'minlashi, masalan, xalqaro terrorizm bilan kurashishi mumkin? Nahotki jahonda terrorizmning keng quloch yoyishida ta'lim aybdor bo'lsa va axir, kechayotgan salbiy jarayonlar uchun ta'lim mas'ulmi?**

Qolaversa, mamlakat xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus, siyosiy, iqtisodiy, kerak bo'lsa harbiy uslublar mavjud-ku! Mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini yoki harbiy qudratini oshirish uchun ijtimoiy tanglikdan qutilish, iqtisodiy tajovuzlarga barham berish va hokazo kabi maxsus xarakterdagi tadbirlarni tashkil etish orqali xavfsizlik ta'minlanadi.

So'zsiz, terrorizm bilan barcha mumkin bo'lgan usullar, shu jumladan, kuch ishlatish va harbiy metodlar bilan kurashish kerak.

Ammo ekstremistik ong va inson fe'l-atvori, ijtimoiy tanglik, siyosiy, milliy, diniy murosasizliklarning sabablarini teranlikda izlash judayam muhim; maxsus ilmiy fanlar va keng ko'lamdagi fanlararo aloqalarga oid ilmiy izlanishlar doirasida XXI asr tajovuz va undashlarining oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Bunday mexanizmlar qatoriga, biz bunga to'la aminmizki, pedagogika nazariyasi fani tashkil etuvchilari bilan birgalikda kiradi. Aynan shu asosda pedagogika nazariyasi va ta'lim tizimi, mazmuni va tashkil etilishi orqali qo'yilgan vazifalarga javob qidirish lozim.

Ammo shubha ostida qarovchilar e'tiroz bildirishlari mumkin, nahotki eng yaxshi ta'lim tizimi mavjud ahvolni o'zgartira olishi va kelajakka ta'sir ko'rsata olishi mumkinmi?

Isbot talab qilmaydigan haqiqat shuki: **barcha kishilar, vazirdan boshlab, to oddiy fuqarogacha ta'lim tizimi mahsulidir.**

Biz kimni va qanday tarbiyalayapmiz va o'qitayapmiz? Qanday ma'naviy-axloqiy ideallar va qadriyatlarni, qanday dunyoqarashni shakllantirayapmiz? Jamiyat kelajagi uchun har birimizga qanday mas'uliyat chora-tadbirlarini yuklayapmiz. Yoshlarimizda fidoiylik, vatanparvarlik, g'urur, ishonch tuyg'ulari shakllanyaptimi? Bu va shunga o'xshash savollarga javoblar har tomonlama ta'lim tizimi, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishi natijalariga, ularning intellektual, axloqiy, ma'naviy sifatlariga bog'liq.

Rivojlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati taraq-qiyotiga mos yangi ijtimoiy ongni shakllantirish, ma'lumki, ikki asosiy faktor ta'sirida sodir bo'ladi: bevosita ijtimoiy amaliyot va aniq maqsad sari yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni. Har bir inson bevosita ta'lim tizimi, ijtimoiy tarbiya va rivojlanish, kasbiy shakllanishi jarayoni orqali shaxs bo'lib kamol topadi. Natijada, u ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lganida, ijtimoiy rollarni egallaganida, o'zining qiziqishi va mas'uliyatini ijobiy idrok qila olganida, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mus-taqil munosabatlar o'rnata olganida shaxsning ijtimoiylashuvi ro'yobga chiqadi.

Aynan ta'lim bizning kelajagimiz uchun «mas'ul», aynan ta'-lim «hozirgi davrda kelajakning o'ziga xos yulduzi bo'lib hisob-lanadi. Bu shuni anglatadiki, **«ta'lim jamiyatda nima bo'layotganligi»**

va «kelajakda nima sodir bo'lishi»da nafaqat «rol o'ynaydi», balki «mas'ul»dir.

Tarbiyaviy va pedagogik faoliyat – uzviy hamda mohiyatan, har bir oilaning, jamiyatning bosh maqsadi bo'lib, har bir kishining oldida esa o'qish va butun umri davomida o'z ma'lumotini oshira borish vazifasi turadi. Bundan quyidagi xulosaga kelish qiyin emas: **jamiyatni keng ko'lamda pedagogikalashtirish, pedagogik g'oyalarni jamiyatning barcha jabhalariga kirib borishi uchun maxsus chora-tadbirlar ko'rish va shart-sharoitlar yaratish zarur.** Bu degani, jamiyat nafaqat ta'lim makoni, balki o'zining **«ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari»**ni ham bajarish uchun mas'ul demakdir. Biroq bu – maxsus tahlil predmeti.

«Ta'lim va jamiyat», «ta'lim va davlat», «ta'lim va shaxs», «jamiyat va shaxs», «davlat va shaxs» – bu sanab o'tilgan tushunchalar, ya'ni kategoriyalarning bir-biriga o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi, mamlakat fuqarolarining barkamol avlodini shakllantirishda ularning «mavjud bo'lishi va rivojlanish strategiyasi va siyosati **Kadrlar tayyorlash Milliy model**ida aniq belgilangan va ko'rsatilgan.

So'zsiz, ta'lim tizimi jamiyatdan tashqarida mavjud emas va mavjud bo'lishi mumkin ham emas, u o'ziga xos **«jamiyat ko'zgusi»**, uning davomi va ajralmas qismi va shu vaqtning o'zida **«taraqqiyot va gullab-yashnashining poydevori»**dir.

Shuningdek, **Kadrlar tayyorlash Milliy modeliga** singdirilgan bosh maqsad – ravnaq topayotgan, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qilishi lozim bo'lgan g'oyaning qudratli salohiyatini anglamoq va tushunmoqdir. Bu o'z navbatida, ushbu salohiyatni qanday, qaysi yo'l bilan hayotga joriy etish bilan bog'liq ko'plab savollarga javob topish imkonini beradi. Respublikamizning **«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»** aslida Kadrlar tayyorlash Milliy modelini asosi, vosita va mexanizmidir. **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturi** istiqlol g'oyasining ajralmas tarkibiy qismi, O'zbekiston fuqarolarining yangi barkamol avlodni shakllantirishning asosiy poydevori ekanligini ham unutmasligimiz kerak. **Kadrlar tayyorlash Milliy modelining** eng muhim xususiyatlaridan biri, unda bosh maqsadga erishish yo'lidagi davlat, jamiyat va shaxsning manfaatlari uzviy ravishda bir-biriga chambarchars bog'lanib ketganligidadir.

Shaxs modelining izchilligini va yaxlitligini ta'minlaydigan asosiy element bo'lib, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida aytilganidek, **«Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi o'zga-**

rishlarning bosh maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi, bu inson omili, uning har tomonlama rivojlanishi va farovonligidir» degan qoidaning asosiy mohiyatini tashkil etadi. **Kadrlar tayyorlash Milliy modelida** va dasturida tub o'zgarishlarning asl maqsadi, ta'lim tizimini isloh qilish tufayli ro'y beradigan barcha o'zgarishlarning asosiy va bosh yo'nalishi, ayni vaqtda bu jarayonlardagi davlat va jamiyatning o'rni va vazifalari aniq ravshan ko'rsatib berilgan: **«Shaxsning har tomonlama rivojlanishini, uning zamonaviy o'zgarib borayotgan jamiyat hayoti bilan muvofiqlashtirish ta'limiy va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va ularni bosqichma-bosqich o'zgartirish, jamiyat, davlat va oila oldida o'zining mas'uliyatini his qiladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat».**

Maqsad shuki, ta'limni tashkil qilish, boshqarish borasida o'tkazilayotgan islohotlar, ta'limiy va kasbiy dasturlar – tarbiyaviy-ma'rifiy loyihalarning mohiyatini belgilash, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni tanlash kabi bu tizimning asosiy vazifasi, ya'ni ta'limning davlat, jamiyat va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali barkamol shaxsning shakllanishiga yo'naltirilgan **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli**ning bosh maqsadini anglab borish, modelning strategik g'oyalari va talablariga qabul qilinajak qarorlarning mos bo'lishiga erishishdir. Shu o'rinda Milliy modelning asl mohiyati va bosh maqsadi, yoshlarga shunchaki bilim berish emas, balki ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish ekanligini unutmaslik kerak. Xo'sh? Milliy model asosida shakllangan shaxs qanday sifatlarga ega bo'ladi? degan savol tug'iladi. Shaxsning ma'lumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida ilk iz qoldiradi. Novatorlik takliflari, ixtirolari sohasidagi muvaffaqiyatini ifodalab, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb sohibi, o'tkir qobiliyatli, iste'dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi. Shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichi – subyektdir. Bu kamolotga erishuv va ijtimoiy-siyosiy yetuklikni namoyish qilishdir. Yetuk mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy-tarixiy fikrlovchilar, siyosatchilar, davlat rahbarlari subyekt bosqichida faoliyat ko'rsatadilar. Shuning uchun ushbu vaziyat ommaviyligiga erishish jamiyat taraqqiyotining tezlashtirib, fidoiy, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.[1]

[1] B.Xidirov. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va shaxs kamoloti.//UZLUKSIZ TA'LIM, 2003 yil 3-son 9-10-betlar.

Darhaqiqat, Prezident I.A.Karimovning eng nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri YUNESKOning Ibn Sino nomidagi Oltin medali bilan mukofotlanishi, jahonning qator obro'li ta'lim va ilmiy markazlarining faxriy doktori va professori etib saylangani ham Kadrlar tayyorlash Milliy modeli asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro e'tirofiga yorqin dalildir. Har tomonlama yetuk, shakllangan, komil inson g'oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Har tomonlama shakllangan shaxs to'g'risida tasavvuf tariqatlari, ilmiy maktablari bir qancha ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lganlar, shuningdek, bu borada jahon insonparvarlik g'oyalari bilan qurollangan allomalarning izlanishlari alohida o'rin egallagan.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy-tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu darajadagi shaxsning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuksak aql zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik; xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatini oqilona baholash va o'zgalarning ham xuddi shunday darajaga erishuvi; sohaga oid qobilyat va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash; har bir ixtisoslikka oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish; ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining yuksak bosqichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan xarakterlanadi; uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik; har tomonlama rivojlangan shaxsning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy yetuklik, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ko'rinishlariga oqilona yondashishni ta'minlaydi.

Umuman, **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli**ning boshqa ta'lim modellaridan mutlaqo farqi ham aynan shundadir. Hozirgi kunda ham ushbu jihat islohotlarning yangi bosqichiga oid me'yoriy-huquqiy va

uslubiy hujjatlarni tayyorlash, qarorlar qabul qilishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, ta'lim va jamiyat ajralmasdir!

Bu, mohiyatan, bir tizim. Shuning uchun jamiyatda sodir bo'lgan har bir ahamiyatga molik muammo, so'zsiz, ta'lim makoni holatiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat va jamiyat ta'lim tizimi rivojlanishining *kafolotidir*, ular ta'lim makonidagi taalluqli siyosatni amalga oshiradi, uning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu «ta'lim–jamiyat» tizimidagi «o'zaro harakatlar oqimi»ning birinchi yo'nalishidir.

Ikkinchi – har tomonlama rivojlangan, hozirgi zamon talablariga moslasha oladigan, jamiyat, davlat va oila oldida turgan o'z mas'uliyatini ongli his qiladigan fuqarolarni tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimida, jahonning rivojlangan mamlakatlari hamjamiyatining teng a'zosi bo'lish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qodir har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdir.

Ta'lim tizimida barkamol insonni shakllantirish bilan jamiyat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga erishish – bu davlat, jamiyat, shaxsning bugungi va kelajagi oldida turgan bosh vazifadir.

Ravshanki, kasbiy tayyorgarliksiz, yetuk ma'lumotsiz, ma'naviy va axloqiy boyliklarsiz iqtisodiyotda, ijtimoiy va ma'naviy sohada bir so'z bilan aytganda, davlat va jamiyatda taraqqiyot bo'lishi qiyin. Boshqacha aytganda, hozirgi sharoitda milliy mustaqillik g'oyasi va **Kadrlar tayyorlash Milliy** dasturi asosida ta'limni rivojlantirish, uni takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, dolzarb yo'nalishlarni bajarishga mas'uliyat bilan yondashmoq lozim deb hisoblaymiz.

Davlat va jamiyat ta'lim tizimini isloh qilishning tashabbuskori va kafolotchisi sifatida, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, rivojlangan demokratik davlatlar tajribalari, xalqning madaniy-tarixiy va umuminsoniy qadriyatlari, an'analari, fan, madaniyat, texnika texnologiyalar asosida quyidagilarni belgilab bergandi: *uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining istiqboldagi maqsad va vazifalari, barkamol shaxsni, O'zbekiston fuqarolarining yangi avlodini shakllantirishga qaratilgan; ta'limning davlat, ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlari; ta'lim va kadrlar tayyorlash me'yori va sifatiga talablar; ta'lim turlarining uzluksizligi va uzviyligi; ta'limiy-kasbiy dasturlarni e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonini va mazmunini*

tashkil qilishga bo'lgan talablar; ta'lim tizimini moliyaviy va yetuk pedagog kadrlar bilan ta'minlash, mazkur soha pedagoglari va xodimlarini rag'batlantirishning zarur va yetarli shart-sharoitlari; ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'zaro harakatlarining shakl va mexanizmlari, ularning talab qilingan ta'lim natijalariga erishishdagi huquq - burchlari va shu kabilar.

Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga mos ravishda mamlakat rivojlanishining hozirgi bosqichida **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturini** hayotga joriy etish bo'yicha ta'lim sohasiga nisbatan o'zlarining vazifalarini amaliy jihatdan bajardilar.

Xo'sh, ta'lim tizimi bunga qanday «javob» berdi? U jamiyatga nisbatan o'zining vazifalarini bajarish uchun hamma ishni bajara oldimi?

Umuman olganda, ta'lim sohasi xodimlari jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini ongli ravishda tushunib yetdilarmi, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rildimi?

Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatishi, XXI asr xurujlariga barham berish talablariga to'laqonli javob berishi uchun ta'lim jarayonini, zarur holdagi mazmun bilan to'ldirishni qanday tashkil qilish mumkin?

Qo'yilgan savollarga berilgan to'g'ri javob ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jamiyatning ma'naviy-axloqiy, madaniy yangilanish sur'atlari va yo'nalishlarini, yoshlarimiz ongida mustaqillik g'oyasining shakllanishini belgilaydi.

Umuman olganda, ta'lim sohasi xodimlari va ta'lim tizimi ertangi kun vazifalarini hal qilishga tayyormi? Yaqin istiqboldagi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, jamiyatning ma'naviy yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasining hayotga faol joriy etilishi mamlakatning ildam qadamlar bilan rivojlanishini ta'minlamoqda.

Shu ma'noda aniq maqsadga qaratilgan dasturlar majmuasida ustuvorlarini aniqlash, ularni amalga oshirgan tadbir va mexanizmlarini ishlab chiqilganligi bugungi kunda o'z natijasini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan **Kadrlar tayyorlash milliy modeli** va dasturini joriy qilishda,

strategik harakatlarning asosiy yo'nalishini belgilab olinishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Binobarin, islohot jarayonida tegishli o'zgarish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatlari ***Milliy model – «Islom Karimov modeli»***ning mohiyatida mujassamlangan, shuningdek, o'zaro aloqada bo'lgan modelning tarkibiy qismlarini makon va zamonda dinamik o'zgarishi – konkret siyosiy va ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlar belgilanganligi, modelning tashqi omillar (vositalar) bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lishi kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar yaratilishiga imkon berdi. Shu bois Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturi ro'y berayotgan jarayon va hodisalarning har tomonlama va chuqur hal etilishiga imkon tug'dirdi.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli – bu dinamik hodisa. Davlat va jamiyat rivojlanishining ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan aniq bosqichida u o'zining asosiy parametrlarini ***(ta'limning maqsad va vazifalari, erkin fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga yo'nalganlik va boshqalar)*** saqlagan holda aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashgan holda zaruriy o'zgarishlar kiritildi. Bu hodisalarga olib kelgan sabablarning namoyon bo'lishi esa o'z navbatida kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanish jarayonini samarali boshqarish imkonini berdi.

Milliy modelning amaliy tatbiqiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyat va parametrlar tadqiqi kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishi istiqbollarini belgilash imkoniyatini berdi. Bunday holda kadrlar tayyorlash tizimi tarkibi va tuzilmasiga uning rivojlanishi jarayonida o'zgarishlar kiritish imkoniyatlari tug'ildi.

Agar, **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturini** tatbiq etishning *nihoyasiga yetgan birinchi bosqichi,* asosan, strategik rejadagi vazifalarni hal qilgan bo'lsa, *ikkinchi bosqich* – bu belgilangan ta'lim sifatini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonining milliy dastur, uning maqsad va vazifalarini bajarishga erishildi.

Ikkinchi bosqichda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi davomiy hamkorlik va birdamliklari ta'minlandiki, bu kadrlar tayyorlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga jamiyat taraqqiyotida inson resursining o'rni va ta'sirining ahamiyatliligini ko'rsatadi.

Insoniyat XXI asrda duch keladigan muammolarni hal qilishi sharoitida ta'limga jamiyatning dunyoqarashini belgilash vazifasi yuklatiladi, u jahon madaniyati qadriyatlari va ideallarini asrab-avaylashga

jalb qilinadi. Buning uchun barcha intellektual kuchlarni jalb qilish, ta'lim muassasalari va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatining eng maqbul mahalliy va xalqaro tajribalarini o'rganish va foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim – mamlakatdagi demokratik va bozor iqtisodiyotining amalga oshirilishida asosiy omil va mexanizmlardan biri sifatida ko'rilishi hamda qo'llanilishi lozim.

Muvofiqlashtirilgan vazifalarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda **uzluksiz ta'limning davlat, jamiyat va shaxs** oldidagi tarixiy vazifasi va majburiyatini bajarishdagi quyidagi ustuvor jihatlarini alohida hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

O'sib kelayotgan avlod ongida milliy istiqlol g'oyasi tamoyillarini shakllantirish mas'uliyati. Milliy g'oya – yuksak ijtimoiy maqsad bo'lib, jamiyatni jipslashtiradi va safarbar etadi, jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari va guruhlari, harakatlar va siyosiy partiyalar, O'zbekistonning butun xalqini birlashtiradi.

Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohada strategik jihatdan ustuvor rejalarni amalga oshirish, jamiyat hayotini ma'naviy yaxshilash – mamlakatni rivojlantirishning asosiy omili bo'lib, u oliy maqsad – *«Vatan mustaqilligi va ravnaqi, xalq farovonligiga erishish uchun asos hisoblanadi».*

Qonunlar, o'rnatilgan me'yor va qoidalar, davlat va jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqalari prinsipi va mexanizmlari asosida faoliyat ko'rsatuvchi har bir jamiyatning o'z mafkurasi bo'ladi. Shaxs huquqi va erkinliklari, a'zolarining majburiyatlari qonunan belgilangan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatida mafkura – ijtimoiy manfaatlarni harakatlantiruvchi kuch, jamiyat va shaxs maqsadlarini amalga oshirish vazifasini bajaradi.

Tarixan ma'lumki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tishda jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy sohada hamda umumiy ongni shakllantirishda ko'pgina muammolarni hal etish talab qilinadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin xalqning asl maqsadi va orzulariga to'g'ri kelmaydigan kommunistik mafkuradan voz kechildi.

Jamiyatda tabiiy ravishda yangi g'oyalar, ilg'or fikrlar, taraqqiyotga eltuvchi mafkuraga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu ehtiyojni tushunib yetmaslik yoki e'tiborga olmaslik oqibatida mafkuraviy bo'shliq hosil bo'lishi va bu bo'shliq xalqqa yot g'oyalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Bunday mafkuraviy tahdid odatda g'oyaviy chalkashliklar mavjud bo'lgan joyda kuchayadi. Aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbini egallashga urinishlari ortadi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mafkura, ma'naviyat ma'rifat, milliy ta'lim-tarbiya yo'nalishi ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Biroq yangicha dunyoqarash, ijtimoiy ongni shakllantirish jarayoni – bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Boz ustiga xalq va davlat maqsadlariga begona, ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatuvchi yot g'oyalar kuchayishi xavfi mavjud. Bunday g'oya tarafdorlari – dunyoning ba'zi mamlakatlarida joylashgan, katta ta'sir kuchi va vositalariga ega bo'lgan markazlar yuzaga kelgan murakkab vaziyatlarda o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qiladilar.

Mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarining ongi va qalbiga yo'l topishga urinishlarining sabablaridan biri – yurtimizning geosiyosiy nuqtayi nazardan qulay joylashganligi hamda intellektual va tabiiy zaxiralarga boy ekanligidadir.

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotiga quyidagi mafkuraviy tahdidlar xavf solib turibdi. Islom xalifaligini tiklash yo'lida harakat qilish; yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa qaytarish g'oyasi; tariximizni milliy qadriyatlarimizni, dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinish; axloq qoidalariga zid g'oyalarni tarqatish, xalqlarning ma'naviy-axloqiy ildizlariga putur yetkazishga intilish; turli g'oyaviy vositalardan foydalanib mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ziddiyatlarni kuchaytirishga intilish va shu kabilar.

Dunyoni ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazardan taqsimlashga urinadigan mafkuralar mavjud: **ulug' davlatchilik hukmronligi; diniy mansublik; etnik yaqinlik (etnosentrizm); ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yakka hokimlik va hokazo.**

Bunday tahdidlar tajovuzkor mafkura shakllari bo'lib, eng avvalo sodda, laqma odamlar ongini egallab, ularni milliy qadriyatlardan, jahon sivilizatsiyasi durdonalaridan mahrum qilishga qaratilgandir. Jamiyatdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy murakkablik, tahdid va xatarlar, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, separatizm, fanatizm va fundamentalizm, ekstremizm va terrorizmning namoyon bo'lishini, ichki va tashqi kuchlar tomonidan qo'llashga urinish mamlakat xavfsizligi uchun to'g'ridan-to'g'ri tahdid hisoblanadi.

Dunyoni g'oyaviy taqsimlashga beto'xtov urinish ketayotgan bugungi kunda faqatgina kuchli milliy va ilg'or mafkura jamiyatni

noxush asoratlardan saqlay oladi. Jamiyat va davlat milliy mafkura borasida izchil, dono va qat'iy siyosat olib borilishidan manfaatdor bo'lishi zarur.

Milliy istiqlol g'oyasi – bu siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, diniy, falsafiy qarashlar va g'oyalar tizimi bo'lib, unda odamlarning borliqqa munosabatlari anglanadi va baholanadi. U yangi ijtimoiy munosabatlar, ilg'or ijtimoiy qadriyatlar, qarashlar mavjud sharoitda ochiqlik, bag'rikenglik, yuksak ijtimoiy maqsadlar va g'oyalarga erishishga yo'naltirilgan turli guruhlar, shaxslar nuqtayi nazarida o'z ifodasini topadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday ta'kidlaydi: *«Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilar, ilm-fan va madaniyat namoyondalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish zarur».*

Bu vazifalarni amalga oshirishning ta'sirchan omil va mexanizmlaridan biri **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»**, tor ma'noda – **uzluksiz ta'lim tizimidir.** Aynan uzluksiz ta'lim tizimi (ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy vositalar qatorida) ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan, fidoiy erkin va mas'uliyatli shaxsni kamol toptiradi.

Hozirgi asosiy vazifa – qo'yilgan maqsad sari intilish, yangi ijtimoiy ongni shakllantirishning shart-sharoitlari, tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Milliy istiqlol g'oyasi aynan shunga xizmat qiladi. Shu ma'noda, bugun xalq, umummillat ishiga aylangan taraqqiyotning yuksak maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» *milliy istiqlol g'oyasining ajralmas qismi, uni amalga oshirishning muhim omili va mexanizmi sifatida qaralishi kerak.*

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy istiqlol g'oyasi doirasida amalga oshiradigan ustuvor jihatlaridan biri Respublika fuqarolarining yangi avlodini tarbiyalash, *«ma'naviy boy va axloqan pok, har tomonlama kamol topgan, mustaqil dunyoqarashga va mustaqil fikrga ega bo'lgan, ajdodlarimizning bebaho merosiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan shaxsni shakllantirishdan iborat».*

Ko'rsatilgan maqsadga erishish demokratik o'zgarishlarning umumiy jarayoni, mamlakatda yangi iqtisodiy-siyosiy muhit shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, mustaqillik yillarida tarkib topgan yangi ilg'or qadriyatlarni xalq aqlu zakovatiga singdirish uchun sharoit yaratdi. Bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, barcha davlat tuzilmalari

va jamoat tashkilotlari, asosan, uzluksiz ta'lim tizimi muassasa va bo'g'inlari faoliyati tarkibini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Aynan ijtimoiy hayot tajribasi, jamoatchilik ta'siri, tarbiya bilan ta'lim jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligi – shaxsni shakllantirish jarayonining tashkil etuvchilaridir.

Mustaqillik yillarida **«Milliy istiqlol g'oyasi»** va **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»**ga muvofiq ta'lim sohasida jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, uni ma'nan boy va yuksak axloqli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirish, yosh avlod ongida bag'rikenglik va Vatanga sodiqlikni shakllantirishni, ta'lim jarayoniga umuminsoniy va milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni singdirishga alohida e'tibor berildi.

Yuqorida alohida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal qilishda ta'limga muhim vazifalar yuklatiladi hamda u kelajak jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga mas'ul, u jahon madaniyati, qadriyati va ideallarini muhofaza qilishga yo'nalgan. Buning uchun intellektual kuchlarni jalb qilish, ta'lim muassasalari va umuman, kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatida eng samarali xalqaro va mahalliy tajribalarni tatbiq etish zarur.

Xo'sh, bu jarayonda kadrlar tayyorlash, uzluksiz ta'lim tizimining yaqin oradagi va istiqboldagi vazifalari nimalardan iborat?

Eng muhimi – erkin fikrlovchi fuqaroni, istiqlol va demokratiya g'oyalariga sadoqatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etadigan, ijtimoiy jarayonda faol qatnashadigan, mamlakat taqdiri uchun mas'ul shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratishni **uzluksiz ta'lim o'z zimmasiga oladi.**

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy qilish jarayonlarini jadallashtirish, insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish, fikrlash va munozara madaniyati, shaxsning ichki dunyosini rivojlantirish, nihoyat yangi ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirish jarayonini jadallashtirishga uzluksiz **ta'lim tizimi javobgar.**

Yosh avlod milliy istiqlol g'oyasini anglab olishi, uning har bir fuqaro uchun hayotiy zarurat ekanligi, Vatanni gullab-yashnatadigan il-g'or g'oya ekanligiga to'la ishonch hosil qilish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish kerak.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimi milliy tamoyillariga asoslangan yangi ijtimoiy ongni shakllantirish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Buning uchun, bizning tasavvurimizda, quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Ta'lim jarayonida tarbiyaning ustuvorligi va shaxsning har tomonlama rivojlanishi **ta'minlanishi zarur.**

Ta'kidlash lozimki, shaxs kamoloti va jamiyatning intellektual, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarning shakllantirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ta'lim tizimi o'zining integrativ funksiyasini to'laqonli amalga oshira olmayapti.

Ta'lim sohasi asosan, turli pragmatik fan ma'lumotlarini ajdodlardan avlodlarga o'tkazish, mazmunan uzuq-yuluq, texnokratik anglashga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni tezroq berishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Amaldagi Davlat ta'lim standartlari diqqat bilan tahlil qilinganda, ta'lim tizimi nimaga yo'naltirilganligi, ta'lim jarayonini qanday tashkil qilish kerakligi, undan qanday natijalar kutilayotganligi ayon bo'ladi. Pedagoglarning asosiy kuchi aynan ushbu masalani hal etishga yo'naltirilgan, pedagogik jarayon ham mazkur vazifaga xizmat qiladi, psixologik-pedagogik jihatdan judayam pishiq bo'lmasada, har xil metodik materiallar, zamonaviy pedagogik, ayniqsa, axborot-kommunikatsion texnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Yoshlarda ularning har birining shu o'lka, Vatanga, insoniyat sivilizatsiyasiga mansubligini anglatish, uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yaxlit qiyofasini shakllantirish, ruhiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarni milliy va umuminsoniy tushunchalarda ajdodlardan avlodlarga yetkazish, milliy istiqlol g'oyasini yosh avlodga yetkazish ta'lim tizimining asosiy dominantiga aylangani yo'q.

Bunday holda jamiyat kelajagi uchun muhim hisoblangan shaxsning ma'naviy-axloqiy darajasi ta'lim nazariyasi va ayniqsa, amaliyotining diqqat-e'tiboridan chetda qolayotgani ajablanarlidir. Shu holda yoshlarning g'ayri ijtimoiy xulq-atvorlarining ildizlari, uning diniy fundamentalizm va ekstremizm, giyohvandlikning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi; yoshlarda ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-tarixiy qadriyatlar, an'analar, xalq ideallari va umuminsoniy qadriyatlarning boy berilishi sabablari yotmayaptimikin?

Bu borada ta'kidlash lozimki, hozirgacha butun e'tibor tashkiliy-pedagogik asoslarni vujudga keltirish, uzluksiz ta'lim mazmunini ishlab chiqish, o'qitishning samarali uslublari, axborot texnologiyasi va hokazolarni izlashga qaratilgan. Tarbiya muammolarini hal qilish zarur ilmiy-metodik asoslarsiz – uzuq-yuluq amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonining o'zaro uzviy aloqadagi uch tarkibiy birligi – **tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish** to'liq darajada amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyaviy ishlar mazmunini tubdan o'zgartirish, unga maqsadga *yo'naltirilgan, tizimli, uzviy tus berish kabi sifatlarni boyitishimiz kerak.* Uzluksiz ta'lim jarayonining barcha subyektlari birgalikda samarali faoliyat olib borishlari uchun shart-sharoit va mexanizmlarni shakllantirish, ta'minlash zarur. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarining mos shakllarini ishlab chiqish va tatbiq etish lozim. Yosh avlodni tarbiyalash jarayonini keng ko'lamda rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, muqobil tashkiliy tuzilmalar – bolalar va yoshlar tashkilotlari va birlashmalarini yuzaga keltirish zarur.

Milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirishni ta'minlaydigan bosh maqsad – barkamol avlodni shakllantirishni ta'minlaydigan, madaniy tarixiy an'analar, xalqning urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning samarali tashkiliy pedagogik shakllari va vositalarini ishlab chiqish hamda hayotga joriy etish zarur.

Ta'lim mazmunida yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning shunday shakl va uslublarini ko'zda tutish kerakki, Vatanning buguni va ertangi kuni uchun javobgar fidoyilarni tarbiyalashning eng unumli, oqilona pedagogik mahorati asosida shakllantirish lozim. *Ta'limda metodologik yondashuv masalasini qayta ko'rib chiqish kerak. Ijtimoiy-shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi ancha istiqbollidir. Bu ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos texnologiyasiga asoslanadi:*

— ijtimoiy-shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon;

— mavjud holatga doim moslashish jarayoni;

— shaxslararo aloqalarni qamrab olish;

— shaxsning shakllanish jarayoni;

— yoshlarni jamiyat farovonligi yo'lida mas'uliyatli va dolzarb faoliyat turiga jalb etish;

— yoshlar uchun ijtimoiy tarbiyaga munosabat bildirish imkoniyatlarini vujudga keltirish;

— ta'limning va amaliy ishlarning aniq maqsadini belgilash;

— shaxs ehtiyojlarini mumkin qadar e'tiborga olish;

— faoliyatga jalb etilgan har bir shaxsning mas'uliyatini aniq belgilash;

— mavjud sharoitga faol ta'sir ko'rsatishi uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini birlashtirish;

— ijtimoiy majburiyatlarni faol va mas'uliyat bilan bajarishni nazarda tutish;

— ta'lim va jamiyat maqsadlarini birlashtirishni qo'llab-quvvatlash va ma'qullash, trening, nazorat monitoringini o'z ichiga olish va h.k.

Tarbiya keng ma'noda – maxsus tashkil etilgan, ma'lum maqsadga qaratilgan ajdoddan avlodga o'tadigan ijtimoiy-madaniy tajriba va shaxs rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitdir. Tarbiya tor ma'noda esa bu yoshlarni jamiyat hayotining aniq vaziyatiga jalb etish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi bo'yicha kattalarning birgalikda olib boradigan aniq faoliyatini bildiradi.

Yangilanayotgan jamiyat o'z a'zolari o'rtasida birgalikda harakat qilishga, bag'rikenglik, o'zaro yordamga asoslangan yangi munosabatlarni shakllantiradi. Ijtimoiy munosabatlarning bu xil ma'naviy boyliklari ta'lim-tarbiya jarayonida to'la o'z ifodasini topishi kerak. **Avtoritar pedagogika**da o'zaro aloqalar o'qituvchining o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatishi, kattalarning faol harakati natijasida shaxs xulqida o'zgarish sodir bo'lishi, shuningdek, kattalarning tarbiyaviy ko'rsatmalariga tayyor turishi ta'kidlanar edi. Agar avvalgi pedagogika buyruq asosida va bir tomonlama ta'sir ko'rsatish prinsipiga amal qilgan bo'lsa, **bugungi pedagogika birgalikda faoliyat ko'rsatish tamoyili asosida rivojlanmoqda.** Bu faqat pedagoglarning yangi avlodi yetishib chiqqanligini, ularning pedagogik mahorati oshganligini nazarda tutmay, balki tegishli pedagogik vaziyatlarning rivojlanishini maqsad qilib qo'yadi.

Birgalikda harakat qilish, hamkorlikda ish yuritish demokratik tamoyillarga, hamkorlarning individual manfaatlariga mos keladi.

Pedagog va o'quvchi-talabalar o'rtasida shunday munosabatlar tizimini vujudga keltirish kerakki, bunda ularning birgalikdagi faoliyati natijasida ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyati yaratilsin, ishonch

va manfaatdorlikka maksimal darajada rioya qilinib, ta'lim jarayonida har bir ishtirokchi o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniga ega bo'lsin.

Ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirishni davom ettirishni ta'minlash lozim. Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish fuqarolik asoslari – fuqarolik nuqtayi nazari, milliy qadr-qimmat va faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ta'lim jarayoniga maxsus tadbirlarni joriy etish zarurligini talab qilmoqda.

O'quvchi-talabalarning tug'ma qobiliyati va iste'dodini har tomonlama rivojlantirish, milliy va umumbashariy ahamiyatga molik dunyoviy, ma'naviy boyliklardan bahramand etish, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarida uyg'unlikka erishish, **«Ustoz-shogird»**likning tarixiy an'analari asosida samimiy munosabatlarni o'rnatish – ta'limni insonparvarlashtirishning negizini tashkil etadi.

O'quvchi-talabalarda estetik boy dunyoqarash, yuksak ma'naviyat, madaniyat, ijodiy fikrlashni shakllantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash ustuvorligini ta'minlaydigan professional – ta'lim dasturlari mazmunini shu asosda ko'rib chiqish – ta'limni ijtimoiylashtirishning mohiyatini tashkil etadi. Bunda o'quvchi-talabaning shaxsi, ijtimoiy faollikni rivojlantirish, mustaqillik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Yoshlarning yangi siyosiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari va dasturlarining joriy qilinishi ham ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish garovi hisoblanadi.

Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilish ta'lim tizimiga fuqarolikni, *faol fuqarolik nuqtayi nazari, milliy* g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish uchun javobgarlikni yuklaydi.

Fuqarolik – bu umumta'lim va kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tarixiy va ma'naviy-axloqiy bilimlar majmui bo'lib, shaxsga: demokratik fuqarolik hamjamiyatida faol ishtirok etish; mustaqil va tanqidiy fikrlash; plyuralizm sharoitida mulohaza bilan harakat qilish; milliy g'urur va iftixorning shakllanishini ta'minlash, o'zini safarbar eta olish va boshqalarga ko'maklashish imkonini beradi.

Ta'lim tizimiga O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning fuqarolik saboqlarini rivojlantirishni ta'minlovchi maxsus o'quv kurslarini joriy qilish kerak. O'quv kurslarida ilk tarixiy manbalar, hujjatlar, tarix va adabiyot, til, fan asoslari, huquq va falsafani o'zaro bog'liq ravishda mamlakatning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida

ko'rib chiqilishi kerak. Fuqarolikni tarbiyalash axloqiy negizlar va tabiiy intellektual salohiyatlar hamkorligini ta'minlashi kerak.

Yoshlar zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallar ekanlar, kelajakda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga faol kirishib ketadilar.

Globallashuv jarayonlarini e'tiborga olish bu alohida masala. Globallashuv yangi imkoniyatlar tug'diradi va shu bilan birga yangi muammolarni yuzaga keltiradi. U teng huquqlilik va barqarorlikni ta'minlash maqsadlarini shakllantirish va muvofiqlashtirishga ehtiyoj tug'diruvchi jarayonni yuzaga keltiradi. Globallashuv yangi boyliklarni yuzaga keltiradi hamda iqtisodiyot va jamiyatning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligini yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi. U axborot texnologiyalari sohasida o'ziga yo'l ochishga urinish, tovarlar va xizmatlar, kapital harakatchanligi hamda butun dunyoda qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirishga urinish, shuningdek, ta'lim ehtiyojlarida yangi texnologiyalarni qo'llash ta'siri asosida kechadi.

Bunday sharoitda davlat va jamiyat tomonidan har bir fuqaroning o'n ikki yillik majburiy va bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish huquqi kafolatlanishini tasdiqlovchi taraqqiyparvar «Kadrlar tayyorlash Milliy modeli» yanada baralla kuch bilan namoyon bo'ladi. Boz ustiga, fuqarolarning o'z ta'lim yo'nalishlarini tanlash va mehnat bozorida shaxsning ijtimoiy-professional o'rni imkoniyatlari hamda butun umr davomida ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari atroflicha hisobga olingan.

Yer yuzi aholisining immigratsion faolligi ortishi inson resurslari, tovar va xizmatlarning erkin ayirboshlanishi sharoitida ta'lim tizimining raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularga xalqaro mehnat bozorida ehtiyoj bo'lishi dolzarb muammo hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, sharoitlari ta'lim tizimiga moslashuvchanlik va tezkorlik baxsh etilishi lozimligini shart qilib qo'ydi: iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish talablariga javob berish shartlari va imkoniyatlarini yaratadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning ijtimoiy faolligi va moslashuvchanligini oshirish, tez o'zgarayotgan sharoitda ko'nikma hosil qilishi imkoniyatini beradi.

O'quv dasturlarining zamon talablariga moslashuvchanligini va harakatchanligini ta'minlash – ta'limni differensiatsiyalash muammosiga borib taqaladi.

Differensiatsiyalash – hozirgi zamon ta'limining asosiy xarakteristikalaridan biridir. U ta'limning o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda

o'qitish va tarbiyalashning turli shakllaridan foydalanish imkonini beradi.

Respublikada «Fond Forum» tomonidan iqtidorli o'quvchi-talaba yoshlarni qo'llab-quvvatlashning aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati o'tkazilib kelinmoqda.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar nashr qilish, moddiy-texnik bazani yaxshilash borasida O'zbekiston bilan hamkorlik qilayotgan bir qator xalqaro va chet el tashkilotlari (Butunjahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki, **OESF, GTZ, TACIS, USAID** va boshqalar) *«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»*ning tatbiq etilishini qo'llab-quvvatlamoqdalar.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berish zarur, birinchi navbatda, tegishli ravishda tashkiliy tuzilmalar *bolalar, o'smirlar birlashmasi va harakatlarini vujudga keltirish kerak.* Eng muhimi, bular yoshlarda qiziqish uyg'otsin, ularning o'z qiziqishlari, qobiliyat va istaklarini qondirishiga shart-sharoitlar yaratish lozim. Bu o'z navbatida barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bunda ta'lim siyosatini amalga oshiruvchi mas'ullar, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar, mavjud davlat va jamiyat tuzilmalari – Xalq ta'lim vazirligidan, to «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatigacha bo'lgan tashkilotlar faoliyatini tubdan takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Tarbiya jarayonida barcha subyektlar samarali ta'sir ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishi va uning mexanizmlarini shakllantirish va ta'minlash zarur. Amalda tizimning barcha tuzilmaviy elementlari bor. Bular – oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, fan va hokazo.

Shunday qilib, *«Milliy istiqlol g'oyasi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni* hayotga tatbiq etishda *bag'rikenglik, hurfikrlilik tushuncha va tamoyillariga jiddiy ahamiyat beriladi.*

Insoniyat o'z tarixi davomida ushbu tushunchani turlicha talqin qildi, unga ma'lum mazmun berdi. Bizningcha, bag'rikenglik tushunchasiga buyuk Volter nisbatan aniq ta'rif bergan: **«Men sizning fikringizga umuman qo'shilmayman, biroq men sizda unga ega bo'lish imkoniyati, o'z fikringizni yaratish va izhor qilishga muvaffaq bo'lishingiz uchun umrimni berishga ham tayyorman!».**

Bag'rikenglik – ayniqsa, bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr – iqtisodiyotning globallashuvi va harakatchanligi, kommunikatsiya tizimining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, integratsiya va bir-biriga bog'liqlik, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi,

ijtimoiy tuzilmani qayta qurish bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda insoniy sabr-toqat talablariga rioya qilmaslik bitta davlat doirasi bilan chegaralanib qolmaydi, u global xarakterga ega bo'ladi.

Shu jihatdan 1995-yil BMTning 28-sessiyasida **«Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»** qabul qilinishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Unda, jumladan, BMTga a'zo mamlakatlar bag'rikenglikni shakllantirish bo'yicha tadbirlarni davlat darajasida amalga oshirishga da'vat etiladi. Deklaratsiya – asos bo'ladigan xalqaro hujjat, unda nafaqat hozirgi zamon va kelajakda insoniyat birligi tamoyillari e'lon qilingan, balki ushbu tamoyillarni tatbiq qilish yo'llari ham ko'rsatilgan. Ushbu hujjatdan, bizningcha, eng muhim bo'lgan joylarini keltiramiz.

BMT Deklaratsiyasi bag'rikenglikni qanday talqin qiladi? *«Bag'rikenglik – bu dunyo madaniyatlarining xilma-xilligini, o'zini ifodalash shakllari va inson individualligining ko'rinishlarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishini anglatadi. Bag'rikenglikka bilim, ochiqlik, munosabat va fikr erkinligi, vijdon va qat'iy ishonch manba bo'ladi. Bag'rikenglik – bu hamjihatlik. Bu nafaqat ma'naviy burch, balki ham siyosiy, ham huquqiy ehtiyoj. Bag'rikenglik – bu yon berish emas, shafqat yoki nojo'ya harakatlariga yo'l berish emas. Bu, eng avvalo, insonning universal huquqlarini tan olish asosida shakllanadigan borliqqa faol munosabatdir».*

Deklaratsiya ko'rsatib o'tilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun qanday tardbirlarni tavsiya etadi? Fikrimizcha muhim, samarali deb hisoblagan tadbirlardan biri: *«Toqatsizlikning oldini olishning eng samarali vositalaridan biri tarbiya hisoblanadi. Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash har bir fuqaroning huquqlari va erkinliklari nimalardan iborat, ushbu huquqlarni amalga oshirish va boshqalarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga o'rganishdan boshlanadi. Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida qaraladi. U yoshlarda mustaqil fikrlash ko'nikmasi, axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tanqidiy fikr yuritish va mulohaza qilishni shakllantirishga ko'maklashishi lozim».*

Bu fikrlar **Milliy istiqlol g'oyasi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** qoida va tamoyillari bilan uyg'unlashuvi hamda muvofiqlashuvini sezish qiyin emas!

Sabr-toqatlilik jamiyatning har bir fuqarosi, ijtimoiy guruhlar, partiyalar va turli ijtimoiy harakatlar, davlarlararo munosabatlar uchun ham xos bo'lishi kerak. Bu prinsipning amalga oshishi dogmatizmdan,

haqiqatni mutlaqlashtirish va monopollashtirishdan voz kechishni, huquqni va eng muhimi, inson erkinligini ta'minlashni taqozo etadi.

Ammo sabr-toqatlilik ijtimoiy ma'noda haqsizlikka jimgina munosabatda bo'lishni, o'z e'tiqodidan voz kechishni, o'zgalarning g'oyasini ko'r-ko'rona qabul qilishni bildirmaydi. Boshqacha aytganda, har bir kishi o'z e'tiqodida erkin bo'lib, boshqalar ham shunday huquqqa egaligini tan oladi.

Bag'rikenglik ruhidagi ongni shakllantirish bilan birga diniy sabr-toqatlilikka ham alohida ahamiyat berish kerak. Diniy e'tiqod erkinligi ijtimoiy hayotda hamjihatlik va totuvlik vaziyatini vujudga keltiradi, bir yerda, bir Vatanda yashovchi turli din vakillarining asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi. Qadimdan diniy ta'limotlar axloqiy prinsiplarni o'zida mujassam etadi. Zero, hamma dinlar muqaddas g'oyalarga asoslanadi, *ezgulik, tinchlik, do'stlik, rahm-shafqat* kabi insoniy fazilatlarga tayanadi.

Qadimdan dunyoda islom, xristianlik, iudaizm, buddizm kabi dinlar faoliyat ko'rsatishmoqda. Ko'pgina shahar va qishloqlarda masjid, cherkov, sinagogalar mavjud bo'lib, ularda turli millat va din vakillari diniy rasm-rusumlarini hamda marosimlarini o'tkazib turadilar. Xalqimizning sabr-bardoshli ekanligini shundan ham bilish mumkinki, O'zbekistonda eng og'ir kunlarda ham dindorlar o'rtasida ziddiyatlar kuzatilmagan.

Bugun mamlakatimizda **o'ndan ortiq konfessiyaga tegishli diniy tashkilotlar** ishlab turibdi. Ular o'z faoliyatini yuritishi, ko'p millatli xalqimiz hayotida faol qatnashishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Buning huquqiy asoslari **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»**gi qonunda o'z ifodasini topgan. Barcha din vakillarining inoq yashashi, mamlakatda ulug'vor ishlarni amalga oshirishda ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratib berilgan.

Aytilganlardan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim tizimini yosh avlodda bag'rikeng fuqarolik axloqini shakllantirish, millatchilik, ekstremizm, fundamentalizmning oldini olish vazifalarini hal qilishda aniq maqsadga yo'naltirish lozim deb hisoblaymiz. Aynan uzluksiz ta'lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar xavfini kamaytirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga qodir.

Jamiyatda bag'rikenglik, hurfikrlilikni shakllantirish, ekstremizmning oldini olish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish milliy istiqlol g'oyasi negizida yotuvchi

kompleks vazifa hisoblanadi. Bu ko'plab vazirliklar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati idoralari va boshqarmalarning, jamoatchilik harakatlari va partiyalar negizida o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Yana bir bor ta'kidlaymiz: *ta'lim va tarbiya bag'rikenglik ruhidagi ongni shakllantirishning eng maqbul vositasi hisoblanadi.* Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, insonlar, ayniqsa, yoshlarda umumsivilizatsiyaviy ideallar va qadriyatlarni milliy madaniyat, g'oya va qadriyatlarga asoslanib anglash va qabul qilishga yo'naltirilishi, bu jarayonda universal huquqlar amalga oshirilib boshqalarning huquq - erkinliklarini himoya qilishga intilishi, qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning milliy madaniy-tarixiy an'analar, xalqimiz urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish kerak.

Tarbiyaviy-ma'rifiy ishlarning mazmun, shakl, vosita va uslublarini bag'rikenglik tamoyillariga muvofiqlashtirib, ushbu faoliyatga, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, uzluksizlik va uzviylik xususiyatlarini berish lozim.

Bu ishda guruhbozlik, rasmiyatchilik va loqaydsizlikka barham berilishi kerak. Buning uchun zo'ravonlik va begonalanishga sabab bo'luvchi sabrsizlikning tarixiy-madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy manbalarini ochib tashlash bilan birga sabrlilikni shakllantirishning tizimi va oqilona metodikasini ishlab chiqish lozim. Tarbiyaviy-ma'rifiy ishlar yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va xulosa chiqarish malakasini shakllantirishga ko'maklashishi zarur.

O'quv-tarbiyaviy va uslubiy tadbirlarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

a) ta'lim muassasalarida sabr-toqatlilik, e'tiqod erkinligi va madaniyatlararo totuvlikni rivojlantirish borasida bahs-munozara o'tkazish dasturini yaratish va joriy etish (jumladan, o'quv fanlarining amaldagi dasturlariga shu bilan bog'liq maxsus elementlarni kiritish);

b) uzluksiz ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ta'minlash;

d) ommaviy kommunikatsiya, davlat xizmatchilari, jumladan, huquq-tartibot organlari va boshqa vazirliklar, idoralarda band bo'lgan

mutaxassislarni qayta tayyorlash maqsadida maxsus treninglar ishlab chiqish va joriy etish.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi; O'zbekiston xalqlarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkurining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi; etnografiya va etnogenez; adabiyotshunoslik, san'atshunoslik *sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni yangi pog'onaga ko'tarish zarur.* Mazkur muammo yuzasidan ilmiy izlanishlarning konsepsiyaviy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning **«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»** nomli kitobida chuqur tahlil etib berilgan. *Shu ma'noda pedagogika tarixi va merosimizni zamonaviy metodologiya asosida o'rganish yuzasidan yosh olimlarning butkul yangi ilmiy maktab shakllantirish; o'quvchi-talaba yoshlar uchun ilmiy, ilmiy-ommabop va informatsion xarakterdagi adabiyotlarni nashr etish bo'yicha juda ko'p ishlarni amalga oshirish lozim. Milliy-ma'naviy boyliklarimiz va madaniy yutuqlarimizning mushtarak ildizlaridan kelib chiqib, milliy mafkurani to'ldirish va boyitish olimlarimiz, faylasuflarimiz, siyosatshunoslarimiz va umuman, mamlakat ilmiy jamoatchiligining dolzarb vazifasi bo'lib qolaveradi».*

Islom va boshqa dinlarning gumanistik asoslari to'g'risidagi bilimlarni o'rganishga va alohida shakllantirishga yangi kuch-quvvat bag'ishlash kerak. Ajdodlarimizning boy ilmiy-nazariy merosini ilmiy tahlil qilish va rivojlantirish, islom dini tarixini o'rganish asosida uning ahvolini, hozirgi jamiyatdagi, madaniyatdagi, respublikaning ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini aniqlash hamda dunyoviy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, ko'p konfessiyalilik sharoitida islom dini faoliyat ko'rsatishining ilmiy prognozini ta'minlash kerak bo'ladi.

Milliy g'oyani shakllantirish ma'nosida o'quvchi-talabalar uchun *o'quv-uslubiy, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarning yangi avlodini ishlab chiqish hamda joriy etishni muhim yo'nalish deb hisoblamoq kerak.* Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ekspertiza qilish asosida xalqning boy ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribasiga, uning progressiv an'analari va urf-odatlariga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va badiiy adabiyotlar nashr etilishini ta'minlash zarur. Bu ishga fan, madaniyat va san'atning eng ilg'or vakillari jalb qilinishi lozim.

Umumiy va kasbiy madaniyatni oshirish maqsadida yoshlar bilan olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish kerak. Bunda *ommaviy axborot vositalarining* ma'rifatchilik faoliyatini kuchaytirish muhimdir.

O'quvchi-talabalar uchun adabiyotlar, radio va televideniedagi eshittirish va ko'rsatuvlarni *«intellektuallashtirish va ma'naviy axloqiy to'ldirish»* borasida ko'p ishlarni amalga oshirish lozim. Aynan ommaviy axborot vositalari *«...mustaqil va real to'rtinchi hokimiyat sifatida fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning eng ta'sirli vositasi»* bo'lishi barobarida demokratik qadriyatlar va jamiyatimiz mafkurasini rivojlantirishda yoshlar ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi zarur.

Tarbiya jarayoni – uni tiklash, rivojlantirish va hayotga joriy qilish, ta'limda milliylik, ma'naviy-axloqiy qadriyat va normalar bilan bevosita bog'liqki, ular xalq pedagogikasi, urf-odatlari, bayramlari, o'yinlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda «Oila», «Kamolot», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Ma'rifatparvarlar», «Tarixchilar», «Faylasuflar» va boshqa jamoat tashkilotlari va jamg'armalar muhim rol o'ynaydi.

Shu asosda mamlakatimiz madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish zarur. Ulardan ta'lim amaliyotida, xorijda targ'ibot ishlarini olib borishda, milliy va xalqaro tanlov, festival va boshqalarni o'tkazishda foydalaniladi. Yoshlarning badiiy ijodiga alohida ahamiyat berish lozim.

Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni o'sib kelayotgan avlodning rivojlanib borayotgan huquqiy madaniyatini, fuqarolarning yangi huquqiy ongini oshirishni taqozo etadi. Fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirish bo'yicha tadbirlar dasturining keng ijrosini ta'minlash zarur, bunda mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z huquqini bilsin va uni himoya qila olsin. Huquqiy fikrlashning eskicha stereotiplaridan voz kechish zarur. Ilgari qonun oldida hamma barobarligiga, inson huquqi davlat huquqidan ustuvorligiga, inson huquqi asosiy qadriyat ekanligiga hech kim ishonmas edi.

Zero, yosh avlodni milliy mafkura va yangicha huquqiy tafakkur asosida ma'naviy-axloqiy va huquqiy, jismoniy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlashni, sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yoshlarda faol hayotiy pozitsiyani, ma'naviyatni, ezgulik va insonparvarlik, adolatparvarlik, prinsipiallik ideallarini tarbiyalashda, jismoniy tarbiya va sport vositalari, shakllari va usullaridan foydalanish – ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmog'i kerak. *Sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonining mohiyatini, mazmunini va haqiqiy ahamiyatini chuqur*

anglagan holda biz bu ishni davlat siyosati darajasiga ko'tarishimiz, uni chinakam umumxalq harakatiga aylantirishimiz lozim.

Sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanishni ta'minlaydigan bir butun tizimni barpo etish, o'quvchi-talaba yoshlar dam olishining faol shakllarini yaratish va amalga oshirish ishlarini davom ettirilishi zarur. Davlat va jamiyatning ushbu maqsadga yo'naltirilgan ishlarining samarasini bugunning o'zidayoq ko'rib turibmiz. Maxsus **«Barkamol avlod»** davlat dasturi amalga oshirilmoqda, **«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»**gi yangi Qonun qabul qilindi, bolalar va o'quvchi-talaba yoshlarning jismoniy tarbiya va sport birlashmalari tuzilmoqda, **«Barchinoy»** va **«Alpomish»** sport-normativ komplekslari joriy qilingan, **«Umid nihollari»**, **«Barkamol avlod»**, **«Universiada»** sport musobaqalari muvaffaqiyatli tarzda o'tkazilmoqda. Kishilar ongida sog'lom avlodni shakllantirishga munosabatni tubdan o'zgartirishni yana ham muhim ish deb hisoblamoq kerak.

Ikkinchidan. Yuqori sifatli va malakali kadrlar tayyorlash va *mamlakat fuqarolarining yangi avlodini shakllantirish* uchun mas'ullik.

Ta'lim sifatini boshqarish – murakkab, ko'p qirrali muammo. Uning yechimi bir nechta darajada **(umumdavlat sohalararo sohaviy, mintaqaviy miqyosda, ta'lim muassasasi, pedagog va o'quvchi-talaba darajasida),** shuningdek, turli yo'nalishlarda **(tashkiliy, tuzilmaviy mazmunan, uslubiy)** amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va modeli ta'lim sifati muammosini tizimli ravishda barcha boshqaruv subyektlarining o'zaro hamkorligida **(va ayni paytda mas'ulligida)** hal qilishni va shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchi-talabalarni zaruriy ta'lim sifatiga ega bo'lishini nazarda tutadi va talab qiladi.

Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra, ta'lim sifati – shaxsning ehtiyojlari va jamiyatning Davlat ta'lim standartlariga mos talablarini qondirishga qodir umumta'lim, ma'rifiy, madaniy va kasbiy rivojlanganlik darajasidir.

Boshqacha fikrlarga ko'ra, ta'lim sifati – uning turli shakllardagi ehtiyojlar, maqsadlar, talablar va normalar (standartlar)ga to'la muvofiqligi; ta'limning turli darajalarda tashkil etilgan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'no xususiyatlarining tizimli jamuljamligidir.

Uchinchi toifadagilarning fikricha, ta'lim sifati deganda qo'yilgan maqsad va ta'lim faoliyatining o'zaro muvofiqligi tushuniladi, bunda maqsad – aniq tarzda qo'yilgan va shaxsning yaqin kelajakdagi

rivojlanish doirasini qamrab olgan bo'lishi kerak. Bu o'rinda biz natijani o'quvchi-talabalarning maksimal imkoniyatiga erishish, sifatga qarab baho beramiz. Boshqacha aytganda, natija har qancha ko'zga ko'rinarli bo'lmasin, agar o'quvchi-talaba bundan ham yuqorirog'iga qodir bo'lsa, erishilgan natijani yaxshi deb va aksincha, natija har qancha ko'rimsiz bo'lmasin, agar o'quvchi-talaba bundan yuqorirog'iga qodir bo'lmasa, erishilgan natijani yomon deb topish kerak emas.

Ta'lim sifati muammosining qo'yilishi umuman olganda mintaqaviy va alohida ta'lim muassasalarida boshqarish tarkibi va sifatini, pedagog va boshqaruv xodimlarining kasbiy tayyorgarligi mazmunini, ta'limga innovatsion yondashuvni o'zgartirishni talab etadi.

Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyil va muammolari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

– ta'lim sifati muammosi – zamonaviy mutaxassislarning umumta'lim, umummadaniy va kasbiy tayyorgarligini baholashning yanada haqqoniyroq tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish nuqtayi nazaridan dolzarbdir;

– ta'lim sifatining kafolati – ta'lim muassasasi va o'quvchi-talabalar o'rtasidagi kelishuv asosidagi rejalashtirilgan va erishilgan natijalarning ta'minlanishidir;

– ta'lim sifatini boshqarish maqsadining qo'yilishi – ta'lim kafolati talablarini bajarish, shuningdek, ta'lim parametrlari o'zgarishini sifat va son jihatdan baholash barqarorligini oshirishdir;

– ta'lim sifati normalari – jamiyat va shaxsning muayyan darajadagi ehtiyojlariga mos keluvchi ta'lim sifatiga oid rasmiy tan olingan va qayd etilgan talablaridir;

– ta'lim sifati mezonlarining belgilanishi – ta'lim sifatining belgilangan me'yor, talab, etalon va standartlarga muvofiqlik darajasi va alomatlaridir;

– ta'lim sifatini baholash – ta'lim sifati o'lchovlarining yuzaga chiqishidir;

– ta'lim sifati monitoringi – mavjud ahvol o'zgarish, baholash va prognoz qilishning ta'lim sifatiga nisbati bo'yicha kuzatishning kompleks tizimini ishlab chiqishdir;

– ta'lim sifatining ta'minlanishi – ta'lim sifatining belgilangan norma, talab va standartlardan kam bo'lmagan darajada qo'llab-quvvatlanishidir;

– ta'lim sifatini boshqarish – ta'limda *«boshqaruvchi subyekt»* tomonidan barcha obyektlariga nisbatan sifatning rivojlanishi, qo'llab-

quvvatlanishi va tiklanish jarayonlariga ta'sir etilishi hamda belgilangan maqsad, norma va standartlarga muvofiq: nazorat, baholash, tahlilning yo'lga qo'yishidir;

– bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni baholashning pedagogik tizimlarini ishlab chiqish, bunda ular shaxsning kasbiy kompetensiyasi va rivojlanganlik darajasini tekshirish va baholashning didaktik prinsiplariga mos kelishi shart.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mavjud tizimlarini mutlaqo to'g'ri va mukammal deb hisoblab bo'lmaydi. Nazorat bosqichlari vaqt birligida bir-biridan uzilgan va mantiqiy tugallanmagan. Ma'lum nazorat tizimlari asosiga qo'yilgan metodlar doirasi esa ancha tordir. O'quvchi-talabalarning bilim, qobiliyat va ko'nikmalari darajasini baholash ta'lim sifati parametrlarini keng miqyosda hisoblash imkonini beruvchi indekslar vositasida amalga oshirilmoqda.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lim sifati muammosini hal qilish dolzarb ahamiyat kasb etib, quyidagi ziddiyatlar bilan ham bog'liq:

– ta'lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligiga qo'yilayotgan yangi talablar va ular uchun ta'lim sifati mezonlarining ishlab chiqilmaganligi;

– uzluksiz ta'lim tizimi va ta'lim muassasalari faoliyatining o'zgargan sharoitlarida boshqaruvning kam samarali uslublarining qo'llanilishi;

– ta'limni boshqarishda yangiliklar hamda shaxsni o'qitish va tarbiyalash jarayonining tashkiliy va sifat jihatidan sezilarli darajada ortda qolganligi;

– ta'limni insonning ijtimoiy-professional omilkorligiga yo'naltirilgan holda isloh qilish zaruriyati va shu bilan birga pedagogik va informatsion texnologiyalarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

– ta'lim muassasalari pedagogik jamoasi faoliyati samaradorligiga qo'yilayotgan yuksak talablar hamda ular malakasining yetarli darajada emasligi;

– pedagog xodimlarning o'z ijodiy potensialini amalga oshirishga tayyorligi hamda o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini baholashning ilmiy-metodik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va shu kabilar.

Zamonaviy nuqtayi nazardan olib qaraganda malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifati muammosini ko'rib chiqish zaruriyati, nazoratning ma'lum uslub va mezonlaridan foydalanish ko'la-

mining kengayishi, ta'lim sifatini baholashning mavjud metodlari birlashishi kadrlar tayyorlash sifatini holisona, har tomonlama va tartiblashgan tarzda baholash imkonini beruvchi nazorat tizimini yaratish muammosini ko'ndalang qilib qo'yadi. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimi quyidagi shartlarga rioya qilingan holda amalga oshirilsa, samarali bo'ladi:

1. Ta'lim shaxsning shakllanishiga sharoit yaratish va xolisona baholashga yo'naltirilgan maxsus tashkiliy boshqaruv qarorlarni joriy etish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

2. Ta'lim sifatini samarali boshqarishning maxsus tashkiliy-boshqaruv, tuzilmaviy va tarkibiy chora-tadbirlarini joriy etadi.

3. Nazorat tizimi ta'limning barcha: kirish, joriy, oraliq, yakuniy nazorat bosqichlarida hamda bitiruvchining mehnat bozoriga moslashishini yoki ta'lim xizmatlarini nazorat qilishda amalga oshiriladi.

4. Ta'lim sifatini baholash mezonlari o'z ichiga: umumta'lim va umummadaniy bilim va ko'nikmalar; shaxsning kasbiy rivojlanganligi; kasbiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalar; umumiy o'quv qobiliyatlari; motivatsiya darajalarini qamrab oladi.

5. Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimida barcha topshiriqlar Davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

6. Mazkur tizimni ta'lim jarayoniga joriy qilishda ta'lim sifatini baholashning turli shkalalaridan foydalanish zarur.

7. Pedagogik jamoaning ushbu tizimdan foydalanishga tayyorligi, avvalo ta'lim muassasasi rahbariyati va xodimlaridan boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishni, nazoratni turli uslublar bilan amalga oshirishni talab etadi.

Ta'lim tizimi sifatini boshqarish quyidagi qo'shimcha shartlarga rioya qilingan holda amalga oshirilsa yanada samarali bo'ladi:

— boshqarish tizimi ta'limning barcha darajasida va o'qitishning har bir bosqichida amalga oshiriladi;

— ta'lim va boshqaruv jarayonining barcha subyektlari zarur malakaga ega bo'ladi hamda ta'lim sifati va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishdan manfaatdordir;

— tizim o'quvchi-talaba shaxsining rivojlanishini baholashga yo'naltirilgan bo'ladi;

— ta'lim-tarbiya jarayoni, reja va topshiriqlar Davlat ta'lim standartlari talablari asosiga quriladi;

— ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning turli uslub va vositalaridan foydalaniladi;

—o'quvchi-talabalarning rivojlanganlik darajasini ularning bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini turli uslub, reyting tizimi orqali baholash bo'yicha pedagogik jamoani o'qitish doimiy ravishda amalga oshira boriladi;

— ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi va ta'lim sifati darajasini, o'quvchi-talaba va pedagog shaxsining rivojlanganligini, ta'lim jarayoni va boshqaruv qatnashchilari motivatsiyasini, bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni (ta'lim sifatini nazorat qilish) xarakterlovchi o'lchov mezonlari kompleksi mavjud bo'ladi.

Ta'lim sifati muammosini tadqiq qilishda quyidagi asosiy qoidalarga tayanish kerak:

1. Ta'lim tizimi sifatini boshqarish aniq ijtimoiy va pedagogik sharoitlarning ta'siri bilan asoslanadigan murakkab va ko'pfunksiyaviy tizimini o'zida aks ettiradi. Uning ishlashi va rivojlanishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarning ta'siriga asoslanadiki, bu ta'sirning xarakteri o'z rivojining sifat jihatdan yangi pog'onasiga o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

2. Ta'limni va uning sifatini boshqarishni isloh qilish uzoq vaqtni qamrab oladi – islohotning strategik yo'nalishlari belgilab olingan paytdan boshlab, to ularni yakunlashgacha. Bu jarayon bir qator qonuniyatlarning yuzaga kelishi bilan birga kechadi va ularni bilish bu jarayonni boshqarish imkonini beradi.

3. Ta'limni va uning sifatini boshqarishni aniq mazmun bilan to'ldirish va amaliyotda qo'llash to'plangan bilim va tajriba, maxsus tadqiqot natijalari asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan konseptual qoidalar asosida mazkur muammo bo'yicha ilmiy izlanishlarning quyidagi muhim yo'nalishlarini shakllantirish mumkin:

— ta'lim sifatini boshqarishning nazariy asoslarini, boshqaruv tizimining barqarorligi va rivojlanish omillarini tadqiq qilish;

— O'zbekistondagi va rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'limni boshqarish bilan bog'liq tajribalarni umumlashtirish va o'rganish;

— **Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturi** talablari asosida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi, uslublari, shakl va tamoyillarini ishlab chiqish;

— ta'lim sifatini va tizimini ijtimoiy-pedagogik boshqarishning konseptual modelini yaratish;

— ta'lim sifati va tizimini boshqarishni baholash va monitoring qilishning tuzilmasi, tarkibi va uslublarini ishlab chiqish.

Bizningcha, bu ishlarning amaliy natijasi quyidagilarda ifodalanadi:

– boshqaruvning ishlab chiqilgan modeli ta'lim sifati hamda ta'lim tizimining ijtimoiy-ma'rifiy institut ko'rinishidagi faoliyat samaradorligini oshiradi, ta'lim sifatini monitoring qilish tizimidan esa ta'limni boshqarish idoralarida va butun ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin;

– o'zida o'quvchi-talabalarning bilimi, ijtimoiy-shaxsiy xususiyatlariga nisbatan bir qator talablarni jamlagan ta'lim sifatini boshqarish tizimlaridan foydalanish natijasida ta'lim muassasalarining ijtimoiy-ma'rifiy institut sifatidagi samaradorligi sezilarli ravishda oshadi;

– Davlat ta'lim standartlari monitoringini amalga oshirishda maxsus informatsion (kompyuter) dasturlardan foydalanish ta'lim sifati va darajasini oshirish imkonini beradi;

– tadqiqotlar natijasida olingan materiallar, ta'limni jamoat-pedagogik boshqarish mazmuni bo'yicha, uning tashkil etilishi, vazifalari, boshqarish sikllari to'g'risidagi tavsiyalar va boshqa asosiy xulosalardan oliy o'quv yurtlari talabalari hamda ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari tinglovchilariga pedagogika va ta'lim menejmenti bo'yicha maxsus kurs o'tayotganda foydalanish mumkin;

– o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ta'limni boshqarish idoralari xodimlari uchun o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalar, zaruriy yordamchi materiallar yaratilishi mumkin.

Uchinchidan. Pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mas'uliyati.

O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida barcha ishtirokchilari o'rtasidagi samarali hamkorlikning ahamiyati va zarurligani tan olgan holda pedagog, tarbiyachi, ustozlarning alohida o'rniga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Negaki, ular yosh avlodga ajdodlarning boy merosini, donishmandligini, tajribasini yetkazuvchi ta'lim jarayonini takomillashtiruvchi muhtaram zotlardir. Shu bois iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan talablarni tubdan qayta ko'rib chiqish kerak, ya'ni pedagoglarning malakasini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan shunga bog'liq. Pedagogik *ta'lim mazmunini o'zgartirish* ham dolzarbdir, negaki **bo'lg'usi pedagoglar muloqot madaniyatini** ham mukammal o'zlashtirib

olishlari zarur. **Hamkorlik pedagogikasi – o'zaro tushunish, ishonch, bir-birini qo'llab-quvvatlash, ijodiy hamkorlik paydo qiladiki, bu yoshlarda asl insoniy qadriyatlarni anglab qabul qilishiga yordam beradi.**

Pedagogik ta'lim mazmuni o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni ularda milliy istiqlol g'oyasi asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shundagina ular o'zlari egallagan bilim va ko'nikmalarni o'sib kelayotgan yosh avlodga bekamu ko'st o'rgatish salohiyatiga ega bo'ladi.

Bu ishlar doimiy va tartiblilik tarzida bo'lib, ta'lim muassasalari va tizim rahbarlarining doimiy e'tiborida bo'lishi zarur. Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan professcop-o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini to'la-to'kis amalga oshirish, pedagoglar mahoratini oshirishni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish lozim.

Pedagoglar (o'qituvchi-professorlar, ustozlar, tarbiyachilar, maorif xodimlari) jamiyat ustuvorliklarining o'zgarishini o'z vaqtida tushunib anglagan holda yoshlar bilan muloqotda yanada hushyorlik va donolik bilan, mas'uliyatni to'la his etgan holda munosabatda bo'lishga harakat qilishlari kerak.

Asosiy umidlar ijodiy fikrlovchi va bilimdon o'qituvchilarga qaratilgan. Shu bilan birga mazkur kasb egalari yana quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam etishi lozim:

– kasbiy jihatdan faol va har tomonlama, ijtimoiy-madaniy sohada keng ko'lamda faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– o'quvchi-talabalarga nisbatan xushmuomala, sabr bardoshli bo'lishi, ularni tushunish va qo'llab-quvvatlashga tayyor turishi, lozim bo'lsa, himoya qilishi;

– o'quvchi-talabalar psixologiyasining o'ziga xos tomonlarini to'g'ri anglashi va shaxs mustaqilligini hurmatlay olishi;

– guruhlar ichida va guruhlararo aloqani o'rnata olishi, o'quvchi-talabalar o'ptasidagi kelishmovchiliklarni hal qila olishi;

– har bir o'quvchi-talaba, ayniqsa, tarbiyasi og'ir yoshlar psixologiyasidagi o'ziga xos tomonlarni tushunishi, ularga ijtimoiy hayot tajribasini oshirishda yordam bera olishi, ularning kamol topishi uchun qulay sharoit yarata olishi;

– o'z ustida betinim ishlashi, shaxs sifatida o'quvchi-talabalar va hamkasblariga ibrat bo'lishi, maqsad sari ishtiyoq bilan harakat qilishi

boshqalarga yordam berishga tayyor turishi, o‘quvchi-talabalar bilan ham o‘zaro hamkorlik qila olishi kerak va h.k.

1-shakl



Hozirgi zamon pedagogi – faqat dars beruvchi o'qituvchi emas, o'quvchi-talaba qanday o'qiyotgani va rivojlanayotganligini tushunadigan va his etadigan shaxsdir. Pedagogikaning shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyasi bugungi kunda yanada rivoj topmoqda: **pedagog o'quvchi-talabalarga faqat axloq me'yorlarini o'rgatadigan o'qituvchi emas, balki yoshlarni sevuvchi, ularning hayotini o'z hayoti deb biladigan, uning ichki dunyosi, ma'naviy-axloqiy, umummadaniy o'sishiga yordam beradigan, yoshlar davrasini kengaytirib, o'zi kamol topa oladigan, o'quvchi-talabalar hamjamiyatini mustahkamlashga ko'maklashadigan shaxsdir.** Shuning uchun bugun faqat bilimli odamgina emas, balki o'quvchi-talabalar bilan ijodiy hamkorlik qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishi haqiqiy pedagog bo'la oladi.

Jamiyat hayotining ko'p qirraliligi milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirishda keng ko'lamdagi nazariy-uslubiy yondashuvlar xilma-xilligini, ma'naviy-madaniy makonning har bir tarmog'ida yangi g'oya va tamoyillarni vujudga keltiradi.

Bundan tashqari, milliy tajribada jamoatchilik fikrini shakllantirishga, xususan, shaxsga ta'lim-tarbiya berish sohasida innovatsion yondashuvlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi mavjud holatni tahlil qilishni taqozo etadi. Zero, yangi sharoitlar ta'lim tizimining mazmunini, uning falsafasini haqqoniy ravishda o'zgartirib yuboradi sohaning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bunday jarayonlar natijasida ta'lim sohasida yangi qadriyatlar vujudga keladi, ya'ni innovatsiyalar va islohotlar samarasi o'laroq; pedagoglarning tajribasi va muayyan maqsadga qaratilgan harakatlari asosida yangi ma'naviy, axloqiy mafkura va tamoyillar, demokratik turmush normalari shakllanadi va ro'yobga chiqariladi.

Ayni paytda istiqlol va demokratiya kabi yangi ijtimoiy qadriyatlar bir tomondan, pedagogik faoliyatning muhim asoslari, ikkinchi tomondan, yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishi uchun qulay ma'naviy-madaniy zamin yaratadi. Ular jamiyat tomonidan kutilgan va ijtimoiy zaruratga mos umumlashgan g'oya va tasavvurlar in'ikosidir. Jamiyat hayotida va ta'lim sohasida qadriyatlarni avtoritar tarzda o'rnatib bo'lmaydi. Ular ta'lim mazmuni va texnologiyasining rivojlanishi bilan birga tadrijiy ravishda o'zgarib boradi.

Kishilar, o'zining subyektiv tajribasi va fikr doirasiga ko'ra qadriyatlar tizimini barpo qiladi, o'zining maqsadli faoliyatidan kelib

chiqib, ularning mezonini belgilaydi. Shuning uchun ijtimoiy qadriyatlar ham, ta'lim mazmuni ham o'zgarib turadi, ammo mohiyatan ular hamisha shaxsga yo'naltirilganligi, inson huquqi va erkinliklarini ifodalash borasida doimiy bo'ladi.

Umuman, umumbashariy milliy-madaniy va ijtimoiy-madaniy shakllarga ega bo'lgan qadriyatlarning umumiy ifodasi ta'lim mazmuni va standartlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugun ular ta'limning axloqiy va madaniy jihatdan belgilanadigan maqsadlariga qaratilgan. Shunga ko'ra, o'sib kelayotgan avlodni mehnatsevar, to'g'riso'z, ishbilarmon, savodli, tarbiya ko'rgan, o'z qadr-qimmatini biladigan, mustaqil fikrlay oladigan, fidoiy, shaxsiy burchini his etadigan, sabr-bardoshli va boshqalarga hurmat ko'rsatish ruhida tarbiyalash taqozo etiladi.

2.2. JAMIYATDA SHAXS SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs-ijtimoiy hayotning mahsulidir.

Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir.

Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o'tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

Individ va shaxs o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar. Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi. Shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topish jarayoni. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish shaxsdagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. **Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatining shakllanishiga aytiladi. Bolaning jismoniy rivojlanishida uning bo'yi o'sadi, vazni va muskul kuchi ortadi,**

sezgi organlari mukammallashadi, harakatlarni to'g'ri boshqara oladi.

Shaxsning ruhiy rivojlanishida shaxsidagi psixik sifat va belgilar shakllanadi, hissiy-irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda, uning xulqida tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi.

Shaxs rivojlanishida biologik, fiziologik va ijtimoiy omillar, ta'lim va tarbiya, shaxsning faolligi (faoliyati) va boshqalar muhim o'rin egallaydi. Shu bois pedagogika va psixologiya fani shaxs rivojlanishini biologik va ijtimoiy xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlangan har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika nazariyasi fani rivojlanishning qonuniyatlarini unga ta'sir etuvchi omillarni, shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyatining ta'siri va ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayoti davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muhim muammolardan hisoblanadi. Shu sababli shaxsning shakllanishi masalalariga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir sabab va vositalarini bilish zarur.

Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ham, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi ham turlichadir. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat qonun-qoidalariga asosan kamol topadi. Pedagogika nazariyasi shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolga yetishida 2-shaklda tasvirlanganidek, **irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga egadir.**

2-shakl



Shunday qilib, ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi ham insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi (1920-yilda hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo'ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo'ladi)[1].

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, asab tipini, asosiy shartsiz reflekslarni meros qilib oladilar. Odam shaxsi va xulqining rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi **bixeviorizm, pragmatizm, biogenetik oqimlar** bo'lib, ularning ayrim vakillari odam bolasi ona pushti-daligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi

[1] Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. – T.: «O'qituvchi», 1996, 29-bet.

desa, ayrimlari ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, deydi. Ba'zilari esa bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi.

Biologik omilning inson shakllanishidagi o'rni muhim va o'ziga xos, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar – aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug'ma o'tishi mumkin, lekin bu tug'ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, odamlar bilan aloqa qilishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum xulq-odob qoidalariga amal qilishi lozimdir.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy muhitning o'rni beqiyosdir. Muhit bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. 3-shaklda tasvirlanganidek bularga tabiiy muhit (geografik, ekologik), ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat), oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi.

3-shakl



Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish, *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*ni qabul qilinishi barkamol avlodni tarbiyalashdagi dastlabki qadamlardir. Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali shaxsdagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. **Muhit bera olmagan narsalar ta'lim-tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto**

ta'lim-tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari, muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi.

4-shakl



Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli shaxs faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o'zgarib boradi (5-shaklga qarang). Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi-talabalar hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchi va talabalarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan

aloqada bo‘ladilar, o‘zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o‘z-o‘zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. O‘z-o‘zini tarbiyalashga ota-ona va o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri yanada samarali bo‘ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o‘zaro bir-biriga ta’siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayoni muammolari to‘g‘ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kamol topgan shaxs tarbiyaning roli va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

5-shakl



Tarbiya shaxsning barkamol rivojlanishini ta’minlashi uchun shaxsdagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o‘zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatan rivojlantiruvchi omil bo‘lmog‘i uchun tarbiyalanuvchi jamiyatning tarbiya oldiga qo‘ygan talablarini, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika nazariyasi fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchilik rolini e’tirof etish bilan birga ularning o‘zaro bir-biriga ta’sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo‘lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida o‘sayotgan avlodning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma’lumki,

bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birini o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Ayniqsa, milliy istiqlol mafkurasini yoshlar qalbi va ongiga singdirish talim-tarbiyaning hamma bosqichlarida uning turli shakllari orqali amalga oshirildi.

Shuning uchun hozirda pedagogika nazariyasi fani oldida ta'lim muassasalarida o'quvchi – talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishning differensial pedagogik - psixologik dasturini yaratishdek eng dolzarb vazifa turibdi.

Bu jarayonda tarbiyachilar va o'qituvchilar shaxsning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim. Shaxsning bugun hayoti davomida normal rivojlanishi maktabgacha rivojlanish davriga bog'liq. ***Shaxs 1 yoshgacha chaqaloqlik, 1-3 yoshgacha erta bolalik, 3-6 yoshgacha maktabgacha bolalik davrini boshdan kechiradilar.***

Yangi tug'ilgan chaqaloq dastlabki kunlardan boshlaboq hayotga moslashib, tez o'sib, rivojlana boshlaydi. Bu davrda ham jismoniy, ham aqliy tez o'sa boshlaydi, xulq-atvoridagi o'zgarishlar tez ko'zga tashlanadi.

Ota-ona va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini yaxshi bilishlari lozim, shundagina ular faoliyatini samarali tashkil qilishlari mumkin. Bu yoshda bolalar o'yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Bolalar o'yin orqali ijtimoiy hayotga faol qo'shiladilar.

Bu jarayonda ularni yoshlariga mos mehnat faoliyatlarida ishtirok etishlarini tashkil etish lozim, bu orqali ularning kuch va qobiliyatlari tez rivojlanadi.

Bolalarning maktab yoshidagi rivojlanishi uzoq davom etadigan, qiyin, murakkab jarayondir. Bu davrda ular bolalikni, o'smirlik va o'spirinlikni boshdan kechiradilar. Normal rivojlangan 6-7 yoshli bola o'zining jismoniy va aqliy kamoloti jihatidan maktabda ta'lim olish uchun tayyordir. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni kichik yoshdagi o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga, shaxsiy xususiyatlariga kuchli ta'sir etadi va ulg'ayishini tezlashtiradi. Bu yoshdagi bolada qiziquvchanlik kuchli bo'ladi. Bu holatdan o'qituvchi va tarbiyachilar samarali foydalanishlari lozim. Bola harakatchan bo'ladi, shu sababli ular organizmi tez suratlarda tekis rivojlanadi. Boladagi qiziqishlar o'z vaqtida qondirilishi, shu maqsadda paydo bo'lgan savollarga javob

berilishi lozim. Bu yoshdagi bolaga o'qituvchining ta'siri kuchli bo'ladi, ularning topshiriq va talablarini bajonu dil bajaradilar, O'qituvchining bola oldidagi obro'si nihoyatda kuchlidir. Shu sababli muallim eng yaxshi namuna ko'rsatadigan shaxs bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'z o'quvchilarining jismoniy va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi va hisobga olgan holda ular bilan muloqotda bo'lishi darkor.

Bola rivojlanishida o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu 11-15 yoshli o'quvchilardan iborat. Bu davr shaxs rivojlanishidagi eng murakkab davr hisoblanib, ba'zan uni o'tish yoshi davri, deb ham atashadi, chunki bu yillarda ular bolalikni tark etib balog'at yoshiga o'tadilar. O'smirlik davrining murakkabligi ularning anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlarida sodir bo'layotgan kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Tarbiyada o'smirlik davri, qiyin davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolaning intizomi yomonlashadi, o'zlashtirishi pasayadi, o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar bir tekisda bo'lmaydi. O'smirning xulq-atvoridagi beqarorlik, ko'p narsaga tanqidiy ko'z bilan qarashi, maqtanchoqlik xususiyatlarini paydo bo'lishi, qizlardan birini yashirincha sevib qolishi kabilar uning jismoniy rivojlanishi va balog'atga yetishi bilan izohlanadi. Tajribali ustoz, murabbiylarning fikricha, o'smirlik davri eng samarali yoshdir. Ular bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning samarali bo'lishini ta'minlovchi eng asosiy shartlardan biri o'smirning jismoniy va ma'naviy rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini hisobga olib ish tutish va ularda paydo bo'layotgan yangi ehtiyojlarga g'oyat katta e'tibor berishdan iboratdir.

Bu yoshda do'stlik, o'rtoqlik tarbiyasiga alohida e'tibor berish lozim. O'smirning do'sti, o'zining tengdoshi, fikrdoshi, tilakdoshi, hatto tanqidchisi hamdir. Bu davrda paydo bo'lgan do'stlik, bir umrga qolishi mumkin. O'smirlar bilan ishlaganda, o'qituvchi - murabbiydan yuksak mahorat, sabr-toqat, vazminlik, ularning mustaqil fikrlashlariga imkoniyat yaratish va tinglash, jamoa hayotiga oid ishlar yuzasidan o'smirga quloq solish kabilar ularga to'g'ri tarbiya berishning muhim shartidir. Ular, shaxsini hurmat qilgan, kamsitmaydigan, o'smirlarni katta bo'lib qolganini tan oladigan o'qituvchilarga ishonadilar va hurmat qiladilar.

O'spirinlik davri yoshlikning dastlabki yillari bo'lib, 15-18 yoshni o'z ichiga oladi. Bular katta yoshli o'quvchi-talabalar bo'lib, asosan o'rta maxsus, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim jarayonida shakllanadilar. Bu davr murabbiylar va o'qituvchilar uchun juda mas'uliyatli bo'lib, ular o'z oldilariga katta yoshdagi o'quvchi-

talabalarni ijtimoiy va shaxsiy hayotga bevosita tayyorlash bilan bog'liqdir.

O'spirinlik jismoniy o'sishning davri bo'lib, organizmning tarkib topishi, to'qimalarning takomillashishi nihoyasiga yetadi. Bu esa, o'quvchi-talaba shaxsining xususiyatlariga va faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshda o'quvchi-talabaning o'qishga munosabatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ular o'zlarining hozirgi hayoti va faoliyatiga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Shu sababli o'qishga bo'lgan qiziqish bilan kasbga bo'lgan qiziqishi o'rtasida uzviylik vujudga keladi.

Bu yoshdagi o'quvchi-talabada onglilik, mustaqillik darajasini ortishi, qiziqishlar doirasining berilayotgan bilimlar bilan qoniqmaslik, ko'proq narsalarni bilishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Shunday ekan, o'qituvchilar axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishi, turli mavzularda ma'ruzalar, uchrashuv va bahslar tashkil qilishning ahamiyati beqiyos kattadir.

Shaxs rivojlanishining yana muhim bir davri yoshlik yillari bo'lib, bu 17-18 yoshdan 24-25 yoshgachadir. U talabalarning har tomonlama shakllanish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu davrdagi yutuqlar oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligiga bog'liqdir. Talabalik davrining xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlari bilan ro'yobga chiqishidir. Bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatlari takomillashadi. Jumladan, mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik kabilar shakllanadi. Ijtimoiy voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni anglashga intilish tobora kuchayadi. Yigit va qizlarimizni oliy o'quv yurtlariga kirib o'qishlari ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari va aql - zakovatlariga, ichki imkoniyat va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi.

Talabalik davrida ijodiy tafakkur muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his-tuyg'ular, qarashlar axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talabalar o'quv faoliyatining muvaffaqiyati oliy o'quv yurtidagi ta'lim va tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va unga amal qilish hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borishdan iboratdir.

Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Yosh xususiyatlarini hisobga olish, shaxs xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrda o'quvchi-talaba imkoniyatlarini hisobga olgan

holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. O'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyati o'qituvchining har xil yoshdagi yoshlar o'rtasidagi tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog'liqdir. Shunday ekan, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi va maktab hamda o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning yoshi davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmoqlari lozim. Shaxs, uning xarakteri, xulq-atvori, umuman, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatlidir. Shu sababli rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, balki bunda sakrashlar, notekisliklar ham sodir bo'ladi.

Shunday ekan, o'qituvchi va tarbiyachilar o'quvchi-talabalarning yoshi oshgan sari uning ehtiyojlarida, intilish va qiziqishlarida qanday sifat o'zgarishlari sodir bo'layotganini muntazam kuzatib borishlari lozim.

Xulosa shuki, pedagogika nazariyasi fanining eng muhim vazifasi shaxs rivojlanishini har jihatdan o'rganishdir va o'qituvchining pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat qozonish sharti o'z o'quvchi-talabalarining xislat va xususiyatlarini bilishidan iboratdir. Shaxsning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yig'indisi, ya'ni tevarak-atrofidagi odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatta, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagog shaxsning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.[1]

2.3. PEDAGOGIK FAOLIYAT, PEDAGOGIK QOBILIYAT VA PEDAGOGIK MAHORAT O'ZIGA XOS PEDAGOGIK JARAYON SIFATIDA

Hozirgi zamon pedagogika nazariyasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri – pedagogik faoliyat muammosi hisoblanadi. Chunki, pedagogning faoliyati orqali dunyoviy bilimlar va pedagogik-psixologik g'oyalar hayotga tatbiq etiladi.

---

[1] G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika (oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma). – T.: 2005, 25-34-betlar. IBRAGIMOV X., ABDULLAYEVA SH.. PEDAGOGIKA NAZARIYASI (darslik). – T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA», 2008, 53-57-betlar.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, ma'naviyat, madaniyat, falsafa, tarix, huquqshunoslik va boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan iqtisodchi pedagog kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bilan amalga oshirish mumkin.

Shunday ekan, *pedagoglik kasbi – katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Buning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlodning chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.*

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish va pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik faoliyati, mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining ta'lim muassasasidagi asosiy ishidir. Shu sababli u ilmiy, g'oyaviy va ommabop bo'lishi, turmush bilan o'quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan bog'lanishi zarur.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi va talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr almashuv, samimiy munosabat, hurmat, asosiy maqsadga erishishda hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars-ma'ruza va

boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi-talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy va g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shunday ekan, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, uning ta'sirida o'quvchi-talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi, pedagogning ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi-talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari pedagoglarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z o'quvchi-talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. *Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.*

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. O'qituvchilik kasbini tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalanmog'i lozim:

1. Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, adabiyot, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, pedagogika va psixologiya hokazolarga doir) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi fan-texnika yangiliklarini hamisha kuzatib boradi, materialni mukammal biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajara oladi.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o'quv materialini o'quvchi-talabalarga tushunarli qilib bayon eta olish, material yoki muammoni aniq va tushunarli qilib gapirib berish, o'quvchi-talabalarni mustaqil ravishda fikrlashga o'rgatish, zarur holatda o'quv materialini o'zgartira

olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchi-talabalarga yetkazish kabilar.

Qobiliyatli pedagog o'quvchi-talabalarning ruhiyatini, bilim va qobiliyat darajasini hisobga oladi, ularning nimalarni bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ba'zi o'qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materiali oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchi-talabalarni emas, balki o'zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchi-talabaning o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq, tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchi-talabaga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakteri va shaklini alohida o'ylab rejalashtiradi.

Qobiliyatli o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchi-talabalarning qanday o'zlashtirayotganliklarini payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o'qituvchi o'quvchi-talabalarni materialni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shashish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun biroz vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar darsni boshlamaydi.

3. **Kuzatuvchanlik qobiliyati** – o'quvchi-talabalarning ichki dunyosiga kira olish, har bir o'quvchi-talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik va hokazolar. Bunday qobiliyatli o'qituvchilar kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi-talabalarning ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. **Nutq madaniyati** – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr hamda his-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchi-talabalarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan o'quvchi-talabaning javobini tahlil qilayotgan yoki ma'qullamayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha ta'sirchanligi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchi-talabalar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

O'qituvchining bayoni o'quvchi-talabalar fikri va diqqatini yuksak darajada faollashtirishga qaratiladi; o'qituvchi o'quvchi-talabalar oldiga

savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchi-talabalarning diqqatini kuchaytiradi va fikrini faollashtiradi *(«Mana bu yerga alohida e'tibor bering», «O'ylab ko'ring» kabi).* Shuningdek, o'rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqini juda jonlantirib yuboradi va uni o'quvchi-talabalar tez o'zlashtiradilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq, zeriktiradigan nutq o'quvchi-talabalarni juda tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'qituvchilar tez gapirishga, boshqalari sekin-asta gapirishga moyil bo'ladilar. Biroq o'quvchi-talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik materialni o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi, shuningdek, haddan tashqari keskin va qattiq tovushli baqiroq nutq o'quvchi-talabalarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo'yadi, o'qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda bir xil takrorlanadigan imo-ishora va xatti-harakatlar o'quvchi-talabalarning g'ashini keltiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o'quvchi-talabalar jamoasini uyushtirishni, jipslashtirishni, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni; ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi. O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Dars davomida ortiqcha vaqt sarflash hollari ba'zan uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati – o'quvchi-talabalarning hissiyoti va irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun majmuiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek, o'quvchi-talabalarga ta'lim va tarbiya berish mas'uliyatini his etishiga, o'zining haq ekanligiga ishonishiga, bu ishonchni o'quvchi-talabalarga yetkaza olishga ham bog'liq.

O'quvchi-talabalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini juda hurmat qiladilar. O'qituvchining bo'shangligi, laqmaligi, prinsipsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati – o'quvchi-talabalarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligidadir.

8. Oldindan ko'ra bilish qobiliyati – o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchi-talabalarning kelgusida qanday odam bo'lish istiqbolini tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat tarbiyaning qudrati va shaxsning kelajagiga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati -- o'qituvchida diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilinishi, safarbarligi kabilar taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyati – o'qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchi-talabaning fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchi-talabalarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini tez payqab oladi, intizomsizlik hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat, o'z xatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o'quvchi-talabalarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu o'quvchi-talabalarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikrini yo'qotib qo'yadi.

Shunday qilib, o'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari *bir qancha ijobiy sifatlarga – aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi* fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak.

O'qituvchida bunday xususiyatlar bo'lmasa, o'rtamiyona pedagog darajasidan yuqoriga ko'tarila olmaydi.[1]

O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongliligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilim va fikr doirasining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahoratda o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki pedagogda bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi.

[1] Malla Ochilov. Muallim qalb me'mori. – T.: «O'qituvchi», 2001, 202-212-betlar.

Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan pedagog, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'quvchi - talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab borishi zarur. Buning uchun ko'p o'qishi, o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik faoliyati va mahoratiga baho berishda uni ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'limda dars va ma'ruzalarni mukammal tashkil qilishi o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tilgan mavzular o'quvchi-talabalar ongida uzoq saqlanadi, ularning imon, e'tiqodi va milliy istiqlol mafkurasining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi, o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati, dastlab dars va ma'ruzalarda ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va ma'ruzaning sifati va samaradorligi belgilaydi.

Dars berish san'atini egallashda pedagog uyushtirgan o'quv mashg'uloti, chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonch, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'z murabbiylari va professor-o'qituvchilari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlar qalbini, ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, o'z fanini va uni o'qitish usullarini mukammal o'zlashtirib olishi, murabbiy-pedagogga xos madaniyatning yuqoriligi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat, ular hayotiga qiziqish va ruhiy holatlarni bilish va tushunish, bosiqlik, his-tuyg'ularini boshqara olishlari, tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyatiga e'tibor berishlari, nutq madaniyatining yuqoriligi, jamoat ishlarida faolliklari, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-madaniy ishlar targ'ibotchilari bo'lishlari lozim.

Shundagina, mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi-talaba yoshlarimiz o'z ustozlarini nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. *Buning uchun har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatilganidek, o'z fanlari bo'yicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarligi va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak.*

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisining pedagogik faoliyati va uning shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi lozim?

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchi-talabalarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va zamonaviy texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qoniniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishiga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga va hamkasblariga o'rnak bo'la olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchi-talabalar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining pedagogik faoliyati salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) talablari kuchaytirilmoqda.

Kasbnoma (professiogramma) quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi shaxsining xususiyatlari; o'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni; ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini* va pedagogik asoslarini chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;

– kasbiy pedagogik faoliyatida – o'quvchi-talaba yoshlarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik kasbini sevish; psixologik-pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish; vazminlik, o'zini tuta olish;

– bilish sohasida – keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni intilish va h.k.

O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar:

– pedagogika, psixologiya va metodologiya asoslarini, shaxsning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish;

– tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish, bolalar, o'smir va o'spirinlar fiziologik rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini bilish;

– o'quvchi-talabalar gigiyenik va sog'lom turmush tarzi tarbiyasining nazariy, tabiiy-ilmiy asoslari va vositalarini bilish;

– shaxs rivojlanishining psixik qonuniyatlarini, har xil yoshda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilish.

Ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasida:

– har qanday pedagogik vaziyatni tahlil qilish; pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo'ljallay olish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo'lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoitlari va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish;

– o'quvchi-talabalarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash;

– shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish;

– ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatolarni ko'ra bilish:

– aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish;

– o'quvchi-talabalarning sinf va auditoriyadagi ham darsdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish ko'nikmasi;

– o'quvchi-talabalarning tashqi ko'rinishi va qiliqlaridan uning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ma'lum vaziyatda o'quvchi-talabalar xulqining xususiyatlarini anglash va izohlash ko'nikmasi;

– o'zini xayolan tarbiyalanuvchi, ya'ni o'quvchi-talabalar o'rniga qo'ya olish ko'nikmasi;

– o'quvchi-talabalarni shaxs uchun va ijtimoiy qimmatli istiqbollarga qiziqtirish va jalb qilish ko'nikmasi;

– umumiy vazifalarni bajarish uchun o'quvchi-talabalarni guruhlarga bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olish ko'nikmasi;

– tezda qarorlar qabul qilish va pedagogik ta'sirning ancha kuchli vositalarini tez topa olish ko'nikmasi;

– to'g'ri talablar qo'ya bilish, pedagogik vaziyat va har bir o'quvchi-talabaning xususiyatlariga qarab ularni o'zgartira olish ko'nikmasi;

– ayrim o'quvchi-talabalar jamoasi va kichik guruhlar, shuningdek, ota-onalar va o'qituvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnata olish ko'nikmasi;

– har xil odamlar bilan turli sharoitda aloqa qilish, umumiy til topa bilish va to‘g‘ri muomala qila olish ko‘nikmasi;

– o‘quvchi-talabalarni o‘ziga qarata olish ko‘nikmasi;

– zarur hollarda jamoaga va ayrim o‘quvchi-talabalarga nisbatan munosabatni o‘zgartira olish, ularga individual yondashish yo‘llarini topa olish ko‘nikmasi;

– ruhiy xususiyatlar va ma’naviy-ruhiy vaziyatlar, ijtimoiy pedagogik-psixologik holatlar va xatti-harakatlarning sabablarini ko‘ra olish ko‘nikmasi;

– sinf va guruhdagi ijobiy yoki salbiy ijtimoiy pedagogik-psixologik hodisalarning, jamoadagi munosabatlarning xarakterini ocha bilish ko‘nikmasi va h.k.

Pedagogik jarayonni to‘g‘ri uyushtirish sohasida:

– qo‘yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o‘zgartira olish ko‘nikmasi;

– tashqi ta’sirlarga moslashish yoki ulardan saqlanish; sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o‘zgartira olish malakasi;

– o‘quvchi-talabalarning jamoadagi o‘zaro munosabatlariga rahbarlik qila olish, ularni to‘g‘ri yo‘lga sola bilish, paydo bo‘lib turgan o‘zaro nizolarni yo‘qota bilish; o‘quvchi-talabalar orasida do‘stlik va o‘rtoqlikni rivojlantira olish ko‘nikmasi;

– ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlarni amalga oshirish, o‘quvchi-talabalarning ishi ustidan joriy nazariy nazorat qilish, faoliyatning xarakter va yo‘nalishini almashtirib turish ko‘nikmasi.

Yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash va pedagogik vazifalarni belgilash sohasida:

– olingan natijalarni dastlabki ma’lumotlar va topshirilgan pedagogik maqsadga taqqoslab tahlil qila bilish ko‘nikmasi;

– o‘quv-tarbiyaviy ishlarning samarali shakl, metod va vositalarini topa bilish ko‘nikmasi;

– ta’lim va tarbiya usullarini qo‘llashning qulay sharoitlarini aniqlay bilish ko‘nikmasi;

– pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini tahlil qila bilish ko‘nikmasi;

– ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, ishning samarali shakl va usullarini o‘zlashtirib olish maqsadida boshqa o‘qituvchilar tajribasini tahlil qila bilish ko‘nikmasi; o‘z tajribasi bilan pedagogika nazariyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash, tadqiqotchilik vazifalarini o‘z oldiga qo‘ya bilish ko‘nikmasi;

– erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida galdagi pedagogik vazifalarni belgilay olish va amalga oshira olish ko'nikmasi.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi:

– ixtisosga doir bilimlarni bilish; ilmiy bilimlarni, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlarini bilish; fanning nazariy va amaliy ahamiyatini hozirgi darajasi, qonuniyatlari, tarixi va rivojlanishining keyingi asosiy yo'nalishlarini bilish; pedagogika va psixologiya fani asoslarini tushunish; ayrim fan sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil ilmiy tadqiqot ishidan dastlabki malakalar hosil qilish, bilimlarni mustaqil to'ldirish uchun bibliografik ma'lumotnomalar, ko'rsatmalar, loyiha (prospekt), tematik kataloglardan foydalana bilish va h.k.

Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni:

– uzluksiz ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida fanlarni o'qitishning maqsadi va vazifalarini bilish, Davlat ta'lim standartlari, amaldagi fan bo'yicha o'quv dasturlarini, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni har tomonlama puxta bilish;

– fanning qaysi masalalari o'quvchi-talabalarda qiyinchilik tug'dirishini tez payqash, bu qiyinchiliklar mohiyatini tushunish, ularni bartaraf etish yo'llarini, o'qitish metodikasining nazariy asoslarini bilish;

– ma'lum sharoitlarda didaktikaning, pedagogik psixologiyaning asosiy qoidalariga tayangan holda o'qitishning qulay muqobillarini tanlay olish; zarur hollarda ishning ma'lum usullarini boshqasi bilan almashtira bilish, didaktikaning asosiy qismlari (tushuncha, qonuniyatlar, ko'nikma va malaka)ni, ularni shakllantirish metodikasini bilish;

– o'quv-tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish;

– rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o'quvchi-talabalarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko'nikmalari va h.k.

O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida:

– o'quvchi-talabalarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish ko'nikmasi;

– ilmiy-materialni qayta ishlab, o'quv materialiga aylantira olish ko'nikmasi;

– ma'lum didaktik vazifaga muvofiq o'quvchi-talabalar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasi;

– darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasi.

O'quvchi-talabalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida:

– tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o'quvchi-talabalar va jamoa uchun vazifalar belgilash, qo'yilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o'zgartira olish ko'nikmasi;

– o'quvchi-talabalarga ta'sir o'tkazish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishni rejalashtirish ko'nikmasi;

– ta'lim va tarbiya uslub (metod)larini pedagogik maqsadga muvofiq qo'llash ko'nikmasi;

– o'quvchi-talabalar xulqi va faolligini boshqarish;

– o'quvchi-talabalarda fanga qiziqishni uyg'otish va rivojlantira bilish;

– mutaxassislik bo'yicha barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarni hozirgi zamon didaktikasi, pedagogik-psixologik, tizimli, texnologik yondashuvlar va texnik talablar darajasida tashkil qila bilish;

– ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba shaxsini rivojlantirish, shuningdek, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga va kasbiy faoliyatga tayyorlash ko'nikmasi;

– oddiy ko'rgazmali qurollar tayyorlay bilish, o'qitishning texnika vositalari bilan ishlash malakasiga ega bo'lish va ulardan foydalanish metodikasini bilish va h.k.[1]

«Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir», – degan shior kun tartibiga o'rinli kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosi kun tartibiga qo'yilgan bugungi kunda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o'ringa chiqdi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari:axloqiy barkamollik, ya'ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik, qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlik, muloyimlik va boshqalardir.

[1] Malla Ochilov. Muallim qalb me'mori. – T.: «O'qituvchi», 2001, 202–208-betlar.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rgata olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo'yicha quyidagi mezonlar qayd qilinadi: *«Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin». 1) avvalo: o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; 2) o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida xokisor bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; 4) ko'rish(nojoiz) lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish; 7) ustoziga qarshi bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.* Ana shular asosida o'qituvchi va shogirdlar o'rtasidagi dialektik munosabat to'laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:

1. *Jismoniy va aqliy salomatlik.*
2. *Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.*
3. *Kuchli va keng qamrovli bilim.*
4. *Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.*
5. *Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.*
6. *Muttasil o'z ustida ishlash, malakasini oshirish va boshqalar.*

Odatda, ko'pchilik o'qituvchilar shaxsni o'rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o'z o'quv fani doirasida o'quvchi-talabani tegishli bilim va ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko'radilar. Vaholanki, o'qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi – **ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish** bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Umuman, bu fikrni quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsada, uning

kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi.

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish lozim bo'ladi.

2.4. O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

O'zbekiston Respublikasi *«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*da ko'zda tutilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida talim-tarbiyani tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishish o'quvchi-talabalarni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish vazifalari ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: o'quvchi-talabalarni o'qitish va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimga ega bo'lishni, o'z sohasini, o'quvchi-talabalarni sevishni talab qiladi. O'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor va fidoyi o'qituvchilar soni yildan - yilga ko'payib bormoqda va bunday pedagoglar el-yurtga tanilmoqda.

Ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaxs – bu o'qituvchi. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun **pedagogik nazariyani** egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariya o'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan metodik g'oyalarni bayon etadi. Biroq ta'lim berish jarayonida pedagogik nazariyaga mos

kelmaydigan vaziyatlar ham uchrab turadiki, ularning oqilona yechimini topish uchun o'qituvchidan bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik talab qilinadi.

Shuning uchun ham maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar:

– pedagogik qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

– milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol shaxs;

– O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;

– ixtisosiga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan mutaxassis;

– o'qituvchilik kasbiga mehr qo'ygan, yoshlarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchisi va talabasi ulg'ayib yaxshi mutaxassis bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, uning shaxs sifatida rivojlanib barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan murabbiy;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan adolatli, odobli kasb egasi bo'lmog'i darkor.

O'qituvchi yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, o'quvchi-talabalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko'rgan, kasbiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan insondir. Bu yerda *«kasbiga muvofiq»* jumlasiga e'tibor berish lozim, chunki nokasbiy pedagogik faoliyat bilan deyarli barcha odamlar shug'ullanadi, ammo faqat o'qituvchigina qachon, qayerda, qanday tarbiya berish kerakligini biladi va bu tarbiyaning samarali usullaridan foydalanish hamda pedagogik qoidalarga mos holda olib borishni uddalay oladi, o'z kasbiy burchini bajarish uchun belgilangan tartibda mas'uliyatni sezgan holda mehnat qiladi. O'qituvchilik ishi inson faoliyatning murakkab turlaridan biridir. O'quvchi-talabalarni tarbiyalashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Ammo odamlarning aksariyat qismi o'qituvchi aynan nima bilan shug'ullanishlaridan to'liq xabardor emas va pedagogik faoliyatning ko'zga tashlangan tashqi belgilarini ko'rsatish bilan cheklanadi. Agar savolni: **«O'qituvchining boshqa odamlardan nima farqi bor?», – deb bersak, ko'p narsa oydinlashadi.** O'qituvchi

faqatgina fanni bilgan kishining vazifasi emas, u shu barobarida pedagogik faoliyatni ham eplay olishi kerak.

Albatta, matematikani o'rgatish faqat matematikani biladigan odamning qo'lidan keladi. Lekin tarbiyalashni bilmagan qanchadan-qancha bilimli matematiklar hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi bo'lib chiqadilar. «O'qituvchi o'zi nima ish qiladi? Uning pedagogik vazifalarini qanday so'zlar bilan ifodalash mumkin?», – degan savolga mohirona javob topishga harakat qilamiz.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar pedagogik professiogrammada keltirilgan ixtisoslik xususiyatlarini bilishlari lozim. Professiogramma quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1) o'qituvchi shaxsining xususiyatlari;

2) o'qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;

3) maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;

4) ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy yo'nalishda: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagog kasbi yo'nalishda: o'quvchilarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik faoliyatdan huzurlanish; ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik; dilkashlik; talabchanlik; qat'iylik; maqsadga intilish; vazminlik; xushmuomalalik; o'zini tuta bilish; kasbiy layoqatlilik.

Bilish borasida: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; o'zining pedagogik ma'lumotini oshirishga intilish.[1]

Pedagogning vazifasi pedagoglarga xos kasbiy bilim va mahoratni qo'llashga intilishdir. Albatta, pedagoglarning o'z mahoratlarini ishga solishlari bilan bog'liq asosiy yo'nalish – bu o'qitish, bilim berish, tarbiya berish, o'quvchi-talabalarning bilim saviyasini oshirish va ularning malakalarini shakllantirishdir.

Bu yo'nalishlarning har biri doirasida ko'p muayyan xatti-harakatlar bajariladi va bu ishlardan ko'zda tutilgan vazifalar ko'p

[1] Z.Ismoilova. O'qituvchi va uning jamiyatda tutgan o'rni.//UZLUKSIZ TA'LIM, 2004-yil 2-son, 81-82-betlar.

holatlarda yashiringan bo'lib, hamma vaqt oshkora ko'rinib turmaydi. Shunga qaramasdan, pedagog ishining mohiyatiga qarab, kasbiy pedagogik asosi nima ekanligini aniqlaymiz: *o'qituvchining asosiy vazifasi – bu ta'lim va tarbiya berish, malakalarni shakllantirish jarayonlarini boshqarish; o'qitish emas, o'qishga yo'l ko'rsatish, tarbiya berish emas – tarbiyalash jarayoniga rahbarlik qilishdir. U o'z vazifasini yaqqolroq anglagan sari o'z o'quvchi-talabalariga ko'proq mustaqillikni, tashabbuskorlik va erkinlikni taqdim qiladi.*

Shuning uchun ham Sokrat mohir pedagoglarga **«fikr akusherlari»** nomini bergan. Uning nomi **«mayetika»**, tarjimada **«doyalik san'ati»**dir. Tajribali pedagog tayyor ma'lumot berish emas, balki o'quvchi-talabaning miyasida fikr tug'ilishiga yordamlashishi kerak. Demak, pedagog mehnatining mohiyati – bu barkamol inson shakllanishiga hamroh bo'ladigan barcha jarayonlarni boshqarishdir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, pedagog-o'qituvchi omili yoshlarning g'oyaviy-siyosiy bilimlarni egallashlari orqali kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy hisoblanadi. Davr taraqqiyoti va ehtiyojlari asosida *pedagog-o'qituvchi* **«shaxsi»***ni rivojlantirish, pedagogik ta'sir etish vositasida ulardagi qobiliyat, qiziqish, iste'dod, e'tiqod hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.*

Shu bois o'quvchi-talabalar ta'lim-tarbiyasida yuksak samaradorlikka erishishda har bir fan o'qituvchisidan chuqur pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalar, o'qituvchi-talabalarning har birini o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Shunga ko'ra o'qituvchi shaxsiy rejasini quyidagi talablar asosida ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir: – *pedagogik muammolarni prognoz qilish: o'qituvchi pedagogik prognoz qilishda muammolarni oldindan ko'ra bilish va uni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;*

– muammolarni hal etishning metodik jihatdan maqbul yo'llarini izlab topish va shakllantirish: o'qituvchi muammoni metodik jihatdan hal etishda eng samarali va optimal usulni tanlashi va uni qo'llagan holda muammolarni bartaraf etish zarur;

– o'quvchi-talaba shaxsiga «pedagogik ta'sir» ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi: o'qituvchi o'quvchi-talaba shaxsiga «pedagogik ta'sir» ko'rsatish usul va vositalaridan o'rinli foydalanishda ta'lim-tarbiya jarayonining markazida o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishni nazarda tutishi zarur;

– o'z vazifasini faqat ta'limning sinf-dars shakli bilan cheklanmaslik: individual o'zlashtirish jarayonini hisobga olgan holda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish orqali ta'limda samaradorlikka erishish kerak;

– sinf yoki guruh rahbari vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish: sinf-guruh jamoasi va har bir o'quvchi-talabaning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z vazifasiga jiddiy yondashish lozim;

– sinf-guruh rahbari va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati asosida yagona ta'lim-tarbiya maqsadini amalga oshirish zarur;

– sinfdan va darsdan tashqari darslarni izchil va tizimli tashkil etish: mazkur darslarda birdamlik, jamoaviylik, do'stlik, bir-biriga ijobiy munosabat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim;

– o'quvchi-talabalarni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti kutubxonasidagi kitoblarni asrab-avaylashga jalb qilish: kutubxonalar bilan aloqani yo'lga qo'yish orqali o'quvchi-talabalarda kitobga bo'lgan ijobiy munosabatni, kitobxonlikni hamda keng dunyoqarashni shakllantirish zarur;

– o'quvchi-talabalarning darsdan tashqari faoliyatini yagona ta'lim-tarbiya uyg'unligida rejalashtirish: o'quvchi-talabalarning bo'sh vaqtlarini kerakli mashg'ulotlar bilan band qilish, ularni to'garaklarga jalb qilish, kasbga yo'llash kabilarga ahamiyat berish lozim;

– rejalashtirilgan ishlarni tizimli va majmuaviy yondashuvlar asosida olib borish: ishlab chiqilgan tizim asosida ta'lim muassasasi jamoasi bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish zarur.

O'qituvchining bunday faoliyati o'quvchi-talabalarni har tomonlama bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim jarayonining subyekti sifatida rivojlantirib hamda shakllatirib borishning muhim omili hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogning shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra o'qituvchining kasbiy-shaxsiy mahoratga ega bo'lishi, ilmiy jihatdan bilimdonligi va uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlari o'quvchi-talabalarda faollik hamda mustahkam ijodiy bilimga intilishni shakllantirishning hal qiluvchi asosi hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi va bu jarayon kasbiy faoliyatga maksimal yaqinlashtiruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida talabada o'qituvchilik kasbiga ijobiy munosabatlar, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish, sinfga rahbarlik qilish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchi-talabalar shaxsini, sinf yoki guruh jamoasini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, milliy tarbiya masalalarini hal etishda o'quv-tarbiya muassasalariga yordam berish, madaniy-ommaviy ishlarda faol ishtirok etish, bilim, ko'nikma va malakalarni yanada tarkib toshirish kabi jihatlar faollashib, mustahkamlanib, ularni o'qituvchilik kasbiga va mehnatiga tayyorlab boradi.

Bundan tashqari, ta'lim samaradorligiga erishish uchun bo'lajak o'qituvchi shaxsiga bugungi kunda ta'limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o'qituvchi shaxsiga quyidagi pedagogik-psixologik talablar qo'yiladi:

6-shakl



Yuqoridagi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lajak o'qituvchi, o'z o'quvchi-talabasi shaxsida: olijanoblik, aqliy qobiliyat, ma'naviy yetuklik va boshqa yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalay oladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchi-talabalarning yoshiga xos pedagogik-psixologik individual xususiyatlarni hisobga olgani holda:

– o'quvchi-talabalarni ongli intizomga rioya qilishga odatlantirish;

– pedagogik faoliyatda adolatli yo'l tutish;

– sinf va guruh faollar harakatini qo'llab-quvvatlash;

– o'quvchi-talabalarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirib borish;

– berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishni talab qilish;

– sinf va guruh jamoasidagi tarbiyaviy ishlarni izchil olib borish kabi usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.[1]

Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, turli axborot zaxiralari, o'quv-metodik adabiyotlar ko'lamini kengaytirish hamda pedagogik amaliyot davrida olib borgan kuzatishlari natijasida to'plagan materiallarni amalda qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya orqali to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar hamda shakllangan ma'naviy fazilatlar yig'indisidir.

Ta'lim – insoniyatni ilmiy bilimlar, hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, qobiliyatlarini o'stirish, tafakkurlarini shakllantirish jarayonidir. Shuningdek, ta'lim pedagoglarning (bilim berish) faoliyatidan va o'quvchi-talabalarning (bilim olish, o'qish) faoliyatlaridan iboratdir.

Tarbiya – shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir.

Uzluksiz ta'lim tizimi – maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limidan iboratdir.

Ijtimoiy taraqqiyot – tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni shaxsni

[1] G.Boymurodova. Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar.//UZLUKSIZ TA'LIM, 2007-yil, 3-son 97-100-betlar.

shakllanish jarayoni. Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yetakchi o'rin egallaydi.

Shaxs shakllanishi – inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi va unda bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi.

Pedagogik jarayon – o'qituvchi yoki pedagog, o'quvchi va talaba orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish-o'rganish va tarbiyalash zaylida kechadigan munosabatlar tizimidir.

Pedagogik faoliyat – jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qator fanlardan bilim berish hamda umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq hamda muayyan pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshirish, ya'ni barkamol avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turidir.

Ta'limni demokratlashtirish – muayyan jamiyat va shaxs ehtiyoji hamda imkoniyatidan kelib chiqib, ma'lum bilimlar turi va hajmini erkin holda tanlab olish.

Ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish – pedagogik jarayonni, ya'ni ta'lim-tarbiya beruvchi bilan o'quvchi-talaba orasidagi pedagogik munosabatlarni o'ta insoniy (o'zaro izzat-hurmat va muhabbat) ruhda amalga oshirish.

Pedagogik muloqot – ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muloqot turi.

Pedagogik qobiliyat – faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Pedagogik mahorat – o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan, dars berishni) pedagogika nazariyasidagi qonun-qoidalar va zamonaviy ta'lim metodlari asosida o'quvchi-talabalarga aniq va tushunarli qilib yetkazib berishdir.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturi» asosida ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish istiqbollariga oid vazifalarni tushuntirib bering.

2. «Ta'lim va jamiyat», «Ta'lim va davlat», «Ta'lim va shaxs», «Jamiyat va shaxs», «Davlat va shaxs» tushunchalarining bir-biri bilan o'zaro ta'sirini va uyg'unligini tushuntirib bering.

3. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining istiqboldagi maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

4. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

5. Milliy istiqlol g'oyasi doirasida amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar va vazifalar nimalardan iborat?

6. Ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos texnologiyasi nimaga asoslanadi?

7. Tarbiya keng ma'noda va tor ma'noda nimani bildiradi?

8. Bag'rikenglik va hurfikrlilik tushunchalarini izohlab bering.

9. Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari va muammolarini tushuntirib bering.

10. Pedagogik kadrlarning kasbiy fazilatlariga nimalar kiradi?

11. Pedagogik faoliyat tushunchasini izohlang.

12. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

13. Pedagogik mahorat nima?

14. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rnini tushuntirib bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi va ularning mohiyati.

2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining pedagogik mohiyati.

3. O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni.

4. Pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat va pedagogik mahorat – pedagogik jarayon sifatida.

5. Pedagogik jarayon va mutaxassislik.

6. «O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi», «Mening ideal o'qituvchim», «O'qituvchi burchi, mas'uliyati, insonparvarligi va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida» mavzularidan biriga esse yozing.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Tarbiya keng ma'noda nimani nazarda tutadi?

a) ijtimoiy tajriba va shaxs rivojlanishini;

b) maxsus tashkil etilgan, ma'lum maqsadga qaratilgan ajdoddan avlodga o'tadigan ijtimoiy-madaniy tajriba va shaxs rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitdir;

s) shaxsning shakllanish ehtiyojlarini e'tiborga olish;

d) ta'limning va amaliy ishlarning aniq maqsadini belgilash;

e) ta'lim va jamiyat maqsadlarini birlashtirish.

2. Tarbiya tor ma'noda nimani bildiradi?

a) yoshlarni jamiyat hayotining aniq vaziyatiga jalb etish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratish bo'yicha kattalarning birgalikda olib boradigan aniq faoliyatini bildiradi;

b) ijtimoiy-shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayonni bildiradi;

s) shaxsni mavjud shart-sharoitga moslashish jarayonini bildiradi;

d) shaxsning shakllanish jarayonini bildiradi;

e) shaxs ijtimoiy majburiyatlarni faol va mas'uliyat bilan bajarishni bildiradi.

3. Pedagogik faoliyat nima?

a) pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan va bunga maxsus tayyorlangan o'qituvchi-pedagogning mehnat faoliyatidir;

b) pedagogik faoliyat insonni o'zini qurshab turgan olamga faol munosabat shakli;

s) pedagogik faoliyat – xulq-atvorga oid xatti-harakatlar o'rtasidagi qonuniy aloqalarning motivlangan majmui;

d) pedagogik faoliyat – muayyan vazifalarni bajarishga yoki bu ijtimoiy qimmatga molik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan tadrijiy amalga oshiriladigan harakatlar;

e) pedagogik faoliyat – pedagogning vakolatliligi, faoliyatining samarasi, bilim darajasi, o'qitish texnologiyasi, shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yig'indisi.

4. Qanday shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?

a) tegishli ma'lumoti va kasb tayyorgarligiga ega shaxslar;

b) kasb tayyorgarligi va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar;

s) tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar;

d) bilimi, pedagogik mahoratga ega va kasb tayyorgarligi bor shaxslar;

e) barcha turdagi ta'lim muassasalarini bitirgan va malaka oshirish maskanlarida bo'lgan shaxslar.

5. Pedagogik faoliyatning obyekti kim?

a) pedagog;

b) o'qituvchi;

s) murabbiy;

d) tarbiyachi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Pedagogik mahorat nima?

a) pedagogik mahorat – bu o'qituvchining shaxsiy sifatlari, faoliyati, insonparvarligi, sofdilligi va javobgarligi;

b) pedagogik mahorat – bu o'qituvchining fanlarni o'rganishda erishgan tajribalarini o'z faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv-tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishgan yutuqlari;

s) pedagogik mahorat – bu pedagogning o'quvchi-talabalar bilan tarbiya maqsadida aloqa o'rnatishidir;

d) pedagogik mahorat – bu o'qituvchining his-hayajonini ifodalaydigan harakatlari, nutq, ovoz va vazifalari;

e) pedagogik mahorat – bu pedagogik vazifani, faoliyatni mohirlik bilan talqin etish, o'ylab topish, o'z faoliyatida pedagogik mahoratga erishish, yoshlar psixologiyasi va pedagogikasini yetarli darajada bilish.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va dasturida ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tushuntirib bering.

№	KTM va DTTRUY	Tushuncha

2. Tarbiyani keng va tor ma'noda izohlang.

№	TK va TM	Izoh

3. Bag'rikenglik va hurfikrlik tarbiyasi hozirgi kunda qanday ahamiyat kasb etadi?

№	B va HT	Tushuncha

4. Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish tamoyillari va muammolari nimalardan iborat?

№	TSB va NQT va M	Tushuncha

5. Pedagogik kadrlarning kasbiy fazilatlari modelini izohlang.

№	PKKFM	Izoh

6. Pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat va pedagogik mahorat nima?

№	PF, PQ va PM	Tushuncha

7. O'qituvchining jamiyatda tutgan o'rnini tushuntirib bering.

№	O'JTO'	Tushuncha

III BO'LIM. TA'LIM NAZARIYASI

III bob. DIDAKTIKANING UMUMIY ASOSLARI

3.1. DIDAKTIKANI TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDAGI TARAQQIYOTI

Didaktika – pedagogikaning ta'lim, bilim berish jarayoni va o'qitish nazariyasini umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil bo'limi hisoblanadi. Didaktika yunoncha **«didasko»** – o'qish, **«didaskol»**– o'rgatuvchi ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi.

1-shakl

DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI
Didaktika – yunoncha «didasko» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitish», «didaskol o'qituvchi» degan ma'nolarni bildiradi.
Didaktika – bilim berish nazariyasi.
Aniqrog'i, ta'lim-tarbiya beruvchilar va ularni oluvchilar orasidagi pedagogik munosabatlarning kechish qonuniyatlarini aniqlovchi va shu sohada qo'llaniladigan tushuncha, atama va qoidalarni ilmiy asoslab beruvchi hamda ularni boshqalarga o'rgatuvchi pedagogika fani tarmog'idir.

Demak, didaktika pedagogikaning yosh avlodni **«nimaga o'qitish»**, **«nimani o'qitish»** va **«qanday o'qitish»** kabi savollariga javob izlaydi.

Ta'lim nazariyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligida o'qitish va tarbiyalash deb hisoblaydi. Al-Xorazmiy, al-

Kindiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ko'plab Sharq allomalari didaktik qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor berganlar. Masalan, **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783–850) shaxsni uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, *induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.*

Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy (806–866) substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda eng avvalo miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumdir deydi. Olim o'zining *didaktik g'oyalarida hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish – yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, ratsional bilish – umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.*

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. *«Haqiqat», – deb yozgan edi al-Kindiy, – har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyligi bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin».*

Abu Nasr al-Forobiy (870–950) o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. *Olim o'qitishning tajriba – ko'rsatmali, induktiv va deduktiv amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchi-talabalarning hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodini ustun qo'yib, o'quvchi-talabalarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan.*

Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylilik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayonining va fandagi bilim shakllarini mohiyatini yoritgan.

Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali o'tishi kerak. Mantiq obyekti anglashga qaratilgan va aql etadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. *Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsada, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart: 1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish; 2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish: 3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.*

Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala – bilishning manbalari masalasi doimo **Abu Rayhon Beruniy** (973–1048) nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil hamda talqin qildi. U qadimgi davr olimlari ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi. *«O'qish va takrorlash orqali, – deb yozgan edi Beruniy, – dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi».*

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037)ning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. *Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok*

qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aql rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqllarni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda – tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi, aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri – nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy *(1878–1934) o'zining barcha asarlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. «Alhosil – deb yozgan edi u, – butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmog'imiz lozimdur».*

A.Avloniy ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. Xususan u tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi A.Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) *«Yangi adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi darsliklarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning ta'lim nazariyasidagi asosiy g'oya o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashish, yoshlarning aqliy,*

axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi[1].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi paytda pedagogika nazariyasidan o'quv dasturini, qo'llanma va darsliklarni yaratishda o'zbek xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlarining didaktik merosidan foydalanmasdan turib ta'lim va tarbiya jarayonida yuksak samaradorlikka erishishi mumkin emas. Xususan, al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning didaktik g'oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ko'p jihatdan ta'sir etib, muayyan darajada Yevropada Uyg'onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan, albatta.

Bunday fikrlarni tasdiqlash uchun quyidagi bir necha dalillarning o'zi kifoya. *Masalan, al-Xorazmiyning «Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l-muqobila» («Aljabrda muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») hamda «Kitob surat al-arz» risolalaridan jahonga mashhur matematik va geograflardan Fibonnachi, Pichioli, Tartalya, Kardano, Ferrari, Leonardo mashhur yunon olimi Klavdiy II Ptolemey, Nyuton, Gershel, Jozef Tussen Reyno va boshqalar keng foydalanganlar.*

Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning «Hayy ibn Yaqzon» («Ziyrakli – Tirik o'g'lon») asari ispaniyalik pedagog va adib ibn Tufaylaning «Yakzon o'g'li Xayya» haqidagi qissasini; J.J.Russoning «Emil yoki tarbiya haqida» asarini, Forobiyning «Fanlar sanog'i» risolasi ispaniyalik pedagog olimi Gundisalning (XII asr) «Falsafaning bo'linishi» asarini yozilishiga asos bo'ldi.

Oksford universitetining professori Rodjr Bekon (XII asr) al-Forobiy va ibn Sinolarning didaktik g'oyalarini chuqurlashtirib, qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar, Yevropa universitetlarida o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanilgan va bu ma'lum darajada XV–XVI asrlarda pedagogikadagi **pansofik** harakatga turtki beradi. Pansofik harakatning yorqin namoyondalaridan biri *chex pedagogi Yan Yamos Komenskiy* ***«Buyuk didaktika»*** *asarida didaktikaning ta'lim nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bo'lsa-da, lekin didaktikani ta'lim nazariyasida ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublari (ayniqsa, sinf-dars tizimi g'oyasi) ibn Sinoga tegishli g'oya ekanligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Zero, Sharqda IX asrda hali Yevropaning ko'p hududlarida, husnixat ishlatilmagan va sinf-dars tizimining nimaligini bilmagan bir vaqtda Xorazmdagi «Ma'mun*

[1] R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. – T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA», 2010. 55-58-betlar.

akademiyasi» qoshida tashkil etilgan maktab va madrasalarda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan qomusiy olimlar yaratgan pedagogik nazariyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan didaktik g'oyalar bevosita o'rganilayotgan fan mantig'idan ajratilmagan. Ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g'oyalar bironta fanda aniq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan qomusiy olimlarning asarlari lotin tilida o'rta asr Yevropa universitetlarida o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanilgan. Yuqorida bu asarlar Yevropada tabiiy va ijtimoiy-pedagogik ilmlarni rivojlantirish uchun asos bo'lganligiga to'xtalgan edik.

Umuman, didaktika ta'lim, bilim berish jarayoni va o'qitish nazariyasini umumiy qonuniyatlarini aniqlab berish bilan birga, har bir o'quv fanining o'qitish metod (usul)lari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya'ni ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun **metodologik asos** vazifasini o'taydi.

Shunday ekan, ***didaktikaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va ilmiy tadqiqot metodlari nimadan iborat?*** degan savollarga javob topish mumkin.

Didaktikaning ilmiy tadqiqot obyekti *– ta'lim va tarbiya jarayonidir.*

Didaktikaning ilmiy tadqiqot predmeti *– ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi «ta'lim-tarbiya oluvchi», «ta'lim-tarbiya beruvchi», «o'quv dasturi, darslik va boshqa didaktik materiallar», «o'qitishning usul va uslublari» hamda «o'qitishning texnik vositalari» orasidagi funksional aloqadorliklardan iboratdir.*

Didaktikaning maqsadi *– shu funksional aloqadorliklarning mavjudligi ta'lim-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatidan kelib chiqqanligini isbotlash* va ularni bir-biriga mutanosib ravishda taraqqiy ettirishdir.

Bu degani ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi biron-bir elementi o'zgarsa, uning boshqa qismlarining ham shunga moslashtirish zarur ekanini isbotlab berishdir. Masalan, ta'lim-tarbiya jarayoni kechadigan sinf yoki auditoriyadagi pedagog o'zgarsa, ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantiruvchi o'qitishning usul va uslublari, texnik vositalardan foydalanish usullari ham o'zgarishi mumkin. Yoki o'qitishning dasturi o'zgarsa, darslik va boshqa didaktik materiallar hamda o'qituvchi o'zini va dars berish usullarini bir oz bo'lsada, o'zgartirishga majbur. Chunki ular o'zaro

funksional bog'liqdirlar. Didaktikaning maqsadi mana shu o'zgarishlarni asoslab, ta'lim-tarbiya jarayonini muayyan qonuniyatlar asosida kechishini nazariy tomonidan asoslab berishdan iboratdir.

Didaktika o'z tadqiqotlarini olib borish jarayonida quyidagi an'anaviy **tadqiqot usullaridan** foydalanadi: *tarixiy va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'quv-uslubiy hujjatlarni o'rganish, fanlardan bilim berish amaliyotini sintezlash, statik usullar, maqsadli suhbat, qiyosiy tasnif, taqqoslash va hokazo. Shu bilan birgalikda, didaktikada nisbatan yangi hisoblanuvchi – majmu yondashuv, grafoanalitik, matematik modellashtirish, sotsiologik tadqiqot usullaridan ham foydalaniladi.*

Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida didaktika fanining vazifalari:

Birinchi vazifasi – bilim egallash va ularni ko'nikma va malakaga aylantirish qonuniyatlarini aniqlab berish. Bu borada didaktika ancha yutuqlarga erishgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning quyidagi qonuniyatlarini, ya'ni tamoyillarini aniqlagan. Bularga: *bilimni uzatishda ilmiy asoslab berish, ta'lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish, ko'rgazmalilik, muntazamlik, ta'lim va amaliyot birligi, onglilik va faollik, tizimlik va izchillik, ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyillari kiradi.* Bular o'quv qo'llanmamizning keyingi sahifalarida batafsil tushuntirb beriladi.

Ikkinchi vazifasi – ta'lim mazmunining tuzilishi va hajmini belgilash.

Uchinchi vazifasi – ta'lim-tarbiya berishning shakllari va usullarini takomillashtirish.

To'rtinchi vazifasi – yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchi va talabalarning tarbiyalanganlik holatiga ijobiy ta'sirni ta'minlash.

Beshinchi vazifasi – insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan-texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirish va hokazo.

Demak, ta'limning asosiy vazifalaridan biri shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi-talaba faol ishtirok etadi.

2-shakl

DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI



3-shakl



4-shakl

BILIM O'ZLASHTIRAYOTGANDA PSIXIKANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Psixik jarayon	Psixologik holatlar	O'quvchi-talaba shaxsining xususiyatlari
Bilish jarayoni	Hissiy irodaviy	Individuallik
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	E'tiqodlilik	Temperament
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Xayol	Apatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	G'ayratlanish	Xulq motivatsiyasi
	Ishonchlilik	Ish uslubi
	Ijodiy ruhlanish	Mas'uliyat

O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab, reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni singdiradi, o‘quvchi-talabalar esa uni faol o‘zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda *inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat, tasavvur, tafakkur va nutq kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o‘ynaydi.* Ta’lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ya’ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo‘lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o‘quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o‘quvchi-talabalarda mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan narsaning ongli ravishda o‘zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to‘g‘risida ham g‘amxo‘rlik qiladi.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o‘quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali uch vazifani, ya’ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar faoliyatini birlashtiradi:

1. Ta’limiy maqsad – o‘quv materialining mazmunini bilish, ya’ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon - e’tiqodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojantiruvchi maqsad – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchi - talabada mustaqil ishlash iste’dodi paydo bo‘ladi. Uni o‘ylashga o‘rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

Bu bog‘liqlikni, avvalo, ta’limni amalga oshirishning quyidagi bosqichlarida ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi bosqich – o‘quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o‘quvchi-talabalar ta’limning mazmuni bilan tanishib, o‘zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladilar. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich – ular o‘quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda

yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular *analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish*dan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda – ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. O'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1. O'quvchi va talabalarda bilim ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi.

2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, muayyan tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagoglik kasbining ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari, o'qituvchi har bir o'quvchi-talabaga qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, **ta'limning o'ziga xos xususiyati uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligidir.** Har qanday tarbiya asosida bilim mavjud bo'lganidek, har qanday ta'lim o'zida ma'lum tarbiyaviy ta'sirni mujassamlashtiradi. Bilimlar talabaning faqat fikrlash qobiliyatiga emas, balki ichki kechinmalariga, his-tuyg'ulariga, fazilatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarni o'rganish talabaning ma'naviyatini shakllanishida ahamiyatlidir. Shuning uchun ta'lim muassasalari tarixan faqat ilm maskanlarigina bo'lib qolmasdan, balki tarbiya o'choqlari sifatida ham qabul qilingan. Ta'lim va tarbiya bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, bir-birini to'ldirib keladi. Bilim bu kuch-qudrat, ana shu kuch-qudrat ma'naviyati yetuk inson qo'lida rivojlanishga xizmat qiladi. Ma'nan qashshoq inson bu qudratdan noo'rin foydalanishi va jamiyatga ziyon yetkazishi ehtimoldan holi emas. Bunday holatlar tarixda juda ko'p marotaba takrorlangan va bu isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylangan. Demak, ta'lim albatta tarbiyaviy asosga ega bo'lishi va

o‘quvchi-talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyalashdek murakkab jarayonni ham o‘z zimmasiga olishi lozim.

5-shakl



Ta’lim jarayoni ta’sirida o‘quvchi-talabalarning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish va yangi pog‘onaga ko‘tarish asosiy masalalardan biridir. Aynan ta’limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Zaruriy rivojlanish. Bu o‘quvchi-talaba tayyorgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, o‘quvchi-talabalardagi bor daraja, ya’ni o‘quvchi-talabalarning bugungi o‘quv jarayonigacha bo‘lgan tayyorgarlik darajasidir. Bu daraja o‘quvchi-talabalarning ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori darajadagi rivojlanish. Boshqacha qilib aytganda, shu dars davomida ko‘tarilish kerak bo‘lgan darajadir. Bu o‘quvchi- talabalar hozircha qila olmaydigan, lekin ko‘mak vositasida eplay oladigan ishdir. O‘quvchi-talabalar ana shu o‘zi uchun yangi bo‘lgan va bajarishga kuchi yetadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko‘tariladi. Lekin bu vazifa o‘quvchi-talabalarning taraqqiyot zonasida joylashgan bo‘lishi shart, aks holda rivojlanishga erishish qiyin. Yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasiga kirgan har narsa ta’lim jarayonida zarur rivojlanish darajasiga o‘tadi.

6-shakl



Shunday qilib, yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasi rivojlanishdan ilgarilab ketadigan ta'lim vositasida yaratiladi. Ta'limning har bir bosqichi taraqqiyotning erishilgan bosqichiga tayanadi va muayyan bosqichni ko'zlagan holda navbatdagi bosqichni tayyorlab beradi.

Demak, ta'limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir.

Ta'limning ana shu yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarini hisobga olgan va ularga amal qilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish shubhasiz ta'lim sifat-samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchi-talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil *qilish.*

2. O'quvchi-talabalarda dunyoqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o'stirish.

3. O'quvchi-talabalarning ma'naviyatini boyitish va tarbiyalash.

4. Yoshlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va iste'dodlarini ochish hamda o'stirish.

Ushbu vazifalarni bajarishda **differensiyalashgan yondashuvning** ahamiyati beqiyosdir. Chunki, **differensiatsiya** (*ya'ni yakka holdagi yondashuv*) o'quvchi-talaba shaxsini chuqurroq o'rganishga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. O'quvchi-talaba shaxsi chuqurroq o'rganilgandan keyingina unga mos bo'lgan metodlar tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Barcha o'quvchi-talabalar uchun umumiy metodlar qo'llash ta'limni ko'r-ko'rona olib borish bilan barobar va bu holda talimning sifat-samarasi juda past darajaga ega bo'ladi. **Ta'limni differensiatsiyalash** muammosi hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ma'lum darajada o'z yechimini topmoqda va aytish kerakki, bu yechimlar ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishga yordam bermoqda.

Ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.[1]

Albatta ta'lim tizimini samarali bo'lishi pedagoglarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sezishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir o'quvchi-talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki

[1] Педагогика профессионалного образования. Под ред. В.А.Сластенина. – Москва, «Академия», 2005, с. 37-48.

tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va o'quvchi-talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. O'quvchi-talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, o'quvchi-talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini, ko'nikma va malakalarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki o'quvchi-talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat, bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

Bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsada, hozirgi didaktika ana shu soha bilangina cheklanib qolmaydi.

Endilikda o'quvchi-talabalarni kamol toptirishda kerakli natijalar beradigan o'qish jarayonining ilmiy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. O'quvchi va talabalarning kamol topishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshishi sababli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijani beradi. Ammo vazifa faqat qandaydir natijalarga erishish emas, balki o'quvchi-talabalarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori sifat-samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun esa o'quv jarayonining yangi tuzilishini ishlab chiqish kerak. Mana shunday muhim masalaning ko'rib chiqilishi ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaning birligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish zaruriy ilmiy asoslarni yaratish sohasi bo'lgan didaktika, ya'ni **ta'lim-tarbiya nazariyasiga** taalluqlidir.

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, bir qismi majmu yondashuv tamoyili asosida tartibga solingan.

O'qitish jarayonining ichki tuzilishining tarkibiy qismlari — maqsadli rag'batlantirish, mazmunli o'qitishning shakl va uslublarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yechimlarning tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi — o'qitish jarayonida mavjud barcha qonuniyatlarni hisobga olish bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda,

o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini birgalikda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin.

O'qitish qoidadagidek bo'lishi uchun har bir o'quvchi-talaba bilimlarni o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi va tarbiyalanishi kerak bo'ladi.

O'qitish risoladagidek bo'lishi uchun o'quvchi-talaba va pedagoglarning auditoriya hamda uyda mustaqil bajariladigan topshiriqlar vaqtining o'zlari uchun gigiyenik va fiziologik jihatdan belgilangan normalarga ega bo'lishi kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini, ta'lim berish, tarbiyalash bilan birgalikda loyihalashga majmu yondashish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshiradigan tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir.

Pedagogik jarayonni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: *o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini ong muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan o'ziga mos variantini tanlash; o'qitishning qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan usullari va uslublarini tanlash; masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchi-talabalarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.*

Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlari – ta'lim mazmunini boshqatdan ishlab chiqish, muammoli kamol toptiruvchi o'qitish, o'quvchi-talabalarning o'qishini yanada faollashtirish, yangi o'qitish usullarini yaratish, o'quv materialini tashkil qilish va uni strukturalashtirish kabi muammolar jadal o'rganilmoqda.

Ta'lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi qoidalar talqin qilingan:

– ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlari, shu jumladan: tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, hududiy va hayoti ifodalanishi lozim;

– ta'limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

– ta'lim mazmuni muayyan yoshga qaratilgan bo'ladi va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

– ta'lim mazmunidagi ajratilgan to'rt komponent hajmi va mazmuniga ko'ra o'zaro aynan muvofiq bo'lishi kerak.

Ta'lim nazariyasidan muammoli o'qitishni joriy etish, shuningdek, o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli o'qitishning ta'lim nazariyasida ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

– ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish — gipotezani olg'a surish — gipotezani konsepsiyaga aylantirish — konsepsiyani hal qilish — uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur halqalarni o'z ichiga olgan;

– o'quvchi-talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilikka oid ijodkorlik va izlanuvchanlik ko'nikma va malakalarni tarbiyalash g'oyasi;

– muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalanadi va tajriba yo'li bilan asoslanadiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, talabalarning tayyorlik darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchi-talabalarning bilish faolligini faollashtirish nazariyasi muammoli o'qitish nazariyasiga juda yaqin.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida o'quvchi-talabalarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llash (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini-o'zi boshqariladigan faollikdan iborat.

Mazkur qonuniyatlar asosida muhim ahamiyatga molik nazariy qoidalar, faollashtirish vositalari majmui, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va uslublari maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

— ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchi-talabalarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;

— o'quvchi-talabalarning o'z oldilariga tegishli maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

— o'quvchi-talabalarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash;

— o'quvchi-talabalarning o'rganish-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy, axloqiy va iroda kuchlarini oshirish;

— ta'lim-tarbiya jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali o'quvchi-talabalar o'zlarining o'quv-bilish faolligini baholashini ta'minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim-tarbiya sifat-samaradorligi yanada oshadi.

Ta'lim-tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy tuzilishi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, ta'lim-tarbiya muassasalaridagi, ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi va shaxsning ijtimoiy mohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

«Ijtimoiy tarbiya» iborasidan ancha tor ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

«Ta'lim va tarbiya» tushunchasining qaysi biri kengroq ma'noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadda qo'llanishidadir. Adabiyotlarda ko'p uchraydigan **«ta'lim»** va **«tarbiya»** so'zlarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo'llanishi unchalik to'g'ri emas. *Binobarin, ta'lim bilim berishning maqsadga muvofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto, ta'limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham prinsip jihatdan turlichadir.*

Ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini – kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hamma vaqt xalq orasidagi hodisa, ijtimoiy hayotning doimiy kategoriyasi hisoblangan. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish, unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni *shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni* taqozo etadi. Bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari, shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy obyektlari hisoblanadi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni – obyekt va subyekt jihatlari mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini

bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning obyekti ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obyektiv shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda ularning elementlari o'rtasida, shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida ichki obyektiv bog'lanish va munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning subyektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchilar — subyektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya ba'zan to'plangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo'li sifatida, ba'zan erishilgan ma'naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida, ba'zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning maqsadi – uning ko'zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta'limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi.

Tarbiyaning maqsadi – shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirish, uning ma'naviy, axloqiy-estetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini **oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo'l-yo'lakay maqsadlarga** tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta'minlaydigan vazifalar ham turadi.

«Shaxsni shakllantirish va kamol toptirish» tushunchasi – shaxsni o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lishi jarayonidir. **«Shakllantirish»** tushunchasi **«tarbiyalash»** tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlarni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. **«Shakllantirish»** va **«tarbiyalash»** tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hodisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, tarbiya omili, ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy, psixologik omillardan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi.

Shaxs shakllanishining asosi uning faoliyati bo'lib, bu faoliyat doimo o'zini vujudga keltirgan yoki tashkil etgan shaxsga nisbatan shakllanuvchi bo'ladi.

Jamoaning shakllanishi ham tashqi omillar – ijtimoiy munosabatlar, tarbiya vositalari va ijtimoiy muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'siri natijasida amalga oshadi.

Tarbiyalash singari shakllantirishda ham doimo shaxsni va jamoani takomillashtirish nazarda tutiladi.

«Takomillashtirishuv» – qarama-qarshiliklarning birligi va kurashini taqozo etadi, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan kuchlanish, o'z harakatlanishini keltirib chiqaradi.

Shaxs va jamoa takomillashuvining samarasi ularning holatidagi sifat o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Shaxs takomillashuvining manbai ehtiyojlar va ularni qondirish yo'llari orasidagi ziddiyatlardir. Jamoa takomillashuvining manbai ham ziddiyatlar hisoblanadi. Psixologlar juda ko'p ziddiyatlarni, shu jumladan, shaxslar va jamoalarning manfaatlari o'rtasidagi, rahbarlarning jamoaga qo'yadigan talablari bilan jamoaning ana shu talablarini bajarish orasidagi ziddiyatlarni aniqlaganlar. Ana shu ziddiyatlar hal qilinganda rivojlanish, takomillashish sodir bo'ladi.

«O'qitish» va **«o'qish»** tushunchalari. O'qish so'zini didaktiklar va psixologlar ilgaridan, hozir ham turlicha sharhlaydilar. O'qish maqsad, mazmun va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida o'quvchi-talabalar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar, o'qish o'quvchi-talabaning faolligi natijasida rivojlanadi, xarakter kasb etadi, u turli shakllarda (mehnat, jamoatchilik faoliyati, kitobxonlik, o'yin va hokazo tariqasida) amalga oshishi mumkin, bilishga tayanadi hamda individual tajribaga shaxsning xulqida o'zgarishni vujudga keltiradi.

Ana shu tushuntirishlardan keyin **«o'qish»** degan tushunchaning ta'rifini keltirish mumkin. Biz o'qish deganda o'quvchi-talabalar voqelikni bevosita va bilvosita bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalar rejali o'zlashtirishning maqsadga muvofiq jarayonini tushunamiz. Bunda o'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va uning natijasi shaxsni qarashlari, e'tiqod, xatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, qisqasi, uning xulqiga ta'sir ko'rsatadigan mavjud bilimlar va ko'nikmalar zaxirasining ortishida namoyon bo'ladi, deb bilamiz.

O‘qish iborasi tasodifiy jarayon ma’nosida ham, o‘qish jarayoniga muntazam, rejali va bevosita rahbarlik qilish ma’nosida ham qo‘llaniladi. Ana shu ikkinchi ma’nodagi o‘qish jarayoni nisbatan uzoq vaqt, ba’zan ko‘p yillar mobaynida o‘qitish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shuni hisobga olib mazkur ikkala jarayonni ko‘pincha umumiy nom bilan ta’riflaymiz va **o‘qitish-o‘qish jarayonlarini ta’lim jarayoni**, deymiz. Bu jarayonda faqat o‘qish bilan o‘quvchi-talabalar ma’lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq harakatlar emas, balki ana shu sharoitlardan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish elementlari ham namoyon bo‘lib, ular bir butunni hosil qiladilar.

7-shakl



Pedagog o'quvchi-talabalar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokazolar bilan o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra **ta'lim birinchidan o'qishni, ikkinchidan o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi, deyish mumkin.**

O'qitish g'oyatda murakkab ish, buning dalili sifatida shuni aytish joizki, pedagogning ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinishi va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir. Shuningdek, o'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, o'quvchi-talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning metodik-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

3.2. DIDAKTIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI (KATEGORIYALARI)

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan.

O'qitish jarayonining strukturaviy komponentlari – maqsadli rag'batlantirish – motivlashtirish mazmuni, harakati, o'qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi – o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlarini hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini, albatta, kompleks holda hisobga olish bilangina ta'lim muassasalarini boshqarishni to'g'ri hal qilish mumkin.

Pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iborat:

– o'qitish optimal bo'lishi uchun har bir o'quvchi-talaba o'zining huquqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi, tarbiyalanishi va kamol topishi shart;

– o‘qitish optimal bo‘lishi uchun o‘quvchi-talabalar va o‘qituvchilar darsdagi sinfdan yoki auditoriyadan tashqari bajariladigan ishlar vaqtining o‘zlari uchun gigiyenik jihatdan belgilangan normasiga ega bo‘lishi kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo‘llari o‘qitishning vazifalarini ta’lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga kompleks yondashish hamda o‘qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir.

Ishni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: – o‘qitish mazmunining qo‘yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta’minlaydigan optimal variantini tanlash;

– o‘qitish jarayonida qo‘yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta’minlaydigan metod va vositalarni tanlash, o‘quvchi-talabalarga tabaqali yondashishni ta’minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

Hozirgi paytda ta’limning muhim jihatlari, masalan, ta’limning mazmunini ishlab chiqish va tanlash, muammoli – kamol toptiruvchi o‘qitish, o‘quvchi-talabalarning o‘qishini faollashtirish, o‘qitish metodlari va ularning tarkibiy qismlari: o‘quvchi-talabalar o‘quv bilim faoliyatining metodlari, o‘quv materialini tashkil qilish, strukturalashtirish va hokazolar jadal o‘rganilmoqda.

Ta’lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi muhim qoidalar talqin qilingan:

– ta’lim mazmunida jamiyatning ma’naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, xulqi va hayoti ifodalanishi lozim;

– ta’limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

– ta’limning mazmuni o‘quvchi-talabalarning yoshidan va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

– ta’limning mazmunidagi ajratilgan to‘rt komponent hajmi va mazmuni bo‘yicha o‘zaro aynan muvofiq bo‘lishi kerak.

Ta’lim mazmuni rivojlanishining hozirgi bosqichdagi ta’limni kompyuterlashtirish masalasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchi-talabalarni zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, o‘quv jarayonida kompyuterlarning keng qo‘llanishini ta’minlash jamiyatda bozor

iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Mana shu vazifani amalga oshirish yuzasidan pedagogika fanida barcha ta'lim tizimiga elektron hisoblash mikroprosessor texnikasini tatbiq etishning ikkita asosiy yo'nalishi ishlab chiqilmoqda.

Bularning birinchisi – ta'lim muassasasidagi ta'limning mazmuniga o'quvchi-talabalar tayyorgarligining komponenti sifatida dasturlashtirish asoslarini va hisoblash texnikasini joriy etish; ikkinchisi – ta'lim muassasasida elektron hisoblash mashinalaridan ta'limning vositasi sifatida foydalanishdir.

Pedagogika fani ta'lim muassasasining EHMlardan foydalanishdagi tajribalarini o'rganishi va umumlashtirishi: yalpi kompyuter savodxonligiga javob beradigan yagona dasturlashtirish kursini yaratish; dasturlashni o'rgatish boshlanadigan muddatni va kursning hajmini belgilashi, ta'lim muassasasida o'rganiladigan algoritm tilini tanlash, ta'limni mashina bazasidan foydalanish asoslarini ishlab chiqishi va boshqa vazifalarni ado etishi kerak.

Ta'lim nazariyasiga muammoli – kamol toptiruvchi o'qitishni joriy etish, shuningdek, o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli – kamol toptiruvchi o'qitishning pedagogik nazariyasida ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

– ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish:

– farazni olg'a surish – farazni asoslash – farazni hal qilish – uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur bo'g'inlarni o'z ichiga olgan muammoli o'qitish;

– o'quvchi-talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo'sinidagi ko'nikma va malakalarini o'stirish g'oyasi.

Muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalanadi va eksperiment yo'li bilan asoslanadiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, o'quvchi-talabalarning tayyorligi darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi muammoli – kamol toptiruvchi o'qitish nazariyasiga juda yaqindir.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida (o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o'quvchi-talabalarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini-o'zi boshqaradigan faollikdan iboratdir.

Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik nazariy qoidalarni ifodalash mumkin.

Faollashtirish vositalari tizimi, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va metodlari o'qitishning asoslangan, maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlash uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchi-talabalarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;

– o'quvchi-talabalarda o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

– o'quvchi-talabalarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash;

– o'quvchi-talabalarning o'quv-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy va axloqiy, irodaviy kuchlarini oshirish;

– ta'lim jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali o'quvchi-talabalarning o'z o'quv-bilish faoliyatini baholashni ta'minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim sifat-samaradorligi yanada ortadi.

Ta'lim jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy strukturasi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi ta'lim muassasasidagi, ishlab chiqarishdagi, maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi.

Inson tug'ilgan paytidan boshlab u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub bo'lib, mehnat aloqalarining ma'lum tizimida tegishli yuridik huquqlardan foydalanadi. Jamiyatdagi o'zaro munosabatlar majmuining mazmuni va xarakteri shaxs kamol topishining umumiy yo'nalishini hal qiluvchi yo'sinda belgilaydi. Ota-onalar va pedagoglar tarbiya metodlarida o'ziga xos o'rin tutadilar ham, ularning maqsadlarini, istaklarini va intilishlarini pirovard natijada jamiyat belgilaydi, uning u yoki bu

ijtimoiy guruhlari, hayotning umumiy sharoitlari, manfaatlari va ideallari belgilaydi.

«Ijtimoiy tarbiya» iborasidan ancha tor ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

Didaktikaning asosiy ta'lim va tarbiya (kategoriyasi) tushunchasining qaysi biri kengroq ma'noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadda qo'llanishidadir. Adabiyotlarda ko'p uchraydigan ta'lim va tarbiya atamalarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo'llanishi unchalik to'g'ri emas. Binobarin, ta'lim – bilim berishning maqsadga muvofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto ta'limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham prinsip jihatdan turlicha:

– kasbiy jihatni ko'rsatishni bildiradi;

– insonparvar-demokratik yoki totalitar bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hamma vaqt xalq orasidagi hodisa, ijtimoiy hayotning doimiy tushunchasi (kategoriyasi) hisoblangan. Tarbiyaning ijtimoiy tabiatini anglash davlat va xalq tarbiyasi, jamiyat va shaxs tarbiyasi o'rtasidagi maqsadga muvofiq va tasodifiy tarbiya o'rtasidagi tafovutni, tarbiyaviy ta'sir obyektining g'oyat murakkab tugunini bilish imkonini beradi.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish, unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya – tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari, shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy obyektlari hisoblanadi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni-obyektiv va subyektiv jihatlari mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning obyekti ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obyektiv shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda ularning elementlari o'rtasida,

shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida ichki obyektiv bog'lanish va munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning subyektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchilar — subyektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya ba'zan to'plangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo'li sifatida, ba'zan erishilgan ma'naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida va ba'zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning maqsadi uning ko'zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta'limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi. Sinfiy jamiyatda tarbiyaning maqsadi hukmron sinflar tomonidan belgilanadi va bayon qilinadi. Masalan, quldorlik davrida – tarbiyaning maqsadi qullarni bo'ysundirish va bostirib turishga layoqatli jangchilar hamda lashkarboshilarni; feodalizm davrida feodal ritsrlar; burjuaziya davrida ishbilarmonlar va biznesmenlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan.

Hozirgi kunda esa tarbiyaning maqsadi - shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirish, uning ma'naviy axloqiy-estetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo'l-yo'lakay maqsadlarga tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta'minlaydigan vazifalar ham turadi. Masalan, tarbiyaning umumiy maqsadini ro'yobga chiqarish, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun aqliy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, estetik, mehnat va jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish zarur.[1]

3.3. TA'LIM JARAYONIDA BILISH FAOLIYATINING BOSQICHLARI

Bilim jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi-talabalar bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilimgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda

[1] R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya» 2010, 60-65-betlar.

hissiy idrok etish ham, abstrakt, ya'ni mavhum tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar obyektiv dunyoni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt, ya'ni mavhum tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari tarixi juda uzoqdir. Sharq Uyg'onish davrining mutaffakir olimlaridan biri **Muhammad ibn Muso al-Xorazimiy** (780-850) «Al kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala» asari bilan bilish nazariyasiga ulkan hissa qo'shdi.

Al-Xorazmiy bilim berishda o'quvchi-talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishiga bunda u ta'lim oluvchilarni, ya'ni bilim izlovchilarning tadqiqot manbalarini to'plash, ulardan foydalanish va kuzatishlarini tushuntira olish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishlariga katta ahamiyat beradi.

Al-Xorazimiy bilim berishning *ko'rgazmali tajriba usullari, savol-javob, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda bilimlarni sinash usulidan foydalangan.*

Al-Xorazimiy ta'lim jarayonida bilimni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilishni ta'kidlaydi: *«Sezgi orqali bilim qisman bilim bo'lsa, mantiqiy bilim esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.*

Insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin».[1]

Demak, al-Xorazmiy bilimlarni egallashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ta'limda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribaga tayanish, savol-javob, bahs kabi ta'lim metodlaridan foydalangan holda o'quvchi-talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish kabi aqliy kamolotga yetkazishga chorlovchi g'oyalari bilan bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi.

Abu Nasr Forobiy (973–910) ham bilishda inson aql-tafakkurini roliga katta baho berdi: *«Narsalar bizdan, hislarimizdan tashqari turib, bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi, ta'sir etadigan narsalar cheksizdir. Inson o'zining aqlini, xayolini ishga soladi va shular vositasida bilmagan narsalarni bilib oladi, ularga asoslanib bilim manbai bo'lgan*

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati dargʻalari –T.: «Adolat», 2001, 103-bet.

olam va uning mohiyati haqida chuqurroq, atroflioq bilim va ma'lumotga ega bo'ladi.

... avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman, shakli tabiat-o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi»[1]. *Olim fikrini davom ettirib shunday deydi: «Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko'p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach haligi narsalarga qarashini o'zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e'tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi»*[2].

Demak, Forobiy bilimning ikki bosqichi – hissiy bilish va aqliy bilim haqida fikr bildirib, hissiy bilimning darajalari, kelib chiqishi, rivojlanishi haqida shunday deydi: *«Inson bilimlarni aql va sezish orqali qo'lga kiritadi... seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi».*[3]

Forobiyning bilish ta'limoti, insonning besh sezgi a'zosi besh turli vazifani bajarishga muvofiqlashgan bo'lib, ular tashqi muhitdan olingan xabarlarni bir yagona markazga to'playdi va bu birinchi markazda barcha xabarlar obrazlar umumlashadi. Odam a'zolarining yurak tana, tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali butun a'zolarga tarqaladi. Ikkinchi markaz – miya qon bilan tirik bo'lganligi sababli, yurakka bo'ysunadi, lekin shu bilan birga u butun a'zolarga rahbarlik qiladi, o'z buyrug'iga bo'ysundiradi, ularni ma'lum mo'tadillikda ushlab turadi.

Forobiyning fikricha, birinchidan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik-anatomik jarayonlar ruhiy a'zo bilan bog'liq, ikkinchidan, yurak insonning biologik hayotini, miya esa, ruhiy-ma'naviy hayotini boshqarib turadi.

Umuman, Forobiy o'z asarlarida *sezgilar va aqliy bilish, tafakkur* kabi jarayonlarga juda katta e'tibor beradi va ularni boshqa ruhiy jarayonlar – *xotira, tasavvur, diqqat, his-tuyg'u, iroda, qobiliyat, – malaka va ko'nikma* kabi shaxsiy xislatlarni bilish jarayoni bilan bog'liq holda talqin etadi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) dunyoni bilish jarayonida bilimlarimizning manbaini sezgi a'zolarimiz va ular orqali qabul

[1] Abu Nasr Forobiy. Risolalar. –T.: «Fan», 1975,71,72-betlar.
[2] O'sha joyda, 76-bet.
[3] O'sha joyda, 79-bet

qilingan hissisiy bilimimiz tashkil etishini ta'kidlaydi: *«Agar sezgi a'zolarimiz bo'lmaganda olam haqida bilimga ega bo'lmagan bo'lardik va undan tashqari olam haqida tasavvurga ega bo'lmasdik»*[1]. *Olim* ***«Hindiston»*** *asarida o'z fikrini davom ettirib: «...faqatgina sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar turli xatolarga olib kelishi mumkin, shuning uchun doimo aqlning kuchiga suyanish zarur.*

Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar orqali idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmoq mumkin.[2]

Beruniy eshitishga nisbatan idrok qilish va eslab qolishning afzalligini ta'kidlaydi: *«Xabar ko'zi bilan ko'rgandek bo'lmaydi», degan kishining so'zi juda to'g'ridir. Chunki ko'rish ko'ringan narsaning o'zi bor paytida va o'z joyida turganida qarovchi ko'zining uni uchratishidan iboratdir. Xabarga yolg'on-yashiqlar qo'shmaganda, u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi. Chunki ko'rish va qarash payti narsa bir yaqtining bir bo'lagi bilan cheklanadi. Xabar esa narsaning (qarovchiga) ko'ringan vaqtdan ilgari o'tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi, ana shuning uchun xabar bor narsalardan ham, yo'q narsalardan ham darak beradi.* Yozish xabar turlaridan biridir».[3]

Beruniy «Mineralogiya» asarida tashqi sezgi organlari orqali ro'y beradigan hissiyotni dastlabki bilish qobiliyati deb hisoblaydi va ana shu masalaga batafsil to'xtaladi: *«Tashqi sezgi organlari orqali ro'y beradigan hissiyot dastlabki bilish qobiliyatidir. O'zining qo'zg'ovchilari orqali vujudga keladigan hissiyot kishiga juda yomon ko'rsatish, hatto uni halokatga olib borishi mumkin. Yorug'lik ko'rishning qo'zg'ovchisi bo'lib, u havo orasidan jismning shakli va tashqi qiyofasini lekin asosan rangini o'tkazadi. Ana shu belgilar yordamida predmetlarning miqdori ham aniqlanadi. Eshitishning qo'zg'ovchisi tovushlardir. Havo ularni kishiga yetkazadi. Hid bilishni qo'zg'atuvchi hidlar havo orqali burun teshiklariga boradi...»*[4] Shu tariqa Beruniy nazariy bilim hissiy bilishga asoslanishini isbotlar ekan, agar sezgi, hissiyot bo'lmasa, bilim ham bo'lmas edi, degan xulosaga keladi.

Beruniyning tashqi olamni bilishda inson asosan aqlga tayanadi va aql hodisalarning sir-sinoatini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqida bilimlarni o'zlashtiradi.

---

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.: ««Adolat», 2001, 108-bet.
[2] Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar 2-jild. –T.: «Fan». 1966. 9-bet..
[3] O'sha joyda, 25-bet.
[4] O'sha joyda, 9-bet.

Lekin bilimning cheki yo'q va hamma bilimlarni birdan inson o'zi bilib olgan narsalar bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o'rganishga intilishi kerak.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) **«Donishnoma»** *(«Bilimlar kitobi»)* va **«Aqsom al-ulum aqliyya»** *(«Aql-idrokka asoslangan ilmlar bo'limlari»)* asarlarida 29 ta ilm tarmog'iga ta'rif berarkan, inson axloqiy xatti-harakatlari va xulq-atvorining negizi shaxsning aqli hamda bilish faoliyatiga yo'llovchi fikriy jihatlari turli ilmlarni egallashi bilan bevosita bog'liqligini alohida ta'kidlaydi: *«Aql ikki turlidir – o'zi bilan birinchi sabab orasida biror vosita bo'lgan aql».*[1] Bunda nazariy aql-idrok vazifasi (uning vositasi bilan aql eta oladigan umumiy tushunchalarni anglanadi) va amaliy aql-idrok esa nazariy aql-idrok xulosalar amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Ya'ni shaxs axloqiy idrokdir.

Ibn Sino o'z asarlarida shaxsning bilish faoliyatida aql va aqliy tarbiyasining tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi. Insonda har uch hayotiy quvvat va insongagina xos bo'lgan aqliy quvvat mavjuddir. Insonda tashqi muhit ta'sirisiz,. aqliy jarayonlarning o'zi ham turli ruhiy, hissiy tuyg'ularini keltirib chiqarishi mumkin.

Olimning ta'kidlashicha, mantiq, ya'ni to'g'ri fikr yuritish aqldan to'g'ri foydalanish, xatolardan saqlanish qoidasini o'rgatadi, ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarga o'tish yo'lini ko'rsatadi. Shu bois u inson o'z bilimining haqiqiyligini anglash uchun mantiqdan xabardor bo'lish zarurligini uqtiradi. Umuman, ibn Sinoning bilish ta'limoti asosida bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak, degan g'oya yotadi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, Muso-al Xorazmiy, al-Kindiy, al-Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, al-Chag'miniy va boshqa mutafakkirlarning didaktik ta'limotlaridagi mantiqiy bilishga oid fikrlari hozirgi kunda ham o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida bilish faoliyati ikki bosqichga – nazariya va amaliyotga bo'linadi. **Nazariya deb, tafakkurning barcha bosqichlaridan o'tgan va amaliyotda sinalib, ko'rilib, maromiga yetgan bilimlar majmuiga aytiladi.** Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: **aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam** va boshqalar. **Nazariyada g'oya shakllanadi. Amaliyot**

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.: «Adolat», 2001, 108-bet.

bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba o'zgartirish, yaratish bular amaliyot shakllariga kiradi.

8-shakl



Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochishdan iborat emas, balki biror bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ko'rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo'lib kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo'lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadida omillar asosida yotgan umumiy bog'lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdadir.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarni sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarning ongimizda aks etishidir. Sezgilar – olam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bo'lishda, masalan, olim yoki o'qituvchining bilishi bilan o'quvchi-talabalarning bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham, lekin ular bir-biridan farq qiladi.

Nazariy bilim negizida o'quvchi-talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Bu bosqichlar 8-shaklda ko'rsatib o'tilgan.

Bilish faoliyati umumiyligi, tafakkurdan tejamli va malakali foydalanish, mustaqil fikrlash ta'limning rivojlanishiga ta'sir etadi. Aqliy tafakkurning ana shu sifatlari ta'lim jarayonida rivojlana borib, bilimni o'zlashtirish samaradorligini oshirishiga ko'maklashadi.

9-shakl



Bilish faoliyatining **ta'lim jarayoni** – ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullari, o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va

malakalarini o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanish, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning zvenolar va sikllar shaklda makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Buni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

10-shakl

Ta'lim jarayoni



BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA

BILIM – *insonning o'qish, ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish kabilar orqali olingan, o'zlashtirilgan va miyada saqlanib qolingan ma'lumotlar to'plami.*

Ko'nikma – *o'zlashtirilgan bilimlarni amalda mashq qilish va takrorlash natijasida bajariladigan harakatlar yig'indisi.*

Malaka – *o'zlashtirilgan nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarning avtomatlashgan holda bajariladigan xatti-harakatlar majmui.*

Ta'lim jarayonida faqat **induktiv analiz,** ya'ni ayrim-ayrim olingan bilimlarning umumlashgan bilimlarga aylanishi yoki boshqacha qilib aytganda, osondan-qiyinga, oddiydan murakkabga o'tish prinsipiga kechishi bilan cheklanmay, xususiy o'ziga xosliklarni **deduktiv** ravishda ajratib chiqarish jarayonini to'lig'icha ko'rsatkichlari bilan birgalikda ko'rish hollari ham uchraydi.

O'qituvchilar amalga oshiradigan ta'lim jarayonini ikki tomonlama tasavvur etish mumkin. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi axborot vositasi sifatida ta'lim shaklini amalga oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchi-

talabalarning dars paytida va darsdan tashqarida amalga oshiriladigan o'quv ishlari tarzida yuz beradi.

Ta'lim jarayoni bevosita o'qituvchi rahbarligida mustaqil amalga oshirilganida, o'quvchi-talabalar o'qituvchi tomonidan tahlil etilgan o'quv vazifalarini hal etish tadbirlarini bajaradilar. O'qituvchining doimiy nazorati ostida o'quv faoliyatini vaqti-vaqti bilan to'g'rilab boradilar. O'qituvchi rahbarligida o'quv faoliyati natijalarini tahlil etadilar.

Demak, ta'lim jarayoni o'zaro uzviylikda bo'lgan quyidagi asosiy qismlarning majmuidir:

11-shakl

O'qituvchi-pedagogning faoliyati	O'quvchi-talabaning faoliyati
1. O'quvchi-talabalarga ta'lim maqsadi va vazifasini tushuntirish.	**1. O'rganishning ijobiy asoslarini tashkil etishda shaxsiy faoliyat ko'rsatish.**
2. O'quvchi-talabalarni yangi bilim (voqea, hodisa, fan qonunlari) bilan tanishtirish.	**2. Yangi bilim, bilishni egallash.**
3. Tushunishni, bilim va bilishni egallash jarayonlarini boshqarish.	**3. Tahlil, xulosa, taqqoslash, solishtirish, tartibga solish.**
4. Ilmiy qonun-qoidalarni anglash jarayonini boshqarish.	**4. Qonun-qoidalarni anglash va o'zaro aloqada bo'lish sabablarini bilish.**
5. Nazariyadan tajribaga o'tish jarayonini boshqarish.	**5. Bilish va ko'nikmalarni tartibga solish.**
6. Izlanish va tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish.	**6. Yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal qilish.**
7. O'qitishdagi o'zgarish va o'quvchi-talabalar rivojini tekshirish, baholash.	**7. Yutuqlarni mustaqil baholash.**

Shu nuqtayi nazardan **ta'lim jarayoni o'z** tarkibiga barcha o'quv fanlarini va barcha darajadagi o'qitish faoliyatlarini, barcha ta'lim tizimlarini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi:

— o'quvchi-talabalarning o'quv-anglash faoliyatini rag'batlantirish;

— ilmiy bilim va bilishni egallash, anglash faoliyatini tashkil qilish;

— ularda fikrlash, tushunish va nazariy qobiliyatni rivojlantirish;

— o'qishni bilishlarini, ko'nikma malakalarini takomillashtirish;

— ularda ilmiy dunyoqarashni va estetik madaniyatni hosil qilish vazifalarini bajaradi.

Ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi:

— o'quvchi-talabalarni o'quv mashg'ulotiga tayyorlaydi;

— ularda yangi materialni egallash ehtiyojini shakllantiradi;

— o'zlashtiriladigan material mazmunini aniqlaydi;

— o'quv-anglash faoliyatni yaratiladi;

— bu faoliyatga hayajonlanish, ijobiy xususiyat baxsh etadi;

— o'quvchi-talabalar faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi;

— faoliyat natijasini baholaydi va yakunlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim jarayoni o'qituvchining rahbarlik, ta'lim berish faoliyati bilan o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatlari chambarchas bog'lanib ketadi. Agar o'qituvchi o'quv harakatlarini nazorat qilish bilan birga o'z faoliyatini ham to'g'irlab borsa, o'quvchi-talabalar ham uning ta'sirida o'z harakatlarini to'g'irlab borishadi. Faqat o'qituvchi-pedagog bilan o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatlari mana shunday uyg'unlashgandagina ta'lim jarayoni yakdil yaxlit, bir butun bo'lib rivojlanadi. Aksincha, agar o'qituvchi-pedagog butun vujudi bilan faoliyat ko'rsatsa-yu o'quvchi-talabalarni o'z ortidan ergashtira olmasa, ta'lim jarayonining vazifalari amalga oshmay qoladi.

O'qituvchi – o'quvchi-talabalarning birgalikdagi yoki ta'lim oluvchilarning mustaqil holatdagi o'quv faoliyatlari – bilim jarayonining asosini tashkil etadi. Bulardan tashqari, bilimlarni o'zlashtirishning ichki jarayonlari ham mavjuddir. Shu nuqtayi nazardan bilish, ya'ni o'zlashtirish jarayonining pedagogik-psixologik tavsifini quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Qabul etish *(eshitish, sezish, ko'rish)* – o'quvchi-talabalar sezgi organlariga ta'sir etadigan hodisalar va jarayonlarning shaxs tafakkurida aks etishidir. Qabul etish jarayoniga ko'rish, fikr yuritish, mulohaza qilish bilan birga ularning avvalgi tajribalari haqida ma'lumotlar ham kiradi. O'quvchi-talabalar qabul etish jarayonida o'zining avvalgi bilimlari, amaliy tajribalariga suyangan holda hodisalarning ayrim o'ziga xosliklari, belgilari, shakllari, shu bilan birga o'qituvchining tovush asosidagi ma'lumoti ham qabul qilinadi. Bu jarayonda pedagogik, faoliyat o'quvchi-talabalarda sezgi maydonini kengaytirish, o'quvchi-talabalar hayotiy tajribasiga kengroq suyanishi, ko'rgazmali qurollardan

muvofiq foydalanish, og'zaki nutqini nihoyatda dramalashtirib, shoirona iborali so'zlar ishlatib o'ziga rom qila olish bilan izohlanadi. Bundan tashqari, o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalar diqqatini mehr-muhabbat bilan qo'llab-quvvatlab turishi, yangi kuch-g'ayratlarini faollashtirishi lozim.

12-shakl

Bilish jarayoni tavsifi



Qabul etish (eshitish) o'rganilayotgan materialni tushunishga olib kelishi kerak. **Tushunish,** ya'ni bilim egallash ayrim jarayon va hodisalarni tashkil qiluvchi qismlari va ularning kelib chiqishi orasidagi bog'liqlikning mohiyatini ochishdan iborat. Izohlanadigan o'quv materiali tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalarni o'z fikri ortidan ergashtira olishi, aniq mantiqiy bayon etishi muhimdir. Xususan, u ta'limni shunday qurishi kerakki, o'quvchi-talabalarning

o'zlari ashyoviy dalillar, tajribaviy ma'lumotlarni qiyoslab ko'rsinlar, ularning sabablarini izohlasinlar, mustaqil xulosalar chiqarsinlar.

Tushunilgan o'quv materiali endi atroflicha **anglanishi** kerak. Ma'lumotni anglash tushunishdan ko'ra ko'p qirraliroq, chuqurroq hisoblanadi. **Anglash** davomida tushunilgan bilimlar boyitiladi, o'zaro bog'lanishlar yanada oydinlashadi, o'quvchi-talabaning o'ziga ishonchi yanada ortadi. Anglashning samarali amalga oshishi uchun o'qituvchi-pedagog aqliy faoliyatning har turli usullari, ya'ni *tahlil, qiyoslash, muammo qo'yish usullaridan* keng foydalanishi lozim. O'quvchi-talabalar suhbatlarga, tadqiqot ishlariga va tajribalar o'tkazishga jalb etilishi kerak.

Bilish jarayonida *umumlashtirish* alohida o'rin tutadi. Bilim, iqtidor va ko'nikmalar oddiy elementlar bo'lakchalaridan yig'ilib murakkab bilimlarga, murakkab ko'nikma esa malakalarga aylana boshlaydi. Soha bo'yicha umumlashgan bilimlar bo'lg'usi mutaxassislarning malakali ish bajarishlarida qo'l keladi. Shunday umumlashgan bilim, iqtidor va ko'nikmalarga politexnik (kasb-hunarga oid bilim) misol bo'la oladi. Bunday umumlashgan bilim va ko'nikmalar ishlab chiqarishning umumiy asoslari, keng tarqalgan texnologik jarayonlar, politexnik malakalardan iboratdir. Umumlashgan bilimlar mutaxassisga yangi sohani egallashda nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

O'zlashtirilgan, umumlashtirilgan bilim biron-bir muayyan hayotiy sharoitlarda qo'llanishi kerak. Tajriba amaliyotda amalga oshirilsa, o'rganilayotgan masalaning amaliy ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi, bilimlarni *mustahkamlaydi,* uning hayotiyligini ta'minlaydi.

O'quvchi-talabalar o'rganilayotgan mavzuni anglab, keyin tushunishi yoki aksincha, oldin tushunib keyin anglashi mumkin. O'zlashtirishning har bir tarkibiy qismlari: *umumlashtirish, mustahkamlash va qo'llash o'zaro* bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zlashtirish jarayonining ketma-ketligi dars *reproduktiv* tarzda, ya'ni tahlil metodi bilan o'tkazilganda namoyon bo'ladi. Amalda o'quv materialini o'zlashtirish muammoli hayotiy masalalarni hal etishdan boshlanishi mumkin. O'quvchi-talabalarga muammo yoki nazariy masala taklif etiladi. O'quv jarayonida nazariy xulosalarni hayotda qo'llash, tatbiq etishdan nazariy jihatdan tushunishga, anglash va fikrlashga tomon boriladi. Ta'lim jarayoniga shunday deduktiv yondashish o'qitish muammoli metod bilan o'tkazilganda samarali natija beradi.

O'zlashtirish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quv materialining qanchalik asoslanishi, ishonchli dalillar bilan tasdiqlanishiga bog'liq. O'quv jarayonini tashkil etar ekan, pedagog o'quvchi-talabalar-

ning ijodiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlab, ular mavzu bo'yicha nimalarga e'tibor berishlarini anglashga yordam beradi. Bularning hammasi o'quvchi-talabalarga mazkur mavzuni faol o'rganishga imkon beradi, ularda ijodkorlik ko'nikmasini shakllantiradi. O'quv jarayonida pedagog talabchanlik va rag'batlantirishning maqsadga muvofiq me'yorini saqlab turishi kerak. Bulardan tashqari, o'zlashtirishning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchi-talabalar hissiyotining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Quvonch, qayg'u, vahima, hayratlanish, achinish, xafagarchilik, rahmdillik, norozilik, nafratlanish va boshqa hissiyot kechinmalar o'quvchi-talabalarda o'quv jarayonining borishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ularni muloqotga chorlaydi.

Guruh o'quvchi-talabalarining hammasi ham bir xilda ta'sirlanmaydilar. Shuning uchun har bir o'quvchi-talabaning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiqdir. Zaif, sust o'zlashtirayotgan o'quvchi-talabalarning yutuqlari ham bo'ladi. Iqtidorli o'quvchi-talabalar bilan ishlashda ham hissiyotning ahamiyati katta. Iqtidorli o'quvchi-talabalar murakkab masalalarni yechish jarayonida qiyinchiliklarni boshidan o'tkazishadi. Shu bilan birga masala yechilganida cheksiz quvonch tuyg'usi, masala yechilmaganida esa qayg'u chekish holatlari yuz beradi. Iqtidorli o'quvchi-talabalar ko'pincha xudbinroq bo'lib o'sishadi. Ularda o'z o'rtoqlariga (guruhdoshlariga) nisbatan xayrixohlik kechinmalarini yo'lga qo'yish juda zarurdir. [1]

Shunday qilib, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun *tadqiqiy amaliy ishlarni bajarish metodlardan* foydalanish zarur. Ijod, qo'shiq va boshqa adabiy shakldagi topshiriqlarni bajarish esse, insho, bayon yozish, tasvirlash, musiqiy ijodiyotdan foydalanish samarali natijalar beradi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabaning o'zaro bilim faoliyati ikki xil xislatga ega. Birinchi xislati – o'quvchi-talabalar shaxsini ruhiyati qonuniyatlari va uning ijtimoiy rivojida tashkil topadi. Ikkinchi xislati – u o'quvchi-talabalar shaxsining bilish faoliyatini o'zgartiradi. Ta'lim jarayonining bilish faoliyati o'z maqsad, vazifa, mazmun, metod va shakllariga ega. Belgilangan maqsad, mazmun va dastur o'qituvchining faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qishni boshqarish kutilgan natijani hosil qiladi.

O'qish – o'quvchi-talabalarning faoliyati bo'lib, bilim oluvchilar o'qituvchi-pedagogning yordamida ta'lim vazifalarini bajaradi, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalarini o'zlashtiradilar.

[1] B.Ziyomuhammadov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika. Darslik –T.: 2000, 83-90-betlar.

Barcha turdagi bilish faoliyati uch bosqichdan tashkil topadi:

– *mo'ljallash-asoslash,*
– *muloqot-bajarish,*
– *fikrlash- baholash.*

Shunga ko'ra, o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi bilish faoliyati shu uch bosqichdan tashkil topadi, ta'limning muhim vazifasi o'quvchi-talabalar faoliyatidagi bu uch bosqichning birlikda bo'lishiga e'tibor berishdir.

O'qituvchi o'quvchi-talabalar ta'lim oladigan ta'lim muassasasidagi shart-sharoitni asosli ravishda o'rganish, ta'lim-tarbiya maqsadi va to'g'ri ifodalashi, ularni aniqlash yo'llari va baholashga qo'yilgan talablarni qo'yishi kerak.

Maqsad quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– u aniq belgilangan bo'lishi;
– belgilashga doir dalillar aniq bo'lishi;
– natijalar ma'lum ta'lim muassasasiga tegishli bo'lishi. Maqsad darajasi umumiy ko'rsatma asosida belgilanadi. Bu:
– jamiyat talabi;
– ta'lim tizimi vazifalari;
– ta'lim muassasalari qo'ygan pedagogik talab, vazifalar asosida bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada ta'limiy maqsadni aniqlash yo'li, ta'lim ta'sirining yo'nalishi va natijasi aniqlanadi.

Maqsadni qo'yish yo'llari:

– ta'limning o'quvchi-talabalarga ta'sir etish yo'llarini va yaratilgan sharoitni aniqlash;

– o'quvchi-talabalarda shakllantiriladigan qobiliyat va imkoniyatni aniqlash;

– ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar erishadigan natijani aniqlash.

Maqsadni belgilash yo'llari:

1. Maqsad o'rganiladigan matn mazmuni asosida aniqlanadi.

Masalan: «Ta'lim maqsadini o'rganish»da.

2. Maqsad o'qituvchi faoliyati asosida aniqlanadi.

Masalan: «O'quvchi-talabalarning ta'lim prinsiplari bilan tanishtirish»da.

3. Maqsad o'quvchi-talabalarning axloq-odobi, ruhiyati va shaxsiy rivoji asosida aniqlanadi.

Masalan: «O'quvchi-talabalarda ifodali o'qish qobiliyatini rivojlantirish»da.

4. Maqsad: o‘quvchi-talabalarning faoliyati asosida aniqlanadi.

Masalan: «O‘quvchi-talabaning shaxs sifatida shakllanishini tadqiq etish» (o‘rganish)da.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada tavsiya etilgan yo‘lning (usulning) mohiyati shundaki, maqsadning o‘quvchi-talabalar faoliyatida ifodalangan ta’lim natijalari orqali shakllanishini ta’minlaydi.

13-shakl



Ma’lumki, eng qadimgi davrda jamoa a’zolari ijtimoiy hayotda orttirgan tajribalari asosida kattalarning mehnat faoliyati namunasida turli yo‘llar bilan yosh avlodni tarbiyaladilar, ta’lim vazifalarini bajardilar.

Davr o‘tishi bilan insoniyat har bir shaxs ijtimoiy hayotda o‘z ijodiy faoliyati, tabiiy borliqni o‘zlashtirishda faol ishtirok etishi kerakligini anglab yetdi.

Hozirda ijtimoiy hayot har bir shaxs oldiga keng qamrovli ulug‘ vazifalarni qo‘yib, ularni amalga oshirishni, natijalarni hayotga tatbiq etishni talab etmoqda. Bu vazifalardan eng muhimi quyidagilar:

– aqliy rivojlanish vazifalari — yoshlarda bilim, bilish va ko‘nikmalarni, ya’ni aqliy rivojlanishni, mustaqil fikrlashni, ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatishni rivojlantirish;

– ruhiy (emotsional) rivojlanish vazifalari – yoshlarda san’at va tashqi olamga emotsional, estetik munosabatni rivojlantirish;

– axloqiy rivojlanish vazifalari – yoshlarda axloqiy fazilatlarni, ma'naviy go'zallikni, mas'ullik hissini rivojlantirish;

– jismoniy rivojlanish vazifalari – yoshlarda mustahkam, kuch-qudratni rivojlantirish;

– shaxsiy rivojlanish vazifalari – ta'lim va tarbiya jarayonida har bir o'quvchi-talaba shaxsida tabiat in'om etgan qadriyatlarni aniqlash hissini rivojlantirish;

– madaniy tarbiya vazifalari – yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida badiiy madaniyatni rivojlantirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish va ijobiy hal qilish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish — pedagogik jarayonning maqsadi.

Ta'lim mazmuni va fanlarni o'qitish usullarini aniqlashda har bir bilimda o'zaro bog'liq bo'lgan ilmiy, mantiqiy pedagogik-psixologik xususiyatni o'quvchi-talabalar bilib olishi kerak.

Ta'lim mazmunini shakllantiruvchi asosiy manbalar, bu fan va moddiy hamda moddiy boylik, ijtimoiy muloqot tajribasi, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy tushuncha shakllari, inson faoliyati turlaridir. Ta'lim mazmunini bu manbalar asosida shakllantirishda tarixiy va pedagogik-psixologik talablar hisobga olinadi.

Quyidagi turlar ta'lim mazmunining o'ziga xos maxsus turlari hisoblanadi:

– tabiat, jamiyat, texnika, fikr va faoliyat qobiliyati haqidagi bilim. Bu bilimlarni o'zlashtirish o'quvchi-talabalarda dunyoning haqiqiy ko'rinishini shakllantiradi, faoliyatga ongli va amaliy jihatdan to'g'ri yondashishga xizmat qiladi;

– ma'lum faoliyatni amalga oshirishdagi tajriba, bu — shaxsning bilim, bilish, ko'nikma va malakasini birlashtiruvchi tajriba;

– jamiyatda sodir bo'ladigan yangi muammolarni hal qilish bo'yicha ijodiy, izlanuvchan faoliyat tajribasi. Bu tajriba mustaqil ravishda o'zlashtirilgan bilim va bilishni yangi sharoitda amalga oshirishni, faoliyatning yangi usullarini shakllantirishni talab etadi;

– obyekt yoki inson faoliyati vositalariga bo'lgan munosabat tajribasi. Bu tajriba tashqi olamga, odamlarga munosabatda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, ta'lim mazmuni, *bir tomondan, o'quvchi-talabalarning o'qish-bilish faoliyatining muhim sharti bo'lib, jamiyatning hozirgi va kelgusidagi talabini aks ettiradi, ikkinchi tomondan, o'quv-*

chi-talabalar faoliyatini amalga oshirishda muhim qurol bo'lib xizmat qiladi va shu orqali o'qishda shaxsiy talab mazmuni bo'ladi.[1]

Umuman olganda, ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat doirasi *(o'qituvchi – o'quvchi-talabaning faoliyati),* ta'lim maqsadi, ta'lim vazifalari, ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tdik, xolos. Shu ma'noda ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, ta'lim qonuniyati va qonunlari hamda tamoyillari, ta'lim metodlari bilan bog'liq masalalarni mazmun-mohiyati ushbu kitobning keyingi qismlarida chuqurroq yoritib beriladi.

3.4. TA'LIM MAZMUNI VA MOHIYATI

Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'liga o'tgan O'zbekiston Respublikasida hozirgi bosqichda ta'lim tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchi-talabalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish, faoliyat va ongning o'zaro bog'liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o'quvbilish ishlari, o'qishni faollashtirish, ta'lim jarayonlarini optimallashtirish, faol ta'limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o'rin oladi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahonda haqli ravishda, e'tirof etilgan turli yo'nalish va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini yaratdi.

Ta'lim – jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida komil insonni tarbiyalash jarayoni amalga

[1] A.Zunnunov, U Mahkamov. Didaktika (ta'lim nazarisi). O'quv qo'llanma. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, –T.: 2006, 5-13-betlar.

oshiriladi. Shu tariqa, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning barkamol avlod kamol topishi, o'z mavqeini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Ta'lim deganda: shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo'nalishi va tarix maydoniga kelib, ijtimoiy ongda ma'lum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, Sparta jangchisi, xushaxloq ruhoniy yoki serg'ayrat ishbilarmondek) bo'lishi, har tomonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko'ra, ta'lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo'ladi va bu keng ma'nodagi **«tarbiya»** tushunchasiga o'xshaydi. Lekin ko'p ma'noliligi ko'rsatilmasa **«ta'lim»** so'zini to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, **«ta'lim»** deganda ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayonini tegishli yo'sinda tashkil etish sifatida qarash ham mutlaqo to'g'ridir. Bulardan tashqari, shubhasiz, ta'lim bilimlar, ko'nikma hamda malakalarni berish va o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma'lum ijtimoiy institut (o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi)dir.

Ko'ramizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigan ko'p qirrali hodisa (daraja, jarayon, faoliyat)dir. O'quv-tarbiya jarayoni tizimining tuzilishi, ana shu jarayonning mazmuni, pedagoglar va o'quvchi-talabalarning faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning qanday tarixiy tipiga mansubligiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib, quyidagilarni aytish o'rinlidir: ta'lim — nisbatan mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ma'lum boyliklar, ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o'qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi hamda moddiy-texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini

ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi.

Avvalgi vaqtlarda o'quvchi-talabalarni axborotlardan xabardor qilingan bo'lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va ta'limni insonparvarlashtirish muammosi ta'limning og'zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo'lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tatbiq, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda, fanlarning rolini oshirishda, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy-ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta'limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri – o'quvchi-talabalarga faqat ma'lum hajmdagi bilim-ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir bu muammo g'oyat jiddiydir.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda o'quvchi-talabalarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmunini tanlash bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari.

3. O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchi-talabalarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar va hokazolar.

4. O'zbekiston Respublikasining *«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni va ehtiyojlari har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga va demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati istiqbollariga zo'r ishonch bilan qaraydigan erkin fikrlovchi barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.*

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishda ta'limning mazmuni va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

– *ilmiy bilimlarni yetakchi roli to'g'risidagi qoidaga;*

– *insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosini va umuminsoniy qadriyatlarni egallab olish haqidagi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ko'rsatmalariga;*

– *tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol qilib rivojlantirish, imon-e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;*

– *ilmiy faoliyat natijalari bilan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;*

– *ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;*

– *ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktika prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.*

Demokratik huquqiy davlat zaminida kuchli fuqarolik jamiyati barpo etayotgan bizning mamlakatimizda ta'lim mazmuni quyidagi yo'llar bilan takomillashtirishni nazarda tutadi:

– fan va tajribadagi yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;

– *ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan o'quv materiallaridan qutilish;*

– *o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va o'quv materiallari hajmini aniqlash hamda o'quvchi-talabalar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;*

– *o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;*

– *o'quvchi-talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar: kompyuter, kserks, elektron pochta va shu kabilar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.*

Umumiy ta'lim – bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'mnnlovichi fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim – shaxsning o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalish–dagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Politexnika ta'limi – o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o'zlashtirib olish uchun zamin, ya'ni bazaviy ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

Ma'lumot mazmuni – yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo'ljallab, hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiy asoslarini didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlardir.[1]

Ta'lim mazmuni – yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmuni tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni, ma'lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'rgatish va o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, o'quvchi-talabalarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga erishiladi. Ma'lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalarning ayrimlari uzoq o'tmishga borib taqalsa, ayrimlari XX asrda paydo bo'lgan. Masalan, **Moddiy ta'lim nazariyasi** XIX asrning keyingi choragida pedagogika nazariyasiga (1879-yil, F.Doerfeld. «**Didaktik materializm**» kitobi orqali) kirib keldi. Moddiy ta'lim nazariyasi asoschilari maktabining vazifasi bolalarga imkoniyati yetguncha ko'proq bilim o'rgatishdan iborat deb hisoblardilar. **Formal ta'lim** tushunchasi 1791-yili (E.Shmidtning «**Empirik psixologiya**» kitobida paydo bo'ldi. Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi istagancha, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi.[2]

Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi:

---

[1] Roziqov O.R. va boshqalar Didaktika. –T.: «Fan», 1997, 111-bet.

[2] Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. –T.: «Fan va texnalogiya», 2008, 207-bet.

1. O'quv rejasi.
2. O'quv dasturi.
3. Darslik.

O'quv rejasi – davlat hujjatidir. Unga barcha ta'lim muassasalari so'zsiz amal qiladi. Unda umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi. Bu davlat hujjati bo'lib, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda Respublikada barcha ta'lim muassasalari uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir. O'quv rejasini tuzishda quyidagi didaktik omillarga asoslanadi: – o'quv-tarbiya ishining maqsadi, o'quvchi-talabalarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikma va malakaga aylantirib, uni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va h.k.

Shunday qilib, o'quv rejasi ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda o'quv yurtida o'rganiladigan predmetlarning tarkibi, ularning o'quv soatlari va haftalari bo'yicha taqsimlanishi hamda har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O'quv rejasi aslida ta'lim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yo'sinda va yaxlit holda aks ettiradigan asosiy hujjatdir.

Ta'limning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi o'quv rejasi ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan ta'lim mazmunining ifodasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Jahon pedagogikasida o'quv rejasini ayrim o'quv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruhlanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. *«Amerika Qo'shma Shtatlarida kompleks o'qitish uzoq muddatli elementar maktabdagina emas, balki o'rta maktabda ham, oliy ta'limda ham davom etadi. Komplekslik g'oyasining o'zi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida o'quv dasturlarini predmetlar bo'yicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi.*[1]

Pedagogik adabiyotlar, ish tajribalari va pedagogik tadqiqotlar tahlilicha, o'quv-yurtlarida o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini bir yo'la o'rganish mumkin emas. Chunki birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan o'quv vaqti imkon bermaydi; ikkinchidan, ayrim

[1] A,Maldova. Sovremennaya shkola SShA. –M.: 2007, s.143.

o'quv predmetlarini o'zlashtirish uchun oldin boshqa o'quv predmetini o'rganish shart. O'tmishda ana shunda fikr yuritish ma'lum predmetlarni o'rganishda jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi.

O'quv rejalari ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. O'quv rejasiga mazkur yoshdagi o'quvchi-talabalarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular o'quvchi-talabalarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi ko'zlanadi. Har bir predmet uchun o'quv soatlarining miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni o'rganishning didaktik xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Bulardan tashqari, o'quv rejasida o'quvchi-talabalarning ayrim fanlarga qiziqishi, xohishlarini qoniqtirish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga soatlar miqdori ajratiladi.

O'quv rejasi tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

1. Ta'limning uzluksizligi va izchilligiga.

2. O'quv fanlarining hajmi o'quvchi-talabalarning yoshi, bilim saviyasiga qarab belgilanadi.

3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar dunyoviy va ilmiy xarakterga ega bo'lib, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratiladi.

O'quv rejasida tabiiy fanlar – matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, informatika, ona tili, chet tili, tarix, falsafa va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosiy o'rinni egallab, o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan va ijtimoiy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi va iqtisod asoslari singari fanlarni o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

O'quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o'quv rejasining tuzilishi prinsiplari ta'lim mazmunining tarkibi va strategiyasiga ta'sir etadigan, uni to'g'rilaydigan omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarini kengaytirmay turib, o'quv

rejasida va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunini tarkibi va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va tuzilishini to'liq yoritib bo'lmaydi.

O'quv rejasida o'quv predmetining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta ta'lim muassasasidagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. O'quv yurtining o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rin oladi.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi o'quvchi-talabalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'masligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bo'lishi va idrok etishidir. Kichik yoshdagi maktab o'quvchisini va birinchi kursdagi talabani bilimlarini o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllarda rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi.

Amaliyotdan ko'rinadiki, yangi tipdagi maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarini tashkil etilishi, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi bir xillikning o'zini qayta qurish, o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Ta'lim muassasalarida ta'limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va yechimlar orasidagi o'rta maktab o'quv materiallarini quyi sinflarga, oddiygina ko'chirish bilan yoki akademik litsey materialini kasb-hunar kollejlarida yoxud oliy o'quv yurtlarida qayta takrorlash bilan o'quvchi-talabalarning qobiliyatini tezkor rivojlantirishga, ta'limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa o'quvchi-talabalar o'zlashtirishining psixologik xususiyatlariga ham, o'qitish metodlariga ham to'g'ri kelmaydi. Shunga ko'ra, mazkur tadbir ortiqcha so'zlarni kiritish, axborotlarni ko'paytirish bilan ta'limning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, o'quvchi-talabalarning xotirasi cheksiz bo'lsa-da, ular uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi xolos.

Insonparvarlik munosabatini boyitish milliy qadriyatlarning o'zgarishini talab qiladi. Endilikda ta'lim jarayonida bilimlarning tayyor shakllarini o'zgartirish, asosan, faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki o'quvchi-talabalar faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak.

Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim va shu yo'sinda qayta qurilsa, o'quvchi-talabalar to'liq kamol topish subyektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tiklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanmaydi.

O'quvchi-talabalar faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishlashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlarida, hatto qiyinchiliklarga duch kelinsa ham o'quvchi-talabalarning sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarni tasdiqlashicha, o'quvchi-talabalar faoliyatining ro'yobga chiqmasligi, ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, o'quvchi-talabalarni *«yuqoriga»* emas, balki *«pastga»* yetaklashi mumkin.

Ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, o'quvchi-talabalarni kamol toptirish talabi, ularning ijodiy ishlashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining didaktik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslik kerak.

Shunday qilib, jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ ta'lim muassasalariga o'quvchi-talabalarning, ya'ni o'sgan va tayyorlangan sara qismi yig'ilayotgan yoshlarni o'qitish odatdagi ta'lim muassasalariga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika g'oyalarini amalga oshirish yo'liga kirgan ommaviy ta'limning vazifasi juda murakkablashmoqda. Tabiiyki bunday ta'lim muassasalarida ham o'quvchi-talabalarga ma'lum bilimlar doirasida axborotlar berish va ju'ziy ko'nikmalarni singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkoni boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.

O'quv dasturi – DTS va o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi tizimi va g'oyaviy siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. Unda ma'lum bir o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan bilim hajmi va ta'lim mazmuni ifodalanadi.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi ta'lim muassasasida (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti)

alohida fanlar bo'yicha o'quvchi-talabalarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. O'quv dasturida har qaysi o'quv fanlarining majmui izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi-talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

O'quv dasturini tuzishda quyidagi didaktik qoidalarga va prinsiplarga qat'iy amal qilinadi:

1. Dasturning aniq bir g'oyaga asoslanganligi (prinsipi).

Dastur demokratik huquqiy davlatning va hozirgi kunda barpo etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyatining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan ta'lim tizimi, fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlardagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy-nazariy asosda aks ettirishi lozim.

2. Dasturning ilmiylik prinsipi. Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, aniq, to'g'ri, haqqoniy, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar, materiallar asosida kiritiladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda fan va texnika tobora rivojlanib, yangi-yangi kashfiyotlar paydo bo'lmoqda. Fan-texnikaga oid yangi ma'lumotlar va masalalar kiritilishi munosabati bilan o'quv dasturidagi vaqt o'tishi bilan ayrim eskirgan tushunchalar va masalalar o'quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3. Dasturning qat'iylik prinsipi. O'quv dasturi jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan-texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar sohasida erishilgan yutuqlar darajasini aks ettirishi lozim. Hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat'iy bo'lishiga erishish shu fan bo'yicha mukammal darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.

4. Dasturning nazariya bilan amaliyot birligi prinsipi.

Ilmiy bilimlarni puxta egallash va o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish uchun o'quvchi-talabalarga beriladigan nazariy tushunchalar ijtimoiy qurilish amaliyotiga bog'lab, aniq hayotiy misollar bilan mashqlar, tajribalarda ko'rsatib, xulosalar chiqarish kabilar bilan bog'lanishi lozim. Bu o'quvchi-talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Dasturning asosiy vazifasi – o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda o'quv predmetining sinflarga, (kurslarga), bo'limlarga, bosqichlarga, qismlarga, mavzularga bo'linishi, ularning o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Hatto, dasturdagi masalalar ro'yxati ham

undagi boshqa bilimlarning mazmunidan tashqari prosessual yo'nalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Masalalar ro'yxati – dasturning markaziy bo'limidir, ammo unda boshqa bo'limlar ham bo'lib, ular darslikning tuzuvchilari fikrini va o'qituvchilarning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solishi kerak. *Har bir o'quv predmeti bo'yicha DTS asosida o'quv dasturi to'rt qismdan: tushuntirish yoki o'qtirish xati (har xil dasturda mazmuni turlicha); ro'yxat ko'rinishidagi mazmunning o'zi (mavzular, masalalar, laboratoriyalar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar ko'rsatilgan bo'lim hamda o'quvchi-talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ifodalangan bo'limlardan iborat bo'ladi.*

Har bir o'quv fanining maqsadlari va vazifalarini ifodalash – dasturning eng muhim elementidir. Xususan ana shu maqsad va vazifalar darslik muallifining dasturni amalga oshirishdagi ma'lum nuqtayi nazarini va o'qituvchining darslikni to'g'rilashi hamda o'qitish jarayonini tashkil etish uchun tegishli yo'nalishni belgilaydi. O'qituvchi ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z izlanishlarini yo'nalishini belgilab olish uchun kursning maqsadini chuqur anglashlari kerak. Dasturlarda shunday vazifalar beriladiki, o'qituvchi ularni hal qilish uchun oliy o'quv yurtida tayyorlanmagan bo'ladi. Buning maqsadi sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Har bir o'quv faniga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarni chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmaganligini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek, metodik birlashmada ishlashi uchun turtki bo'ladi.

Demak, o'quv dasturlari DTSga asoslanib davlat tomonidan tasdiqlangan hujjatdir. Shu bois ham barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni zamon talablariga javob beradigan o'quv rejasi va o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi.

Darslik. Dasturda ta'limning mazmuni *masalalar ro'yxati* orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchi-talabalarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalarda, kitoblar va didaktik materiallarda,

o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

Darslik ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan holda bayon etuvchi o'quv kitobidir.

Darslik bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim-ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalanadilar:

1. Badiiy adabiyot.
2. Ilmiy adabiyot.
3. Ilmiy-ommabop adabiyot.
4. Masala va mashqlar to'plami.

Darslik o'quvchi-talabalarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchi-talabalarga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak.

Darslik o'quvchi-talabalar uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kirtish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining *«ssenariysi»*dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi. Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchi-talabalarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin maktabdagi boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich sinfda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiydir. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-talabalarning o'zlari mustaqil mutolaa va muhokama qilishni bilishadi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini tahlil qilib juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin. Ular darslik va o'zlarining

metodik qo'llanmalaridan prinsip sifatida emas, balki normativ model sifatida foydalanadilar. Aslida o'qituvchilar o'quvchi-talabalarning ehtiyojini, shaxsiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikda ish olib boradilar. Binobarin, muallif o'quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va hokazolardan o'z o'rinda foydalanish lozim.

Darsliklarda savollar va topshiriqlar ta'lim konsepsiyasi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to'g'ri joylashtirilgan (shaxsni kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan bo'lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o'stiradigan (mustaqil ishlashni taqsimlash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Darslikda o'quv dasturining barcha talablari aks etishi va asosiy g'oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim.

Darsliklarni yaratishda va mazmunini o'quvchi-talabalarga moslashtirishda quyidagi didaktik talablarni alohida e'tiborga olish kerak:

– materiallarni darsliklarga to'g'ri taqsimlash;

– darslikda aks etgan ilmiy bilimlar o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatiga mos kelishi kerak;

– darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli, mantiqiy jihatdan aniq va qisqa, izchil bo'lishi kutiladi.

Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi talabchanlikka asoslanishi lozim;

– darslikdagi nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak;

– darslik tilining soddaligi, ravonligi, ta'lim oluvchilar nutqini o'stirish uchun tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak;

– darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchi-talabalarning yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lishi kerak;

– o'quvchi-talabalarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);

– o'quvchi-talabalarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash;

– darsda, uy vazifalarini va mustaqil ta'lim bilan bog'liq savol topshiriqlarni bajarishda, takrorlashda asosiy va qo'shimcha materiallarni ajratish;

– darslikdagi savol-topshiriqlarning mo'ljallangan vaqtga mosligi va o'quvchi-talabalarni qiynab qo'ymasligi;

– darslikning mazmuni (o'quvchi-talabalarni qiziqtirish, mavzu-matnlarining g'oyaviy-estetik jihatlari) uni o'rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo'lishi va hokazolar.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosida va qo'shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo'ladi. Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o'quvchi-talabalarga ta'siri hisobga olinishi kerak. Mana shu didaktika talablari amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o'ziga xos muammolarini to'g'ri hal qilish, darslik o'quv-metodik ishlarining asosi bo'lishi kerakligini nazarda tutish shart.

Shunday qilib, darslikda har bir fanning mazmuni va shu fanga oid ilmiy bilim asoslari o'quv dasturiga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qilinadi. Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o'quv qo'llanmalar ham yaratiladi. Masalalar, mashqlar va testlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblar kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Umuman, darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallar katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u bilan ishlash o'quvchi-talabalarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq-

odob, tafakkur, nutq va ijodiy mustaqillikning rivojlanishiga yordam beradi.

14-shakl



15-shakl



16-shakl

TA'LIM MAZMUNI



3.5. TA'LIM QONUNIYATI, QONUNLARI VA TAMOYILLARI

Didaktikada ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan qonun-qoidalar va tamoyillar ishlab chiqilgan. Shunday ekan, **«qonuniyat»**, **«qonun»**, **«qoida»**, **«tamoyil»** degan tushunchalarning tom ma'nosini aniqroq bilib olishimiz lozim.

Qonuniyat – bizning ixtiyorimizdan tashqari obyektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalar o'rtasidagi, ularning tadrijiy rivoji (evolutsiyasi) zaruriyatidan kelib chiqqan bog'lanish. Tabiiy fanlarda, uni

qonun deb ham nomlaydilar. Masalan, **Yerning tortilish qonuni, Markazdan qochma kuch qonuni, Jovul-Lens qonuni** *va hokazo.*

Ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini tushuntiradigan bo'lsak, ular ta'lim-tarbiya jarayonining tadrijiy rivoji zaruriyatidan kelib chiquvchi ta'lim-tarbiyani bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardir. Chunonchi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasidagi zaruriy bog'liqlik yoki ta'lim beruchi bilan o'quv dasturi orasidagi zaruriy bog'liqlik va hokazolar.

Qonun atamasi aslida insoniyat tomonidan yaratilgan tartib va qoidalarga nisbatan ishlatiladi. Ammo tabiiy fanlarda, ularni o'rganish jarayonida aniqlangan tartiblarni Alloh taolo, ya'ni Xudo tomonidan, ishlab chiqilgan tartib-qoida degan mazmunda, uni **qonun** deb nomlanib kelingan. Izohli lug'atlarda bu atamalar sinonim sifatida qo'llanilgan. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, tabiiy fanlardagi tabiat qonunlaridan tashqari, barcha bizning ixtiyorimizdan tashqarida mavjud bo'lgan va ularning tadrijiy rivoji natijasida paydo bo'lgan bog'liqliklarni **qonuniyat** deyiladi. Ijtimoiy hayotdagi inson va narsalar orasidagi goho zaruriy, goho nozaruriy (birovni foydasini ko'zlab) o'rnatilgan bog'liqliklar **qonun** deyiladi.

Tamoyil (prinsip) – bu obyektiv mavjud qonuniyatlardan, ya'ni butunni butun qilib turuvchi qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqib amal qilinishi lozim bo'lgan harakatlar moyilligidir.

«Prinsip» so'zining ma'nosi xulqning, xatti-harakatning asosiy qoidasi, yetakchi g'oya demakdir. **Ta'lim qonuniyatlari (prinsiplari) bu o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar yig'indisidir.**

Biz, hatto, turmushda ham **«bu odam prinsipli»** deymiz va bunda o'sha odamning o'ziga xos qoidalariga, o'zining prinsiplariga muvofiq ish ko'rishini nazarda tutamiz. Agar kishining xatti-harakatlarida qat'iy qoidalar bo'lmasa, uni **«prinsipi yo'q»** deb hisoblaymiz.

Ta'lim-tarbiyaning tamoyillari o'qish va o'qitish jarayonida obyektiv mavjud bo'lgan va uni butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilishlikka tavsiya etilgan harakatlar tartibining moyilligidir.

Qoida – bu inson harakat tartibining oxirgi bosqichi bo'lib, obyektiv qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan tamoyillarning u yoki bu harakatlarini chuqurlashtirib, konkretlashtirib beruvchi

harakat tartibidir. Qoidalar nazariya bilan amaliyot orasini bog'lab turuvchi vositadir.

Uni pedagogik jarayon misolida ko'radigan bo'lsak, u o'qitish qoidalarida namoyon bo'ladi. O'qitish qoidalari tipik vaziyatlarda o'qituvchilarning tipik harakati ifoda etilgan. Boshqacha qilib aytganda, didaktik qoidalar tipik pedagogik vaziyatda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'zini qanday tutishi kerakligini ko'rsatib beradilar. Shuning uchun ular amaliyotga yaqin turadilar.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik qoidalarga ikki xildagi qarash mavjud. Birinchisi, amaliyotchi o'qituvchilarga didaktika qonuniyatlari va tamoyillarini bilish shart emas, ular olimlar tomonidan ishlab chiqilgan dars o'tish qoidalarini o'zlashtirib olsalar, shuning o'zi yetarli deydilar. Shu kunda xorijiy mamlakatlarda va Oktabr inqilobidan oldingi rus pedagogikasida bu fikr ustunlik qilgan. Bu masalaga ikkinchi turdagi qarash ham bor, ular amaliyotchi o'qituvchilarning faqat tayyor o'qitish qoidalariga bog'lab qo'ysak, ularning tashabbuskorligini cheklab qo'ygan bo'lamiz deydilar. Bularning ikkalasining fikrlarida ham mantiq bor. Haqiqat har doimgidek, ikkalasining o'rtasida yotadi. O'qituvchilarni pedagogik qoidalarga qattiq bog'lab qo'yib, ularning erkini cheklash yomon bo'lgani kabi, amaliyotdan uzilgan va juda ham nazariylashgan pedagogik tamoyillarni va qonuniyatlarni pedagoglardan talab qilish va pedagogik jarayonni erkin harakatlarga aylantirib qo'yish ham noo'rin.

Ta'lim-tarbiyada, boshqa mehnat turlaridagidek, standart holatlar juda ko'p. Bu holda o'qituvchi uchun ko'p ham tashabbus ko'rsatishi shart emas, aks hollarda, o'qituvchining tashabbuskorligi darsni muvaffaqiyatli o'tishiga xalal ham beradi. Bu holda, dars o'tganda aynan pedagogik qoidalarga rioya qilish talab qilinadi.

Qoidalar didaktika tamoyillaridan kelib chiqqani kabi, didaktika tamoyillari o'z ifodasini pedagogik qoidalarda topadi. Biroq qoidalar o'z ichiga yana ko'p, sonli o'qituvchi va pedagoglarning ko'p yillik tajribasini ham qamrab olgan bo'ladi.

Dars o'tish qoidalari qancha degan savolga K.D.Ushinskiyning so'zlarini keltirish o'rinlidir. *U, barcha pedagogik qoidalarni bir varaqqa sig'dirish ham mumkin, ulardan bir necha jildli kitoblar ham yaratish mumkin, degan ekan.*

Odatda, ular tavsiyanoma, qo'llanma va eslatmalar sifatida beriladi.

Ta'lim qonunlari. Ta'lim qonunlari to'g'risida gap borganda, **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi**ga kiruvchi mamlakatlarda goho

ta'lim tamoyillarini ham, goho ta'lim qoidalarini ham **qonun** deb yuritilishi kuzatiladi. Shuning uchun, qonun deb aniq aytilgan Amerikalik Torndayk maktabi bo'yicha quyidagi qonunlarni qayd qilish bilan cheklanamiz.

1. O'zaro bog'liqlik qonuni – ta'lim-tarbiya jarayonida ikkita ruhiy harakatning o'zaro bog'liqlikdagi **rivojlanish qonuni.** Bu qonun bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ruhining bir yo'nalishdagi harakatini taqozo etadi. Bu qonunga binoan, agar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsning birining ruh harakati ikkinchisiniki bilan mos tushmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni sodir bo'lmaydi. Bilim berish jarayoni sodir bo'lishi mumkin, tazyiq yo'li bilan, ammo haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshmaydi. Bu qonunga binoan darsni tashkil qilish va uni amalga oshirish uchun pedagog sinfda yoki auditoriyada bir xildagi ruhiy holatni, ya'ni bilim berish va bilim olish holatini shakllantirishi kerak.

2. Mashq qonuni – bu qonun bo'yicha, egallangan bilimni ko'nikmadan so'ng malakaga aylantirish uchun, **mashq qanchalik tez faol bo'lsa, qaytar reaksiya ham shunchalik tez bo'lib, bilim o'zlashtirilishi ham tez o'tadi,** u bilimni xotirada uzoq muddatga saqlanishi ta'minlanadi. Bu qonun bo'yicha, bilim egallaganda har bir kishi o'zining qabul qilish tezligi qobiliyatiga binoan egallasa ham, uni ko'nikma va malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi.

3. Intensivlik qonuni – bu qonun bo'yicha ham, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, u shunchalik tez o'zlashtiriladi.

4. Assimilatsiya qonuni bo'yicha – har bir yangi turtki qaytar reaksiyani vujudga keltiradi, deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni qaytarish yo'li bilan turtib turish kerak deyiladi.

5. Natijaviy qonunda – reaksiya ijobiy bo'lsa bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo'lsa xotira uni o'chirib tashlaydi, deyiladi.

Haqiqatan ham bu qonunlar hayotdan olingan bo'lib, amaliyotda minglab marotaba sinalib ko'rilgan. Shuning uchun pedagogik amaliyotda bulardan kelib chiqishlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.[1]

Didaktika tamoyillari (prinsiplari). Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar dars oldidan ko'zlagan maqsadlariga ko'p kuch va vaqt sarflamay aniq etishlari uchun, bir

[1] Bo'ri Ziyomuhammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma –T.: 2006, 91-101-betlar; Yoqutxon Rahmonova. Hamshiralik ishida pedagogika. Darslik. –T.: 2007, 88-89-betlar.

necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib didaktika prinsiplari majmui yaratilishiga sababchi bo'lganlar.

X–XII asrlardagi mashhur qomusiy olimlar ilmiy bilishning asosiy qonuniyatlariga va didaktika prinsiplariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyaning asosi sifatida qaraganlar. Buyuk matematik **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783–850) o'zining bilish nazariyasida moddiy olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi obyektiv munosabatlarni, tabiiy jarayonlarni «*...sezgi orqali bilish, bu qisman bilim bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini namoyon etadi*», deb hisoblaydi. Olimning fikricha «*insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin*».

Sharqda birinchi bo'lib ilmlar tasnifi bilan shug'ullangan olim **Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy** (806–866) fikricha, moddiy olamdagi narsalar, ya'ni «*birinchi substansiyalar*»ni ularning xususiyatlari – miqdori va sifatini o'rganish asosidagina bilish mumkin. Olim o'z tasnifida insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili uning aql kuchini rivojlantirishdir.

Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo'yi Arastuning kitoblarini o'qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birontasini o'zlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsada, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan bo'ladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o'zlashtira olmaydi. Al-Kindiy ana shu fikrlarini bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini, ya'ni prinsipini nazarda tutgan.

Abu Bakr al-Roziy (865–925) ilmiy bilish nazariyasida inson aqli va tafakkuri yuksak darajada rivojlangan ijtimoiy mavjudod bo'lganligi uchun ham olamdagi hamma narsalardan ustun turadi deb talqin etadi: «*Bizga foydali bo'lgan ishlarda o'zimiz hukm yurita bilishimiz uchun bizga hayvonotga nisbatan ustunlik aql bilan berilgandir. Aql orqali o'zimizni ulug'lovchi, ziynatlovchi va hayotimizni xayrli qiluvchi hamma narsani bila olamiz. Aql bilan biz o'z xohish maqsadlarimizga yetamiz...*»

Abu Nasr al-Forobiy (870–950) «Namunali ta'lim» risolasida ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialni yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib, o'qitishning ikkita turini, yangi prinsipini tavsiya etgan: ularning biri bevosita **sezgi,** ikkinchisi **aql** bilan bog'liqdir. U o'zining fikrini shunday talqin etadi: «*Narsalar bizdan, hislarimizdan tashqarida turib, bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi, ta'sir etadigan narsalar* **cheksizdir.**

Inson o'zining aqlini, xayolini ishga soladi va shular vositasida bilmagan narsalarini bilib oladi, ularga asoslanib bilish manbai bo'lgan olam va uning mohiyati haqida chuqurroq, atroflicoq bilim va ma'lumotga ega bo'ladi. U fikrini davom ettirib: *«... avval bilim zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi.*

Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko'p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o'zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e'tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi».

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) o'quv jarayonida pedagog quyidagi didaktika prinsiplariga qat'iy amal qilishi lozimligini ta'kidlaydi:

– ta'lim oluvchini zeriktirmasligi;

– bilim berishda turlilikka asoslanishi;

– uzviylikka, tizimlilikka, izchillikka va mantiqiylikka rioya qilishi;

– yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishi va h.k.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) didaktikaning prinsiplariga, xususan, ko'rsatmali o'qitishga zo'r qiziqish bilan qarab, inson dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi xossasini o'rgansa, o'sha buyumni va uning tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblaydi. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etish tufayli unda obyektiv voqelikni to'g'ri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ibn Sinoning ilmiy bilimlarni egallash usullari va yo'llari, ta'lim oluvchilarni sinf-dars shaklida o'qitish haqidagi didaktik prinsiplari muhim ahamiyatga egadir:

– ta'lim oluvchini bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

– o'qitishda jamoa (sinf) bo'lib o'qitishga e'tibor berish;

– bilim berishda ilm o'rganuvchilarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

– o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish va h.k.[1]

Shubhasiz, keyinchalik yuqorida nomlari qayd etilgan va zikr etilmagan boshqa ko'pgina Sharq qomusiy olimlarning ishlab chiqqan didaktika qonun-qoidalari va (prinsip) tamoyillari chex olimi **Yan Amos Komenskiy (1592–1670)** tomonidan **«Buyuk didaktika»** asarining

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.: «Adolat», 2001, 103-119-betlar.

yaratilishiga asos bo'lib, pedagogika tarixida **«Didaktikaning otasi, asoschisi»** nomiga sazovor bo'ladi.

Avval ham aytganymizdek, yaqin vaqtlargacha pedagogikadagi **qonun, qonuniyat va tamoyil** degan tushunchalar sinonim sifatida ishlatilib, yoki bularning bittasiga yo qonun, yo qonuniyat, yo prinsipga ustunlik berilib kelingan.

Ammo ko'p yillik tajribalar va bu sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, **qonuniyat** turg'un bo'lib, ular asosida yaratilgan.

Yaratilgan qonun va tamoyillar o'zgarib ham turishlari mumkin ekan. Ba'zi eski tamoyillar, masalan, tabiatga mos ravishda rivojlantirish tamoyili yo'q bo'lib ketib, o'rniga yangi tamoyillar kiritilgan.

Tamoyillar to'g'risida didaktikada shunday qoida o'rnashib qolganki, tamoyillar tarixiy vaziyatdan kelib chiqib konkret jamiyatning ehtiyojlarini ifoda etar ekan. Ijtimoiy taraqqiyot va ilm-fanni rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi qonuniyatlarni aniqlanishi, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar natijasida pedagogik tamoyillar tizimi boyib boraverar ekan.

O'zbekiston Respublikasining **«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»**da mamlakatimizda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish yangi qonuniyatlar va pedagogik prinsip (tamoyil)lari to'liq o'z ifodasini topgan. Bu pedagogik ta'lim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **ta'limning ustuvorligi;**
- **ta'limning demokratlashuvi;**
- **ta'limning insonparvarlashuvi;**
- **ta'limning ijtimoiylashuvi;**
- **ta'limning milliy yo'naltirilganligi;**
- **ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligi;**
- **iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoit yaratish**[1] kabilardir.

Ma'lumki, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun-qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablar va tamoyillarga qay darajada amal qilishlariga bog'liqdir. Chunki ta'lim tamoyillari o'quy jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qiladigan qonun-qoidalar sifatida amal qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda ba'zan **«o'qitish prinsiplari»** atamasi ham ishlatiladi. Lekin ta'lim tamoyillari (prinsiplari) ta'lim jarayonining ikkala

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori –T.: 1998, 43-44-betlar.

subyekti o'qituvchi va o'quvchi-talabaga ham daxldor. Shuning uchun taniqli didaktik olimlar O.Roziqov, A.Zunnunov, U.Mahkamov ularni **ta'lim prinsiplari** deb atagan ma'qul deb ta'kidlaydilar. Chunki ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar, ta'lim prinsiplari deb ataladi. Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari, darajalari, subyektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga daxldor umumiy qoidalardir. Prinsiplar va ta'lim qonuniyatlari uzviylikda mavjuddir. Qonuniyatlar prinsiplarning ayrim tomonlarini yoritadi. Prinsip umummilliy xususiyatiga ega bo'lib, ta'limda barcha o'quv fanlarini o'qitish bosqichlarida qo'llanadi.[1]

O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak - atrofdagi dunyoni bilishining umumiy qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Demak, ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va o'quvchi-talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning, ya'ni pedagog va talaba-o'quvchilar tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvvafaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Umuman, ta'lim tamoyillari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi o'quvchi-talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Ta'lim tamoyillari ta'lim muassasalari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi. Har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan barkamol inson qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan

[1] A.Zunnunov, U. Mahkamov. Didaktika. –T.: «Sharq», 2006, 49-bet.

biridir. Bugungi kunda pedagogika nazariyasida quyidagi ta'lim tamoyillari tizimi ishlab chiqilgan:

1. Onglilik va faollik tamoyili – bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik.

2. Ko'rgazmalilik tamoyili «yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi» tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish.

3. Tizimlilik va muntazamlik tamoyili – bilimni ma'lum bir tizimda va uzluksiz ravishda berib borish.

4. Mustahkamlik tamoyili – bilimni tushunarli tilda qayta-qayta takrorlash yo'li bilan berish.

5. Tushunarlilik tamoyili – bilimni hammaga tushunarli va hammabop qilib berish.

6. Ilmiylik tamoyili – bilimni ta'lim oluvchilarda avvaldan mavjud bilimlarga asoslanib va ulardan kelib chiqqan holda berish.

7. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili – bilim berishda nazariy bilimlarni amaliyotda ishlashini, ya'ni uni hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

Bu tamoyillar pedagogik jamoatchilik tomonidan umumiy tamoyillar deb qabul qilingandir.

1. **Onglilik va faollik tamoyili.** Bu tamoyil asosida ilm tomonidan aniqlangan, insonni haqiqiy bilim egallashi uchun, u bu bilimlarni chuqur anglab yetgan holda aqliy quvvatini intensiv ishlatishi natijasida yetishi mumkin, degan qonuniyat yotadi. Bilimlarni anglaganlik holati quyidagi omillardan kelib chiqadi: o'qishning sababiga; o'quvchi va talabalarning bilish faolligining darajasiga; ularning bilish faolligini boshqarilishiga va bilim berishni tashkil qilishga hamda boshqa omillarga. O'quvchi-talabalarning shaxsiy qiziquvchanliklari faolligi bilib olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Onglilik tamoyilini amaliyotda ishlashi quyidagi qoidalarga rioya qilishni taqozo etadi:

1. Bu bilimni hayotdagi zarurligi va ahamiyatini o'quvchi-talabalarga tushuntirib, uning istiqbolini ravshan qilib ko'rsatib berish yo'li bilan, ta'lim, oluvchilarda aniq maqsad va vazifalarni shakllantirish qoidasi.

2. O'quvchi-talabalarga qanday yo'l bilan bilim olishni tushuntirib, ularda shunday ishonch hosil qilingki, ular hech qachon olinadigan bilimni chuqur anglab yetmay mexanik holda egallamasinlar.

3. O'qitganda barcha bilish shakllaridan: analiz va sintez; deduktiv va induktiv; taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish va hokazolardan foydalanish qoidasi.

4. O'quvchi-talabalardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi.

5 O'quvchi-talabalarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga guruh bilan javob topish qoidasi.

6. Bugungi faol o'quvchi-talaba, ertangi yetuk xodim ekanligini yaqqol bilgan holda yoshlarni faollashtirishga hech qanday kuchni ayamaslik qoidasi.

7. Yoshlardagi mavjud bilimlar bilan yangi berilayotgan bilim orasidagi mantiqiy bog'lanish yo'q joyda onglilik bo'lmasligini esda tutgan holda, yoshlarning aqli yetmay turgan joylarni, ulardagi bor bilim bilan mantiqiy bog'lab berish qoidasi.

8. Hech qachon o'quv fanini dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi-talabalar turishini, ularning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda o'quvchi-talabalarga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi.

9. O'quvchi-talabalar fikrini, hayot bilan nazariy bilimlar orasidagi farqlar borlig'iga qaratish yo'li bilan, ularning tafakkurini faollashtirish qoidasi.

10. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi.

11. O'qitilayotgan narsada asosiy va ikkinchi darajali joylarini ajratish yo'li bilan, o'quvchi-talabalarda berilgan bilim ichidagi asosiy o'rinlarini ajrata olishga o'rgatish qoidasi.

12. Hech qachon quruq obro'ga tayanib o'qitmay, faqat aql va hissiyotdan kelib chiquvchi dalillarga tayanib o'qitish tamoyili.

13. O'quvchi-talabalarni kitob o'qishga o'rgatish qoidasi.

14. Ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi ichki va tashqi omillarni doimo bartaraf etib borish qoidasi.

15. O'quvchi-talabalarga nega?, degan savolni tinmay berish yo'li bilan, ularda sabab va oqibat orasidagi bog'lanishni bildirib borish qoidasi.

16. Berilayotgan bilimning to'g'riligiga, o'quvchi-talabalarda hech qanday shubha va gumon qolmasligi va uni esdan chiqmasligi uchun, bilimni asos va dalillar bilan berish qoidasi.

17. Haqiqiy bilimga ega bo'lgan deb, uni qaytarib aytib berganga emas, balki bu bilimni amaliyotda qo'llay olganga aytiladi, degan qoida.

18. Doimo o'quvchi-talabalar qiziqish va ehtiyojlarini o'rganib borib, ularni jamiyat ehtiyojiga moslashtirib borish tamoyili.

19.O'quvchi-talabalardagi kuzatuvchanlikni rivojdantirib, hayotdagi voqeliklarni ilmiy asoslab berish yo'li bilan yoshlarda onglilikni kamol toptirish qoidasi.

20. O'quvchi-talabalarga shunday bilim beringki, bu bilimlar ularda qat'iy ishonch hosil qilib, harakat uchun dastur vazifasini o'tash qoidasi.

21. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini takrorlash, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi.

22. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan o'quvchi-talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi.

23. O'quvchi-talabalarni faollashtirish va rag'batlantirish uchun doimo savollar berib, ularning javobini chidam bilan tinglash qoidasi.

2. Ko'rgazmalilik tamoyili. *Bu eng hammaga ma'lum va tushunsa bo'ladigan tamoyillardan biri bo'lib, u qadimiy zamonlardan qo'llanilib kelingan. Buning asosida quyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko'rish va eshitish orqali olingan axborotlar miyaga turlicha ta'sir etib, turlicha holda saqlanadi. Qisqacha qilib aytganda, ko'z bilan ko'rganda quloq bilan eshitgandagiga nisbatan besh barobar ko'p axborot olinib, uni miyada saqlanishi ham yuqori. Ikkinchidan, ko'zdan borgan axborot qayta ishlashga muhtoj emas.*

Ta'lim amaliyoti, ko'rgazmalilik tamoyili amalga oshirishning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan:

1. O'qitish jarayonida, ko'rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o'zlashtirilib, uzoq muddatga esda saqlanib qolishligini doimo xotirada tutish qoidasi.

2. O'quvchi-talabalar shakl, rang, his qilish va tovush orqali fikr yuritishlarini bilish qoidasi.

3. O'quvchi-talabalarning, kishi nimaiki narsani tasavvuriga keltirish mumkin bo'lsa, ko'ra olsa, sinab ko'rilsa, eshita olsa tafakkur qilinadi degan oltin qoidasini bilish.

4. Hech qachon ko'rgazmani asosiy maqsad qilib olmaslik, ko'rgazma maqsad emas, maqsadga yetish vositasi sifatida bilish qoidasi.

5. Bilim berish va bu bilimlarni o'quvchi-talabalar ko'nikmasiga aylantirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar, ular tafakkuriga faqat asos, dalil, misol, timsol va qiyofalar orqali tez yetib borishini anglash qoidasi.

6. Ko'rgazmalardan, faqat narsalarni ko'rsatish uchun foydalanmay, ulardan muammoli vaziyatlarni shakllantirishda ham foydalanish qoidasi.

7. Ko'rgazma faqat axborot beribgina qolmay, o'rganilayotgan narsa va hodisa to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilishligini bilish qoidasi.

8. Ko'rgazmani namoyish etilayotganda ma'lum bir tartib bilan ko'rsatish yaxshi natija berishini tushunib yetish qoidasi.

9.Ko'rgazmani ko'rsatayotganda avval butunlay, so'ng ularni qismlarga bo'lib ko'rsatib, undan keyin yana butunlay ko'rsatishga e'tibor berish qoidasi.

10. Turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish yaxshi, ammo ularning miqdori haddan ziyod bo'lib ketsa, o'quvchi-talabalar xayolini yoyib yuborishligini bilish qoidasi.

11. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda o'quvchi-talabalar avvaldan egallangan hissiy bilimlaridan unumli foydalanish qoidasi.

12. Eng yaxshi ko'rgazmalar o'quvchi-talabalar o'zi tayyorlagan ko'rgazmlar vositalar ekanligini bilgan holda ko'rgazmani iloji boricha o'quvchi-talabalar bilan birga tayyorlash qoidasi.

13. O'zingiz yaxshi bilmagan narsani hech qachon o'quvchi-talabalarga ko'rsatmaslik qoidasi.

14. Yangi texnik vositalar - o'quv televideniesi, video, kompyuter va boshqalardan foydalanilayotganda, avval o'qituvchining o'z uni yaxshi o'zlashtirib olishlik qoidasi.

15. Ko'rgazmali qurollardan foydalanayotganda o'quvchi-talabalar diqqatini, fikrlash madaniyatini, konstruktiv fikrini va o'qishga qiziqishini tarbiyalash qoidasi.

16. Ko'rgazmani, nazariy bilimni hayot bilan bog'lashda foydalanish qoidasi.

17. Dars jarayonida ko'rgazma usulidan foydalanish imkoni, kengayishi uchun ko'rgazmali vositalarni ko'rsatish tartibini albatta rejalashtirish qoidasi.

18. Ko'rgazmali qurollardan foydalanilayotganda, o'quvchi-talabalar yosh xususiyatlaridan kelib chiqish qoidasi.

19. Ko'rgazmali qurollar juda ham kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u o'quvchi-talabalar xayolini o'ziga qattiq jalb qilib, dars mavzusining asosiy maqsadidan chalg'itishi mumkinligini anglash qoidasi.

20. Ko'rgazmali qurollardan haddan ziyod foydalanish o'quvchi-talabalarda abstrakt, ya'ni mavhum tafakkur rivojiga to'siq ham bo'lishi mumkinligini bilish qoidasi.

3. Tizimlilik va muntazamlik tamoyili. Bu tamoyil quyidagi obyektiv qonuniyatlariga suyanadi: inson faqat tashqi dunyoni o'z tafakkurida aniq aks ettirgandagina haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'la oladi; o'quvchi-talabalar tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishning asosiy usuli, maqsadga yo'naltirilgan maxsus ta'limni tashkil qilinishi; maxsus ta'limning tashkil qilinish tartibi o'quvchi-talabalar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi; bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli bilim berish samarasi, bu bosqichlarning orasidagi vaqtni qanchalik qisqa bo'lishligiga bog'liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa bilim berish samara bermaydi; agar bilim va uning negizida shakllangan ko'nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko'nikma yo'qolib ketadi; o'quvchi-talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatilgan bo'lmasa, ular doimo fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladilar; o'qitishda tizimlik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilni ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchi-talabalar tomonidan bilimlar tizimi to'liq o'zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qiting.

2. Mazmunini to'liq ochib berishga ko'zingiz yetmagan biron-bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmang.

3. Mantiqiylikni hech qachon buzmang, buzilib qoladigan bo'lsa, o'zlashtirilmaslikning oldini olish uchun, uni darrov bartaraf eting.

4. O'quv fani – katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib bering.

5. Nazariy bilimlarni o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotginini doimo tekshirib boring: o'rganilayotganning obyekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uni qoidalarini, chegaralarini doimo eslatib ularni bajarilishini tekshirish.

6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun

o'quvchi-talabalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish.

7. Boshlang'ich va umumta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi vorislikni doimo saqlash zarur.

8. O'qitishning ilg'or usullaridan doimo foydalaning.

9. O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo takrorlab turing.

10. O'tilgan mavzularni takrorlash usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalaning.

11. O'tilgan mavzular bilan tez kirishib ketuvchi boshqa yangi fikrlarni bildirmang.

12. O'quvchi-talabalar til savodxonligini faqat til o'qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, balki barcha fan o'qituvchilari ham yoshlarning til savodxonligi va nutq madaniyatiga e'tibor berishi lozim.

13. Sabr va chidam bilan hamda uzluksiz ravishda o'quvchi-talabalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgating. O'quvchi-talabalarning o'rniga o'zingiz javob bera qolmang.

14. Doimo o'quvchi-talabalarga o'qishining istiqbolini eslatib turing.

15. Har bir bilim oxirida albatta umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni amalga oshiring.

16. O'quvchi-talabalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib boring.

17. Charchab qolgan o'quvchi-talabalar faoliyatini hech qachon sun'iy ravishda faollashtirishga harakat qilmang, faollashtirishni ularning jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqing.

18. O'quvchi-talabalardan egallagan bilimiga ko'nikma va malaka hosil qilishni talab qiling.

19. Esda saqlash lozimki, bir tizimda egallagan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, tizim orqali uni darrov esga tushirish oson.

20. Hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak.

4. Mustahkamlik tamoyili. Bu tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan emperik bilimlar birlashib mustahkamlangan.

Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgartirishlar kiritildi.

Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi.

1. Bugungi kungi ta'limda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan.

Shuning uchun o'quvchi-talabalar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e'tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e'tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko'proq kuch sarflashiga yordam berish.

2. O'quvchi-talabalar tushunib yetmagan yoki noto'g'ri tushunib, qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e'tibor berish lozim. O'quvchi-talabalar, faqat yaxshi tushunib yetib, uni to'g'riligiga imon hosil qilgan narsasini xotirasida saqlashi kerak.

3. O'quvchi-talabalar xotirasini kam e'tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishga o'rgating.

4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo'lishi uchun, ravon, iloji bo'lsa she'r vazniga solib turib esda saqlashga o'quvchi-talabalarni o'rgatish.

5. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga o'quvchi-talabalarni o'rgatish.

6. Yod olishni o'quvchi-talabalarga uyga vazifa yoki mustaqil ish qilib bermang yaxshisi uni shu narsaga qiziqtirib qo'ying va vaqti-vaqti bilan bu qiziqishni yangilab turing.

7. Takrorlash mashqlarini o'quvchi-talabalar yangi bilimni egallagan zahotidan boshlash kerak. Chunki, bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq.

8. O'quvchi-talabalar diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillarni faoliyatiga yo'l ko'ymang.

Dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib boring, bilim olish sur'atini susaytirmang.

9. Beriladigan bilimga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamang.

Zo'rlab berilgan bilim o'quvchi-talabalar xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmang.

10. Bilimni egallash sur'ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlang va bartaraf eting.

11. O'quvchi-talabalar tomonidan mustaqil ravishda darsni takrorlash eslab qolishning muhim omili ekanini unutmang va o'zini-o'zi tarbiyalashga katta e'tibor qarating.

12. Takrorlash darslarini shunday tashkil qilingki, u faqat bilimni fikr yuritishga ham foydasi bo'lsin. Shuning uchun darslarini asosiy dars tizimida uning hajmini yo ko'paytiring, yoki kamaytiring.

13. Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko'rgazmali qurollardan foydalanib tushuntirib bering.

14. Yangi beriladigan bilim mustahkam xotirada qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog'lab tushuntirib bering.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o'rganing.

16. Oson va bir turdagi topshiriq berishdan tiyiling, ular o'quvchi-talabalarga qiziq bo'lmay, toliqtiradi.

17. Mashqlar o'tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to'g'risida ma'lumot bering.

18. Mashq davrida o'quvchi-talabalarni charchab qolishidan saqlaning.

19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalaning.

20. O'quvchi-talabalarni o'z mehnatini nazorat qilish va baholashga o'rgating.

5. Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil bir tomondan, didaktikaning boshqa tamoyillarining talablaridan, ikkinchi tomondan, o'quvchi-talabalar yosh xususiyatidan, uchinchi tomondan, ko'p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgan.

Bu tamoyil zaminida **tezaurus qonuni** yotadi. Bu qonun bo'yicha kishiga bilim faqat uning tezaurusiga mos kelganda tushunarli bo'ladi. **«Tezaurus»** lotinchada **«xazina»ni** bildiradi. Ma'nosi, kishining to'plagan bilimi, ko'nikma va fikrlash uslubi uning **«tezaurusi»ni** tashkil qiladi.

Boshqa qonuniyatlarni ham ko'rsatishimiz mumkin: a) beriladigan bilimning tushunarliligi, uni egallayotgan o'quvchi-talabaning yoshi induvidual xususiyatlariga bog'liqdir; b) tushunarlilik bilim berishni tashkil qilishga unda qo'llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog'liq; d) bilimni tushunarliligi uni egallayotganning bilim hajmiga va sifatiga bog'liqligi; e) bilimni tushunarliligi uni berilish sur'atiga bog'liqligi va hokazo.

Ya.A.Komenskiy shakllantirgan quyidagi qoidalari mavjud: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga va oddiydan murakkabga. Hozirgi

zamon pedagogik nazariyasi va amaliyoti tushunarlilik tamoyilini qo'llanish qoidalarini kengaytirdi va boyitdi:

1. Bilimni ta'lim oluvchining yoshiga qarab berish.

2. O'quvchi-talabalar tafakkuri berilayotgan bilimga tayyorlangan bo'lishi shart.

3. O'qitayotganda o'quvchi-talabalarning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasiga qarab bilim berish.

5. O'quvchi-talabalarni individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish.

6. Bilim berish sur'ati o'rtacha olib borilishi shart.

Bilim berishda, muayyan kuchlanishni hosil bo'lishini esda saqlash, bu kuchlanish oshib ketsa o'quvchi-talabalar toliqib, kuchlanish pasayib ketsa ta'lim oluvchilar zerikib qolishini bilish.

7. Psixologiya va pedagogikaning yangi kashfiyotlaridan unumli foydalaning asta-sekin ta'lim jarayonini takomillashtiring.

8. Yangi dars o'tishda kuchli o'quvchi-talabalardan va darsni mustahkamlayotganda o'rta va kuchsiz o'quvchi-talabalardan foydalaning.

9 Berilayotgan bilimlarni qarama-qarshi tomonlarini ham tushuntirib o'quvchi-talabalarni bilim olishini osonlashtiring.

10. O'quvchi-talabalarga eng qiyin singadigan bilimlar tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlaridir. Shuning uchun o'z faningizni o'tayotganda ustalik bilan ularni ko'shib tushuntirib keting.

11. Ta'lim-tarbiya jarayonini asossiz tezlashtirmang va susaytirib yubormang.

12. O'quvchi-talabalarning oraliq yakuniy fikrlari bilan qoniqmaslik kerak, aksincha, fikrni davom ettirish uchun foydalaning.

13. Tushunarlilik o'qituvchining so'zlarini yuqori hissiyot va har bir so'zni asoslab berilganligi bilan ham belgilanadi.

14. Uzoq monolog so'zlardan qoching.

15 O'qitishning bosh qismida barcha bilim hajmini to'kib solmang, faqat asosiylarini aytib o'tish bilan kifoyalaning.

16. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi bu haqiqatni topishni o'quvchi-talabalarga o'rgatadi, degan iborani unutmang.

17 Tushunarli qilib dars o'tish deganda, butun bilimni o'quvchi-talabalarga tushunarli tilda tushuntirib berish yoki bu bilimlarni topishni tushunarli qilib aytib berishda emas, tushunarli dars o'tish deganda kalavani ta'lim oluvchilar qo'liga ushlatib qo'yib, bilimni

sekin-asta chiqib kelishini ko'rsatish, o'quvchi-talabalarni rag'batlantirib turish va hokazo tadbirlarga aytiladi.

6. Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi. Jumladan, dunyoni o'rganib bo'ladi va insoniyat aniqlagan hamda amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniyatlarni o'rgansa bo'ladi; ta'lim-tarbiya jarayoni, ilmiy faoliyat orqali to'plangan, obyektiv olam to'g'risidagi ma'lumot tizimini o'sib kelayotgan avlodga bildiradi; ilmiylik, beriladigan bilimlar ma'lum bir ketma-ketlikda berilishini taqozo etadi; ilmiylik, o'qituvchilarning bilimini ma'lum bir ketma-ketlikda berishga amal qilishni ham taqozo etadi; ilmiylik yana berilayotgan bilim hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy-taraqqiyot darajasiga mosligi bilan hamda tuzilgan dastur va ishchi rejaga mos bo'lishligi bilan ham belgilanadi.

Didaktika bu tamoyilni amaliyotga qo'llashning quyidagi bir qator qoidalarini ishlab chiqqan:

1. Pedagogik amaliyot bilan shug'ullanganda pedagogika, psixologiya va dars berishning usul va uslublarining eng ilg'orlaridan foydalanish.

2. Hozirgi zamon didaktika va psixologiya fanlarining ko'rsatmalari bo'yicha dars berganda mantiqning faqat induktiv usulidan foydalanibgina qolmay, deduktiv usulidan ham bemalol foydalanaverish.

3. Boshdanoq o'quv fanining ichki mantig'ini ochib berishga intilish.

4. O'quvchi-talabalarda narsa va hodisalarga dialektik yondashuvni shakllantirish maqsadida, har bir bilimni berishda uning ichki dialektikasiga ahamiyat berish.

5. Takrorlanmasa esdan chiqadi degan qoidadan kelib chiqib, har bir darsda yangi bilimni takrorlab turish.

6. Qonuniyatlarni tushuntirayotganda, ularni tashqi muhit, vaqt, eskilik va yangilik orasidagi tafovut hamda ichki sharoitlarga bog'liqlikda tushuntirish.

7. O'qitganda, o'quvchi-talabalarda izlanuvchanlik hissiyotini rivojlantirish.

8. Muayyan qonuniyatni tushuntirishda, uni kashf etgan olimning qisqacha tarjimai holini aytish.

9. Bilim berishda, uni tadqiq qilingan usullarini ham aytib, o'quvchi-talabalarda tadqiqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

10. Dars o'tganda atama, ta'rif va tushunchalarning eskilariga tanqidiy yondashib, eng yangilaridan foydalanish.

11. Bilim berishda tarixiylik qoidasidan kelib chiqib, berayotgan bilimingizni kashf qilinish tarixini aytish.

12. Fan bilan bog'liq to'g'ri bilimlarini berishda, ular ichidan asosiylarini ajratib, fandagi ustuvor yo'nalishlarini ham ko'rsatib o'tish.

13. Maktabning yuqori sinflari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va ayniqsa, oliy o'quv yurtlarida fandagi bahsli o'rinlarini aylanib o'tmaslik.

14. O'quvchi-talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirib borish.

15. Yangilik topishni o'quvchi-talabalarda tarkib toptirish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafaning bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda, bilishning birinchi va asosiy nuqtayi nazari – bu hayotning va amaliyotning nuqtayi nazaridir, deyiladi.

U quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqadi: har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi; amaliyot haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarini qo'llanish hududi; to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi; ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, uni qanchalik amaliyot bilan bog'liqligi belgilanadi; bilim berishni samaradorligi, uni politexnik ta'lim bilan bog'liqligi begilanadi; berilayotgan bilim qanchalik hayot bilan bog'lansa, o'quvchi-talabalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bu tamoyilni amaliyotda qo'llanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi:

1.Bilim va tarbiya berishda, o'qituvchi-talabalar bu berilayotganlarni, o'z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi.

2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.

3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo'lgani uchun kashf qilinganligini ta'kidlash.

4. O'quvchi-talabalarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.

5. O'quvchi-talabalarni olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko'rishlarini talab qilish.

6. Ta'lim natijasini ishlab chiqarish bilan bog'liqligini amalda ko'rsatish.

7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish orqali bilimni amaliyot bilan bog'lash.

8. Dars berishda, o'quvchi-talabalarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.

9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayonidagi olingan bilimlar asosida amalga oshirilishi.

10. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish.[1]

Shunday qilib, **didaktika,** ya'ni ta'lim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta ta'lim tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va o'quvchi-talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun-qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga va ta'lim tamoyillariga qay darajada amal qilishlariga bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, buyuk chex didaktik olimi Yan Amos Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida didaktikaning prinsiplarini, ya'ni tamoyillarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni M.I.Skatkin, G.M.Kodjaspirova, S.Rajabov, N.G'aybullayev, I.F.Xarlamov, S.P. Ilina, Yu.K.Babanskiy, L.S.Vigotskiy, V.A.Kankalin, A.Zunnunov, U.Mahkamov, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, R.Mavlonova, J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov, B.Ziyomuhamedov, N.Vohidova, Yo.Rahmonova va boshqa pedagog olimlar ko'rib chiqdilar, lekin ta'lim (o'qitish) tamoyil-(prinsip)larining soni va mazmunini belgilash xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo'q. Ta'lim tamoyil (prinsip)lari soni 6 tadan 11 tagachadir. Tadqiqotlardan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Masalan, M.I. Skatkin uzluksiz ta'lim tamoyilini hisobga olib, o'qitishning mustaqil bilim olishga o'tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e'tibor berib, ta'lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipini maqsadga muvofiq deb biladi. Yu.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo'nalishlaridan biri – optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo'nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipni tavsiya qiladi. Bular esa: 1) ta'limning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshqa metodlar hamda usullarini to'g'ri birlashtirish; 2) ta'limning dars, darsdan tashqari, shuningdek, umumsinf, guruhiy va yakka tartibdaga shakllarini to'g'ri birlashtirish; 3) o'quvchi-talabalarning o'qishga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir.[2] Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo'q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo'limlarini o'tishda ulardan foydalanmoqdalar.

[1] Yoqutxon Rahmonova. Hamshiralik ishida pedagogika. Darslik. –T.: 2007, 90-100-betlar.

[2] Yu.K.Babanskiy Prinsip obucheniya v sovremennoy obrazovatelnoy shkole. Narodnoe obrazovanie. 1979 g., №2, str.7.

17-shakl

TA'LIM TAMOYILLARI



Barcha predmet o'qituvchilari ana shu ta'lim prinsiplariga rioya qilishlari kerak. Aniq predmetlarning mazmuniga, o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni o'zgartirilishi lozim. Masalan; ko'rsatmalilik prinsipini tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni

namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatika jadvallarini ko'rsatish, doskaga yozish, sxemalarni chizish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish, boshqacha aytganda nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni hayotda qo'llay olish zarur.

Umuman, ta'lim (o'qitish)ning har xil tamoyil-(prinsip)lari tavsiya etilayotgan bo'lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi-didaktik olimlar uchun bir qator umumiy ta'lim tamoyil (prinsip)lari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

18-shakl

TA'LIM TAMOYILLARIGA XOS XUSUSIYATLARGA UMUMIY TAVSIF
I. TA'LIMNING ILMIYLIK TAMOYILI
Ilmiy bilimlar haqqoniy voqelikni inson ongida aks ettishidir. Tevarak-atrofni o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning xossalarini va ularning o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilim ilmiy bilimlar hisoblanadi. Ilmiy bilimlar tajribalar, tekshirishlar, tahlil qilish, isbotlash kabilarni talab etadi. Insoniyat ilmiy bilimlarini kengaytirib borgan sari haqiqiy voqelikka ma'lum darajada yaqinlashib boradi. Ilmiy jihatdan isbotlanmagan bilimlar ham mavjud va bu bilimlarni hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida biz talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va bu bilimlarni hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida biz talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va amaliyotda tekshirib ko'rilgan bilimlarni yetkazishimiz lozim. Ta'limning ilmiyligi o'quvchi-talabalarning o'quv materiallaridagi qonuniyatlarini aks ettirish, tushunish va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Nazariy qoidalarni tushunish-materialini ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo'lib, u o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqeylikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izoh ta'limning hamma bosqichlarida ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri nazariy ma'lumotlar tevarak-atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtayi nazaridan biri bilib olishdir. Ilmiylik qoidasi barcha guruhlardagi va turli ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarash e'tiqod tarkib topadi. Tafakkur rivojlanadi. Yetuk milliy kadrlarni tarbiyalab yetishtirish uchun hozirgi zamon fan-texnikasining rivoji darajasidagi ilmiy bilimlarni egallashga erishish muhim. Shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni ilmiy tadqiqot usullari bilan ham tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir, ya'ni darsliklar o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, ilmiy asosda yaratilishi lozim.

II. TA'LIM-TARBIYANING BIRLIGI TAMOYILI

Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Har qanday bilim ma'lum tarbiyaviy ta'sirga ega va har qanday tarbiyaviy tadbir o'zida bilim asosini aks ettiradi. Bu hayotiy qonuniyat bo'lib biz ta'lim jarayonida uni hisobga olishimiz lozim. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda qulay. Chunki tarbiya his-hayajon va amaliy hayot bilan chambarchas bog'liq.

Bu esa bilimlarni puxtaroq o'rganishga yordam beradi. Bilimlar esa bilimlarni ana shu tarbiyaviy jihatlarni mustahkamlashga ta'sir etadi. Bilimlar hayotni, hayotiy qonuniyatlarni bilishga xizmat qilsa, tarbiya ana shu hayotga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib topishini ta'minlaydi. Demak, bir butun ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik hayotini bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni sodir bo'lar ekan.

Ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishga va o'qitishga xilma-xil metod va uslublardan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun:

a) bayon qilinayotgan o'quv materiallarning mazmunini ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi;

b) o'qitilayotgan mavzuning ilmiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib berilishi, ta'lim jarayonida ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;

d) bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zgartirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

e) ta'limda muammoli jarayonni vujudga keltirish o'quvchi-talabalarning qiziqishlari faollik va tashabbuskorlikni ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi;

f) ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning uyushqoqligini intizomlik va javobgarlikni sezish o'zaro yordam hislarini tarbiyalanishini ta'minlash zarur.

III. TA'LIMNING TIZIMLILIK VA IZCHILLIK TAMOYILI

Ijtimoiy taraqqiyotning boy tajribasi ta'limda tizimli va izchillik bo'lishi shart ekanini tasdiqladi. Bilimlarning ma'lum tizimiga solinishi va izchil bo'lishi ta'lim samaradorligini belgilovchi yetakchi omillaridan biridir. Hozirgi zamon didaktikasida bu tamoyilga katta e'tibor berilmoqda. Chunki ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish butun o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga va ertaga o'rganayotgan bilimlarga zamin tayyorlashga yordam beradi. Ya'ni o'tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan yangi material o'quvchi-talabalarning oldingi o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarga ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanish, shu bilan bir vaqtda o'qitilayotgan o'quv materiallarni o'zlashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek, navbatdagi ta'lim bosqichiga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakterli belgisi shundaki, o'quvchi-talabalarning oldidan o'zlashtirilgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning o'zaro boshlanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir. Demak, tizimlilikda izchillik ta'limda uzluksizlikni vujudga keltirishda ahamiyatlidir. Bundan tashqari, ma'lum tizimga solingan bilimlarni egallash o'rganish jarayonida qulaylik vujudga keltiriladi. Albatta tizimli va izchillikni soddadan murakkabga qarab yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bilimlarning asta-sekin izchillik bilan murakkablashib borishi tafakkurni rivojlantiradi va natijada ta'limning rivojlantiruvchi xususiyati kelib chiqadi.

IV. TA'LIMNING KO'RSATMALILIK VA KO'RGAZMALILIK TAMOYILI

Ta'lim jarayonida mumkin qadar sezgi organlarini ko'proq jalb etish o'rganishni osonlashtiradi. Eshitish jarayonida abstrakt tafakkur ma'lum ish bajarsa, ko'rish orqali obrazli tafakkur ham ishga tushadi. Ko'rsatmalilik mavzuni o'rganishda yengillik tug'dirishi bilan birga o'quvchi-talabalarda qiziqish ham uyg'otadi. O'rganilgan mavzuni o'ziga uzoq muddat esda saqlanishga va qayta esga tushirishga yordam beradi. O'quvchi-talabalarning sxema, jadval, diagramma kabi materiallarni ustida ish olib borishlari va materiallar xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

Albatta, ko'rsatmalik samarali natijalar berishi uchun uning boshqa

tomonlarini ham e'tiborga olishi kerak. Birinchidan, ishlatiladigan ko'rgazmali qurollar o'quvchi-talabalarning yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarlik saviyasiga mos kelgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo'lishini hisobga olmoq, uni to'g'ri tanlashga e'tibor bermoq lozim. Uchinchidan, dars jarayonida foydalanishi uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

V. TA'LIMNING ONGLILIK, FAOLLIK VA MUSTAQILLIKKA ERISHISH TAMOYILI

O'quvchi-talabalarni yangi materiallarni idrok qilishda ta'riflar, teoremalar, adabiyotdan she'r yodlash va hokazolarning ifodalanishigina emas, balki ularning hayotiy hodisalar jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi. Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda materiallar quruq yodlab olingan bo'ladi. Bunday bilimlar tez unitiladi. Bundan *tashqari, bilimlarni ongli ravishda* o'zlashtirish o'quvchi-talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni emotsional kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, ta'lim ikki tomonlik xususiyatga ega. Ta'lim jarayonida pedagog yo'naltiruvchi bo'lib maydonga chiqadi va o'quvchi-talabalar o'rganishi jarayonini o'z boshlaridan kechiradilar. O'rganish jarayoni murakkab psixik jarayon bo'lib o'quvchi-talabalardan ma'lum faollikni talab etadi. Pedagog qanchalik qonunchilik ta'lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin, o'quvchi-talabalar tomonidan ma'lum faollik bildirilmasa o'quv jarayonida samaraga erishishi mumkin emas. Demak, o'quv jarayonida avval o'quvchi-talabalarda faollikni uyg'otish zarur. Bu faollik ta'lim jarayoniga ta'sir etadi, idrok qilish, tahlil qilish, analiz va sintez kabi psixik jarayonlarni ishga tushiradi. O'quvchi-talabalarda faollik holatini vujudga kelishida motivatsiyalar ahamiyatlidir. Mustaqil tafakkur turli usullar bilan hosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri *mustaqil hal qilish, muomalali vazifalar qo'yishdir.* Aytib o'tish joizki, onglilik va faollik, mustaqil tafakkurni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim oldiga qo'yilayotgan eng katta talablardan biri ham mustaqil fikrlash muomalalar yechimini topish kabi xususiyatlarni o'quvchi-talabalarda rivojlantirishdir. Umuman onglilik, faollik va mustaqillik o'zaro bir-birini to'ldirib turuvchi psixik holatdir deyish mumkin. Bilimlarni ongli o'zlashtirish bir tomondan o'quvchi-talabalarning mustaqil faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan

aynan shu jarayon davomida o'quvchi-talabalarda mustaqillik va faollikni hamda mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishi nazarda tutiladi. O'quvchi-talabalar faolligini rivojlantirish, ularning mustaqilligini oshirish, ularda onglilikni o'stirish o'qishda yuksak samaradorlilikka erishishga yordam beradi.

VI. TA'LIMNING PUXTA VA TIZIMLI O'ZLASHTIRIB OLISH TAMOYILI

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni bilimlarni mustahkam esda saqlanib qolishini ta'minlash zaruriy talablaridan biridir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarni tizimli va ongli o'zlashtirishga bog'liq. Avvalgi mashg'ulotlarida hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini ancha murakkabroq materiallarni o'zlashtirib olish uchun pillapoya, zamin bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bilimlar zaminining puxta bo'lmasligi keyingi o'rganiladigan yangi bilimlarni ham zaif bo'lishga olib keladi. Ya'ni o'zlashtirgan, mustahkamlangan bilimlarda esa keyingi yangi bilimlarni o'rganilishida va mustahkamlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimlarning o'zlashtirish jarayonida ularning puxta anglab olinganligini tekshirish ba'zi tushunmovchiliklarni yo'qotish, mustahkamlashga e'tiborini qaratish didaktikning asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonida takrorlashni uyushtirish, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash faqat oldidan o'zlashtirilishligini o'quv materialigina esga tushirmay, balki shu o'quv materialiga bog'liq bo'lgan yangi-yangi ma'lumotlar ham beriladi, o'zlashtirilgan bilimlarning noaniq bo'lib qolgan tomonlar oydinlashtiriladi va to'ldiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni uzluksiz va ma'lum tizim asosida olib borilishi ta'lim samarasini oshiradi. Bilimlarni doimiy ravishda tekshirib takrorlash tizimli va uzluksiz ravishda to'ldirib borish muhim didaktik talabdir.

VII. TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH O'QUVCHI-TALABALARNING SHAXSIY VA YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH TAMOYILI

Har bir o'quvchi-talaba o'ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir o'quvchi-talabaning o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individul xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar, o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Chunki ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabani umumiy rivojini ta'minlash. Lekin

o'quvchi-talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. O'quvchi-talabalarning real o'quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o'rganish hozirgi vaqtda shunchaki xohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig'maydi. Albatta shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil, ularni o'rganish ma'lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida o'quvchi-talabaning kuchli va ojiz tomonlarini uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga mos bo'lgan xususiyatlarni bilib olish mumkin. O'quvchi-talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarni tahlil qilish hamda shu muammolarni sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarini rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zlashtirish bir oz pastroq bo'lgan o'quvchi-talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o'zi uchun o'quvchi-talabaning yangi qirralarini kashf etishi mumkin. Keyingi davrlarda **«differensiyalashgan ta'lim»** degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilarni hisobga olingan holda talabalarni guruhlarga ajratishni va shu guruhlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan, guruhlar uchun tuzilgan dasturlar qo'llaniladigan metodlar asosida o'quvchi-talabalarning shaxsi aniqlanadi.

Ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv dasturi, mazmuni va hajmi o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. O'rganilayotgan bilimlar hosil qilinayotgan malaka va ko'nikmalar o'quvchi-talabalarning haddan ziyod toliqtirib qo'ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda o'quv jarayonida o'quvchi-talabalarning sog'ligi psixik holatida salbiy ta'sir etishini oldini olish lozim. Buning uchun har bir o'quvchi-talabaning xususiyatlarini chuqurroq o'rganib imkoniyatlar darajasida belgilab olish kerak. Ta'limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo'lishga erishish lozim. Ta'limni haddan ziyod **«yengillashtirish»**, **«osonlashtirish»** ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta'lim rivojlantiruvchi bo'la olmaydi. Demak, yosh davrda har bir o'quvchi-talabaning imkoniyatlarini o'rganish va imkoniyatlarga mos ravishda ta'limni tashkil etish, o'rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo'lib, bu yo'nalishda ham tegishli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekistonda **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** asosda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bular ta'limning ustuvorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalishiga, ta'lim va tarbiyaning

izviy bog'liqliligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilardir. Ko'rib turganimizdek, uzluksiz ta'limni rivojlantirish tamoyillari didaktika tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ana shu didaktik tamoyillarini yanada mukammallashuviga turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, bugungi kunda o'quvchi-talabalarni ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogika va uning ajralmas qismi hisoblanmish didaktika o'quv jarayoni qonunlarini yanada chuqurroq o'rganish hamda ta'lim samaradorligini oshirish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishi maqsadga muvofiq.

VIII. TA'LIMNING FANLARARO BOG'LIQLIK TAMOYILI

Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchi-talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu fanlararo bog'liq bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashimiz lozim. Demak, bu tamoyil ta'limning fanlararo bog'liqligi bilan hamohang bo'lib, ular bir-birlarini to'ldirib keladilar. Ta'limning fanlararo bog'liqligi ilmiy bilimlarni nazariy jihatdan o'rganishga, mantiqiy bog'liqliklarni tushunishiga, fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qilsa, amaliy harakatlar ana shu bilimlarni amalda qo'llab ko'rish, yanada to'liqroq ishonch hosil qilish, malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

IX. TA'LIMNING NAZARIYA BILAN AMALIYOT BIRLIGI TAMOYILI

Mazkur tamoyillarda dastavval o'quv fanining mazmunini va o'ziga xos xususiyatga bog'liq holda o'qish jarayonida amalga oshiriladi. Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish. O'quv materiallarni idrok qilish, aniqlash, shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruhiy jarayon bilan bog'liq bir butun jarayonni tashkil qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar tomonidan tabiiy fanlardan hamda ijtimoiy gumanitar fanlardan o'zlashtirilgan nazariy bilim ko'nikma va malakalari tajriba xonalari va labaratoriya, zamonaviy texnika vositalari, tajriba yer uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati va iqtisodiy munosabatlar jarayonida qo'llaniladi. Bu mashg'ulotlar ular kelgusida murakkab ilmiy nazariyalari amalda qo'llana olishlari uchun zarur bo'lgan tajriba bilan qurollantiriladi. O'quvchi-talabalar o'quv

materiallarini tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajakda amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qiladilar. Shuning uchun ham har bir mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganilayotgan yangi bilimlarni mumkin qadar amaliyotga bog'lash uchun jarayonning tamoyili sifatida qabul qilinadi.

3.6. TA'LIM METODLARI

«Pedagogik adabiyotlarda, lug'atlarda va ta'lim jarayonida **«metod»**, **«metodika»**, **«usul»**, **«uslub»** atamalari tartibga keltirilmasdan ba'zi o'rinlarda **«ta'lim metodlari»**, **«o'qitish metodlari»**, **«o'qitish usullari»**, **«o'qitish uslublari»** tarzida turlicha talqin qilinmoqda. Shu bois ta'lim metodlari mazmun-mohiyatini batafsilroq ta'riflashga va izohlashga qaror qildik.

«Metod» – *yunoncha «metodos»– bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar majmuasini bildirdi, ya'ni «maqsadga erishish usuli yoki yo'li»* demakdir, *muayyan ma'noda esa «tartibga solingan faoliyatdir».*

«Metod» tushunchasi bilan bir qatorda **«metodik usul»** degan tushuncha ham qo'llaniladi. **«Metod»** ancha keng tushuncha, **«Metodik usul»** metodning bir qismi, uning mexanizmi sifatida tushuniladi. Agar o'qituvchining mavzuni tushuntirishdagi hikoyasi ***metod*** bo'lsa, hikoya qilish vaqtida o'quvchi-talabalarga qaratilgan savollar ularni faollashtirishga yordam beruvchi *metodik usul* bo'ladi. Shuningdek, mavzuni ko'rgazmali qurollar va o'qitish texnikasi vositalari yordamida ko'rsatish ham *metod,* mavzuga bog'liq o'quv materiallarining bir qismini sekinlashtirilgan holda ta'minlovchi *metodik usuldir.* Shuningdek, o'quv-bilish faoliyatining maqsadga etishishda qo'llaniladigan metodik usullar tizimini *uslub* (yo'l) desa mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya uslub (metodika)larini tavsif qiladigan bo'lsak, u o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalar, muloqotini hamda o'quv dasturi va darslik, shuningdek, o'qitish texnikasi vositalari yordamida bilim berish va uni olishni amalga oshiradigan o'zaro munosabatlarni tizimga soluvchi pedagogik faoliyatidir. Bu o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; o'qituvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatda qo'llanadigan uslub, ya'ni yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim

berish o'qituvchidan izlanishni, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishni, mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay bilishni, kerakli ta'lim vositalaridan o'z o'rnida foydalana bilishni talab etadi.

Binobarin, ta'lim (o'qitish)ning metod, usul va uslublari tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning har biri bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchi-talabalarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogika amaliyotda o'qitish metodlarining juda katta tajribasi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Shunday qilib, ta'lim, ya'ni o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchi-talabalar hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan didaktik talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'l mantiqiy fikrlashning falsafiy-pedagogik-psixologik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va shaxsning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu nuqtayi nazardan metod tarbiyaviy maqsadda bo'lishi lozim.

2. Ta'lim metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. Ta'lim o'qitish metodining tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. Ta'lim (o'qitish) metodining tushunarliligi: o'qitishning yo'li o'quvchi-talabalar uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. Ta'lim (o'qitish) metodining onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. Ta'lim (o'qitish) metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi har qanday ta'lim metodidan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bo'lishini taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat ta'lim metodi maqsadga

olib borishi kerak, aks holda u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday ta'lim metodini qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday ta'lim metodiga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas. Metod tizimiga o'qitish usullari ham kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchi-talabalar aqliy va amaliyot ishining alohida jarayonlari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi o'quv materialining mazmunini eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

– tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida jarayonlarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

– fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

– o'quvchi-talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

– nazorat va o'quvchi-talabalarning o'zini-o'zi nazorat usullari;

– o'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar – o'quvchi-talabalarga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchi-talabalarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy jarayonlarni bajarish usullari bilan qurollantirishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati usullarining tartibga solishidir.

Umuman, o'qitish metodlarining majmuasi – atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchi-talabalar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitish-

ning maqsadi o'quvchi-talabalarga insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun ta'lim, ya'ni o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.[1]

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. O'qitish jarayonining ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimini vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchi-talabalarga o'quv materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Pedagogika nazariyasida ta'lim, ya'ni o'qitish metodlarini tasniflashda yagona yondashish mavjud emas. Hozirgi didaktikada ta'lim (o'qitish) metodlarini bilimlar manbai bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, E.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Esip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, M.I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalar, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

Ta'lim (o'qitish) metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular umumiy ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

[1] R.Mavlonova., O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik. –T.: «O'qituvchi», 2001, 465-468-betlar, R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. –T.: 2010, 195-199-betlar.

2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar). Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir ta'lim (o'qitish)metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy-tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasini hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi, ta'lim (o'qitish) metodlarini tasniflash o'qituvchilar faoliyati o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarini ko'rib chiqamiz.

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin o'qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- *tushuntirish – rasmlar metodi;*
- *reproduktiv metod;*
- *muammoli bayon qilish metodi;*
- *qisman izlanish metodi;*
- *tadqiqot metodi.*

M.A.Danilov va B.P.Esipning tasnifi bo'yicha ma'lum turdagi darslarda qo'yiladigan vazifalarga bog'liqdir:

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya-tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish;

2. O'quvchi-talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar;

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish – joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma vq amaliy nazorat ishlari.

S.I.Perovskiy va E.E. Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga bo'lish:

– agar o'quvchi-talabalar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash).

– agar o'quvchi-talabalar faqat tinglasa va eshitsa passiv metodlar (hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya).

Bunday tasniflash ma'qul emas, chunki u o'quvchi-talabalarning ongliligi va faolligi prinsipiga ziddir.

Yu.K.Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

– o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

– nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari (ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud). U quyidagilarni tavsiya etadi:

– bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A.Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K.Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

– yangi bilimlarni (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, ma'ruza metodlari);

– yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yinlar, mashqlar;

– darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

– mustaqil ish.

S.P.Baranov o'z tasnifini guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchi-talabalarning asosiy vazifasi – o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmunni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikricha, o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchi-talabalarning asosiy vazifasi o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlari kiradi. O'quvchi-talabalar faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchinig roli o'quvchi-talabalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi. Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlashtirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va

mahsulli-amaliy, tushuntirish-da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M.I.Maxmutov).

Amalda ta'lim (o'qitish)metodlarini tasniflashda bilimlar manbai mantiqan asoslar bo'yicha (N.M.Verzilin), bilimlar manbai va o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A.N. Aleksyuk, I.D.Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S.G. Shapovalenko ta'lim metodlarining to'rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, prosessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Ta'lim metodlarining tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya, Suvorova, Lvov, R.Mavlonova va boshqalar).[1]

Ta'lim metodlarini har qanday muammoni ta'lim oluvchiga uzatish va qabul qilish xarakteri, mazmuni, mohiyatiga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Ta'limning og'zaki metodlariga hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchi-talabalar esa tinglash, eslab qolish orqali qabul qiladilar.

Hikoya. Ushbu metodda o'quvchi-talabalarga beriladigan bilim mazmuni og'zaki bayon qilish nazarda tutiladi.

Hikoyaning bir necha turi mavjud: **hikoya – hikoya muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa. Hikoya-muqaddimaning maqsadi** o'quvchi-*talabalarning suhbat orqali yangi bilimni qabul qilishga tayyorlash, hikoyaning bir turi nisbatan qisqaligi, yorqinligi, qiziqarligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga qiziqish uni faol o'zlashtirishga ehtiyoj uyg'otadi, darsga befarqlik loqaydlikni yo'qotib, bilim olish maqsadini hosil qiladi. Hikoya – muqaddima vaqtida o'quvchi-talabalar faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.*

Hikoya – bayon davrida *o'qituvchi yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko'rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qiladi.*

[1] R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. –T.: 2010, 199-202 betlar.

19-shakl


TA'LIM (O'QITISH) METODLARI TASNIFI
TA'LIMNING OG'ZAKI METODLARI
HIKOYA, SUHBAT, TUSHUNTIRISH,
MA'RUZA, BAHS-MUNOZARA
NATIJALARNI TAHLIL QILISH
TA'LIMNING KO'RGAZMALI METODLARI
XARITA, RASMLAR, FOTOSURATLAR, PLAKATLAR, JADVALLAR, XOM-ASHYONI NAMOYISH ETISH,
SLAYDLAR, EKSKURSIYA
TA'LIMNING AMALIY METODLARI
YOZMA IJODIY MASHQLAR VA LABORATORIYA MASHQ ISHLARINI BAJARISH, DASTUR TUZISH, PEDAGOGIK MASALALARNI YECHISH, INSHO, ESSE, DOKLAD REFERATLAR YOZISH, RASM SOLISH, XARITALAR CHIZISH, SXEMALAR ISHLASH, JADVAL, GRAFIK, PLAKAT, ALBOM, STENDLAR ISHLASH, MEHNAT HARAKATLARI VA BOSHQALAR.
TA'LIMNING RAG'BATLANTI-RISH VA TANBEH BERISH METODLARI
RAG'BATLANTI-RISH METODI: baho berish bilan, imo-ishora bilan amalga oshadi. TANBEH BERISh METODI: og'zaki *tanbeh berish, baho*-sini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko'rsatish va h.k.
TA'LIMNING MUAMMOLI IZ-LANISH, MUSTAQIL ISHLAR, REPRO-DUKTIV EVRISTIK METODLARI:
o'quv materialining mazmunini, o'quv materialini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'-minlash; bilishga doir faoliyatni boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy *ko'nikma va* malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
TA'LIMNING INDUKTIV VA DEDUKTIV METODI INDUKTIV METODLAR TEXNIK QURILMALARNI O'RGANISHDA VA AMALIY MASHQ-LARNI BAJARISHDA QO'LLANILADI. DEDUKTIV METOD TAFAKKURNI FAOL RIVOJLANTIRADI.
TA'LIMNING NAZORAT VA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH METODI TURLARI
1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
2. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
3. Laboratoriya – amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat.
4. Test nazorati.

Hikoya-xulosa *odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi bu metod orqali asosiy fikrini yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi.* Hikoya metodini qo'llashda muayyan pedagogik metodlardan ma'lum bir tartibda foydalaniladi. Bularga diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash va hokazolardir.

Hikoya metodining samaradorligini shartlari: rejani yoki loyihani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash misol, ko'rgazma va boshqa didaktik materiallarni muvaffaqiyatli tanlash bayonda kerakli hissiyotga erishish.

O'quv materialini tushuntirish metodi – *pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni o'qtirishdir.* Bu metod ko'proq matematika, fizika, kimyo, ona tili, rus tili kabi shunga o'xshash fanlarni o'qitishda ko'proq qo'l keladi. Pedagogning ma'lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun-qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek, masalalar, misollar ishlash yo'li bilan isbotlab beradi. Bu jarayon o'quvchi-talabalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlamay turib ko'tarilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, bayon qilayotgan materiallarni umumlashtirib va xulosalar chiqarishda talabalarning o'z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash muhim.

Ma'ruza – *bilimni so'z bilan ifodalash metodlaridan biri sifatida beriladagan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, so'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik metodlardan foydalaniladi.*

Ma'ruza metodidan asosan umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida foydalaniladi.

Ma'ruza rejasini aniq o'ylash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar zaminida loyihalash zarur. Reja bandlarining, modullarining barchasida ularni har birining maqsad va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, o'quvchi-talabalar uning muhim joylarini yoza olsinlar. Shuning uchun ham ma'ruzani yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi zarur, bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun hamda o'quvchi-talabalar fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat metodi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u ta'lim oluvchilarning - fikrlash tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat metodini qo'llashda savollar qo'yish (asosiy, qo'shimcha, yo'lovchi va h.k.), o'quvchi-talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Savollar yaxshi qabul qilinishi uchun yetarlicha hajmdor bo'lishi lozim. Mavzuni haddan tashqari mayda savollarga bo'lib yuborish mantiqiy butunlikni buzsa, nihoyatda katta savollar mavzuni mavhumlashtirib, muhokama uchun tushunarsiz qilib qo'yadi.

Suhbat va unga tarkibiy qism bo'lib kiruvchi metodlardan foydalanishda o'qituvchining samimiyligi, chehrasining ochiqligi, ruhining ko'tarinkiligi, yoqimtoyligi yetakchilik qiladi.

Demak, suhbat ta'limning keng tarqalgan metodi bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llaniladigan suhbatlardir. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, asosan, o'quvchi-talabalarning shaxsiy tajribasiga tayanadi. Uning manbai ko'rsatmali qo'llanmalar, darslik materiallari, jadval va hokazolar bo'lishi mumkin.

Yangi bilimlar berishga doir ***suhbatni induktiv yo'l bilan (ya'ni xususiy ma'lum yoki zarur voqealardan umumiy voqealarga qarab borish tarzida)*** yoki **deduktiv yo'l bilan** *(ya'ni umumiy hodisadan xususiy hollarga qarab borish tarzida) o'tkazish mumkin. Bilim berishning induktiv va deduktiv yo'llari o'zaro bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi qator misollarni aytishi va keyin xulosa chiqarishi yoki umumlashtirishi mumkin (induksiya).*

Yangi bilimlar berishda **evristik suhbatdan** foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi o'quvchi-talabalar oldiga ma'lum bir vazifa qo'yib, ularni og'zaki savollar orqali ana shu vazifani hal qilishga yo'naltirishda qo'llanadi. Suhbatni muvaffaqiyatli o'tishi savollarning mohirlik bilan qo'yilishiga bog'liqdir. O'qituvchining savollari, avvalo, qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchi-talabalarning fikrini uyg'otishi: uni o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak.

O‘qituvchilar savollarga to‘la, ongli ravishda va asosli javob berishlari, mustaqil fikrlarini aks ettirishlari lozim. Suhbatni bilimlarni mustahkamlash uchun ham o‘tkazish mumkin. U o‘qituvchining axborotidan keyin yoki darslikdagi materialni mustaqil ishlab chiqilgandan keyin o‘tkaziladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o‘tkazilishi mumkin. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o‘tkazilishi mumkin. Suhbat metodi munozara va mubohasa metodlariga kiradi.

Ta’limiy suhbat. Ekskursiya, amaliy ish va yangi materialni tushuntirgandan keyin ularni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiya va yangi materialni tushuntirish davomida o‘qituvchi o‘quvchi-talabalar bilan suhbatlashadi. Suhbatni o‘quvchi-talabalar shaxsiy kuzatishlari, mavjud bilimlari asosida o‘qituvchining savolini tushunadigan va unga javob qaytara oladigan bo‘lganlaridan keyin o‘tkazish mumkin. Agar ana shunday sharoit (bilimlar, tajriba va kuzatishlar) bo‘lmasa, o‘quvchi-talabalar hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan narsalar, hodisalar to‘g‘risida suhbat o‘tkazishning mutlaqo foydasi yo‘q.

Har qanday suhbatning asosini didaktik masala tashkil etadi. Ana shu masala suhbatning vazifasini va xarakterini, hatto uning turini ham belgilaydi. Shunga ko‘ra, ta’limiy va evristik-ta’limiy suhbatlar bo‘ladi.

Ta’limiy suhbat o‘rganiladigan materialni yanada mustahkamlash, chuqurlashtirish va takrorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi mavzu tushuntirilgach, garchi har bir o‘quvchi-talaba faol qatnashmasa ham, ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirish uchun suhbat o‘tkazish zarur. Unda to‘g‘ri fikr yuritish uchun misollarning namunalari bo‘ladi. Bundan tashqari, tabiiy-ijtimoiy gumanitar va boshqa fanlarga doir darsliklardagi suhbatlarda o‘quvchi-talabalarning o‘qituvchi aytgan g‘oyalariga to‘g‘ri kelmaydigan xususiy fikrlari yoki tushunchalari ham ma’qullanadi, o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning, javoblarini e’tirof etishga yoki rad qilishga shoshilmaydi. Aksincha, ular o‘z fikrlarini yoki mustaqil mulohazalarini erkin aytishlari uchun shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Javoblarni baholashda esa ularning shunchaki to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini qayd qilish bilan cheklanmay, balki o‘quvchi-talabalarning javoblaridan ozgina bo‘lsa-da, to‘g‘ri fikrlarini izlaydi. Ulardan zarracha-haqiqatni topsa, uni o‘zi qisqa va yaqqol qilib takrorlaydi, o‘quvchi-talabalarning mustaqil fikr yuritganini ta’kidlaydi va ularni shunday qilishga da’vat etadi. Muvaffaqiyatli fikrlar, hatto ayrim

ifodalar mazkur mavzuda nima haqida gap borayotganini yo'l ochsa, ta'limiy suhbatning evristik-ta'limiy suhbatga aylanishi uchun xizmat qiladi. Noto'g'ri javoblar agar jiddiy bo'lmasa, o'qituvchi tomonidan qayd qilinmaydi yoki yo'l-yo'lakay tuzatib ketiladi. Noto'g'ri javoblar esa o'quvchi-talabalar tomonidan oydinlik kiritilguniga qadar muhokama qilinadi. To'liq qaytarilmagan javoblar esa o'quvchi-talabalar tomonidan oydinlik kiritilguniga qadar muhokama qilinadi. To'liq qaytarilmagan javoblarni o'quvchi-talabalarning o'zlari to'ldiradilar.

Hozircha ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarning bilish ehtiyojlariga taalluqli dolzarb masalalar bo'yicha suhbatlardan ko'p foydalanilmayotir. Fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari yoki ayrim muammolari o'quvchi-talabalarni hayajonlantirishi mumkin. Ixtisoslikka doir o'quv predmeti bo'yicha darslarda, xususan, hozirgi paytda, o'quvchi-talabalarni qiziqtiradigan masalalar muhokama qilinadi. Ba'zan esa bunday masalalar o'quv dasturining chegarasidan ancha chiqib ketadi. Shunday suhbatda o'qituvchi o'quvchi-talabalar muhokama qilinayotgan masala bo'yicha uning fikriga ehtiyojmand bo'lishlariga ko'ra qatnashadi. Mazkur suhbat o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarini, shuningdek, ularni qiziqtiradigan muammoni aniqlash imkonini beradi. Unda o'quvchi-talabalar o'zaro erkin fikr almashadilar.

Munozara. Ta'limiy suhbat bilimlarni o'zlashtirishga zamin tayyorlab, evristik-ta'limiy suhbat ana shu bilimlarni har tomonlama qo'llashga yordam bersa, erkin suhbat bilishdagi mustaqillikni oshiradi. Shu bilan birga, bilishdagi mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim o'quv mashg'ulotlarining har qanday turlari, shakllari va usullari o'rtasidagi bevosita izchillikni vujudga keltiradi.

Munozara suhbatning yanada rivojlanishidir. U ikkita qarama-qarshi nuqtalari nazarning to'g'riligini isbotlash zarurati tug'ilganida vujudga keladi.

Munozara davomida o'quvchi-talabalarning fikrlashidagi xususiy cheklanish barham topadi, bilishga qiziqish ortadi va mustaqil mulohaza yuritish rivojlanadi.

Ta'limning ko'rgazmali metodini shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin: **ko'rgazmali va namoyish qilish metodlari.**

Ko'rgazmali metod–*o'quvchi-talabalarga ko'rsatilgan qo'llanmalar – xarita, plakat, disketdagi chizma va rasmlar, allomalarning suratlari va boshqalarni ko'zda tutadi.*

Namoyish qilish metodi–*odatda qurilma asboblar, tajribalar, turli tipdagi moslamalar va jihozlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga, shuningdek, kinofilm, diafilm va boshqa texnik vositalar orqali ko'rsatish ham kiritilgan. Ko'rgazmali metodlarni qo'llashda quyidagi metodlardan foydalaniladi: ko'rsatish, yaxshi ko'rinishni ta'minlash, texnik vositalar ko'magidan foydalanish, chizish, o'tkazilgan ko'rsatuvlar natijalarini muhokama qilish va h.k.*

Ta'limning ko'rgazmali metodlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular yolg'iz o'zi qo'llanmay so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajadagi uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki, obyektiv borliqdagi qonuniyat va xususiyatlar amaliyotda birgalikda qo'llanishlarini taqozo etadi.

Shunday qilib, so'z va ko'rgazmali metodlarni aloqadorligini xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato. Bular endi, ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazma vositalarining xarakteri, o'quvchi-talabalarga tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, har bir konkret holatida ularning oqilona qo'shiluvi tanlaniladi.

Amaliy metodlar tarbiya (o'rganish) faoliyatining xilma-xil turlarini keng doirasini qamrab oladi. Undagi ta'lim orqali olingan bilimlar hayotida qo'llash yo'li bilan ko'nikmaga aylantiriladi.

Amalda quyidagi metodlar qo'llaniladi: *vazifa (maqsad) ni qo'yish, uni bajarish uslublarini tanlash, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun tarbiya jarayoniga tuzatish kiritiladi.*

Amaliy metodlarga yozma mashqlar ona tili, chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish mashqlarini kiritadi. Mashq davomida o'quvchi-talabalar xatti-harakatni faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi gapiradi, bo'lajak voqeani sharhlaydi, harakatni sharhlash o'quvchi-talabalarga o'zining tipik xatosini anglashga va xatti-harakatiga tuzatishlar kiritishga ko'maklashadi.

Amaliy metodlarning ikkinchi guruhini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Shuningdek, amaliy metodlarga ustaxonalarda, o'quv ishlab chiqarish sexi va boshqalar kiradi. Bu topshiriqlarni surunkasiga bilmay, o'quv-mashq xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiyaning shunday metodlari qo'llaniladiki, bunda o'quv-jarayonida konkret bir korxonaning ishlab chiqarish topshirig'i bajariladi.

Amaliy metodlarga o'rgatuvchi mashinalar bilan trenajor hamda repetitor mashinalar yordamida mashqlar ham kiradi. Amaliy metodlar

tartibni so'z orqali ifodalash va uning ko'rgazmali metodlar orqali mustahkamlash jarayoni bilan chambarchas-bog'liqlikda qo'llaniladi. Mashq, tarbiya, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin o'qituvchi ta'limiy tadbir o'tkazib so'z bilan tanishtiradi va ko'rsatadi.

* **Ta'limning induktiv va deduktiv metodlari** – *o'quv materiali mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.*

Ta'limning induktiv metodi – *o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval dalillarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchi-talabalar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchi-talabalar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchi-talabalar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishlicha xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.*

Deduktiv metod – *o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchi-talabalar umumiy qoidalarni idrok etadilar. Natijalarni egallaydilar.*

Agar mana shu metodlar taqqoslansa, o'quvchi-talabalar ma'lum mushohadalarni keltirib chiqaradigan faktlar va materialni o'zlashtirishlariga ko'ra *induktiv metod* foydaliroqdir. Masalan, o'qituvchi matematik masalaning yechimini yoritadi, keyin o'quvchi-talabalarga ana shu xildagi masalani mustaqil holda yechishni tavsiya qiladi, lekin bunda fikrlash tez rivojlanmaydi va materialni o'rganishga ko'p vaqt ketadi. *Deduktiv metod materialni o'qishga yordam beradi va bunda mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi.* Ta'limning *induktiv va deduktiv metodlarida* uning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlari, shuningdek, *reproduktiv yoki muammoli izlanish metodi* ham qo'llanadi.

Ta'limning reproduktiv xarakteri, asosan o'quvchi-talabalarning ijodiy faoliyatidir. Fikrlashning xarakteri – o'qituvchi bergan o'quv axborotini faolroq idrok etish va eslab qolish, o'qitishning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlaridan hamda usullaridan foydalanmay, mazkur metodlarni qo'llab bo'lmaydi. Reproduktiv metodda o'qituvchi faktlarni, isbotlarni, tushunchalar ta'rifini to'la bayon qiladi, asosan masalaga alohida e'tibor beradi.

20-shakl


O‘QITISHNING REPRODUKTIV, INDUKTIV VA DEDUKTIV METODLARI
REPRODUKTIV METOD
O‘QUVCHI-TALABALAR O‘QUV MATERIALINI EGALLASHLARI ASOSAN XOTIRADA ESLAB QOLISH HOLATIGA ASOSLANGAN METODI
INDUKTIV METOD
XUSUSIY FAKTLARNI MUAMMOLI BAYON QILISH, O‘QUVCHI-TALABALAR FAOLIYATINI XUSUSIYDAN UMUMIY XULOSALAR CHIQARISHGA YO‘NALTIRISH METODI
DEDUKTIV METOD
UMUMIY QONUNLARNI BAYON QILISH O‘QUVCHI-TALABALARNING FAOLIYATINI UMUMIYDAN XUSUSIY XULOSA CHIQARISHGA YO‘NALTIRISH METODI

O‘qitishning reproduktiv metodida ko‘rsatmalilik ham qo‘llaniladi. Reproduktiv yo‘sindagi amaliy ishlar o‘quvchi-talabalarning namuna bo‘yicha ilgari yoki endigina o‘zlashtirgan bilimlarni qo‘llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda bilimlarni mustaqil holda boyitish amalga oshmaydi. O‘qitishning muammoli-izlanish metodi muammoli ta’lim jarayonida qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan metodlardan tashqari, ularning qorishmasidan yaratilgan metodlar ham mavjud, quyida ularning ba’zilarini misol tariqasida keltiramiz.

Muammoli - izlanish metodlari *muammoli ta’lim jarayonida qo‘llaniladi. Bu metoddan foydalanishda o‘qituvchi avval muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo‘yadi, masalalarni, namunaviy topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qilib beradi.*

O‘quvchi-talabalarning oldingi bilim va ko‘nikmalariga asoslanib, muammoli vaziyatni hal qilish turlari to‘g‘risida takliflarni aytadi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona yo‘lini tanlaydi. Bu metod o‘quvchi-talabalarning bilimga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash va o‘z fikrini aytish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Ta’limning muammoli izlanish metodlari amalda bilimni so‘zda ifodalab, ko‘rgazmali va amaliy metodlar orqali tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda, bilim olishning muammoli izlanish metodini qo‘llash, amalda tadqiqot ishlarini bajarish, hatto mustaqil tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to‘g‘risida ham so‘z yuritish mumkin. O‘quv jarayonini muammoli qidiruv metodi yordamida tashkil qilish, muammoli tuzilgan ma’ruza metodi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish kabi metodlardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ta’limni muammoli-qidiruv metodlarida ko‘rgazmali esda saqlanishni faollashtirish bilan bir qatorda, darsda muammoli vaziyatni yaratadigan namunaviy masalalarni qo‘yish uchun ham ishlatiladi. Muammoli-qidiruv metodlari ko‘proq ijodiy bilim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan bu metod o‘zini ilmiy tadqiqot ishiga bag‘ishlagan yoshlarga bilim berishda asqotadi.

Mustaqil ish metodi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda, rivojlantirishda, o‘quv-dasturlarida mustaqil ta’lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishda ma’lum fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ishning mazmuni, shaxsi va vazifalari tanlab olinadi. Topshirilgan mustaqil ishni bajarish uchun

pedagogik kerakli adabiyotlar va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talabalar bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ish ko'p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda har bir talabaga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi kerak.

Reproduktiv va evristik metodlar birinchi navbatda talabalarning o'quv materiallarini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash bilimidagi tipik kamchiliklarni tez, aniqlash uchun qulay. Reproduktiv metodlar, ayniqsa, o'quv materiallarini mazmunan asosan axborot xarakterida bo'lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o'rganilishi lozim bo'lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o'quv axborotlarini faolroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutib, hikoya, ma'ruza, ko'rgazmali va amaliy ishlar ham reproduktiv asosiga qurilishi mumkin. Reproduktiv xarakteriga ega amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlar davomida o'quvchi-talabalar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida u ko'pincha evristik, ya'ni qisman izlanuvchan metod bilan qo'shib olib borishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o'rganilayotgan materiallarning ba'zi elementlari ustida o'quvchi-talabalarga fikr yuritish imkoni beriladi. Pedagog tomonidan yengil qisqa savollar tuzilib, o'quvchi-talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda o'quvchi-talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ta'lim metodlarining eng yangisi va eng samaradorlisi bugungi kunda **zamonaviy pedagogik texnologiyalar** hisoblanmoqda. Bu metod qo'llanganda avval, dars loyihasi tuzib olinadi. Dars beruvchi loyihaga qattiq rioya qilishi shart.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars loyihasini tuzishda avval aytanimizdek, uning **besh tamoyiliga** rioya qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning birinchi tamoyili muayyan o'quv predmeti, katta modul yoki dars mavzusida kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ikkinchi tamoyili darsning umumiy maqsadidan va mavzuning ichki mazmunidan kelib chiqib, darsni kichik *«modullarga»* ajratib, har bir modulning maqsadini hamda modullar ichida hal qilinadigan asosiy masalalar tizimini aniqlab olishdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uchinchi tamoyili modullar ichida ko'tariladigan masalalarning ichidan asosiylarini tanlab

olib, ulardan test savollari va ular asosida so'rov varaqasini tuzib chiqish.

Asosan mavzular besh moduldan iborat bo'lib, birinchi va to'rtinchi modul darsini tashkil qilish va xulosalash qismlarini tashkil qilsa, beshinchi modul dars samaradorligini aniqlashdir. Shunda, yangi bilimlarni berish 2 va 3 modullar zimmasiga tushadi. Ushbu modullardagi bilimlar ichidan muhimroqlarini ajratib olib, test savollari tuziladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning to'rtinchi tamoyili maqsadga yetish metod va usullarini tanlab, joyini belgilab olish. Bizning misoldagi mavzu o'zining umumiyligi bilan ajralib turganligi munosabati bilan unda asosan so'z bilan tushuntirish va qisman illyustrativ uslublardan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda, joyi kelganda muammoli izlanish usulidan ham foydalaniladi. Ushbu mavzu oldiga qo'yilgan maqsadlarga yetishish uchun yuqorida qayd qilingan metodlar ishlatiladigan joyini aniqlab qo'yishdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning beshinchi tamoyili dars ichidagi modullar orasidagi uzviy bog'liqliklarga hamda dars mazmunini fanlararo aloqalar asosida tuzilishiga e'tibor qaratilishi shart.

O'qitish metodlari. Pedagogika nazariyasi amaliyotida o'qitish metodlarining juda katta boyligi to'plangan ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiy o'zining o'qitish usullari haqidagi g'oyalarida o'quvchi-talabalarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini uqtiradi.

Qomusiy olimlar foydalangan ta'lim usullarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: *ko'rgazmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javob metodlari (Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari (Forobiy, al-Xorazmiy) va boshqalardan iborat.*

Ta'lim metodlarini tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali metodlarni qo'llash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchi-talabalarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda

o'quvchi-talabalarning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchi-talabalardan so'raydi. Natijada guruhning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu metod o'quvchi-talabalarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur metodning samaradorligi ham aynan shunda.

Garchi har bir pedagogning ishida anchagina metod va uslublar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirish bo'lmog'i lozim. Pedagogning vazifasi samarali metodlardan foydalanib o'quvchi-talabalarda faollik sifatlarini tarkib toptirish va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishdir. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchi-talabalardagi imon-e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi va o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchi-talabalarda darsda qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak?

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi faqat insoniyat aniqlagan bilimlarni o'zlashtirishgina emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchi-talabalar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishini ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fan-texnikaning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchi-talabalarga mos metodda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati pedagogning o'quvchi-talabalar fikr doirasini kengaytirishga doimo g'amxo'rlik qilishidir.

Shunday qilib, ta'lim, ya'ni o'qitish metodi pedagog va talabalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan tadbirdir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan metodi o'quvchi-talabalarda fikrlashning dialektik qarashlari, irodaviy xususiyatlari va xulqining shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarliligi o'quvchi-talabalar uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning metodi esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi shart.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

7. O'qitish metodida nazariy va amaliy hodisalarni muvofiqligiga erishmay ham dars o'tib bo'lmaydi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, ilmga erishish bo'yicha faoliyat metodi ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini bilishni talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'ygan maqsad uchun yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganligini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday ta'lim metodini qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi ham qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodlari uchun yetarli emas.

Ta'lim, ya'ni o'qitish metodlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

– *tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operasiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan metodlar;*

– *fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan metodlar;*

– *o'quvchi-talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;*

– *nazorat va o'quvchi-talabalarning o'zini-o'zi nazorat metodlari;*

– *o'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish metodlari.*

So'nggi yillarda pedagogika fani va pedagogik amaliyotda ta'lim metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo

bo'yicha anchagina tadqiqotlar olib borilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarali metodlari va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topiladi. Ammo ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy - nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchi-talabalarning mantiqiy fikrlash, mantiqiy mulohazalarni bajarish metodlari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Ta'lim metodlarining turlari juda ko'p, ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Ular pedagogik amaliyot davrida tinmay boyib boraveradi. Ta'lim metodlari o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga qarab tasniflanadi.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa shuki, pedagogika nazariyasida ta'lim, ya'ni o'qitish metodlarini tasniflashga hozirgacha yagona yondashish mavjud emas. Hozirgi kunda didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbai bo'yicha, didaktik maqsadlar bo'yicha, bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha farqlash eng ko'p tarqalgan.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Didaktika – yunoncha so'z bo'lib, «didasko» – *o'qitish,* «didaskol»–o'rgatuvchi ma'nolarini anglatadi.

Didaktikaning tadqiqot predmeti – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi – *«ta'lim-tarbiya oluvchi», «ta'lim-tarbiya beruvchi», «o'quv-dastur», «darslik va boshqa didaktik materiallar» hamda «o'qitishning usul va uslublari», «o'qitishning texnik vositalari»* orasidagi funksional aloqadorlikdan iboratdir.

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individul psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi.

Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi maqsad – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Umumiy ta'lim – bu o'quvchi-talabalarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim – har bir shaxsni o'zi tanlagan kasbiga tegishli nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiluvchi ta'lim.

Politexnik ta'lim – o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari haqidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish jarayonlarini o'zlashtira olish uchun baza (asos) ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallab olishni nazarda tutadigan ta'lim.

O'qitish – maqsad, mazmun va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida o'quvchi-talabalar ma'lum bilimlarni rejali o'zlashtirish ko'nikma va malakalarni egallash jarayonidir.

O'quv jarayoni – ta'limning barcha komponentlari (tarkibiy qismlari)ni o'qitish va undan foydalaniladigan vositalarni ham, muayyan vazifalarni hal qilish uchun ta'limning metod (usul) larini ham, unda mustaqil ishlaydigan o'quvchi-talabalarni ham, o'quv jarayonida ko'rgazmali va texnik vositalar bilan jihozlashni ham o'z ichiga oladi.

O'qitish – o'qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Qonuniyat – bizning ixtiyorimizdan tashqari obyektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalar o'rtasidagi, ularning tarixiy rivoji (evolutsiyasi) zaruriyatdan kelib chiqqan bog'lanish.

Qonun – insoniyat tomonidan yaratilgan tartib va qoidalar.

Qoida – bu inson faoliyat tartibining so'nggi bosqichi bo'lib, obyektiv qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan tamoyillarning u yoki bu harakatlarini chuqurlashtirib, oydinlashtirib (konkretlashtirib) beruvchi chora va tadbirlar tartibi majmuasidir.

Tamoyil (prinsip) – bu obyektiv mavjud qonuniyatlardan, ya'ni butunini bir butun qilib turuvchi qismlari darsidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqib, amal qilinishi lozim bo'lgan harakatlar tushuniladi.

Metod – yunoncha «metodos»–*«aynan nimagadir yo'l»* degan ma'noni anglatadi, ya'ni *maqsadga erishish yo'lini bildiradi.*

Ta'lim vositalari – ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan texnik uskuna va qurilmalar haqida ko'rgazmali qurollardan

iborat. Epidaskop, diaskop, kompyuterlar, plakatlar, o'quv asboblari va hokazolardan iborat.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Didaktika deganda nimani tushunasiz?
2. Didaktikaning ta'lim va tarbiya tushunchalarini (kategoriyalarini) yaxlit bir butunligini sharhlab bering.
3. Shaxsni shakllanish va kamol topish jarayonini tushuntirib bering.
4. Takomillashish nima?
5. O'qish va o'qitish tushunchalarini sharhlang?
6. O'quv jarayonini tushuntirib bering.
7. Ta'lim jarayonining mohiyati nimadan iborat?
8. Shaxs rivojlanishida ta'lim qanday rol o'ynaydi.
9. Nima uchun o'quv jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega?
10. Bilim berishning asosiy maqsadlarini tahlil qiling.
11. Bilim faoliyatining asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.
12. Ta'lim mazmunini nimalar tashkil qiladi?
13. Pedagogik jarayonda ta'lim tamoyillarining ahamiyati va zaruriyati nimada?
14. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish omillari qanday?
15. Ongli o'zlashtirish uchun faollikning roli qay darajada zarur?
16. Metod (usul) deb nimaga aytiladi va uning qanday turlarini bilasiz?
17. Muammoli vaziyat yoki muammoli masala deganda nimani tushunasiz?
18. Qanday o'quv asboblariga ta'lim vositalari deyiladi?
19. Pedagogik qonuniyatlarni tushuntirib bering?
20. Pedagogik qonun-qoidalarni tushuntirib bering?
21. Pedagogik tamoyillar deganda nimani tushunasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Didaktikaning ta'lim nazariyasi sifatidagi taraqqiyoti.
2. Bilim ta'lim jarayonining metodologik asosi sifatida.
3. Ta'lim jarayoni va mutaxassislik.
4. Ta'limning mazmunini va unga qo'yiladigan talablar.
5. Ta'lim qonun-qoidalari va tamoyillari.
6. Ta'lim metodlari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Didaktika qaysi so'zdan olingan va lug'aviy ma'nosi nima?

a) yunoncha «techhe» – o'qtish, mahorat;

b) yunoncha «logos» – tushuncha, ta'limot;

s) yunoncha «didasko» – o'qitish, o'rgatish;

d) yunoncha «didaktikos» – o'qituvchi;

e) yunoncha «didako» – o'rganuvchi.

2. Didaktika so'zi ilk bor qaysi pedagogning asarlarida ifodalangan?

a) nemis pedagogi Volfgon Ratke (Ratixiya) (157–1635) asarlarida «o'qitish san'ati» sifatida;

b) Yan Amos Komenskiyning XVI asr «Buyuk didaktika» asarida «Hammani barcha narsaga o'qitish universal san'ati» shaklida;

s) Forobiyning «Ijtimoiy va axloqiy traktatlar» asarida «o'rgatish va ta'limni qo'llash» shaklida;

d) A.Bella va D.Lakkoster asarlarida «ta'limning sinf-dars» shaklida;

e) a va b.

3. Didaktikaning asosiy turkumlari qaysilar?

a) o'qitish, o'rganish, o'rgatish;

b) ta'lim berish, bilim, bilish, ko'nikma;

s) maqsad, mazmun, tashkil qilish, turlar, shakllar;

d) metodlar, vositalar, o'qitish;

e) barcha javoblar to'g'ri.

4. Ta'lim faoliyati qanday xislatga ega?

a) birinchi xislati – u inson ruhiyati qonuniyatlari va uning ijtimoiy rivojida tashkil topadi;

b) ikkinchi xislati – u insonning bilish holatini o'zgartiradi;

s) uchinchi xislati – biologik, psixologik ijtimoiy qonuniyatlar asosida shakllangan inson rivojini tezlashtiradi;

d) to'rtinchi xislati – insonning ijtimoiy tarixiy qonuniyatlar rivojini anglashiga mehnat jarayonidagi faoliyatiga yordam beradi;

e) a va b.

5. O'qituvchi va o'quvchi-talabalarning o'zaro faoliyati nechta qismdan tashkil topadi?

a) mo'ljallash – asoslash;
b) muloqot – bajarish;
s) fikrlash – baholash;
d) o'quv-anglash – rag'batlantirish;
e) a, b va s.

6. Ta'lim maqsadi qanday talablarga javob berishi lozim?

a) maqsad aniq belgilangan bo'lishi;
b) maqsadni belgilashga doir dalillar aniq bo'lishi;
s) natijalar ma'lum ta'lim muassasiga tegishli bo'lish;
d) ta'lim-tarbiya maqsadini to'g'ri ifodalash;
e) a, b s.

7. Ta'lim vazifalaridan eng muhimlarini belgilang.

a) aqliy va ruhiy (emotsional) rivojlanish;
b) axloqiy va jismoniy rivojlanish;
s) shaxsiy rivojlanish;
d) madaniy tarbiya vazifalari;
e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Ta'lim mazmunini shakllantirishning qanday prinsiplari mavjud?

a) o'quv matnining hozirgi davr fani rivoji bilan bog'liqligi va politexnik prinsiplari;

b) mantiqning fan va o'quv fanlari bilan birligi hamda sanoat mazmunining shakllanish prinsiplari;

s) g'oyaviy mazmun va badiiy shakl birligi, shaxsning madaniy rivoj bilan uyg'unligi, g'oya va san'atning birligi, yosh xususiyatini hisobga olish prinsiplari;

d) jismoniy rivojlanish va mehnat mazmunini shakllantirish prinsiplari;

e) barcha javoblar to'g'ri.

9. Ta'limni tashkil etish nechta bosqichdan iborat?

a) bilish, asoslash;
b) umumlashtirish, tashkil etish;
s) o'quv materialining bo'laklari;

d) takrorlash, nazorat va baho, tushunish;
e) barcha javoblar to‘g‘ri.

10. Ta’lim jarayonining tuzilishi qaysi javobda o‘z aksini topgan?
a) ta’lim maqsadi, o‘qitish va o‘rganish faoliyati hamda natija;
b) o‘quv materialining mazmuni va ta’limni tashkil qilish shakllari;
s) ta’lim metodlari;
d) ta’lim vositalari;
e) barcha javoblar to‘g‘ri.

11. Ta’lim jarayonining qanday qonun va qonuniyatlari mavjud?
a) jarayon maqsadi, mazmun va metodlarining ijtimoiy jihatdan shartliligi, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, pedagogik jarayonning bir butunligi va birligi qonuni;
b) nazariya va amaliyot birligi va o‘zaro aloqa, ta’lim jarayonining dinamikalik (rivojlanish) qonuni;
s) ta’lim jarayonida shaxsning rivojlanish, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish, rag‘batlantirish, ta’lim jarayonida sezgi, mantiqiylik va tajriba birligi, tashqi (ta’lim) va ichki (bilish) faoliyatining birligi qonuniyatlari;
d) ta’lim jarayonining shartlilik, ta’lim va tarbiya o‘rtasida qonuniy bog‘liqlik, o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qonuniyatlari;
e) barcha javoblar to‘g‘ri.

12. Ta’lim tamoyillari (prinsiplari) ning qanday turlarini bilasiz?
a) ilmiylik, onglilik va faollik prinsipi;
b) ko‘rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik prinsipi;
s) tushunarlilik, birgalik va yakka shakl hamda o‘quv-ish yo‘lini maqsadga muvofiq prinsipi;
d) nazariya va amaliy birligi prinsipi;
e) barcha javoblar to‘g‘ri.

13. «Metod» so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
a) *«Metod»* yunoncha so‘z bo‘lib, *«aynan nimagadir yo‘l»*, ya’ni «maqsadga erishish usuli, yo‘li» demakdir;
b) o‘qitish, ta’lim berish;
s) yangi bilimlarni bayon etish, tushuntirish;
d) maqsadga erishish usuli;
e) aniq tartibga asoslangan faoliyat.

14. Ta'lim metodlari nechta turkumga bo'linadi?

a) amaliy metodlar;
b) ko'rgazmali metodlar;
s) og'zaki va o'qitish metodlari;
d) kitob bilan ishlash, o'rganish va video metodlari;
e) barcha javoblar to'g'ri.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Didaktikaning mazmun-mohiyati nimadan iboratligini tushuntirib bering.

№	DMMNI	Tushuncha
1.		

2. **Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining asosiy bosqichlarini qiyoslab bering.**

№	BFABQB	Tushuncha
1.		

3.Didaktikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari)ni tushuntirib bering.

№	DAT(K)I	Tushuncha
1.		

4. Ta'limning asosiy mazmunini tushuntirib bering.

№	TAM	Tushuncha
1.		

5. Ta'lim qonuniyati, qonunlari, tamoyillari (prinsiplari) deganda nimani tushunasiz?

№	TQQT(P)	Tushuncha
1.		

6. «Ta'lim metodi», «metodik usul va metodik uslub (yo'l)» tushunchalarini izohlab bering.

№	TM, MU va MU	Tushuncha
1.		

IV bob. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA VOSITALARI

4.1. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida ta'lim berish va o'qitish paydo bo'lgan va mustaqil jarayon sifatida ajralib chiqqan vaqtidan boshlab ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari turlicha amalga oshirilgan.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlarida ta'lim berish ishlarini kishilarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, katta yoshdagilar hayotiy tajribasini yoshlarga o'rgatish ishlari **yakka tartibda** *(individual)* olib borilgan. Bu o'qitishning eng qadimgi shakli – **ta'limning individual shakli** hisoblanadi. Ta'limni tashkil etishning individual shakli *(kichik guruhlar shaklida)* antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan Yevropadagi ba'zi mamlakatlarda keng foydalanilib kelingan.

Individual ta'lim *(kichik guruhlar shaklida)* bir qator **afzalliklarga** ega, shuning uchun ta'limning bu shakli bizning davrimizgacha **repetitorlik ta'limi shaklida** saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni va metodini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va faoliyati jarayonlarini kuzatib borishdan iborat. Individual ta'lim o'qituvchining yuqori pedagogik malaka va mahoratga ega bo'lishini talab etadi.

Individual ta'lim *(o'qitish)*ning afzallik*(ustunlik)*lari bilan bir qatorda uning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) vaqtning tejamli emasligi;

2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchi-talabalarga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

3) boshqa o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi *(bu holat ijtimoiylashish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);*

4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi va h.k.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini **ta'limning individual – guruhli shakli** egallashiga imkon beradi.

Ta'limning individual – guruhli shaklidan Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Vaholanki, Markaziy Osiyo davlatlarida ta'–limning **individual – guruhli shaklidan** qadimgi (antik) davrlarda keng foydalanganlar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi **«Avesto»** *(miloddan avvalgi VII–VI asrlar)da* talqin etilishicha, ibodatxonalar qoshidagi mak–tablarda *individual – guruhli o'qitish jamoali o'qitish* bilan birga qo'shib olib borilar edi. Birinchi navbatda, bolalarga zardushtiylik dini asoslari, Oliy Tangri Axura - Mazdaga iltijo va murojaatlari-yu farzlari, Zardusht o'gitlari puxta o'qitilib, kalome – bad'e asoslariga suyangan holda *«Gohlar» maxsus yodlatilgan. Ikkinchidan jamiyat taraqqiyoti ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda, bolalarga riyoziyot (matematika), xan-dasa (geometriya), falakiyot (astronomiya), tarix, falsafa, huquqshunoslik, tabobat va boshqa dunyoviy fanlar o'qitilgan. Kichik yoshdagi bolalarni o'qitishda ustoz-kohin (o'qituvchi) 21 kitob (nask)dan iborat «Avesto»ning «Goh» «Yasht» yoki boshqa kitob (nask)laridan birini ochadi, bolalar navbatma-navbat ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda (individual-guruhli) takrorlaydilar, mashqlarni esa maxsus taxtachalarga yozganlar. O'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat - muloqot uslublaridan keng foydalanilgan. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash, hamisha esda tutish talab qilingan, egallangan bilimni sinash maqsadida ta'lim oluvchilarning bilim darajasi muntazam tekshirilib va baholanib borilgan.*[1] *Darsni tashkil etish quyosh chiqqandan to botguncha davom etgan, uy vazifalari (topshiriqlari) mavjud bo'lmagan.*[2]

O'rta asr Uyg'onish davrida (IX–XII asrlar davomida) al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning asarlaridagi g'oyalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, bevosita o'rganilayotgan fan mantig'idan ajratilmagan. Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari, ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g'oyalar alohida kitoblarda berilmay, balki bevosita amalda (tajribada), bironta fanni o'rganish asosi aniq bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi.

---

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T.: «Adolat», 2001, 26-bet, H.Boboyev, T.Do'stjonov, S.Hasanov. «AVESTO» – Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. –T.: 2004, 53-bet.

[2] Avesto. Drevnyaya Vostochnaya literatura. Moskva, MDNM, 1984, s.352.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) *«Al-kitob al-muxtasar fi-hisob aljabr va muqobala» («Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»* asari bilan algebra fanining asoschisi sifatida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan masalalarni umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Al-Xorazmiy o'qitish jarayonini tashkil etishda bilim berishning ko'rgazmali tajriba usullari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchi-talabalarning bilimlarini sinash usullaridan keng foydalangan[1].

Abu Nasr Forobiy (873–950) o'z asarlarida o'qitish jarayonini tashkil etishda ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish xususida fikr bildirsa ham, ammo har birining inson shaxsini kamol toptirishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida qayd qiladi:

«Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb - hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir».[2]

Forobiy o'qitish jarayonini tashkil etishda ta'lim-tarbiya berishning ishontirish va majbur etish metodlari ustida to'xtab, shunday yozadi: **«Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar (kasb-hunar) va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l qanotbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi. Odamdagi g'ayrat, kasb-intilish harakatga aylantiriladi.**

Ikkinchi yo'l (usul) – majbur etish yo'lidir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashlarga intilishi bo'lsa, bunday yoshlarni majbur etmaslik kerak, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb - hunar ahillariga aylantirishdir».[3]

---

[1] S.Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. – T.: «Adolat», 2001, 103-bet.
[2] Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. –T.: «Fan», 1975,76-bet.
[3] O'sha asar, 77-78-betlar.

Ta'limning **differensiyasi (darajalanishi)** haqidagi al-Forobiyning didaktik xulosalari hozirgi davrning ta'lim nazariyasi uchun ahamiyatini yo'qotmaganligini alohida ta'kidlash lozim: **«Ishontirish metodlari va xayolda paydo bo'lgan fikriy tasavvurlar oddiy xalqni, xalqlardagi va shaharlardagi oddiy kishilarga ta'lim berish davomida qo'llaniladi. Qaysiki, ishonchli dalillash metodi, ya'ni narsalarning mohiyatiga o'zining aql bilan yetishish metodi tanlaganlar qatoriga chiqishi mumkin bo'lmagan kishilarnigina o'qitish davomida qo'llanadi».**[1]

Al-Farobiy ta'lim jarayonida bilimlarning boshlanishi va dalillarning asosi hisoblanadigan **kuzatish va tajriba** kabi ko'rgazmali metodlarni keng qo'llashni taklif etadi. Tajriba natijasida olingan va kuzatishlar yoki tajriba yo'li bilan tekshirilgan bilimlar natijasida ta'lim oluvchining fikr-o'yi aqlliroq bo'lib boradi, uning o'zi esa – ko'p darajada mukamallashadi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ta'lim jarayonini tashkil etishda, birinchidan, ta'lim oluvchiga bilim berishda turli mavzular yuzasidan mulohazalar yuritishni, ikkinchidan, tolibi ilmlarni zeriktirmasdan ko'rgazmali bayon etishni, xotirasiga malol keltirmaslikni ta'kidlaydi: *«Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatini toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi».*[2]

Abu Ali ibn Sino (980–1037) *«Tadbiri manzil» asarining «Omuzish va parvarishi modarabo farzand» («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash»)* bo'limida o'quvchilarni, ya'ni tolibi ilmlarni *jamoali, ya'ni sinf-dars shaklida o'qitishni* tashkil etishda quyidagilarga qat'iy rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

– agarda o'quvchilar(tolibi ilmlar) birgalikda o'qisalar,ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi;

– o'zaro suhbatlarda o'quvchi(tolibi ilm)lar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

---

[1] O'sha asar, 76-bet.

[2] S. Hasanov. Xorazm ma'naviyati darg'alari. –T: «Adolat», 2001, 118-bet.

– bola (tolibi ilm)lar birgalikda yig'ilganlarida bir-birlari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar, ular faqat musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bola (tolibi ilm)lar mag'rurlanadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni o'rganadilar.[1]

Burxoniddin Zarnuji (XII asr) «*Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar*» nomli asarida ta'lim (dars)ni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi. Uning ta'kidlashicha, maktab va madrasalarda dars jarayoni taxminan bir soat davom etishi kerak. O'qituvchi darsga tolibi ilmlar tushunishi va o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganiladigan materiallarni sodda qilib tushuntirib berishi lozim. O'quv materiallari shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.[2]

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394–1449) davrida o'qitishning sinf-dars shakli, bolalarni yoshi bo'yicha tabaqalashtirib o'qitish, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishning aniq bir muddatini belgilab qo'yish, xotin-qizlarga ta'lim-tarbiya berishni aniq bir tizimga solish va boshqa ko'pgina shunga o'xshash islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Ulug'bek madrasalarda o'qish muddatini qat'iy 8 yil qilib belgilab qo'ydi.

Shuningdek, maktab va madrasalarda dars berishning individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va **«jamoa» sinf-dars tizimiga** yaqin bo'lgan shaklini joriy qildi. Umumiy ma'ruzani 50-70 nafar tolibi ilmlardan iborat guruhga odatda, ilm-fan bo'yicha o'z sohasida mashhur Shamsiddin Muhammad Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi kabi olim mudarrislar o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 talabadan iborat guruhda kichik mudarrislar olib boradi. O'qitishning munozara va tortishuv metodlari muhim hisoblangan.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislar o'qituvchilardan tolibi ilmlar (o'quvchi-talabalar) bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etdi, bunga bevosita o'zi rahbarlik qildi.

Ulug'bekning fikricha, tolibi imlar hayotida darslik muhim o'rinda turadi. Shunga ko'ra, uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlardan sodda, tili

[1] S.Rahimov. Abu Ali ibn Sinoning psixologik-pedagogik qarashlari. –T.: «O'qituvchi», 1978, 103-bet.
[2] Антология педагогической мысли Узбекистана. – Москва, 1986, с.125.

ravon, tushunarli, mantiqiy izchillikda o'qimishli darsliklar yozilgan. Lekin shu o'rinda o'qitishning **«jamoa» shakl**ining salbiy tomonlari ham bo'lganligini ta'kidlab o'tish lozim. Jamoali o'qitish shakli XX asr ta'lim tizimida mashhur bo'lgan guruhli laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'or (o'zlashtirgan)lar qatorida bir qo'llanmani o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar.[1]

Ta'limni individual – guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi-talaba bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi o'quvchi-talabalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchi-talabadan o'tilgan mavzuni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan o'quvchi-talabalar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan ham.

XV–XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi o'quvchi-talabalarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri o'quvchi-talabalarni o'qitishning **guruhli (jamoali) ta'limi** sanaladi. U Rossiya (hozirgi Belorusiya va Ukrainaning g'arbiy hududlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo'llanilgan va o'qish sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Kamenskiy tomonidan **«Buyuk didaktika»** asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogika nazariyasiga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Ya.A.Kamenskiy **«Buyuk didaktika»** (1632) *asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida uyushtirib, ularda har yili va har bir o'quv kunini bir vaqtda boshlashni; har qaysi mashg'ulot uchun muayyan muddat belgilashni; mashg'ulotlar o'rtasida tanaffuslar berilishini; guruhlarda o'quvchi-talabalar yoshi va soni bir xil bo'lishini, materialni bir xil sur'atda o'rganishni; o'quv mashg'ulotini muayyan tashkiliy shaklda; o'quvchi-talabalar e'tiborini bir nuqtaga to'plash, o'qituvchining tushuntirishi, tushuntirishlar davomida va undan keyin o'quvchi-talabalarga savol berish, o'quv materiali mazmuni qanday o'zlashtirilganini nazorat qilish shaklida o'tkazishni*

[1] M.Tohirov. Mirzo Ulug'bekning pedagogik qarashlari. –T.: «Fan», 1984, 26-bet.

ta'minlash maqsadga muvofiq va zarur ekanligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Guruhli (jamoa) mashg'ulotlarning bunday shakli ***sinf-dars tizimi*** *nomini olib, juda ko'p mamlakatlarga tarqaldi, mustahkamlandi. U bugungi kunda ham takomillashgan ko'rinishda keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.*

Sinf-dars tizimining bugungi mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakl sifatida quyidagilardan iborat:

– bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfi yoki talabalar guruhini tashkil etadi. Ta'lim muassasasida sinf o'quvchilari yoki talabalar guruhi o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibni saqlab qoladi;

– sinf yoki guruh o'qish faoliyati yagona yillik, o'quv rejasi va dasturi asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida o'quvchi-talabalar ta'lim muassasasiga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

– mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

– dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchi-talabalar sinfda yoki auditoriyada bitta material ustida ishlaydilar;

– darsda o'quvchi-talabalarning o'qish faoliyatiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchi-talabani alohida bilimini baholaydi.

K.D.Ushinskiy tomonidan sinf-dars tizimi, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasi yanada rivojlantirildi. U har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatadi:

1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o'quvchi-talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi;

2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi;

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

A.Disterverg esa darsni tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchi-talabalarning yoshi va imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida o'quvchi-talabalar o'zaro munosabatlarining shakllanish imkoniyati; o'qituvchining o'quvchi-talabalar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchi-talabalarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: sinf-dars tizimining asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchi-talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o'quvchi-talabalar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

1-shakl

SINF

yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchi-talabalar guruhi.

DARS

esa bevosita o'qituvchining rahbarligi hamda nazorati ostida muayyan o'quvchi-talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini anglatuvchi tushunchalardir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchi-talabalarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa, dolzarb xususiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi (AQSHda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi).

Yevropa va AQSHda XX asr boshida o'quvchi-talabalarning *individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini* ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogika tarixiga kirdi. Buni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

O'quvchi-talabalarga yozma yo'riqnoma va maslahat berilib, mustaqil va individual rejaga binoan ishlashlari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra individuallashtirilgan ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka erishish uchun o'quvchi-talabalar barcha zaruriy qo'llanmalar, ko'rsatmalar bilan ta'minlanishi kerak edi.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: **o'quv faoliyatining muvaffaqiyati ta'lim muassasasida ishlash sur'atining har bir o'quvchi-talabalarning imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq: ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish, o'quvchi-talabalarning mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi, o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, sinf yoki auditoriya laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchi-talabalarning laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari mumkin.**

Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ega bo'lgani uchun keskin tanqidga uchragan.

XX asr 20-yillarida ta'lim ishlari Ilmiy tekshirish instituti *ta'limning loyihali tizimini* targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimning mazmuni o'quvchi-talabalarning o'zlari loyiha ishlari mavzusini tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy - turmush tomonlarini aks ettirish kerak bo'lgan.

60-yillarda **Tramk rejasi** juda mashhur bo'ldi. Uni amerikalik professor pedagog **Lyuyd Tramk** ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 nafardan iborat bo'lgan guruhlarda) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchi-talabalarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40% ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20%, kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40% ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etishning *noan'anaviy shakllari* vujudga keldi. Tajriba va sinov maydonlarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liqdir. Izlanishlarning asosiy masalasi ta'limni individuallashtirish edi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Yevropada birinchi universitetlarning paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar shakli yuzaga keldi. *O'sha davrdan boshlab hozirgacha ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari mustaqil ta'lim ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot o'rta maxsus maktab va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari ta'limning asosiy shakllaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.*

Shunday qilib, kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridanoq, ya'ni yoshi ulug', hayotiy tajribasi katta kishilar yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan qilib ta'lim-tarbiya berish shakllarini topishga uringanlar. Buning natijasida ***individual guruhli ta'lim*** tarkib topgan bo'lib, u vaqtlar o'tishi bilan ***ustoz-shogird darajasigacha*** rivojlantirilgan. U ming yillar davomida to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni yetkazib berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki eng qiyin sharoitlarda yashashiga har qanday vaziyatlarda mashaqqatlarni yengishga yordam bergan. Hozirgi paytda ta'limning bu qadimiy shakli bilan bir qatorda *sinf-guruh dars shakli* va zamon hamda istiqbol talablarini o'zida aks ettiruvchi noan'anaviy (***bahs-munozara, seminar, laboratoriya, trening, viktorina, fakul-tativ, o'yin kabi***) shakllardan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Umuman, ta'limni tashkil etish shakllarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

2-shakl


TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI
Yakka tartibdagi (individual guruhli ta'lim shakli)
Ta'limning an'anaviy sinf-dars shakli
Ta'limning noan'anaviy shakllari
Kichik guruhlar shaklida o'qitish
Repititorlik ta'limi
Yangi materialni o'rganish darsi, o'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish darslari, kirish, umumlashtirish darslari, aralash dars
Ma'ruza, fakultativ seminar, rolli o'yin, aqliy hujum, o'rgimchak to'ri, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, bahs-munozara, davra suhbati, viktorina, matbuot konferensiyasi, mo'jizalar maydoni va shu kabilar

3-shakl

TA'LIM JARAYONI SHAKLLARI



4.2. TA'LIMNING ASOSIY SHAKLI – DARS VA UNGA QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR

Dars o'z navbatida ta'limning asosiy shakli bo'lib, tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlar (elementlar) dan iborat: **ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, dars dasturi va rejasi, o'quv-uslubiy qo'llanma va didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar; o'qitishning texnik vositalari.** Darsning bu besh tarkibiy qism (bo'lak)lari o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni **dars** degan majmuani tashkil qiladi. Birining mavjudligi boshqasining mavjudligini taqozo etib, birining yo'q bo'lishi boshqa barcha qismlarining faoliyatini yo'q-qa chiqaradi. Darsning bu qismlarining har bir o'z navbatida bir butunlik (majmua) bo'la turib, o'z navbatida quyidagi bir necha qismlardan tashkil topgandir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi darsni bir butun qilib turuvchi qismlar tasnifini **ta'lim-tarbiya beruvchi**dan boshlashimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining bosqichlarida ta'lim-tarbiya beruvchini, avval ham aytib o'tganimizdek, turlicha atalib *murabbiy, ustoz, o'qituvchi, pedagog, asistent, katta o'qituvchi, dosent, professor va ma'ruzachi* deb yuritiladi.

Bularning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida darsni tashkil etish va ishchi rejada ko'rsatilgan bilimlarni, ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib yetkazib berishdir.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi-talabalar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi Davlat ta'lim standartlari (o'quv dasturi, reja, darslik) asosida belgilanadi. O'qituvchi uchun dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, o'qituvchi bu jarayonda quyidagilarga amal qilishi shart:

1. Har bir sinf yoki guruhda o'quvchi-talabalarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishiga;
2. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishiga;
3. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf yoki guruh bilan va alohida o'quvchi-talabalar bilan ishlash shaklida olib borilishiga;

4-shakl


TA'LIM JARAYONI MOHIYATI VA DARSNING TARKIBIY QISMLARI
Ta'limning tashkiliy jihatlari
Ta'limning nazariy metodologik asoslari
Ta'lim beruvchi
Ma'ruza
Ta'lim oluvchi
Seminar
Dars dasturi va rejasi, darslik
Konsultatsiya
O'quv-uslubiy qo'llanma va didaktik materiallar
Mustaqil ishlash
O'quvchi-talaba – ta'lim obyekti
Pedagogik usul va uslublar
Baholash mezoni
O'qitishning texnik vositalari
Xolis
Darsning shakli
O'quvchi-talabalarga axborot uzatish vositalari
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar
Yozma ish
Nazorat

5-shakl

D A R S TAVSIFI
Dars – o'zining aniq maqsadi, mazmuni, vaqti va ishtirokchilari tarkibi bilan chegaralangan, u o'quv muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismidir. **Darsning maqsadi va mazmuni o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, tuzilmasi, qat'iy dars jadvaliga muvofiqligi, o'qituvchi rahbarligi yoki nazorati asosida o'tkazilishi, sinf o'quvchilari va guruh talabalarining barchasi bilan yoki har biri bilan alohida yakkama-yakka o'tkazilishi bilan tavsiflanadi.** **Dars ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli. U aniq maqsad, tugal mazmuniga ega bo'lishi bilan birga, o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.** **Dars turlari – darsning mohiyati, asosiy maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarining o'zaro munosabati va muloqoti kabilarga ko'ra turlanadi.**

4. Dars o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalar yordamida olib borilishiga va uzluksiz ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berishiga va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratishiga qattiq rioya qilishi shart.

Shuni unutmaslik kerakki, ta'lim muassasalarida talim-tarbiya ishlari faqat sinf-dars yoki ma'ruza-seminar shaklida olib borilmay, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar darsdan va auditoriyadan tashqarida bo'lishi ham mumkin.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchi-talabalarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi shart.

Pedagogika nazariyasi dars oldiga bir qator didaktik talablarni qo'yadi. Jumladan:

1. Har bir dars aniq maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilmog'i yoki loyihasi tuzilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materiallarni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2. Har bir dars aniq g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

3. Har bir dars ta'lim muassasasining, ijtimoiy muhitining imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

5. Dars uchun ajratilgan vaqt va uninig daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish lozim.

6. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'zaro faol munosabatda bo'lishi kerak.

7. Mashg'ulotlar butun sinf yoki guruh bilan va har bir o'quvchi-talaba bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olingan holda olib borilishi shart.

8. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

9. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlardan o'quvchi va talabalarni xabardor etish lozim.

Demak, dars didaktika tamoyiliga muvofiq ta'lim-tarbiyaning birligiga asoslangan holda olib borilishi kerak. Buning ma'nosi shuki, o'qituvchi har bir darsda o'quvchi-talabalarga ham ta'lim beradi, ham tarbiya beradi.

Darsning ta'lim berish vazifasi – o'quv dasturida ko'rsatilgan, o'quvchi-talabalarning darsda o'zlashtirishi lozim bo'lgan aniq *bilim, ko'nikma va malaka* bilan belgilanadi.

Darsning tarbiyaviy vazifasi – dars mazmunining ilmiy va g'oyaviy puxtaligi, mantiqiyligi bilangina emas, balki darsning tashkil etilishi, metodikasi, shuningdek, o'qituvchining shaxsi va ayniqsa, pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega. Darsda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-talabalarning diqqat, xotirasi va tafakkuri o'sadi, o'qish va mehnat intizomiga rioya qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, ularda dunyoqarash va axloqiy sifatlar tarkib topadi.

Darsning muvaffaqiyati avvalo har bir darsni tashkil etilishiga bog'liqdir. Shuningdek, sinfdagi o'quvchilarning yoki guruhdagi talabalarning o'quv materialini qanchalik o'zlashtrishga tayyorlanganligiga, o'tilgan mavzuni o'rganish va mustahkamlash yuzasidan o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlari qanday tashkil etilganligiga ham bog'liqdir.

Har bir darsning ma'lum qismi o'quvchi-talabalarning mustaqil ishiga ajratilishi lozim. Zero, mustaqil ishni (ta'limni) tashkil etishdan maqsad, o'quvchi-talabalar tafakkurini va bilimni egallashga yondashish qobiliyatini o'stirib borish hamda mustaqilligini ta'minlash ko'zda tutiladi. Shuning uchun mustaqil ish o'quvchi-talabalarning individual o'ziga xos xususiyati, kuchi va imkoniyati (qobiliyati)ga muvofiq bo'lishi kerak.

6-shakl

DARSLARNI TAShKIL ETIShGA QO'YILGAN DIDAKTIK TALABLAR
Dars maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.
Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchilik vazifalarining birligi va uzviyligi.
O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchi-talabalarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarini tanlash.
Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.
O'qituvchining rahbarlik roli bilan o'quvchi-talabalar faol bilish faoliyatini birga olib borish.
Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.
O'quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
Darsda o'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.
Darslarni demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish.

O'qituvchi darsda butun sinf yoki guruh bilan ishlashi va shu bilan bir vaqtda o'z faoliyatini o'quvchi-talabalarning individual ishi bilan bog'lashi lozim.

Darsda o'quvchi-talabalarga individual munosabatda bo'lish deganning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi har bir o'quvchi-talabaning o'ziga xos xususiyatini bilib olib, ta'lim jarayonida buni e'tiborga oladi. Masalan, o'qituvchi diqqati beqaror bo'lgan o'quvchi-talabalarning parishonxotirligini nazarda tutib dars jarayonida ularga tez-tez savollar berib turadi, ulgurmovchi o'quvchi-talabalarga alohida topshiriqlar berib turadi va hokazo.

Shunday qilib, dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan o'quv materialining mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida va didaktik talablar asosida olib boriladi hamda tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni muxtasar holda bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan qo'yilgan didaktik talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

4.3. ZAMONAVIY DARS TURLARI (TIPLARI) VA DARSNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Hozirgi paytda pedagogika nazariyasi va amaliyotida zamonaviy dars iborasi tez-tez tilga olinmoqda. *Zamonaviy dars qanday dars?*

Zamonaviy dars shunday darski, unda o'qituvchi o'quvchi-talabalarning mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi-talaba yoshlar esa o'z navbatida bilimlarni chuqur o'zlashtiradilar va ma'naviy barkamol shaxs bo'lib yetishadilar.

Zamonaviy dars deganda qanday darsni tushunamiz, uning belgilari, mezonlari qanday, u qanday shakllarga ega, u qanday uslubda o'tiladi, darsda qanday usullardan foydalaniladi, unga qanday didaktik talablar qo'yiladi? kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Pedagogika ilmi tajribalaridan, mavjud didaktik nazariyalar va nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalar fikrini oydinlashtirishga, yuqoridagi savollar yechimini topishga harakat qilamiz.

Zamonaviy dars mezonlari va belgilari quyidagilardan iborat:

– dars – o'quvchi-talaba shaxsiga yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning o'zaro faol munosabatlariga asoslangan bo'ladi;

– dars jarayoni tabaqalashtirish va shaxsiy qobiliyatlariga yondashuv asosida amalga oshiriladi;

– dars o'quvchi-talabalarning yuqori darajadagi qiziqishi, xohishlari, aqliy faolligi, muvaffaqiyatga erishuviga qaratiladi;

– dars o'quv materiali mazmuniga ko'ra turli uslublar, vositalar, uslubiyatlarga suyanadi;

– darsda o'quvchi-talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishga e'tibor qaratiladi;

– darsda o'quvchi-talaba shaxsiyatini rivojlantirishga, birinchi navbatda, o'quvchi-talabalarning o'zini-o'zi boshqara olishiga qaratilgan mexanizm to'liq ishga solinib, shu orqali ularning bilimga bo'lgan qiziqishi va xohishi orttiriladi;

– dars sifati va samaradorligini ta'min etuvchi nazorat turlaridan foydalaniladi;

– darsda vaqtdan unumli va maqsadli foydalaniladi;

– o'quv materiali qiyinchiliklarini osonlik bilan yenga olishga e'tibor qaratiladi;

– darsda nazariya va amaliyot o'zaro bog'lanishda talqin etiladi;

– darsga tizimli yondashuv – o'quvchi-talabalarning pog'onama-pog'ona rivojlanishi hamda to'liq o'zlashtirib olishini ta'minlaydi;

– dars jamiyatning sotsial (ijtimoiy) buyurtmasini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi;

– o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning pedagogik faoliyati pedagogika hamda psixologiyaning eng so'nggi yutuqlari asosida tashkil etilishi ta'minlanadi;

– dars jarayonida o'quvchi-talabalarning qiziqishi asosida ta'limning rivojlanish vazifalari hal etib boriladi;

– o'quvchi-talabalarning bilim olish, tashabbuskorlik, ijodkorliklari tarkib toptiriladi;

– ta'lim mazmyni optimallashtiriladi;

– dars strukturasi takomillashtirilgan bo'ladi;

– o'quv maqsadlari aniq, o'quv jarayoni rang-barang bo'ladi;

– dars yuqori saviyada, kuchli emotsional holatda o'tadi;

– darsda o'zaro aloqalar jadallik bilan o'rnatiladi.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagilardan iborat:

– o'quv maqsadlarini aniq va ravon belgilash, dars bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini ta'min etish;

– ta'lim mazmunini optimal aniqlash, uni o'quv dasturlari, ta'lim standarti me'yorlariga mosligi, o'quvchi-talabalar tayyorgarligining dars jarayoniga mosligi;

– bilimlarni o'zlashtirib olishlarini kafolatlash orqali o'quvchi-talabalarni ko'nikma, malakalarni egallab olishga tayyorlash;

– dars mazmuniga mos ravishda ratsional metod, uslub, vositalarni tanlay olish, shu orqali o'quvchi-talabalar qiziqishini oshirish, yakka va jamoa tartibda ishlashga muhit yaratish;

– dars jarayonida turli didaktik prinsiplardan foydalanish;

– o'quvchi-talabalarning muvaffaqiyatli o'qishi uchun sog'lom muhit yaratish.

Demak, darsda o'qitishning asosi bo'lgan didaktika o'qitish muammosi va nazariyasi hisoblanadi.

Didaktikaning quyidagi kategoriyalari, ya'ni tushunchalari mavjud:

– *dars berish, o'quv, o'qitish, ta'lim berish, bilim, malaka, maqsad, darsni mazmunli tashkil etish, uning ko'rinishlari, shakli, metodi, vositalari, natijalar olish.*

1. **Dars** – o'quv jarayonining bir bosqichi, bo'g'ini, elementi; ma'no jihatdan tugallangan, tashkiliy hamda vaqt jihatdan cheklangan davr.

2. **Dars berish** – pedagog faoliyatini, dars maqsadlarini amalga oshirishni tartibga solish, axborotlarni yetkazish, tarbiyalash, tushunib yetish va olingan bilimni amaliyotda qo'llay bilish.

3. **O'quv jarayoni** – o'rganish, mashqlar bajarish orqali o'z faoliyatini boshqara olish asosida yangi bilimlarga intilish, erishish.

4. **O'qitish jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar orasida o'zaro tartibga solingan faoliyat, qo'yilgan maqsadga erishish.

5. **Ta'lim** – o'quv jarayoni davomida egallab olingan bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash yo'nalishlari.

6. **Bilim** – insoniyat tomonidan yaratilgan g'oyalarni fanlar kesimidagi talqinini nazariy jihatdan o'zlashtirib olish.

7. **Ko'nikma** – o'zlashtirib olingan bilimlarini turli yo'llar bilan amaliyotda qo'llay olish.

8. **Malaka** – o'zlashtirilganlarni yuqori darajada ijro eta olish.

9. **Maqsad** – o'quv, ta'limiy maqsad – o'qitishdan ko'zda tutilgan va olinadigan ma'lum hajmdagi bilim.

10. **Mazmun** – ilmiy bilimlar yig'indisi, amalda qo'llash uchun beriladigan ko'nikma va malakalar, ta'lim jarayonida fikrlash, qo'llash, mulohaza yuritish orqali amalga oshiriladi.

11. **Tashkilotchilik** – darsda didaktik jarayonni tartibga tushirish, qo'yilgan maqsadni ko'zda tutishning eng qulay shaklini shakllantirish.

12. **Shakl** – dars jarayonini amalga oshirishning eng qulay usullari, vositalari, ketma-ketligi, o'qitishdagi o'quvchi-talabalar soni, sarflangan vaqt, joy qulayliklari.

13. **Metod** – darsning maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yo'llari.

14. **Vosita** – o'quv jarayonini olib borishda yordam beruvchi vositalar: o'qituvchi ovozi, mahorati, darsliklar, qo'llanmalar, didaktik tarqatma materiallar, sinf va auditoriya jihozlari, ITK va boshqalar.

15. **Natija** – o'quv jarayonidan kutilgan pirovard natijalar.

Bir soatlik darsga mo'ljallangan o'quv dasturi materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi **dars (tiplari) turlari** *deb yuritiladi.*

Darsning mantiqiy tuzilishi va bilish jarayonining xarakteriga qarab ta'lim tizimida qo'llanilayotgan dars turlari quyidagilardir: ***kirish darsi; egallanadigan bilimlar bilan birlamchi tanishish darsi; yangi bilimlarni egallash darsi; egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash darsi; malaka va ko'nikmalar hosil qilish darsi; o'rganilgan narsani tizimlashtirish va umumlashtirish, takrorlash va olingan bilimni mustahkamlash darsi; bilimlarni tekshirish darslari; aralash darslar va h.k.***

Yana darslar ularni o'tish asosiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Dars – ma'ruza; dars – suhbat; kino darsi; nazariy yoki mustaqil ishlar darsi; aralash dars.

2. Dars – laboratoriya; amaliy ishlar darsi; dars- ekskursiya.

3. Og'zaki so'rash; yozma sinov; sinov amaliy nazorat; nazorat ishi, aralash dars.

Darslar ichki tuzilishiga qarab quyidagi to'rt tip (tur)ga bo'linadi:

a) yangi bilimlarni egallash uchun tayyorlanish;

b) yangi bilimlarni egallash;

d) yangi bilimlarni mustahkamlash va tizimga keltirish;

e) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash. Bu tip (tur)dagi dars ***aralash*** *darslar deyiladi.*

Aralash darslarning shu kungacha saqlanib kelishining sabablaridan biri, aralash darsdagi to'rt unsur (element) istagan ketma-ketlikda qo'llanishi mumkin. Shu bilan birga bu turdagi dars jarayonida didaktikaning deyarli barcha talablariga erishish oson. Shuning uchun ham, didaktik nazariyatchilarning ta'kidlashlaricha, 80% darslar shu turda olib borilar ekan.

Bu turdagi darslarning afzalligi yana shundaki, u dars jarayonida hukm suruvchi didaktik qonuniyatlarga mos keladi. Bu darslarda o'qituvchi va pedagoglar, o'z sharoitlaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarning qabul qilish imkoni, tayyorgarlik darajasi va boshqa bir qator omillarni hisobga olgan holda, darsga ajratilgan vaqtni dars ichidagi to'rt unsurga ixtiyoriy ravishda taqsimlay oladilar.

Aralash darslarning yuqorida aytilgan yutuqlari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham mavjud. Chunonchi, aralash darslarda, undagi to'rt unsurning hammasiga vaqt yetishmaydi. Dars olib boruvchilarning ixtiyoridan tashqari, avvalgi darsni yaxshi takrorlab chiqaman, degan o'qituvchiga, albatta, yangi bilim berish uchun kam vaqt qoladi. Yangi berilgan bilimni va uyga vazifa yoki mustaqil topshiriq berishni qoidali qilib amalga oshirishni aytmay qo'ya qolaylik. Shuning uchun keyingi vaqtda, pedagogik amaliyotda bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi darslar paydo bo'la boshladi. Bularga: *yangi bilimlarni egallash darslari; yangi ko'nikmalarni hosil qilish darslari; bilimlarni umumlashtirish va tizimga keltirish darslari; bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda xatolarni tuzatish darslari; bilim va ko'nikmalarni amaliyotda sinab ko'rish darslari.* Bu dars turlari shunday nomlangani bilan, dars ichidagi aralash darslarning to'rt unsurining biri uzaytirilib, qolganlari qisqartirilgan bo'ladi. Masalan, darslarga ajratilgan 45 daqiqani, yangi bilimlarni egallash dars turida, darsni tashkil qilib va o'tgan darsdagi mavzuni takrorlash qismiga 2-3 daqiqa beriladi. Bu vaqtda o'qituvchi o'tgan darsni takrorlamay, qisqacha eslatib o'tadi xalos. Quyida bu turdagi darslarning ichki tuzilishini ko'rib chiqamiz.

Yangi bilimlarni egallash darsi yoki u **tushuntirish darsi** ham deb yuritiladi. Bu turdagi dars qismlarining taxminiy joylashuvi quyidagicha:

1. Ilgari o'tilgan bilimlarni eslash.
2. Yangi bilimlar berish.
3. Yangi bilimning o'zlashtirilganligini tekshirish.

4. Nazariyani qo'llash namunasini ko'rsatish.

5. Uyga vazifa berib, darsni yakunlash.

Egallagan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash darsi, quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy bilimlarni eslash.

2. Egallagan bilimlar bo'yicha mashqlar qilib, ko'nikma hosil qilish.

3. Darsni yakunlash.

4. Uyga vazifa berish.

Takrorlash darsi. Egallangan bilimlarni mustahkamlash bilan takrorlash darslari orasida ancha umumiylik mavjud. Bu umumiylik, eng avvalo, mazkur darslarning vazifalari va darsning ichki tuzilishiga taalluqlidir. Shu bilan birga bu darslarning orasida takrorlanayotgan avvalgi darslarda material to'liq berilmagan, ba'zi joylari takrorlanadi.

Bilgan narsasini hadeb takrorlayvermaydi. Takrorlash darslarida avvallari bilmay qolgan joylari takrorlanadi.

Egallagan bilimlarni umumlashtirish va bilim hamda ko'nikmalarini takomillashtirish darsi.

Bu darsning elementlari quyidagicha:

1. Umumlashtiruvchi bilimga doir bilimlarni eslash.

2. Bilimlarni umumlashtirish va ular orasidagi funksional aloqadorlikni ko'rsatish.

3. Nazariy bilimlarning o'zlashtirilganligini tekshirish.

4. Bilimlarni qanday qilib umumlashtirilgan qoidasi bilan tanishtirish.

5. Mavzu bo'yicha egallangan bilimlarga hosil qilgan ko'nikmalarni takomillashtirib, malaka darajasiga yetkazish.

6. Darsning natijalarini yakunlash.

7. Uyga vazifa berish.

Egallangan bilim va ko'nikmalarni tekshirish (kontrol) darsi. Nazorat ishi o'tkaziladigan darsning tuzilishi murakkab emas. O'qituvchi topshiriqlarni e'lon qiladi, o'quvchi-talabalar ularni bajaradilar va dars oxirida ishlar yig'ib olinadi. Nazorat ishining savollari va topshiriqlari shunday ifodalanishi kerakki, o'quvchi-talabalarning javoblarida ular bilimlarni shunchaki eslab qolgani emas, balki ishning mohiyatini tushungani ham ko'rinib turishi lozim.

Lekin bulardan tashqari olib borilishiga qarab ham ko'rinishlarni ifodolovchi quyidagi dars turlari mavjud:

1. Illyustrativ va tushuntirish darslari

Bunday darslarda o'quv jarayoni asosan ko'rgazmali metodlar asosida olib boriladi. Bu darslarda asosan o'quvchi-talabalarning eshitish va esda saqlab qolish qobiliyatlariga tayaniladi. O'quvchi-talabalarning eshitgan va esda saqlaganlari asosida bexato javob berishlari dars samaradorligini belgilaydi.

Bunday darslar **an'anaviy darslar** hisoblanadi. Bu kabi darslardan uzoq vaqtdan buyon foydalanib kelinmoqda. Uni o'zini oqlagan dars turlari deb qabul qilingan va bunday darslar yanga mazmun, yangi ko'rgazmali qurollar bilan modefikatsiya qilib kelinmoqda. Bilimlar yangicha talqinlar bilan boyitilmoqda. Ko'rgazmali va tushuntirish darslari boshqa tur darslariga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Bu turdagi darslar vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning kuchini saqlash hamda dars jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga bu darslarning o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Bu darslarda o'quv materiallari tayyor holda beriladi, o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi, fikrlashi tashkil etilmaydi. O'zlashtirish jarayonida shaxsga individual yondashilmaydi.

2. Muammoli darslar

Muammoli darslar *o'z xarakteriga ko'ra muammoli vaziyatni vujudga keltirib, uning yechimini yakka yoki guruhlar ishtirokida hal etishga qaratiladi. Bunday darslar bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilib, unda o'quvchi-talabalarning fikr yuritishi, qiziqishlariga suyaniladi. O'quv jarayoni texnologiyasi variativlik, ketma-ketlik, kompleks yondashuvlar bilan hal etiladi.*

Muammoni yechish jarayonida qiyinchiliklar ham kelib chiqadi. O'quv materiali, muammoning qo'yilishi o'quvchi-talabalarning tayyorgarligiga, yoshiga mos bo'lishi va ular yecha oladigan masalalar bo'lishi kerak. Darsning birinchi bosqichida muammoning mohiyati, yechimining zarurligini tushunib yetishlariga erishish muhim.

Darsning ikkinchi bosqichi muammoni ochish yo'lidir, uni mohiyatga yetish orqali hal etiladi.

Darsning so'nggi bosqichida yechim asosida o'quvchi-talabalar **«men buni o'zlashtirib, yechimini o'rganib oldim»** degan xulosaga kelishi kerak.

Muammoli dars o‘quvchi-talabalarning ijodiy mustaqil harakati orqali o‘z yechimini topadi. O‘quv jarayoniga qiziqish ortadi. O‘qituvchining asosiy e’tibori muammoni qo‘ya olish, yechimi ustida fikr yuritish, o‘quvchi-talabalarning xulosa chiqara bilishini shakllantirishdan iborat.

3. Dasturlangan dars

Dasturlangan dars asosan maxsus dars asosida kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Dasturlangan darslar oldindan tuzilgan loyihalar asosida amalga oshiriladi. U o‘quv jarayoni boshqaruvini qulaylashtiradi. Bunday turdagi darslarda pirovard natijalar oldindan rejalashtiriladi. Dasturlangan darsning qulayligi shundaki, unda o‘quvchi-talabalarning o‘qitish materiallarini o‘zlashtirib olayotganligini doimiy, ketma-ket kuzatib, nazorat etib borishga imkon yaraladi. Natijada uning qiziqish, intilishlari so‘nmaydi, o‘quvchi-talabalarda bilimga bo‘lgan intilish saqlanib qoladi.

Loyihalashtirilgan darslarning o‘ziga xos tomonlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O‘quv materiallari alohida bo‘laklarga(bloklarga) bo‘linadi.

2. O‘quv jarayoni ketma-ketliklarga bo‘linadi, o‘quv materiali ma’lum bo‘laklarda fikrlab o‘zlashtirishga moslashtiriladi.

3. O‘zlashtiruvchining har bir harakati nazoratda bo‘ladi.

4. O‘quvchi-talabalar vazifani bajarishi bilan o‘zlashtirish uchun navbatdagi vazifani oladi va qunt bilan o‘zlashtiradi.

5. O‘quvchi-talabalar noto‘g‘ri javob qilsa, unga darhol yordam ko‘rsatiladi.

6. Darsda har bir o‘quvchi-talaba mustaqil ishlaydi, materialini o‘z imkoniyati darajasida o‘zlashtiradi.

7. Barcha nazorat uchun berilgan vazifani bajaradi, natija har bir o‘quvchiga ham, talabaga ham, shuningdek, o‘qituvchiga ham ma’lum bo‘ladi.

8. O‘qituvchi o‘quv jarayonining tashkilotchisi, yordamchisi, maslahatchisiga aylanadi va o‘quvchi-talabalar bilan yakka ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Kompyuterli o'qitish

Kompyuterli darslar — *o'quv jarayoni yangi zamonaviy, yuqori darajadagi yutuqlarga suyangan holda didaktikaning so'nggi ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etiladigan darsdir. Bunday darslar o'quv materiallarini tez, soz o'zlashtirish imkonini beradi.*

Agar kompyuter maxsus dasturlar bilan ta'min etilsa, o'quv jarayoni samarali kechadi.

O'quv jarayonini olib borish, nazorat etish, natijalarini korreksiya qilish, boshqarish, kerakli ma'lumotlarni to'plab borish oson kechadi.

Kompyuter yordamida ta'lim mazmunini algoritmlash, ya'ni mazmunni o'rganish, ketma-ketliklarni ishlab, pirovard maqsadga erishish yo'llarini ko'rsatish imkoni tug'iladi.

Kompyuter yordamidagi darslarning sifat ko'rsatkichi ikkita asosiy omil (faktor) bilan aniqlanadi:

– o'quv dasturlarining sifati;

– kompyuter texnikasi sifati va uning imkoniyatlari.

Bunday darslarni sifatli qilib tashkil etish murakkab jarayon, ammo istiqbollidir.

5. Nostandart darslar

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda **nostandart darslar** va ulardan foydalanish haqida tez-tez fikr yuritilmoqda.

Nostandart darslarning bosh g'oyasi o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv jarayoniga, o'quv mehnatiga qiziqish, xohish, istaklarini ko'zlash orqali o'quv jarayonini tashkil etishdir.

Nostandart dars sahnalashtirilgan dars mashg'ulotlari bo'lib, uning tizimlari ham turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Nostandart darslarga qarashlar ham turlicha, ayrimlar uni o'quv jarayonini demokratlashtirish, erkinlashtirish desalar, ayrimlar pedagogik prinsiplarga rioya qilinmagan holat deb qaraydilar.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, *bunday zamonaviy dars turlari juda xilma-xil. Bunday zamonaviy darslarni maqsadlari, vazifalari, o'tish metodikalariga ko'ra quyidagicha nomlash mumkin:*

1. «G'arq bo'lish» darslari.
2. Ishchanlik darslari.
3. Matbuot-konferensiya darslari.

4. Musobaqa darslar.
5. KVN tipidagi darslar.
6. Teatrlashtirilgan darslar.
7. Maslahatxona darslari.
8. Kompyuterli darslar.
9. Kichik guruhli darslar.
10. O'zaro bir-birini o'qitish darslari.
11. Ijodkorlik darslari.
12. Auksion darslar.
13. O'quvchi-talabalar olib boradigan darslar.
14. Hisobot darslari.
15. Shubhali darslar.
16. Ijodiy hisobot darslari.
17. Formulali darslar.
18. Ko'rik - tanlov darslari.
19. Binorli darslar.
20. Yakunlashtiruvchi darslar.
21. O'yinga asoslangan darslar.
22. «Sud» darslari.
23. «Haqiqatni izlab» darslari.
24. Ma'ruzali darslar.
25. Konsert darslari.
26. Dialogli darslar.
27. «Rolli o'yinlar» darslari.
28. Konferensiya darslari.
29. Seminar darslar.
30. Integrallashgan darslar.
31. Predmetlararo darslar.
32. Ekskursiya darslari.
33. Innovatsion darslar va hokazolar.

Nostandart darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi-talabalar ehtiyojiga mos tushadi. Chunki bunday darslar qat'iy reglamentli darslardan ko'ra o'quvchi-talabalar ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar nostandart darslardan o'z o'rnida foydalansalar foydadan holi bo'lmaydi.

Bilimlarni egallash jarayonida bilishning negizi – **motivatsiya** hisoblanadi. **Motivatsiya — o'quvchi-talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishishdir.**

Motivatsiya o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ichki yaqinlashuvdir.

Motivatsiya — o‘quvchi-talabalarning ichki imkoniyatlarini ishga solish, u yoki bu bilimni egallashga undash va qiziqishlarini uyg‘otish demakdir.

Bunda asosan o‘quvchi-talabalarning faolligi oshib boradi va uni quyidagi omillar ta’minlaydi:

- o‘quv materialini o‘zlashtirib olishga tayyorligi;
- mustaqil faoliyat yuritishga tayyorligi;
- faoliyatni tushunib amalga oshirishi;
- o‘quv jarayonining tizimliligi.
- o‘zining shaxsiy darajasini oshirishga moyilligi.

O‘quv jarayonining samarali kechishida o‘quvchi-talabalarning mustaqil faoliyat ko‘rsata olishi ham katta rol o‘ynaydi. Mustaqil faoliyat yuritish dars samaradorligini ta’min etadi.

Darsda o‘quvchi-talabalar faolligini oshirish quyidagi motivlar asosida amalga oshiriladi:

- o‘z fikrini himoya qilishi;
- munozara, muhokamada faol ishtirok etishi;
- o‘qituvchiga va o‘quvchi-talabalarga savollar qo‘llay bilishi;
- o‘rtoqlari javoblariga tanqidiy qaray olishi;
- fanlarni o‘zlashtirmaydigan o‘quvchi-talabalarga yordam berishi;
- bo‘sh o‘quvchi-talabalarga tushunmaganlarini bilib olishga yordam berishi;
- o‘ziga topshiriqlarni tanlay olishi;
- o‘z qiziqishlari asosida mustaqil mashq, masalalar yechishi;
- o‘z faoliyatini nazorat eta olishi, keragida amaliy harakatlar qilishi;
- komplèks yondashuvlar asosida o‘zi qiziqqan mashqlarini bajarishi.

Xulosa qilib aytganda har bir darsda o‘quvchi-talabalarning faol ishtiroki darsning samarali kechishiga yordam beradi.

Shuningdek, o‘quvchi-talabalarni darsga qiziqtirishda tajribada qo‘llanilgan quyidagi motivlar ham e’tiborga molikdir:

- o‘qituvchining o‘z ishiga fidoiyligi;
- o‘quv materialida yangiliklarning mavjudligi;
- tarixiy voqealardan misollar keltirish;

- buyuk kashfiyotlar, allomalar hayotidan misollar keltirish;
- bilimlarni amaliyotga tatbiq etuvchi faktorlarni ko‘rsatish, namoyon eta bilish;
- noan’anaviy va yangi yo‘nalishli darslarni tashkil etish;
- dars shakllarini yangilab, ommalashtirib borish;
- muammoli ta’limni tashkil etish;
- evristik darslarni tashkil etish;
- kompyuterli darslar tashkil etish;
- darslarda multimedia tizimidan foydalanish;
- interfaol, kompyuterli vositalardan foydalanish;
- o‘zaro bir-birini o‘qituvni yo‘lga qo‘yish;
- olgan bilim va ko‘nikmalari yuzasidan test sinovlarini tashkil etish;
- o‘quvchi-talabalar bilimidagi yutuqlarni namoyish etish;
- yutuqqa erisha olish vaziyatini vujudga keltirish;
- musobaqalar tashkil etish;
- sinfda va auditoriyada ijobiy-ruhiy holatni yaratish;
- o‘quvchi-talabalarda ishonchni hosil eta olish;
- pedagogik takt va o‘qituvchining mahorati;
- o‘qituvchining o‘z o‘quv predmetiga munosabati;
- o‘quvchi-talabaga yaxshi munosabatda bo‘lish.

Yuqoridagi omillar o‘quvchi-talabalarning o‘quv mehnatiga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va o‘z navbatida dars samaradorligini oshirib, o‘zlashtirishini kafolatlaydi.

Demak, pedagogik jarayonning ma’lum tugallangan sinf – dars – o‘quv tizimi bu zamonaviy darsdir.

Zamonaviy dars nima? Bu savolga qisqa, lo‘nda javob qaytarish juda murakkabdir.

Pedagogika nazariyasida zamonaviy dars — *o‘quv materialini o‘zlashtirish, tarbiyalash, rivojlantirish jarayoni deb tushuniladi.*

Zamonaviy darsda o‘quv-tarbiyaviy jarayonning hamma komponentlari mujassamlashgan bo‘ladi. Uning maqsadi, mazmuni, vosita va metodlarining boshqaruvi didaktik elementlarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy darsning mohiyati va vazifalari shundan iboratki, o‘qituvchi - o‘quvchi-talabalar o‘zaro yakka va jamoa bo‘lib, bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro ta’sir etish orqali o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari shakllanadi, qobiliyati o‘sib boradi, o‘zaro faoliyatda tajribalari ortadi. O‘zaro muloqot ko‘nikmalarida o‘qituvchining pedagogik mahorati shakllanadi. Dars

bir tomondan o'quv jarayonini harakatga keltirsa, ikkinchi tomondan o'qituvchining faoliyat qonuniyatlarini ochib beradi.

Har qanday darsni shakllantirishda uning pirovard maqsadi — o'qituvchining zamonaviy dars orqali nimaga erishmoqchiligi belgilab olinadi. Shundan so'ng zamonaviy darsni olib borishdagi vositalar belgilanadi. So'ng navbat bilan maqsadga erishishda to'g'ri yo'l tanlanib, ish tutiladi.

Zamonaviy darsning maqsadi deganda nimani tushunish kerak? *O'qituvchi qanday maqsadlar qo'yadi?* Fanda maqsad shuki — u oldindan faoliyatda ko'zda tutilgan natija, olinadigan bilim, ko'nikma, malaka, ya'ni Davlat ta'lim standarti talablariga erishishdir.

Ta'lim jarayonida, zamonaviy darsning maqsadi — o'zining aniqligi, unga erishish yo'llari na ma'lum didaktik vazifalar asosida amalga oshiriladi.

Zamonaviy darsning didaktik vazifalari o'quv maqsadlarini ro'yobga chiqarish orqali amalga oshiriladi. Ya'ni o'quvchi-talabalarning aniq masala va mashqlarni tuzishi, uni tahlil etishi, matnni o'qishi, konspekt, tezislar tuzishi orqali o'quv jarayoni kechadi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida — zamonaviy dars tuzilishi va o'quv jarayonini olib borish shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday dars samaradorligi uning pirovard natijasi bilan belgilanadi.

Zamonaviy dars tuzilishiga qaysi elementlar kiradi, qaysilari kirmaydi. Pedagogika nazariyasida bu masala bo'yicha yagona fikr shakllanmagan. Ayrim dars elementlariga ko'p hollarda amaliyotda uchrovchi holatlarni, ya'ni yangi materialni o'rganish, o'tilganlarni mustahkamlash, baholash va nazorat olib borish, uy vazifalari, umumlashtirish va tizimga tushirishni kiritadilar. Ayrimlar esa zamonaviy darsning maqsadi — o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodi va usullari, o'quv jarayonini tashkil etish deb hisoblaydilar.

Zamonaviy darsga – o'rganiladigan material mazmuni, o'qitiladigan fan va uning metodlari, dars boshqaruvi, o'quv faoliyati nazorati, o'quv-texnika vositalari, mustaqil ishlash uchun didaktik materiallar, o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari, o'qituvchi shaxsi va boshqalar kiradi.

O'qituvchi shaxsi zamonaviy dars komponenti hisoblanadimi? O'qituvchi shaxsi darsning maqsadi, zamonaviy dars komponentiga kirmaydi Umuman, dars tuzilishi obyektiv holda doimo mavjuddir.

Shu bilan birga dars tuzilishi komfort, tarqoq, tasodifiy bo'lmaydi, u doimo tuzilishli bo'ladi, degan yagona fikrga kelingan.

Zamonaviy dars tuzilishi o'quv jarayoni qonuniyatlarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi prinsiplarning psixologik tomonlarini o'z ichiga oladi. O'quvchi-talabalarni bilim olish, mustaqil fikrlashga qiziqtirish asosida darsni tashkil etish, o'qitish motivini o'z ichiga oladi va uni amalga ottirish vositasidir. Darsning elementi esa darsda yangi tushunchalar, faollashtirish, harakat qoidalari, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qonuniyatlarini namoyon qiladi.

Zamonaviy dars tuzilishida uning komponentlari o'zaro ta'sir asosida olib boriladi. Zamonaviy darsni olib borishda o'qituvchi har bir komponent funksiyasini to'g'ri tushunib, uning avvalgilari bilan bog'liqligini hisobga olib, didaktik jihatdan to'g'ri yondashsa, yangi bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish shuncha oson kechadi.

Zamonaviy darsning metodik tuzilishini tashkil etish o'qituvchi tomonidan didaktik tuzilishning qanday tashkil etilishiga va turli variantlarda yondashuvga bog'liq.

Bir darsda o'qituvchi ta'lim mazmunini hikoyadan boshlab, savollar asosida ulardan javoblar olish bilan davom ettirishi mumkin. Ayrim hollarda masala, mashqni yechishdan boshlab, umumiy xulosalar chiqarish bilan davom ettgirishi mumkin. Shundan ko'rinib turibdiki, barcha darslar uchun yagona qolip yo'q.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, zamonaviy dars nima va u qanday tashkil etiladi degan savolga to'liqroq javob berishga harakat qilamiz.

Zamonaviy dars — *shunday darski, unda o'qituvchi o'quvchi-talabalarning mavjud imkoniyatlaridan uddaburonlik bilan foydalanib, ularning aqliy layoqatini ishga solib, o'sib borishini ta'min etadi. O'quvchi-talabalar o'z navbatida bilimlarni chuqur tushunib o'zlashtiradilar va u borgan sari ma'naviy yetuklik sari qadam qo'yadi. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak — zamonaviy dars o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish kabi bir butunlikni ta'minlaydi.*

Bunday hollarda nimalar ko'zda tutiladi:

– o'quvchi-talabalarni chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib, o'zlashtirib borish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash;

– bilimni olishda shaxsiy faoliyatlarni tashkil eta olish;

– o'quvchi-talabalarning mustaqil o'qishi, shaxsiy faoliyatini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalay olish motivlarini tashkillashtirish;

– o‘quvchi-talabalarning ongli rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatish;

– o‘quvchi-talabalarda o‘zini tutish, qat’iylik motivlarini shakllantirish;

– o‘quvchi-talabalarda shaxsiy axloqiy faoliyatni shakllantirish va uni umumqadriyat va madaniyat bilan uyg‘unlashtirish;

– madaniy tarbiyalanganligini kamol toptirish.

Umuman, darslar uch yagona xarakterdagi maqsadni o‘zida mujassamlashtiradi. Ular o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sir etuvchi bo‘lib, **o‘quvchi-talabalarni qiziqtira olish, rivojlantirish, tarbiya toptirish**dan iboratdir.

Yuqorida nomi keltirilgan uch yagona maqsad oldindan rejalashtiriladi va o‘quvchi-talabalar hamda o‘qituvchining dars so‘ngida maqsadga erishishlari ta’min etiladi.

Zamonaviy darsning uch yagona maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin:

– **qiziqtira olish;**

– **tarbiya toptirish;**

– **rivojlantirish.**

1. Qiziqtira olish

Darsda:

– har bir o‘quvchi-talabani mustaqil bilim olishga o‘rgatish;

– bilim olishning eng muhim talablarini egallash: to‘liqligini, puxta va chuqurligini tushungan holda bilimlarni o‘zlashtirish;

– aniq, xatosiz o‘zlashtirib olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– darsda aniqlash, natijani bilib olishni shakllantirish;

– darsning ta’limiy maqsadlarini belgilashda bilim, ko‘nikma, malakalarning qaysi darajada o‘zlashtirilishini rejalashtirish zarur.

2. Rivojlantirish

Darsning rivojlantiruvchi aspekti bir necha bloklardan tashkil topadi:

– nutqni o‘stirish;

– fikrni o‘stirish;

– sensorik o‘sish;

– harakatlantiruvchi (sferani) miqyosni rivojlantirish.

3. Darsning tarbiya toptirish aspekti:

– darsda o'qiladigan materiallar, o'qitish metodlari o'quvchi-talabalarning xohish — qiziqishlarini e'tiborga olgan holda ta'lim oluvchilarni axloqiy, estetik, ekologik jihatdan tarbiya toptirishga qaratiladi. Ularga Vatanga sadoqat, o'z xalqiga muhabbat, mehnatni ulug'lash kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar singdirib boriladi;

– dars jarayonida turli hodisalar, atrof-muhit, hayotda uchraydigan voqealarga munosobat bildirib boriladi;

– o'quvchi-talabalar orasida o'zaro do'stona va samimiy munosabat shakllantirib boriladi.

Darsdan kutilgan natijalar

O'qituvchining darsiga baho quyidagi sifat ko'rsatkichlarga asosan belgilanadi:

1. Dars jarayonini maqsadga yo'naltirganligi;
2. O'quvchi-talabalar bilan o'zaro munosabati;
3. O'quvchi-talabalarga shaxsiy yondashuvi;
4. O'quv jarayoniga tabaqali yondashuvi;
5. Ta'lim mazmuni, o'qitish metodlarini o'quvchi-talabalarning bilim va qiziqishlariga moslashtira olganligi;
6. O'quvchi-talabalarning malaka va ko'nikmalarini shakllantira olishi;
7. O'quvchi-talabalarning qiziqishlarini orttira olishi;
8. O'quvchi-talabalarning tushunishini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarni sarf etishi;
9. O'quvchi-talabalarning umumqobiliyatlarini rivojlantirishi;
10. O'quvchi-talabalarni obyektiv baholashi;
11. Shaxsni rivojlantirish samaradorligini ta'minlashi;
12. Tarbiyalanuvchanlik samarasini oshirishi.

Zamonaviy darsga qanday tayyorlanadi?

Zamonaviy dars o'quv jarayonining asosiy qismidir. O'qituvchi va o'quvchi-talabalarning pedagogik faoliyati aksariyat darsda hal etiladi. Shuning uchun ham o'qituvchining tayyorgarlik sifati darsning tayyorlanishi, uni o'tkazish darajasiga bog'liqdir. Uning samarasi darsning mazmuni, o'tkazish metodlari va darsni tashkil etish muhitiga

bog'liq. Zamonaviy dars o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra puxta o'ylanib, o'quvchi-talabalarning ehtiyoji, xohishi va qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quvchi-talabalarni jalb eta olishi zarur.

Zamonaviy darsni tayyorlash va o'tkazish uchun nima ishlar qilinishi kerak?

Zamonaviy dars shunday tashkil etilishi kerakki, u o'quvchi-talabalarga faqat bilim va ko'nikmalar berib qolmay, uni ijodkorlikka undasin.

Shunday qiziqarli zamonaviy darslarni tayyorlash uchun o'qituvchilarga quyidagi metodik tavsiyalarni keltiramiz:

1. Zamonaviy darsga tayyorgarlikni nimalan boshlash kerak?

— darsning mavzusini aniqlash va uni shakllantirish;

— o'quv kursida mavzuning o'rni va rolini belgilash;

— darsni olib borishdagi tayanch so'z, atamalarni aniqlab olish asosida darsning rivojini aniqlash.

2. Darsning ketma-ketligi nima uchun zarur? Shu asosda darsda rivojlantiruvchi, ta'limiy, tarbiyaviy funksiyalar izchillikda amalga oshiriladi.

3. O'quv materialini rejalashtirish.

Buning uchun:

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni to'plash: darslik, o'quv qo'llanma, Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, ensiklopedik nashrlar, monografiya va boshqa manbaa nashrlari. Shulardan eng qulay, sodda, aniq faktlarni olish orqali darsning mazmuni, matnini shakllantirish.

O'quv materillarini tanlab olish, uning maqsadi qilib:

— yangi material bilan tanishish;

— uni qaytarish;

— yangi materialni o'rganishda olingan bilimlardan foydalanish;

— olingan, o'rganilgan bilimlardan yangi vaziyatda foydalanish;

— mavzu materialini o'rganishga ijodiy yondashish;

— o'quv topshiriqlarini soddadan murakkabga prinsipi asosida tartibga keltirish;

— o'quvchi-talabalarning yodida qolishi zarur bo'lgan topshiriqlar tanlash;

— o'quvchi-talabalarga ongli ravishda o'zlashtirishi zarur topshiriqlar berish;

— olingan bilimlarni mustahkamlovchi topshiriqlar tayyorlash.

4. Darsning «eng dolzarb» tomonlarini o'ylash.

Ya'ni har bir dars o'quvchi-talabalarni hayratga solgan holda yodida qolsin. Bu o'rinda qiziqarli fakt, voqea, kutilmagan topilma, chiroyli tajriba, nostandart yondashuvlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

5. To'plangan o'quv materiallarini tartibga tushirish.

To'plangan o'quv materiallarining ketma-ketligi oldindan rejalab olinadi. Bunda o'quvchi-talabalarning qiziqishini orttirish, o'quv materialini o'zlashtirishda sustkashlik kuzatilmasligi nazarda tutiladi.

6. Darsda o'quvchi-talabalarning faoliyatini nazorat etishni rejalashtirish. Buning uchun:

— nimani nazoratga olish kerak;

— nazoratni qanday tashkil etish kerak;

— nazorat natijalaridan qanday foydalanish kerak.

Dars nazoratini olib borishda tartib, ketma-ketlik va tezkorlikka rioya qilish maqsadga muvofiq.

7. Darsni jihozlash.

Dars uchun zaruriy jihoz, o'quv-ko'rgazmali qurollar, asbob va didaktik materiallar o'quvchi-talabalarning ko'rishi, o'qishi va o'rganishiga qulay bo'lishi kerak.

8. Uyga vazifa o'ylab, qulay holda berilishi kerak. Uning vaqti, hajmi me'yorda bo'lmog'i lozim.

9. Tayyorlangan dars konspekt asosida shakllantiriladi. Konspekt nimalarni o'z ichiga olishi kerak?

Konspekt uch qismdan iborat bo'ladi:

— rasmiy;

— mazmuniy;

— analitik.

Rasmiylik qismida:

Dars №

Mavzu:

Maqsad:

Vazifalari:

— ta'limiy;

— rivojlantiruvchi;

— tarbiyalovchi;

Darsning ayrim ketma-ketlik bosqichlari. Darsning mazmuniy qismi — ikki qismdan iborat:

1. Topshiriqlar, matnlar, yangi o‘quv materiali, masalalar yechish, uy vazifasi bo‘yicha topshiriqlar.

2. Darsning qaysi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar nima ish bajaradi.

Zamonaviy darsning analitik tomonlari quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

7-shakl

Zamonaviy darsning o‘ziga xosliklari



8-shakl

Dars turlarining tasniflanishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Zamonaviy didaktikada dars tip(tur)lari masalasi hali ham aniq yechimini topmagan. Har bir tip (tur) dars o'zining biror xususiyati bilan ajralib turadi.

Zamonaviy dars o'zining didaktik maqsadlari, tashkil etilish maqsadlari, dars mazmuni, o'rganish metodlariga qarab tasnif qilinadi.

Zamonaviy darsga yondashuv besh tip(tur)ga bo'linadi:

- yangi materiallarni o'rganish;
- bilim, ko'nikma, malakalarni takomillashtirish va uni qo'llash;
- umumlashtirish va tizimga solish;
- kombinatsiyalashgan darslar;
- ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat etish va korreksiya qilish darslari.

Bunday darslar istiqbolli bo'lib, keng joriy etishni talab etadi.

1. Yangi materiallarni o'rganish darslari

Bunday darslarning bosh maqsadi material mazmunini o'rganish va o'zlashtirib olishdir.

Bunda o'quvchi-talabalar yangi tushunchalarni o'rganishga, mustaqil ravishda izlanishga, orientatsiya, ya'ni yo'naltirish ishlari, didaktik vazifalarni bajarishga odatlantiriladi.

Bunday tipdagi darslar o'rta va yuqori sinf hamda kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari bilan o'tkaziladi. Bu kabi darslarni ma'ruza, evristik suhbatlar, tajriba va sinovlar tariqasida o'tkazish mumkin.

2. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiruvchi darslar

Bunday darslarga quyidagi didaktik vazifalar asos qilib olinadi:

- yangi olingan bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash;
- olingan va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, chuqurlashtirish, kengaytirish;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- yangi o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazoratga olib borish.

Bu tipdagi darslar yana bir qancha tasniflarga bo'linadi:

- o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;

- takrorlash darslari;
- olingan bilim, ko'nikma va malakalarni kompleks qo'llash darslari;
- ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi darslar.

Yuqorida qayd etilgan darslarning yana quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- mustaqil ish darslari (og'zaki, yozma mashq va yozma ishlar);
- laboratoriya ish darslari;
- amaliy mashg'ulot darslari;
- ekskursiya darslari;
- seminar darslar.

3. Umumlashtirish va tizimlashtirish darslari

Bu tipdagi darslar quyidagi ikki didaktik vazifani hal etishga qaratilgan:

1. O'quvchi-talabalarning nazariy bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklari.
2. O'zlashtirilgan bilimlarning eng muhim joylari.

Bu ikki holat predmet bo'yicha egallagan, ko'nikma va malakalarni, bugun dastur talablari hamda ta'lim standarti asosida chorak, yarim yillik, yillik o'zlashtirish natijalarini ko'rsatadi.

Umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan darslarni barcha tipdagi darslarda qo'llash mumkin.

4. Kombinatsiyalashgan darslar

Bu darslar amaliyotda keng qo'llaniladi. Bunday darslarda yuqorida qayd etilgan uch tipdagi didaktik talablardan foydalaniladi. Shuning uchun ham bunday darslarni **kombinatsiyalashgan darslar** deb yuritiladi.

Bunday tipdagi darslarga metodik yondashuvlar ham yuqorida keltirganimizdek ko'rinishga ega:

- darsda o'quvchi-talabalar faoliyatini tashkil etish;
- takrorlash, o'quvchi-talabalar bilimining chuqurligi hamda mustahkamligi, ilgarigi darslarni qay darajada o'zlashtirganligi;
- o'quvchi-talabalarning bilimlar to'g'risidagi fikrlari va ongli o'zlashtirganligi;
- uyga vazifa va uni to'g'ri bajarish bo'yicha tushuncha berish;

▪ o'quvchi-talabalarning o'zlashtirganliklarini dars davomida baholab borilishi.

5. O'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qiluvchi va tuzatish kirituvchi darslar

Bunday darslarning didaktik vazifasi o'quvchi-talabalarning o'qitilgan o'quv materiallarini qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashdan iborat. Ayniqsa, olingan bilimlarning nazariy ahamiyati o'tilgan materiallar bo'yicha nazariy tushunchalarni, ko'nikma va malakalarni qanday egallaganliklari, o'zlashtirish sifati, diagnostik tahlil, u yoki bu o'quv materialini texnologiyalashtirishga tuzatishlar kiritish kabilar bilan belgilanadi.

Nazorat va tuzatish darslari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

▪ og'zaki so'rov (umumiy, guruhda, yakka tartibda);
▪ yozma ravishdagi so'rov (diktant, bayon, misollar va masalalar yechish);
▪ sinov;
▪ laboratoriya mashg'uloti;
▪ amaliy ishlar;
▪ mustaqil yozma ishlar;
▪ imtihonlar.

Yuqori darajadagi nazoratlarga kurs yoki fan bo'yicha yakuniy imtihonlar kiradi.

Yakuniy baholash va nazorat davrida o'quvchi-talabalarning olgan bilimlarini amaliyotda, turli vaziyatlarda qanday qo'llay olishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Nazorat darslari tashkil etilgandan so'ng o'quvchi-talabalar faoliyatida uchraydigan tipik xatolarni aniqlash uchun ham maxsus darslar tashkil etiladi.

Ularning olgan bilim, ko'nikma va malaka darajalarini aniqlash, qiziqish, xohishlarini o'rganish orqali kelgusida darsga ma'lum tuzatish, o'zgartirishlar kiritib boriladi.

1. Darslarda o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatlarini tashkil etish

Zamonaviy dars jarayonini tashkil etish, uning tuzilishidan unumli foydalanishda o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik adabiyotlarda, ta'lim amaliyotida o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini olib borish uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1 – umumiy;

2 – guruhli;

3 – yakka tartibda.

Umumiy yo'nalishdagi faoliyatda o'qituvchi rahbarligida sinfdagi yoki guruhdagi barcha o'quvchi-talabalarning xatti-harakati tushuniladi.

Guruhli o'quv faoliyatida o'quvchi-talabalar bilan birga ish olib boriladi, yakka tartibdagi faoliyatda o'quvchi-talabaning bir o'zi, alohida faoliyat olib boradi.

Umumiy shakldagi faoliyatni tashkil etuvchi darslarda o'quvchi-talabalar bir vaqtning o'zida bir xildagi topshiriqni sinf yoki guruh bo'yicha muhokama etadilar, solishtirib, umumlashtirib, xulosa chiqaradilar.

O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan bir vaqtda vazifani bajaradi, u so'zlash, tushuntirish, ko'rsatish jarayonida barcha o'quvchi-talabalar bilan birga masalani muhokama etadi. Bunday muloqot o'quvchi-talabalar ishonchini qozonishga, ular bilan muloqotga kirishishga, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining hosil bo'lishiga olib keladi.

Umumiy o'quv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos kamchiliklari mavjud. Darsda faoliyat o'qituvchi tomonidan barchaga qaratiladi, bir oz abstraktlik, ya'ni mavhumlik kelib chiqadi. Barchani bir xilda, bir maqsad yo'lida ishlashga undaydi. O'quvchi-talabalarning qiziqish va qobiliyatlari har xil bo'lganligi tufayli bilim va ko'nikmalarni qabul qilib olish, o'zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi.

O'qishi va o'zlashtirishlari sust bo'lgai o'quvchi-talabalar sekin ishlaydilar. O'quv materialini yomon o'zlashtiradilar. Ular o'qituvchining ko'proq e'tiboriga muhtojlar. Ayrim o'quvchi-talabalar qiyinroq materiallarni o'zlashtirishga moyil bo'ladilar. Ayrimlari esa ko'proq ijodiy yondashuv, izlanishga doir o'quv materiallariga moyil bo'ladilar. Shuning uchun umumiy tipdagi darslarda savol-javoblar, laboratoriya mashqlari iloji boricha o'quvchi-talabalar shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, darslarda bir xillik, bir qolipdagi yondashuvlardan qochish taqozo etiladi.

2. Darsda o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini guruhli tashkil etish

Guruhlarda o'quv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- bu shaklda o'quvchi-talabalar guruhlarga bo'linib, har bir guruhga aniq vazifalar yuklanadi;
- har bir guruh alohida (yoki bir xil, yohud tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi. Topshiriqlar o'zaro muloqot yoki biror yetakchi rahbarligida tashkil etiladi;
- guruhlarda topshiriq shunday bajariladiki, ish yakunida har bir ishtirokchi yoki guruh a'zosining qanchalik hissa qo'shganligi hisobga olinadi;
- guruhlar tarkibi doimiy bo'lmasligi mumkin, ular shunday tarkibda shakllantiriladiki, topishriqni bajarishda har bir guruh a'zosi o'zining maksimal hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lsin.
- guruhlar turli kattalikda bo'lishi mumkin. Odatda guruhlarda 3-6 nafar a'zo ishtirok etadi. Uning tarkibiga beriladigan topshiriqning mazmuni va xarakteriga qarab o'zgartirish kiritish mumkin. Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar bo'lsin.

Guruhli o'quv ishlarini tashkil etishda ayrim o'quvchi-talabalarning individual yordamga muhtojligi sezilishi mumkin. Shunda o'qituvchi yoki tayyorgarligi yaxshi o'quvchi-talabalar ularga yordam berishi maqsadga muvofiq.

Guruhli o'quv faoliyati amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, tabiiy fanlardan tashkil etilgan amaliyot, nutq o'stirish mashg'ulotlari (dialog), matnlarni o'zlashtirish, tarixiy materiallarni o'rganish va mehnat darslarida qo'l keladi. Bu holatlarda o'zaro muloqot o'rnatish, mustaqil ishlash yaxshi natija beradi.

Guruhli o'quv faoliyati yana o'quv — mavzuiy konferensiyalar, munozara, mushoira, ma'lum mavzudagi ma'ruzalar, qo'shimcha mashg'ulotlar, o'quv dasturidan tashqari mavzularni o'rganishda ham juda qo'l keladi.

Bunday o'quv faoliyatida guruh a'zolari faol qatnashadilar, bo'sh o'quvchi-talabalar ham o'zlarini faol ko'rsatishga harakat qiladilar. Chunki kuchli o'quvchi-talabalar ularga yopdam berib, qo'llab-quvvatlaydilar.

Guruhli o‘quv faoliyatini tashkil etishda, guruh a’zolari orasida vazifalar aniq taqsimlansa, o‘zaro hamkorlik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, samarali natijalarga erishish mumkin.

O‘quvchi-talabalarning o‘quv faoliyatini guruhli tashkil etish quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchi-talabalarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o‘quv topshiriqlarini qo‘yish, guruhda ishlash bo‘yicha tushuncha berish;
2. O‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha reja tuzish, muhokama etish. Uni hal etish yo‘llarini aniqlash va ishlashda o‘zaro vazifalarni taqsimlash;
3. O‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ishlash;
4. Guruhdagi ishni tashkil etishda ish jarayoni va guruh a’zolari ishini kuzatish va zarur hollarda yordam berish;
5. Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘zaro tekshiruv va nazorat olib borish;
6. Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo‘yicha axborot berish, sinf yoki guruh bo‘yicha munozara yuritish, natijalarga qo‘shimcha va tuzatishlar kiritish. O‘qituvchi tomonidan xulosa chiqarilib, yakun yasash;
7. Har bir guruhning ish natijalariga baho berish.

Guruh ishining muvaffaqiyatli chiqishi o‘qituvchining o‘quv faoliyatini tashkil eta olish mahoratiga bog‘liq. Ya’ni o‘qituvchi guruhdagi har bir o‘quvchi-talabaning shaxsiy faolligini tashkil eta olishi, har bir o‘quvchi-talaba o‘qituvchi ko‘magini olishi, ishning borishi bilan pirovard natijani ko‘rsata bilishiga bog‘liq.

Guruhli holatda o‘quv faoliyatini tashkil etishda bir qator kamchiliklar sodir bo‘ladi. Qiyinchiliklardan biri guruhlarni shakllantirish va unda ishni tashkil eta olishdir.

Guruhlarda ayrim qiyin topshiriqlar yechimini o‘quvchi-talabalar mustaqil topishga qiynaladilar.

Shuning uchun ham guruhlarda ishni tashkil qilishda umumiy ishlash bilan individual ishlash birga tashkil etilsa, yaxshi natijalar borish mumkin. Umuman, predmetlar bo‘yicha berilayotgan topshiriqlarning oson, qiyinligiga qarab guruhda ijodiy muhit yaratilsa, o‘qituvchi bilan guruh a’zolari hamda o‘quvchi-talabalar orasida o‘zaro hamkorlik, o‘zaro yordam o‘rnatilsa, guruh ishi kutilgan natijalarga olib keladi.

3. Darsda o'quv materialini individual shaklda tashkil etish

Zamonaviy dars jarayonining bunday shaklini tashkil etishda topshiriqlar har bir o'quvchi-talabaga alohida beriladi va u o'z o'quv imkoniyatlari darajasida uni mustaqil yechadi. Manbalar darslik bilan ishlash, ma'lumotnoma, lug'at, ensiklopediya, majmua shaklida bo'lishi mumkin. Undan tashqari individual masalalar, misollar yechish, bayonlar, insholar, referat, ma'ruza yozish, turli amaliy kuzatuvlar o'tkazish, dasturli o'quvlar tashkil etishda shaxsiy topshiriqlar asosida ish tashkil etiladi.

Ko'pincha pedagogik adabiyotlarda, amaliyotda o'quvchi-talabalar topshiriqlarini individual boshqarishning ikki shakli keltiriladi.

Birinchi holatda sinf yoki guruh bo'yicha berilgan topshiriqni har bir o'quvchi va har bir talaba boshqa o'quvchi-talabalar bilan muloqotga kirishmay, yakka tartibda bajaradi va birdek vaqt belgilanadi.

Ikkinchi holatdagi individuallashtirishda topshiriqlar o'quvchi-talabaning tayyorgarlik darajasiga qiziqishlari, imkoniyatlariga qarab beriladi va ularning shaxsiy rivojlanishlari tayinlanadi.

O'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatlarini individual tashkil etishning eng samarali shakli – o'quvchi-talabalarga tabaqalashgan shaxsiy o'quv topshiriqlari berish, ular tayyor kartochka, yozma matnlarda berilsa, yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual ishlash jarayonida, ayniqsa, bo'sh o'quvchi-talabalarning ishlashini kuzatib borish, zarur hollarda ularga yordam ko'rsatish yaxshi natijalar beradi.

Dars tizimi o'z ichiga:

— maqsad, o'quv materialining mazmuni, o'quv vositalari, metodlari, shakli, nazorat, pirovard natijani;

— Dars monitoringi ta'lim sifatini aniqlash, ko'zda tutilgan tushuncha, malaka, ko'nikmalarni o'quv materiali asosida qiyoslashni;

— O'quv materialiga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritishni oladi.

Har qanday zamonaviy dars u qanday usul va ta'lim texnologiyasiga asoslangan bo'lmasin, u avvalo, o'quvchi-talabalar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i kerak.

Ular:

— shaxsning kasbiy faolligiga;

— yuqori darajadagi kompitentlikka;

— aniq maqsadga;

— kasbiy mahoratini oshirishga;

— yuqori texnologik tayyorgarlikka;
— mustaqil fikrlay olishga;
— mas'uliyatni his etgan holda qarorlar qabul qila olishga;
— ijodiy yondashuvga;
— doimiy o'qish va izlanishga undashga;
— muloqotga kirishuvchanlikka;
— o'zaro hamkorlikka;
— ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatni his eta olishga qaratilmog'i darkor.

Shu munosabat bilan o'quv jarayoni — darsda o'quvchi-talabalar har doim markazda turmog'i darkor.

Dars jarayoni:

— ehtiyojni;
— qiziqish — xohishni, maqsadni;
— o'quvchi-talabalar faolligini;
— qobiliyatini nazarda tutgan holda darsning pirovard maqsadi — o'quvchi-talabalarga bilim, ko'nikma, malaka berishdan iboratdir.

O'qituvchidan darsda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

— so'z, nutq, bayon orqali dars o'tish;
— ko'rgazmalilik;
— amaliyot bilan bog'lash.

U quyidagi metodlardan foydalanishi kerak:

— tushuntirish — illyustratsiya;
— programmalashtirish (dasturlash);
— evristik;
— muammoli;
— interfaol.

Modelli o'qitishda o'qituvchi qanday modelda o'qitishidan qat'i nazar ikki holatga e'tibor berishi shart.

1. O'quvchi-talabalarda o'z kuchi va imkoniyatiga ishonish hissini uyg'ota olish.

2. O'quvchi-talabalarga o'z vaqtida zaruriy yordamni bera olish.

Modelli o'qitish ta'lim texnologiyasining asosiy elementi bo'lib, u o'z xarakteriga ko'ra ta'lim jarayoniga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Eng muhimi shundaki: zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etishda o'qituvchi birinchi o'rinda turmaydi, balki u o'quv jarayonini tashkil etuvchi tashkilotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Ya'ni guruh ishtirokchilarini ma'lum modellarni o'rganish, muammolarni yechishga undaydi. Manbalardan qo'shimcha axborotlarni olish, tahlil etish, tizimga solish, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. O'quv guruhlari bilan hamkorlikda kelgusi modellarni shakllantirish, tashkil etish, yechimiga e'tibor qaratadi.

Modulni shakllantirishda u quyidagi komponentlarni inobatga olmog'i zarur:

— o'quv maqsadini aniq shakllantirish (maqsadli dasturlash);

— axborot bankini yaratish, o'quv dasturi asosida o'quv materiali matni (tekst)larini mujassamlash;

— mo'ljallangan materiallarni o'rganish: metodik qo'llanma, maqsadga etishtiruvchi yo'l-yo'riqlarni shakllantirish;

— zaruriy ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

— ishlash uchun zarur asbob-uskuna, material vositalar bilan guruhni ta'minlash;

— maqsadga erishganlikni ta'min etuvchi diagnostik topshiriq, savol, testlar yaratish.

Ta'lim oluvchilar bilimini baholash

Tarixiy manbalardan ma'lumki, qadimda o'qitish jarayonida bilim berish, tarbiyalash esa oila va jamoa muhitida amalga oshirilgan.

Buyuk allomalarimiz Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy davrlarida diniy va dunyoviy bilimlar maktab va madrasalarda yakka tartibda egallangan.

O'sha davr ta'limida o'ziga yarasha bilim mezonlari ham tanlangan. *Jumladan, o'quvchi-talaba barcha vazifalarni bajarsa, ustoz uni* ***«tasanno»*** *deb baholagan. Agar vazifani bajarib, o'quvchi-talabalar orasida ochiq, ravon javob bersa, ustoz uni* ***«barakallo»*** *deb rag'batlantirgan, agar shogird vazifani a'lo darajada o'zlashtirib, ustoz oldida baralla, yuqori saviyada, ifodali qilib, erkin bayon qilsa, ustoz uni* ***«ofarin»*** *deb rag'batlantirgan. Buning zamirida nozik ruhiy tarbiya yotadiki, rag'batlantirishning har biri o'quvchi-talabaning qay darajada o'zlashtirganligini bildirgan. Bunday rag'batlantirish o'quvchi-talabaning o'qishga, ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borgan.*

1918-yildan boshlab baholash mezonlari o'zgarib ular o'rnini so'rov, imtihon egallab, **«o'zlashtirgan»**, **«o'zlashtirmagan»** kabi o'lchovlar qo'llanila boshlandi.

1938-yildan boshlab besh balli tizim kiritilib, **«juda yomon», «yomon», «o'rta», «yaxshi», «a'lo»** deb baholash odat tusiga kirdi.

1944-yildan boshlab besh balli baholash raqamlarda, ya'ni **«1»**, **«2»**, **«3»**, **«4»**, **«5»** qo'yish orqali ifodalana boshlandi.

Bizga ma'lumki, ijobiy baho o'quvchi-talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini, qiziqishini kuchaytiradi. Bu tizimning salbiy tomoni shundaki, o'quvchi-talabalar yaxshi baho olganda rag'batlantirilib, yomon baho olganda ularga tanbeh berilishi o'qishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.

Shuning ychyn ham o'quvchi-talabalarning o'zini baholashi, o'ziga-o'zi baho qo'yishi eng adolatli, to'g'ri va istiqbolli yo'ldir.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim masala hisoblanadi. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni o'quvchi-talabalar bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yiladigan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurot qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishidagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish uchun kerak. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim va muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, tartibli va doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beriladi.

Pedagogika nazariyasida o'quvchi-talabalar bilimlarini o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligi bayon etilgan.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganini nazorat qilish va vazifalarni belgilash.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi va talablarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida yozma, og'zaki va amaliy usullardan foydalaniladi.

Bu jarayonda og'zaki so'rash orqali o'zlashtirishni nazorat qilish, ayniqsa, maktablarda, keng tarqalgan. Bu asosan savol-javoblar orqali

olib boriladi. Bunda yakka so'rash, frontal so'rash kabi turlardan foydalaniladi.

Bu turdagi nazorat usuli juda ko'p vaqt talab qilganligi tufayli va nazorat jarayonini faollashtirish, kam vaqt ichida ko'p sonli talabalarni nazorat qilish maqsadida bir qancha ratsional uslublar, jumladan, texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet el tajribalari va o'zimizdagi ko'plab tajribalarning natijasida **reyting uslubi** bugungi kunning nazorat mezoni deb qabul qilingan.

Reyting *deganda – baholash, tartibga keltirish, tasniflash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi.* Reyting yordamida ijtimoiy-psixologik obyektlarni, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab dastlabki tasniflash amalga oshiriladi.

Shkalalash – *aniq jarayonlarni raqamlar sistemasi yordamida modellashtirish.* Ularning turli uslublari – sifat, tavsiflari qay bir miqdoriy o'zgaruvchilar turlicha aylantirish uslublaridan iborat. Reyting nazoratida test ham samarali qo'llaniladi.

Test *deganda – aniq vazifani takomillashganligi darajasini aniqlashda sifat va miqdoriy o'lchamlardan belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini qiziqtiruvchi, biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.*

Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin:

– nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;

– nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

– ko'p sonli talabalar bilar bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;

– bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;

– barcha talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, bir xil sharoitlar yaratiladi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning kasb-hunar va oliy ta'lim bosqichlarida talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli talabalarning butun o'qishi davomida o'z bilimini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishini rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Bilimlarni baholashda reyting nazorat tizimiga o'tish orqali qator vazifalar hal etiladi. Jumladan: talabalar bilimining sifat ko'rsatkichlarini haqqoniy, aniq va adolatli ballar bilan baholanadi. Buning uchun talabalar:

– mustaqil ishlashini oshirish;

– reyting nazoratida EHM testlaridan foydalanish;

– ko'plab kamchiliklarga ega bo'lgan mavjud sinov va sessiyalardan voz kechishi shart bo'ladi.

Reyting nazorat tizimining asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fanning talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

Har bir semestrdagi fanlardan to'plangan ballar yig'indisi talabaning kurs reytingini tashkil etadi.

Har bir fan bo'yicha talabaning o'zlashtirishini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi: *joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat.*

Joriy nazorat – *bu o'rganilayotgan mavzularni talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabaning bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlanib borishni ko'zda tutadi. Bu esa talabaning uzluksiz bilim olishini va natijasini muttasil nazorat qilib borishini nazarda tutadi.*

Oraliq nazorat – *bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning bilimini aniqlash demakdir. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.*

Yakuniy nazorat – *bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitilib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha olinadi. Semestrdagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballari bo'yicha aniqlanadi.*

Har bir fan bo'yicha maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng deb hisoblanadi.

Maksimal ballning 70% miqdori joriy va oraliq nazorat jarayonida 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya etiladi.

Semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plangan ballarning nisbatan talaba bilimi quyidagicha baholanadi:

86 – 100% «a'lo»

71 – 85% «yaxshi»

36 – 70% «qoniqarli»

55 va undan kami «qoniqarsiz».

Shunday qilib, baholash shunday bo'lmog'i kerakki, u talabani o'qishga bo'lgan qiziqishini, xohish-istaklarini rivojlantirishga o'qishga bo'lgan motivini oshirishga xizmat qilsin.

O‘quvchi-talabalarning pirovard o‘ziga ishonishi — o‘quvchi-talaba shaxsining rivojlanishini kafolatlaydi, o‘z-o‘zini anglash – ta’lim-tarbiyada pirovard maqsadga erishish yo‘lidir. Zero, darsning bosh maqsadi – har bir o‘quvchi-talabada mavjud bo‘lgan ijodkorlikka turtki berishdan iboratdir. Ya’ni har bir o‘quvchi-talabada bilim olishga chanqoqlikni tarbiyalash bosh masaladir.

Dars jarayonida o‘quvchi-talabalarning ijodkor, tashabbuskor bo‘lishini tashkil etish

O‘quvchi-talabalarning ijodkor, tashabbuskor bo‘lishlarida quyidagi omillarga suyanish yaxshi natijalar beradi:

1. Darsda samara beruvchi innovatsiya va texnologiyalarni qo‘llash.
2. O‘quvchi-talabalar ko‘z o‘ngida bilimdon, ijodkor bo‘lib ko‘rina olish.
3. Boshqa o‘qituvchilar, rahbarlar orasida obro‘ga ega bo‘lish.
4. O‘qituvchilar va o‘quvchi-talabalar bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lish.
5. Rahbariyat bilan samimiy munosabatda bo‘la olish.
6. Ijodiy muhitni tashkil eta olish.
7. Har bir ijobiy natijani rag‘batlantirish.
8. Ish faoliyatida ilg‘or tajriba va yangiliklardan ijodiy foydalanish.
9. O‘z malakasini uzluksiz oshirib borish.
10. Zarur hollarda ma’naviy, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.
11. Metodik ishlarni tashkil etishda faollik va fidoyilik ko‘rsatish.
12. Shaxsiy ijodkorlik ishlari, ijobiy fikrlarni amalga oshirib borish.
13. Ochiq darslarni tizimli o‘tkazishga erishish.
14. Ijodkorlikdagi yutuqlarni ijodiy kechalar tashkil etish orqali targ‘ib qilish.

O‘quvchi-talabalarda o‘quv predmetini mustaqil o‘zlashtirishni shakllantirish

•bunda har bir o‘quvchi-talaba o‘qitishdan mustaqil o‘qishga o‘rgatiladi;

• o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini anglash orqali tarbiyalanish, o‘qib o‘rganish ustuvorlik qiladi;

• o‘quvchi-talabalarda ichki motivatsiya rivoj topadi. O‘qish-o‘rganishga qiziqish hissi o‘sib boradi;

• o‘quvchi-talabalarning mustaqil ijod qilishiga suyaniladi;

• bilim olish ongli ravishda ichki intilish va xohish asosida amalga oshiriladi;

• dars jarayoni markazida o‘quvchi-talaba, uning fikrlari, qiziqishlari, o‘z-o‘zini boshqarish turadi;

• o‘quv jarayonida bilim, malaka, tushuncha, ko‘nikmalarni egallash talab etiladi;

• yuqoridagilar o‘quvchi-talabalarda mustaqil o‘qish, o‘rganish, o‘z-o‘zini tarbiyalashni shakllantirishni kafolatlaydi.

Shundan xulosa chiqarish mumkinki, o‘quvchi-talaba shaxsini rivojlantirishni o‘ziga zamin yaratishdan boshlash kerak. Ya’ni o‘quvchi-talabada:

— o‘zi mustaqil mutolaa asosida bilim olishga;

— o‘z-o‘zini anglab, tarbiya topishga;

— o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch bilan qarashga;

— mas’uliyatni his qilishga;

— o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishga;

— o‘quv mehnatiga xohish uyg‘ota olishga;

— faolligini oshirishga;

— axborot manbalaridan unumli foydalana olishga erishish asosiy va bosh maqsadga aylanmog‘i kerak.

O‘quvchi-talaba shaxsida o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika nazariyasi fani oldida turgan dolzarb muammolardandir.

Zamonaviy dars samaradorligini ta’minlovchi omillar

Zamonaviy dars jarayonini tashkil etishda quyidagi omillarga e’tiborni qaratish zarur:

1. Darsning o‘quv texnikasi va maqsadini aniqlash.
2. Darsdan kutilayotgan pirovard natijani belgilash.
3. Darsda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma, malaka.
4. Ko‘zlanayotgan mazmun, mantiqiy ketma-ketlik bayoni.
5. Maqsadga olib boruvchi bayonni matn, darslik va tarqatma materiallar asosida kichik guruhlarda ishlash orqali yoki o‘qituvchi tomonidan tushuntirish.
6. O‘quvchi-talabalarning ta’lim mazmuni, maqsadlarini o‘zlashtirganlik darajasi. Testlar, savollar tuzishga o‘rgatish.

7. Yangi mazmundagi mavzu, tushuncha, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirganlik darajasi.

8. Dars o'tish uslubi va vositalarning tanlab olinganligi.

9. Darsda o'quv jarayonini amalga oshirish uchun jihoz, texnika, tarqatma materiallar.

10. O'quvchi-talabalar bilimi baholangandan so'ng uning natijalari bo'yicha tuzatishlar kiritish.

Agar maqsad avvaldan loyihalanmas ekan, bilimning egallanganligiga kafolat berib bo'lmaydi. Kuzatilgan darslarning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchilarning aksariyati darsning maqsadini uning vazifalari bilan qorishtirib yuboradilar.

Darsning maqsadi — bu butun dars davomida egallanishi kerak bo'lgan bilim, tushuncha, ko'nikma, malakalardir.

Darsning vazifasi — bu darsning bosqichlaridagi maqsadni amalga oshirish uchun qo'llanadigan vositalardir.

Maqsadni amalga oshirish uchun dars samaradorligini ta'min etuvchi ilmiy-metodik, texnologik yo'l tanlab olinadi.

Bu ishni amalga oshirish o'qituvchidan tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ yondashuv, innovatsion kasbiy mahorat, metodologik madaniyatni talab etadi.

Har bir darsning maqsadini aniqlashga tizimli yondashuv — oldingi va keyingi o'tiladigan dasturiy bilimlar, ko'nikma va malakalarning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

O'quvchi-talabalarning dars jarayonida ta'lim dasturini to'laqonli o'zlashtirishi uzviylik va uzluksizlik asosida kafolatlanadi.

Natijada dars komponentlari o'z o'rnini topadi. Ya'ni:

- maqsad;
- o'quv materiali mazmuni;
- metod va vazifalari;
- darsning tashkiliy shakllari;
- o'qituvchining faoliyati;
- o'quvchi-talabalarning faoliyati to'laqonli shakl, mazmunga ega bo'ladi.

Darslarda belgilanayotgan maqsadlar o'quv maqsadlariga mos tushishi va o'quvchi-talabalarning shaxsiy maqsadiga aylanishi kerak. Zero, darsda o'quvchi-talabalar o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan komponentlar shaxsan unga qaratilgan, maqsadlar esa bir-biriga mos tushishi kerak. Ana shu mos tushganlik dars samaradorligini ta'minlaydi.

O‘quvchi-talabalarning chuqur, puxta bilim olishini, tarbiya topishini kafolatlaydi.

Guruhlarda loyiha asosida o‘qitish

Guruhlarda loyiha asosida darsni tashkil etish uchun quyidagi qator sharoitlar yaratilishi kerakligi aniqlangan:

1. O‘qituvchining loyiha asosidagi darsni tashkil eta olishi, kasbiy mahorati; o‘quvchi-talabalarning yangicha darsning mohiyati, imkoniyatini tushunib yetishlari.
2. Loyiha asosida o‘tiladigan dars texnologiyasini, ya’ni maqsadini, vazifalarini belgilab olish, izlanishlar yo‘lini tushunish, gipotezasini belgilash.
3. Loyihani shakllantirish, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni yecha olishda o‘quvchi-talabalarning istak-xohishlari, bilim, ko‘nikma va malakalariga nechog‘lik tayanilganligi.
4. Tayyorlangan loyihalarni bosqichma-bosqich oxiriga yetkazish.
5. Malakani ma’qullash, amalga oshirish bo‘yicha axborotlar taqdimoti.

Dars va motivatsiya

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, motivatsiya dars jarayonida va ijodiy pedagogik jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘quvchi-talabalar va o‘qituvchining o‘zaro hamkorlik hamda ijodkorlik asosida o‘quv jarayonidan qoniqish hosil qilishidir. O‘qituvchining o‘quvchi-talabalar faoliyatini tashkil etishda o‘ziga-o‘zi bergan bahosidir.

Ayniqsa, o‘qituvchining emotsional nutqi qiziqarli o‘yin, munozara, mushoira, debatlar orqali o‘quv jarayonini tashkil etishda yorqin nomoyon bo‘ladi.

Zamonaviy dars nima?

Binobarin, zamonaviy dars bu — dars jarayoni markazida o‘quvchi-talaba shaxsi bo‘lib, dars uning xohishi, istagi, talablariga mos bo‘lishidir. Shu bilan birga ular o‘z faolligi asosida shaxsiy rivojlanishga yo‘naltiriladi. O‘quvchi-talabalar darsda faol ishtirokchi, ijrochiga aylanadi. Ular darsni o‘zlashtirishda o‘z ulushi orqali o‘zlashtirish jarayoniga hissa qo‘shadilar.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida:

— umumiy;

— jamoa;
— guruhlarda;
— individual juftlik;
— individual shakllarda zamonaviy darslar tashkil etilmoqda.

Dars jarayonida quyidagi metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanilmoqda:

1. Algoritmlash (tayanch konspektlar, algoritmlar, qisqa axborotli bloklar).
2. Ijodiy topshiriqlar.
3. Modellashtirish (tahlil etish, mukammal savollar, qiyosiy taqqoslash).
4. Aqliy hujum.
5. Kreativ metod.
6. Nutq o'stirish.
7. Evristik suhbatlar.
8. Passiv, aktiv, interaktiv, ya'ni interfaol dars tizimlari.

Darsni isloh qilish nimadan boshlanadi?

Darsni isloh qilishda quyidagi omillar asosiy o'rinni egallaydi:

1. Darsga munosabatni o'zgartirish, unga yangicha yondashuvni yo'lga qo'yish;

2. Darsda yangicha ishlash sirlarini (pedtexnologiya, innovatsiya, interfaollik) o'zlashtirish;

3. Dars muhitini o'zgartirish:

—o'quv xonalarini nomenklatura asosida jihozlash;
—o'quvchi-talabalar ehtiyojlariga mos qulayliklar yaratish;
—ishchanlik muhitini yaratish;
—hamkorlik, hamijodkorlik, hamdardlik muhitini yaratish.
— darsni yangicha tashkil etish vositalarini topish va qo'llash.
—ta'lim muassasalarida shaxsiy, guruh, fakultet kutubxonalarini tashkil etish;
—texnik vositalarni qo'llash;
— didaktik, tarqatma materiallardan foydalanish;
— individual materiallar tayyorlash va tarqatish.

4. O'quvchi-talabalarni yangicha muhitda fikrlash, ishlashga o'rgatish.

5. Darsda o'quv, bilim olish, mustaqil o'rganish mexanizmini joriy etish:

—yakka ishlash;

—juft bo'lib ishlash;

—kichik guruhlarda ishlash;

—katta guruhlarda munozara, savol-javob, debatlar uyushtirish;

6. Ta'limning maqsadi, mazmunini dars jarayonidayoq o'zlashtirib olinishini kafolatlash.

7. Darsdan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malaka va tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olish.

8. Dars jarayonida o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning monitoringini o'tkazish orqali sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash.

Agar o'qituvchi yuqoridagi talablarni to'liq o'zlashtirib, uni dars jarayoniga tatbiq etsa, o'quvchi-talabalarning Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilimlarni to'la o'zlashtirishi kafolatlanadi. Darsda sifat ko'rsatkichiga erishiladi.

Dars jarayonida o'quvchi-talabalar ijodkorligini shakllantirish

- o'quvchi-talabalarni o'tilayotgan, o'rganilayotgan mavzuga qiziqtira olish;
- mavzuni o'zlashtirishda rolli o'yinga asoslanib, o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalariga suyanish;
- o'quvchi-talabalarning tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, qo'llash, quvvatlash;
- o'quvchi-talabalarning qiziqishi va xohishlarini faollashtirish;
- o'quvchi-talabalarning intellektual (diqqat, sezgi, xotira, fikrlash) qobiliyatlarini ishga solish;
- muloqotga kirishganda aytilayotgan fikr, mulohazalarni jamlashga yordamlashish;
- o'quvchi-talabalarning muvaffaqiyatga erishishiga qulay vaziyat yaratib berish;
- ayniqsa, mahalliy, tarixiy faktlarga suyanib misollar keltirishini qo'llab-quvvatlash.

Loyiha asosida o'qitish

Loyiha – ko'pincha iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy ishlarda belgilash holatlarida qo'llanilgan. Bu termin pedagogikaga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bunday yo'nalishli o'qitish istiqbolli o'qitish metodi deb qaraladi. *Loyiha asosida o'qitish o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi, fikrlashiga asoslangan, bu o'quv mahsulini olishda*

samarali metod bo'lib, o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi.

Loyiha asosida o'qitish hozirgi kunda eng dolzarb, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinmoqda. Darsda loyihalar ustida ishlash aniq ijtimoiy masalalarni yechishga qaratiladi. Jumladan: ilmiy izlanishlarni, axborotnomalarni, amaliy masalalarni yechish va hal etishda qulaylik tug'diradi.

Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi-talabalar ilmiy izlanadilar, yechimini qidiradilar, bu uning asosiy talablaridandir. Loyihali darslarning boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchi-talabalar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib, o'zlari himoya qiladilar.

Dars loyihalari individual va guruhlarga mo'ljallab tuziladi. Yakka shaxsga qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki: umum o'quv-biluv, ko'nikmalarni egallashda o'quvchi-talabalarning shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning pirovard natijasi o'quvchi-talaba shaxsining o'zigagina bog'liq bo'ladi.

Guruhlarda loyiha asosida darsni tashkil etishda o'quvchi-talabalar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik holatlari vujudga keladi va dars samaradorligi kafolatlanadi. Har bir o'quvchi-talaba o'zining bor qobiliyatini ishga soladi, loyiha yechimiga faol kirishadi.

Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab:

– kichik loyiha (bir soatli);
– qisqa muddatli loyihilar (4-6 soatga mo'ljallangan);
– haftaga mo'ljallangan loyihalar;
– uzoq muddatga mo'ljallangan o'quv loyihalari (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari qo'shimcha mustaqil ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jihatdan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o'quvchi-talabalarni jarayonga qiziqtira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. Darsni loyiha asosida tashkil etishda o'qituvchi faqat faol o'qituvchigina emas, balki keng ixtisosli yuksak malakali va mahoratli pedagog rolini o'tashi talab etaladi.

O'qituvchi loyiha rahbari sifatida yuqori madaniyatli ijodkor bo'lmog'i kerak.

Loyiha shunday tuzilishi kerakki u o'quvchi-talabalarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilsin.

Avvalo o'qituvchi darsda fidoyilik ko'rsatishi, o'quvchi-talabalarni ruhlantirishi, qiziqtirish orqali maqsadga erishishi muhim. Loyiha asosida dars tashkil etilganda unga sarflanadigan vaqt, tashkiliy ishlar, boriladigai va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak. Undan tashqari dars jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak. Loyiha asosida darsni tashkil etish murakkab jarayon, bunda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish muammosi yotadi. Ya'ni qaysi vazifalarni o'qituvchi bajarishi kerak, qaysilarini o'quvchi-talabalarning o'zlari hal etishlari kerak va qaysilari o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishini oldindan ko'ra bilishi kerak.

O'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi ko'pgina omillarga: yoshga, shaxsiy xususiyati, xarakteriga, ilgari loyiha asosida ishlagan-ishlamaganligiga, loyiha mavzusining murakkabligiga, guruhlarda ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Loyiha asosida dars jarayonini olib borishda tuzilgan loyiha o'quvchi-talabalarning yoshiga, qobiliyati, o'zlashtira olishiga mos bo'lishi kerak.

Loyihali o'qitishning faoliyat mazmuni

Loyihali o'qitish faoliyat mazmuni o'quvchi-talabalarning faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

Bunda:

1. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan loyihalari, kichik loyihalarning o'quvchi-talabalar tomonidan bajarilishi ko'zda tutiladi.

2. O'quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin.

3. Loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi.

4. Loyiha asosida faoliyatni tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va loyihaning koordinatori hisoblanadi.

5. Loyihalar yakka shaxsga va guruhlarga qaratilgan bo'lishi mumkin.

6. Loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli aniqlangan, o'quvchi-talabalar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari kelishilgan bo'ladi.

7. Ayrim hollarda o'quvchi-talabalarning xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

8. O'quv yili davomida o'rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferensiyalarda himoya qilish, tanlovlar o'tkazish mumkin.

Dars jarayonini loyiha asosida tashkil etish

1. O'quv predmeti mavzusi, mazmunini tanlash.
2. Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish.
3. Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish, beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash.
4. O'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni ifoda etish.
5. Darsning shakli, metodi, vositalarini tanlash.
6. Tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi.
7. Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini ishlab chiqish.
8. Nazorat etish, test va savollar ishlab chiqish.
9. Loyihani dars jarayoniga tatbiq etish.
10. Dars jarayonini olib borish va yakunlash.

Dars jarayonida o'quvchi-talabalar:

— ehtiyoji;
— qiziqishi;
— xohishi;
— maqsadi;
— qobiliyati;
— faolligi;
— intellekti hisobga olinishi talab etiladi. Darsda ularning individual xususiyatlari hisobga olinishi shart.

Darsni loyihalashga tizimli yondashuv

Har bir o'qituvchi oldida navbatdagi darsni loyihalashda doim bir savol ko'ndalang turadi.

Dars maqsadini belgilash va uni amalga oshirish. Bu masalada quyidagicha ish tutish zarur:

— o'quv materialini tanlash;

— uni didaktik talablar asosida tashkil etish;
— qanday metoddan foydalanishni aniqlash va jihozlash;
— o'z faoliyatini tashkil etish;
— o'quvchi-talabalar faoliyatini tashkil etish.

Loyihalarni amalga oshirishda guruh rahbarining vazifalari

1. Biror muammoli vaziyatni, mavzuni tanlash va shakllantirish, g'oyani oldinga surish, loyiha ssenariysini tuzish, vazifalarni belgilash, tizimga tushirish va yechimini hal etish.

2. Loyihani shakllantirish bo'yicha ixchamlashgan annotatsiya tuzish, so'nggi erishiladigan mahsulni va uning zaruriyatini aniqlash.

3. To'plangan mavzuni detallashtirish, loyiha materiali strukturasini belgilash, loyiha hajmini aniqlash, loyiha yechimida har bir o'quvchi-talabaning izlanish olib borishdagi roli, o'rnini belgilash.

4. Loyiha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ish jarayonini olib borish va muddatlarni doimiy nazoratga olish.

5. Loyihani shakllantirishda, uning mazmunini bayon qilishda, kamchiliklarni aniqlash va hujjatlashtirishda doimiy maslahatlar berib borish.

Demak, o'quv faoliyati yaxshi loyiha asosida tashkil etilsa, har bir o'quvchi-talaba uning yechimida faol ishtirok etsa, o'quv jarayoni samarali kechadi. O'quv materialini ongli ravishda to'la o'zlashtirish kafolatlanadi.[1]

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikr bildirilgan zamonaviy dars turli ko'rinishda bo'lsa-da, shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan uni mustahkamlash (ikkinchi bir dars turi elementi – savol-javob o'tkazish), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (uchinchi bir dars turi elementi – masala, mashq va testlar yechdirish, grammatik yoki iqtisodiy tahlil, grafik ishlar olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi – tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va hokazo) kabi boshqa elementlarning ham bo'lishi mumkin. Shunga qaramay har bir darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchi-talabalarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi.

Ma'lum zamonaviy dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir dars elementlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilish mumkin.

[1] J.Yo'ldoshev. Zamonaviy dars. – T.: 2007 5-45-betlar; X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Darslik. – T.: 2008, 233-245-betlar. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. – T.: 2010, 173-194-betlar.

Demak, zamonaviy dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qism (element)larini anglatadi. Biroq zamonaviy dars tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lavermaydi. U o'qitish usuli bilan uzviy bog'langandagina zamonaviy dars tuzilishini tashkil qila oladi. Ya'ni dars tuzilishini o'zgarishi bilanoq dars olib borish usuli ham o'zgaradi. Darsning shu qismiga kelib, darsning shakli ham, usuli ham o'zgaradi va yangilanadi. Bu bilan darsning yangi bosqichi boshlanadi.

Umuman, har bir zamonaviy darsda yuqori sifat va samaradorlikka erishish uchun zamonaviy darslarning turlarinigina bilish kamlik qiladi. Buning uchun o'qituvchidan qanday zamonaviy darslardan qachon foydalanish mumkinligini ham bilish talab etiladi.

4.4. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI FAOLIYATI VA DARSGA TAYYORGARLIGI

Ma'lumki, *ustoz, murabbiy, o'qituvchi-pedagog*ning ijtimoiy sifatlariga va kasbiy omilkorligiga, darsga tayyorgarligiga qadim zamonlardan e'tibor qaratilib kelingan va har bir zamon talablaridan kelib chiqib unga qo'yiladigan talablar, vazifalar ham takomillashib, murakkablashib boravergan.

Spiytamon Zardusht ta'limotida, *«muallim-kohinlarning burchlari yoshlarga bilimlarni yaxshilik yo'sinda o'rgatib, yaxshi bilan yomonni ajrata oladigan qilish, to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir. Kimda-kim, aqlu farosat bilan yomonlikka qarshi kurashsa, u Ahura-Mazda yo'lini tutgan bo'ladi»*, – deyilgan. «Avesto»ning «Yasht»larida **«ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal»** kabi yoshlar ruhiyatiga ***rost so'z, pok aqida, halol niyatni*** singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, «Avesto»ning «Yasht»larida tanballigi, befarqligi, mas'uliyatsizligi, loqaydligi, farosatsizligi, uquvsizligi, bilimini va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida yoshlar zehnini, ularning mustaqil tafakkurini o'tmaslashtiradigan, ayni chog'da, yoshlarning aqlini zanglatadigan, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e'tiqodini zaiflashtirib, ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradigan *«yomon ustozlar»* qattiq qoralanadi.

Zardushtning Oliy Tangri Ahura-Mazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: *«Noshud yomon muallim ta'lim oluvchilar, ya'ni yoshlar qalbidan hunarmandchilikni yo'qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o'zing asra».*

Abu Nasr Forobiy (873–930) ustozning jamiyatda tutgan o'rniga to'xtalib, quyidagi talablarni qo'yadi: *«...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning «qattiq» yoki «yumshoq» usullaridan foydalanishi mumkin».*

Abu Ali ibn Sino (980–1037) ta'lim beruvchi ustozning shaxsiyati va intellektual salohiyatiga quyidagi talablarni qo'yadi:

1. Talaba bilan muomalada ta'lim beruvchi nihoyatda bosiq va jiddiy bo'lmog'i lozim;

2. Talabalarga berilayotgan bilimlarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini muntazam ravishda nazorat qilib borishi kerak.

3. Talabalarni zeriktirib qo'ymaslik maqsadida ta'lim berishda mavzuga mos turli xil metod va shakllardan foydalanish lozim.

4. Ta'lim beruvchi o'z talabalari xotirasi, zehni va ular asosida berilayotgan bilimlarni qay darajada qabul qila olayotganligi haqida doimiy tasavvurga ega bo'lishi zarur.

5. Ta'lim beruvchi o'z talabalarini o'zi ta'lim berayotgan fanga qiziqtira olsin, eng avvalo, ulardagi fanni o'rganishga nisbatan mayl va qiziqishni uyg'ota olish darajasida bo'lishi lozim.

6. Ta'lim beruvchi o'zi ta'lim berayotgan mavzu (fan) bo'yicha mustahkam esda saqlab qolish lozim bo'lgan materiallarga e'tiborni qarata olsin va bulardan ta'lim berishning keyingi bosqichida yangi bilimlarni egallashda foydalanishni ham e'tiborga olsin.

7. Ta'lim beruvchi talabalarga ta'lim berishda ma'lumotlarni tushunarli qilib yetkaza olsin, shuningdek, ta'limda talabalarning yoshi va ularning aqliy darajasi hamda fikrlash doirasi kengligi e'tiborga olinishi lozim.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ham ta'lim jarayonida ustozning roliga alohida ahamiyat beradi:

– ta'lim beruvchi ilm-ma'rifatli va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim;

– talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Unsurul Maoliy Kaykovus (XI asr) **«Qobusnoma»** asarida muddarislarning bilimli va axloqli ekanligining birinchi belgisi, uning

suxandonligida deb biladi va *«Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir»*, deydi. U ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala madaniyatiga to'xtalib shunday deydi: *«...Va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun (bolani ursalar, sen (ota) shafqat ko'rgazgil, mayli ursunlar, nedimkim yosh o'g'lon ilm va adabni tayoq bilan o'rganur va o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendan o'g'lingning ko'nglidagina qolmasun»*.

Burxoniddin Zarnudji (XII asr) ***«O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma»*** nomli asarida axloq-odob xislatlarini egallashi xususida fikr yuritadi:

– ta'lim beruvchi o'rganish uchun fanlar orasidan eng muhimlarini tanlashi, ta'lim oluvchilar nimaga qiziqishi, nimaga o'rganmoqchi ekanligini va kelgusida hayotda qaysisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olishi lozim;

– yoshlarga ta'lim berishga eng avvalo bilimli, olijanob muallim tanlash kerak;

– har bir ta'lim oluvchi muruvvatpeshalik fazilatlarini egallashga intilishi zarur;

– ta'lim oluvchi muallimdan, o'rganayotgan fanidan, tanlangan kasbidan to'la qanoat hosil qilishi lozim;

– ta'lim oluvchining muallimga, ustoziga hurmati – undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yaqinroq joyda o'ltirishida bilinadi.[1]

Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (XIII asr) ***«Guliston»*** *asarida o'z davri mudarris (o'qituvchi)larini turli toifaga bo'lib, qattiqqo'l o'qituvchilarni: «...basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, talabalarni ranjitadigan, gadoy tabiatlik, ochko'z, uni ko'rishi bilan shogirdlarining kayfiyati uchar» shogirdlar undan bilim va tarbiya ololmaydilar. Yana bir toifadagi o'qituvchilar «...sodda, yaxshi va yumshoq ko'ngilli odam. Unar-unmasga so'zlamas edi va bolalarni (ta'lim oluvchilarni) ranjitadigan so'zlar og'zidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini ko'rgan bolalar shogirdlar, murabbiyni mensimay qo'ydilar. Uning yumshoq tabiatlik ekanligini bilishib, ilmni ham o'rganmadilar. Alqissa bolalar o'yin va to'palonga berilib vaqtni bekorga o'tkazdilar.*

[1] Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1995, 206-209-бетлар.

Bayt: ***Ustod muallim bo'lsa beozor,***
Go'dak eli bozorda xarsang o'ynar.
Yoki: ***Agarda muallim bo'lsa beozor,***
Bolalar sinfni qilishar bozor.
Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:
«Ota mehridin afzal jabri ustod».[1]

Abu Nosir Tusiy (XIV) ***«O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida»*** *nomli asarida ustozlar haqida quyidagilarni yozadi: «Murabbiy munozaralarni to'g'ri olib borish, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishi, o'z fikrlarini to'g'riligiga ishonishi, nutqi mutlaqo sof va ravon bo'lishi lozim. Murabbiy nutqi hech qachon zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'zini tuta olmasligi darsni buzadi».*

Abdurahmon Jomiy (1414–1492) ***«Iskandar xirodnomasi»*** asarida ustoz-muallimlar haqida shunday deb yozadi: *«Muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi».* U muallimning jamiyatdagi o'rnini quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon.

Alisher Navoiy (1441–1501) har bir inson o'ziga ta'lim-tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak, deydi:

Haq yo'linda kim senga, bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, anning haqqin yuz ganj ila.

Buyuk alloma o'zining ***«Mahbub-ul qulub»*** asarida madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi muddarislarga jiddiy talablarni qo'yadi: *«Muddaris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu muddaris emas, yomon odatni tarqatguvchidir».*

[1] Sa'diy. «Guliston». – T.: 1968. 146-159-betlar.

Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo'lishi, insoniy fazilatlarning eng yaxshisini o'zida mujassamlashtirgan, olijanob va kamtarin bo'lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo'lishi, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Buyuk mutafakkir o'qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: *«Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkin bunga nima yetsin. Shunisi ham borkim, u to'dada fahm-farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir».*

Kamoliddin Husayn Koshifiy (1440–1505) **«Futuv-vatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati»** asarida ustoz-shogird munosabatlariga va ustozlik shartlariga to'xtalib: *«Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l. ...Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli o'z aybini ko'radigan, dono va tizimli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi».*

Alloma **«Axloqi Muhsiniy»** asarida yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ustoz-muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi: *«Murabbiy bolaga (ta'lim oluvchiga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir».*[1]

Yevropa mamlakatlarida XVI–XX asrda yashagan pedagog olimlari o'qituvchining kasbiy faoliyati va mahorati hamda axloqiy fazilatlari haqida o'z qarashlarini bayon etganlar, pedagogik ta'limot yaratganlar.

Chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** (1592–1670) o'z davrida o'qituvchilik *«...yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb»* deb ta'kidlagan edi.

---

[1] Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: «O'qituvchi», 1993, 31-60-betlar; O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1995, 101-253-betlar.

Shveysariyalik pedagog **Iogann Genrix Pestalossi** (1746–1827) *o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarga to'xtalib o'tadi.*

Atoqli nemis pedagogi **Fridrix Vilgelm Adolf Disterveg** (1790–1866) *o'qituvchining ta'limdagi roliga baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi ta'lim oluvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi o'quvchi-talabalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.*

Taniqli rus pedagogi **Konstantin Dmitrievich Ushinskiy** (1824–1870) o'qituvchini kasbiy faoliyatiga yuksak baho berib, uning mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: *«Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiqqat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zarur matonat va mahorat talab qilinadi».*

Buyuk rus adibi **Lev Nikolayevich Tolstoy** (1828–1910) o'qituvchi faoliyati va fazilatini quyidagicha ta'kidlaydi: *«...agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordi-yu, ikkala xislatni ham mujassamlashtirsa u holda mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'ladi».*

Taniqli rus pedagogi **Anton Semenovich Makarenko** (1888-1939) o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy faoliyati va fazilati haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan: *«Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisizish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi.*

O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir.

Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq va jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin».[1]

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlari va Yevropa pedagog olimlari o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, shu kasb egasining bir qator muhim fazilatlari va pedagog mahoratini takomillashtirish haqida fikr yuritganlar. Shuni ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagog olimlari tomonidan o'qituvchining kasbiy fazilati, ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorlanishi haqidagi ko'pgina mulohazalari hozirgi kungacha, o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Demak, millati va kelib chiqishidan qat'i nazar ajdodlar g'oyasini takomillashtirish evaziga ta'lim nazariyasini yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan **«Ta'lim to'g'risida»**gi Qonun va **«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»**da chuqur bilimga ega bo'lgan, zamonaviy o'qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida ta'kidlanadi. Shu sababli, hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchi-kadrlarga va ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarishga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda.

Har qanday ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda o'quvchi-talabalarning faoliyati o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida kechadi. Shunday ekan, o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Loyihalash yoki rejalashtirish;
2. Tashkil etish;
3. O'quv harakatlari;
4. Natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatida **loyihalash**, ya'ni **rejalashtirish** bosqichida kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi.

[1] A.Holiqov. Pedagogik mahorat. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, 34-38-betlar.

Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ijodiy faoliyat lozim bo'ladi. O'qituvchi mustaqil ravishda o'quvchi-talabalarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o'quv imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

Dars o'tish faoliyatini **tashkil etish** uchun o'qituvchi o'quvchi-talabalar oldiga o'rganilgan mavzu asosida o'quv masalalarini qo'yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda o'quvchi-talabalarning faoliyati bilim olishdan iborat bo'ladi. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor va ko'nikma hamda malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib borishi jarayonidir. Bilim olishning ushbu kamponenti ta'limiy xarakterga ega bo'lgan faoliyat natijasida rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

Bilim olishning yana bir komponenti **o'quv harakatlari** bo'lib, ular belgilangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari ta'lim jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar **tashqi** *(kuzatiladigan)* va **ichki** *(kuzatilmaydigan)* ko'rinishda bo'ladi.

Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar *(yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish)*; perseptiv harakatlar *(tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish)* hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki, ya'ni mnemonik *(yunoncha «mnemonikon» – eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.*

Natijalarni baholash va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini tahlil qilishni amalga oshirish o'qituvchining o'rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o'quvchi-talabalarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.[1]

O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsning samaradorligi uning samarali tashkil etilganligiga bog'liqdir. Yaxshi rejalashtirilmagan yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch loyihalangan, o'quvchi-talabalar imkoniyatlari uyg'unlashmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi ta'lim-

[1] A.Holiqov. Pedagogik mahorat. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, 171-172-betlar.

tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqish dars samaradorligini ta'minlaydi. ***«Dars samaradorligi»*** deganda ikki tarkibiy qismni ko'rish mumkin, bular: ***darsga tayyorgarlik ko'rish va darsni o'tish mahoratidan iborat.***

Darsga tayyorlanish – ***bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonini tanlashdir.***

O'qituvchining ma'lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi uch bosqich muhim ahamiyatga ega: ***aniqlash, ya'ni tashxislash, oldindan aytib berish, ya'ni bashoratlash; loyihalash, ya'ni rejalashtirish.*** Bu o'rinda o'qituvchining materialni yaxshi bilishi, o'z fani doirasida erkin fikrlay olishi ko'zda tutiladi. U o'z shaxsiy mavzuga oid papkasini yoki o'quv kompleksini (majmuasini) yuritib, unga o'zi dars o'tadigan fan sohasidagi eng yangi ma'lumotlarni to'playdi, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlaydi. Umuman, muvaffaqiyatli dars o'tish uchun o'qituvchi amaliy va o'quv materialini ishonch bilan puxta egallagan bo'lishi zarur.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish ishlari o'quv axborotlarini sinf yoki guruh o'quvchi-talabalari imkoniyatlariga, yuqori samara beradigan bilish mehnati va jamoa hamkorligini tashkil etishda qulay shart-sharoit (shakl)ni baholash va tanlashga ***«moslashishga»*** olib keladi. Dars berishning oqilona shaklini tanlash uchun o'quv mashg'ulotini qat'iy ravishda rejalashtirish zarur.

Uning asosida darsni tayyorlash algoritmi (qoidalar majmuyi), barcha muhim omillar va holatlarni hisobga olishni kafolatlaydigan izchil tadbirlar bo'lishi zarur.

Darsga tayyorlanish algoritmi, ya'ni qoidalar majmuyini amalga oshirish muayyan shart-sharoitlarni **aniqlash, ya'ni tashxislash** bilan boshlanadi. **Aniqlash** (***diagnostika, ya'ni tashxislash***) bu ta'lim-tarbiyaviy ishlarni loyihalash munosabati bilan dars o'tishdagi barcha vaziyatlarni ***«ochib»*** berish bilan – o'quvchi-talabalarning imkoniyati, ularning faoliyati va xulq-atvori motivlari, o'qitish darajasi talab qiladigan ehtiyojlar va ishtiyoqlari, qiziqish va qobiliyatlari, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, darsning tuzilishi, shuningdek, o'quv jarayonida butun vaqtni qanday sarflanishini – tayanch bilimlarni takrorlash (faollashtirish)ga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, mustahkamlash va sistemalashtirishga, bilim, malakani tekshirish va xatolarni to'g'rilashga ketgan vaqtni chuqur tahlil etish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqich mashg'ulotlar samaradorligini

belgilovchi omillarning ta'sirini yorqin tasavvur etiladigan **darsning diagnostik kartasini** vujudga keltirish bilan yakunlanadi.

Demak, darsga tayyorlanishni tashxislashda o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha shart-sharoitlarni oydinlashtiradi, uning maqsad va natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchi-talabalarning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Oldindan aytib berish (bashoratlash) bo'lajak darsni o'tishdagi turli variantlarni baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlashga qaratilgan. Oldindan aytib berishning zamonaviy texnologiyasi dars samaradorligi miqdoriy ko'rsatkichlarini quyidagi yo'llar bilan chiqarishga yordam beradi. Darsning asl maqsadi bo'lgan bilim (ko'nikma va malakalar) hajmini shakllantirish 100% deb qabul qilinadi. Unga to'sqinlik qiluvchi omillar, tabiiy ravishda bu ko'rsatkichni pasaytiradi, yo'qotishlar kattaligi (u maxsus metodika orqali aniqlanadi) va u ideal natijada chegirib tashlanadi, shunday qilib, pedagog o'ylagan (sxema) shakl bo'yicha dars samaradorligining erishishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatkichi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtiradigan bo'lsa, u darsga tayyorlanishning yakunlovchi bosqichini rejalashtirishga o'tadi. Qoniqtirmasa – o'zgartirish mumkin bo'lgan omillar vositasida darsni tashkil etishning yanada mukammal (sxemasi) shaklini izlashga majbur bo'ladi.

«**Loyihalash**» atamasi pedagogika nazariyasiga texnika sohasidan kirib kelgan bo'lib, **reja tuzish** ma'nosini anglatadi. **Loyihalash (*rejalashtirish*)** – darsga tayyolanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, o'quvchi-talabalar bilish faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Boshqarish dasturi bu – qisqa va aniq, erkin tuzilgan hujjat bo'lib, unda o'qituvchi ta'lim jarayonini boshqarishning o'zi uchun zarur o'rinlarini qayd qiladi, kimdan va qachon so'rash, qayerdan muammoni yuzaga keltirish, mashg'ulotning keyingi bosqichiga qanday o'tish kerakligi, oldindan ko'zlangan qiyinchiliklar paydo bo'lganda ta'lim jarayonini qanday shakl qayta qurish, ya'ni o'zgartirishni belgilab olishga imkon beruvchi faoliyatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasida boshqarish ta'sirini aniq, ravshan belgilash bilan farq qiladi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, natijada yuqori samaradorlikka erishiladi.

9-shakl


Aniq
O‘lchanadigan
O‘quv maqsadlari
Real amalga oshirish
Erishish mumkin
Vaqt jihatdan belgilangan
O‘quv maqsadlariga erishish uchun tavsiya etiladigan omillar
Tushuntirish
Aniqlash
Bajarish
Isbotlash
Sanab berish
Baholash
Namoyish qilish
Tashkil etish
Tuzatish
Ko‘rsatma berish
Foydalanish
Yechimini topish
Muammoni yechish
Tahlil qilish
Tizimlashtirish
Farqlash
Ishlab chiqish
Shakllantirish
Chizish
O‘qib berish
Hisoblash
Yig‘ish
Jadval tuzish
Taqqoslash
Xulosa chiqarish
Tayyorlash
Hisobot yozish
Axborot berish
Tekshirish
Tasniflash
Ko‘rsatish
Tashxis qo‘yish
Yozish
Muvofiqlashtirish
Taqdim etish
Tavsiya berish
Takomillashtirish
Maslahat berish
Tanlash
Hamkorlik qilish
Joylashtirish
Muhokama qilish
Buyurtma berish
Himoya qilish
O‘lchash
Reja tuzish
Soddalashtirish
Tayyorgarlik ko‘rish
Amalda ko‘rsatish
Taqlid qilish
Sintez qilish
Topish
Rivojlantirish
Belgilash
Guruhlash
Yakunlash
Bo‘lish
Qayta ko‘rish
Tahrir qilish
Yoritib berish

O‘qituvchining birinchi vazifasi loyihalashni shakllantirish davridanoq paydo bo‘ladi va u ma’lum o‘quv maqsadini ko‘zda tutadi. Ma’lumki, o‘quv maqsadlari pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma’lum ma’noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yo‘naltiradi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar xatti-harakatlarini o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yo‘l qo‘ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat.

Boshqarish jarayonining mohiyati

10-shakl

Bosqichlar	Faoliyat natijalari	Vazifalari
Tayyorgarlik ko‘rish → Amalga oshirish → Yakunlash	Maqsadni belgilash → Tashxislash → Bashorat etish → Loyihalashtirish → Axborotlarni yig‘ish → Tashkil etish → Amalga oshirish → Natijalarni nazorat qilish va baholash	– maqsadni belgilab olish; – tashxislash; – bashorat etish; – loyihalashtirish; – rejalashtirish; – axborotlar yig‘ish; – tashkil etish; – baholash; – nazorat qilish; – o‘zgartirishlar kiritish; – analitik tahlil etish.

Ta’lim jarayonini boshqarish, eng avvalo, o‘quvchi-talabalarning bilimlariga asoslanadi: ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishga tashxislash asosida erishiladi. O‘quvchi-talabalarning jismoniy o‘ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi

ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo'lmaydi.

Tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim-tarbiya ishida o'qituvchining tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi asosiy vazifalarni qamrab oladi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

Uchinchi bosqichda yig'ilgan axborotlar o'qituvchining istiqboldagi faoliyatini rejalashtirish, takomillashtirish, maqbullashtirish uchun asos bo'ladi.

Pedagogik loyihalashtirish o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, u tashkilotchilik, bilish, muloqot va boshqa vazifalar bilan bog'liq. Loyihalashtirish vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

11-shakl



Pedagogik loiyhalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlaridan, shu jumladan, o'qituvchining intellektual imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Pedagogika nazariyasi pedagogik loyihalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman, ta'lim jarayoni markazida uning ishtirokchilari, maqsad, vazifalari, mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita o'zaro bog'liq ta'siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalash (rejalash) tiriladi.

O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi har bir o'quv yili oldidan va yillar davomida olib boriladi. Bu tayyorgarlik:

a) *o'qish yili boshlanishiga qadar ma'lum fan asosida o'zi dars olib boradigan sinflar yoki guruhlar o'quv rejasi dasturini sinchiklab tahlil qilib chiqishdan; b) o'qitadigan fani bo'yicha umuman va alohida mavzularga oid darslik, o'quv materiallari, ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'rganib chiqishdan; d) o'qitadigan fan va umuman ta'lim-tarbiya masalalariga oid metodik adabiyotlar bilan tanishib chiqishdan; e) shu fan bo'yicha va umuman alohida mavzular bo'yicha yangi nashr etilgan tasviriy ko'rgazma materiallari, shuningdek, yangidan joriy qilingan o'quv-tajriba asbob-uskuna va apparatlarini o'rganish va tahlil qilib chiqishdan iborat.*

O'qituvchining kundalik darsga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) sinflar yoki guruhlar o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzuning mazmuni o'quvchi-talabalarni qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni talab qilishini aniqlash;

b) mavjud darslik yoki adabiyotlar, shuningdek, ko'rgazmali o'quv materiallari o'quv dasturi talabiga qanchalik javob bera olishini o'rganib, amalda qo'llanib kelinayotgan darslik, mashq va masalalar, testlar, intellektual treninglar to'plamining paragraflari, bo'limlari va qismlariga fan-texnika taraqqiyoti va o'quv dasturi talabiga ko'ra qanday tuzatish, o'zgartirish va to'ldirishlar kiritish lozimligini belgilash;

d) o'tilajak darsga materiallar kiritish lozimligini belgilash;

e) o'tilajak darsga materiallar tanlash, o'quvchi-talabalarning amaliy mashq qilishlari uchun misol va masalalar tayyorlash, mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, qonun-qoidalarning ta'rifini belgilash. O'quvchi-talabalarning mustaqil ta'limi uchun vazifalar tayyorlash.,

f) o'tiladigan mavzuga oid ko'rgazmali va tajriba asbob-uskunalarini aniqlash;

g) mashg'ulot qanday dars tipi strukturasi va o'qitish metodi bilan olib borilishini belgilash. Bunda o'tilgan mavzuning hozirgi mavzuga bog'lanishi va keyingi mavzular uchun zamin tayyorlanishi, shuningdek, sinf yoki guruhdagi ayrim o'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan individual ish shakli nazarda tutilishi;

h) o'tilayotgan darsning atroflicha puxta ishlangan rejasini tuzish.

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi. O'qituvchi o'z faoliyatini hamkasblari tahlil qila olganidek, o'z darsini tahlil qilishi zarur. Busiz o'qituvchilik kasbida rivojlanishga erishib bo'lmaydi. *Xo'sh, o'qituvchining o'z darsini tahlil qilishning o'zi nimalardan iborat? U qanday ta'lim prinsiplariga asoslanadi?*

Bizningcha, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati, ya'ni darsini tahlil qilganda, uning barcha tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish, ularning uzviy bog'liqligini chuqur tushunish, o'qituvchi qo'ygan masalalar, uni yechish yo'llari va ko'zlangan maqsadlar qanchalik uyg'unlashib ketishini his etishi lozim. Bunda:

- birinchidan, biz hamkasbimiz darsini tashqaridan kuzatishimiz va faoliyatini tahlil qilishimiz;
- ikkinchidan, o'zimiz uchun alohida ahamiyatga molik bo'lgan o'z harakatlarimizni tahlil qilishimiz kerak.

Bunday tahlil (analiz) yo'llarini egallash uchun muayyan bosqichdagi ishlarni bajarmoq zarur.

Birinchi bosqich – pedagogika fanining yangi g'oyalari, pedagogik faoliyatning tuzilishi, asosiy tarkibi, uning boshqa fanlarning o'zaro ta'siri va aloqasi bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich – tahlil, qayd etish, ro'yxatga olish, xronometrlash yo'llarini o'rganish.

O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil (analiz) qilish shakli tuzilishi quyidagicha:

Pedagogik topshiriqlar:

– dars (mavzu)ga qanday aniq vazifalar qo'yilgan:

a) rivojlantiruvchi; b) tarbiyalovchi; d) ta'lim beruvchi.

– ular qaysi umumiy vazifaning bir qismi bo'lib hisoblanadi?

– Darsda barcha topshiriqlar bajariladimi?

– Dars davomida vazifalar o'zgaradimi? O'zgargan bo'lsa, nima uchun?

Pedagogik vosita va usullar:

– Mazkur sinf yoki guruhni alohida o'quvchi-talabalarining xususiyatlari e'tiborga olindimi?

a) ularning aqliy va psixik o'sish darajasi; b) potensial imkoniyatlari; d) fanni bilish darajasi; e) hissiy holatlar va darsga tayyorgarligi; f) qanday hisobga olinadi? Agar hisobga olinmagan bo'lsa, nima uchun?

Mazkur sinf yoki guruh bilan ishlashga o'qituvchining xohishi qanday edi? Darsga tayyorgarlik darajasi-chi?

– Darsga tayyorgarlikda qanday usul va yo'llardan foydalaniladi? Darsda vaqt taqsimoti qanday bo'ladi? U maqsadga muvofiqmi? Pedagogik masalalarni hal qilish uchun qo'shimcha materialdan foydalanildimi? Qanday maqsadda?

– Mavzuga oid majburiy material qayta ko'rildimi? Bu ijobiy natijaga olib keldimi? Agar olib kelmagan bo'lsa, nima uchun? Darsda kutilmagan vaziyatlar yuz berdimi? Qanday? U qanday hal etildi?

DARSNING UMUMIY BAHOSI (BAHOLASH)

– O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan ishlashdan qoniqish hosil qildimi?

– O'quvchi-talabalar qanday ishlashdi? Ijodiy muhit vujudga keltirildimi?

– Ayrim o'quvchi-talabalarda va butun sinf yoki guruhda qanday qiyinchilik va muammolar paydo bo'ldi? Rejalashtirilgan masalalardan nima amalga oshirildi? Nima amalga oshirilmadi? Nima uchun?

– Pedagogik topshiriqlarni bajarish vositalarini to'g'ri (noto'g'ri) tanlashda muvaffaqiyatsiz (omadsiz)lik sabab bo'ldimi? Ular qanday vositalar edi? Yoki boshqa sabablar bormi?

Kelgusida ushbu dars tajribasini hisobga olsa bo'ladimi?

Oddiy o'qituvchi va tajribali o'qituvchining biror masalaga yondashuvlaridagi farqqa e'tibor qiling-a! Masalan, qarshimizda ikki parallel sinf yoki guruh turibdi, ularning nazariy tayyorgarligi ham, emotsional yetukligi ham deyarli bir xil vositalar yordamida bajarish mumkin. Afsuski, ko'p o'qituvchilar xuddi shunday qiladi. Biroq tajribali ustoz-o'qituvchi boshqacha yo'l tutadi. Bir sinf yoki guruhda u voqealarning tashqi ta'siriga urg'u beradi, boshqa sinf va guruhda ta'lim jarayonlari kechishi mantiqiga e'tibor qiladi.

Birida dars vaqtini shunday taqsimlaydiki, yangi materialni tushuntirish davomida mavzuning asosiy o'rinlariga diqqatni alohida qaratib, uni bir necha marta takrorlaydi, ikkinchisida esa dars oxirida qisqacha bayon etadi, xolos. Shu tarzda bir masalani ikki xil ko'rinishda hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchi ta'lim jarayonida darsga tayyorgarlik ko'rishi natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkil etish, natijalarni baholash va tahlil qilishiga bog'liqdir.

4.5. DARS JARAYONIDA TA'LIM VOSITALARINI TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK VAZIFALARI

Ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liqdir.

Ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi vositalar ta'lim vositalari deb ataladi.

Umuman, ta'lim vositalari o'quvchi-talabalar uchun ta'lim jarayonida atrof-muhitni va o'rganilayotgan voqea-hodisalar mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi. O'qituvchi uchun, axborot negizi sifatida, ta'lim jarayonini tashkil qilishda va bilimni nazorat qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim vositalarini foydalanilishi jihatidan quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

12-shakl



Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.

Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

Ba'zi hollarda ta'lim oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lim vositasi ta'lim beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi kerak. Bundan tashqari, ta'lim vositalarini xususiyatlariga ko'ra quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

13-shakl



Ta'lim vositalarini o'quv maqsadlari jihatdan vizuallashtirish vositalarining turlarini funksiyasi xususiyatlariga ko'ra quyidagi olti turga ajratish mumkin:

O‘quv maqsadlari jihatidan vizuallashtirish vositalarining funksiyasi va turlari

Matn-vizual vositalar

Ma’lumot olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun:
- **O‘quv dasturlari;**
- **Maxsus adabiyotlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalari ma’ruza matnlari;**
- **O‘quv-didaktik materiallar, tarqatma materiallar;**
- **Imtihon va nazorat varaqalari;**
- **Kseroko‘chirma o‘quv materiallari.**

Tasvirli-vizual vositalar

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun:
- **Fotosuratlar va tasvirlar;**
- **Eskiz, chizma va shakl (sxema)lar;**
- **Ramziy tasvirlar, reja-jadvallar, simvollar, geografik xaritalar;**
- **Diagramma va grafikalar, plakatlar.**



Audio-vizual vositalar

Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali haqiqiy tasavvurlarni vujudga keltirish uchun:
- **Videofilmlar;**
- **Filmlar;**
- **Dia-tovushli mahsulotlar, Power Point materiallari;**
- **Kompakt disklar (CD-Rom), audiokassetalar;**
- **Elektron darsliklar.**

Yordamchi (jihozli)-vizual vositalar

Tasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun:
- **Doskalar (bo‘r doska, oq doska, magnit doska);**
- **«Pinbord» doskasi;**
- **Videoproektor, videoproektor ekrani;**
- **Kodoskop;**
- **Kompyuter;**
- **Flipchart;**
- **Audiomagnitafon, videomagnitofon;**
- **Televizor, videofilmlar, multimedia.**

Modelli-vizual vositalar

O‘rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun:
- **Modellar;**
- **Maketlar;**
- **Trenajyorlar;**
- **Mulyajlar.**

Haqiqiy-vizual vositalar

O‘rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun:
- **Asbob-uskunalar, jihozlar, dastgohlar, mashinalar, traktorlar;**
- **Stanoklar;**
- **Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar;**
- **Xomashyolar.**

Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan misol uchun darslik va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarda ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar (shakllar), asbob-uskunalardan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar – jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ishlab chiqarish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xomashyolar, asbob-uskunlar, mashinalar, traktorlar, stanoklar va boshqalar dars jarayonida didaktik vazifaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanishi mumkin.

Ta'lim jarayonida yordamchi, ya'ni texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rin egallaydi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir. Ushbu texnik yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda foydalanish mumkin. Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta'lim beruvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqaradilar. Shu sababli o'qituvchi texnik vositalardan foydalanish qoidalarini bilishi, ularning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olishi lozim. Quyida ***bo'r doska, flipchart, kodoskop, pinbord doskasi va videoproektor*** kabi texnik vositalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishga harakat qilamiz.

Bo'r doska nazariy va amaliy (seminar) darslarida eng ko'p qo'llaniladigan o'quv vositasi hisoblanadi.

Doskadan foydalanishni avval puxta rejalashtirib olish zarur. Buning uchun o'tiladigan mavzu bo'yicha doskaga yoziladigan matn va chizmalar tartib bilan rejalashtirilib, qog'ozga xomaki varianti ishlab chiqiladi.

Doskadan foydalanishning asosiy qoidalari:

- barcha yordamchi vositalarni oldindan tayyorlab qo'yish;
- doskaga aniq va orfografik xatolarsiz yozish;
- matn yoki chizmalar oraliqlarini bir xil taqsimlash;
- rangli bo'rlarni didaktik talablarga mos kelgan holatda ishlatish;
- ta'lim oluvchilar bilan *«ko'z aloqasi»*ni saqlab turish;
- faqat bir tomonga emas, barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish;

- o'zlashtirish natijalarini tekshirib turish;
- muhim bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tiborni yordamchi vositalar yordamida kiritish.

Doskaning afzalliklari:

- arzonligi;
- ma'lumotlarni taqdimot qilish uchun qulayligi;
- yozuvlar yozish uchun ishlatilishi;
- asosiy punktlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkinligi;
- chizma va grafiklarni chizib ko'rsatish mumkinligi;
- diqqatni jalb qilish uchun foydalanilishi.

Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:

- doskaga diqqat bilan yozish ta'lim beruvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u ta'lim oluvchilarga teskari o'girilishga majbur bo'ladi;
- doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas, shuning uchun uni qayta qo'llab bo'lmaydi;
- doskaga yozish ko'p vaqtni talab qiladi.

Flipchart doskasining asosiy qulayligi shundaki – bu matnni o'chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy yetishmasligidan yozilgan yozuvlarni o'chirishga hojat yo'q, faqat yetarlicha qog'oz bo'lishi talab etiladi. Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so'ng bu qog'ozni yana doskaga osib qo'yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchart boshqa qulayligi sinf xonasi yoki auditoriyadagi devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati hisoblanadi. Bir guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish, taqqoslash va saqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo'q.

Flipchart doskadan nima maqsadda foydalaniladi?

- guruhiy bahs-munozaralarning natijalarini saqlash va ularni kelajakdagi tadbirlarda ishlatish uchun;
- jarayonning bosqichlarini ko'rsatish uchun;
- taqdimotni tashkillashtirish uchun;
- turli masalalar bo'yicha asosiy qismlarini ajratib ko'rsatish uchun.

Flipchart doskaning afzalliklari:

- flipchart doskani kerakli joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- taqdimot uchun foydalanish mumkinligi;

• varaqalarni saqlab qo'yib, kerakli vaqtda undagi ma'lumotlardan takror foydalanish mumkinligi;
• turli rangli markerlardan foydalanish imkoniyati;
• o'quvchi-talabalarning diqqatini jalb etish uchun foydalanish mumkinligi.

Flipchart doskaning kamchiliklari:

• yozuv tushunarli bo'lishi kerak, aks holda uni o'qish qiyin bo'ladi;
• xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to'g'rilangan joylar doim ko'rinib turadi;
• varaqlarni nusxalashtirish faqat fotosurat yoki ko'chirib yozish orqali mumkin emas xalos;
• ko'p flipchart qog'ozlari talab etiladi.

Kodoskop ta'lim beruvchi uchun sath (ekran), shuningdek, plyonka-slaydlar o'quv materialini eng yuqori darajadagi taqdimot qilish imkoniyatini beradi. Kodoskopning asosiy qulayligi shundaki, plyonka-slaydlarni kompyuterda yoki qo'lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o'rni o'zgarganida boshqa joyga o'tkazish mumkin. Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug'lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

• audetatli qog'oz – sun'iy toladan qilingan tiniq qog'oz;
• alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo'lgan slaydlar;
• slaydlarga yozish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv bilan o'chirish mumkin bo'lgan);
• slaydlarni tozalash uchun spirt;
• simvolli asboblar (shablonlar, chizg'ich va shu kabilar).

Kodoskopdan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini va tozaligini tekshirish lozim. Slaydlar taqdimot qilinishidan avval tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lim oluvchilar bilan doim ***«ko'z aloqasi»***ni saqlab turish va barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Slaydlarga ishlov berishda shrift (harf) turi va shrift kattaligi bo'yicha qoidalarga rioya qilib, yaxshi o'qilishi mumkin bo'lgan slaydlarni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari, slaydlarni tayyorlashda

ularning dizayniga ham katta e'tibor berish, ranglarni haddan tashqari ko'p ishlatmaslik lozim.

Kodoskopning qulayliklari:

- kodoskopni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- slaydlarni qo'lda, fotonusxa va kompyuter yordamida tayyorlash mumkin;
- slaydlarning katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlanib, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;
- ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan *«ko'z aloqasi»*ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Kodoskopning kamchiliklari:

- kodoskop bo'r doska yoki flipchart doskaga qaraganda qimmatroq;
- ko'pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga haddan tashqari ko'p ma'lumot yoziladi;
- slayd ustida to'g'rilash ko'pincha murakkab (kodoskop nuridan doimo ko'rinadi);
- ranglardan tashqari ko'p foydalanish;
- ko'p elektr energiyasini talab qiladi.

Pinbord inglizcha so'z bo'lib, *(«pin» – mahkamlash, «bord» – doska) doskaga mustahkamlash degan ma'noni anglatadi.*

Qoidaga ko'ra, **pinbord doskasi** ustiga o'rash uchun qog'oz tortiladi va qo'shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo'lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mustahkamlanadi. Ishni tugatganda so'ng kartochkalarni o'rash qog'oziga yopishtirish va ularni navbatdagi tadbirlar uchun qo'llash mumkin. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yig'ilishlarda muhim o'rin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko'rgazmali qilish mumkin.

Pinbord doskasining afzalliklari:

- pinbord doskani siljitish mumkinligi;
- ma'lumotlarni doskaga mustahkamlash imkoniyati;
- kartochkalarni guruhlash imkoniyati;
- turli rangli qog'ozlardan foydalanish mumkinligi.

Pinbord doskasining kamchiligi:

- ko'p qog'oz talab etilishi;

- kartochkadagi yozuvlarning turli-tumanligi.

Videoproektor o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy vositalardan biri hisoblanadi. Videoproektordan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari talab etiladi. Oldindan tayyorlangan o‘quv materiallarini kompyuterga ulangan videoproektor orqali maxsus ekranga taqdimot etish mumkin. Kompyuter xotirasida yoki kompakt disk va oddiy disketdagi materiallarni videoproektor orqali ta’lim oluvchilarga namoyish qilish mumkin. Videoproektor kodoskop kabi ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Asosiy materiallarni kompyuterda ta’lim beruvchi o‘zi tayyorlashi mumkin yoki professional darajada tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish mumkin. O‘quv materiallarini turli kompyuter dasturlarida, jumladan, **Word, Excel, Power Point, Corel Draw** dasturlarida tayyorlanishi mumkin.

Videoproektordan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini tekshirish lozim. Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta’lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e’tibor bergan holda gapirish kerak. Ta’lim oluvchilar bilan doim **«ko‘z aloqasi»**ni saqlab turish va barcha ta’lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Videoproektorning qulayliklari:

- videoproektorni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- o‘quv materiallarini kompyuter yordamida turli ko‘rinishda tayyorlash mumkinligi;
- o‘quv materialidagi kamchiliklarni tezda tuzatish va takomillashtirib borish imkoniyatining mavjudligi;
- animatsiyalar orqali tasvirlarni *«jonlantirish»* va harakatlantirish imkoniyati;
- o‘quv materiallarining katta guruhga ko‘rinarli bo‘lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo‘llash mumkinligi;
- ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan **«ko‘z aloqasi»**ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Videoproektorning kamchiliklari:

- videoproektor boshqa texnik vositalarga nisbatan qimmatroq;
- ta’lim beruvchidan kompyuter va videoproektordan foydalanish ko‘nikmasining talab etilishi;
- fonni va ranglarni noto‘g‘ri tanlash oqibatida ko‘zning toliqishi;

• animatsiyadan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida berilayotgan mazmunning ikkinchi darajali bo‘lib qolishi va *«shou» (tomosha)*ga aylanib ketishiga olib kelishi;
• ko‘p elektr energiyasining talab etilishi.

Shuningdek, texnik vositalarni dars jarayonida o‘z o‘rnida va samarali foydalanilsa, ta’lim jarayonida o‘quv materiali mazmunini o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Yuqorida ta’rif berilgan ta’lim va texnik vositalar dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini yengillashtirishga va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalar kabi didaktik tamoyillardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Chunki ta’lim va texnik vositalardan foydalanishning mohiyati, ta’lim oluvchilarda bilimlarni ko‘rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.[1]

Xulosa qilib aytish mumkinki, dars jarayonida ta’lim va texnik vositalardan foydalanishning didaktik vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘rganiladigan hodisa yoki obyekt haqida to‘liq va aniq axborot berish, shu bilan ta’lim sifatini oshirishga imkoniyat yaratish;

– o‘quvchi-talabalarning anglashga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada rivojlanishiga yordam berish;

– ta’limning ko‘rgazmali bo‘lishini ko‘tarish, o‘quvchi-talabalar uchun qiyin bo‘lgan materiallarni tushunishini ta’minlash;

– o‘quvchi-talabalar mehnatini unumli qilish, shu asosda o‘quv materialini o‘rganishni tezlashtirish;

– darsda o‘quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini ko‘proq uyushtirish va hokazolar.[2]

4.6. TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Axborot obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to‘plamidir. Olingan axborotlar belgili, matnli va grafikali ko‘rinishda ifodalanadi Belgili ko‘rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar va shu kabi belgilar ko‘rinishdan iborat bo‘ladi. Undan turli hodisalar haqida murakkab bo‘lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi. Masalan, ko‘chadagi svetoforning yashil chirog‘i transport va yo‘lovchi

[1] X.Rashidov, X.Xabib, G.Eldasheva, A.Zakirov. Kasbiy pedagogika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: 2007, 93-98, 109-112-betlar.
[2] A.Zunnunov, U.Mahkamov. Didaktika. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq» NMAKBT, 2006, 72-23-betlar.

odamlarning harakatlanishini bildirsa, qizil chiroq esa, aksincha, harakatlanishni taqiqlaydi. Sariq chiroq esa ko'cha harakatini almashinishi haqida xabar beradi. Matnli ko'rinish axborotni tasvirlashning deyarli murakkab ko'rinishidir. Bunda ham yuqorida keltirilganidek harflar, raqamlar, matematik belgilardan foydalaniladi. Lekin axborotni tasvirlashda nafaqat mazkur belgilardan foydalanamiz, balki ularni tutgan o'rni ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan, *«nok» va «kon»* so'zlari bir xil harflardan iborat bo'lsada, lekin turli xil axborotni bildiradi. Matnli belgilardan amalda juda keng foydalaniladi. Jahonda juda ko'plab kitoblar, oynomalar, kundalik ro'znomalar va hokazolar matnli ko'rinishda chop etilmoqda. Axborotni tasvirlashning juda katta va murakkabli ko'rinishi grafikali ko'rinish hisoblanadi. Bunga turli xil shakllarning tabiiy ko'rinishi, fotografiya, chizmalar, sxemalar va rasmlar kiradi. Bir-birimiz bilan o'zaro almashinayotgan axborotlar nutq yoki yozma shaklda bo'lib, belgili axborotlar deb ataladi. Ular yozma matnlar, harflar, tinish belgilar, raqamlar va boshqa belgilardan iborat bo'ladi.

Og'zaki nutq ham belgilardan iborat, lekin bu belgilar yozma emas, balki ovozlidir. Tilshunoslar buni fonemlar deb ataydilar. Fonemlardan so'zlar yig'iladi, so'zlardan esa iboralar hosil bo'ladi. Yozma belgilar va ovozlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Dastlab ovoz, so'ngra yozuv paydo bo'lgan. Inson nutqini qog'ozga tushirishning zarurati tufayli, yozuvga ehtiyoj paydo bo'lgan. Alohida harflar yoki harflar birikmasi nutq ovozini; tinish belgilar esa pauzalarni, intonatsiyalarni ifodalaydi.

XX asrning 70-yillarida mikroprosessor texnologiyasining kashf etilishi va shaxsiy kompyuterlarning hayotimizga keng kirib kelishi, yangi *«axborot inqilobini»* vujudga keltirdi. Bu inqilob yangi soha hisoblanmish, ya'ni bilimlarni ishlab chiqish uchun yangi texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq axborot sanoatini rivojlanishini ilgari surmoqda. Axborot texnologiyalari, xususan, telekommunikatsiyaning barcha turlari axborot sanoatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Axborot texnologiyasi – *obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig'ish, ishlov berish va uzatishning vosita va uslublarining jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.*

Telekommunikatsiya – *kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.*

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan samarali foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu jamiyatda ko'pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo'ladilar. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga yo'naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Har bir insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladiki, natijada bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida eng muhim tushunchalardan biri axborot zaxiralari hisoblanadi. Axborot zaxiralari–alohida hujjatlar, axborot tizimlari, ya'ni kutubxona, arxiv fondi, ma'lumotlar banklari, shuningdek, boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar to'plamidir.

Hozirda multimedia ta'lim jarayonida juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'limda multimedia texnologiyasini tatbiq etish uchun dastlab, *«Multimedia nima o'zi?» degan savolga javob beraylik. Multimedia-tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. «Multimedia» so'zi lotincha «media» so'zidan olingan bo'lib, «ma'lumot tashuvchi vosita» degan ma'noni anglatadi.* Multimediali kompyuterlar so'z, musiqa va boshqa ovozli ma'lumotlar, video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-yillarning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta'rif berish mumkin: **multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari audio, video, matn, grafika va animatsiya obyektlarning fazodagi harakati samaradorligi asosida o'quv materiallarini o'quvchi-talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.**

15-shakl



Multimedia hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– an'anaviy axborot turlari, ya'ni matn, jadval, turli xil bezaklar va original axborot turlari – nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) ko'rinishidagi axborot turlarini bir dasturiy mahsulotda mujassamlashtirilganligi;

– video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

–«inson-kompyuter» interaktiv muloqotining yangi darajasini ta'minlanishi. Bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'qitishning bu usuli ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha tatbiq qilinmoqda. Hozirda amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida o'quvchi-talabalarni

o'qitish ikki barobar samarali bo'lmoqda. Mazkur vosita yordamida o'qitishda an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'rtacha 30 foizgacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar o'quvchi-talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. *Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtdan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchi-talabalarga berilayotgan materiallarni video (ko'rish) orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30 foizgacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchi-talabalarga berilsa, materialarni xotirada saqlab qolish 75 foizga oshishi kuzatilmoqda.*

Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga bilim berish quyidagi afzalliklarga ega:

- ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ma'lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishuvi;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishuvi.

Lekin mazkur vositani ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni qo'llanma shaklida kompyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

O'quv materiallarini yaratish bo'yicha hozirda Respublikamizda katta ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi metodist mutaxassislar jalb qilingan bo'lib, o'quv va didaktik materiallari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yaratilmoqda.

Kompyuter yordamida o'quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin. Matnni qo'lyozma shaklida tayyorlab olish kerak. Matn tayyor bo'lgach, uni qayta ishlovchi dastur, misol uchun **Word dasturi** orqali kompyuterga kiritish mumkin. Grafiklarni kiritish uchun **Power Point taqdimot dasturidan foydalaniladi.** Ikkala dastur birga matn va grafik kombinatsiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor taqdimotni kompyuter ekranida, videoproektor yordamida katta ekranda namoyish qilish mumkin. Taqdimotni tashkil qilish — slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Taqdimot axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va hokazolarga bog'liq ekanligini ham unutmaslik lozim.

Power Point dasturi **Microsoft** firmasining **Windows** qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda, bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin.

Power Point dasturida taqdimot materiallarini tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:

- g'oyaning shakllanishi;
- ma'lumot yig'ish;
- reja tuzish;
- matn tanlash;
- dizayn tanlash;
- animatsiya tanlash.

Yuqoridagi 16-shakldan ko'rinib turibdiki, taqdimot materiallarini tayyorlashning *birinchi bosqichi* tayyorlanadigan material bo'yicha g'oyaning shakllanishidir. Ya'ni material kimlar uchun mo'ljallangan va qanday ko'rinishda bo'lishi to'g'risida yaratuvchida bir necha g'oyalar shakllanadi. *Ikkinchi bosqichda* material bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar mavzuga taalluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Aks holda keraksiz va foydasiz ma'lumotlar yig'ilishiga hamda vaqtning behuda sarflanishishga olib keladi.

16-shakl



Uchinchi bosqich-reja tuzish bosqichi hisoblanib, unda materiallar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi. *To'rtinchi bosqich*da saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar juda ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko'rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta'lim beruvchi dars jarayonida qisqartirilgan matnlarni og'zaki to'ldirilgan holda tushuntirib beradi. *Dizayn tanlash bosqichida* matnning shrifti, matnga qo'shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi. Shundan so'ng, ya'ni *oltinchi bosqich*da barcha tanlab olingan materiallarga animatsiya qo'yiladi. **Animatsiya**da matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berish imkoniyatlari mavjud. Animatsiyadan foydalanish materialni yanada jonliroq va qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchiga berilgan materialning uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishiga va ularning motivatsiyasining oshishiga yordam beradi.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Ta'lim – ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'lim berish – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, shaxsning aqliy faoliyatini *rivojlantirish jarayonidir.*

Ta'lim jarayoni – bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning yig'indisini faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribalarini o'tkazishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir.

Ta'lim mazmuni – shaxsni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri. U tegishli me'yoriy hujjatlar: Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ta'lim maqsadi – har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi.

Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qilishni ko'zlashdir.

Individuallashtirilgan ta'lim – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, unda har bir o'quvchi-talaba (ta'lim oluvchi) o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi va ta'lim jarayonida o'qituvchining uslubiy yondashuvi: o'quv-metodik, psixologik, pedagogik-tashkiliy-boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi-talaba shaxsi o'quv-biluv markazida bo'lgan jarayonda o'quvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinish jarayoni asos bo'ladi.

Sinf-dars tizimi – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchi-talabalar guruhi bilan, bevosita o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida olib boriladigan ta'lim jarayonidir.

Yakka tartibdagi (individual guruhli) ta'lim – kichik guruhlar shaklida o'qitish.

Ta'limning an'anaviy sinf-dars shakli – yangi materialni o'rganish darsi, o'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish darslari, kirish, umumlashtirish darslari, aralash dars.

Ta'limning noan'anaviy shakllari – ma'ruza, seminar, fakultativ, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, rolli o'yin, aqliy hujum, o'rgimchak to'ri, bahs-munozara, davra suhbati, viktorina, matbuot konferensiyasi, mo'jizalar maydoni va hokazolar.

Dars – o'zining aniq maqsadi, mazmuni vaqti va ishtirokchilari tarkibi bilan chegaralangan, o'quv muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismidir. Dars ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli bo'lib, u aniq maqsad, tugal mazmunga ega

bo'lish bilan birga, o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

Darsning maqsadi va mazmuni – o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, tuzilmasi, qat'iy dars jadvaliga muvofiqligi, o'qituvchi rahbarligi yoki nazorati asosida o'tkazilishi, sinf o'quvchilari va guruh talabalarining barchasi bilan yoki har biri bilan alohida yakkama-yakka o'tkazilishi bilan tavsiflanadi.

Dars turlari (tiplari) – darsning mohiyati, asosiy maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarining o'zaro munosabati va muloqoti kabilarga ko'ra turlanadi (ya'ni tiplarga bo'linadi).

Shakl – dars jarayonini amalga oshirishning eng qulay usullari, vositalari, ketma-ketligi, o'qitishdagi o'quvchi-talabalar soni, sarflangan vaqt, joy qulayliklari.

Vosita – o'quv jarayonini olib borishda yordam beruvchi vositalar: o'qituvchi ovozi, mahorati, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, didaktik tarqatma materiallar, sinf va auditoriya jihozlari, ITK va boshqalar.

Natija – o'quv jarayonida kutilgan pirovard natijalar,

Zamonaviy dars – o'qituvchi o'quvchi-talabalarning mavjud imkoniyatlaridan uddaburonlik bilan foydalanib, ularning aqliy layoqatini ishga solib, o'sib borishini ta'minlaydi. O'quvchi-talabalar o'z navbatida bilimlarni tushunib chuqur o'zlashtiradilar va u borgan sayin ma'naviy yetuklik sari qadam qo'yadi.

Zamonaviy dars uch yagona xarakterdagi maqsadga erishishni ta'min etadi: ***qiziqtira olish, tarbiyalash, rivojlantirish***.

«Ezgu kalom, ezgu niyat, ezgu amal» – rost so'z, pok aqida, halol niyat, ya'ni shirin so'z, yaxshilik va ezgulik, bergan (labzga) va'daga rioya etishdir.

Tashqi o'quv harakatlari – predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanishdir.

Ichki, ya'ni mnemonik (*yunoncha «mnemonikon» – eslab qolish madaniyati*) harakatlar materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, tasavvur va fikrlashdan iborat.

Ta'lim vositalari – ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi vositalardir.

Ta'lim vositalari turlari – bosma vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

O'quv maqsadlari jihatidan vizuallashtirish vositalarining turlari – matnli-vizual vositalar, tasvirli-vizual vositalar, audio-vizual vositalar, yordamchi (jihozli)-vizual vositalar, modelli-vizual vositalar, haqiqiy-vizual vositalar.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Ta'lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakllarini tushuntirib bering.
3. Individual ta'lim shaklini bayon eting.
4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari, ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga oid g'oyalarining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Ta'limning individual-guruhli shaklining mazmunini bayon eting.
6. Sinf-dars tizimining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
7. Tramk rejasini qaysi olim ishlab chiqqan va o'qitishning bu shakli mohiyatini bayon eting.
8. Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit bir butunlik qilib turuvchi qismlarini tushuntirib bering.
9. Dars tushunchasiga izoh berib, turlanish asoslarini bayon eting.
10. Darsning turlarini izohlab tushuntiring.
11. Darsni mazmunini tashkil qiluvchi asosiy qismlari (elementlari) nima va uning vazifalari nimadan iborat?
12. An'anaviy darslarning afzalligi va kamchiliklari nimadan iborat?
13. Noan'anaviy darslardan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimadan iboratligini tushuntirib bering.
14. Zamonaviy dars deganda qanday darsni tushunasiz?
15. Dars jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyatini tushuntirib bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Ta'lim (o'qitish) jarayonining mohiyati.
2. Ta'lim (o'qitish) jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari.
3. Hozirgi ta'lim (o'qitish) jarayoniga qo'yilgan didaktik talablar.

4. Ta'lim (o'qitish) jarayoniga noan'anaviy yondashuv.

5. Ta'lim (o'qitish)ning ta'lim-tarbiyaviy va shaxsni kamol toptirish borasidagi vazifalari.

6. Ta'lim mazmuni va unga qo'yiladigan talablar.

7. Ta'lim (o'qitish)ning mohiyati va tarkibiy elementlari.

8. Ta'limning asosiy shakli – dars tuzilishi va turlari.

9. Zamonaviy darsning belgilari, mezonlari, shakllari, usul va uslublari hamda didaktik talablari.

10. O'quvchi va talabalarning bilimi bahosi.

11. Ta'lim vositalarining didaktik vazifalari.

12. O'qituvchining darsga tayyorlanishi, taqvim va kundalik rejasi hamda dars ishlanmasini tuzish tartibi.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Ta'limning individual shakli deganda nimani tushunasiz?

a) yakka tartibda o'qitish;
b) hamkorlikda o'qitish;
c) jamoa bo'lib o'qitish;
d) faol o'qitish;
e) muammoli o'qitish.

2. Al-Xorazmiy o'qitish jarayonida bilim berishning qanday usullaridan foydalangan?

a) ko'rgazmali;
b) tajriba;
c) savol-javob va sinash;
d) malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
e) barcha javoblar to'g'ri.

3. Abu Nasr Forobiy shaxsni kamol toptirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni va xususiyatini hamda qanday usullarini ta'riflagan?

a) ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish;
b) ishontirish;
c) majbur etish;
d) kuzatish, tajriba, ko'rgazmali;
e) barcha javoblar to'g'ri.

4. Ibn Sino qaysi asarida tolibi ilmlarni jamoa, ya'ni sinf-dars shaklida o'qitish zarurligini ta'kidlaydi?

a) «Donishnoma»;
b) «Tadbiri manzil»;
c) «Tib ilmi qonuni»;
d) «Najot kitobi»;
e) «Insof kitobi».

5. Sinf-dars tizimining mazmuni va o'ziga xosligi nimadan iborat?

a) bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar guruhini tashkil etadi;

b) sinf yoki guruh o'qish faoliyati yagona yillik o'quv rejasi va dasturi asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi;

c) dars odatda bitta fanga yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi;

d) darsda o'quvchi-talabalarning o'qish faoliyatiga o'qituvchi rahbarlik qiladi va o'z fani bo'yicha har bir ta'lim oluvchini alohida bilimini baholaydi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari qaysilar?

a) yakka tartibdagi (individual guruhli) ta'lim shakli;

b) an'anaviy sinf-dars shakli;

c) ta'limning noan'anaviy shakllari;

d) interfaol ta'lim shakllari;

e) barcha javoblar to'g'ri.

7. Ta'lim jarayonining tashkiliy dars o'tkazish joyiga va ajratilgan vaqtiga ko'ra shakllari qaysilar?

a) tashkiliy shakliga ko'ra: yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhda, guruhlararo, sinfda, auditoriyada; ta'lim muassasasida;

b) dars o'tkazish joyiga ko'ra: o'quv xonalarida, o'quv xonasidan tashqarida;

c) ajratilgan vaqtiga ko'ra: bir soatlik darslar, qo'shma darslar, modulli darslar, qo'ng'iroqsiz darslar;

d) ta'limiy shakliga ko'ra: o'qituvchi, darslik, o'quv qo'llanmasi, ta'lim vositalari;

e) a, b, c.

8. Ta'lim jarayoni mohiyati va darsning tarkibiy qismlari qaysilar?

a) ta'limning tashkiliy jihatlari;

b) ta'limning nazariy metodologik asoslari;

c) o'qitishning ta'limiy vazifalari;

d) ta'limning tarbiyaviy vazifalari;

e) a, b.

9. Dars deganda nimalarni tushunasiz?

a) dars – o'zining aniq maqsadi, mazmuni, vaqti va ishtirokchilari tarkibi bilan chegaralangan, o'quv muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonidir;

b) darsning maqsadi va mazmuni o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, tuzilmasi, qat'iy dars jadvaliga

muvofiqligi, o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida o'tkazilishi, sinf o'quvchilari va guruh talabalarining barchasi ishtirokida yoki yakkama-yakka o'tkazilishi bilan tavsiflanadi;

c) dars aniq maqsad, tugal mazmuniga ega bo'lish bilan birga, o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy bog'langan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir;

d) dars o'z mohiyati, maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarning muloqoti kabilar bilan bog'liq ta'lim-tarbiya jarayonidir;

e) a, b, c.

10. Zamonaviy darsning uch yagona maqsadi nima?

a) qiziqtira olish;
b) tarbiyalash;
c) rivojlantirish;
d) kutilgan natija;
e) a, b, c.

11. Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish nechta bosqichdan iborat?

a) loyihalash (rejalashtirish);
b) tashkil etish;
c) o'quv harakatlari;
d) natijalarni baholash va tahlil qilish;
e) barcha javoblar to'g'ri.

12. Dars samaradorligi nechta tarkibiy qismdan iborat?

a) darsga tayyorgarlik ko'rish;
b) darsni o'tish mahorati;
c) loyihalash;
d) tashkillashtirish;
e) a, b.

13. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi nechta bosqichdan iborat?

a) aniqlash (tashxislash, ya'ni diagnostika qilish);
b) oldindan aytib berish (bashoratlash);
c) loyihalash (rejalashtirish);
d) motivlash;
e) a, b, s.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakllarini tushuntirib bering.

№	TJTEASH	Tushuncha

2. Ta'lim jarayonining tashkiliy, dars o'tkazish joyiga va ajratilgan vaqtiga ko'ra shakllarini birma-bir bayon eting.

№	TJT, DO'J va AVKSH	Tushuncha

3. Ta'limning asosiy shakli – dars va unga qo'yiladigan didaktik talablarni bayon eting.

№	TASHD va UQDT	Tushuncha

4. Zamonaviy dars turlari (tiplari)ni izohlab tushuntirib bering.

№	ZDT (T) I	Tushuncha

5. Zamonaviy darsni tashkil etishning shakllarini tushuntirib bering.

№	ZDTESH	Tushuncha

6. O'qituvchining dars tayyorlanish bosqichlarini tushuntirib bering.

№	O'DTBT	Tushuncha

7. O'quv maqsadlariga erishish uchun tavsiya etiladigan omillarni tushuntirib bering.

№	O'MEUTEO	Tushuncha

8. Boshqarish jarayoni mohiyatini tushuntirib bering.

№	BJM	Tushuncha

9. Pedagogik loyihalashtirish vazifalarini tushuntirib bering.

№	PLV	Tushuncha

10. Ta'lim vositalarini nechta turga ajratish mumkin?

№	TV	Tushuncha

11. Texnik vositalaridan foydalanishning afzalliklari nimadan iborat?

№	TVFA	Tushuncha

V bob. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

5.1. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TURLARI TAVSIFI

O'zbekiston Respublikasining *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*da ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot-resurs bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish zarurligi ta'kidlanadi. Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar va rasmiy hujjatlarda **«yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «zamonaviy pedagogik texnologiya»** iboralari keng qo'llanilmoqda.

Pedagogik texnologiya nima va u an'anaviy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi? Aynan ta'limga tizimli yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash – ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan jihatlardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Aslini olganda, **pedagogik texnologiya – bu o'qitishning yangicha, o'ziga xos (innovatsion) yondashuvdir.** U pedagogikadagi ta'limni texnologik tashkil etish tafakkurining o'ziga xos ifodalanishi, texnokratik ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

«Texnologiya» tushunchasi yunoncha ikki so'zdan **«texnos» («techne») – mahorat, san'at, tushuncha, o'rganish, «logos» – (logos) – fan, ta'limot** so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiya tushunchasi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik operatsiyalar va mahsulotni tayyorlash mazmuni (sirlari) bilan bog'langan. **«Texnologiya»** atamasi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqida bilimlar yig'indisi, shuningdek, obyektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari tushuniladi.

Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim texnologiyalashtirilgan hisoblanadi. Texnologiyalashtirilgan ta'lim o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lmagan, faqat o'quvchi-talabaning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta'lim jarayonidir. O'quvchi-talaba ta'lim jarayoni markazida turadi, o'qituvchi esa faqat ijrochi vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lgani bois dastavval XX asrning 30-yillarida AQSHda **«ta'lim texnologiyasi»** sifatida qo'llanib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifodalagan.

Bunda **«ta'lim texnologiyasi»** tushunchasi inglizcha **«an educational technology»** – ***ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak nazorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan yoki ta'limot ma'nosini anglatadi.***

Fan-texnika va ta'lim tizimi taraqqiyoti tufayli ta'lim texnologiyasi tushunchasi ham takomillashib va mazmunan chuqurlashib borgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi mazmunining tadrijiy o'zgarishi taxminan to'rt davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi davr *(50-yillarning boshi va o'rtalari)* ta'lim muassasalarida axborotlarni taqdim etishning texnik vositalari – tovushni yozib olish va qayta eshittirish vositalari, boshqacha aytganda *«audiovizual vositalar»*ning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi davr *(50-60-yillarning o'rtalari)* o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvning tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu yondashuvning nazariy asosi dasturli g'oyasi hisoblanadi. Uning texnologik asosini o'quv maqsadlari uchun mo'ljallangan audiovizual vositalar *(teskari bog'lanish vositalari, elektron sinflar, o'qitish mashinalari, lingafon xonalar, trenajyorlar va boshqalar)* tashkil etadi.

Uchinchi davr (70-80-yillar) pedagogik texnologiya asosini yaratishda informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil va pedagogika fanlari yutuqlariga tayanildi. Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi o'zgardi, og'zaki o'qitishdan audiovizual o'qitishga o'tildi. Kompyuter laboratoriyalari va disney sinflarning yaratilishi, pedagogik dasturiy vositalar soni va sifatining ortishi, interfaol videotizimlardan foydalanish bilan xarakterlanadi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarni e'tirof etilishining **to'rtinchi davri** davom etmoqda. Pedagogik texnologiyalar fanlararo

birikish sifatida tan olinmoqda. U pedagogik bilimlarning ma'lum bo'lgan barcha tarmoqlari bazasida amal qiladi va o'zining ilmiy tushunchalarini boyitishda boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: **birinchidan, uning o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda tutilib, ta'limdagi, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, bu tushuncha o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi** deb xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasining mazmun-mohiyatini yorituvchi turli ta'riflar mavjud bo'lib, quyida ularning ayrimlarini keltiramiz:[1]

1-shakl

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING TA'RIFLARI

Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovkalar) majmuasi. U pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat.

B.T.Lixachev

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi-talaba *shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir.*

V.P.Bespalko

Pedagogik texnologiya – ta'limning rivojlantiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti.

I.P.Volkov

[1] Qarang: J.Yo'ldoshev, S.Hasanov. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, 6-79-betlar.

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonining o'quvchi-talabalar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallarni o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli.

V.M.Monaxov

Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir.

YUNESKO

Pedagogik texnologiya, bu – so'zsiz rioya qilish eng yuqori natijani kaoflatlaydigan ko'rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo'lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat.

V.Yu.Pityukov

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi.

M.V.Klarin

Pedagogik texnologiya – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

B.L.Farberman

Pedagogik texnologiya – bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir.

Sakomoto

Pedagogik texnologiya – turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini o'zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat.

G.K.Selevko

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularni oldindan belgilangan sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

N.Saidahmedov

Pedagogik texnologiya bu – obyektiv, moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning obyektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida, uning tafsilotiga ega bo'lamiz.

V.K.Dyachenko

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy Sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.

B.Ziyomuhammadov

Muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli.

A.Kushnir

↓

Aniq natijani qo'lga kiritishga yo'naltirilgan aniq faoliyat.

V.V.Yudin

↓

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalari yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuasidir.

J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, S Hasanov

↓

Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalarini kaoflatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi – o'qituvchi-talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

O'.Tolipov, M.Usmonboyeva

Umuman, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning hozirgi kunda yuqoridagiday turli-tuman ta'riflari mavjud bo'lib, unga ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy va boshqa nuqtayi nazarlardan yondashish mumkin.

Umuman, zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy fan sifatida pedagogika fanining alohida yo'nalishlarini tashkil etib, o'z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslariga, o'z muammolarini hal qilishda boshqa fanlar bilan bog'liqliklarga ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari

Pedagogik texnologiyalar

1. Qo'llash darajasi va tavsifiga ko'ra

- Ijtimoiy – pedagogik, umumpedagogik (metatexnologiyalar)
- Sohaviy, xususiy predmetli (makrotexnologiyalar)
- Modulli, lokal tormetodik (mezotexnologiyalar)
- Mikrotexnologiyalar
- Mikrotexnologiyalar
- Politexnologiyalar (instegrativ)
- O'tuvchi
- Moslashuvi
- Qat'iy belgilangan

2. Falsafiy asosiga ko'ra

- Materialistik
- Idealistik
- Dialektik
- Metafizik
- Stentistik
- Texnokratik
- Insonparvarli
- Tabiiylik
- Pragmatik
- Oqilonalilik
- Ekzistensiyalisti
- Antropologik
- Freydistik
- Diniy
- Koevolutsion
- Kosmizm
- Ezoterik

3. Asosiy metodologik yondashuvga ko'ra

- Insonparvarlik
- Tabiiylik
- Valeologik
- Manipulyativ
- Tizimlilik
- Majmuaviylik
- Integrallilik
- Guruhli
- Tabaqalashtirilgan
- Yakkamayakka (individual)
- Bilimlilik
- Yaxlitlik
- Vazifalik
- Layoqatlilik (kompetentlik)
- Shaxsga yo'naltirilgan
- Amaliy yo'naltirilgan
- Faoliyatlilik
- Vaziyatlilik
- Taktik
- Strategik
- Algoritmik
- Izlanuvchanlik
- Tadqiqotchilik
- Ijodiylik
- Ijtimoiy-madaniy
- Muhitga moslashgan
- Deterministik
- Sinergerik
- Axborotchilik
- Kommunikativlik
- Diagnostik

4. Yetakchi rivojlantiruvchi omillariga ko'ra

- Bio-genli
- Sotsio-genli
- Psixo-genli
- Idealistik

5. Tajribani o'zlashtirish va uzatishdagi ilmiy konsepsiyasiga (mexanizmiga) ko'ra

- Assotiativ-reflektorli
- Interiorizatorli (ichki rivojlantiruvchi)
- Rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya
- Interiori-zatorli
- Bixevio-ristik
- Psixoanalitik
- Geshtalt texnologiya
- Faol -faoliyat ko'rsatuvchi
- Kognitiv
- Suggestiv
- Neyro-lingvistik dasturli (NLD)
- Genetik
- Sotsioenergetik

6. Shaxsga yo'nalganlik va layoqatlilik sohalariga ko'ra

- Axborot-chilik – bilimlar sohasi
- Aqliy xatti - harakatlar sohasi
- Shaxsning o'zini - o'zi boshqarish mexanizmlari sohasi
- Axloqiy - estetik sifatlar sohasi
- Amaliy xatti-harakatlar sohasi
- Ijodiy sifatlar sohasi
- Psixologik-fiziologik rivojlantirish sohasi
- Muhim kompetentliklar

7. Mazmuni va tuzilmasining tavsifiga ko'ra

- Dunyoviy / Diniy
- Umumta'limiy / Kasbga yo'naltirilgan
- Gumanitar / Texnokratik
- Tarbiyalovchi / Valeologik / Ekologik posofiya teosafiya
- Tarbiyalovchi / Aniq predmetli
- Qa'tiy-me'yorli standartlashtirilgan / Moslashuvchan-variativ kasbga yo'naltirilgan
- Har tomonlama

8. Ijtimoiy - pedagogik faoliyat ko'rinishiga

- Ta'limiy (didaktik) / Tarbiyaviy / Rivojlantiruvchi
- Qo'llab - quvvatlavchi / Reabilitatsi-yalovchi / Yordam ko'rsatuvchi
- Ijtimoiylashtiruvchi / Moslashtiruvchi / Avtonomlashtirish / Ijtimoiy toblash
- Boshqarish / Tashxis (monitoring) / Tuzatish (to'ldirish) / Monipulyatsiyalash
- Psixologik - pedagogik / Ijtimoiy - pedagogik / Tabiiy - pedagogik / Madaniylik

9. Ijtimoiy o‘quv - tarbiya jarayonlarni boshqarish turiga ko‘ra



10. Yetakchi (qo‘llanadigan muhim) ta’lim metodlariga ko‘ra



11. Tashkil etish shakllariga ko‘ra



12. Ustuvor o‘qitish vositalariga ko‘ra

- Verbal (so‘z orqali) / Belgili
- Ko‘rsatmali (audiovizual)
- Video o‘qitish
- Dasturli
- Elektron o‘qitish vositalari
- Kompyuterli telekommunikatsion
- Masofaviy yerning sun’iy yo‘ldoshi orqali
- Amaliy

13. O‘quvchi-talabaga yondashish va pedagogik o‘zaro ta’sirlashishning yo‘nalishiga ko‘ra

- Subyekt-obyekt (majburiy) / Subyekt-obyekt (hamkorlik)
- Interfaol / Ekstrafaol
- Avtoritar / Demokratik / Liberal (erkin tarbiya)
- Didaktik ijtimoiy antriposentrik
- Shaxsga – / Faoliyatga – / Muhitga – / Yo‘naltirilgan
- Jamoaviy ta’sirga asoslangan tarbiya / Individual o‘zaro muloqotga asoslangan ta’lim tarbiya
- Hamkorlik texnologiyasi / O‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish

14. An’anaviy ta’lim tizimiga munosabat va uni modernizatsiyalash yo‘nalishiga ko‘ra

- Munosabatlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish
- Tahsil oluvchilarning o‘quv bichish faoliyatlarini faollashtirish va jadallashtirish asosida
- Tashkil etish va boshqarish samaradorligi asosida
- O‘quv materialini didaktik va metodik rekonstruksiya sh asosida
- Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya vositalari asosida
- Ijtimoiy - tarbiyaviy vazifalarni kuchaytirish asosida
- Muqobil / Tabiatga moslik
- Erkin ta’lim
- Mualliflik maktablari texnologiyalari

15. Pedagogik ta’sir obyektlarining kategoriya (tushuncha) lariga ko‘ra

- Ommaviy ta’lim
- Uzaytirilgan ta’lim
- To‘ldiruvchi (kompensatsiy alovchi) ta’lim
- Muammolari mavjud bolalar bilan ishlash texnologiyasi
- Viktimologik
- Androgogik
- Penitensiar

Hozirda mavjud bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bir qancha belgilariga qarab quyidagi turlarga ajaratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi, ya'ni quyida keltiriladigan turlargagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi. Bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.[1]

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo'llanilayotgan metodlar hamda metodik usullarning xususiyatiga bog'liq.

5.2. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASI

*«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*ni amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri – bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi.

Ammo zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Akademik A.N. Leontev *«Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir»*[2], – deb ta'kidlaydi. Ya'ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo'naltirilgan harakat hisoblanadi.

Inson faoliyati o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat,

[1] O.Abduquddusov, H.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. – T.: 2009, 138-139-betlar.
[2] Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – M.: 1977, s. 30.

tadbirkorlik faoliyati, o'quv-biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilar. Faoliyatning mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari o'zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi.

«Pedagogik faoliyat – jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yosh avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat»[1], – deya ta'riflaydi B.Ziyomuhammedov.

Pedagogik faoliyat, uning tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida juda ko'p olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, N.V.Kuzmina o'z tadqiqotlarida pedagogik faoliyatning gneseologik (bilish), loyihalash, tashkilotchilik, kommunikativ tarkibiy qismlari mavjud ekanligini bayon etib o'tgan.[2]

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish ***«o'qituvchining innovatsion faoliyati»*** tushunchasi paydo bo'ldi.

Pedagogikada **innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish** kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ***«ta'lim texnologiyasi»*** tushunchasi e'tirof etilgan vaqtda paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida o'quvchi-talabaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

[1] Ziyomuhammedov B. Pedagogika. – T.: 2001, 47-bet.
[2] Kuzmina N.V. Metodы sistemnogo pedagogicheskogo issledovaniya. Leningrad.: LGU, 2008, s. 16.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan J.Yo'ldoshev, N.Azizxo'jayeva, B.Farberman, U.Tolipov, H.Omonov, M.Ochilov, M.Jumaniyozova, Hasanov, S.Usmonov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bordilar.

I.Shumpater va N.Kondratevlar **«Innovatsiya»** tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilari hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A.Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: *«Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret subyekt nuqtayi nazaridan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin».*

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g'oyalariga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. Natijada, o'qituvchilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovor: – «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».[1]

Innovatsion faoliyat–pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga

[1] Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. – T.: 2008, 108-bet.

yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana muhimroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya (ing. ***Innovatsion – yangilik kiritish***) – *tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi.* Demak, innovatsiya o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini talaba ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, o'quvchi-talabani mustaqil mutolaaga o'rgatish, bilimlarni tayyor holda berish emas, o'quvchi-talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga harakat qilish demakdir. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashdir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).

• o'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).

• kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, *innovatsiya* boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli **«novatsiya»** va **«innovatsiya»** tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. *Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz* **novatsiya** *bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina* **innovatsiya** *deya olamiz.*

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: **novatsiya** *amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi.* ***Innovatsiya*** *esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.*

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. **Innovatsion jarayon** *deb – innovatsion o'zgarishlarga tayyogarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.*

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. **«Innovatsion faoliyat** – *bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga*

qaratilgan faoliyatdir»,-deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M.Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin va o'zbekistonlik pedagog olimlardan J.Yo'ldoshev, M.Ochilov, N.Saidahmedov, U.Nishonov, S.Usmonov, M.Jumaniyozova, Sh.Zufarov va boshqalar pedagogika fani va amaliyotida muvaffaqiyatga erishish muammosini hal qilish borasida samarali g'oyalarni ilgari surdilar va ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi asosiy o'rin egallashini asoslab berdilar.

Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

– ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
– pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
– mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
– tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
– o'zidan boshqa tadqiqotchi - pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
– hamkasblar bilan hamkorlik;
– fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
– ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
– yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: **reproduktiv, evristik, kreativ** bo'lishi mumkin.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo'lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g'oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani-texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo'yicha tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

«Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi».[1] Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

[1] Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. – T.: 2008, 111-bet.

O‘qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni **tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish** bosqichlarida amalga oshiriladi.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to‘siqlar mavjud. Bularning birinchisi o‘qituvchining o‘zi ko‘nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya’ni o‘qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo‘lsa, yana bir sabab yangi va noma’lum narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

A.M.Xon o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishda uchraydigan psixologik to‘siqlarning ikki turini ajratadi: kognitiv psixologik to‘siqlar va muntazam paydo bo‘ladigan to‘siqlar. Kognitiv psixologik to‘siqlar yangilik haqidagi bilimlarning yetishmasligi, yangilikni his qilmaslik va nofaol xatti-harakatlar hisoblansa, muntazam psixologik to‘siqlar yangilikka nisbatan ishonchsizlik, rahbariyatga ishonmaslik, tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlamaslik va odatda yangilik kirituvchilarga qarshi kurashish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.[1]

Zamon shiddat bilan o‘zgarib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini o‘zgartirishni talab etadi. Bugun o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi va boshqarishi talab etilmoqda.

Innovatsion faoliyat o‘qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo‘llashdan oldingi davrdagi o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ma’lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat ko‘rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga

[1] Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim sifat kafolati. – T.: 2008, 112-bet.

doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi.

Agar o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifalari malaka oshirish jarayonida amalga oshirilsa, amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlari ancha samarali bo'ladi hamda masofadan o'qitish tizimi kutilgan natijalarga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O'rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida *«innovatsion faoliyat»* tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lsada, bu sohada hammaga ma'qul keladigan va innovatsion faoliyatning to'liq mazmunini ochib beradigan yagona ta'rif yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Mavjud pedagogik va psixologik adabiyotlarda asosiy urg'u iqtisodiy sohadagi innovatsiyalarga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari, mazkur jarayon mohiyati ochib berilmagan. Respublikamizda esa yuqoridagi muammo doirasida ayrim elementlargina tadqiq qilingan, xolos.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi»,[1] *– deb ta'kidlab o'tilgan.* Raqobatga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirishning asosiy omillaridan biri o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, o'quvchi-talabalarga bilim berishni kafolatlash hamda ta'lim samaradorligiga erishishdan iborat.

Ta'lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar obro'-e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadamlik bilan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada o'qituvchi faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa hisoblanadi. Har qanday boshqa soha mutaxassislari kabi o'qituvchilarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko'nikma va malakalari, ijodiy salohiyati hamda nostandart tafakkurlarida o'z aksini topuvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin:

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» NMK, 1999, 50-bet.

Birinchi bosqichda – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

Ikkinchi bosqichda – mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqichda – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqichda – o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoaning alohida o'rni borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. *O'qituvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan munosabatiga qarab, K.Rodjers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini 5 ta guruhga ajratishni taklif etadi: 1. Novatorlar. 2. Oldingi realizatorlar, 3. Oldingi ko'pchilik. 4. Keyingi ko'pchilik. 5. Ikkilanuvchilar.*[1]

Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o'qituvchi bo'ysunuvchi, *ya'ni yangilikning faqat iste'molchisi* bo'lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'nggi yangiliklarni olib kirib, o'quvchi-talabalarga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin.

5.3. TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi

[1] Роджерс К., Ангеловский К. Учител и инновация. – Киев, 1992, с. 24.

metodlar **interfaol metodlar** nomi bilan yuritilmoqda. Lekin **«Interaktiv»** dars metodini «interfaol» deb chala tarjimasini amaliyotda qo'llash mazmunan va mantiqan xatodir. Chunki **«Interaktiv»** atamasi inglizcha **«Interaktive» – «o'zaro harakat va ta'sirlanish»** degan qo'shma so'zdan iborat, agar tarjima qilish zarur bo'lsa, unda har bir so'zni tarjima qilish kerak.

Interaktiv ta'lim metodlari o'quvchi-talabalarning muloqot va o'zaro bahs-munozarada fikrlashish asnosida, dars jarayonini amalga oshirishdir. **«Interaktiv»** atamasi inglizcha **«Interakt»**, ya'ni **«Inter» – «o'zaro», «akt» – «harakat, ta'sir, faollik»** degan ma'nolarni anglatadi.[1]

Interaktiv ta'lim metodlaridagi darslar o'quvchi-talabalarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Darsni interaktiv metodlarda tashkil etish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Interaktiv ta'lim shakli quyidagicha namoyon bo'ladi:

3-shakl



Interaktiv metod – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi-talabalarning muloqotlarida sodir bo'ladi. Interaktiv ta'limning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchi-talabalarning faol, erkin, mustaqil fikr yuritishiga muhit

[1] Mualliflar V bobni yozishda J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva, O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, O.Quddusov, X.Xabib, G.Eldasheva, A.Zokirov, Yo.Rahmonova, D.Razzoqovlarning materiallaridan foydalanganimiz uchun alohida minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

yaratishdir. O'quvchi-talabalar o'zlarini intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi, ta'min etadi.

Interaktiv metod asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi-talaba chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchi-talabalar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylikni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta.

Dialog asosida kechgan o'quv jarayonlarida o'quvchi-talabalar tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o'zaro munozaralarda erkin bayon qilishga o'rganadi va shunday ko'nikmalar shakllanadi.

Interaktiv metod asosida darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjatlar bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Interaktiv metod nimalarni o'z ichiga oladi? Hozirgi kunda metodistlar, amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan quyidagi turli metodlar taklif etilgan:

- juftlikda ishlash;
- tarozi;
- korusel;
- yelpig'ich;
- kichik guruhlarda ishlash;
- qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash;
- akvarium;
- nuqtayi nazaring bo'lsin;
- tugallanmagan gaplar;
- aqliy hujum;
- yangi fikriy hujum;
- fikrlarning shiddatli hujumi;
- 6 x 6 x 6;

– klaster;
– qarorlar shajarasi;
– tajriba vositasida o'qitish sikli;
– broun harakati;
– yo'naltiruvchi matn;
– daraxt yechimi;
– beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ortiqcha);
– o'z nomimdan so'zlayman;
– 3 x 3; (4 x 4; 5/5, ...);
– fuqarolar eshituvi;
– rolli o'yinlar;
– ishbop o'yin;
– press metod;
– o'z pozitsiyasini egallash;
– bahs-munozara;
– muammoli vaziyat;
– debatlar;
– davra suhbati;
– loyiha va hokazolar.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

«MUAMMOLI VAZIYAT» METODI

«Muammoli vaziyat» metodi – ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

«Muammoli vaziyat» metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. *«Muammoli vaziyat» metodi* qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

«Muammoli vaziyat» *metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi. Quyida *«Muammoli vaziyat»* metodining tuzilmasi keltirilgan:

4-shakl



«LOYIHA» METODI

«Loyiha» metodi – bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtayi nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi **«Loyiha» metodining** bosqichlari keltirilgan:

5-shakl



«Loyiha» metodi*ning bosqichlari quyidagilardan iborat:*

1. Pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar Ta'lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda *«Baholash varaqasi»*ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini *«Baholash varaqasi»*da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot, loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Pedagog **«Loyiha» metodi**ni qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlashi lozim.

«Loyiha» metodi quyidagicha amalga oshiriladi:

- yakka tartibda;
- kichik guruhda;
- jamoada.

«YO'NALTIRUVCHI MATN» METODI

«Yo'naltiruvchi matn» metodi – ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda yo'naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan metoddir.

«Yo'naltiruvchi matn» metodining barcha bosqichlarida pedagog faoliyati **«passiv»**, ta'lim oluvchi faoliyati esa **«aktiv»** bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatadilar. **«Yo'naltiruvchi matn»** metodidan o'quv amaliyot darslarida foydalaniladi. Ushbu metodni o'tkazish bos-

qichlari «**Loyiha metodi**»ning bosqichlari bilan bir xildir. Ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida ta'lim oluvchi mustaqil ishlaydilar. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta'lim oluvchi va pedagog orasida «**qaytar aloqa**» o'rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Ta'lim oluvchilarga boshlang'ich bosqichlarda pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga chizmalar, jadvallar, yo'naltiruvchi savollar, testlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

Quyida «**Yo'naltiruvchi matn**» **metodi**da pedagog va ta'lim oluvchilarning faoliyati keltirilgan:

6-shakl

«Yo'naltiruvchi matn» metodida pedagog va ta'lim oluvchilarning faoliyati tuzilmasi

PEDAGOG FAOLIYATI	TA'LIM OLUVCHI FAOLIYATI
O'quv materiallarini va yo'naltiruvchi savollarni berish	Mustaqil ravishda ma'lumot yig'ish
Oldindan tayyorlangan rejalashtirishga oid varaqalarni tarqatish	Mustaqil ravishda reja tuzish
Takliflarni muhokama qilish	Mustaqil ravishda qaror qabul qilish
Muammolarni muhokama qilish	Mustaqil ravishda amalga oshirish
Baholash varaqalarini birgalikda ishlab chiqish	Mustaqil ravishda tekshirish
Birgalikda xulosa chiqarish	Mustaqil ravishda xulosa chiqarish

Quyida «Yo'naltiruvchi matn» metodining tuzilmasi keltirilgan:

7-shakl





1. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar, yo'naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar va **«Yo'naltiruvchi matn»** tuzadilar.

2. So'ngra ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda **«Yo'naltiruvchi matn»** asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, ta'lim vositalari va texnik vositalar rejalashtirilishi lozim.

YO'NALTIRUVCHI MATN:

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

ISH REJASI

№	Ish tartibi	Zarur bo'l-gan ta'lim vositalari	Vaqt

3. Ta'lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Ta'lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo'yicha qaror qabul qiladilar, pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlarda amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Pedagog topshiriqning bajarilishini **«Baholash varaqasi»**ga qayd qilib boradi.

BAHOLASH VARAQASI

№	Mezonlar	O'quvchi-talabaning F.I.Sh.

BAHOLASH VARAQASI

№	O'quvchi-talabaning F.I.Sh.	Mezonlar

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlari tekshiradilar va *«Baholash varaqasi»*da sifat mezonlari, ya'ni talab etilgan me'yorlar beriladi va ular erishilgan natija bilan taqqoslanadi.

6. Pedagog va ta'lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta'lim oluvchilarning natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

«Yo'naltiruvchi matn» metodi «Loyiha» metodi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtayi nazar bo'yicha farqlash mumkin:

- *«Yo'naltiruvchi matn» metodi* ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan;
- *«Loyiha» metodi* esa ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o'rganishda kerak bo'ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida interaktiv metodlarning yuqorida qarab o'tilgan shakllaridan foydalanish o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etadi. Interaktiv metodlar nafaqat o'quvchi-talabalarga bilim berish, balki ularda ijodiy fikr yuritish, mustaqil bilim olish, kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bunga esa ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining bir-biriga o'zaro ishonchi, hamkorligi va jonli muloqoti orqali erishiladi.

Demak, ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Ana shu hamkorlik natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini faollashtirish va namoyon etish xususiyatlari shakllanadi va rivojlanadi.

5.4. LOYIHALI TA'LIM METODI

Loyiha – ko'pincha iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy ishlarni amalga oshirish holatlarida qo'llanilgan. Bu atama pedagogikaga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bunday yo'nalishdagi o'qitish loyiha asosida istiqbolli o'qitish metodi deb qaraladi.

Loyihali metod asosida o'qitish o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv mahsulini olishda samarali bo'lib, o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi.

Darsni interaktiv loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng dolzarb, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinmoqda. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq ijtimoiy masalalar yechimiga qaratiladi.

Jumladan, ilmiy izlanishlarni, ijodkorlikni, axborotlarni, amaliy masalalarni yechish va hal etishda qulaylik tug'diradi.

Loyihali metod asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi-talabalar fikr almashadilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Loyihali metod asosidagi darslarning boshqa metod (usul)lardan farqi shundaki, o'quvchi-talabalar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib o'zlari himoya qiladilar.

Dars loyihalari individual va guruhlarga mo'ljallab tuziladi. Yakka shaxsga qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki: umumo'quv-biluv ko'nikmalarini egallashda o'quvchi-talabalarning o'quv mehnatiga shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning pirovard natijasi o'quvchi-talaba shaxsining o'zigagina bog'liq bo'ladi.

Loyihali metod asosida guruhlarga bo'linib darsni tashkil etishda o'quvchi-talabalar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik holatlari asosida ish yuritiladi va ishni bunday asosda tashkil etishda dars samaradorligi kafolatlanadi.

Har bir o'quvchi-talaba o'zining bor qobiliyatini ishga soladi. Loyiha yechimini topishga faol kirishadi.

Dars loyihalari o'zining davomiyligiga qarab:

– kichik loyihalar (bir soatli);
– qisqa muddatli loyihalar (4 soatga mo'ljallangan);
– haftaga mo'ljallangan loyihalar;
– uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari qo'shimcha ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyihali metod asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o'quvchi-talabalarni jarayonga qiziqtira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O'quv jarayonini loyihali metod asosida tashkil etishda o'qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o'tashi talab etiladi.

O'qituvchilar loyiha rahbari sifatida yuqori madaniyatli, ijodkor, izlanuvchan, tashkilotchi bo'lmog'i kerak.

Loyiha shunday tuzilishi kerakki, u o'quvchi-talaba shaxsiga qaratilib, uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat etishi kerak.

Loyihali metodlar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi fidoyilik ko'rsatishi, o'quvchi-talabani ruhlantirishi, ularni qiziqtirish orqali pirovard maqsadga erishishi talab etiladi.

Loyihali metod asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak.

Bundan tashqari dars jarayonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak.

Loyihali metod asosida darslarni tashkil etish juda murakkab jarayon, bunda har bir o'quvchi-talabaning mustaqil ishlashini tashkil etish muammosi yotadi. Ya'ni qaysi vazifalarni o'qituvchi bajarishi kerak. Qaysilarini o'quvchi-talabalarning o'zlari hal etishlari kerak va qaysilarini o'zaro hamkorlikda amalga oshirishni oldindan ko'ra bilish kerak, bularning hammasi loyihada ko'zda tutilmog'i talab etiladi.

O'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi ko'pgina omillarga jumladan: yoshiga, shaxsiy xarakteriga, moyilligiga, istak-xohishlariga, ilgari loyihali metod asosida ishlagan-ishlamaganligiga, loyiha mazmunining murakkabligiga, guruhlarda ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Loyihali metod asosida dars jarayonini olib borishda o'quvchi-talabalarning imkoniyati, qobiliyati, umumtayyorgarlik darajalari hisobga olinmog'i lozim.

Loyihali metod asosida o'qitish faoliyati mazmuni o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

Bunda:

1. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning o'quvchi-talabalar tomonidan bajarilishi ko'zda tutiladi.

2. O'quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin.

3. Loyihali metod asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi.

4. Loyihali metod asosida o'quv faoliyatini tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi.

5. Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlarga qaratilgan bo'ladi.

6. Loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli aniqlangan, o'quvchi-talabalar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari kelishilgan bo'ladi.

7. Ayrim hollarda o'quvchi-talabalarning xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

8. O'quv yili davomida o'rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferensiyalarda, pedagogik kengashlarda, metod-birlashmalarda o'tkazish, himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o'tkazish mumkin.

Dars jarayonini loyihali metod asosida tashkil etish bosqichlari quyidagicha:

1. O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash.
2. Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish.
3. Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish, beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash.
4. O'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni ifoda etish.
5. Darsning shakli, metod, vositalarini tanlash.
6. Tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini olish.
7. Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini yaratish.
8. Nazariy jihatdan olib borish, testlar va intellektual trening savollarini ishlab chiqish.
9. Loyihali metodni dars jarayoniga tatbiq etish.
10. Dars jarayonini olib borish va yakunlash mexanizmini yaratish.

Loyihali metod asosida tashkil etilgan dars jarayonida o'quvchi-talabalarning:

- ehtiyoji;
- qiziqishi;
- xohishi;
- maqsadi;
- qobiliyati;
- faoliyati;
- intellekti

hisobga olinishi talab etiladi. Dars jarayonida o'quvchi-talabani individual xususiyati va imkoniyatlari hisobga olinishi zarur.

Navbatdagi darsni loyihalashtirishda har bir o'qituvchi oldida doim bir savol ko'ndalang turadi, ya'ni darsning maqsadi, vazifasi, ketma-ketligi, izchilligi, yaxshilash holatlarini qanday tashkil qilish kerak?

Dars maqsadini belgilash va uni amalga oshirishda quyidagicha ish yuritish maqsadga muvofiq:

- o'quv materialini tanlash;
- uni didaktik talablar asosida tashkil etish;
- foydalaniladigan metod va jarayonni jihozlash;
- o'z faoliyatini funksional tashkil eta olish;
- o'quvchi-talaba shaxsi va guruhlarda ish faoliyatini tashkil etish.

Loyihali metod asosida darslarni amalga oshirishda guruh rahbarining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Biror muammoli vaziyatni, mavzuni tanlash va shakllantirish, g'oyani oldinga surish, loyiha ssenariysini tuzish, vazifalarni belgilash, tizimga tushirish va yechimini hal etish.

2. Loyihani shakllantirish bo'yicha ixchamlashgan annotatsiya tuzish, so'nggi erishiladigan mahsulni va uning zaruriyatini aniqlash.

3. To'plangan mavzuni aniqlashtirish, loyiha materiali, strukturasini belgilash, loyiha hajmini aniqlash, loyiha yechimida har bir ishtirokchining izlanish olib borishdagi roli, o'rnini belgilash.

4. Loyiha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ish jarayonini olib borish va muddatlarini doimiy nazoratga olish.

5. Loyihani shakllantirishda, uning mazmunini bayon qilishda kamchiliklarni aniqlash va hujjatlashtirishda doimiy maslahatlar berib borish.

Xulosa qilib aytganda, o'quv faoliyati puxta o'ylangan loyihali metod asosida tashkil etilsa, har bir o'quvchi-talaba uning yechimida faol ishtirok eta olsa, o'quv jarayoni samarali kechadi. O'quv jarayonini dars jarayonidayoq ongli ravishda to'la o'zlashtirish kafolatlanadi.

5.5. MUAMMOLI TA'LIM METODI

Ta'lim maqsad va vazifalariga ko'ra muammoli va an'anaviy bo'lishi mumkin.

Agar ta'lim muassasasi o'z oldiga o'quvchi-talabalarning fikrlash qobiliyatlari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda pedagogik jamoaning muammoli ta'lim metodi asosida faoliyat yuritishi va malakalarini shakllantirishi zarur. Shuningdek, o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga va o'quv-biluv jarayoniga **«muammoli o'qitish»** didaktikasini joriy etib borish asosiy ish jarayoniga aylanmog'i kerak.

Muammoli ta'lim metodi ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv jarayoniga ehtiyoji qiziqishi, xohishini orttirishga sabab bo'ladi.

Agar o'qituvchi muammoli ta'lim metodining mazmun - mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakli va metodlarini, texnik jihatdan jihozlanishni amalda qo'llay olsa, u o'z-o'zidan muvaffaqiyat keltiradi.

O'qituvchining didaktik jihatdan yaxshi tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki muammoli ta'lim metodining nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o'rganish – o'quv jarayonini san'at darajasiga olib chiqish demakdir, u o'z navbatida o'quvchi-talabalarning ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishiga kafolatdir.

Muammoli ta'lim metodini muvaffaqiyatli kechish shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchi-talabalarning faolligini tashkil etish.
3. O'qitishning o'quvchi-talabalar hayoti, turmush tarzi, mehnati, o'yin bilan aloqasi.

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari:

1. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni ziddiyat holatiga keltiradi va o'zlaricha yechimini topishni taklif qiladi.
2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.
3. Bir savolning o'ziga har xil fikrlarni bildiradi.
4. Hodisani har xil pozitsiyadan ko'rib chiqishni taklif qiladi.
5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
6. Aniq savollar qo'yadi, yechimini so'raydi.
7. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini so'raydi.

Muammoli ta'lim metodining nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari oldida turgan bosh maqsad o'quvchi-talabalarni har tomonlama barkamol avlod bo'lib rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'quvchi-talaba shaxsini har tomonlama barkamol rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy omil uning yuqori darajada mustaqil fikrlay olishida namoyon bo'ladi.

Agar muammoli ta'lim metodi o'quvchi-talabalarni mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish mumkin.

O‘quvchi-talabalarni faollashtirishda samarali metod, usullarni an’anaviy ta’limni amalga oshirishda didaktik yondashuv asosida olib borilishi deb tushuntiradilar.

O‘quvchi-talabalarning aqliy fikrlashlarini tayyor mavjud bo‘lgan yo‘llar bilan o‘stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo‘lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabalar tahlillar asosida qo‘llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o‘zi mustaqil yangi axborotni oladi. Boshqacha aytganda, bu bilimni kengaytirish, chuqurlashtirishni ilgarigi olgan, o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zlashtirish, qo‘llay bilishdan iborat.

Olgan bilimlarini yangicha qo‘llashda o‘qituvchi qo‘llanma, darslikdan tayyor holda bermaydi, u o‘quvchi-talabalar tomonidan mustaqil izlab topiladi. Mana shu holat izlanuvchanlik, sinchkovlik metodida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Aqliy izlanish – juda murakkab jarayon, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar kuchaygandagina vujudga keladi. Agar o‘qituvchi topshiriq berib, uni qanday bajarish yo‘lini aytib, uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o‘quvchi-talabalarni tanho yechimga o‘rgatadi xolos.

O‘quvchi-talabalarni haqiqiy faollashtirish, ularni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy, amaliy tomonlarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o‘zi o‘ylagandek yakun toptirishga olib kelishi kerak.

Muammoli ta’lim metodi an’anaviy ta’limdan o‘zining maqsad, prinsip, metodlari, vazifalari jihatdan keskin farq qiladi. An’anaviy ta’limning bosh maqsadi ilgaridan fanga ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quvchi-talabalarni fan haqida ma’lum ma’lumot bilan qurollantirish, ularda tushuncha va malakalar hosil qilishdan iborat.

Muammoli ta’lim metodi darajalari bosqichlari:

Birinchi bosqich – o‘qituvchi muammoni to‘liq yoritadi va uni yechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o‘quvchi-talabalarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich – o‘qituvchi muammoni qo‘yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o‘quvchi-talabalarni muammo yechimini mustaqil izohlashga yo‘naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchi-talabalar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.

To'rtinchi bosqich – bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni va yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchi-talabalar mustaqil faoliyatga yo'naltiriladi.

Muammoli ta'lim metodida o'qituvchi o'quvchi-talabalarni murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida sistemali ravishda muammolar qo'yib beradi, o'quvchi-talabalarga axborot beradi, o'quvchi-talabalar mustaqil ravishda xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushunchalar, qoidalar, xulosalar chiqaradilar.

O'qitish – shunday holatki, o'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bir vaqtda shu yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muammoni hal etishga undaydi.

Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat.

Muammoli o'qish – o'quvchi-talabalar o'quv-biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo'yicha takliflar, gipotezalar keltiradilar, qarashlarining to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo'lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma'lum va noma'lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqa olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, mahsulot olishga yo'l ochadi.

Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatdan chiqishda sermahsul ishlay olish, chiqa olish ketma-ketligi aniqlangan. U quyidagicha ko'rinishga ega:

Muammoli vaziyat------muammo------uning yechimini izlab topish------muammoning yechimi.

Muammoli vaziyatlardan aqliy harakat orqali chiqish ketma-ketligi bir qancha bosqichlardan iborat:

– muammoning vujudga kelishi;

– qiyinchilik nimadan iboratligini tushunib olish;

– uning yechimi yo'llarini qidirib topish, bunda yechim bo'yicha fikr, takliflarni keltirish, isbotlash;

– taxminlarni isbotlash;
– muammo yechimining to‘g‘riligini tekshirish.

8-shakl



Muammoli ta’limning umumfunksiyalari:

– bilimlar tizimining o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘zlashtirib olinishi va aqliy-amaliy, ijodiy yechimlar faoliyati;

– mustaqil ravishda bilimga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi, o‘quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatlari o‘sishi;

– o‘quvchi-talabalarda dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi.

Muammoli ta’limning o‘ziga xos funksiyalari:

– ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashi orqali bilimlarni o‘zlashtirishi shakllanadi (ayrim mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyatlarining shakllanishi);

– olgan bilim, malakalarini hayotda qo'llay olishlari shakllanadi (olgan bilimlarini yangi sharoitda qo'llay olishlari), o'quv muammolariga mustaqil yo'l ochish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

– ijodiy fikrlash tajribalari shakllanadi, ilmiy metodlar asosida izlanishga o'rganadilar, ularni amalda qo'llaydilar.

Ilmiy izlanish tajriba-sinovlar, pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlarni hamma o'quv faoliyatlariga nisbatan quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

Birinchi tip.

Agar o'quvchi-talabalar oldiga vazifalar qo'yilib, qo'yilgan masalalarga hayotdan o'quv materiali asosida javob talab qilinsa, muammoli vaziyat kelib chiqadi.

Ikkinchi tip.

O'quvchi-talabalar ilgarigi darslarda olgan bilimlarini yangi mavzuni o'zlashtirish vaqtida qo'llash zarurligiga uchrab qolsalar. Yangi mavzuning yechimi ilgarigi olgan bilimlarini o'zlashtirganliklarini talab etib, vaziyatdan chiqa olmay qolsalar.

Uchinchi tip.

Muammoli vaziyatlarni shunday holatlarda ham uchratish mumkinki, o'rganilgan nazariy bilimlar yechimida mavzuni o'rganish amaliy yechimlarga mos kelmasa.

To'rtinchi tip.

Muammoli vaziyat shunday hollarda ham uchrashi mumkinki, o'quv topshirig'ini amalda bajarish uchun o'qituvchida isbot, nazariy asos bo'lmasa.

Muammoli o'qitish metodlari:

1. Mavzuni muammoli bayon etish jarayonida pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va uning mustaqil yechimini qidiradi, topadi.

2. Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchi-talabalarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, yechimini topadilar, xulosalaydilar.

3. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchi-talabalar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.

4. Muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarning o'zlari tomonidan vujudga keltiriladi. Uning yechimini boshqa o'quvchi-talabalar izlanish,

yangicha fikrlash orqali topadilar, o'zaro yechim qidiradilar. O'qituvchi yo'llanma, ma'qullash orqali passiv ishtirok etadi.

Muammoli ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot olib borgan M.I.Maxmudov, M.N.Skatkin, A.M.Matyugikven, I.Ya.Larner, J.Yo'ldoshev kabi olimlarning xulosalariga ko'ra quyidagi metodlarni keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- reproduktiv;
- muammoli bayon qilish;
- ilmiy-izlanishli metodlari mavjud.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish metodlari juda zarur va kerak. Chunki muammoli ta'lim metodi o'quvchi-talabalarni izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikrlashga o'rgatadi. O'quvchi-talabalarda bunday sifatlarning shakllanishi, o'quv-biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish uning kundalik odatiy holatiga aylanadi. Bu esa ta'lim mazmunini, yangi dastur va Davlat ta'lim standartlari (DTS)ni o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

5.6. KREATIV TA'LIM METODI

Kreativ ta'lim metodi o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta'limlarning qo'llanishi o'quvchi-talabalarda yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi.

An'anaviy shaklda olib boriladigan ta'lim o'quvchi-talabalarga ilgaridan ma'lum axborot, bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarni berish bilan chegaralanadi.

Lekin kreativ ta'lim metodi asosida tashkil etilgan orientatsiyadagi darslar jarayonida qabul qiluvchi obyektdan ijodkor (kreativ) subyektga aylanadi. Predmetni (tomoni, mazmuni) o'zlashtiruvchi o'ziga nisbatan yaratuvchanlik bilan yondashish asosida o'zlashtirib oladi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy qaray oladi. Olinayotgan o'quv materiali unga yangicha qarash, qo'shimcha materiallarni olish, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Ko'pincha bunday hollar o'zlashtirishga evristik yondashuvni shakllantiradi.

Bu esa malakali mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko'nikmasining faqat ijrochisigina bo'lib qolmay, balki o'z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.

Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan malakali mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Sir emaski, mamlakat taraqqiyotida texnologiya, xomashyo, jihozlar, energo resurslar, ekologik o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Umuman, ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, **Davlat ta'lim standartlari (DTS)** takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning zamonaviy texnologiyalari, *masofaviy, loyihalangan ta'lim, media ta'limini,* ya'ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Kreativ ta'lim metodining maqsad va vazifalari hozirgi mavjud ta'lim asosan ilgaridan mavjud bo'lgan an'anaviy didaktikaga asoslangan, ya'ni o'quv jarayonida ilgaridan fanga ma'lum bo'lgan bilimlarni o'qitish, o'rgatish, yetkazish bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ilgaridan ma'lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o'quvchi-talabalarning ta'lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ya'ni ta'lim ilgaridan ma'lum predmet *«avval hunar o'rgat, keyin shogird o'z xohishicha nimani ijod qilsa - qilaversin»* yo'sinida ish tutish rasm bo'lgan.

Bunday holda bilim olish konsepsiyasi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

– bilim bilan tanishish, ma'lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-biridan ajrata olish;

– bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;

– bilim - malaka, olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish;

– bilim-transformatsiya, olgan bilimlarini, keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qo'llash (ya'ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Agar umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari birinchi, ikkinchi darajadagi bilimlarni o'rgatsa, oliy ta'lim uchinchi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'rtinchi darajadagi, ya'ni ilmiy izlanish, stajer-tadqiqotchilar tomonidan bilimni egallash va davom ettiriladi. Undan keyingi ta'lim esa *«beshikdan qabrgacha»*, ya'ni *«umr bo'yi uzluksiz»* ta'lim davom etadi.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsni, malakali mutaxassisni tarbiyalash – fanga ma'lum bo'lgan bilimlarning o'zinigina o'zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Bunga yorqin misol, ulug' allomalarimiz Muso al-Xorazmiy matematika fanining asoschisi, al-Farg'oniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, al-Forobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin so'zlashgan), tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) mineralogiya, geodeziya, jo'g'rofiya, falakiyot (astronomiya), tarix, tilshunoslik, falsafa va boshqa fanlar rivojiga qo'shgan katta hissasi, Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» va boshqa asarlari, Ulug'bekning «Zijji Ko'ragoniy», «Tarixi arba ulus» («To'rt ulus tarixi») asarlari hozirda ham mamlakatimizda va ko'plab Yevropa mamlakatlarida o'qib o'rganilmoqda. Ularning kashfiyotlari butun jahon xalqlarining umummulkiga aylangan. Bu shundan darak beradiki, allomalarimiz o'z davrida mavjud bilimlarni chuqur va puxta o'rganib, o'zlashtirib qolmay, ular o'z ishlariga izlanuvchanlik va ijodkorlik bilan yondashib, juda ko'plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun yangilangan didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma'lum bo'lgan bilimlarning o'zini o'rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularning ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga zamin yaratib bormoqdan iborat.

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi – o'quvchi-talabalarning intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak.

Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40 % iste'dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekan. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoniga faqat an'anaviy ta'lim asosida yondashilsa, undagi ijodkorlikka moyillik so'nib boradi.

O'quv-biluv ijodkorlikka yo'naltirilsa – uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Masalan:

1. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina obyektning o'zi bilangina cheklanmay, ya'ni subyekt (o'quvchi-talaba)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya'ni ijodkorlikka yoshlikdan o'rgatish mumkin va zarur;

2. Umuman ulug‘ kashfiyot namoyondalari fikrlash algoritmini yaxshi o‘zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo‘lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

Create – *lotincha so‘z bo‘lib – yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’noni beradi.*

Yaratuvchanlik va ijodkorlik metodlarini yaratishni, o‘rgatishni **kreativ pedagogika** *o‘rgatadi.*

Agar ta’lim jarayoni o‘quvchi-talabalar faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi.

Ijodkorlik va madaniyatlilik o‘quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonidan tashqari vaqtda *«ilmiy-texnik ijodkorlik asoslari» yoki «texnik loyihalash ijodiy asoslari»* va boshqa ilmiy izlanish yo‘nalishidagi to‘garaklar tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning loyihalash ijodkorligi oshib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo‘naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo‘lib yetishishiga sabab bo‘ladi. Tarixan ta’lim ikki madaniyat yo‘nalishida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi, gumanitar – badiiy yo‘nalishda bo‘lsa, ikkinchisi ilmiy va texnika yo‘nalishi. Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish konsepsiyasida texnika ta’limini insonparvarlashtirish va nazariy muhitda rivojlanishning asosi qilib olingan. Aniq fanlarning ham rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot-informatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lash yaxshi natijalar bermoqda. Ta’lim bilan bog‘liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa:

3. Dizayn bilan bog‘lashda yaxshi natijalarga olib keladi. Shuning uchun kreativ pedagogika shu loyihalashtirishga asoslangan bo‘ladi. Hozir texnik jihatdan katta o‘sish, o‘zgarishlar davri;

4. O‘z navbatida ta’lim jarayoni oldiga vazifalar qo‘ymoqda, ta’lim oluvchi olgan bilimlarini o‘zlashtirib, ko‘paytirib borishdan tashqari, o‘quv-biluv jarayonida qo‘shimcha bilimlar berish orqali ijodiy yondashuvga moyilliklari ortib boradi;

5. Ta’limni olib boruvchi – o‘quv jarayonini olib boruvchi, o‘quvchi-talabalar o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi o‘quv-biluv mas’uliyatini o‘z bo‘yniga oluvchi hamdir;

6. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar, yangi o'quv obyektlari o'quvchi-talabalarning tafakkurini abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlar yuritishga olib keladi.

7. O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o'quvchi-talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi.

Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish ehtiyojini tug'diradi.

Xullas, o'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

1. O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchi-talabalarni izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida ularni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchi-talabalar o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O'quv materillariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvchi-talabalarning ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Umuman, o'quvchi-talabalar faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida tashkil etsa, o'quvchi-talabalarda sekin-asta ko'nikma va malaka shakllana boradi.

5.7. EVRISTIK TA'LIM METODI

O'quvchi-talabalarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda *evristik metodlar* asosidagi ta'lim alohida o'rin tutadi.

«Evristika» – grekcha so'z bo'lib, **«heurist» so'zni «izlayman», «topaman», «ochdim»** ma'nolarini beradi. Umuman, evristik ta'lim metodi juda uzoq antik zamonlardan beri qo'llanilib kelinadi. Birinchi bora ta'lim jarayonida qo'llanilganda – evristik suhbatlar yo'naltirilgan, ketma-ket berilgan savollarga javob berish jarayonida shakllangan, savollarga javob berishda javoblar o'quvchi-talabalar tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.[1]

[1] Saytlar: http://evrika.tsi.lv/center.php - Evrika - nauchnyiy portal.
http://msk.treko.ru/show_dict_205 - Evristika.

Pedagogikada o‘quvchi-talabalar fikrini rivojlantiruvchi, maqsadli, sermahsul izlanishlar asosida qo‘llana boshlagan.

Ko‘proq bu usulni birinchilardan bo‘lib matematik olimlar, o‘qituvchilar iste’molga kiritganlar. Ko‘pincha uni *«matematik yechish san’ati»* metodlari shaklida qo‘llash ma’qul ko‘rilgan.

Keyinchalik uni boshqa o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonida ilg‘or universal metodlar sifatida ham qo‘llashga harakatlar - o‘rganishlar bo‘lgan.

Bu muammo bilan o‘z davrida filosof va grek matematigi Papp Aleksandriyskiy, keyinchalik fransuz filosof va metematigi R.Dexretlar shug‘ullanib, *evristik ta’lim universal metoddir* degan fikrga kelganlar.

Ilg‘or metod sifatida uni Yan Amos Komenskiy ta’lim tizimiga kiritish zarurligini uqtirgan. U evristik metoddan ta’lim jarayonida foydalanishda shaxsning o‘ylashi, *«ijodiy fikr yuritishi zamirida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi»*, deb ta’rif beradi.

Rus pedagogi P.K.Kopterev xalq maktablarida evristik ta’lim metodlarini keng qo‘llash ijodiy fikrni yurituvchi shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi, degan fikr bildiradi.

Evristik ta’lim metodi pedagogika nazariyasiga XX asrning ikkinchi yarmidan kirib kela boshladi. Ayniqsa, o‘quv jarayoniga kibernetikaning kirib kelishi, ilmiy izlanuvchanlik, ijodkorlik, yangiliklar yaratishga ehtiyojning oshishi munosabati bilan ta’lim jarayonida keng qo‘llashni taqozo eta boshladi.

Hozir fanda evristika yo‘nalishi mustaqil rivojlanmoqda. Biror yangilikni yaratish g‘oyasi ilgari surilgandan keyin yangi ixtiyoriy harakat dasturi tuziladi, shu vaziyatdan chiqish yoki jadallashtirish uchun yangicha ijodiy, nostandart fikrlash orqali yangilik yaratiladi.

Fikrlash jarayoni (analiz, sintez, umumlashtirish) orqali ayrim operatsiyalar ketma-ketlikda yangicha yondashuv orqali yechiladi, hal etiladi.

Evristikaning fan sifatidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- **hosila beruvchi jarayonlarni o‘rganish. Unda kechadigan o‘ziga xos psixologik kechinmalarni o‘rganish va bilish. Insonning evristik faoliyati yoki elementlari orqali real vaziyatni ajrata olish va uni xotirada saqlash;**
- **evristik faoliyatni yuritish uchun (model) sharoitni yaratish prinsiplarini o‘rganish;**

---

http://www.eduhmao.ru/portal/dt?last=false&provider=HMAOArticlePageContainer&HmaoArticleId=ARTICLE_47714&hMAOsECSId=SECTION_29973 – Развивающее и евристическое обучение.

• **evristik faoliyatni yuritish, tashkil etish uchun vaziyatni modellashtirish;**

• **evristik faoliyatni yuritish uchun maqsadga yo'nalgan evristik tizimni, qonuniyatlarini shakllantirish va yaratish;**

• **evristik faoliyatni joriy etish qonuniyatlarini amalga oshirish uchun texnik jihozlar konstruksiyasini yaratish.**

Evristika fan sifatida o'z kategoriyasi, evristik faoliyat, evristik elementlar apparati, evristik tizim, evristik strategiya, evristik metod, evristik qoida, evristik yo'l kabilarni o'z ichiga oladi.

Evristik metodlar va ulardan foydalanish yo'nalishlari:

• *ma'lum qonuniyat va prinsiplarga suyanadi.*

• *g'oyani muammoliligi va optimalligi (masalaning yechimidagi bosh, optimal g'oya);*

• *axborotni bo'lim, bloklarga taqsimlash (maqsad, vazifalar yechimidagi ketma-ket, kichik yo'nalishlarni yechishga yo'naltirilganlik).*

Bunday metodlarda tashkil etilgan mashg'ulotlar shu bilan ajralib turadiki, u istalgan muammoni yechishda shaxsni ijodiy yondashuvga, intuitiv fikrlashga olib keladi. Lekin bu metod har doim ham g'oyalar yechimida absolyut yutuqlarni olib kelavermaydi.

Evristik metodlarning turlari quyidagilar:

KO'P O'LCHAMLI MATRITSA METODI

Bu metod ilmiy izlanuvchi va yaratuvchining morfologik-taktik muammolariga suyanadi:

• *yechilayotgan g'oyaning ayrim elementlari ma'lum darajada ilgaridan ma'lum;*

• *g'oyaning yechimida uning ayrim qirralari va elementlari noma'lum;*

• *muammo yechimi ma'lum emas.*

Ko'p o'lchamli matritsa metodi sistemali yangicha tahlilga suyanadi, muammoni hal etishda ma'lum prinsiplarni o'z ichiga olganligi uchun ko'pgina xatoliklarning oldini olish imkonini beradi.

Bu metod ko'pgina murakkab bo'lgan ijodiy muammolarni hal etib qolmay, ko'pgina yangi-yangi g'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ko'p o'lchamli matritsa metodining o'ziga xos kamchiligi ham mavjud. U shundan iboratki, o'rtacha qiyinchilikdagi vazifalar yechimida juda ko'plab variantdagi javob variantlarini keltirib chiqaradi. Bu o'z o'rnida ular ichidan eng optimalini tanlashga qiyinchilik tug'diradi.

Bu metod izlanayotgan muammoning hamma parametrlarini ochib berish kafolatini bera olmaydi. Ko'p o'lchamli matritsa metodi asosida ishlash juda katta ko'nikma va mahorat talab etadi.

ERKIN ASSOTSIATSIYALI METOD

Evristik faoliyatni yuritish – bu metod yuqori darajadagi ijodiy faoliyatni baholashda, g'oyalarni ilgari surishda yangi-yangi assotsiatsiyalarni izlab topish imkonini yaratadi. Bu muammo o'z yechimida yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi, muammoning yechimini topish jadallashadi.

Bu metodda assotsiatsiyaning vujudga kelishi tufayli yechilishi zarur bo'lgan muammo komponentlarining, tashqi muhitning o'zaro bog'lanishlari ro'yobga chiqadi. Tashqi muhit bilan ijodiy jamoaning ijodkorona fikrlari to'qnashuvi imkonini tug'diradi.

Bu metodda ishni tashkil etishda o'quvchi-talabalar jamoasining har bir a'zosi faol ishtirok etishi, ishtirokchi o'z assotsiatsiyasini yoki fikrini taklif etishi kerak. Ularning fikrlarini mujassamlashtirish orqali muammoning yechimida – yangi g'oyalar uchrashuvida muammo o'z yechimini topadi.

Bu metodni qo'llashda emin-erkin o'z assotsiatsiyasini, fikrini aytish, tanqidiy fikrlar bildirishdan holi bo'lgan ma'qul.

INVERSIYA METODI

Bu ijodiy vazifalarni yechimini izlab topishga kutilmagan, yangi holatlarda g'oyalarni yechimini topishga qaratilgan. Bu metod muammolar yechimiga yangicha yondashish, eski qoliplardagi fikrlashlardan holi ravishdagi insonni talab etadi. Yangicha sharoitda mantiqiy fikr yuritish. Yangicha yechim topish, muammolar yechimini topishga, g'oyalar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Eskicha fikr yuritishlar muammo o'z yechimini topmaydi. An'anaviy metod muammoning yechimini topish vaziyatdan chiqishda tashqi tomondan qarashni taqozo qiladi.

Inversiya metodi dualizm prinsipiga yoki qonuniyatiga asoslanadi. Fikr yuritishda qarshi (to'g'ri va teskari) tomondan yondashuvni talab etadi. To'g'rirog'i ijodiy fikr yuritishni.

Tekshirilayotgan obyektga analiz va sintez, mantiqiy va intuitiv, sintetik va dinamik xarakteristik tomondan, obyektga ichki va tashqi

tomondan yondashuvni talab etadi. Masala yechimiga konkret yoki abstrakt, real va fantastik, ajratib yoki birlashtirib solishtirish orqali yechimlar topiladi. Ayrim masalalar, muammolar yechimida quyidan yuqoriga qarab yechim qidirishga to'g'ri keladi.

EMPOTIK METOD

Empotiya (grekcha so'z bo'lib (**empateia** – *qayg'urish*) *ko'pincha shaxsiy analog metodi ham deyiladi. Analog usulining o'ziga xosligi shundaki, bunda intuitiv va mantiqiy fikrlarning o'zaro uchrashuvi (to'qnashuvi)da masala o'z yechimini topadi. Analog keng ma'noni o'z ichiga oladi. Analoglar o'z navbatida boshqa analoglarni aniqlashi mumkin; ular shakl, struktura, funksiya, jarayonlarni o'z ichiga oladi.*

Analoglarni aniqlashda yoki topishda ayrim hollarda giperbolitik usul qo'llaniladi. Masalan, o'rganilayotgan obyektlarni, maktabni kattalashtirish, yoki kichiklashtirish, ularni qismlarga bo'lish mumkin. Ijodiy vazifalar yechimini topishda shaxsiy analogiyalar ancha qulay va yaxshi natijalar beradi. Uning yechimida shaxsiy sezgirlik, his-tuyg'ular jarayon yechimini tezlashtiradi. Demak, empotik metod ijodiy faoliyatga suyanadi, o'rganilayotgan obyektga nisbatan shaxsiy qayg'urish, ijodiy yondashish orqali muammo yechimini topishga olib keladi. Ayniqsa, bu metod o'quvchi-talabalar shaxsi tassavurining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu orqali ixtiro qilishga yoki ayrim holda o'ziga xos original yechimlar topishga olib keladi.

SINETIK METOD

Sinetika – (turli elementlarni birlashtiruvi) *metodi ijodkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun alohida sharoit, muhit yaratadi, kutilmaganda yangi analoglarning va assotsiatsiyaning tug'ilishi yoki yaratilishiga sabab bo'ladi.*

Sinetik metod ishtirokchilari muammo bilan tanishtiriladi va jamoa bo'lib ijodiy yechim topish mexanizmi tushuntiriladi. Uning yechimi bo'yicha o'quv tashkil etiladi. Uni ko'pincha *«operatsiya mexanizmi»* deb ham ataladi. Unga to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy va simvolik analoglar kiradi. Intuitsiya: tasavvur etish, assotsiativ fikrlash, original metodlarni qo'llash va o'yinli elementlar tushuntiriladi, o'qitiladi va ularda fikrlarni uyg'otishga muhit tug'diriladi.

Sinetik metod qo'llashda avvaldan muammoni aniq (ijodiy topshiriq) berishdan chekinishga to'g'ri keladi. Chunki bunday holda masalaning yechimi biroz neytrallanishi kuzatiladi.

Shu sababli muammoning ayrim belgilari tahlil etilib, asosiy muammo yechimi tomon boriladi. Ya'ni muammoni qayta shakllantirib, qidirish, izlash, muammoning yechimiga kiritiladi.

Muammoni hamkorlik asosida qayta shakllantirish yaxshi natijalar beradi.

Ya'ni yechim uchun tanlanayotgan muammo va g'oya ijodiy guruh rahbarining shaxsiy sifati va kasbiy mahoratiga bog'liq. Rahbar, ya'ni o'qituvchi savolni ustalik bilan ketma-ket bera olishi, replikalar qilishi, aniqliklar va tushunchalar berib borishi kerak.

Qisqa qilib aytganda, o'qituvchining vazifasi – ishtirokchilarning faol qatnashishi, o'ylashlariga, ularni qo'zg'ata olishga ijodiy, qulay sharoit yaratish.

Umuman olganda, evristik metodlar va usullar nima? Nima berilgan? Nimani izlab topish kerak? Shu izlanishda nima ma'lum? O'quv-biluv davrida ishtirokchilar berilgan topshiriq, masala, muammo yechim topa oldimi, topilgan analoglardan qayerda foydalanish mumkin? – degan savollarga javob ola bilishlari kerak.

Xullas, evristik ta'lim metodini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali dars sifati va samaradorligini oshirishda nimalarga erishish mumkin.

- Evristika asosidagi ta'lim o'quvchi-talabalar shaxsiga yo'naltirilgan, o'quvchi-talabalarning o'zini shaxsan izlanishi, o'rganishi, o'ylantirishiga asoslangan, unda qidirish orqali ongli o'zlashtirishga olib keladi.
- O'quvchi-talabalarni ijodiy fikrlashga, muammolarni topish orqali intellektual salohiyatini oshirishga olib keladi.
- O'quv fanidagi tayyor ma'lumotlarni olib qolmay, uni individual ishlash orqali o'quv materiali (mahsuloti)ni olish va o'z kuchiga suyanib ish tutishni shakllantiradi.
- Olayotgan bilimlari, tushuncha, malakalari darajasi yuqori sifatga ega bo'ladi. Dastur va Davlat ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirishi kafolatlanadi.
- O'quv jarayoni o'quvchi-talabalarni shaxsan o'zi qatnashish, o'z kuchiga ishonch, o'z-o'zini realizatsiya qilish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z o'quv faoliyatiga tanqidiy yondashishga o'rgatadi.
- Ilmiy izlanishga, mustaqil fikr yuritishga, o'zining mustaqil pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllanishga olib keladi.

5.8. TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardandir.[1] Buni quyidagicha tasvirlash mumkin:

9-shakl



Kompyuter texnikasining ta'lim jarayoniga kirib kelishi bilan **«Inson-kompyuter»** muammosi markaziy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammo global va serqirra yo'nalishlarda bo'lib, kompyuter bilan turli xil ko'rinishdagi aloqa va munosabatlar asosida insonning bilim olish va dunyoqarashlari shakllanishining ilmiy-metodologik qarashlari konsepsiyasini yaratish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Bu jarayonning to'g'ri, maqsadli tomonga qaratilgan yo'nalish, imkoniyatlarini topishga to'g'ri keladi.

O'quv axborotni taqdim qilishdek alohida yordam funksiyalarini bajarishi lozim. Bunday axborotlar o'qituvchi va o'quvchi-talabalarga ta'limning maqsadi va vazifalari hamda qadriyatlari asosida madaniyatimiz, mentalitetimiz asosida tashkil etilishi kerak.

Binobarin, har qanday, hattoki vazifali, faqat o'qitishdan iborat bo'lgan mahsul, shuningdek, axborot ma'lumotnoma xarakteridagi kompyuterli o'qitish dasturlarining ham majburiy ravishda pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi tekshirilishi zarur. U shaxsni rivojlantirish predmeti bo'lishi va umuminsoniy, milliy qadriyatlarimiz mezonlarining ma'naviy jihatdan milliy ruhiyatimizga mos bo'lishi hisobga olinmog'i talab etiladi.

[1] Сайтлар: http://edunet.zn.uz/2007/09/27/mediaobrazovanie – Самообразование учителя. http://www.ucheba.com/ur_rus/k_metodkopilka/fedorov.htm – образовательнqй портал. http://ru.wikipedia.org – Википедия – свободная енциклопедия.

Kompyuterli darslarni tashkil etuvchi, uni amalga oshiruvchi o'qituvchi:

1. Kompyuterning tuzilishi, imkoniyati, boshqarish malakasini, kompyuter savodxonligini egallashi kerak.

2. Ta'lim mazmunini dasturlash, loyihalash, modullash, algoritmlash, dasturlay olishi kerak.

3. Kompyuterda o'quvchi-talabalarni individual ishlay olish, boshqarish malakasini shakllantirishi talab etiladi.

4. O'quv jarayonida o'qituvchi dastur-kompyuter-o'quvchi-talaba munosabatlari o'rnatilishi taqozo etiladi.

Shuning uchun ham interaktiv metodlarda tashkil etiladigan kompyuterli darslar didaktikaning zamonaviy texnologiyalari asosida tashkil etilishi talab etiladi.

Bunday darslar o'quv materiallarini o'quvchi-talabalar tomonidan shaxsiy xatti-harakatlari orqali tez va soz o'zlashtirishlariga kafolat hisoblanadi.

Agar axborot texnologiyasi kompyuter asosidagi darslar maxsus ilgaridan tayyorlangan dastur, loyihalar, modullar bilan ta'min etilsa, o'quv-biluv jarayoni samarali kechadi.

O'quv jarayonini individuallashtirish asosida olib borish, nazorat etish, olinayotgan natijalarni korreksiya qilish, uni boshqarish, kerakli ma'lumotlarni to'plab borish imkonini yaratadi.

Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamida ta'lim mazmunini algoritmlash, uni modullarga ajratish, ketma-ketligini ishlab chiqish, dasturlab olish, pirovard o'quv maqsadiga erishish yo'llarini ilgaridan rejalashtirish imkonini beradi. Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamidagi darslarning sifat ko'rsatkichlari quyidagi asosiy faktorlar bilan aniqlanadi:

5. O'quv dasturining sifatli shakllantirilganligi;

6. Kompyuter texnikasining sifati va uning imkoniyatlari;

7. Shaxsning kompyuter imkoniyatlarini o'zlashtirib olish malakalarining shakllanishi.

Shuning uchun ham axborot texnologiyasi kompyuter yordamidagi darslar dasturlangan va loyihalangan hollarda amalga oshirish uchun qulay vaziyat yaratadi.

Zarur bilimlarni mustaqil egallashni, ularni turli muammolarni yechishda amalda mahorat bilan qo'llashni:

• axborotlar bilan savodli ishlashni (ma'lum masalani tadqiq qilish uchun zarur faktlarni yig'ishni) bilish, ularni tahlil qilish, muammolar

yechish gipotezalarni taklif qilish, zarur umumlashmalar qilish, qonuniyatlarni aniqlash, yangi muammolarni yechish va aniqlash;

• olingan bilim qayerda va qanday qo'llanishi mumkinligini to'g'ri aniqlash (qo'llash sohasini aniqlash);

• mustaqil tanqidiy fikrlash, real dunyoda paydo bo'layotgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini izlash;

• ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish;

• o'zining ma'naviyati, intellekt va madaniy salohiyati ustida mustaqil ishlay olish.

Bunday darslarning samarali kechishida shaxsning ma'lum sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari asosida loyihalashtirilgan, dasturlashtirilgan axborot texnologiyalari va kompyuterli darslarning qulayligi shundaki, unda ta'lim oluvchilarning o'quv materialini o'zlashtirib olayotganligini doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Bunday darslarda o'quvchi-talabalarning bilim olish motivatsiyasi oshib boradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash asosidagi darslarning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

– o'quv materiallari alohida-alohida bo'lak (blok)larga bo'linadi;

– o'quv jarayoni ketma-ket olib boriladi. O'quv materiali ma'lum bo'laklarda fikr yuritib o'zlashtirishga moslashtiriladi;

– o'quvchi-talabalarning o'zlashtirishdagi har bir harakati nazoratga olinib monitoringi yo'lga qo'yiladi;

– o'quv-vazifani bajarib bo'lishi bilan har bir o'quvchi-talabani o'zlashtirishi uchun navbatdagi vazifa berib boriladi. Shu tariqa bosqichma-bosqich o'zlashtirishga muhit yaratib boriladi;

– vazifalarni bajarishda o'quvchi-talaba noto'g'ri javob qilsa, unga shu zahotiyoq yordam ko'rsatiladi;

– bunday tahlil etilganda darslarda har bir o'quvchi-talaba alohida-alohida ta'lim oluvchi o'quv materiali va mazmunini o'z imkoniyati darajasida o'zlashtiradi;

– berilgan mavzu materiali mazmuni, bajariladigan natijalar o'quvchi-talabaga ham, o'qituvchiga ham ayon bo'ladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida rahbarlik qiladi, yordam beradi, maslahatchiga aylanadi. O'quvchi-talaba esa individual, ya'ni yakka tartibda mustaqil ishlaydi, natijada u o'zi olgan natijasidan

ma'naviy, ruhiy ozuqa oladi. Ijodkorlik, yaratuvchanlik, o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa ta'limning sifatli va samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Shunday qilib, ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlash va ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Har bir fan o'qituvchisidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan boxabar bo'lish, ulardan ta'lim jarayonida unumli va maqsadli foydalana olish ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talab etiladi.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi bosqichlarga e'tiborni qaratish kerak:

– ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini **taqdim etish va tushuntirish bosqichi;**

– kompyuter bilan o'zaro muloqot jarayonida o'quv materiallarini **o'zlashtirish bosqichi;**

– o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash hamda **mustahkamlash bosqichi;**

– erishilgan yutuq va natijalarni o'zini-o'zi tekshirish orqali, **nazorat qilish bosqichi;**

– oraliq va yakuniy **nazorat bosqichi;**

– o'zini-o'zi, shuningdek, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlari natija va xulosalariga ko'ra o'quv materiallarining taqsimlanishini, tasniflanishini, tizimga solinishini **korreksiyalash, tuzatishlar kiritish bosqichi.**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha yaratilayotgan o'quv reja va dasturlarni yaratish, tuzish, yuqorida keltirilgan bosqich-yo'nalishlarni alohida-alohida modullashtirish, loyiha sifatida kiritish yaxshi natijalarga olib keladi. Endi ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga batafsil to'xtalamiz.

5.9. MASOFAVIY TA'LIM METODI

Dunyo ta'limi tizimiga masofaviy ta'lim metodi o'qitishning alohida shakli sifatida jadallik bilan kirib kelmoqda, *interaktiv ta'lim metodi* sifatida joriy etilmoqda.

Masofaviy ta'lim metodi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar asosida kechadigan pedagogik jarayondir.

Masofaviy ta'lim metodida o'qitish o'quv axborot-resurs markazlari, internet, pochta aloqalari orqali amalga oshiriladi. Masofaviy ta'lim asosan virtual slaydlar orqali beriladi, agar o'quvchi-talabalar para orqali virtual sinfga kirsa, jarayonga qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masofaviy o'qitish bu, maxsus psixologik-pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar muhitida, bir-biridan uzoqda bo'lgan qatnashchilarning bilvosita aloqasiga asoslangan holda bilim, malaka, ko'nikma va ularni egallash usullarini uzatish va o'zlashtirish jarayonidir.[1]

Masofaviy ta'lim metodining o'ziga xos muhim jihatlari:

– ta'lim oluvchining axborotni yaratuvchi va uni yetkazuvchi manbaadan uzoqligi;

– texnologik jihatdan muloqot muhitining, shuningdek, psixologik va pedagogik jarayon muhitlarining o'ziga xosligi;

– masofaviy o'qitish jarayoni qatnashchilarining axborot texnologiyalari vositalari yordamidagi sinxron va asinxron muloqotiga asoslanganligi;

– ta'lim oluvchilarning ta'lim dasturlarini tanlash va o'qish trayektoriyalarini belgilashlaridagi erkinliklari;

– ta'lim oluvchining: asosan mustaqil ravishda, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'z ustida astoydil ishlashni nazarda tutilgan.

Masofaviy ta'lim metodi shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga, kelajakda zarur mutaxassis bo'lishga yo'naltiradi. Masofaviy ta'lim metodini joriy qilishning modelini belgilab olish strategik rejalashtirish nuqtayi nazaridan muhim, masofaviy o'qitishning o'quv, o'quv-uslubiy, o'quv me'yoriy va didaktik materiallarini tayyorlash, ularni optimallashtirish, sistemalashtirish, dizayn, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil qilish ishlari ilgaridan tanlangan model loyihalar asosida amalga oshiriladi.

---

[1] Сайтлар: htpp://www.specialist.ru/eLearning/ – Дистанционное обучение.
htpp://textbook.keldysh.ru/courses/2002mm-www/part1/distant.htm – Перспективы обучение.
htpp://www.users.kpi.kharkov.ua/lre/bde/dopol/Russia/conzep.html – Концепция дистанционного образования.
htpp://eidos.ru/journal/heuristic.htm – Центр дистанционного образования («Ейдос»).
htpp://www.e-ilm.uz/ – Масофавий таълим.
htpp://de.unicor.ru/ – Дистанционное обучение: состояние и развитие.
htpp://dl.iapm.edu.ua/webpage.nsf?open – Дистанционное образование.
htpp://science.kharkov.ua/ – Дистанционное обучение.
htpp://www.пвутуе.ru/ – Глобалная сет дистанционного образования.

Masofaviy o'qitish jarayoni ta'lim sohasiga nafaqat zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, balki bir qator yangi tushuncha va atamalarni olib kirdi:

- virtual sinf (guruh);
- o'qitishning ta'minoti;
- o'quv telekomunikatsiya loyihalari;
- teskari aloqa;
- dialogli texnologiya;
- kompyuter aloqasi;
- telekonferensiya;
- koordinator, moderator, telekonferensiya fasilitatorlari, tyutor.

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi shaxsidan, ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiyalaridan unumli foydalanish, masofaviy ta'limni o'quv jarayoniga kiritishda quyidagi axborot kommunikasiyasi texnologiyalaridan keng foydalanish va amalda joriy etish talab etiladi:

- elektron darsliklar, tyutorlar, trenajyorlar, laboratoriya amaliyotlari, test tizimlaridan iborat kompyuterli o'qish dasturlari;
- personal kompyuterlar, videotexnika, optik diskli axborot to'plagichlardan foydalanish asosida yaratilgan multimedia texnologiyalari asosidagi o'qitish tizimlari;
- turli o'quv fani, predmetlari sohalarida foydalaniladigan intellektual va ekspert o'qitish tizimlari;
- fan, o'quv predmeti sohalari bo'yicha ma'lumot bazalari;
- elektron pochta, telekonferensiyalar, lokal va aloqa tarmoqlari, ma'lumotlar almashinuvi tarmoqlari;
- elektron kutubxonalar, markazlashgan va tarqoq, tarmoq holdagi nashriyot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish maqsadida va loyiha dasturlarni yaratish, tarqatish maqsadida multimedia ta'limi dasturlarini rivojlantirish markazi ishlab turibdi. Markaz buyurtmachi sifatida ish yuritadi, muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Masofaviy ta'limning o'quv jarayoniga kiritilishi bilan o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash madaniyati shakllanmoqda.

Axborot madaniyati – o'quvchi-talabalarning kundalik hayoti va faoliyatida axborot texnologiyalarining barcha turlaridan tegishli, o'quv-biluv jarayonida foydalana olish ko'nikma va malakasidir.

Ta'lim tizimi oldida keng o'quvchi-talabalar ommasini axborot olish va qayta ishlash madaniyatini o'stirish va shakllantirishdek

vazifalar turibdi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi tobora maslahatchiga, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchiga, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi. O'qituvchi axborot egasi, tarqatuvchi funksiyalarini axborot-kommunikatsion texnologiyalari zimmasiga yuklay boradi.

Bunda bosh masala bilimlar va bilimlar olamiga kirish, u bu olamning resurslaridan qanday foydalana olish va o'zlashtira olishiga bog'lanib qoladi.

O'quvchi-talabalar axborot texnologiyalarida yangicha qoidalarni o'rganishi, barcha o'quv fanlari kesimida axborot bilishi, uni qayta ishlay olishi zarur bo'ladi.

Ta'limda o'qitishning va bilimlarni o'zlashtirishning nutq, so'z, tovush bilan bog'langan usullari ikkinchi navbatga o'tib, o'qitishning tasavvurlar, shakllar, rang, tasviriy ko'rsatuvlar bilan bog'liq usullari birinchi o'ringa o'ta boshlaydi.

Global kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi kishilar muloqotining kitob, gazeta va televideniyedan farq qiluvchi yangi o'ziga xos usul va shakllarini vujudga keltirmoqda.

Bu usullar endi kishilik munosabatlarining yangi shakllari, faoliyatlarining yangicha turlari, tafakkur qilish va o'zini-o'zi anglashning o'zgacha tarzi bilan xarakterlanadi.

Masofaviy ta'limga kompyuter texnikasining kirib kelishi yangi muammoni – *«inson-kompyuter»* munosabatlarini keltirib chiqaradi. *Hozirgi kunda bir qator mamlakatlar masofaviy ta'lim amaliyotida qo'llanayotgan masofaviy ta'limning quyidagi ikki modeli: qisqacha tahlil va izohlash orqali masofaviy ta'lim metodi mazmuni va mohiyatiga to'xtalamiz:*

I. O'qitishning kunduzgi – sinf – dars va masofaviy integratsiyasiga asoslangan model. *Bu model asosidagi masofaviy ta'limda yagona o'quv jarayonining bir qismi sinf-dars shaklida, qolgan boshqa qismi esa masofaviy shaklda o'tkaziladi.*

O'qituvchi bu jarayonni samarali tashkil qilishdan oldin uni loyihalaydi – o'quv predmetining qaysi qismini sinf-dars shaklida, qaysi qismini masofaviy olib borishni rejalashtiradi. Bu o'qituvchi rahbarligida va uning ssenariysi asosida o'tadi. Bunda ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga ta'sir etishi nazarda tutilmaydi. Bu model ikki variantga ajratiladi.

Birinchi variantda asosiy (bazaviy) ta'lim oluvchilar sinf-dars shaklida, o'quvchi-talabalarning bir qismi esa masofaviy shaklda olib

boriladi. O'quvchi-talabalarning bu qismini ta'minlash va modelni amalga oshirish uchun maxsus sayt ochilib, unga kerakli materiallar joylashtiriladi.

Ikkinchi bir variantda esa asosiy o'quv mashg'ulotlari masofaviy asosda olib boriladi. *Ta'lim oluvchilar vaqti-vaqti bilan ta'lim muassasasida obzor ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish, masofadan egallagan bilim va malakalari bo'yicha muhokama va munozaralarga qatnashadilar.*

II. Kompyuter aloqa tarmog'ida o'qitishga asoslangan model *(setevoe obuchenie).* Bu model quyidagi 3 variantda amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Birinchi variant. *Tarmoq orqali avtonom kurslarni o'qitish (ayrim faktlar bo'yicha maxsus kurs profilli yo'nalish, til o'rganish va hokazo). Modelning bu variantini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarga kerak bo'ladigan barcha materiallar (o'quv-tematik rejalar, modullar, qo'shimcha materiallar, turli xil* ***WEB****-sahifalar testlar va h.k.) ta'lim muassasasining saytida joylashtiriladi. Bu variantda o'qituvchi bilan yuzma-yuz uchrashuv nazarda tutilmaydi. Barcha jarayonlar tartib bilan amalga oshiriladi.*

Ikkinchi variant: *axborot-ta'lim muhiti.*

Bunday holda barcha materiallar virtual muassasaning ichida joylashtiriladi. Ta'lim oluvchi uchun bo'ladigan barcha materiallar (shu jumladan, nazorat materiallari va nazorat o'tkazish mexanizmi) shu portalning u yoki bu qismida joylashadi. Bir qator chet mamlakatlarning «ochiq universitet»larida masofaviy ta'lim aynan shu model asosida olib borilayotganligini kuzatish mumkin.

Uchinchi variant: Keys-texnologiya*ga asoslangan tarmoq o'quvchi-talabalari. Bu model masofadan o'qitishni tashkil qiluvchi ta'lim muassasasi tomonidan o'qitish vositalarining kompleksi sifatida tayyorlanadigan masofadan o'qitishning barcha materiallari, vazifalar, tavsiya hamda ko'rsatmalar va boshqalardan iborat majmuani (keyin) pochta orqali ta'lim oluvchiga yetkazishni nazarda tutadi. Qog'ozga tushirilgan, shuningdek, elektron axborot tashuvchi vositalarga kiritilgan materiallardan iborat bo'ladi.* **Keys-texnologiya***da disklarga yozilgan yoki videokassetalarga tushirilgan videomateriallar, sidi-ma'ruzalar, videokliplar, illyustrativ-izohli ma'ruzalar keng o'rin oladi.*

Masofaviy ta'lim jarayonini boshqarish va nazorat qilish asosan internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchi bilan

ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro aloqalar, ta'lim oluvchilarning o'zaro aloqalari elektron pochta, internet aloqalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunday ta'limni amalga oshirishda ta'lim muassasasining saytida **Keys-texnologiya**ga ilova sifatida:

- turli xil qo'shimcha materiallar, ma'lumot-axborot vositalari, shuningdek, boshqa saytlarga murojaatlar;
- avtomatik boshqaruvni nazarda tutuvchi nazariy ishlar, testlar;
- ma'lum bir masala yoki muammoni jamoa ravishda muhokama qilish uchun telekonferensiya **Web**-sahifasi;
- maxsus xonalar, shuningdek, paydo bo'ladigan muassasalar savollariga javob topish hamda o'qituvchilarning konsultatsiyasidan foydalanish uchun forum;
- Videokonferensiya (imkon darajasida) joylashtiriladi.

Bu modelda o'quv materiali ta'lim oluvchi tomonidan asosan mustaqil o'zlashtirilishi, lekin **Keys-texnologiya**da ko'rsatilgan ba'zi vazifalarni bajarishda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar, shu bilan birga o'quvchi-talabalar o'rtasida virtual hamkorlik nazarda tutiladi.

Endi loyiha g'oyalariga mos modelni aniqlash yoki boshqacha qilib aytganda bu g'oyalarning yuqorida ko'rib chiqilgan modellarining qaysi birini tanlab olish kerakligini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida sharhlangan modellarga yana bir nazar tashlasak., masofadan o'qitish metodining *«integratsiyasiga»* asoslangan modelda o'quvchi-talabalarning qaysidir bir qismi bari bir sinf - dars shaklida o'tkazilishini nazarda tutilishi bilan masofadan o'qitishning *«saytli o'qitish»* modelining **«Keys-texnologiya»** variantida ham garchi ta'lim oluvchilar bilan o'qituvchilarning yuzma-yuz ro'para bo'lishlari inkor qilinishi bilan ba'zi bir jihatlar bilan mos kelmaydi.

Masofaviy ta'lim metodi o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega:

- egiluvchanlik jadval asosida o'qitish har bir o'quvchi-talaba tanlagan mutaxassisligi bo'yicha kursni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy muddatda o'qiydi;
- parallel o'qish imkoniyatining mavjudligi. O'qish ishdan ajralmagan holda amalga oshiriladi;
- o'quvchi-talabalar va tyutorning ta'lim muassasasining qayerda joylanganligiga bog'liq emasligi. Ta'lim xizmat qilish markazlari va muassasalariga qatnashmasdan, ya'ni yo'l, turar joy, ovqatlanish va xonalarni ijarasiga ketadigan xarajatlarsiz amalga oshiriladi;
- bilimlarni sirtdan nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi;

- obyektiv nazoratning qiyinligi va o'quvchi-talabalarda to'g'ri fikr bo'lsa, ta'lim olishni suiiste'mol qila oladi;
- o'quv-metodik materiallarni taqdim qilishning maxsus shaklining ustunligi;
- o'quvchi-talabalarning ta'lim muhitida mustaqil ishlash malaka va ko'nikmalarini jadallashtirish imkoniyati borligi.

Masofaviy o'qitishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Start bilimlari tamoyili. Masofaviy o'qitish metodining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun masofadan o'qitish talabgori masofaviy o'qitish texnologiyasi va vositalaridan foydalanish va ularni ishlatish bo'yicha ma'lum boshlang'ich bilim va malakaga ega bo'lishi kerak. Chunonchi masofaviy ta'lim oluvchining kompyuter va kompyuter jihozlarini *(printer, skaner, nusxa ko'chiruvchi va ko'paytiruvchi apparatlar va turli moslamalar)* mustaqil ishlatishiga, lokal va global aloqa tarmoqlari orqali tegishli ma'lumotlarni olishiga yoki yuborishiga, bunday ma'lumotlar bilan ishlashiga, bunday tarmoqlar orqali muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Buning uchun esa undan ma'lum darajadagi kompyuter savodxonligi, shuningdek, lokal va global aloqa tarmoqlarida axborot almashuvini amalga oshirish malakalariga ega bo'lish talab etiladi. Masofaviy ta'lim olish talabgorining bunday malakalarga yoki darajalarga, boshqacha aytganda, dastlabki tayyorgarlikka ega yoki ega emasligi masofaviy o'qitishning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2. O'qitishda individuallik tamoyili. Ma'lumki, o'qitishni individuallashtirish, bu, uni har bir o'quvchi-talabaning o'z individual xususiyatlariga moslab tashkil etishdan iboratdir.

Masofaviy o'qitish metodi, o'qitishning an'anaviy metodidan o'zining individuallashganligi bilan keskin farq qiladi. O'quv jarayonini o'quv-metodik va o'quv-moddiy jihatdan ta'minlash, hamda o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning faoliyati individual xarakterga ega. Bu tamoyil kirish va joriy nazoratlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, kirish nazorati nafaqat ta'lim oluvchining individual ish (o'qish) rejasini tuzish uchun, balki zarur bo'lsa uning muvaffaqiyatli o'qishi uchun dastlabki bilim va malakasidagi yetishmaydigan qismlarni to'ldirishni nazarda tutish uchun o'tkaziladi. Joriy nazorat esa, jumladan, ta'lim oluvchining o'qish trayektoriyasini korreksiya qilib borishga xizmat qiladi.

3. Interfaollik tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, birinchidan u yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalari muhitida nafaqat o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar, balki o'quvchi-talabalarning bir-birlari bilan o'zaro muloqotlari va aloqa (kontakt)lari qonuniyatlarini ifodalaydi. Tajribalarning ko'rsatishicha, masofaviy o'qitish jarayonida o'quvchi-talabalar o'rtasidagi axborot almashuvi intensivligidan yuqori ekan. Binobarin, bu tamoyil, masofaviy o'qitishda, jarayon qatnashchilarining elektron adreslarini barcha qatnashchilarda bo'lishi maqsadga muvofiqligini nazarda tutadi.

4. Indentifikatsiya tamoyili. O'qitishning an'anaviy shakliga nisbatan o'qitishning masofaviy ta'lim metodida o'qish-o'qitish ishlarini qalbakilashtirish, o'zgalar o'quv faoliyati va uning natijalarini o'ziniki qilib ko'rsatish imkoni ko'p. Bunda negativ holat va harakatlarga yo'l qo'ymaslik uchun mazkur tamoyil amal qiladi. Masofadan test, referat va boshqa nazorat ishlarini o'quvchi-talabaning aynan o'zi tomonidan bajarilishi uning barmoq izlari, tovushi yoki ko'z qorachiqlari bo'yicha turli texnik vositalar yordamida indentifikatsiya qilib boriladi.

5. O'qitishning reglamentlik tamoyili. Garchi masofaviy ta'lim metodi asosida o'qitishda o'qish muddati umumiy holda qat'iy ravishda chegaralanmagan bo'lsa ham, masofadan o'qiydigan o'quvchi-talabalar toifalari xususiyatlarini hamda ularga o'qishlarida maksimal qulaylikni hisobga olib, qabul qilingan o'qitish muddati amal qiladi. Bu muddat doirasida o'quv jarayonining barcha jihat va tadbirlarini ko'zda tutuvchi individual xarakterga ega bo'lgan o'quv jarayoni jadvali joriy etiladi.

6. Yangi axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqlik tamoyili. Masofaviy ta'lim metodi asosida o'qitishni tashkil qilishda bu tamoyilga amal qilish muhim hisoblanadi. Chunonchi, masalan, Sankt-Peterburg ochiq universitetining tajribasiga qaraganda masofaviy o'qitishda o'qitishning turli vositalarini qo'llashning eng maqbul (optimal) nisbatan quyidagicha ekanligi ma'lum bo'lgan: qog'ozga pechat qilingan materiallar – *40:50%, WWW-serverlardagi materiallar – 30:35%, kompyuterli videokonferensaloqalar – 10:15%, boshqa vositalar–5:20%.* Binobarin, garchi, yangi axborot texnologiyalari vositalari, jumladan, **internet** juda jozibali va o'ziga tortuvchi didaktik xususiyatlarga ega bo'lsada, ular bilan ortiqcha qiziqish yoki ularga ortiqcha ahamiyat berish **fetishlashish**ga, bu esa o'z navbatida qaysidir o'qitish vositasini boshqa hammasidan afzal ko'rishdek noto'g'ri tasavvur va xulosaga olib kelishi mumkin.

Albatta yuqorida keltirilgan nisbat absolyut emas. Lekin u masofaviy ta'lim metodi asosida o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashning zamonaviy pedagogik texnologiyalar jihatdan maqsadga muvofiq nisbatiga rioya qilish kerakligiga amaliyot natijalaridan kelib chiqib qilingan ishoradir.

7. O'qitishning ochiqligi va moslashuvchanligini ta'minlash tamoyili. Masofaviy ta'lim metodi asosida o'qitishni ochiqligi tamoyili masofadan o'qishga talabgorning yoshiga, uning start (dastlabki) bilimi va malakasi darajasiga hamda masofadan o'qishga kirishidagi suhbat, imtihon, test va shunga o'xshash, nazorat ishlariga bo'lgan talablarning *«yumshoqligi»* bilan ifodalanadi. Bu tamoyil zamirida insonparvarlik jihatlar yotgan bo'lib, masofaviy o'qitishda ayniqsa katta ahamiyat va ko'lam kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim va o'qitish jarayonini to'laligicha insonga qaratilishi, uning jamiyatda o'zini ijtimoiy himoyalangan, bexavotir qulay his qilish va yashashi uchun ta'lim olishida unga maksimal qulay sharoit va imkoniyat tug'dirilishi bilan xarakterlanadi. Darhaqiqat, o'qitishning bu shakli:

– ta'lim oluvchi uning ijtimoiy sharoitidan qat'i nazar (nogironlik, yashash va oilaviy sharoiti) ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratilganligi;

– masofaviy o'qishga kiruvchilar uchun kirish suhbati, imtihon yoki testlarga qo'yiladigan talablarning *«yumshoqligi»;*

– o'qitish davri ramkalarining qat'iy chegaralanmaganligi;

– ta'lim oluvchi o'ziga qulay bo'lgan sharoit va vaqtda shug'ullanishi mumkinligi;

– o'qishni ishdan ajralmagan holda olib borish mumkinligi;

– ta'lim oluvchi tomonidan o'qish trayektoriyalarini tanlash erkinligining mavjudligi kabi insonning ijtimoiy manfaatini ko'zlovchi jihatlari bilan ajralib turadi.

Bu variant ayniqsa, o'quv, o'quv-uslubiy, o'quv-me'yoriy va didaktik materiallarni taqdim etish shakli va usuli bilan loyiha g'oyalariga yaqin turishini ko'rish mumkin.

Masofaviy ta'lim metodi asosida o'qishni tashkil etishda:

• masofaviy o'qitish kursi haqidagi umumiy ma'lumotlar, uning maqsadi va vazifalari, mazmuni (strukturasi), o'quv guruhlariga qabul shartlari va boshqa shartlar bo'yicha tegishli ma'lumotlar;

• kursning fanga tegishli sohasi bo'yicha ma'lumot materiallari (ma'lumotlar bazasi sifatida);

• foydalanuvchilar bilan muloqot o'rnatish, kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradigan aloqa adresslari (elektron pochta yoki boshqa adresslar, telefonlar);

• muayyan modullarga bo'lib chiqilgan, ya'ni strukturalangan o'qitish kursi (elektron darslik);

• o'quv materiallarini o'zlashtirishga, olinayotgan bilimlarni tekshirishga, reyting nazoratini o'tkazishga mo'ljallangan topshiriqlar to'plami;

• o'zlashtirilgan bilimlarni va ko'nikmalarni mustaqil tarzda qo'llashga, foydalanishga, konkret olingan muammolarni hal etishga qaratilgan ijodiy yondashish masalalari va topshiriqlarining, individual yoki birgalikda o'tkaziladigan amaliy ishlar to'plami;

• o'quvchi-talabalarning mustaqil faoliyatlarini qay darajada borishini uzluksiz ravishda baholab borishga qaratilgan monitoring bloki.

Bu esa o'quvchi-talabalarni mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirish jarayonida faol pozitsiyada turish muhitini yaratadi.

Masofaviy o'qitishning funksional yo'nalishlari quyidagilar:

1. **Boshqaruv bloki:** turli kategoriyada foydalanuvchilarning, o'quv jarayoniga kira olishini, hamda kira olish va foydalanish jarayonini boshqarish.

2. **O'qitish bloki:** o'quv materiallarini kompleks uzatishni amalga oshirishni yo'lga qo'yish.

3. **Nazoratni amalga oshirish bloki:** o'z-o'zini, o'quv jarayonini tashkil etuvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayonini nazorat etishni olib borish.

4. **Kommunikativ blok:** bunda o'quv jarayonida ishtirok etuvchilarning o'zaro aloqalarini, elektron pochta, testlar o'tkazish rejimida ish olib borishni tashkil etishni o'rganish.

5. **Axborot bloki:** masofaviy ta'lim jarayonida ishtirok etuvchilar, o'quv jarayonida ularning erishgan natijalari haqida anketalar, statistik ma'lumotlarni to'plash.

Izoh o'rnida shuni eslatib o'tish kerakki, masofadan o'qitish imkoniyati cheklangan bo'lib, faqat yoshlar bilan uy sharoitida o'ziga qulay vaqtda amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari uzoq tumanqishloqlarda yashovchilar uchun yuqori malakali o'qituvchilar yetishmaslik hollarida juda mos keladi. Ayniqsa, masofadan ta'lim kattalar ta'limini amalga oshirishda, shaxsiy dastur asosida malaka oshiruvchilar uchun juda iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan o'zini to'la oqlaydi.

Ayniqsa, yosh bolali, kasalligi tufayli uydan tashqariga chiqish imkoniyati yo'q shaxslar hamda ishlaydiganlar ish joyidan ajralmagan hollarda juda qulay shart-sharoit tug'diradi.

Agar masofadan ta'lim metodini qo'llash jarayonida:

• yuqori malakali mutaxassislarning videokassetalarga yozilgan ma'ruzalaridan foydalanilsa;

• videokonferensiyalar, animatsiyali roliklardan foydalanilsa;

• o'qituvchining yangi o'quv materiallarini bayon etuvchi animatsiyalangan holatdagi modellari berib borilsa, masofaviy ta'lim sifati va samaradorligi yanada oshadi.

Yuqorida bayon etilganlar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, an'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi bosh va asosiy figura sifatida xizmat qilsa, masofaviy ta'lim metodi asosida o'quvchi-talabalarga yangi bilimlar beruvchi asosiy manba elektron o'qitish vositalaridir.

Shuning uchun ham kelajakda masofaviy ta'lim sirtdan ta'lim oluvchilar uchun eng tezkor, eng qulay imkoniyatdir. Kompyuter asosidagi masofaviy ta'lim metodining o'ziga xos afzalliklari nimada degan savolga javob berish vaqti keldi. Unda:

• ishlab chiqarishdan, oiladan ajralmagan holda jadallashtirilgan ta'lim olinadi;

• malaka oshirish va qayta tayyorlashda o'zi xohlagan usul-shakllardan keng foydalanish imkonini yaratadi;

• o'z qobiliyat va qiziqish, ehtiyojlari asosida shaxsiy reja, dasturlarini shakllantirishga imkon yaratadi;

• ta'lim oluvchi mustaqil fikrlay olish doirasida o'quv jarayoniga yondashadi, ortiqcha psixologik yuklamalardan holi bo'lib o'z ishini tashkil qiladi.

• o'quvchi-talaba o'zi bilan o'zi holi ravishda o'z imkoniyatlari darajasida dastur va yangi axborotlarni qabul qiladi. U bilimi kuchli va kuchsiz degan gaplardan qutuladi. O'ziga-o'zi baho beradi. O'quv-biluv insonparvarlik ruhida kechadi.

• o'quv materialini o'zlashtirish ham qat'iy, xolisona amalga oshadi. U o'z bilimini testlar vositasida aniq biladi va o'z istiqboliga o'zi baho beradi;

• o'quv-biluv davrida yangi axborotlar, zamonaviy texnologiyalar, internet xabarlaridan tez foydalana olish malakalari shakllanadi.

Shuningdek, audio, video, grafik, elektron bibliotekalardan foydalanib o'z bilimini oshirish imkoniyati tug'iladi.

Masofaviy ta'lim metodida o'qish jarayonining muvaffaqiyatli kechishida, uning samaradorligi ko'p jihatdan bu jarayonning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lmish konsultant o'qituvchilar – tyutorlarning qay darajada tayyorgarligiga bog'liqdir.

Tyutorlar o'zi kim? Masofaviy ta'limda tyutorlarning funksiyalari nimadan iborat?

Tyutor so'zi lotincha **«tueor»**, inglizcha **«tutor»** (ruscha tarjimasi – **domashniy uchitel, repititor, nastavnik**) so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida **konsultant-o'qituvchi, ustoz** ma'nosida tushuniladi.

An'anaviy ta'lim jarayonida o'quv - biluv qatnashchilari o'quvchi-talaba va o'qituvchining funksiyalari aniq bo'lib, bu tizimda tyutor degan tushuncha ham, mutaxassis ham yo'q.

Agar an'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi bilimlar manbai, axborot egasi, o'quv jarayonini tashkil etuvchisi va o'quvchi-talabalar bilimini baholovchi–nazoratchi funksiyalariga ega bo'lsa, masofaviy o'qitishda o'qituvchining funksiyasi yanada kengayib, o'quv jarayoni asosan *virtual xarakterda* kechadi va o'quvchi-talabalar muloqotning prinsipial xarakterida ta'lim oladilar. Shuningdek, masofaviy ta'lim hozirgi kunda pedagogik jamoatchilik o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda didaktik prinsiplar asosida o'qitish individuallik, interfaollik, o'qitishning reglamentlanganligi, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi, o'qitishning ochiqligi va moslashuvchanligini ta'minlash prinsiplari bilan belgilanadi.

Tyutorning masofadan o'qitishning sifat va samardorligini ta'min etishga qaratilgan funksiyalar quyidagilar:

1. Maqsadga yo'naltirish funksiyasi.

Bu funksiya ta'lim oluvchilar va tyutorlarning ehtiyojini, shuningdek, ijtimoiy buyurtmani maqsadga qarata ifodalash va shakllantirishni nazarda tutadi.

Maqsadlar tyutor tomonidan ta'lim oluvchilar bilan kelishib belgilanadigan qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni ko'zda tutadi. Maqsadga yo'naltirish, ta'lim jarayonining boshlang'ich pallasi hisoblanadi.

2. Diagnostik funksiyasi. Bu funksiya o'quv davri jarayoni davomida ta'lim oluvchilar shaxsini o'rganib borishni, ularning bilim,

malaka va ko'nikmalarini, motivlari zaminini hamda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlab va tahlil qilib borishdan iborat.

Diagnostika natijalari bir tomondan tyutorga ta'lim oluvchi to'g'risida va u bilan samarali muloqot o'rganishga yordam beruvchi axborotga ega bo'lish imkonini bersa, ikkinchi tomondan shunga yarasha o'qitishning adekvat shakl va usullarini tanlash asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

3. Motivlashtirish funksiyasi. Bu funksiya o'qitish samaradorligi ortishi, ta'lim oluvchilardagi motivatsiyaning yuqori va kuchliligiga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Tyutor ta'lim oluvchilarga o'qish-bilish faoliyatlari yuzasidan qarashlarini shakllantirish, ehtiyojlarini, shuningdek, motivlari negizlarini aniqlay olishlarida yordam beradi. Shuni ta'kidlash joizki, ayniqsa, kattalar o'qishida motivatsiyaning ahamiyati juda muhimligi bilan bir qatorda, bu tobora o'qituvchilarning ijtimoiy shart-sharoitlari (oiladagi, ishdagi ahvol va holatlar), yetarli darajada kompyuter savodxonligiga ega emasliklari oqibatida kutilgan natijalarga erisha olmayotganliklari, o'z kuchlariga ishonchsizlik bilan baho bera boshlashlari, ulardagi motivlarni susaytirib qo'yishi mumkin. Binobarin, tyutor, motivlarni susayishiga olib keluvchi faktorlarni oldindan ko'ra bilishi va tegishlicha ularning oldini ola bilishi kerak bo'ladi. Tyutorning ta'lim oluvchiga va uning oldida paydo bo'layotgan qiyinchilik va muammolarga e'tiborliligida hamda ta'lim oluvchini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri maslahatlar berib borishida namoyon bo'ladigan motivlashtirish funksiyasi o'quv-biluv jarayoni samarali kechishining muhim omili bo'lib hizmat qiladi.

4. Loyihalash funksiyasi.

Bu funksiya:

- o'z faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilish;
- maqsad tomon borishda amallar ketma-ketligini belgilab olish;
- ta'lim jarayonini taktikasi va strategiyasini tuzib olishni o'z ichiga oladi.

Loyihalash, ta'lim mazmuni va jarayonini to'liq tasavvur qilishi, amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

5. Texnologik funksiyasi. Bu funksiya bevosita loyihalash funksiyasiga tutash bo'lib, o'quv-bilish faoliyati texnologiyasini ishlab chiqishni, o'quv jarayonida qo'llanadigan va ta'lim mazmunining, ta'lim oluvchilarning, tyutorning va texnikaviy imkoniyatlarning xususiyat va tavsif (xarakteristika)larini hisobga oluvchi asosli va maqsadga eng muvofiq usul va shakllar tanlashni nazarda tutadi.

6. Tashkilotchilik funksiyasi. Bu funksiya bevosita o'quv-pedagogik faoliyatda amalga oshiriladi.

U ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu jarayonni sifat va samaradorligini ta'minlashdagi mas'uliyatini belgilashni, shuningdek, ularning kuch va vaqtlarini tegishligicha taqsimlashni nazarda tutadi. Bu funksiya doirasiga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning har birining faoliyatini oshkor etilmaslikni ta'minlash, ta'lim oluvchilarning muloqotlarida o'zaro samimiylikni va hurmatni saqlash, etika normalariga rioya qilish yuzasidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar kiradi.

7. Faollik funksiyasi. Bu funksiya o'quv jarayonini tashkil qilish ta'lim oluvchilarda boshqaruv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va bunday faoliyatni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

8. Muloqotga oid funksiyasi. Bu funksiya virtual guruhlarni shakllantirish va ta'lim oluvchilarning tyutor va bir-birlari bilan o'qish va ish yuzasidan munosabatlari, shuningdek, hamkasblik va do'stona aloqalarni o'rnatishga qaratiladi. Shuningdek, bu funksiya ta'lim oluvchilarni *«kontakt sessiyalar», «kuchli kurslar»* sharoitida guruhlarda ishlash, samarali muloqot ko'nikmalarini egallashlarida ham amalga oshadi.

9. Axborotga oid funksiyasi. Bu funksiya tyutorning o'quv modullari orqali yoki boshqacha planda taqdim qilingan nazariy va axborot sifatidagi ma'lumotni ta'lim oluvchilar tomonidan tushunib yetishlari va talqin qilishlarida yordam berish, shuningdek, ularga mustaqil o'qishlarini tashkillashtirish masalalarida yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish bilan xarakterlanadi. Masofadan o'qitishda tyutorning axborotga oid funksiyalarining ahamiyati an'anaviy o'qitishda o'qituvchining shunday funksiyasidagiga nisbatan pastroq hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar va axborot sifatidagi materiallarni tushunib yetishlari va talqin-idrok qilishlariga tyutor o'zini bilim va axborotlar manbai sifatida *«saralab»* emas, balki interfaol faoliyatlilik, amaliyotga yo'g'rilgan, muammoli yo'na-lishlardagi o'quv faoliyati orqali erishadi.

10. Indenfikatsiyalash funksiyasi. Bu kishining boshqa kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi mexanizmiga oid kategoriya bo'lib, xususan, tyutorning xayolan o'zini ta'lim oluvchining o'rniga qo'yib ko'rish orqali uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, moyilliklari va his-tuyg'ulari haqida taxmin qilish orqali uni tushunishi, idrok qilishidir.

Tyutorning bu funksiyasi unga o'zi bilan muloqotga kirishgan ta'lim oluvchilar to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishida yordam beradi. Agar tyutor o'zi bilan muloqotga kirishadigan ta'lim oluvchilar to'g'risida doimo to'liq, ilmiy jihatdan asoslangan axborotga ega bo'lganda edi, u ular bilan bo'ladigan o'zaro taktikasini bexato va aniq ishlab chiqishi mumkin bo'lar edi.

11. Refleksiv funksiyasi. Bu funksiya ham tyutor tomonidan ta'lim oluvchilarning idrok etilishiga oid kategoriya bo'lib, u indenfikatsiyalash funksiyasiga tutashdir. Tyutorning bu funksiyasi u bilan muloqotga kirishgan ta'lim oluvchi tomonidan, keng ma'noda uning o'zini, xususan, o'zi tomonidan taqdim qilingan axborotni (yoki umuman, axborotni) qay tarzda idrok etilishini tushunib yetganligini anglab yetishi bilan bog'liq.

O'quv-bilish faoliyati uchun bu funksiya tyutorga nisbatan holi ta'lim oluvchiga nisbatan ham ahamiyatlidir. Bu funksiya ta'lim oluvchilarning o'qish jarayoni davomida ega bo'layotgan axborotlarga nisbatan *«reaksiyasi»* sifatidagi faoliyatlari va erishayotgan natijalari bo'yicha teskari aloqa o'rnatilishi ta'minlashni va shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy qarash va baho berish ko'nikmalarini rivojlantirishni hamda ular bilan birgalikda bunday sifatlarni tobora rivojlantirib va oshirib borish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Refleksiv funksiyaning roli shaxsni o'ziga boshqarishdan tashqari qarashi, o'z *faoliyatini tahlil qilib va baholab borishi, buning oqibati* o'laroq ma'naviy va intellektual kamol topishida namoyon bo'ladi.

Tyutorning shaxsiy refleksiyasi esa uni o'zini-o'zi rivojlantirishi va kamolga erishishida stimul rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

12. Baholash va nazorat funksiyasi. Bu funksiya ta'lim oluvchilarning egallayotgan yangi bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirib va baholab borishni ko'zda tutadi. Nazorat qilib va baholab borish tyutorga ta'lim oluvchilar faoliyatidagi, shuningdek, o'zining faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab borish va kerak bo'lsa o'z faoliyatiga, tinglovchilar faoliyatiga ham o'z vaqtida tegishli o'zgartirish-qo'shimchalar kiritish va kamchiliklarni tuzatib borish imkonini beradi.

13. O'z-o'zini rivojlantirib borish funksiyasi. Bu funksiya tyutorning shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, uning o'z bilimi, malaka va

ko'nikmalarini rivojlantirib va takomillashtirib borishga bo'lgan ehtiyojlariga taalluqli bo'lib, bu ortiqcha izohni talab qilmaydi.

Tyutorning yuqorida keltirilgan funksiyalari va ularning qisqacha izohidan kelib chiqib, tyutorni quyidagicha ta'riflash mumkin.

Tyutor – maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etuvchisi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishidagi maslahatchi-ustoz.

Shunday qilib, amaliyotda tyutor faoliyatini me'yorlovchi, «tyutor mutaxassisligining tasnifi», *«Tyutorga qo'yiladigan malakaviy talablar»* kabi hujjatlarni yuqorida sanab o'tilgan izoh va funksiyalari asosida ishlab chiqish, shakllantirish mumkin.

5.10. MEDIA TA'LIM METODI

Media ta'lim interaktiv, o'quvchi-talabalarga individual ta'sir etadigan metod sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. *Media ta'lim metodi o'quvchi-talabalarni shaxsiy fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish uni qayta ishlash, analiz va sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.*[1]

Sinf xonalariga va auditoriyalarga matbuot, televideniye, radio, kino, video va internetlar olib kirilmoqda. Bularning barchasi **media darslar** *nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda.*

Media darslari quyidagi metodik imkoniyatlar va afzalliklarga ega:

• o'quv jarayonida dars sifati, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday jarayonda bir vaqtni o'zida o'qituvchi nazariy axborotlarni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamonaviy texnika ta'lim vositalarida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv obyektlarini va voqealarini modellashtiradi, uni avtomatik ravishda test ketma-ketligida namoyish etadi. Tasvirini tushiradi;

• o'quv mehnat faoliyatlarini tashkil etishda kompyuter texnikalarini qo'llash, foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Shaxsan o'zlari o'quv materialini amaliyotda sinab, bajarib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

---

[1] Сайтлар: http://www.mediaeducation.ru/ – медиаобразование.
http://www.medialiteracy.boom.ru/ – мир медиаобразования и медиаграмотности.
http://www.mec.tgl.ru/ – Центр медиаобразования.

• o'quvchi-talabaning yakka tartibda ishlagan holda qiziqish va ijodiy ishlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi;

• multimedia texnikasi ularning o'quv mazmunini o'zlashtirishlariga qiziqishini yanada oshiradi;

• o'quvchi-talabalarda ko'rgazmali va obrazli ta'sirda fikr yuritishga, motorik va verbal kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi;

• axborot bilan ishlash, axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish. Axborotlardan mazmunni tushunish, mantiqiy yaqinlarini ajratishga o'rganadi. Shular asosida axborotni olish madaniyati shakllanadi.

Media ta'lim metodining bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam berish, oddiy yo'nalishlardagi media axborotlar tilini o'rganish; o'quvchi-talabani badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, media matn (tekst)larni malakali tahlil eta olish, o'rgatish va qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Media ta'limning asosiy mazmuni media madaniyat tilini, uning tarixini bilish (kino san'ati, badiiy televideniye va badiiy media) material tekstlarini tushunishdir.

Uning pedagogik strategiyasi media matnlarni badiiy tahlil qila olish, unga interpretatsiya asosida baho bera olishdan iboratdir. Shuni aytish kerakki, media ta'lim qanday shakllanadi, u bir haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va o'quvchi-talabalar uni qanday qabul qiladilar?

Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'lim metodining markazida o'quvchi-talaba shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklari hisobga olinishi, olingan axborotlarga tanqidiy ko'z bilan qarab, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.

Media ta'lim metodi haqidagi Rossiya va chet ellik olimlar fikriga ko'ra, media ta'lim ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi-talabalarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Media ta'lim metodining o'quv-bilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

• media ta'lim tarixi haqidagi bilimlar, uning tuzilish nazariyasini o'rganish-o'zlashtirish;

• media matn (tekst)larni ongli qabul qila olish, uning tilini bilish va *«o'qita olish»* shu haqida tasavvurlarini kengaytirish, ko'rish orqali xotirasini mustahkamlash, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, muammoli fikr yuritishni o'rganish;

• media ta'lim materiallarini kreativ fikrlash orqali amaliyotda foydalanishdan iborat.

Media ta'lim metodining eng muhim vazifalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni tobora jadallashib borayotgan axborotlar oqimida har xil axborotlarni olish, tushunib yetish, uni inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga olib keladi.

Media ta'lim metodi orqali olingan axborotlarni integratsiya qilish shu asosida shaxsiy fikrini bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli informatsion xurujlarga qarshi fikr bildirish orqali uning ijtimoiy jamiyatdagi faolligi oshadi. Media ta'lim metodi o'quvchi-talabalarda axborotlardan faol va to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantiradi. O'quvchi-talabalar shu orqali berilayotgan axborot haqida erkin va faol fikr yurita boshlaydilar.

Media ta'lim metodida o'quvchi-talabalar kreativ fikr yuritadilar, ya'ni yangi tushunchalarni o'zlashtira boshlaydilar. Jumladan, ular ***«fabula», «syujet», «mavzu», «konflikt», «kompozitsiya», «kadr», «plan», «montaj»*** kabi tushunchalarni o'quv jarayoniga aloqadorlikda tushunib, amalda qo'llab, o'zlashtirib boradilar.

Shuning uchun ham media-darslar:

• **«Badiiy-immitatsiyali»** – kichik ssenariyalar, minissenariya, media-matnlar tuzish, uni interaktiv ta'lim metodida namoyish etish;

• **Teatrlashgan vaziyat hosil qilish,** (media matn asosida ayrim epizodlarni inssenirovka qilish, media matn jarayonini namoyish etish);

• **Tasviriy-immitatsiya tayyorlash** (afishalar yaratish, fotoko'r-gazma, ma'lum mavzuda asarlardagi rasmlarni namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, o'quvchi-talabalarni emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi. Bu holat o'quvchi-talabalarni umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Media ta'lim metodlari asosidagi darslar berilayotgan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirib olish jarayonida quyidagi ikki komponentlar ishtirokini ta'minlaydi.

1. Media ta'lim darslarida kompyuterlar universal holda qo'llanishi va ishtiroki bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. U holda ayrim predmetlar, mavzularni o'qitishga, o'zlashtirishga qulay muhit yaratadi. Unda ta'lim mazmuni

matni aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi. U ta'lim mazmuni tasvirlangan holda sxema, rasmlar, tablitsalar, videofragmentlar, ovozli, animatsion ta'minotlar bilan namoyish etiladi.

Yuqoridagi faoliyatni amalga oshirishda kompyuter va dasturlar bir-biri bilan uyg'unlashgan, moslashgan holda bir-birini to'ldirishi kerak; ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, o'qitish metodlari, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyati muvofiqlashtiriladi.

Bunday holda tashkil etilgan media ta'limning didaktik prinsiplari, imkoniyatlari kengayadi, boyib boradi. Bu esa ta'limni yangi prinsip – individuallashtirilgan, faollashtirilgan holda tashkil etishni ta'minlaydi.

Media ta'lim metodi asosidagi darslarning eng afzallik tomoni shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning hozirgi axborot oqimlari jadallashayotgan bir vaqtda mustaqil ijod qila olish imkoniyatlari, qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu munosabat bilan media ta'lim metodi asosidagi darslar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina predmet yoki mavzu mazmuniga qarab qolmay, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, umumrivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Ular axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga yo'g'rilgan bo'lmog'i, ya'ni kerakli axborotni olish qobiliyatini, ularni yangi texnikalar yordamida qayta ishlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Media ta'lim metodi asosidagi darslar kompyuterlashtirilgan sinflarda, multimediani proyektorlar bilan jihozlashda o'tkaziladi.

Kompyuterlashgan sinflarda o'quv faoliyatining namunali-samarali kechishi uchun u yerda qo'shimcha joylashtirilgan o'quv stollaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu holat sanitar-gigiyenik me'yorlarga rioya etish, o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini boshqa joyda tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Agar o'qituvchi ko'rgazmali tasvirlardangina foydalansa, ularni bir komplekt kompyuterda ekranga namoyish etish bilan cheklanadi. Sinfda yoki auditoriyada o'quvchi-talabalar bilan ishlashni quyidagicha tashkil etish mumkin:

– video fragmentlarni frontal ko'rish;

– topshiriq, mashqlarni bajarishda amaliy mashg'ulotlarni individual ishlash;

– umumiy o'quv loyihalarini modelli eksperimentni bajarishda kichik guruhlarda ishlash;

– media ta'lim metodi asosida darslarni tashkil etishda ham o'quv jarayonining hamma komponentlari o'z aksini topishi, faoliyat kompyuter va kompyutersiz almashinib turishi mumkin;

– faollashtirish, o'quv materialini takrorlash, materialni birinchi bora o'zlashtirish, kompyuterda yoki kompyutersiz;

– bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, o'quv axborotlari blokining mohiyatini bilib, tushunib olish va uni mustahkamlash, kompyuterda yoki uning ishtirokisiz;

– o'quv materiallarini amalda qo'llay olish, o'quv materialini o'zlashtirganligini nazorat qilish: kompyuter va kompyutersiz variantda.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, media ta'lim metodi asosida darslarni tayyorlash, samarali o'tkazish o'qituvchilardan quyidagilarni talab etadi.

– yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lish;

– zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lish;

– o'quvchi-talabalar bilan muloqotga kirishish, chuqur psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lish;

– yuksak ma'naviy va ma'rifiy madaniyatga ega bo'lish;

– zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib olish va Internetdan foydalanish;

– o'quv faoliyatiga innovatsiya, pedtexnologiya, interaktiv, (ya'ni interfaol) metodlarni o'zlashtirish orqali o'quv jarayonini tashkil eta bilishi talab etiladi.

5.11. ON–LAYN LOYIHALI METODLARIDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi o'quv jarayoniga ketgan vaqt va masofani qisqartiradi. Bu esa ta'lim mazmunini tinglovchiga yetkazishda juda muhim rol o'ynaydi. Sir emaski, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish o'quv-bilish jarayoni sifat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida ta'lim olishga qulay muhit, imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalari asosidagi o'quv jarayonini tashkil etish keng quloch yozib bormoqda. Bular ichida **on-layn loyihali metodlari** o'quv jarayoniga intensiv kirib kelmoqda.

On-layn loyihali metodlar – shunday pedagogik texnologiyasi, o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv jarayonlarini amalga oshirishda juda qulay va samaralidir.

Bu zayldagi texnologiyalar o'quvchi-talabalarning bilim olishida uni izlanishga, tahlil etishga undaydi, ijodiy va amaliy malakalarining rivojlanishiga juda katta ta'sir qiladi.

On-layn loyihali – o'quv dastur loyihalari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O'quvchi-talabalarga yechish uchun biror muammoni yoki savolni qo'yadiki, u o'quvchi-talabadagi qiziqishni orttiradi.

2. Muammoning yechimini topish uchun o'quvchi-talabalar biror gipotezani mustaqil ishlab chiqadi yoki yechimini topish uchun mantiqiy fikr yuritadilar.

3. O'quvchi-talabalar muammoni yechish davomida, turli manbalardan (adabiyot, qo'llanma, tablitsa, grafik, karta, Internetdan) axborotlarni to'playdilar.

4. To'plangan axborotlarni o'rganadilar, qayta ishlaydilar, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha xulosalar chiqaradilar. Boshqacha aytganda muammo ustida mushohada yuritadilar, yechim topadilar.

5. O'quvchi-talabalar yakuniy xulosaga kelgach, yechimini tekshiradi va yangi gipotezalarni ko'z oldiga keltirib, shakllantiradi.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalarning **Internet**da ishlay olishi o'quv dasturlarini o'zlashtirishda yangi resurslaridan foydalanish malaka va ko'nikmasini hosil qiladi. Bu holat o'quv dasturini **Internet**dan topish, elektron pochtalar bilan va forum muhitida ishlash malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Shu o'rinda forum nima? Forum sharoitida ishlash qoidalari, uning ish rejimi va uning imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

***Forum** – saytda muloqot yuritish shaklidir. Forumda axborot beruvchining o'z muammolari bo'lib, u axborot mazmunini belgilaydi. Forumlar ma'lum mavzularga ega bo'ladi. Unda ishtirok etuvchi ma'lum tomon mazmunini ochishga harakat qiladi.* Forum mazmuni, mavzulari **Internet**da uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

Forum – shunday imkoniyatga egaki, mavzu yoki muammolarning yechimini hamkorlikda muhokama etish mumkin. Qisqacha qilib aytsak, **Forum** – bu **Internet** imkoniyatlaridan biridir.

Forum quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

• tezkorlikda muhokama eta olish. Unda tezlikda axborotni o'qish, javob berish yoki o'z shaxsiy fikrini bildirish, yoki savol berish, bergan savoliga ma'lum vaqt o'tishi bilan javob olish imkonini beradi;

• biror loyiha yoki hujjatlarni yaratishda hamkorlikda ishlash. **Forumda** hujjatlarni, rasm, sxemalarni namoyish etish, muhokama

etish, tahrir qilish mumkin. Bu o'z navbatida g'oyalar, hujjatlarni ishtirokchilar fikrini hisobga olib yaratish imkonini yaratadi;

• ishtirokchi o'ziga qulay vaziyatda murojaat etishi, materiallar bilan tanishishi, shular asosida javoblarini yozib yuborishi mumkin;

• o'zaro tajriba almashish, ma'lum mavzular bo'yicha bilim va axborotlarni olish - berish mumkin. Ishtirokchi passiv holda faqat mavzu mazmunini erkin olishi mumkin. Zarur mavzulardagi ma'lumotlarni olish orqali kasbiy, metodik mahoratlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi;

• Forumda o'z hamkasblaringiz, do'stlarni qidirib topish imkoniyati tug'iladi. Qatnashchilar o'z kasbiy va ijodiy ishlarini namoyish etishi va aksincha axborotlarni **On-layn** xabarlar orqali olishi mumkin.

Elektron forumlar – Internet va elektron pochtalardan foydalanib o'tkaziladigan seminardir.

Seminarning moderatori ishtirokchilarga materiallarni beradi. Uning mazmun-mohtiyatini tushuntiradi, so'ng savol beradi yoki mavzu mazmunini muhokama ettiradi. Seminar ishtirokchilarini material bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi, o'z xulosalarini chiqaradi. Har bir ishtirokchi muhokamada ishtirok etadi. Muzokara natijalari asosida xulosalar chiqariladi.

Xulosalar asosida seminar qatnashchisi to'g'ri, yakuniy javobni oladi. Bu esa olgan bilimlarini mustahkamlashga ta'sir etadi.

Moderator – *forumga* boshchilik qiladi, munozaraning to'g'ri borishini ta'min etadi, kerakli joyda uni yo'naltiradi. Zarur hollarda tuzatishlar, takliflar kiritadi. **Forum** qatnashchilari savollar berish, ayrim narsalarni anglab olish orqali ishtirok etishlari kerak. Munozara qatnashchilari boshqalar savol-javoblarini eshitgan holda o'zlari ham faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiq.

Forumlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

• umumqatnashchilar ishtiroki – barcha tipdagi qatnashchilar uchun ochiq *forumlar*;

• maqsadli – maqsadli auditori ishtirokchilari uchungina mo'ljallangan.

U holda ularning o'zlarigina materialni o'qishi, axborot yo'llashi mumkin. Bunday *forumlarda* parol orqali ishtirok etiladi;

• moderlashtirilgan – bunda barcha tipdagi qatnashchilar ishtirok etadilar. *Forum* qatnashchilari axborotni o'qishlari va xabar yuborishlari mumkin. *Forum* xabarlari *moderator*ning ruxsati bilan nashr etilishi

mumkin. *Forumda* ishtirok etuvchilar moderator va uning ishtirokchilaridir.

Moderator kim?

Moderator – *forum*ning tashkilotchilik, ya'ni administratorlik huquqiga ega shaxs – u ma'lum tajribaga ega, muhokama etilayotgan mavzu mazmunini chuqur, puxta o'zlashtirib olgan shaxs. Auditoriyada *forum qatnashchilari* ayrim tajribalarga ega bo'lishi, ularni qiziqish, xohishlari hisobga olinishi kerak.

Moderator forumni boshqaradi, konsultatsiyalar beradi, savollarga javob beradi, zarur paytlarda ishtirokchilar javobini zarur g'oyalarda tuzatadi, qo'shimcha materiallar taqdim etadi, ya'ni forum ishini to'g'ri va maqsad sari boshlaydi.

Moderator forumda faol ishtirok etish, muloqot qilish muhitini yaratadi. Bunday faoliyatni olib borish uchun moderator o'z bilimini va malakasini doim oshirib borishi zarur.

Moderatorlik rolini rahbar xodimlar, administratorlar, o'qituvchilar, o'quvchilar, talabalar va Internetdan foydalana oladigan boshqa shaxslar olib borishi mumkin.

Forum qatnashchilari – qatnashchi – bu shunday shaxski, ma'lum mavzu bo'yicha o'z bilimini oshirishi yoki egallagan bilimini berishi mumkin. Muhit interfaol, individual holda ketgani sababli o'quv predmetini chuqur, o'z ehtiyojiga mos o'zlashtirishi mumkin.

O'quv materialining ochiqligi, qulayligi, ko'rsatma-ko'rgazmaliligi, olayotgan bilimini mustahkam egallaydi. O'ziga ishonch hissi ortadi va uning tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishiga sharoit yartiladi. O'quv-bilish jarayoniga, o'quv mehnatiga shaxsiy mas'uliyati ortadi. Forum ishtirokchilari administratsiya, ya'ni ma'muriyat, o'qituvchi, o'quvchilar, talabalar va boshqa Internet ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Forumda ro'yxatdan o'tgan, hatto o'tmaganlar ham qatnashishi mumkin.

Forumda ishlash qoidalari quyidagicha:

1. Forumga kirish.
2. Forumga kirish uchun ro'yxatga yozilish.
3. Forumda ishtirok etish.
4. Forumda axborot olish, axborot yuborish.

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayoniga Forumning kirib borishi o'quvchi-talabalarga ta'lim olishda eng qulay muhit yaratadi. Ularning shaxsiy qiziqishi va ehtiyojlari qondiriladi. O'quv faniga va bilimni

egallashga o'quvchi-talabalarning mas'uliyati oshadi. Natijada maqsad ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga olib keladi.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Texnologiya – yunoncha ikki so'zdan **«texnos» (techne)** – ***mahorat, san'at*** va **«logos» (logos)** ***fan, ta'limot*** so'zlaridan tashkil topgan. Texnologiyalarni barcha boshqa tushunchalarni belgilash uchun sinonim sifatida – pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi deb ishlatish mumkin.

Pedagogik texnologiya – o'z oldiga ta'lim shakllarini muqobillashtirish vazifasini qo'yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro faoliyatini hisobga olib, ta'lim berish va tahsil olish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli – harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operatsiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayonidir.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarish bayonidir (*texnologik xarita*).

Ta'lim texnologiyasi – pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan shaxs ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi, aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmua sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlar bo'lgan o'qituvchining

o‘qitish vositalari yordamida ta’lim oluvchilarga ma’lum ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini nazarda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir.

Innovatsiya – inglizcha atama bo‘lib, ***«innovation»*** – yangilik kiritish, yangilikni qo‘llash, tatbiq etish jarayoni va faoliyatini anglatadi.

Innovatsion usul (metod)lar – «Aqliy hujum», «Debat, «Guruhlarda ishlash», «Modifikatsiyalashgan ta’lim», «Improvizatsiya», «Multimedia», «Klaster», «Bumerang texnologiyasi», «Skorbey texnologiyasi», «Tarozi texnologiyasi», «Yelpig‘ich texnologiyasi», «Muammoli vaziyat», «Tanqidiy tafakkur» va hokazolar.

Interaktiv (*inglizcha* **«Interakt»,** *ya’ni* **«Inter» - o‘zaro «akt» - harakat, faollik) metod** – ta’lim oluvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida tajriba asoslarini tashkil etuvchi metoddir.

Muammoli o‘qitish – darsda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va hal qilinishida ta’lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Masofadan o‘qitish – ta’lim oluvchilarni mustaqil bilim egallashiga asoslangan ta’lim jarayonini yangicha tashkil etish bo‘lib, ko‘pincha yoki doimo o‘qituvchidan vaqt va masofa jihatidan ajralgan holda, o‘quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o‘rganishdir.

O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik texnologiya, o‘qitish texnologiyasi, ta’lim texnologiyalarini izohlab tushuntirib bering.
2. Pedagogik texnologiyalar to‘g‘risida qanday qarashlar va ta’riflar mavjud?
3. «Innovatsiya» atamasi nimani anglatadi?
4. Interaktiv yoki interfaol ta’lim deganda nimani tushunasiz?
5. «Aqliy hujum» metodi haqida siz nimani tushunasiz?
6. «6X6X6» metodi haqida nimani bilasiz?
7. «Klaster» metodi haqida nimani bilasiz?
8. «Qarorlar shajarasi» metodi haqida nimani bilasiz?
9. «Tajriba asosida o‘qitish» metodi haqida nimani bilasiz?
10. «Qora quti» metodi haqida nimani bilasiz?

11. «Beshinchisi, oltinchisi, yettinchisi, ...» metodi haqida nimani bilasiz?

12. «3/3, 4/4, 5/5, ...» metodi haqida tushuncha bering.

13. Davra suhbati qanday tashkil etiladi?

14. Loyiha asosidagi mashg'ulot, ularning turlari, bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?

15. Muammoli ta'lim deganda siz nimani tushunasiz?

16. Muammoli vaziyat qanday tashkil etiladi?

17. Kreativ ta'lim metodi haqida nimani bilasiz?

18. Evristik ta'lim deganda siz nimani tushunasiz?

19. Evristik ta'lim metodlarini sanang.

20. Masofaviy ta'lim metodi nima?

21. Media ta'lim metodi haqida nimani bilasiz?

22. Media pedagog kim? Uning funksiyalari nimadan iborat?

23. Ta'limda innovatsiya deganda nimani tushunasiz?

24. Innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'riflari va turlari.
2. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
3. Ta'lim jarayonida interaktiv (interfaol) metodlardan foydalanish.
4. Darsni loyihalangan ta'lim metodi asosida tashkil etish.
5. Muammoli ta'lim texnologiyasi.
6. Kreativ ta'lim metodining maqsad va vazifalari.
7. Evristik ta'lim metodi.
8. Masofaviy ta'lim metodi.
9. Media ta'lim metodi.
10. Shaxsni faollashtirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.
11. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda bilim mustaqilligini shakllantirish.
12. Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. «Texnologiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

a) texnologiya yunoncha so'z bo'lib, **«techne»** – mahorat, san'at;

b) **«logos»** – tushuncha, ta'limot;

s) ishlab chiqarish usuli;

d) pedagogik faoliyat va uning metodikalari;

e) a va b.

2. «Ta'lim texnologiyasi» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

a) texnologiya inglizcha **«in educational technologiy»** ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan (yoki ta'limot) ma'nosini anglatadi;

b) audiovizual texnika vositalaridan foydalanish;

s) texnika vositalari yordamida o'qitish;

d) dasturlashtirilgan ta'lim, loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayoni;

e) kompyuterli va axborot texnologiyalaridan foydalanish texnologiyasi.

3. «Ta'lim texnologiyasi»ning keng ma'nodagi tushunchasi qanday?

a) ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metodi (usul)lardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada bajarishni ifodalaydi;

b) ta'lim texnologiyasi – qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qo'llaniluvchi usul, uslub va ta'sirlar majmuasi;

s) ta'lim texnologiyasi – muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli;

d) ta'lim texnologiyasi – ta'lim vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan hamda o'qituvchi va o'quvchi - talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli.

e) barcha javoblar to'g'ri.

4. «Innovatsiya» atamasi qanday ma'noni anglatadi?

a) innovatsiya inglizcha **«innovatsion»** – *yangilik kiritish, qo'llash, tatbiq etish*;

b) «aqliy hujum»
s) muayyan holat, vaziyatni o'rganish;
d) guruhlarda ishlash;
e) nuqtayi nazaring bo'lsin.

5. O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlilini belgilovchi qanday me'yorlardan foydalanishni talab qiladi?
a) yangilik;
b) maqbullik;
s) yuqori natijalilik;
d) pedagogik yangilik;
s) barcha javoblar to'g'ri.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida qanday vazifalar hal etiladi?
a) ta'lim (tarbiya) jarayonining umumiy yaxlit loyihasini ishlab chiqish hamda unda hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
b) ta'lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash va uning mazmunini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul, shakl, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash;
s) ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash;
d) ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish, ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini jamoada sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil qilish;
e) a, b, s va d.

7. Muammoli vaziyat deganda nimani tushunasiz?
a) o'quv materjalini ta'lim oluvchilar ongida vujudga keltiradigan yo'sindagi faoliyatdir;
b) mantiqiy va to'g'ri xulosa chiqarish;
s) ijodiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish;
d) ta'lim oluvchilarning ma'lum psixik holatidir;
e) ta'lim oluvchilar hamkorligida ongli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir.

8. Masofaviy o'qitish nima?

a) masofaviy o'qitish – maxsus pedagogik – psixologik va axborot kommunikatsion texnologiyalar muhitida, bir-biridan uzoqda bo'lgan ta'lim oluvchilarning bilvosita aloqasi;

b) texnologik jihatdan muloqot qiluvchi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning aloqa jarayoni;

s) masofaviy o'qitish jarayoni qatnashchilarining axborot texnologiyalari yordamida sinxron va asinxron muloqoti;

d) ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'z ustida ishlashi;

e) ta'lim oluvchilarning ta'lim dasturlarini tiklash va o'qitish trayektoriyalarini belgilashlaridagi erkinligi.

9. «Interaktiv dialog» nima?

a) zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga shart-sharoit yaratish;

b) foydalanuvchining matnli buyruqlarni (so'rovlarni), javoblarni (takliflarni) ko'zda tutuvchi dialog;

s) yuqori darajada, dasturiy (dasturiy apparat tuzilmalari) tizimi bilan o'zaro, ikki yoqlama munosabat asosida dialog o'rnatishdir;

d) struktura lingvistikasida amalda qo'llashdagi asosiy belgilarning majmuini va ularni birlashtiruvchi mavzularga ega bo'lgan tilning abstrakt birligini bildiradi;

e) muayyan kattalikning fizikaviy sharoitlar o'zgarganda yoki turli o'zgartirishlarga nisbatan bir xilda, o'zgarmay qolishi tushuniladi.

10. Media ta'lim metodi nima?

a) media ta'lim metodi o'quvchi-talabalarni shaxsiy fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish va uni qayta ishlash, sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi;

b) o'quvchi - talabalarning verbal kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiradi;

s) axborotlar mazmunini tushunish va axborot olish madaniyati shakllanadi;

d) media ta'lim o'quvchi - talabalarga individual ta'sir etadigan metod;

e) media ta'lim metodi axborotlardan faol va to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

INTELLEKTUAL TRENING

1. «Texnologiya» tushunchasining mohiyatini yorituvchi qarashlarni izohlang.

№	«Texnologiya» tushunchasi	Izoh
1	2	3

2. «Ta'lim texnologiyasi» tushunchasini ta'riflab bering.

№	«Ta'lim texnologiyasi»	Ta'rif
1	2	3

3. «Pedagogik texnologiya»ning mazmun-mohiyatini yorituvchi qarashlar va ta'riflarni tushuntirib bering.

№	PT	Tushuncha

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning turlarini tavsiflab bering.

№	ZPTT	Tavsif

5. Innovatsiya nima?

№	Innovatsiya	Tushuncha

6. Interaktiv metodlarni ta'riflab bering.

№	Interaktiv metodlar	Ta'rif

7. Muammoli ta'lim metodining asosiy maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

№	Maqsadi va vazifalari	Tushuncha

8. Darsda bahs-munozara, breynstorming texnologiyasining tutgan o'rnini tushuntirib bering.

№	BMBT	Tushuncha

9. Masofaviy ta'lim metodi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

№	MTMning o'ziga xos xususiyatlari	Tushuncha

10. Kreativ, evristik, media ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

№	KEMTMMM va O'XX	Tushuncha

VI BO'LIM. TARBIYA NAZARIYASI

VI bob. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI, MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFALARI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, QONUNIYATLARI, QOIDALARI, TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

6.1. TARBIYA JARAYONINING TASNIFI

Tarbiya nazariyasi *«Umumiy pedagogika» fanining bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o'rgatadi.* Hayotga yangicha ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi xalq pedagogikasi va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda maktabshunoslik va oliy ta'lim pedagogikasi bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boruvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacha talqin etilganda, *tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Ma'lumki, turli makon va zamonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchan*lik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya jarayoni mohiyati, mazmuni xususida «Avesto»da, Qur'oni Karim va Hadislarda, shuningdek, xalq pedagogikasi, mashhur allomalardan hazrat Abu Hamid al-G'azzoliy, Attor, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubroning ta'lim-

tarbiyaga oid qarashlari, Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Kitob al Musiqi al-Kabir», «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida»; Beruniyning «Mas'ud qonuni», «Hindiston», «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Axloq haqida risola»sidagi ma'naviy-ma'rifiy masalalar; Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri manozil», «Axloq haqida risola», «Donishnoma», «Salamon va Ibsol», «Xay ibn Yakzon», «Tib qonunlari»; Alisher Navoiyning: «Makorim ul-axloq», («Mukarram xulqlar»), «Badoiy ul-bidoya» («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodir un-nihoya», («Nodirliklar nihoyasi»), «Xazoyin ul-Maoniy», («Ma'nolar xazinasi») asarlarida insonni tarbiyalash g'oyalari hozirgi zamon bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari bo'lib qolaveradi.

Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sosiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, ezgulikka intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

– jahl chiqqanda o'zini bosa olish; har bir ishni qilganda «yetti o'lchab bir kesish», sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;

– doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;

– bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmay qo'ymaslik;

– topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar.

Az-Zamaxshariyning fikricha, tarbiyalanganlikning o'nta nishonasi farqlanadi:

– birinchisi – xalq to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;

– ikkinchisi – o'z nafsiga erk bermaslik;
– uchinchisi – birovdan ayb qidirmaslik;
– to'rtinchisi – yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;
– beshinchisi – agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish;
– oltinchisi – muhojirlar hojatini chiqarish;
– yettinchisi – el g'amini yeyish;
– sakkizinchisi – o'z aybini tan olish;
– to'qqizinchisi – el bilan ochiq yuzli bo'lish;
– o'ninchisi – odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

Abdulla Avloniyning fikricha: **«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. ...xulq – nafsning suvrati»** *bo'lsa, Hamza Hakimzodaning ta'riflashicha:* **«Axloq xulqni ja'midur. Axloq ikki qism bo'lur. Biri axloqi husniya (yaxshi xulqlar), ikkinchisi axloqi zamima (yomon xulqlar)dur. Axloqi husniya insoniyat olamining bir gulshanidirki, anda hayo, qilm, saho, qanoat, rizo, shukr, sabr, tavba, sidx, tavoz'u, ajz, fakrga o'xshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o'lur. Axloqi zamima bir sho'razordurki, oni aksincha jafo, zulm, hasad, kibr, kufr, tama', g'azab, nifoq, g'asb, namima, qizb, bo'xton, g'iybat, buxl, hiyonat, isrof, kirs, poyrik, ta'jil, fitna, hosil; bunga o'xshash turlu kabohat nimarsadan boshqa shaylar ko'karmasdan».** Demak, tarbiyalanganlik barcha ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy xulqlardan forig' bo'lish demakdir. Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlarni, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda *pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyalash faoliyatiga* murojaat etish zarur. Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmoq lozim. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Tarbiya jarayonida: so'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik, amaliy namuna, rag'batlantirish, jazolash kabi metodlari qo'llanadi. Bu haqda keyinroq batafsil to'xtalamiz.

Tarbiya jarayonida an'analar, udumlar, rasm-rusumlarning roli kattadir. Vatan tuyg'usini shakllantirish, ona tilimizga muhabbat

uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan insoniylikni ulug'lash, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat-sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagi bilimlarni boyitish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillari to'g'risidagi tushuncha bularning barchasiga tarbiya metodlari orqali erishiladi. Har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga yetkazishda quyidagi tarbiya turlarining ahamiyati salmoqlidir:

1. Aqliy tarbiya – *bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm, farosat;*

2. Axloqiy tarbiya – *axloq, odob, xulq, yaxshilik, ezgulik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va h.k.;*

3. Mehnat tarbiyasi – *faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, aqliy ish, jismoniy mehnat, manfaat, foyda, maosh va h.k.;*

4. Jismoniy tarbiya – *chiniqish, sport, o'yinlar, sog'lom tan va h.k.;*

5. Estetik tarbiya – *go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish-turish, saranjom-sarishtalik va h.k.;*

6. Ekologik tarbiya – *tabiat, atrof-muhit, o'simlik va hayvonot dunyosiga ongli munosabatda bo'lish va h.k.;*

7. Iqtisodiy tarbiya – *bozor iqtisodiyoti, tejamkorlik, sarf-xarajat, isrof, foyda, mulk, mulkka egalik va h.k.;*

8. Huquqiy tarbiya: *fuqaro, tenglik, to'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch kabi tushunchalarni qamrab oladi.*

Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, o'quvchi-talaba shaxsi tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy tarbiya jarayoni milliy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Zero, O'zbekiston Respublikasining *«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator fundamental asarlari va nutqlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yishning maqsadi va vazifalari, uni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari belgilab berilgan.*

Umuman, **tarbiya jarayoni**ni ijtimoiy hodisa sifatida quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tarbiya – jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati,

ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi.

2. Tarbiya jarayoni – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

3. Shaxs tarbiyasi – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Demak, **tarbiya** *ijtimoiy hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir.* **Tarbiya jarayoni** *insoniyat paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lgan bo'lib, usiz alohida shaxs ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki,* **tarbiya jarayoni** *inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyat bo'lib, u avloddan-avlodga o'tib boraveradi.*

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, xulqiy odatlilik va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarning ijtimoiy ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari va jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga mos keladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida o'quvchi-talabalar tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'quvchi-talabalar shaxsining ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari o'quvchi-talabalar shaxsiga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri tarbiyalanuvchining ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. O'quvchi-talabalar faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchilarning bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi

turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o'quvchi-talabalarning ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va xulqiy odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchi-talabalarning ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchi-talabalar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini – tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bir so'z bilan aytganda tarbiya jarayoni – har bir insonning hayotda yashashi (umumiy faoliyat, ta'lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zida shakllantirish va o'zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchi-talabalarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Demak, o'qituvchi-tarbiyachi o'quvchi-talabalar shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik va talabalik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, o'yin sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Umumiy pedagogik jarayonda tarbiya muhim o'rin tutadi. O'quvchi-talabalar shaxsini shakllantirish boshqaruv, nazorat tavsifiga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, vositalari, o'quvchi-talabalar shaxsining o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, tarbiya jarayoni mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi (2 va 3-shaklda).

1-shakl


Tarbiya jarayoni asoslari
Maqsad
Ertangi kunga ozod, erkin, hur fikrli mustaqil, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash
Mazmun
Aqlli, zehnli, hur fikrli erksevar, vatanparvar, axloqli
Metod
Suhbat, nasihat, munozara, ibrat, namuna, jazolash, rag'batlantirish, tushuntirish
Shakl
Miqdori, joyi, vaqtiga bog'liq (yakka, jamoa, guruh, ommaviy) o'quv tarbiyaviy maktabdan tashqari reja profilaktik yakuniy
Vosita
Turli xil kechalar, tarbiyaviy kinofilmlar, badiiy kitoblar, gazeta va jurnallar
Vazifa
Turli faoliyatlarni tashkil etish tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvini tashkil etish, xulq-atvor buzilishini oldini olish
Natija
Sifat va vazifalar yoki madaniyat

2-shakl



Tarbiya – tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida ma'lum bir maqsadga erishish yo'lida shu maqsad talab etgan mazmunni, u yoki bu metod va vositalar yordamida shakllantiriladigan, natijaga ega bo'ladigan jarayondir

3-shakl


O‘z-o‘zini tarbiyalash
TARBIYA JARAYONI-NING TASHKILIY - TUZILMAVIY SHAKLI
Qayta tarbiyalash
Ijtimoiy buyurtma
Maqsad, shakl, metodlar, tashkil etish, boshqarish
Shart-sharoitlar
Shaxsni shakllantirish jarayoni

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalash aqlni peshlash demakdir. Bu esa iste'dodlarni yuzaga chiqarishga asos hamdir. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Bunga mos tarbiya lozimligi har qanday ongli insonga ma'lumdir.

Ma'lumki, har qanday kishida muhim bir bezak bor. U insondagi aql va odob go'zalligidir. Ushbu go'zallik kishiga hayotda o'z o'rnini topishda muhim ma'naviy asosdir. Bu esa ularning o'zlari ham tarbiyada ibrat-namuna oladigan shaxslar bo'lishiga katta imkoniyatdir. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. **Komil inson** – *yetuk, to'liq, mukammal, bekamu-ko'st, barkamol, olimu dono, usta, mohir, qo'li gul, aqli teran, yaxshi tarbiya ko'rgan, axloq-odobli kishining qadr-qimmatini uning o'ziga o'xshagan kishilar ekanini yaxshi anglagan inson. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.*

Shaxs tarbiyasi har qanday jamiyatda dolzarb masala bo'lib kelgan va uning yechimlari haqida o'sha jamiyat ongli aholisi (intellektual salohiyatli avlodi) qayg'urib kelgan. Ular bo'yicha olingan istiqbolli yechimlar avloddan-avlodga o'tib kelavergan va ulardan ba'zi o'git, hikmat hamda pand-nasihat ko'rinishini ham olgan. Ayniqsa, bu borada allomalarimizdagi qobiliyat va iste'dodlarini yoshlar tarbiyasida ibrat-namuna qilib ko'rsatilsa, barkamol shaxs tarbiyasi yanada ta'sirchan bo'lar edi.

Xullas, har bir jamiyat, jamoa, oila va hattoki ayrim insonlar yuksak orzular amalga oshishida ibrat-namunadan foydalanish ijobiy natijalarning qo'lga kiritilishiga shubha qolmaydi. Bu jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalarga ham qaratilgan bo'ladi. Chunki tarbiya jarayoni insonning paydo bo'lganidan boshlab, to umrining oxirigacha zarur bo'lgan qadriyatdir.[1]

6.2. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

[1] Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2010, 133- 135-betlar. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2008, 79-81-betlar.

4-shakl


TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI
O‘QUVCHI-TALABALAR SHAXSINI MUAYYAN MAQSAD YO‘LIDA HAR TOMONLAMA VOYAGA YETISHI UCHUN IJTIMOIY ONG VA XULQ-ATVORNI TARKIB TOPTIRISHDAN IBORAT

5-shakl

TARBIYA
JARAYONINING
MAZMUNI
O‘ZBEK XALQ
PEDAGOGIKASI,
«AVESTO»DAGI, QUR’ONI
KARIM OYATLARI,
PAYG‘AMBARIMIZ
MUHAMMAD HADISLARI,
MILLIY VA MADANIY
QADRIYATLAR, MUTAFAKKIR
VA OLIMLARNING TA’LIM-
TARBIYAGA OID
ASARLARIDAGI
G‘OYALAR

6-shakl

TARBIYA
VOSITALARI
O‘QUVCHI-TALABALAR JALB QILINADIGAN FAOLIYAT TURLARI:
HASHARLAR, TO‘GARAKLAR, BADIIY HAVASKORLIK, SPORT O‘YINLARI, KUTUBXONA FAOLIYATI, UCHRASHUVLAR, SAYOHATLAR, KINO, TEATR, RADIO, TELEKO‘RSATUVLAR, SAN’AT ASARLARI VA H.K.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. O'quvchi-talabalar o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiyaning maqsadi va vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi.

Yaxlit yondashish obyektiv ravishda aqliy, g'oyaviy, mafkuraviy, axloqiy, mehnatsevarlik, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya birligini o'quvchi-talabalarning ongi, xulq-atvori bilan qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik jarayonni vujudga kelishini va bu jarayon talablariga amal qilishni talab qiladi. Ijtimoiy tarbiya jarayoni o'quvchi-talabalar shaxsining ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga, ularning tevarak-atrofga, jamiyatga, odamlarga va o'ziga nisbatan munosabatlar doirasini vujudga keltirishga, kengaytirishga qaratilgan. O'quvchi-talabalar ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng va xilma-xil bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi va g'oyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi:

1. **Tarbiya maqsadining aniqligi.** O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsadi aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining **«Ta'lim to'g'risida»**gi Qonuni hamda **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** g'oyalariga ko'ra, **ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat.** Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita bu – shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutiladi.

2. **Yoshlar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.** O'qituvchining yoshlar bilan ma'naviy madaniyatining eng yaxshi namunasini

izlashi, shu asosida tarbiyachi insonning hayotiy me'yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi, o'quvchi-talabalarning tarbiya jarayonida faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan o'quvchi-talabalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.

3. **O'z-o'zini anglash**. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim jihatlaridan biri – bu insonning hayotida o'z-o'zini anglashi, inson o'z shaxsiy hayoti va baxtining subyekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotda fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash g'oyalariga tayanib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

4. **Tarbiyaning yo'naltiruvchanligi**. Mazkur g'oya maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari amaliyotining markazida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi-talabalar turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos tavsifi o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. **Ixtiyoriylik**. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'quvchi-talabalar ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'quvchi-talabalarning qiziqishi, faoliyati o'r-toqlik va fuqarolik burchini anglashi, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'rib va anglay olsagina, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatda samaraga erishadi.

6. **Jamoa yo'nalishi**. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida o'quvchi-talabalar shaxsining har tomonlama taraqqiyoti, ularda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilarga aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olish lozimligini uqtirishning o'zi ham samara beradi. Zamonaviy tarbiya mazmuni, g'oyalari yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

7-shakl


Tarbiya maqsadining aniqligi
Tarbiyaning yo‘naltirilganligi
Yoshlar va kattalarning birgalikdagi faoliyati
Zamonaviy tarbiya mazmuni va g‘oyalari
Yoshlar va kattalarning birgalikdagi faoliyati
O‘z-o‘zini anglash
Jamoa yo‘nalishi

6.3. TARBIYA JARAYONINING MAQSADI VA VAZIFALARI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tarbiya jarayonining maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. *Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiya jarayonining asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, keng tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatlari barq urib kamolotga* **etgan raqobatbardosh .va yuksak malakali kadrlarni tayyorlashni ko'zlaydi.** Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiya jarayonining maqsadi natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi-talabalar shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi. Chunki ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tatbiq etadi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya ko'p omilli xarakterga ega, ya'ni o'quvchi-talaba shaxsining qaror topishiga oila, ta'lim muassasalari, maktab, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Tarbiyaning natijalari bir xil tavsifda bo'lmaydi. Bu o'quvchi-talabalarning psixologik (individual tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlariga, ularning hayotiy va ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy jihatlariga bog'liq. Tarbiya odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, tarbiyalanuvchining atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va o'quvchi-talabalar shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish bilan qo'shib olib boriladi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning o'zida ijtimoiy qadriyatga ega bo'lgan insoniy fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf ettirishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta'riflanadi. O'z-o'zini qayta tarbiyalash o'quvchi-talabalar shaxsining o'zidagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni yo'qotishga, bartaraf etishga qaratilgan ichki

faoliyat mazmunidir. O'quvchi-talabalar xulqidagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchining ta'lim-tarbiya faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulq, hosil qilingan zararli sifatlar o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda ta'lim muassasalari, oila, ota-onaning hamkorligi lozim bo'ladi. Demak, qayta tarbiyalash o'quvchi-talabalarning o'zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Sharq mutafakkirlari ta'limni hech qachon tarbiyadan ajratib ko'rishmagan. Sharq xalq pedagogikasining jumladan, etnopedagogikasining o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, nafaqat tarbiya ta'limdan ajratilmagan, balki ta'limda shaxs rivojlanishda milliy o'ziga xoslik alohida ko'rilmagan. Milliy o'ziga xoslik faqat biror bir tilni (masalan: ruscha, arabcha, o'zbekcha, forscha) o'rganilganda e'tiborga olingan. Albatta, o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirishni ayricha ko'rib bo'lmaydi. Ammo, ko'pgina naqllar mohiyatidan ma'lumki, tarbiya alohida qirralar sifatida ham e'tirof etilgan. Masalan, «Olim, bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» maqolini olib ko'raylik. Ya'ni odam bir qancha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar sohibi bo'lgani bilan hayotda o'z o'rnini topa olmasligi, shaxs sifatida shakllana bilmasligi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoni o'qituvchilar tomonidan shaxsning bilim, iqtidor, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Tarbiya esa shaxs tarbiyalanganligining mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda bu xislatlarni ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini o'rganish, tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish, asosan dars jarayonini tashkil etish, uning asosiy qismlariga qo'yiladigan talablarga ijodiy yondashishga bog'liq.

Ma'naviy qadriyatlarni boy tarixiy-madaniy meros sifatida o'rganishning samarali andozasi qator pedagogik shartlarga tayangan holda yaratiladi. Bu o'rinda ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlarning umumiy xarakteri (tabiiy matematik, ijtimoiy-gumanitar va maxsus fanlar, odobnoma, turmush odobi, din tarixi hamda ilmiy-madaniy meros kabi fakultativ mashg'ulotlar); dars jarayonida o'rganiladigan mavzuning ma'naviy qadriyatlarni o'rganishdagi imkoniyatlari; o'quvchi-talabalarning ma'naviy talabi, qiziqishi va ma'naviy madaniyat darajasi; o'quvchi-

talabalar ma'naviy ehtiyoji va o'qituvchi saviyasi; ta'lim mazmunida dars ta'limining tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik xususiyatlariga yaxlit jarayon sifatida munosabat; dars shakllari, usul va vositalarning o'quvchi-talabalar ma'naviy madaniyatini tarbiyalash samaradorligini ta'minlashga xizmat qila olish darajasi; umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi asosida o'quvchi-talabalar ma'naviy madaniyatini shakllantirish; o'quvchi-talabalarning yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olish; turmush tarzi (oila muhiti, saviyasi, hududiy yashash joyi va h.k.) ta'lim-tarbiya mazmunining o'zaro davr talabiga moslik darajasi hisobga olinadi. Yuqorida keltirilgan barcha omillar tarbiya maqsadi ta'lim jarayoni bilan bog'liq holda olib boriladi. Aks holda tarbiya samaradorligi talab darajasida bo'lmasligi aniq.

Shunday qilib, tarbiya nazariyasidagi asosiy muammolarni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

– tarbiyaviy ish ma'nosini aniqlash;

– tarbiya istaklarini tasniflash;

– o'quvchi-talabalarning ma'naviy ehtiyoji va talabi;

– o'quvchi-talabalarning yoshi, umumiy saviyasini inobatga olish;

– o'quvchi-talabalar bilim saviyasi, mantiqiy fikr doirasining o'sishi, tarbiyasiga ta'sirini aniqlash;

– o'qituvchining shaxsiy xislatlarini shakllantirish, olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tadqiq etish.

Buni o'rganish davomida ta'lim va tarbiyaning bir-biriga uyg'unlashib ketganligini esda tutish kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayonlarining ajralmas qismlaridan biri ta'lim mazmunini shaxsiy xislatlarni tarbiyalashning katta imkoniyatlariga egaligidadir. Ayniqsa, bu mazmun o'quvchi-talabalar shaxsini shakllanishi tafakkurini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda uyg'unlashtirish va yuqori bosqichlarda rivojlantirish, axloqiy xislatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bulardan tashqari o'quv-tarbiya tizimidagi o'quv, ijtimoiy foydali va unumli mehnat, estetika, ta'lim vositalari, mehnat va estetik va jismoniy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlarini berishini ham qayd etish joizdir. O'qituvchining o'quvchi-talabalar bilan muloqoti, o'quvchi-talabalarning dars jarayonida subyektiv sifatidagi aktiv faoliyati, o'qituvchining o'quvchi-talabalar shaxsini shakllanishiga ijobiy ta'sir eta olishi bunday imkoniyatlarning yana bir qirrasidir.

Shakl va mazmun jihatdan ta'lim va tarbiya bir-biri chambarchas bog'lanib ketgan. Yuqorida keltirilgan dalillar yana bir marotaba ta'lim bilan tarbiyaning ajralmas jarayon ekanligini, o'quvchi-talabalarning

atrof-muhitga, fan qonuniyatlariga, axloq, odob qirralariga munosabati bevosita o'quv jarayonida boshlanib, darsdan va auditoriyadan tashqari faoliyatlarda davom etishini ko'rsatadi. Tarbiya maqsadi o'ziga xos xilma-xillikka ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya maqsadi o'qituvchi va o'quvchi-talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsad yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashning zamonaviy usul va vositalari foydalanish imkoniyatini izlab topishdir. Tarbiya maqsadini amalga oshirish jarayonida milliylikka, milliy urf-odatlar, an'analarga e'tiborni qaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Demak, **milliy mentalitetimizga** ko'ra, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayricha tasavvur etish mumkin emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish asosida tarbiyaning maqsadi belgilab olinadi. ***Ular: mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash, tarixiy-madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, taraqqiyot qonunlari, buyuk siymolar merosini o'zlashtirish, rivojlangan mamlakatlar madaniyati yutuqlarini o'rganish, allomalarimizning komil inson haqidagi ta'limotlaridan samarali foydalanish.***

Respublikada ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifasi shulardan iborat. Shu bilan birga tarbiya turlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va mafkuraviy tarbiya o'zining xususiy ***maqsadidan*** *kelib chiqqan holda quyidagi bir qator* ***vazifalarni*** *amalga oshiradi.*

1. **Axloqiy tarbiya**ni tashkil etish jarayonida o'quvchi-talabalarni ijtimoiy axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ulardan ijtimoiy axloqiy me'yorlar (talab va taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirish.

2. **Aqliy tarbiya**ni yo'lga qo'yish chog'ida o'quvchi-talabalarni ilm-fan, texnika va · texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy-gumanitar fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirish.

3. **Jismoniy tarbiya**ni tashkil etish jarayonida o'quvchi-talabalarda o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni

chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishni hamda uning ishlash qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchi-talabalarning yoshiga va jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, sabot-matonat, chidam, iroda va tavsifni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash.

4. **Estetik tarbiya**ni olib borish jarayonida o'quvchi-talabalarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatni shakllantirish.

5. **Ekologik tarbiya**ni olib borish chog'ida o'quvchi-talabalarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchi-talabalarga tushuntirish, ularda ekologiyaning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. **Iqtisodiy tarbiya**ni tashkil etish jarayonida o'quvchi-talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasidagi qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

7. **Huquqiy tarbiya**ni tashkil etish jarayonida o'quvchi-talabalarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish.

8. **Ijtimoiy-siyosiy tarbiya**ni tashkil etish jarayonida g'oyaviy va mafkuraviy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy davlat tuzilishi, fuqarolik jamiyati asoslari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi mafkurasi mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchi-talabalarda mafkuraviy faoliyat ko'nikma va malakalarni qaror toptirish, mafkuraviy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

8-shakl


TARBIYA MAQSADI
Tarbiya
Tor ma'noda
Keng ma'noda
O'ziga va dunyoga shaxs munosabatini shakllantirish
Shaxsni madaniyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish
Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash
Shaxsda fuqarolik madaniyatini tarbiyalash
Ijtimoiy obro'ga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash
Mustaqil shaxsni tarbiyalash
O'z-o'ziga ishonch, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, insonlarga yordam bera oladigan shaxsni rivojlantirish

9-shakl


Tarbiyaning vazifalari
Tarbiyada ijobiy sifatlarni shakllantirish
Tarbiyalanuvchilarda turli faoliyatlarni tashkil etish
Tarbiyalanuvchi ijtimoiylashuvini tashkil etish
Tarbiyalanuvchilar salomatligini himoya qilish
Xulq - atvorini buzilishining oldini olish
Tarbiyaning maqsadi
Jamiyat ehtiyojini ifodalaydi va umumlashtiradi
Tarbiya maqsadiga tayanish ijtimoiy tarixiy mohiyatini, mazmunini, metodini, shaklini ochib beradi
O'rganuvchan xarakterga ega
Davlatni, muhitni, guruhning, o'zini ehtiyojini ifodalaydi

10-shakl



Tarbiya:

♦bu shaxslar orasida o'zaro munosabatlar tizimini hosil qilish. Ya'ni odamni boshqa shaxslarga, mehnatga, jamiyatga, dunyoga, o'ziga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishdir.

♦ Shaxsni ijtimoiy rivojlanishi uning fikriga tayanish, bu tayanish shaxs ehtiyojlarida ifodalanadi.



11-shakl



Demak, tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya **jarayonining xususiyatlarini** aniqlab olishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayoni xususiyati ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi *(subyektiv va obyektiv)* omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar o'quvchi-talabalar shaxsining ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabat-

larini anglatishga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonining vazifalari – ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi **vazifalarni** hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchi-talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va h.k.), muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchi-talabalarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchi-talabalarda fuqarolik tuyg'usini, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va hokazolar.

Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, o'quvchi-talabalar shaxsini shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Bunda oila, ta'lim muassasalari, o'quvchi-talabalar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kinoteatr, televideniye, adabiyot va san'at ishtirok etadi. Tarbiya jarayonining bunday tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya **natijalari** tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy **sifatlarni namoyon** eta olgan o'quvchi-talabalar shaxsini tarbiyalab voyaga **yetkazishda** uzoq muddatli davr talab etiladi. O'quvchi-talabalar **shaxsini muayyan** vaqtning o'zida turli-tuman qarashlari mavjud **sharoitda harakat** qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim **muassasalaridagi** tarbiya jarayoni o'quvchi-talabalarning ongini, dunyoqarashini **shakllantirishda** muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida **insonda** odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. **Shu bois** tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchi-talabalik yillarida **shaxsga** to'g'ri tarbiya berishni talab etadi. Demak, tarbiya shaxsning **butun** umr bo'yi davom etadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtirila boriladi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik tavsifiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni o'qituvchining o'quvchi-talabalarga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchi-talabalarning o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi-talabalar tarbiya jarayonining obyekti bo'lib qolmasdan, balki subyekti sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchi-talabalarning ichki imkoniyatlarini, ularga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlarni, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, o'quvchi-talabalar **shaxsini** tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun **topadi**. **Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati** – tarbiyada qarama-**qarshiliklarning** g'oyat ko'pligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar **o'quvchi**-talabalarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan **dastlabki** sifatlar bilan o'qituvchi tomonidan tarkib toptiriladigan sifatlar **o'rtasida** yoki o'quvchi-talabalarga qo'yiladigan talablar bilan ularni

bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha o'quvchi-talabalarning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchi-talabalarning alohida yosh xususiyatlarini (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik sog'lomligini) yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

Umuman, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni mujassam etadi:

12-shakl



Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi umumiy xulosani chiqarish mumkin:

– birinchidan, tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib

toplirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni bo'lib, har qanday ijtimoiy tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosiy bo'lib kelgan;

ikkinchidan, yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi;

– uchinchidan, tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish, ko'zlangan maqsad va vazifalarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

6.4. TARBIYA JARAYONINING QONUNIYATLARI, QOIDALARI VA TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bunday qonuniyatga tarbiya jarayonida ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir.

Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar tarbiyaning subyektiv omillari sirasiga (ta'lim-tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamoatchilik dunyoqarashi, mafkura g'oyalari, shaxsni har

tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar) kiradi. Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta'minlangan sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rgatiladigan aloqalari shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi-talaba)lar shaxsini har tomonlama o'rganishi va shu asosida unga to'g'ri psixologik tavsif berishi hamda ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, ularga har qanday tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.

Tarbiyaning uchinchi qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Subyekt (shaxs) – obyekt (ijtimoiy borliq) ijtimoiy munosabatlari to'g'ri tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyati mazmuni va yo'nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida shaxsda borliqni his etish, o'z-o'zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ehtiyojni qondirish yo'lidagi dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'rganish va o'zlashtirish sanaladi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglash ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat jarayonida ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo'ladi. Qiziqish o'z navbatida shaxsda muayyan hayotiy maqsadni qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intilishi, balki o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash layoqatini ham namoyon eta borishi maqsadga muvofiqdir. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g'oyalar amaliy harakatlarini tashkil etish borasidagi rag'batlarni yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Rag'batlar o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi: ***fuqarolik,***

vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmiy anglash, axloqiylik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik, huquqiy va hokazolar.

Qayd etilgan rag'batlar amaliy harakatning tashkil etilishi uchun turtki beradi. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatini boshqarish talab etiladi. O'quvchi-talabalar shaxsida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs faoliyati mohiyatini anglash ehtiyoji va insoniy sifatlar quyidagi tizim asosida kechadi:

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, shaxsning shakllanishiga – uning asosiy munosabatlarining yaxlit tizimida tarbiyachi, o'qituvchi, o'quvchi-talabalar va shaxs bilan bo'ladigan o'zaro ta'siri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning to'rtinchi qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi sanaladi.

Tarbiyachi (o'qituvchi)larning va o'quvchi-talabalar jamoasining tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'siri, ular faoliyati va munosabatlarini tizimli hamda rejali tarzda maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi-talaba)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiyaviy obyekt hisoblanadi. Biroq tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erishsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlanuvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) vazifalari tarbiya jarayonida (tarbiyalanuvchilarning) asosiy vazifalari sanaladi.

Tarbiyalovchiga ko'rsatiladigan ta'sirlar muayyan shaxslarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ta'sir ko'rsatishning alohida yo'llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyadagi muvaffaqiyat, aksariyat hollarda pedagogning o'z o'quvchi-talabalarining tarbiyalanganlik darajasini, ya'ni ularning ongliligi, axloqiy sifatlariga egaligi, odilligi, qat'iyatliligi va boshqalarni bilishiga bog'liq. Demak, tarbiya jarayonining qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

13-shakl


Ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs faoliyati mohiyatini anglash ehtiyoji tizimi
Ijobiy munosabat
Maqsad
Rag'bat
Faoliyat
Madaniyat
Qiziqish

14-shakl


TARBIYA JARAYONINING QONUNIYATLARI
Tarbiyaning, ijtimoiy muhitning obyektiv omillarga bog'liqligi
Tarbiyaning shaxs taraqqiyoti (rivojlanishi) bilan birligi o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi
Faoliyat va munosabat birligining ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirish negizi va asosiy manbai ekanligi
Tarbiyalanuvchining o'zaro tarbiyaviy ta'siriga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'liqligi

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga o'quvchi-talabalar tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator **muhim qoidalari** bo'lib, ular quyidagilar:

– tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
– tarbiyada insonparvarlik va demokratiya;
– tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa deb bilish;
– tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
– o'quvchi-talabalar shaxsini jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
– tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
– tarbiyalanuvchi (o'quvchi-talaba)larning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
– tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

15-shakl



Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyil (prinsip)larga amal qilinayotganligiga bog'liq.

Tarbiya tamoyil (prinsip)lari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va barkamol avlodni tarbiyalashning mazmuni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyil (prinsip)lari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

16-shakl



Tarbiya tamoyil (prinsip)lari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya jarayonining tamoyil (prinsip)lari quyidagilardan iborat:

17-shakl



1. Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
2. Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
3. Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
4. Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
5. Tarbiyaning ijtimoiy hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
6. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
7. Tarbiyada o'quvchi-talabalarning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
8. Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
9. Tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

1. Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi – o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi hamda puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim muassasalarida va ulardan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

2. Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga avvalgidek tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchi-talabalarga teng huquqli hamkor, hamfikr deb qarashi lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni o'quvchi-talabalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

3. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchi-talabalar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, o'quvchi-talabalarda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

4. Tarbiyada izchillik va tizimlilik – tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchi-talabalarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchi-talabalarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

5. Tarbiyani ijtimoiy hayot va mehnat bilan qo'shib olib borish. Tarbiyada ijtimoiy hayot tajribasi va mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi-talabalar shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi shaxsni faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat o'quvchi-talabalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarni yoshligidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi.

6. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish – o'quvchi-talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdaki o'quvchi-talabalarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. O'quvchi-talabalar shaxsiga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

7. Tarbiyada o'quvchi-talabalarning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish – tarbiyaning mazmuni, shakl va

metodlari o'quvchi-talabalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda va guruhlarda turlicha bo'ladi. O'quvchi-talabalar ta'lim muassasalarida rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida o'quvchi-talabalarning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. O'quvchi-talabalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq ularning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchi-talabaga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchi-talabaga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi-talabani o'ziga xos xususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

8. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya jarayoni o'quvchi-talabalarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada har bir o'quvchi-talaba har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchi-talabalar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchi-talabalar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim.

Shunday qilib tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotish uchun mahoratli pedagoglar o'z o'quvchi-talabalarining shaxsiy fazilatlarini yaxshi bilishlari lozim. *Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun o'quvchi-talabalar xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. O'quvchi-talabalardagi ijobiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga va o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlarga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.*

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, insonning jamiyatda muayyan sifatlarini (jismoniy, ma'naviy, ruhiy, aqliy) ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya jarayoni – har bir insonning hayot uchun yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatini o'zida shakllantirish hamda o'zgalarga berish jarayonidir.

Tarbiya maqsadining aniqligi – O'zbekiston Respublikasining **«Ta'lim to'g'risida»**gi Qonuni hamda **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** ning g'oyalarini e'tiborga olgan holda erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirish, ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini shakllantirish kabi tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdir.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir o'quvchi-talabaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olishdir.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi– xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini va ulkan hamda boy merosini chuqur bilish, milliy o'zlikni anglash, millat g'urur tuyg'usini qaror toptirishlarga qaratilgan faoliyatdagi asos. Bunda xalq an'analari, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya qonuniyatlari – tabiat yoki millatdagi har qanday murakkab hodisa obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar tizimidir.

Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari hamda ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi-talabalar bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligini qanday metodlardan foydalanishga bog'liqligi.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z xatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir.

Tarbiya tamoyillari – yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisi.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
3. Tarbiya to'g'risida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy nima degan?
4. Tarbiyaviy ishlarni demokratlashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiyaviy ishlarni insonparvarlashtirish nimadan iborat?
6. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanday tashkil etiladi?
7. Barkamol inson o'zida qanday xususiyatlarni mujassam qiladi?
8. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini aytib bering.
9. Tarbiya jarayonining tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
10. Tarbiya tamoyillari qanday qismlardan tashkil topgan?
11. Tarbiya jarayonida izchillik va tizimlilik deganda nimani tushunasiz?
12. Tarbiya jarayonining tashkiliy tuzilmasini tushuntirib bering.
13. Komil inson tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
14. Tarbiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat?
15. Zamonaviy tarbiya deganda nima nazarda tutiladi?
16. Tarbiya jarayoniga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni izohlang.
17. Tarbiya va ta'limning o'zaro mushtarakligini tushuntirib bering.
18. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
19. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tushuntirib bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Shaxs tarbiya obyekti va subyekti sifatida hamda shaxsni shakllantiruvchi omillar.
2. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.
3. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
4. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.
5. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va qoidalari.
6. Tarbiya tamoyillari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. «Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot, halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» degan fikr qaysi atoqli o'zbek pedagog olimiga tegishli?

a) Alisher Navoiy;
b) Mahmud Qoshg'ariy;
s) Yusuf Xos Hojib;
d) Abdulla Avloniy;
e) Mahmudxo'ja Behbudiy.

2. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?

a) yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorini tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatdir;

b) inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatdir;

s) dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, odatlilik va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi;

d) shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon;

e) barcha javoblar to'g'ri.

3. Tarbiya jarayonining mohiyati deganda nimani tushunasiz?

a) tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi;

b) tarbiya jarayonining mohiyati tarbiyaga har tomonlama yondashishdan iborat;

s) tarbiya jarayonining mohiyati shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan;

d) tarbiya jarayonining mohiyati ijtimoiy munosabatlar tizimidan iborat;

e) barcha javoblar to'g'ri.

4. Zamonaviy tarbiya mazmunida qanday g'oyalar yotadi?

a) tarbiya maqsadining aniqligi va tarbiyaning yo'naltirilganligi;

b) yoshlar va kattalarning birgalikdagi faoliyati;

s) insonning hayotida o'z-o'zini anglashi;

d) tarbiyalanuvchilarning ixtiyoriyligi va tarbiyaviy ishlarda jamoa yo'nalishini ustuvorligi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

a) mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash;

b) tarixiy-madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish;

s) milliy madaniyatimiz rivoji, taraqqiyot qonunlari, buyuk siymolar merosini o'zlashtirish;

d) rivojlangan mamlakatlar madaniyati yutuqlarini o'rganish, allomalarimizning komil inson haqidagi ta'limotlaridan foydalanish;

e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Tarbiya jarayoni o'zida qanday xususiyatlarni mujassam qiladi?

a) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;

b) ko'p qirrali jarayon;

s) uzoq muddatli va yaxlit tizimlilik jarayoni;

d) ikki tomonlama aloqa va qarama-qarshiliklardan iborat jarayon;

e) barcha javoblar to'g'ri.

7. Tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) aqliy va axloqiy tarbiya;

b) jismoniy va estetik (nafosat) tarbiya;

s) ekologik va iqtisodiy tarbiya;

d) huquqiy va ijtimoiy-siyosiy tarbiya;

e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Tarbiya qonuniyatlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) tarbiyaning, ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liqligi;

b) tarbiyaning shaxs taraqqiyoti (rivojlanishi) bilan birligi o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi;

s) faoliyat va munosabat birligining ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirish negizi va asosiy manbai ekanligi;

d) tarbiyalanuvchining o‘zaro tarbiyaviy ta’siriga ega ekanliklari, ularning o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o‘rtasidagi bog‘lanish;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

9. Tarbiya jarayonining muhim qoidalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) tarbiyada insonparvarlik va demokratiya hamda tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;

b) tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog‘liqligi, tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;

s) shaxsni jamoada tarbiyalashning o‘rni va tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo‘lish hamda uning shaxsini hurmat qilish;

d) tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish hamda tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazamliligiga e’tibor berish;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

10. Tarbiya tamoyillari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi hamda tarbiyada insonparvarlik demokratik g‘oyalarning ustuvorligi;

b) tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi, izchillik va tizimlilik;

s) tarbiyaning ijtimoiy hayot va mehnat bilan bog‘liqligi hamda tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;

d) tarbiya jarayonida har bir shaxsning yoshi va alohida xususiyatlarini hisobga olish, shaxsni jamoa yordamida tarbiyalash va hokazolar;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?

№	TARBIYA	Tushuncha

2. Tarbiya jarayonining mohiyatini tushuntirib bering.

№	TJM	Tushuncha

3. Tarbiya jarayonining mazmuni deganda nimani tushunasiz?

№	TJM	Tushuncha

4. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?

№	TM va V	Tushuncha

5. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

№	TJO'XX	Tushuncha

6. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini tushuntirib bering.

№	TJAQ	Tushuncha

7. Tarbiya jarayonining tamoyillarini tushuntirib bering.

№	TJT	Tushuncha

8. Tarbiya jarayoniga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni izohlang.

№	TJTEI va TO	Izoh

9. **Tarbiya jarayonining asosiy qoidalarini tushuntirib bering.**

№	TJAQ	Tushuncha

10. **Tarbiyada izchillik va tizimlilik deganda nimani tushunasiz?**

№	TI va T	Tushuncha

VII bob. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

7.1. TARBIYA METODLARINING MAQSADI VA MAZMUNI TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Tarbiya metodlari deganda shaxsni har tomonlama shakllantirish maqsadida, shaxsning ongi, his-tuyg'usi, irodasi va munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Yevropada tarbiya metodlarining bir tizimi qabul qilingan bo'lsa, Markaziy Osiyoda boshqa tizim amalda qo'llaniladi. *Yevropa mamlakatlari uchun «Ochiq tarbiya» ko'proq qo'l keladi. Ya'ni bola nima xohlasa shuni qilishi, katta-kichik oldida nimani xohlasa shuni gapirishi, xoh o'zidan kattani, xoh ota-onasini xohlagan joyida tanqid qilishi mumkin.*

Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, *O'zbekistonda ko'proq paternalistik tarbiya elemetlari qo'llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o'ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish bilan birga o'zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga quloq osishlik, rahbariyatning fikrini va vazifasini so'zsiz bajarish, nogironlarni ijtimoiy himoyalash yotadi.*[1]

Ma'lumki, ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarmizni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Yosh avlodda insoniy his-tuyg'ularni tarbiyalashning asosi – kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarini himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol, rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasining muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlaridan yana biri xalq og'zaki ijodi materiallarida xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya yo'llari, usuli va vositalarining yoritilishidir. Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. *Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish va mashq*

[1] Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 1997, 176-bet.

qildirish), bolalarning kundalik hayot tartibi, ibrat ko'rsatish, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilaktstak bildirish, ma'qullash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, taqiq etish, man etish, ta'na, gina qilish, qoralash. Allohdan qo'rqishga undash, tanbeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxaramazax qilish, zaharxandalik, ayblash, uyaltirish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont-qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish-kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi.

Tarbiya jarayoni murakkab bo'lib, o'quvchi-talabalar xulqidagi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirib borish bilan birga, salbiy xislatlarni va odatlarni yo'qotib borishni taqozo etadi. Mahoratli o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalardagi bu fazilatlarni hisobga olib, tarbiyalashda turli xil usul va vositalardan foydalanadi. Tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar tomonidan qo'llanadigan metodlar muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya metodlari – o'qituvchi-pedagoglarning o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Ayni vaqtda tarbiya mazmunini ko'p qirraliligi tufayli tarbiya metodlari ham xilma-xil bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash tarbiyaning qaysi jihatlari olib borilayotganligiga bog'liq. Albatta, tarbiya jarayonining qandaydir bosqichida metod ba'zan ajratib olingan holda alohida qo'llanilishi mumkin. Biron-bir tarbiya metodidan foydalanish aniq pedagogik sharoitga hamda o'quvchi-talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga ham bog'liq.

Tarbiya metodlari o'quvchi-talabalar shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. **Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.**

Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi faol va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari bu o'qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchi-talaba (tarbiyalanuvchi)larning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi-pedagoglar va o'quvchi-talabalarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi. Demak, tarbiya ikki tomonlama jarayon bo'lib o'qituvchi-pedagoglar (tarbiya-chilar) faoliyati bilan o'quvchi-talabalarning faoliyatini birlashtiradi.

O'quvchi-talabalarning tarbiyaviy ta'sirga faol tayyor bo'lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo'yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo'llari **tarbiya vositalari** deb yuri-tiladi. O'quvchi-talabalar bilan tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan te-levideniye, radio, kitoblar, gazeta-jurnallar va hokazolar tarbiyalanuvchi shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi.

O'qituvchi-pedagoglarning jonli nutqi, shaxslarning o'yinlari, jamoatchilik, havaskorlik va texnik to'garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uchun ularni albatta murabbiy-pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo'lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo'shib olib borishga bog'liqdir. Zero, tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan foydalanishning maqsadi va mazmuni barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

O'quvchi-talabalar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiya-langanlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchi-talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida o'quvchi-talabalarni mehnat faoliyatiga, xulq-atvor qoidalariga o'rgatishda, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, tarbiyalanuvchilarga *qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish*

metodidan foydalanadi. **Tushuntirish** bilan bir qatorda dars xonasiga to'g'ri kirib kelishga, ularni o'qituvchi-pelagoglar va o'quvchi-talabalar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda o'quvchi-talabalarni yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirish lozim. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. O'quvchi-talabalar topshiriqlarni to'g'ri bajarganda *ma'qullash, maqtash* kabi ta'sir vositalaridan, topshiriqlarni bajarmaganlarga, beparvolik qilgan, ishlamagan va ularni oxiriga yetkazmaganlarga esa tanbeh berish metodlarini qo'llay boshlaydi.

1-shakl



Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin (1-shakl). Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi-pedagog va tarbiyachi tarbiya

metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchi-talabalarning ijtimoiy ongida hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar o'quvchi-talabalar shaxsining e'tiqodi, ishonchi, hayotiy qarashlari va tajribasiga aylanadi. *Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.*

Ikkinchi guruh metodlarining yordamida o'quvchi-talabalarda ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi. O'quvchi-talabalar xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchi-talabalarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida *pedagogik talab metodi* ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchi-talabalarda u yoki bu daraja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

O'qituvchi-pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan talablar bora-bora jamoat talabiga aylanadi. Jamoat talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon bo'ladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri o'zida jamoaning muayyan faoliyati, voqea-hodisaga nisbatan beriladigan bahoni yoki muhokama natijasini ifodalaydi va faol ta'sir kuchi bo'lib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

***O'rgatish** – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchi-talabalar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil*

etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchi-talabalarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida o'quvchi-talabalarning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlarni o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchi-talabalar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchi-talabalar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchi-talabalarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchi-talabalar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchi-talabalarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qolishi lozim.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini *o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchi-pedagoglarning tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi-talabalarning ongi, xulqiga*

ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi-talabalar tarbiya natijasida komil inson darajasiga, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Uchinchi guruh metodlari*ga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, jazo berish va salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi.*

To'rtinchi guruhga *o'z-o'zini tarbiyalash metodlari kiradi.*

7.2. IJTIMOIY ONGNI VA IJTIMOIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchi-talabalarning ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqini shakllantirishga har tomonlama ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy ongni va axloqni shakllantirish metodlari – tushuntirish, uqtirish, ishontirish, o'git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat va hikoya shakllaridan iboratdir.

Tushuntirish metodi*dan ko'zlangan asosiy maqsad – o'quvchi-talabalarga voqea-hodisalar mohiyatini va shaxs xatti-harakatlari, u yoki bu talablarning ma'naviy-axloqiy va estetik mazmunini ochib berish, ularda shaxs xulq-atvoriga, odob-axloqiga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishdir.* Masalan, ota-onalarni va kattalarni hurmat qilish, ularga xushmuomalada bo'lish, ko'chada va jamoat joylarida yurganda tartib-qoidalarga bo'ysunish hamda jamoat tartibini saqlash qanday bajarilishi ham aniq qilib tushuntirilishi lozim.

Uqtirish metodi biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'quvchi-talabalarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. *«O'qigandan uqqan yaxshi»* degan xalq maqolida ilgari surilgan fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga yoshlikdan singdirish lozim.

2-shakl

Tarbiyaning umumiy metodlari





Ishontirish metodi. O'quvchi-talabalarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri **ishontirish metodi**dir.

Ishontirish deb, o'quvchi-talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga aytiladi.

Ishontirish metodi o‘quvchi-talabalarni ma’naviy-axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi ishontirish metodini birgina o‘quvchi-talabalargagina emas, balki butun jamoaga ham qo‘llashi mumkin.

Ishontirish metodi o‘quvchi-talabalar jamoasida sog‘lom jamoatchilik fikrini vujudga keltirishga yordam beradi, axloq normalariga, axloq qonun-qoidalariga va ayrim o‘quvchi-talabalarning xatti-harakatlariga tengdoshlari tomonidan to‘g‘ri baho bera bilishni tarbiyalaydi.

3-shakl




Samarali qo'llash shartlari
Xarakterli tomoni
• O'qituvchi-pedagogning shaxsiy ishonchi.
• O'qituvchini ilmiy tayyorgarligi.
• Haqiqat va chin ko'ngillilik.
• O'qituvchi-pedagog odobi.
• O'quvchi-talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.
• Ijtimoiy fikrga tayanish.
• Boshqa metodlar bilan aloqadorlik.
Qo'llash shakllari
• Tarbiyalanuvchilarga muloqot va faoliyatning me'yor va qoidalarini bajarishni o'rgatish
• Faoliyatni bajarishni namuna bo'yicha takrorlash va mustahkamlash
• Ishontirish orqali ta'sir etish
Amalga oshirish bosqichlari
• Tartib
• Topshiriq
• Xulq-atvor bo'yicha amaliy mashg'ulot
• Ijobiy xatti-harakat uchun vaziyatni yaratish
Aniq dasturni ishlab chiqish
Xulq-atvor namunasini namoyish qilish
Harakatlarni bajarishni sinab ko'rish
Harakatlarni bajarish tartibini mustahkamlash
Olingan natijalarni tahlil qilish
Samarali qo'llash shartlari
• Tarbiyalanuvchilar sifat va fazilatni ijtimoiy ahamiyatini anglashi.
• O'quvchi-talabalar mashq natijasini aniq ta'avvur etishi.
• Mashqni sistemali va izchil tashkil etish.
• Mashqni asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borish.
• Boshqa metodlar bilan aloqadorlik.

4-shakl

TARBIYANING UMUMIY METODLARI



Demak, ishontirish metodida o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'quvchi-talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy, intellektual va boshqa ijobiy xislatlarni shakllantiradi, salbiy illatlarni kamaytiradi, yo'qotadi.

O'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'zi aytayotgan, o'zi uzatayotgan axborotga o'quvchi-talabalarni ishontira olsagina, o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchi-talabalarni bilim olishga, aqliy faoliyatga chorlay oladi. O'qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar o'quvchi-talabalarni ishontirish uchun turli usul va vositalardan foydalanishi mumkin. Jumladan, ***ishontirish metodi*** *qo'llanilganda tushuntirish, uqtirish, o'git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat, ma'ruza va munozaralar kabi shakllardan foydalaniladi.*

O'git-nasihat. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda tajribada sinalgan va xalqimiz tomonidan doim qo'llanib kelingan o'git-nasihatdan ham foydalanmoq kerak.

O'qituvchi-pedagoglarning yoshlarga o'z tajribalari, ko'rgan-bilganlari va o'qiganlarini dalillar, aniq misollar bilan ishonarli qilib aytib berishlari, yaxshi fe'l-atvorga, odobga va axloq qonun-qoidalarini bajarishga da'vat etish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishga o'git-nasihat deyiladi.

Nasihat qilmoq o'quvchi-talabalarni yaxshilik tomon yo'llamoq, yaxshi fazilatlarni egallashda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatmoq demakdir.

O'git-nasihat o'quvchi-talabalarga yakka holda va guruh-guruh qilib berilishi mumkin.

Maslahat berish. *Maslahat – biror voqea-hodisa ro'y berganida, ishda, shaxsni xatti-harakatida, xulq-atvorida qanday qilsa yaxshi bo'lishi haqida fikr berish demakdir.* Har bir shaxs, ayniqsa, o'quvchi-talabalar bir ishni boshlashdan avval bu ish haqida kattalarning, ayniqsa, o'qituvchi-pedagoglarning fikrini bilishni istaydi. Yoki biror ishda, harakatda qiyinchilik tug'ilib qolsa, shu qiyinchilikni yengish yo'lini topish maqsadida o'qituvchi-pedagoglardan maslahat so'raydi. Bunday maslahat olish o'quvchi-talabalar hayotida tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar o'quvchi-talabalardagi bu xususiyatdan tarbiya maqsadida mohirlik bilan foydalanishlari kerak. Shuni ham aytish kerakki, o'quvchi-talabalarning hammasi ham biror ish qilganda yoki biror ishni boshlashdan oldin hamma vaqt ham maslahat olishga jur'ati yetmaydi. Bunday vaqtlarda o'qituvchi-pedagoglar yoki tarbiyachilar o'quvchi-talabalarni maslahat

olishga rag'batlantirmog'i kerak. Maslahatni ham o'quvchi-talabalarning mustaqil bo'lishlariga yordam beradigan qilib berish kerak.

Iltimos va istak. *Iltimos, o'tinch, so'rov bilan o'quvchi-talabalarga murojaat etish, ularga va ular kuchiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi.* Shuning uchun ham sinfga, guruhga yoki ayrim o'quvchi-talabaga biror ishda yordam berishlarini iltimos qilinganda ularga ma'qul tushadi, ularning faolligini safarbar qiladi va buni yoshlar bajonidil bajaradilar. Iltimos o'quvchi-talabalarning kuchiga ishonish va hurmat etishga asoslanadi. Iltimos yoki so'rash xushmuomalalik va nazokat bilan amalga oshiriladi. Masalan, *«Akbarxon, shu kitobni Burxonga eltib berishingni so'rayman», «Erkin, Vali bilan dars tayyorlab unga yordam berishingni iltimos qilaman».* Bulardan tashqari, iltimosni istak bilan qo'shib muomala qilishi mumkin. Masalan, *«Umarjon, kitobingizning muqovasiga qog'oz o'rab olsangiz yaxshi bo'lar edi», yoki «Do'stlar, hozir dam olsak qanday bo'lar ekan?», «Qariyalarga yordam bersangiz, ular xursand bo'ladilar», «Men shu kitobni o'qib chiqishingizni istar edim».* Istak, xohish bildirish o'qituvchi-pedagoglarning o'quvchi-talabalarga nisbatan muhabbati va ishonchini bildiradi. Bunday muomalani ko'rgan o'quvchi-talabalar ham o'qituvchi-pedagoglar yoki tarbiyachilarga nisbatan hurmat va ishonch ortadi. Shu bilan birga bunday muomala, o'quvchi-talabalarni nazokatli, bir-birini hurmat qiladigan, xushmuomala bo'lishga o'rgatadi.

Buyruq va talab. *Buyruq – qat'iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir.*

Tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo'yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. O'quvchi-talabalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan ham qat'iy bo'lishi kerak.

Har bir buyruq yoki talabning maqsadi o'quvchi-talabalarga tushunarli bo'lsin. O'quvchi-talabalar bu buyruq yoki talabni nima uchun bajarishlari zarurligini yaxshi anglashlari lozim. Shu bilan birga, ular yaxshi va puxta o'ylab berilishi lozim. O'quvchi-talabalar oldiga qo'yilgan buyruq va talabning albatta bajarilishiga erishish kerak. Agarda qo'yilgan talablar va beriladigan buyruqlar qat'iy bo'lmasa, o'quvchi-talabalarning bajarish imkoniyati susayadi. Bunday buyruqlar bajarilmay qoladi. Shuning uchun buyruq va talab qat'iy bo'lishi lozim.

Agarda buyruq yoki talabni o'quvchi-talabalar bajarmasalar, darhol tegishli tadbirlar ko'rish kerak. O'qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar o'z buyruq va talablarining o'quvchi-talabalar tomonidan bajarilmay qolishiga befarq qarasalar, ular keyingi talab va buyruqlarni ham bajarmaydilar, oqibatda o'quvchi-talabalar mas'uliyatsizlik, intizomsizlik va tartibsizlikka o'rganadilar.

Oilada va ta'lim muassasalarida yoshlarga beriladgan har bir buyruq yoki talab o'quvchi-talabalar shaxsining yoshi, imkoniyati, kuchiga qarab berilishi hamda shu buyruq va talablar o'quvchi-talabalarning tarbiyasiga yordam berishi kerak.

Buyruq yoki talabning o'quvchi-yoshlarga tushuntirib berilishi va har bir o'quvchi-talaba tomonidan puxta anglab olinishiga erishish lozim.

Beriladigan buyruq va qo'yilgan talabning albatta bajarilishiga erishish kerak; buyruq asossiz bo'lganda yoki buyruqni bajaruvchining uzrli sabablari bo'lgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

Hikoya – suhbat. *O'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning jonli so'zi asosida o'quvchi-talabalar shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy shakllantirishning ta'sirchan metodi hisoblanadi.*

Hikoya qilinadigan mavzu o'quvchi-talabalar uchun dolzarb, shaxsni ma'naviy ishonch, ijobiy his-tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, o'qituvchi-pedagoglar boshqa sinf yoki guruh jamoasi barcha fanlardan *«a'lo»* baholarga o'qiyotganligini va tartib-intizomi yaxshiligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligi o'quvchi-talabalarning qanday quloq solishiga qarab tekshirish mumkin. Agar o'quvchi-talabalar **«Biz ham o'qishda va intizomda namuna-ibrat bo'lamiz!»** – degan umumiy istak bildirsa, demak, o'qituvchi-pedagoglarning hikoyasi o'quvchi-talabalar ongiga yetib borgan va bunga javoban o'qish va intizomda maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorgarlik tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Suhbat – *o'quvchi-talabalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda keng qo'llanib kelinmoqda. Suhbat vaqtida o'quvchi-talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muhokama qilinayotgan mavzular bo'yicha faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida o'qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning shaxsiga xos xususiyatiga, tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O'tkazilayotgan suhbat o'quvchi-talabalar uchun ahamiyatliligini hisobga olinishi zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchilarni o'ylashga, mazkur masala bo'yicha o'z bilimlarini orttirishga yordam beradi.*

O'qituvchi-pedagoglarning o'zi qanchalik kam gapirsa, o'quvchi-talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me'yor keyinchalik o'quvchi-talabalar xulq-atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo'ljallangan o'z xulq-atvorini kuzatishlar bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug'iladi.

O'quvchi-talabalarda yaxshi odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirishda **mashq qildirish metodi***ning ahamiyati katta.* Bunda o'quvchi-talabalar ma'lum bir faoliyat bo'yicha biron bir vaziyatga qo'yilib, ayrim harakatlarni takroran bajaradilar. Mashq harakatlari takrorlash bo'lib, axloqiy ko'nikma, malaka va odat hosil qilish maqsadida o'quvchi-talabalarning maxsus uyushtirilgan faoliyatidir. *Mashq qildirish metodi ta'lim jarayonida ham ishlatiladi, ammo tarbiyadagi mashq ta'limdagi mashqdan biroz farq qiladi. Tarbiyadagi mashqda o'quvchi-talabalar bir xil mashqni turli sharoitlarda qo'llaydi. Masalan, ma'naviy-axloqiy mashqlar hayotning turli vaziyatlarida qo'llaniladi, intizomlilar dars paytida ham, tanaffusda ham, ijtimoiy axloqni shakllantirishda ham bir xilda talab etiladi.*

Ma'naviy-axloqiy mashqlar keng ma'noda turmushni baholar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil etish jarayonidir. Mashq va odatlantirish tarbiyalanuvchilar uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq qildirish natijasida o'quvchi-talabalarning o'quv malaka va ko'nikmalari, aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy qarashlari boyiydi.

Mashq qildirishning asosiy metodi faoliyatda mashq qildirishdir. Bunday mashqlarning mohiyati, o'quvchi-talabalar uchun aniq o'quv faoliyatini tashkillashtiradi va shu faoliyatda ishtirok etish orqali o'quvchi-talabalarda xulq-atvor normalari va qoidalariga muvofiq ravishda odob-axloq normalari shakllana boradi.

O'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalarni o'qitilayotgan fan bo'yicha birinchi darsdanoq yangi fan olamiga olib kiradi. O'quv faoliyati fan to'g'risidagi tushunchadan boshlab asosiy qonuniyatlar, iqtisod va ishlab chiqarish jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar bilan asta-sekin kengayib boradi. Bu faoliyat ularning o'sib boruvchi qiziqishlarini qanoatlantirishi, ijtimoiy foydali xarakterda bo'lishi bilan tarbiya vazifalarini bajarish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mashq qilishning yana bir ko'rinishi bu muntazam ravishda o'quvchi-talabalarni tarbiyaga o'rgatish mashqlari hisoblanadi. Tarbiya o'quvchi-talabalarni faqatgina o'quv *mehnatini bajarishgagina qaratilmay*, balki ularda uyushqoqlik, intizom, sabot, iroda, odat ko'nikmalarini hosil qilishga ko'maklashadi.

O'quv-tarbiya jarayonida topshiriqlar tizimi alohida o'rin tutadi. Topshiriqlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi uchun o'quvchi-talabalar topshiriqlarning ijtimoiy ahamiyatini, muhimligini, zarurligini tushunishlari kerak.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalarda ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishda qo'llaniladigan tarbiya metodlarining roli kattadir.

7.3. TARBIYADA IJOBIY NAMUNA VA IBRAT KO'RSATISH METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O'quvchi-talabalarning barkamol inson bo'lib rivojlanishida turli ta'sirlar, o'quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning hamda ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarning shaxsiy ibrat-namunasi katta ahamiyatga ega. Yoshlar to balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko'pchilik sharoitlarda bilishi, o'rganish jarayonida asosan, o'qituvchi-pedagoglarga, ota-onalar va qo'ni-qo'shnilarga, kattalarga, badiiy asarlarning qahramonlariga taqlid qilishadi.

O'quvchi-talabalar kattalar tajribasini o'zlashtira borar ekan, ko'pincha o'zi hurmat qiladigan, o'zi yoqtiradigan o'qituvchi-pedagogning talaffuziga, odob-axloqiga, o'zini tutishiga taqlid qiladi. Taqlid ularda birmuncha tanlash xarakteriga ega bo'lib, ularni boshqa kishilarning xulq-atvoridagi ma'lum ijobiy xislatlari o'ziga jalb qiladi.

Yoshlikdagi taqlid va ishtiyoq doirasi namuna-ibrat yordamida kengayib boradi. Taqlid qilish uchun ijobiy namuna-ibratlarni tanlashda g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy omillarning ahamiyati kattadir.

O'quvchi-talabalar shaxsining ruhiy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun *«ulkan maqsad»* bilan birga *«ijobiy shaxsiy namuna»* kerak bo'ladi. Tarbiyalanuvchi shaxsiga ta'sir etishning obyektiv yo'li shaxsga shaxs orqali, ya'ni o'qituvchi-pedagogning ijobiy shaxsiy namunasi orqali ta'sir etishdir.

O‘quvchi-talabalar o‘zlari yoqtiradigan shaxsga taqlid qilish natijasida o‘zlarini mag‘rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikiday tuyuladi.

Taqlid qilishni moslashish (*adaptatsiya*) tushunchasi bilan aralashtirish yaramaydi. O‘quvchi-talabalar kimlargadir taqlid qilishi va havas qilishi mumkin, bu ijobiy xislat. Birinchidan, taqlid qilish orqali o‘quvchi-talabalarning o‘z tajribasi qo‘shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo‘la boshlaydi. Ikkinchidan, yoshlar yetuklasha borishi bilan taqlid qilish jarayoni ham o‘zgara boradi. Endi taqlid qilinayotgan xislatlar tanlanadi.

Tarbiya jarayonida bevosita sinf yoki guruhda ta’lim olayotganlarning ichida fanlardan yaxshi va a’lo o‘zlashtiruvchilar, odobli va intizomli o‘quvchi-talabalar namuna sifatida ibrat qilib ko‘rsatilishi mumkin. Bunda juda ham ehtiyotkorlik bilan ish tutish talab etiladi. O‘quvchi-talabalar ismi, sharifi (familiyasi)dan ko‘ra ko‘proq ibratli xulq-odobi, ibratli ishlariga e’tibor qaratilishi yaxshi natijalarga olib keladi. Aks holda sinf yoki guruhdagi o‘quvchi-talabalarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yilishi guruhbozlikni boshlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘quvchi-talabalarning taqlid qilishga moyilligi ko‘pincha salbiy odatlarni ham o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Ba’zan o‘quvchi-talabalarni o‘quv muassasasi ichki tartibini buzuvchilar, ularning qo‘polligi, soxta jasurligi jalb qiladi. Ota-onalar va o‘qituvchi-pedagoglar yoshlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘rtoqlari bilan aloqa qilishini taqiqlasa, bu aksincha tarbiyalanuvchining hali o‘rtoqlari bilan birga bo‘lish istagini yanada kuchaytiradi. Eng muhimi, yomon odatlar ta’siriga ijobiy namuna-ibratni qarama-qarshi qo‘yish, oila va ta’lim muassasasi muhitida tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish kerakki, toki bu faoliyat tarbiyalanuvchiga zerikarli, mazmunsiz majburiy bir narsa bo‘lib tuyulmasin.

Shunday qilib, tarbiyada ijobiy namuna va ibrat metodlaridan samarali foydalangandagina har bir o‘quvchi-talabalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga erishsak bo‘ladi. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun oilada ota-onalar, o‘quvchi-talabalar uchun ta’lim muassasalarida sevimli o‘qituvchi-pedagoglar namuna bo‘la olishi mumkin.

7.4. TARBIYADA RAG'BATLANTIRISH, JAZOLASH VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH METODLARINING TUTGAN O'RNI

Rag'batlantirish metodi *biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda o'quvchi-talabalarning shaxsini rivojlantirish va ijobiy xatti-harakatlarini faollashtirish va baholash maqsadida qo'llaniladi.* Masalan, mustaqil O'zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning g'oyaviy ma'nosi sifatida o'quvchi-talabalar shaxsida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash metodi o'quvchi-talabalardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo'lmog'i lozim.

Rag'batlantirish va jazolash metodida o'quvchi-talabalar shaxsi emas, balki ayni vaqtdagi xatti-harakatlari, qiliqlari, tarbiyalanuvchining individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi. Rag'batlantirish tarbiyalanuvchilarga quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchi-talabalarning jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchi-talabalarning jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborishga, o'quvchi-talabalarda manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batlantirishda har bir o'quvchi-talabaning muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Oila, ta'lim muassasasi va o'qituvchi-pedagoglar jamoasi o'rtasida o'quvchi-talabalar shaxsiga va ularning xulqiga baho berishda bir xil talab bo'lishi nihoyatda zarurdir. Zero, tarbiyalanuvchining xulqiga baho berishda norozilik, kelishmovchilik chiqmasligi uchun o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar haqqoniy baho berishi kerak.

Rag'batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Rag'batlantirish o'quvchi-talabalarning ruhini ko'taradi, ularni tetiklantiradi, g'ayratiga-g'ayrat qo'shadi, xulqi va xatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga otlantiradi va ularga

ma'naviy oziq beradi. O'quvchi-talabalarning har bir yaxshi xulqini o'z vaqtida rag'batlantirish katta ahamiyatga egadir. O'z xulqiga ijobiy baho berilganini va ma'qullanganini ko'rgan o'quvchi-talabalar quvonadi, yana ham yaxshi xulq-atvor va xatti-harakatlar sari intiladi.

Rag'batlantirishning shakllariga ma'qullash, ko'nglini ko'tarish, ishonch bildirish, maqtash, mukofotlash, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish kabilarni kiritish mumkin.

Ma'qullash. Rag'batlantirishning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri o'quvchi-talabalarning muvaffaqiyati va yaxshi xulq-atvorini ma'qullashdir. O'qituvchi o'quvchi-talabalarning xulqini ma'qullaganda bu xulq va xarakterni yanada takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib bermog'i kerak.

Bosh qimirlatish, tabassum, yuz va qo'l harakatlari, «balli», «barakalla» kabi so'z va imo-ishoralar bilan o'quvchi-talabalar xatti-harakatlari ma'qullanadi.

Ko'ngil ko'tarish, dalda berish. O'qish va intizomda yaxshi natijalarga erishmagan, lekin bunga intilayotgan, harakat qilayotgan o'quvchi-talabalarning ko'nglini ko'tarish katta ahamiyatga egadir. Ko'ngil ko'tarish tarbiyalanuvchilarga kuch bag'ishlaydi va ularda optimizmni o'stiradi va ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi.

O'quvchi-talabalar o'zlarining kundalik jo'shqin hayotlarida xilma-xil qulay, noqulay voqealarga duch keladilar. Ba'zan har bir ish va harakatlarida muvaffaqiyat qozonaveradilar, bu ularni quvontiradi va g'ayratlarini orttiradi. Ba'zan muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Bunday vaqtda ularga dalda berish, ko'nglini ko'tarish zarurdir. Ko'ngli ko'tarilgan o'quvchi-talabalar tetiklashadi, unda optimistik kayfiyat o'sadi.

Ishonch bildirish, ishonish. *O'quvchi-talabalar mehribon va bilimli o'qituvchilarini pok qalb bilan samimiy sevadilar va ularga qattiq ishonadilar. Shuning uchun ham o'quvchi-talabalar oldida bunday o'qituvchining hurmati va obro'si g'oyat kattadir. O'z navbatida, o'quvchi-talabalar o'qituvchidan o'ziga ishonishni talab etadi. O'quvchi-talabalarga ishonish, ishonch bildirish unga katta mukofotdir. O'quvchi-talabalardagi bunday holatni o'qituvchi yaxshi bilishi va ularga ishonch bilan qaramog'i lozim.*

Qayd etish. O'quvchi-talabalar xulq-atvorining yaxshilanib borayotganini qayd etish, ayniqsa, o'quvchi-talabalar jamoasi oldida

qayd qilish, ruhini ko'tarish o'quvchi-talabalarni tetiklantiradi va uni yaxshi intizomga yo'llaydi.

Maqtash va tanbeh. O'quvchi-talabalarni biror yaxshi ishi va odobliligi uchun sinfdoshlari va guruhdoshlari oldida, umummajlisda, devoriy gazetada, ota-onalarga xat yozish orqali maqtash katta ijobiy natija beradi. Shuningdek, tanbehning ham ta'siri katta bo'ladi.

Mukofotlash. Maktab va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida yuksak muvaffaqiyatlari uchun o'quvchi-talabalar mukofotlanadilar.

Mukofotning moddiy shakllari: kitob, o'quv qurollari, teatr va kinoga bilet, dam olish uylariga, sayohatlarga yo'llanmalar, pul mukofoti, maqtov yorlig'i, mukofotlar va hokazolar o'quvchi-talabalar o'qituvchi-pedagoglar va ota-onalar ishtirokida tantanali vaziyatda topshiriladi.

5-jadval



Pedagogikada yoshlarni rag'batlantirish bilan bir qatorda **jazolash** metodlari ham qo'llaniladi.

Jazolash metodlari – bu o'quvchi-talabalarning xatti-harakatlari va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazolash metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlashish va boshqalar kiradi.

Jazo – *bu o'quvchi-talabalarning o'z xulqi va harakatidagi nojo'yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho'xliklardan o'zlarini tiyishiga yordam beradi.* O'quvchi-talabalarning xatti-harakatidagi yomon tomonlarni o'z vaqtida qoralash va taqiqlash, ularni ikkinchi marotaba shu nojo'ya harakatlarni qilmaslikka, o'z xulq-atvorini tuzatishga yo'llaydi. Lekin bo'lar-bo'lmasga jazolayverish ham zararlidir. Uning o'rniga bir marotaba o'rinli jazolash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga o'quvchi-talabalarga xulqining noma'qul ekanligini asosli ravishda tushuntirish, uning ongiga yetkazish, o'z xatosini to'g'rilashga imkon beradi.

O'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar o'quvchi-talabalardagi yomon xulq-atvorlarni qoralash bilan birga uning yomon emasligini, unda yaxshi xislatlar ham borligini, agar istasa o'z xulqidagi kamchiliklarni yo'qota olishi va sinf yoki guruh jamoasining eng yaxshi, namunali o'quvchisi yoki talabasi bo'lishi mumkin ekanini qayd qilib o'tishi kerak. Mana bunday nasihat yoshlarda o'z kamchiliklarini tuzatish va yaxshi fazilatlar hosil etish istagini uyg'otadi.

O'quvchi-talabalarga nisbatan jazo choralarini qo'llashda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish kerak:

a) jazoning haqqoniyligi;

b) jazo aybdorni tarbiyalashi;

d) aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim.

Asosan quyidagi jazo choralari qo'llanishi mumkin: o'qituvchi - pedagogning, sinf yoki guruh rahbarining, ta'lim muassasalarining o'quv yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarining tanbehi; parta, sinf doskasi yoki o'qituvchi-pedagog stoli yonida tikka turg'azib qo'yish; sinf o'quvchilari va guruh talabalari oldida ogohlantirish berish;

bajarilmay qolgan sinf-auditoriya yoki uy vazifasini bajarish uchun darsdan keyin olib qolish; ta'sir ko'rsatish uchun pedagoglar kengashiga chaqirish; ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ogohlantirish, e'lon etish; xulqiga qo'yilgan bahoni pasaytirish; sanab o'tilgan jazo choralarini qo'llanganda o'qituvchi-pedagog har bir o'quvchi-talabaning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, sinf yoki guruhning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmog'i kerak.

Po'pisa. Po'pisa – man etilgan va be'mani xatti-harakatlarni to'xtatishga va oldini olishga yordam beradi. *«Abbos, so'kishni tashlamasang, sinfga kirgizmayman» yoki «Vali, kelgusi darsga yozib kelmasang, shu yerda olib qolib yozdiraman».* Mana bunday po'pisa kichik o'quvchi-talabalar uchun mos hamda ishonarli bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, po'pisa qilgan bilan aytganini qildirolmagan o'qituvchi-pedagogning obro'si tushib ketadi. Shuning uchun o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalarga oqilona, onda-sonda po'pisa qilishi va har bir buyurilgan ishning qat'iyat bilan amalga oshirilishiga erishishi kerak.

Koyish. *Koyish – bema'ni qiliqlarning yaramasligini aytish va ogohlantirish shakllaridan biridir.* O'quvchi-talabalarning salbiy harakatlari, qiliqlari va tartibni buzganliklari uchun ularni koyib qo'yish zarur. Koyish o'git-nasihat bilan birga qo'shilgan holda qo'llanadi. Ya'ni o'quvchi-talabalarga qilgan gunohining yaramas ekanligi, bu gunohning oqibati xayrli emasligi yotig'i bilan tushuntiriladi hamda uni tuzatish yo'llari ko'rsatiladi va yana qaytarmasligi uqtiriladi.

O'quvchi-talabalarni koyiganda ularni to'g'ri yo'lga solib yuborish ko'zda tutiladi. Shuning uchun har bir qilingan aybning o'z darajasiga qarab tarbiyalanuvchiga shu aybning yaramasligi tushuntiriladi. Koyish paytida nihoyatda osoyishta hamda muloyimlik bilan gapirilishi lozim.

Uyaltirish, qizartirish. *Shaxsning eng nozik his-sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayo hissidir. Shaxs o'z «shaxsi»ning boshqalar ko'zi oldida qadrsizlanishini, ya'ni belgilangan qoidalarni buzganini yoki bilishi kerak bo'lganini bilmay qolganini anglagan taqdirda qizaradi, uyaladi.*

O'quvchi-talabalarni tarbiyalashda ularning uyat, sharm-hayo hissiga ehtiyotlik bilan ta'sir etish kerak. O'quvchi-talabalarning uyalishi va qizarishi uni shu ayb-xatoni qaytarmaslikka olib kelishi, u tavba qilishi mumkin. Lekin uyalish-qizarish natijasi hamma vaqt ham tarbiyalanuvchini tavba qilishga olib bormaydi. Bola boshqalar oldida sharmanda bo'lish, qizarishni istamagani uchun noto'g'ri xatti-

harakatlarni yashirincha qilishga intiladi. Mana bunday holda uyat ikki yuzlamalik, munofiqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yoshlarni hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. O'quvchi-talabani yolg'iz ekanida yoki tengdoshlari o'rtasida kamroq uyaltirish kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan metodlardan tashqari **kun tartibi, odatlantirish va o'yin hamda sport vositalari***dan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, ko'rgazmalari, o'quv qurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slayd kabi axborot va texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish uchun o'quvchi-talabalarning ongi, his-tuyg'usi va xulq-atvorini tarkib toptirishga ko'maklashadi.*

Shunday qilib, rag'batlantirish va jazolash dastavval o'quvchi-talabalarning xarakteri va xulqida ijobiy xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi, ularning xatti-harakati va xulqini to'g'ri yo'lga solib yuboradi hamda paydo bo'lgan ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga da'vat etadi.

Rag'batlantirish va jazolash metodlarini mohirlik bilan qo'llash orqali o'quvchi-talabalarni tarbiyalashda g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, har qanday ma'qullash ham, qoralash ham o'quvchi-talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi, balki aksincha salbiy natija berishi mumkin.

O'quvchi-talabalarni tarbiyalashda rag'batlantirish va jazolashning samarali natija berishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kerak.

Tarbiyachining obro'si. Agarda o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalar oldida obro'ga ega bo'lsa, o'quvchi-talabalar uni sevsalar, uning har bir so'zi tarbiyalanuvchilarda chuqur taassurot qoldiradi, o'quvchi-talabalar uning aytganlarini mamnuniyat bilan bajaradilar. Aks holda o'qituvchi-pedagog ham hech qanday ta'sir ko'rsata olmaydi yoki ta'siri juda zaif bo'ladi.

Rag'batlantirish ham, jazolash ham haqqoniy bo'lishi kerak. Bu masala alohida ahamiyatga egadir. O'qituvchi-pedagog tomonidan o'quvchi-talabalarning xatti-harakati va qilig'iga beriladigan bahoning haqqoniy, adolatli ekaniga o'quvchi-talabalarning o'zi va uning o'rtoqlari ishonch hosil qilishlari lozim. Shuning uchun o'qituvchi-pedagoglar achchiq ustida yoki jahl bilan o'quvchi-talabalarning xulqiga baho berishdan o'zlarini tiymoqlari kerak. O'qituvchilarning asabiylashishi, o'quvchi-talabalarning aybini haddan tashqari bo'rttirib

ko‘rsatishi tarbiyalanuvchilar shaxsini haqoratlaydi va ularning ensasini qotirib yuboradi. Bu xilda qoralash o‘quvchi-talabalar shaxsini haqoratlaydi, ularni o‘z xatosini tuzatish o‘rniga chuqurlatishga, g‘azabini qo‘zg‘atishga olib boradi, hatto o‘quvchi-talabalarda o‘qituvchi-pedagogga nisbatan norozilik hissini tug‘diradi va tarbiyalanuvchilar uni yomon ko‘rib qoladi.

Tarbiya ishidagi eng muhim shartlardan biri o‘quvchi-talabalar xulqiga berilgan baho yolg‘iz bir o‘qituvchi-pedagogninggina fikri bo‘lib qolmay, balki buni butun ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi ham qo‘llab-quvvatlamog‘i lozim. Bu esa tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan rag‘batlantirish va jazolash metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari. Har bir o‘quvchi-talabaning imkoniyatlarini ko‘ra olish va baholashda kuchi yetadigan istiqbolni belgilashda, iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi.

O‘quvchi-talabalar o‘z-o‘zini tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi hayotda ma’lum mustaqillikka intilishda namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash oilada va o‘quv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta’siri ostida ro‘y beradi. O‘z-o‘zini tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshirish mumkinligi ularda iroda, tirishqoqlik intizomini tarbiyalaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘qituvchi-talabalarning o‘z oldida muayyan vazifa qo‘ya olishini, uni bajarishda ichki ishtiyoq bilan bajarish jarayonida shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni, nima qilganligi haqida hisobot berilishini nazorat qilishni va to‘plangan vazifalarni aniq natijalarga qarab baho berishni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘ziga baho berish metodlariga bo‘linadi.

O‘qituvchi-pedagoglar qo‘llayotgan tarbiya metodlari va vositalari ta’sirida o‘quvchi-talabalarning ongida va xulqida, o‘z shaxsini o‘zgartirish, kundalik faoliyatida o‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsiy majburiyati, o‘z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarida o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘ziga baho berish istagi vujudga keladi. Har bir o‘quvchi-talaba o‘zini-o‘zi tarbiyalasa, aql-farosatni ishga solmasa tarbiyadan ko‘zlangan maqsad va natijaga erishib bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchi-talaba o‘zining xulq-atvoriga talabchan bo‘lishi va o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarning tarkib topishi uchun faol bo‘lib astoydil tirishmog‘i lozim. O‘qituvchi-pedagoglar yoshlarda o‘zini tuta bilish, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilish, rost so‘zlash,

kattalarga hurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mehribonlik ko'rsatish kabi axloqiy barkamollik fazilatlarini shakllantirishlari lozim.

Umuman, o'quvchi-talabalar shaxsini o'z-o'zini tarbiyalash axloqiy barkamollikka ishtiyoq tug'dirishdir. Zero, o'z-o'zini tarbiyalash shaxsni o'z kuchi, layoqati va qobiliyatini ishga solishga undaydi, uning ideallarini, shaxsiy mulohazalarini, e'tiqodini tarkib toptiradi. Natijada, o'quvchi-talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash – bu o'z irodasini, his-tuyg'usini, kayfiyatini boshqarishga, nojo'ya harakatlardan o'zini tiyishga yoki to'g'ri harakatni har qanday sharoitlarda ham davom ettirishga qaratish demakdir. Tevarak-atrofidagi muhit bilan shaxs o'rtasida ixtiloflar va o'zaro kelishmovchiliklar chiqishiga, o'zaro tushunmovchiliklarga, yakkalanib qolishga ko'pincha sababchi bo'ladigan jizzakilik, beparvolik kabi salbiy xislatlar axloqiy nuqsonlargina bo'lmay, balki irodaviy nuqsonlar hamdir.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlarini qadimgi yunon (grek)lar qo'llagan, u aslida «oddiy kerak, xohlayman va bajaraman» degan ma'noni bildiradi. Aytaylik, serjahl shaxs vazmin bo'lish kerakligini, odatlanganidek emas, boshqacha yashash, ish yuritish zarurligini tushunish – bu o'z-o'zini ishontirishning boshlanish davri hisoblanadi. Keyinchalik shaxs u yoki bu holatlarda o'zini qanday tutishni yaqin kishilari, qarindoshlari, shuningdek, o'qituvchi-pedagoglar, ish joyidagi hamkasblarining o'ziga, ta'lim muassasasidagi o'quvchi-talabalarga nisbatan munosabatini ko'z oldiga keltiradi, o'zi kutayotgan xursandchiliklarni yoki ko'ngilsizliklarni fikran boshdan kechiradi. Natijada, ijobiy tomonga o'zgarishga bo'lgan zaruriyat **«Shunday bo'lishni xohlayman»** degan topshiriqqa aylanadi, o'z-o'zini ishontirishning uchinchi davrida o'z istagiga erisha olish mumkinligiga ishonch hosil bo'ladi. Shaxs qiyin ahvoldan qanday qutilganini, murakkab vaziyatdan chiqib keta olganini eslaydi, o'z kuchi, irodasini analiz, ya'ni tahlil qiladi, o'zini **«harakat qilishga, boshqacha odam bo'lishga»** undaydi. O'z-o'zini ishontirishga oxirgi yakuniy davrida shaxs o'zini xuddi boshqacha shaxs bo'lib qolgandek his etadi. Og'ir damlarda u o'ziga **«Sen o'zingni tuta biladigan odamsan, o'ylab ko'rchi, shu arzimagan narsa uchun o'zingni va boshqalarning asabini buzish yaxshimi? Ha barakalla! Mana sen o'zingni qo'lga olding, endi nima deyish, qanday javob berish qoldi. O'ylab ko'r, sen eslik odamsan-ku! Yo'q bu bo'lmaydi. Mana bu yaxshiga o'xshaydi.**

Ko'raylikchi, bundan nima chiqadi. Mana hammasi to'g'ri. Qani boshla, ishga kirish» kabi o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berishga aylanadi.

O'z-o'zini ishontirish – *izchillikni maxsus psixologik (ruhiy) mashq qilishni talab etadi. Masalan, kishi ertalab uyg'ongandan keyin:* **«Rohat qilib uxladim, bugun bajaradigan ishlarim, boradigan joylarim ko'p, tetik va dadil bo'lishi kerak. Buning birdan-bir yo'li ertalabki gimnastika. Qani tur o'rningdan, mashqni boshla!»** deydi va darhol gimnastika mashqlarini bajarishga kirishadi. Ikki-uch hafta davom ettirilgan mashqlardan keyin kishi hamma vaqt ruhan tetik, jismonan sog'lom, mehnat faoliyatiga osongina va kayfiyati chog' kirishadigan bo'lib qoladi. Har bir ish uchun mana shunday o'z-o'zini ishontirish shakllarini tayyorlash va qo'llash mumkin.

O'z-o'ziga buyruq berish – o'zini majbur etish kuchli irodani talab qiladi. Bunday faoliyat qabul qilingan qarorni bajarish uchun barcha kuchlarini to'plash, o'zini faol ishlashga, harakat qilishga majbur etishdan iboratdir. O'zini majbur etish, ayniqsa, o'z kamchiliklari va nuqsonlarini bilganda va ularni bartaraf etishda qo'llaniladi. Buning uchun esa shaxs o'z irodasini ishga solish, o'zini qat'iy intizomga bo'ysunishga odatlantirishi zarur. O'zida kuchli irodani tarbiyalashni xohlagan shaxs birinchi navbatda boshlagan ishini oxiriga yetkazishi, bir yo'la ko'p ishga qo'l urmasdan, oldin bittasini, keyin ikkinchisini bajarishi, vijdonan ishlashi, vaqtincha yuz bergan muvaffaqiyatsizliklardan esankiramasligi (birinchi marta va takror bajarishga) o'z injiqliklarini jilovlashi, o'z xato va kamchiliklarini bartaraf etish ustida ishlashi, hattoki o'zi uchun qiziqarli narsalardan ham kerak bo'lganda voz kecha bilishi kerak.

O'z-o'zini tarbiyalashni faollashtirish, o'z ustida ishlashda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishda **o'zini rag'batlantirish va nazorat qilish** muhim ahamiyatga ega. Bular o'z-o'zini ma'qullash, ruhlantirish, qoralash, tekshirish, o'z-o'ziga hisobot berishdan iboratdir. **«To'g'ri, barakalla, ishni shunday davom ettiraver»** deb, o'z-o'zini ma'qullash o'quvchi-talabalarni ruhlantiradi, ularda yanada muvaffaqiyat qozonish istagini uyg'otadi. O'z-o'zini ma'qullashni o'z faoliyati natijalariga tanqidiy qaramaslik natijasida paydo bo'ladigan o'z-o'zini sevishdan farq qilmoq lozim. O'z-o'zini ma'qullash o'z-o'zini tanqid bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini ruhlantirish – *o'zini tarbiyalashning boshlanish davrida qo'llaniladi. Bu davrda o'z kuch va qobiliyatlarini sinab ko'rish*

maqsadida foydalaniladi va u ham shaxsning o'z-o'zini bilishi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

Masalan, sport, madaniy yoki o'tkir zehnlilar zakovat klublariga, havaskorlik va turli fan to'garaklari qatnashchilari — o'quvchi-talabalar o'zlari boshlagan ishlarda, mashqlar va topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganda, biror ishi yurishmayotgan, mashqiy harakatlari qovushmayotgan yoki topshiriqlarni bajara olmayotgan bo'lsada: **«Yomon emas, yaxshi bo'lishi kerak!», «Endi ancha durust! Yana bir oz zo'r bergin!»** – *deb o'zini ruhlantiradi. O'z-o'zini ruhlantirish, ayniqsa, har bir shaxs ijobiy namunaga intilganda kuchli ta'sir etadi. O'z-o'ziga talabchan bo'lib* **«Boshqalar qila oladi-ku, demak, uni men ham qila olaman»** – *deydi.*

O'z-o'zini ruhlantirishni o'ziga ortiqcha ishonish, katta ketish, maqtanishdan farq qilishi lozim. Ba'zan ayrim o'quvchi-talabalar **«Nima, agar o'zim xohlasam, buni men ham bajarishim mumkin»** *deb maqtanadilar.* Lekin ular unday yoki bunday harakatni bajarish uchun uni bilish, malakaga ega bo'lish zarurligini ko'pincha tushunib yetmaydilar.

O'z-o'zini ruhlantirish o'zini analiz, ya'ni tahlil qilish bilan birga namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchi-talaba o'zi, o'z kuchi va qobiliyatlari haqida qachonki to'g'ri va aniq tasavvurga ega bo'lsa, unda o'z-o'zini ruhlantirish shuncha samarali bo'ladi.

O'z-o'zini qoralash *shaxsda iroda, kuch yetishmaganda, erinchoqlik va sustkashlikni yengish istagi paydo bo'lganda qo'llaniladi.* Buning tub mohiyatini noto'g'ri tushunish natijasida o'zini qoralash o'rniga o'zini yerga urish, o'z kuchi va qobiliyatlarini kamsitib baholash hollarida uchraydi. Masalan, ayrim hollarda ba'zi bir shaxslar **«Bari bir mendan hech kim chiqmaydi», «bunga qurbim yetmaydi»** deb loqayd bo'lib qolishadi, o'zlarining ichki kechinmalariga berilib, tevarak-atrofdagi, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar bilan qiziqmay qo'yadi. *Shunday ekan, o'z-o'zini qoralash, odilona o'z-o'zini ma'qullash va ruhlantirish bilan bog'langan bo'lsagina o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini faollashtira oladi.*

O'z-o'zini nazorat qilish va hisobot berish, o'z faoliyati natijalarini hisobga olib borishni, bugun qilingan ishlarni umumlashtirishni, o'z xulqiga baho berish va uni analiz, ya'ni tahlil qilishni talab etadi va o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadi, vazifalarini qaytadan ko'rib chiqish, o'z ustida ishlashning yangi dasturini tuzib chiqish bilan tugallanishi kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida birinchi navbatda,

o'quvchi-talabalarni o'z-o'zini tekshirish yuzasidan hisobot tayyorlashga odatlantirish, ularning hisobot berishining muhim sharti o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom tanqid va o'z-o'zini tanqidning bo'lishidir, aks holda hisobot maqtanchoqlikka, o'z-o'zini ta'riflashga aylanib ketishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash jarayonida qo'llaniladigan metodlar o'quvchi-talabalar shaxsining ideallari, hayotiy maqsadlari, tutgan yo'li, asosiy ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liqdir. Ular tarbiya jarayonidagi ishontirish metodlariga qo'shimcha bo'ladi.

Ayniqsa, tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, u tarbiyachidan yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishni, tarbiyaviy ta'sir vositalari va metodlarini samarali qo'llashni taqozo etadi.

Tarbiyasi qiyin bo'lgan yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda **qayta ishontirish metodi** *muhim rol o'ynaydi. Qayta ishontirish metodini vazifasi faqat odob-axloqni o'rgatish, nasihat qilishdan iborat bo'lmay, balki har bir o'smirdagi shaxsiy nuqsonlar uning hayotini qanday buzayotganini, yalqovlik nimalarga olib kelishi mumkinligini tarbiyasi qiyin yoshlarga ochiq-oydin ko'rsatishdir.*

Qayta ishontirish metodida hikoya, odob-axloq haqida ma'ruza, bahs-munozara, davra suhbati va hokazolardan ham foydalanish mumkin. Bunday tarbiyaviy tadbirlar erkin fikr almashish, bahslashish shaklida, obro'-e'tiborli kishilar, professor-o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilsa samaraliroq bo'ladi.

Shaxsni qayta tarbiyalash tarbiyasi qiyin yoshlarning tushunchalari, tutgan yo'li noto'g'riligini ko'rsatadigan, ularni o'z xulq-atvori haqida o'ylashga majbur etadigan **amaliy ish tajribadan** boshlanishi kerak. Chunki tarbiyasi qiyin bo'lgan shaxs o'z atrofidagi odamlar, guruhdoshlari, o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar haqida noto'g'ri fikrda bo'ladi, ularning so'ziga ishonmaydi. Ulardagi bunday fikr munosabatni, ishonchsizlikni faqat fakt, namuna, shaxsiy tajribagina o'zgartira oladi.

Tarbiyasi qiyin shaxsning o'z atrofidagi odamlar, hamguruhlari, o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar haqidagi fikri, o'z xatti-harakatlariga bo'lgan munosabati o'zgara boshlagandan keyin ularga xatolarini, qarashlarini noto'g'riligini, muvaffaqiyatsizlik va yoqimsiz kechinmalarining sabablarini tushuntirish foydali bo'ladi.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda **jazolash va rag'batlantirish metodlari** *ham qo'llaniladi.* Tarbiyasi qiyin bo'lgan

shaxsga jazoning ta'siri ijobiy bo'lishi uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlar: jazo jamoa tomonidan yoki jamoa manfaatlarini ko'zlagan holda, o'qituvchi-pedagoglar, murabbiy-tarbiyachilar, guruh rahbarlari tomonidan berilishi, jazo jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, adolatli va tarbiyalanuvchi shaxsini kamsitmaydigan bo'lishi, uning adolatli va prinsipial ekanini gunoh qilgan shaxsning o'zi anglashi, jazoni jamoada tarbiyalanuvchining xulqiga bo'lgan ijtimoiy talablarning o'ziga xos maxsus shakli deb tushunishi, jazoni qo'llashda tarbiyalanuvchilarning kelib chiqish sabablari hisobga olinishi kerak. Qayta tarbiyalashdagi jazo tarbiyalanuvchiga o'z nuqsonlarini anglashda, ularni yo'qotish zarurligini tushunishda, o'z xulqini nazorat qilishni o'rganishida yordam beradi.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda **rag'batlantirish metodi** *ham katta ahamiyat kasb etadi. Qayta tarbiyalashda rag'batlantirishning tashakkur bildirish, maqtov yorlig'i, qimmatli sovg'alar bilan mukofotlash, yaxshi so'z, samimiy tabassum, maqtab qo'yish, erishgan muvaffaqiyatlari uchun minnatdorchilik bildirish va boshqa oddiy shakllari ham keng qo'llaniladi. Yaxshi so'zni kam eshitadigan, yomon so'zdan qulog'i bo'shamaydigan shaxslarga rag'batlantirish juda kuchli ta'sir qiladi yoki dimog'dor, egoist, maqtanchoqlarga deyarli ta'sir etmaydi. Shuning uchun rag'batlantirish individuallashtirilgan bo'lishi, ya'ni har bir tarbiyalanuvchi ko'rsatgan xizmati va shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda alohida taqdirlanishi kerak.*

Rag'batlantirish tashabbusi va uni amalga oshirish o'quvchi-talabalar jamoasi yoki tarbiyalanuvchilar uchun obro'li bo'lgan o'qituvchi-pedagoglar, murabbiy-tarbiyachilarning har qanday shaklda bildirgan maqtovini uni sotib olishga, uning ko'nglini ko'tarishga bo'lgan intilish deb qabul qiladi. Shu sababdan o'smirlarni rag'batlantirishda jamoat tashkilotlarining vakillari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, obro'-e'tiborga ega o'qituvchi-pedagoglar va murabbiy-tarbiyachilar qatnashib, ular taqdirlasalar samaraliroq bo'ladi. Zero, o'smirlar xizmatining kattalar tomonidan tan olinishi yaxshi iz qoldiradi.

Rag'batlantirish tarbiyasi qiyin har bir o'smirga o'zining ijobiy fazilatlarini anglashga, haqiqatni tushunishiga yordam berishi va unda yaxshi odam bo'lish istagini uyg'otishi kerak. Agar taqdirlash bunday vazifani bajarmay shaxsda o'zini katta olish, manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish kabi salbiy sifatlarni rivojlantiradigan bo'lsa, undan tarbiya metodi sifatida foydalanish mumkin emas.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda birinchi marta mashhur pedagog A.S. Makarenko o'z tajribasida qo'llagan **«portlash»** metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metoddan odatda boshqa tarbiya metodlari natija bermaganda, eng oxirgi chora tariqasida foydalaniladi.

«Portlash» *metodining mohiyati shundan iboratki, tarbiyasi qiyin shaxs kutilmaganda yuz bergan vaziyat natijasida iltifotlar nihoyatda keskinlashib, shaxs oldida hal etilishi kechiktirib bo'lmaydigan,* **«endi nima qilish kerak»** *degan savol ko'ndalang bo'lib, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shunday vaziyatda shaxsdagi ijobiy asoslar nuqsonlarga qarshi stixiyali ravishda isyon ko'targandek bo'ladi. Bunday oshkoralik vaziyatida shaxs o'z xulq-atvorini ko'radi, unda o'zidan norozilik, o'z turmush tarziga, nuqsonlariga nafrat, yaxshi bo'lishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Ana shunday tabiiy* ***«portlash»*** *shaxs ongini noto'g'ri tasavvurlardan tozalaydi, yomon xulqni yo'qotadi. Shu vaqtdan boshlab yaxshi odatlarni, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash yuzasidan tizimli tarviyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur.* **«Portlash»***dan keyin shaxsning hayoti va faoliyati yangi asoslarda tashkil qilinsa, ijobiy fazilatlar mustahkamlanib boradi.*

Tarbiyasi qiyin bo'lgan yoshlarning o'zlarini xulq-atvori yaxshi tomonga o'zgarishini xohlamasa, o'z nuqsonlari bilan faol kurashmasa, ularni qayta tarbiyalashda samara va natija bo'lmaydi. Qayta tarbiyalashda tarbiyalanuvchilarni o'z xulq-atvorini kuzatish, o'ziga topshiriq berish, o'zini nazorat qilish metodlaridan foydalanishga o'rgatish kerak.

Demak, tarbiyasi qiyin shaxsni tarbiyalash uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, pedagogik metodlarning majmuini navbatma-navbat yoki bir yo'la qo'llashni talab etishi mumkin. Biroq har bir tarbiya metodi shaxsning tarbiya darajasi, individual xususiyatlariga muvofiq ravishda tanlanishi kerak.

Xullas, tarbiyaning umumiy metodlari to'g'risidagi fikrlarni yakunlar ekanmiz, tarbiyaning bu metodlari o'quvchi-talabalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarining barchasini qamrab olmasligini unutmaslik kerak. Hozirgi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyoti tarbiya jarayonini takomillashtirishning yangi metodlari va istiqbolli yo'llarini izlamoqda.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Tarbiya metodlari – metod lotincha **«metodos-yo'l»** so'zidan olingan bo'lib, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot ma'nolarini bildiradi. Ilmiy tushuncha sifatida **«metod»** deganda keng ma'noda muayyan erishish yo'li tushuniladi.

Ishontirish metodlari – o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Tushuntirish – jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida axborot berish asosida o'quvchi-talabalar diqqatini tevarak-atrofidagi voqelikka ongli munosabatni shakllantirish-dan iboratdir.

Uqtirish – biror axloqiy fazilatni o'quvchi-talabalar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olishini ta'minlashga asoslanadi.

Ibrat-namuna metodi – o'quvchi-talabalardagi taqlidchilikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir.

Rag'batlantirish – o'quvchi-talabalarning namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, devoriy gazetada o'quvchi-talabalar to'g'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning suratini maxsus doskaga qo'yish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish va h.k.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
3. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatish metodining tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Rag'batlantirish metodi nima va uning qanday turlari mavjud?
5. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
6. Tarbiya jarayonida nima uchun metodlar qo'llaniladi?
7. Ishontirish metodiga misol keltiring.
8. Tarbiya metodlari yuzasidan «klaster» tuzing.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Tarbiya metodlari haqida umumiy tushuncha.

2. Tarbiya metodlarining maqsadi, mazmuni va ularning tasnifi.

3. Tarbiyada ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlari.

4. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatish metodining tutgan o'rni va ahamiyati.

5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

6. Shaxsni o'z-o'zini va tarbiyasi qiyin shaxsni tarbiyalash metodlari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Tarbiyaning metodlari deganda nimani tushunasiz?

a) maslahat, tushuntirish;
b) uqtirish, ishontirish;
s) o'git-nasihat, iltimos-istak;
d) rag'batlantirish, jazolash va o'zini-o'zi tarbiyalash;
e) a, b, s, d.

2. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

a) ma'muriy ehtiyoj va qiziqtirish;
b) insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;
s) har tomonlama ma'naviy-axloqiy rivojlanganlik;
d) aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish;
e) b va d.

3. «Metod» so'zining lug'uviy ma'nosi nima?

a) lotincha so'z bo'lib, *«yo'l»* so'zidan olingan;
b) tadqiqot yo'li;
s) ta'limot;
d) nazariya;
e) maqsadga erishish yo'li.

4. Ishontirish tarbiya metodi sifatida qanday ahamiyatga ega?

a) o'quvchi-talabalarning dunyoqarashini va axloqini shakllantirish;
b) o'quvchi-talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarni shakllantirish;

s) o'quvchi-talabalar ongida kelgusi xatti-harakati va odatini oldini olish prinsipini shakllantirish;

d) tarbiyalanuvchi shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, ruhiy va ijtimoiy munosabatlarning tub mohiyatini chuqur tushuntirish;

e) ishontirish orqali o'quvchi-talabalarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshirish.

5. Tarbiyada ijobiy shaxsiy namuna-ibrat ko'rsatish metodlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati qanday?

a) namuna-ibrat onglilikni, ijobiy faollikni va mustaqillikni rag'batlantirishdir;

b) odob-axloq qoidalarini o'zlashtirish;

s) axloqiy xislatlarni hosil qilish;

d) taqlidchilik;

e) b, d.

6. Taqlid nima?

a) tevarak-atrofdagi kishi xulq-atvorini, yurish-turishlarini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir;

b) odob-axloqsiz qoidalarni o'zlashtirish;

s) axloqiy tasavvurlarni hosil qilish;

d) ijobiy xulq-atvor va xatti-harakatlarga taqlid qilish;

e) a, b, s, d.

7. Rag'batlantirish metodining qanday turlari mavjud?

a) ma'qullash;

b) ko'nglini ko'tarish va dalda berish;

s) ishonch bildirish va ishonch;

d) qayd etish, maqtash, mukofotlash;

e) a, b, s, d.

8. O'quvchi-talabalarga nisbatan jazo choralarini qo'llashda qanday pedagogik talablarga amal qilish kerak?

a) jazoning haqqoniyligi;

b) jazo aybdorni tarbiyalashi;

s) aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi;

d) po'pisa va koyishning sababini bilishi;

e) a, b, s.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni to'g'risida umumiy tushuncha bering?

№	TMM va MTUT	Tushuncha

2. Ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlarini tushuntirib bering.

№	IO va IAGIM	Tushuncha

3. Tarbiyada namuna-ibrat metodining tutgan o'rnini tushuntirib bering.

№	TNIMTO'	Tushuncha

4. **Rag'batlantirish metodining qanday turlari mavjud?**

№	RMQTM	Tushuncha

5. **Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering?**

№	JM va UT	Tushuncha

6. **O'z-o'zini tarbiyalash metodlarini tushuntirib bering.**

№	O'O'TM	Tushuncha

VIII bob. TARBIYA TURLARI (SHAKLLARI)GA UMUMIY TASNIF

Barkamol shaxs tarbiyasi uzoq va uzluksiz davom etadigan murakkab jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida shaxs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilganligi tarixdan ma'lum va bugungi kunda ham bu masala mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ular yoshlarning farovon hayoti va turmush tarzi, ozodligi, salomatligiga hamda ularning intellektual salohiyatining yuksalishiga qaratilgan. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab to hozirgi kungacha *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bir qator asarlarida o'zbek xalqi hech kimdan kam emasligi va O'zbekistonning kelajagi buyukligi hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlarini, keng yoritib berar ekan, eng asosiy vazifa qilib milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yosh avlodning ma'naviyatini va dunyoqarashini milliy qadriyatlar orqali shakllantirish lozimligini alohida ta'kidlaydi:* «**Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!**

Ma'naviy va axloqiy yuksalish, ishonch, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi....

Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»[1].

Demak, jamiyat taraqqiyotida tarbiya masalasi eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bunga bizning ma'naviy va ma'rifiy asoslarimiz ham yetarli. Fikrimizning isboti sifatida turli davrlardagi xalqimiz buyuk siymolarining tarbiya xususiyatidagi purma'no fikrlaridan misollar keltirib o'tamiz:

Abu Nasr Forobiy: «**Insonning axloqiy xislatlarini shakllantirish asosan tarbiya va tarbiyachining, bilimdon muallimning vazifasidir**».

[1] I.A.Karimov. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. T: «Sharq», 1998, 15-bet; Barkamol avlod orzusi. T.: «Sharq» NMKBT. 1999y. 40-81-betlar.

Abdulla Avloniy: **«Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».**

Albatta bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda biz tarbiyaning maqsadi – o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni bunyodkor, barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdir. Bunday umuminsoniy g'oyalar asosida bugungi kunda O'zbekistonda milliy istiqlol ruhida barkamol shaxsni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy turlari (shakllari) – *aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiya* va boshqa tarbiya turlarini tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtayi nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish eng muhim va dolzarb vazifalardir. Quyida biz tarbiya turlarining har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

* * *

8.1. OILA TARBIYASI

Insoniyat tarixida oilaning o'rni qanchalik ahamiyatli bo'lsa, millatimizning asl qadriyatlari qaror topishi, takomillashuvi va saqlanib qolishida ota-ona, farzandlardan iborat o'ziga xos jamoaning ta'siri bundan ham muhimroq.

Shu o'rinda bu jarayon to'g'risida Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (*1997-yil 29-avgustda*) so'zlagan nutqidagi ibratli fikrlarini keltirish joizdir: **«Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi»**[1].

Zero, har qanday jamiyatda oila birlamchi ijtimoiy bo'g'in hisoblanadi. Binobarin, ana shu jamiyatdagi barcha munosabatlar, qadriyatlar va an'analar muayyan darajada oilaga borib bog'lanadi. *Oila individni, ya'ni yangi insonni voyaga yetkazadigan muqaddas qo'rg'on bo'lganligi uchun jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy mafkuraviy muhitning sog'lomligida muhim o'rin tutadi.* Shuning uchun milliy mafkuramiz asosini belgilab bergan Prezidentimiz asarlari asosida tayyorlangan **«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»**

[1] Barkamol avdlod orzusi. T: «Sharq». NMKBT, 1999, 8-bet.

risolasida berilgan ta'rifda oilaning ijtimoiy ahamiyati beqiyos ekani ta'kidlanadi: «**Oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi**»[1].

Kishilik tarixi shundan dalolat beradiki, xalqning yuksak ma'naviyatini belgilaydigan, ma'naviyatning gullab-yashnab, jamiyatda siyosiy barqarorlik mustahkamlanishiga xizmat qiladigan g'oya va qarashlar, axloqiy me'yorlar, avvalo, oilada shakllana boshlaydi. Ular ta'sirida inson jamiyat bilan faol munosabatga kirishadi, odamlar bilan o'zaro yordam, hamjihatlik munosabatlarini o'rnatadi. Shu bois zamonaviy oila jamiyat gullab-yashnashining subyekti sifatida baholanishi lozim. Buning uchun yuqorida zikr etilgan risolada «**xalqimiz uchun muqaddas bo'lgan qo'rg'on, ma'naviyat beshigi bo'lgan oila, onalar va ayollarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish**»[2] zarurligi ta'kidlanadi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida oila imkoniyatlarini milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirishga, ayniqsa, yosh avlodni yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga safarbar etish juda muhimdir.

Demak, oilada inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillarning barchasi mavjud. Ya'ni oilada sog'lom muhit bor, u o'zining ma'naviy tayanchlariga ega, boshqacha aytganda, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikning farqini anglatib turadigan qadriyatlar mavjud. Shuningdek, oilada do'stlik, inoqlik, mehr-oqibat, ustoz-shogirdlik muhiti bor. Bu yerda hamma bir-biriga tayanch va suyanch bo'ladi. Hamma bir-birini qadrlaydi. Jamiyatdagi an'anaviylik va vorisiylik tamoyillari ham, avvalo, oiladagi an'anaviylik va vorisiylik tamoyillari negizida rivojlanadi.

Umuman aytganda, o'z kelajagini o'ylagan, ulkan maqsadlar sari intilib yashaydigan har qanday jamiyat oila mustahkamligiga e'tibor beradi, oila haqida qayg'uradi. Shuning uchun istiqlol yillarida Prezidentimiz tomonidan har yili hayotimizning ustuvor yo'nalishi belgilanib, unga maxsus nom berilishi, alohida davlat dasturlari qabul qilinib, amalga oshirilayotgani oilaning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirishga muhim hissa bo'lib qo'shilmoqda. Chunonchi, 1998-yilning «**Oila yili**», 1999-yilning «**Ayollar yili**», 2000-yilning «**Sog'lom avlod**

[1] **Milliy istiqlol g'oyasi**. T.: «O'zbekiston», 2000, 66-bet.
[2] **Milliy istiqlol g'oyasi**. T.: «O'zbekiston», 2000, 33-bet.

yili», 2001-yilning **«Onalar va bolalar yili»**, 2008-yilning **«Yoshlar yili»**, 2010-yilning **«Barkamol avlod yili»**, 2012-yilning **«Mustahkam oila yili»**, 2013-yilning **«Obod turmush yili»** deb e'lon qilinishi hamda bu yillarning har biri bo'yicha maxsus davlat dasturlarining qabul qilinib, oila, sog'lom va barkamol avlod, oilaning mustahkam va barqaror bo'lishi to'g'risida amalga oshirilayotgan tadbirlar g'amxo'rlikning yaqqol dalilidir.

1-shakl



Darhaqiqat, oila jamiyatning kichik yacheykasi sifatida sog'lom va barqaror bo'lsa, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. *Yurtboshimiz iborasi bilan aytganda:* **«Hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir».**

Zero, har qanday davlatning mustahkam bo'lishi va taraqqiyot etishining birinchi sharti – aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatidan yetuk, ruhi tetik, o'zining fuqarolik burchi va mas'uliyatini to'la anglab yetgan sog'lom avlodni shakllantirish bilan bog'liqdir. Chunki insonparvar demokratik huquqiy davlatni va kuchli fuqarolik jamiyatini faqat sog'lom nasl, jismonan baquvvat, mard, jasur, ruhan va fikran sog'lom avlodgina qura oladi.

Ma'lumki milliy istiqlol g'oyasi yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashni nazarda tutadi. Shuning uchun qaramlik va mutelik tuyg'ularidan holi bo'lgan. Har xil shakldagi aqidaparastlik oqimlariga uchramaydigan barkamol insonni tarbiyalashni bosh vazifa qilib qo'yadi. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi tushuncha va tamoyillarini oila muhitida yoshlar qalbi va ongiga singdirish insonni, barkamol avlodni voyaga yetkazish tarzida amalga oshadi. Chunki inson hayotining mazmunini tashkil etadigan ilk tasavvur ham, ilk hayotiy ko'nikmalar ham, dunyoqarash va e'tiqod ham, ma'naviyat va mafkura asoslari ham oilada shakllanadi. Shu bois, har bir o'sib kelayotgan yosh avlod komil inson deganda, avvalo, o'zining ota-onasini tushunadi. Chunki ota-ona farzand uchun yaxshilik va ezgulik ramzi bo'lib qoladi. Har qanday g'oya va mafkuraning vazifasi esa yoshlarni biror bir maqsad zamiridagi yaxshilik va ezgulikka ishontirish orqali faol harakatga keltirishdir. Bundan tashqari, milliy istiqlol g'oyasi tizimidagi eng muqaddas tushunchalar ham avvalo oilada shakllanadi. Bu jihatdan ayniqsa, Prezidentimizning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: **«Yurtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtayi nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»**[1].

Chunki oilada ahillik, totuvlik, fayz-baraka ustuvor bo'lsa, jamiyatda ham tinchlik xotirjamlikka va farovonlikka erishiladi, shu

[1] Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hаёt – pirovard maqsadimiz. T: «O'zbekiston», 2000, 502-bet.

bois bizda oila ustuni-ayolga bo'lgan buyuk e'tibor qadim-qadimdan o'ziga xos an'ana sanalgan. Shuning uchun muqaddas hadislarda «**Jannat-onalar oyog'i ostidadir**» deyilgan. Xalqimiz bu fikrni yanada rivojlantirib, «**Ona rozi-xudo rozi**» deya onani ulug'lashi bejiz emas. Chunki «**Ona**» endigina tilga kira boshlagan go'dakning ilk so'zi. Bu so'z umrbod uning tilidan va dilidan tushmaydi. Insonning boshiga qayg'u-g'am, azob-uqubat tushgan nochor ahvolda qolgan chog'larida uning lablari beixtiyor: «**Ona! Onajon!**» deya shivirlaydi. Murg'ak inson qalbini yorituvchi nur onaning mehr-muhabbati to'la ko'zidan bolaga o'tadi.

Xalqimiz inson qalbiga eng yaqin bo'lgan narsalarni «**Ona**» nomi bilan bog'lagan. Biz Vatanga bo'lgan samimiy olijanob tuyg'umizni ifodalaganda, «**Ona – Vatan**», deymiz. Xalq shoirona to'qilgan yorqin iboralarda onani barcha ezguliklarning, bolalar quvonchi va baxtining manbai deb ataydi.

«**Quyosh tanni isitar, ona qalbni**», «**Ona qalbi oftobdan ham issiq**», «**Xalq onani tabiatning bahor fasliga o'xshatadi**», «**Bahor kelsa qushlar sayrar, bola bilan ona yayrar**», «**Ona bilan bola–gul bilan lola**». Farzandning dunyoga kelishi ona hayotida bamisoli bahorning yuz ochishidir.

Xalq onani haqiqat timsoli deb baholagan. Haqiqat ona nomi bilan ifodalanadi. Chinakam mehr-oqibat, mehribonlik shu muqaddas so'z bilan hamohangdir. «**Onang qo'rg'oning**», «**Onang-baxt, saodating**». Ha, ona bola uchun chinakam mehr-oqibat, mehribonlik ijodkori o'z bolasi uchun xavf-xatardan asrovchi chinakam qo'rg'on, falokat, ko'ngilsiz hodisalardan asrovchi qalqon. Bu kabi nozik, insoniylikning asosini tashkil etuvchi hislar ona suti, allasi va mehri orqali bolaga, bola orqali odamga, jamiyatga singadi.

Taniqli shoir Sobir Abdulla yozganidek:

Ona allasidek sermazmun doston,
Shoir qo'lidan kelmas mutlaqo.

Alla orqali yosh go'dak jismiga singadigan mehr eng go'zal insoniy tuyg'u hisoblanadi. Ona olam quyoshidek, ona mehri go'dak qalbini isitadi, fikr va his uyg'otadi. Ilk axloqiy xatti-harakatlar hosil qiladi. Yosh go'dak tetapoya qadamlar tashlab yura boshlaganda, ona uni birinchi marta boy tabiat olamiga yetaklab, unga dastlabki hayot sabog'ini beradi. Bolani go'zallikni sevishga, yomon narsalardan nafratlanishga o'rgatadi. Ona faqat go'daklik davrida emas, balki o'z farzandini butun hayot yo'lini belgilaydi. Uning hayot so'qmoqlaridan

tashlaydigan har bir qadamini chin qalbdan quvonch va tashvishlar bilan to'lqinlantiradi. Ulug' shoir G'afur G'ulomning ushbu satrlari onaga yuksak ehtirom tarzida paydo bo'lgani bejiz emas:

Onam deganimda, oq soch, jafokash
Munis va mehribon chehrang namoyon.

Oilada kishilar, eng avvalo, ma'naviy bir-birlariga yaqinlik, ruhiy himoya, eng ezgu tuyg'ular asosida birlashadilarki, bular inson hayotining ma'nosini tashkil etadi. Oila kishining shaxsiy baxti, uni o'z-o'zidan ko'payishi va tarbiyasini ta'minlash bilan birga, o'zaro yordam hamda axloqiy mas'uliyat vositasida o'z maqsadini amalga oshiradi. Bu munosabatlar tor oila munosabatlari doirasidan chiqib, jamiyat, qolaversa, insoniyat uchun ijtimoiy, nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy, siyosiy mohiyat kasb etadi.

Xalqimiz **otani padari buzrukvor, onani esa volidai muhtarama** deb e'zozlaydi. Buning boisi shuki, har bir inson uchun **otadan ulug' va qadrli, onadek mehribon va yaqin kishi yo'q.** Ular farzandni dunyoga keltirib, asrab, voyaga yetkazishdan tashqari, hamma vaqt quyosh kabi hayotimizda nur sochib turadilar. Hazrat Alisher Navoiy yozganlaridek:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tunu kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shu boisdan ota-onaga hurmatdek muqaddas tuyg'u bizning jismi qonimizga ota mehri va ona suti bilan singadi. Buni nazarda tutib, Prezidentimiz Islom Karimov «**Agar dunyoda eng murakkab shu bilan birga eng mas'uliyatli kasb nima deb so'rashsa ota-onalik, murabbiylik, deb aytgan bo'lardim. Mendan eng katta boylik nima, deb so'rashsa, bilimli, aqlli, odobli, ertangi kunini o'ylaydigan farzand ota-onaning eng katta boyligi, deb aytgan bo'lur edim**» *deb ta'kidlaganlar.*

Milliy qadriyatlarimiz bo'lmish Qur'onning 16 surasi, 72 oyatida, shuningdek, juda ko'p Hadisi shariflarda, oila, ona-bola, oilada bola tarbiyasi , nikoh va er-xotin munosabatlari, oilada ota-onaning o'rni, ota-ona bilan farzand munosabatlari haqida juda qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Hadislarda «**Otaga itoat qilish - Ollohga itoat qilishdir. Otaga osiy bo'lish-Ollohga osiy bo'lishdir**», *deyiladi. Buning ma'nosi shuki, farzand nafaqat ota-ona hurmatini bajo keltirishi, balki boshqalar bilan*

ham izzat-hurmatda bo'lishi lozim. Farzand ota-ona hurmatini boshqalar bilan teng tutishi lozim. Shu bois, Hadisda: «**Odamlar bilan murosa qilish sadaqa**» *sifatida talqin qilinishi bejiz emas.*

Insonning odobi aql zakovati axloqining ajralmas qismi sifatida ezgulik, yaxshilikka xizmat qilishi lozim. Farzandga bu xislatlar ota-onadan o'tadi. Shuning uchun ota-ona farzandini barkamol inson qilib tarbiyalashi uning musulmonlik burchi sifatida farz qilingandir. Bunda barkamollik timsolini farzand, eng avvalo, o'z ota-onasida ko'rishi kerak. **Ota-onaning ibrat namunasi** juda kuchli tarbiyaviy ta'sirga egaki, uni boshqa tarbiyaviy tadbirlar, usul va vositalar bilan almashtirib bo'lmaydi. Ota-ona o'z farzandiga yaxshi xulqdan qimmatli meros qoldira olmaydi, deganlar payg'ambarimiz sollolohu alayhi vassallam, odob kishiga qoniqish keltiradi. Bu esa farzandining baxtli bo'lishi uchun zamindir. Baxtli bo'lish uchun yaxshi kishilardan iborat, namuna olish kerak. Baxtli farzand ota-onasiga, umuman kishilarga ma'naviy, ruhiy jihatida qoniqish keltiradi, o'zining yaxshi xulq-odobi bilan yaxshi amallar qiladi. Kishilarga yaxshilik qilgan mo'min xudoning sevimli bandasi hisoblanadi. «**Olloh taollo bandalari ichida sevimlisi oila a'zolariga manfaati ko'p tegadigan kishidir**», *deyiladi Hadisda.*

Islom ta'limotida rahmdillik, mehribonlik, shafqat, g'amxo'rlik, muruvvat, sahiylik kabi insoniy sifatlar, axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Inson o'zining namunali xulq-odobi bilan go'zaldir. Buning uchun u, eng avvalo, o'ziga talabchan bo'lishi kerak. O'zining yashashi, xush xulqi bilan atrofdagilarga qulaylik yaratishi lozim.

Yaxshi xulq-odob, yaxshilik baxt keltiradi. Shuning uchun kishilar yashashda kechirimli va chaqimchilikdan yiroq bo'lishlari lozim. *Qur'onning «An Kabut» surasi 8-oyatida:* «**Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. (ya'ni ota-ona xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, xoh musulmon, xoh kofir bo'lsin ularga yaxshilik qilish farzandning burchidir)**», *deyilgan.* Juda ko'p Hadislarda ham ota-onaning farzand uchun qoldiradigan eng katta merosi yaxshi xulq-odobi ekanligi bot-bot aytilgan. Bundan ko'rinadiki, farzandning ota-onaga yaxshilik qilishi, ham qarz, ham farz ekan.

Ayniqsa, onaga hurmat, unga yaxshilik qilish ko'p chandondir. Imom Ismoil al-Buxoriy yozadilar: *«Bir odam Rasullulloh Sallalohu alayhi vassalam huzuriga kelib: Yo Rasulullоh mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqlidir?» deb to'rt marta takror va takror so'radi.*

Shunda Janobi Rasulullоh to'rt marta «Onang!» deb aytdilar. U beshinchi marta «Yana kim?» deb so'radi? Janobi Rasulullоh: «Otang» deb javob qildilar». Demak, har bir farzand o'z ota-onasini hurmat qilishi orqali boshqalarni, qavm, qarindoshlarini va umuman, insonlarni izzat-hurmat qilib, xushxulq, xushodob bo'lib yashamog'i lozim.

O'z navbatida ota-ona ham, farzand oldida juda katta mas'uliyatga ega. Farzandni dunyoga keltirish kifoya emas, balki uning tarbiyasi bilan shug'ullanishi shart. Ota-ona, kattalar bola tarbiyasiga mas'ul ekanlar, bunda ular bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishlari lozim. Kimningki, yosh bolasi bo'lsa, unga bolalarcha muomala qilsin deydilar Payg'ambarimiz o'z Hadislarida. Bunda ko'proq mas'uliyat onaga yuklangandir. Buning sababi shuki, ota ko'proq oilani moddiy jihatdan ta'minlash, yaxshi ibrat namunasi, xushxulqi bilan ta'sir ko'rsatsa, ona doimo bola bilan birga bo'lib, uning tarbiyasi bilan ko'proq mashg'ul bo'ladi. Dunyodagi yaxshilik, diyonat, xushxulq ko'p jihatdan ona va bola tarbiyasiga bog'liqdir.

Demak, onalar oilada intizomni ta'minlaydilar. Ular sabr-toqatli, iffatli, nazoratu qanoatli, husnu tarovatli, mehru muruvvatli, sadoqatli, vafodor bo'lishlari lozim. Bu fazilatlarga ega bo'lgan aqlli ona oila tinchligini ta'minlab har jihatdan jahldor erni ham insofga keltira oladi. Ona oila tinchligini, saramjonligining tayanchidir. Zero, onalarning jamiyat oldidagi buyuk xizmatlari o'z farzandlarini to'g'ri, yaxshi odob-axloqli, oqilona tarbiya qilishdir.

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, oila tarbiya o'chog'i va jamiyat negizi hisoblanadi. Shuning uchun ham «**jamiyat**» va «**oila**» tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyatda vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Bu haqda Yurtboshimiz «**Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch**» asarida shunday yozadi: «**Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada shakllanadi**»[1].

[1] Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 52-bet

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan **«Oila» konsepsiyasini yaratilishi, «Ona va bola» Davlat dasturi**ning qabul qilinishi, 1998-yil **«Oila yili»** deb e'lon qilinishi va shu yilning o'zida **Oila kodeksi**ning qabul qilinishi, *mamlakatimizda ilk bor* ***«Oila» ilmiy-amaliy markazi****ning tashkil* etilishi oilani, oila va nikohni qadriyat sifatida muqaddasligini e'zozlashga, ona va bolani ijtimoiy muhofaza qilishga, oilani mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga, oila a'zolarining iqtisodiy-huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar kamoloti hukumatning doimiy g'amxo'rligida ekanligidan dalolatdir.

Demak, oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 63-moddasidagi **«Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega»**[1] degan qoidada davlatning oilaga munosabati o'z ifodasini topgan.

Oila va jamiyatda oilaviy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: *oila, mahalla va tarbiyaviy muassasalar bilan hamkorlikda bolani hayotga, jamiyatdagi faol mehnatga tayyorlash, unga aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, iqtisodiy, huquqiy, vatanparvarlik tarbiyasi berish.*

Binobarin, bog'cha va maktab davlatning ta'lim-tarbiya muassasasi sifatida oilaviy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona mahalla, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda bolalarining ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishlari shart. Jamiyat taraqqiyotining rivoji va oila barqarorligi ota-onalar va bolalarning o'zaro mehr-muhabbatiga asoslangan

[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: «O'zbekiston», 2008, 244-bet.

munosabatlar bola shaxsi tarbiyasida muhim omildir. Zero, bola shaxsi, **tabiati, xulq-atvori**, odati, irodasi, tasavvuri va dunyoqarashining tarkib **topishi** oila va jamiyat talablaridan boshlanadi.

Shunday ekan, bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablarini dastlab shu kichik jamoa orasida anglaydi. Mana shuning uchun ham yosh avlodni tarbiyalash ishida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, mahalla va jamoatchilik oilaga suyanmasligi mumkin emas.

Oilaviy tarbiyaga kompleks yondashishni hisobga olib oilada asosiy e'tiborni axloqiy va mehnat tarbiyasi, bolalarni estetik va jismoniy rivojlantirish masalalarini hal qilishga qaratish lozim.

Oilaviy tarbiyada mazmunli suhbatlar, muloqot, bahs-munozara, ertaklar va hikoyalar aytib berish uslublaridan foydalanish bolalarda insonparvarlik, rahmdillik e'tiborlilik, hamdardlik, qayg'udoshlik, muloqot madaniyati, nazokat, lafz, ya'ni so'zning ustidan chiqish, hozirjavoblik, minnatdorchilik tuyg'ulari shakllanadi. Va aksincha, xuddi shu oilaviy munosabatlarda ularning uslublari va an'analariga bog'liq ravishda xudbinlik, toshyuraklik, kattalarga hurmatsizlik, atrofdagilar ehtiyojiga e'tiborsizlik, o'smirning mas'uliyatsizligi, berahmlik, surbetlik, qo'pollik, xudbinlik, individuallizm, yotsirash, odamovilik va boshqa salbiy xususiyatlar rivojlanadi. Biroq oilada bolalarning ko'pchilik bo'lishi esa ularning axloqiy jihatdan barkamol inson bo'lib shakllanishlariga yaxshi shart-sharoit yaratadi va odob-axloqida salbiy xususiyatlarning paydo bo'lishiga imkoniyat qoldirmaydi. Oila shart-sharoitida va muhitida bularning hammasi ota-onalar va oilaning boshqa a'zolarining shaxsiy namunasi ta'siri bilan bog'liqdir.

Oilada bolalar bilan birgalikda musiqa tinglash, ashula aytish, rasm chizish, raqsga tushish, badiiy adabiyotlarni o'qish, spektakl va kinofilmlarni ko'rib muhokama etish ularning estetik didini, tasavvurlari, hissiyoti va ideallarini, huquqi va ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.

Oilada tarbiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bolalarning jismoniy jihatdan baquvvat bo'lib voyaga yetishida mehnat tarbiyasining ahamiyati kattadir. Mehnat tarbiyasida ota-onalarning o'zlarining va oilaning boshqa a'zolarining mehnatga halol va vijdonan yondashishlari katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oilada mustaqil ravishda ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajarilishiga erishish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Haqiqatan ham oilada ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalar va ukalar ibrati, shuningdek, ularning hamjihatlikda ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Bunda bolalarning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarni taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishini, ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy rag'batlantirilishi yoshlarning mehnatga bo'lgan havasini oshiradi, ularda o'z kuchiga ishonchini yuzaga keltiradi.

Ta'kidlash lozimki, **milliy tarbiya** *oiladan boshlanadi. Mahalla va uzluksiz ta'lim tizimida esa u davom ettiriladi.* **Milliy tarbiya – O'zbekiston mustaqilligining pedagogik maqsadi va shartidir.** *Buning mazmun-mohiyati quydagilardan iboratdir:*

– milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;

– umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;

–xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi;

–O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi;

– turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai;

– o'quvchi-talabalarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy ekologik va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;

– millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarlik yo'li va vositasi;

– ijtimoiy tarbiya va uzluksiz ta'lim - tarbiya uyg'unligining pedagogik sharti;

– insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li;

– ijtimoiy-ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik obyekti va vositasi;

– o'quvchi-talabalarda milliy (avto va getero) sterotiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy, boyitish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi.

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshiriluvchi **milliy tarbiyaning maqsadi – xalqimiz, Prezidentimiz, milliy istiqlol mafkurasining yosh avlod muayyan fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy buyurtmasini o'rganish, aniqlash va amalga oshirishni ilmiy-pedagogik jihatdan ta'minlashdir. Milliy istiqlol sharoitida ijtimoiy hayotni, mafkuraviy pedagogik zaruratni, O'zbekiston hukumati, Prezidenti tomonidan milliy taraqqiyot uchun dolzarbligi e'tirof qilinayotgan insoniy fazilatlarni o'rganib umumlashtirish milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Natijada, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarning milliy tuyg'ulariga o'zbek xalqining milliy udum va odatlariga bog'liq bo'lgan milliy g'urur va iftixorni, millatlararo muloqot madaniyatini, vatanparvarlikni, imon-e'tiqodni, vijdoniylikni, milliy odobni va milliy mafkuraviy onglilikni shakllantirish; shuningdek, bularning aksi bo'lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, xoinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlikka nafrat uyg'otish kabi vazifa (tarbiyaviy ish)larni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish maqsadga muvofiqdir.**

Milliy tarbiya o'quvchi - talabalar shaxsini shakllantirishda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish asosida har bir shaxsning ma'naviyatiga o'ziga xos milliy yo'nalish berishga harakat qilishdir.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilanadi. **«Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov, - sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlik emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz».** *(«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». –T.: «O'zbekiston», 1992, 28-bet).*

Shunday qilib, sog'lom va odob–axloqli, ruhiy yetuk, ma'naviyatli, ma'rifatli yoshlarsiz insonparvar demokratik huquqiy davlatni mustahkamlash va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni tasavvur qilish qiyin. Bunday barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish esa faqatgina oiladagi munosabatlar va tarbiyaning to'g'ri shakllanganligi bilan erishish mumkin. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, oila tarbiyasini tashkil etish va barkamol shaxsni tarbiyalashda oilada ota-onalar, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan

hamkorlik nihoyatda muhimdir. Shundagina Vatanga fidoiy, sodiq, e'tiqodi mustahkam, jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etadigan, mustaqil fikrga ega shaxsni kamolga yetkazish mumkin.

8.2. AQLIY TARBIYA

Binobarin, farzand dunyoga kelar ekan, uning har tomonlama kamol topishi, kamolot pillapoyalariga qadam qo'ya bilishi uchun birlamchi va asosiy zaminga ilk g'ishtlar aynan oilada qo'yiladi[1].

Xo'sh bolaning **intellekti**, ya'ni **aqliy rivojlanishida**, uning aqliy tarbiyasida oilaning, oiladagi muhitning o'rni va ta'siri qanday?

Ma'lumki, bola intellektining jadal rivojlanishi uning 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi, irsiy ko'nikmalarining rivojlanishi 4-6 yoshda sezilarli bo'ladi. Aynan shu davrda bolaga bo'lgan munosabat birmuncha alohida bo'lishi, uning har bir ijodiy harakati rag'batlantirilishi, savollariga batafsil va qoniqarli javob olishi, muloqotning birmuncha chuqurlashishi bevosita bola tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishi, buning oqibatida unda ijobiy va salbiy ko'nikma va malakalar shakllanib borishi seziladi. Bu davrda bolada taqlid qilishga moyillik juda kuchli bo'lib boradi. Albatta, bola intellekti rivojida bola va kattalarning muloqoti hamda birgalikdagi faoliyatida amalga oshiriladigan «**ruhiy rag'batlantirish**» hal qiluvchi omil bo'lishi pedagog va psixologlar tomonidan tan olinadi.

Sir emaski, asosiy hollarda 4-6 yoshdagi bolalar deyarli ko'p vaqtlarini bog'chada o'tkazadilar. Bog'chada 10 dan ortiq bola bilan kattalar o'rtasidagi muloqotning minimal darajasiga tushishiga olib keladi. Natijada, bog'cha bolalari bevosita, doimiy oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan aqliy va sezgi – harakatlar rivojlanishi jihatidan birmuncha qoloqroq bo'lishini mantiqan anglash qiyin emas. Bu fikr bilan bog'cha tarbiyachisini mutlaqo inkor etmoqchi yoki uni biror darajada bo'lsin, tanqid qilmoqchi emasmiz. Xolis maqsadimiz shuki, bolaning ayni taqlidchilikka benihoya moyil bo'lgan, shu yo'l bilan dunyoni bilishdan huzurlanadigan bu davrida bog'chadan tashqari vaqtlarida u bilan ota-ona va aka-opalar muloqotini maksimal darajaga ko'tarish, muntazamlashtirish har bir oila uchun zarur ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.

Masalaning keyingi bir tomoni ham mavjudki, u ham bo'lsa, bola tug'ma aqlli, iqtidorli, tafakkuri keng, o'tkir bo'lishi ham mumkin.

[1] Barkamol avlod orzusi. «Sharq» NMKBT, 1999, 8-bet.

Ammo bu bolaning yetuk komillik sari ko'tarilishiga kafolot bo'la olmaydi, chunki oiladagi nomunosib muhit bu tug'ma iqtidorning rivojlanmasdan qolib ketishiga olib keladi. Bolani yetuk inson darajasiga ko'tarish uchun bu uning aqlini, salohiyatini, iqtidorini va tafakkurini tarbiyalash va rivojlantirish zarur. Shundan bola shaxs sifatida teran fikrlashi va albatta, tafakkuri mustaqil, ijodkor shaxs bo'lib yetishishi mumkin.

Psixolog olim V.N.Drujininning ta'kidlashicha, AQSH olimlarining tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalarning bilim doirasi, ularning fikrlash darajasi bolaning aqliy qobiliyatining o'sishi yoki pasayishini belgilovchi omillardan biridir[1]. Oilaning har bir a'zosi, ota-onalar ham, bolalar ham, muayyan intellektual saviyaga ega. Har bir oila a'zosi butun oilaga va oila o'zining har bir a'zosiga ta'sir etadi. Aytish mumkinki, farzandlarning aqliy tarbiyasida oiladagi umumiy intellektual saviyaning yuksalishi uchun zaruriy sharoitlarni yuzaga keltirish benihoya muhim.

Bolaning to'kis aqliy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan oilaviy muhitni ma'naviy-ma'rifiy saviya va tegishli tajribaga ega, mustaqil fikrli, dunyoqarashi keng, milliy an'ana va qadriyatlardan boxabar ota-onalargina yaratib bera oladilar.

Ruhiyat bilimdonlaridan biri «**Agar bolangiz siz bilan sirlashsa, bu sizning baxtingiz va yutug'ingiz mevasidir**»,- deb bejiz ta'kidlamagan. Bola har qanday mavzuda o'z fikri, taassurotlari bilan o'rtoqlashar ekan, ota-onalar bu fikrlarga befarq bo'lmasdan, unga to'g'ri yo'l ko'rsatgan holda, asosli fikr bilan javob qaytarishi kerak. Bu bilan biz bolaning nosog'lom muhitga kirib qolishidan asraymiz, chunki oilaviy muhitdan qoniqqan bola keyingi paydo bo'lgan har qanday savoliga javob topish uchun yana o'sha oilaga, ya'ni ota-onaga murojaat qiladi. Ota-ona bilan o'z muammolari, yutuqlari haqida erkin fikrlasha oladigan, o'rtoqlasha oladigan boladagina mustaqil fikrlash shakllana boradi. Bu esa bevosita uning intellektual o'sishiga xizmat qiladi. Aks holda, o'sib, rivojlanib kelayotgan bolada hayotdan qoniqmasdan, turli jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan oqimlarga qo'shilib qolishi ehtimoli ortadi.

Yuqoridagi interaktiv metodlardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko'zda tutib, muammoni keltirib, o'quvchi-talabalarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma'lum malakalarga ega bo'lgan holatlarda qo'llanilsa kutilgan natijalarni olish mumkin.

[1] Дружинин В.Н. Психология общих способностей. СПБ.: Питер, 1999, 96-бет.

Umuman yuqorida bayon etilgan interaktiv metodlar asosida darsni tashkil etish uchun har bir mashg'ulotning konsepsiyasi yaratilishi, shu asosda uning ketma-ketligi, reglamenti, ish tartibi, maqsad, vazifalari, kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinishi va undan o'quvchi-talabalar boxabar etilishi kerak.

Interaktiv metodda o'quvchi-talabalarni o'qitishda o'qitish muhiti tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, bu esa:

- o'qish va tadqiqotlarga ko'maklashadi;
- turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega bo'ladi;
- ijodkorlik qobiliyatlariga rag'bat beradi;
- ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi;
- fikrlar va axborotlar almashinuviga imkon yaratadi;
- nutqiy rivojlantirishni rag'batlantiradi;
- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- turli usullar bilan ma'lumot olish uchun resurslarni o'z ichiga oladi;
- ma'lumotnomalar, lug'atlar, ensiklopediyalar, geografik xaritalar, kompyuter, tajriba o'tkazish uchun turli asboblar, materiallar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quv materiali mazmuni, nimaga o'rgatilishi, tahlili, motivatsiyasi, o'qituvchi, o'quvchi-talabalarni ketma-ketlikdagi harakatlari ko'zda tutiladi.

Interaktiv darslarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Orientir. O'yin ishtirokchilari va ekspertlarni tayyorlash bosqichi. O'quv jarayonining ish rejasi o'qituvchi tomonidan taklif etiladi. O'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda mashg'ulotning maqsad va vazifalari aniqlanadi. O'quv jarayoni muammosi shakllantiriladi. O'quv jarayonida kechadigan immitatsiya, o'yin qoidalari, umumishning borishi aytiladi, o'quvchi-talabalarga o'quv jarayoni materiali paketi tarqatiladi.

2. O'quv jarayoniga borishga tayyorgarlik. O'quv materiallari, vaziyatlar, instruksiya va boshqa paket hujjatlari bilan tanishish. O'yin qoidalari tablosi tuziladi. Unga o'yin ssenariysi, o'yin vazifalari, qoidalari, o'yin ketma-ketligi, olinadigan natijalar aks ettiriladi.

O'yinning borish jarayoni aks ettiriladi. O'yin jarayonini o'zgartirish, unga chetdan aralashish man etiladi. Faqatgina jarayonni olib borishda ayrim tuzatishlarni kiritish mumkin. O'yin belgilanganda o'qituvchi unga aralashmay, uni kuzatib, boshqarib boradi.

Uning asosiy vazifasi muhokamani tashkil etish, o'yinni kuzatib turish, natijalarni, olinayotgan fikr-mulohazalarni hisoblash, ishtirokchilarning savollariga javob berish.

3. O'tkazilgan o'yin muhokamasi – O'tkazilgan o'yin jarayonini tahlil etish, muhokama etish, baholashdan iborat. O'qituvchi yakuniy muhokamani o'tkazadi. Muhokamada ishtirokchi va ekspertlar fikr almashadilar, o'z pozitsiyalarini himoya qiladilar, taassurotlarni tug'ilgan muammo va fikrlarni bildiradilar.

Yuqoridagi axborotlardan ma'lum bo'ladiki, interaktiv holatda kechgan ishchanlik o'yinlarida; *o'qituvchi-o'quvchi-talaba, o'qituvchi-sinf-auditoriya, o'quvchi-talaba-sinf, o'quvchi-o'quvchi-talaba-talaba, guruh-guruhlar orasida o'zaro muloqotlar bo'lib o'tishi orqali o'quv mazmuni o'zlashtiriladi.*

Interaktiv usulda dars o'tmoqchi bo'lgan o'qituvchilarga shuni eslatish kerakki, yangicha ishlash uchun faqatgina maqola, adabiyotlar o'qishning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun, ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatida interaktiv metodlarni qo'llashi uchun, u shaxsan o'zi ishchanlik o'yinlari, aqliy hujum, munozara, debatlarda qatnashib, o'zi tajribadan o'tkazadi, bu ishga shaxsiy hissasini qo'shib boradi.

Buning uchun u interaktiv darslarni o'tkazishning quyidagi qoidalarini bilib, o'zlashtirib, amalga kiritishi kerak:

– **birinchidan,** interaktiv mashg'ulotlarga barcha ishtirokchilar (o'quvchi-talabalar) jalb etilishi talab etiladi. Bunda shunday interaktiv texnologiyalar tanlanishi kerakki, ish jarayonida barcha ishtirokchilarning ishtiroki yoki muhokamasi ta'minlansin;

– **ikkinchidan,** mashg'ulotga ishtirok etishni psixologik tayyorlash zarur. Darsda ishtirok etuvchilar jarayonga kirishib ketishga tayyor emasligini hisobga olmoq kerak. Yangi tashkil etilayotgan interaktiv darslarda ulardagi hadiksirash, tortinchoqlik, indamaslik holatlari darsning faol kechishi, ichki imkoniyatlarni ishga solishga to'sqinlik qilishi kuzatiladi;

– **uchinchidan,** o'quvchi-talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ko'plab joriy etish bilan toliqtirmaslik. Ishtirokchilar imkoniyati, zamonaviy texnologiya sifati bir-biriga mos kelgani ma'qul. Bir guruhda ishtirokchilar soni 30 kishidan oshib ketmasligi kerak. Shunday sharoitdagina kichik guruhlarda ishlash, fikrni erkin bayon etish, muammolar yechimini topish oson kechadi;

– **to'rtinchidan,** mashg'ulot olib boriladigan xonalarni tayyorlashga alohida e'tibor berish kerak. Sinf yoki auditoriya shunday

tayyorlanishi kerakki, kichik va katta guruh bilan ishlanganda, ular erkin harakatlansinlar. Boshqacha aytganda, o'quvchi-talabaga qulay muhit yaratilishi kerak. Ayniqsa, o'quvchi-talabalarning bir-biri bilan muloqotda bo'yin egib o'tirishi noqulaylik keltirib chiqaradi. Stollarni 4-6 kishilik qilib qo'yish, guruh a'zolarining bir-birlariga qarab o'tirishi, ko'rib, fikrlashuvga qulay muhit yaratilishi yaxshi natijalar beradi;

– **beshinchidan,** ishchanlik o'yinlarini olib borishdan oldindan uning reglamenti, ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Unga qat'iy rioya qilishni oldindan kelishib olgan ma'qul, Har bir ishtirokchi har qanday fikrlash, nuqtayi nazarga chidamli bo'lishi, oxirigacha eshitishi, tanqid qilmasligi kerak.

Har bir ishtirokchining so'z erkinligiga hurmat bilan qarash, shaxs hurmatini saqlash;

– **oltinchidan,** ishtirokchilarning guruhlarga bo'linishlariga diqqat-e'tibor bilan qarash. Avvalo guruhlarni shakllantirish erkin, xohish-istaklar asosida kechgani ma'qul. Keyinchalik guruhlarni tasodifiy shakllantirishga o'tilgani ma'qul.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, interaktiv usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng muhimi u o'quvchi-talabalarning kommunikativ bilim, tushuncha, malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjihatlik, do'stona munosabatlarda ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi.

Bu usulda ishlash o'quvchi-talabalardagi ruhiy holatni, yuklamalarni yengillashtiradi. Mashg'ulot shakllarini, faoliyatlarini o'zgartirib turish asosida muhim muammolar yechimini topishga o'rganib boradilar.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, o'qituvchi dars beruvchi emas, balki o'quvchi-talabalarni muammoga yo'naltiruvchi, tadqiqot faoliyati maslahatchisi, tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisidir. U o'quvchi-talabalarning mustaqil fikrlashi uchun sharoit yaratadi va ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi.

O'z navbatida, o'quvchi-talabalar o'qituvchi bilan birgalikda o'qitish jarayoni va uning natijalari uchun mas'uliyatni taqsimlash orqali o'qish jarayonining to'laqonli ishtirokchilariga aylanadi. Demak, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ta'lim beruvchi, ya'ni o'qituvchi ta'lim oluvchilarni faollikka va mustaqil fikrlashga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun dars jarayonida faol ishtirok etadi. Bunday yondashuvning foydali jihatlari quyidagicha:

ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;

ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;

o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;

ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;

amalda bajarish orqali o'rganilishi;

ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasida erkin fikr-mulohazalarga shart-sharoit yaratilishi.

2-shakl



Hozirgi kunda interaktiv metodlaring 100 dan ziyod turlari mavjud bo'lib, quyida o'qitishning interaktiv metodlarining ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

«AQLIY HUJUM» METODI

Keyingi paytda miya ish faoliyatining foydali ish koeffitsiyentini oshirishga mo'ljallangan turli xil metodlar ishlab chiqilmoqda. Vaholanki, mutaxassislarning fikricha, miyaning bor-yo'g'i 7% igina ishlar ekan, xolos. Miya faoliyatini faollashtiradigan ta'lim usullariga ijtimoiy-psixologik trening, sinektika, autogen mashq, morfologik tahlil, rolli o'yin, «Aqliy hujum» va boshqalar kiradi.

«Aqliy hujum» – «breynstorming» (brain storming) *inglizcha so'zdan olingan bo'lib, faol ta'limning, boshqaruvning va tadqiqotning*

metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod aqliy faollikni qo'zg'atadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi.

Bu metodning paydo bo'lishi ikkinchi jahon urushida Yapon dengizida xizmat qilgan amerikalik mutaxassis A.Osborn bilan bog'liq bo'lib, u boshchiligida harbiy kemani qanday qilib torpedolardan himoya qilish mumkinligi masalasida kema Kengashi o'tkaziladi. Kengash qoidasiga ko'ra hamma – yungadan tortib kapitangacha har qanday hatto xayoliy va amalga oshirib bo'lmaydigan g'oyalarni ham aytaversa bo'lardi, har qanday takliflar yozilib borildi. Matroslardan biri shunday fikrni ilgari surdi: *«Torpedani sezib qolsam, men butun komandani bortga tizardimda, torpedaga qarab puflashni buyurardim».* G'oyani eshitib hamma kulib yubordi, hatto shu g'oya ham yozildi. Muhokama paytida bu g'oya qaytadan ishlab chiqildi va suvning kuchli oqimidan foydalanishga qaror qilindi. Suv nasosidan otilayotgan suv oqimi yordamida torpedoga urildi va u to'xtatildi. Bir qarashda kulgili tuyulgan g'oya masalani hal qildi-qo'ydi.

50-yillarning oxiriga kelib amerikalik psixolog A.Osborn o'zi ishlayotgan universitetda *«Aqliy hujum» metodi*ni kutilmagan g'oya va takliflar to'plash va murakkab bo'lgan masalalarni yechish usuli sifatida targ'ib qila boshladi.

Ijodiy faollikning va mahsuldorlikning stimulyatori hisoblangan *«Aqliy hujum» metodi* asosan yangi original fikrlarning tug'ilishiga qarshilik ko'rsatuvchi tanqidiy muhitning yo'qligi deb atalgan psixologik mexanizmga tayanadi. Bunday muhitda hech qanday fikr tanqid qilinmaydi, noto'g'ri fikr aytishdan qo'rqilmaydi, hech kimning ustidan kulinmaydi.

Shunday qilib, *«Aqliy hujum» metodi* dastlab AQSH, Angliya, Fransiyada, so'ngra Yaponiyada ishlatildi. 70-yillardan boshlab Rossiyada, 90-yillardan boshlab esa O'zbekistonda ishlatila boshlandi.

«Aqliy hujum» metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. «Aqliy hujum» metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga

qiladi va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «Pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. *«Aqliy hujum»* metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

«Aqliy hujum» metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchining boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodi besh bosqichdan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitofon, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

Shunday qilib, *«Aqliy hujum» metodi*dan foydalanilgan ta'lim oluvchilarning (o'quvchi-talabalarning) barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, o'quvchi-talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon etish malaka va ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Demak, *«Aqliy hujum» metodi* ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkur va erkin fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

«Aqliy hujum» metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar quyidagicha:

3-shakl



«YANGI FIKRIY HUJUM» METODI

«Yangi fikriy hujum» metodi J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchi-talabalardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchi-talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchi-talabalarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

«FIKRLARNING SHIDDATLI HUJUMI» METODI

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi E.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. *«Fikrlarning shiddatli hujumi»* metodining mohiyati quyidagichadir:

– jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchi-talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

– o'quvchi-talabalarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagi bir necha bosqichda tashkil etiladi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

– o‘quvchi-talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;

– vaqtni iqtisod qilish;

– har bir o‘quvchi-talabani faollikka undash;

– ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish va h.k.

4-shakl



«6X6X6» METODI

«6x6x6» metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi-talabani faoliyatiga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. *«6x6x6» metodi* asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda bir-birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

«6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

– guruhlarning har bir a'zosi faol bo'lishiga undaydi;

– ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;

– guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;

– ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchi yoki talabadan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida *«6x6x6» metodi* qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

«6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishini talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. *«6x6x6» metodi* yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchi-talabalar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadilar. O‘quvchi-talabalarni guruhlarga bo‘lishda o‘qituvchi quyidagicha yo‘l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo‘yib chiqadi. Mashg‘ulot ishtirokchilariga kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi yoki talaba o‘zi tanlagan varaqchadan tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O‘quvchi-talabalar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarni to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchi yoki talaba o‘z o‘rinlarini almashtirib olganlaridan so‘ng belgilangan vaqt ichida guruh a’zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so‘zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq, yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

«KLASTER» METODI

«Klaster» ***(g‘uncha, bog‘lam)*** metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muyyan shakli bo‘lib, u o‘quvchi-talabalarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. *«Klaster» metodi* aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sinaladi. Undan

foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchi-talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan *«Klaster» metodi* puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchi-talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanishi mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchi-talabalar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

5-shakl



«QARORLAR SHAJARASI» («QARORLAR QABUL QILISH») METODI

«Qarorlar shajarasi» metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o'quvchi-talabalari ishtirokida qo'llaniladigan *«Qarorlar shajarasi»* bir necha o'n nafar o'quvchi-talabalarning bilimlarini darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchi-talabalar tomonidan bilidirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabalar quyidagi shakl asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv doskasidan foydalanadilar):

6-shakl



«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilish, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchi-talabalar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

*«Qarorlar shajarasi» metodi*ning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu metod bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

7-shakl

«QARORLAR SHAJARASI» metodi					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

«TAJRIBA ASOSIDA O‘QITISH SIKLI» (D.KOLB G‘OYASI) METODI

Mazkur metod quyidagi to‘rt omil asosida quriladi:



Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan shior (g'oya)ga asoslanadi. Chunonchi:

1. O'quvchi-talabalar uchun mashq (topshiriq)lar mazmunini tanqidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkonini beruvchi sharoitni yarat (reflektiv kuzatish).

2. O'quvchi-talabalarga zarur nazariy bilimlarni ber.

3. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash, konseptuallash).

4. O'quvchi-talabalarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashq (topshiriq)larni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish).

5. Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o'tkazish).

«QORA QUTI» METODI

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

– o'quvchi-talabalar juftlikka biriktiriladilar;

– juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;

– o'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;

– topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;

– o'quvchi-talabalar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar);

– to'g'ri javob bergan o'quvchi-talaba o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shakl, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

«BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI,...) ORTIQCHA» METODI

O‘quvchi-talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

– hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita,...) tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

– o‘quvchi-talabalarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

– o‘quvchi-talabalarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida, o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatib va asoslay olish o‘quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

«3/3» («4/4», «5/5»,...) METODI

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o‘quvchi-talabalardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko‘ra o‘qituvchi mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan uchta (to‘rtta, beshta,...) bo‘lgan va noo‘rin qo‘llanilgan tushunchalar (so‘zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O‘quvchi-talabalar ushbu tizimdan mavzu (bo‘lim, bob)ga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarning mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

– o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzu (bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

– o‘quvchi-talabalar mavzu (bo‘lim, bob)ga oid bo‘lgan va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

– o'quvchi-talabalar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

«QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH» METODI

O'quvchi-talabalar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg'ulotlar so'ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:

– o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatni mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi *«yadro»* tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

– har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

– guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Yuqorida bayon etilgan interaktiv metodlar o'quvchi-talabani yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlarda, katta guruhlarda ishlash, fikr yuritish, o'z qarashlarini himoya qila olish, tanqidiy fikrlash, ko'nikma va malakalarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar.

«KICHIK GURUHLARDA ISHLASH» METODI

«Kichik guruhlarda ishlash» metodi – ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishiga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interaktiv metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida *«Kichik guruhlarda ishlash»* metodining tuzilmasi keltirilgan:

9-shakl



«Kichik guruhlarda ishlash» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«DAVRA SUHBATI» METODI

«Davra suhbati» metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan *«ko'z aloqasi»*ni o'rgatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lgandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida (12-shakl) ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va *«Javob varaqasi»*ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

10-shakl

Davra stolining tuzilmasi



Belgilar:
1-ta'lim oluvchilar
2-aylana stol

Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini *«Javoblar varaqasi»*ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida *«Davra suhbati»* metodining tuzilmasi keltirilgan:

11-shakl

«Davra suhbati» metodining tuzilmasi

↓

Suhbatni o'tkazish shartlari bilan tanishtirish

↓

Konvertlar va «Javoblar varaqalari»ni tarqatish

↓

Konvertlarga savollar yozish

↓

Konvertni yonidagi o'quvchi-talabaga uzatish

↓

Savollarga javob yozish

↓

Baholash va tahlil qilish

«Davra suhbati» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan *«Javoblar varaqalari»*ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va *«Javoblar varaqalari»*ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va *«Javoblar varaqasi»*ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga *«Javoblar varaqalari»*dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi *«Javoblar varaqalari»ni* baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

«ISHBOP O'YIN» METODI

«Ishbop o'yin» metodi – berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining

vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida *«Ishbop o'yin»* metodining tuzilmasi keltirilgan:

12-shakl



«Ishbop o'yin» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.

5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.

«ROLLI O'YIN» METODI

«Rolli o'yin» metodi – ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga *«Rolli o'yin»* metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, *«Ishbop o'yin»* metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar

«Rolli o'yin»da ham «ishbop o'yin» kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

«Rolli o'yin» metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

«Rolli o'yin» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

«Rolli o'yin» metodini qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning

motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim. Quyida «Rolli o'yin» metodining tuzilmasi keltirilgan:

13-shakl



«BAHS, MUNOZARA» METODI

«Bahs-munozara» metodi – biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

«Bahs-munozara» metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

• barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

• «o‘ng qo‘l» qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruxsat olgandan so‘ng so‘zlash)gi rioya qilish;
• fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
• bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
• bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida **«Bahs-munozara» metodini** o‘tkazish tuzilmasi berilgan:

14-shakl



«Bahs-munozara» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tinglaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

Oilada bolaning intellekti, ya’ni aqliy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan yana biri sifatida farzandlar yoshi o‘rtasidagi farq darajasiga ham alohida e’tiborni qaratish lozim. Zero, oilada bolalarning erta, ya’ni uch yoshgacha bo‘lgan oraliqda tug‘ilishi ular intellekti rivojiga salbiy 4 yoshdan 9 yoshgacha oraliqda tug‘ilishi ijobiy ta’sir qiladi.

Odatda, oilada keyingi (ikkinchi) farzand dunyoga kelganda, oldingi (birinchi) «*erkatoy*»ga bo'lgan e'tibor birmuncha pasayadi. Bunda e'tibordan chetda qolgan bolaning *aqliy rivojlanish sur'ati* susayadi. Bola 3 yoshgacha bo'lgan davrda o'ziga bo'lgan e'tiborning bo'linishini og'ir «**hazm qiladi**», 4-9 yoshlarga o'tganda esa mazkur e'tibor «**taqchilligi**» ni anchayin yengil qabul qilishi mumkin. Ota-onaning pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishi va farzandlariga «**pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri yondashishi**» bola xarakterida salbiy (*xudbinlik, qizg'anish va injiqlik, o'jarlik, qaysarlik, rashk va hokazo*) sifatlarning shakllanishini oldini oladi. Farzandlarning barchasini teng ko'rish, bir-biridan ajratmaslik borasida Payg'ambarimiz sallalohu alayhi vassallam «*Farzandlaringizga bir xil mehrda bo'linglar*» degan Hadislari ham bejiz emas. Ushbu Hadisda kiyim va taomlarning barobar taqsimlanishi bilan birga oila farzandlarining turli fe'l-atvorga ega bo'lishi va shu sababli ularga muvofiq keladigan e'tibor, mehr va *aqliy tarbiya berish* kerakligi ham nazarda tutilgan.

Biz uchun ahamiyatsizdek bo'lib tuyulgan ushbu omillar, aslida bola tarbiyasida, uning *aqliy rivojlanish*ida ko'p narsani belgilaydi va muhim rol o'ynaydi.

O'smirlik o'g'il va qiz bolalarning (11-15 yoshida) balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan shaxs kamolotining boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. Zero, o'smirlik yoshi tafakkuri, dunyoqarashi, e'tiqod, nuqtayi nazar, prinsip o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi-yoshlar kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smirlar o'z aqliy faoliyatini prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi-yoshlarda endigina rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan *intellekt, ya'ni aqliy o'sishi* o'smirlik davrida yanada takomillashadi. Chunki o'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida ularda o'quv materiallarini tahlil (analiz) va sintez qilish, muammolarning mohiyatiga tushunish jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Tafakkur va ilmiy tushunchalarning kengayishi intellektual qo'shimcha ma'lumotlar va umumlashtirishlar bilan boyitadi.

Ma'lumki, o'smir o'quvchi-yoshlarning arifmetikadan algebragacha o'tishi umumlashtirishning yuqori bosqichiga ko'tarilganligini bildiradi. Binobarin, mazkur holatda mujassamlashgan sonlar qaytadan

mavhumlashtiriladi, oldin umumlashtirilgan va natijada «**mavhumni mavhumlash**», «**umumlashmani umumlashtirish**» degan ilmiy tushunchalar vujudga keladi.

O'smir o'quvchi-yoshlar o'rganayotgan fan asoslari, avvalo ularning *mavhum tafakkurini, ya'ni aqliy faoliyatini o'stirishga qaratiladi. Ularning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri – mavhum tafakkurning rivojlanishidir. Ta'lim jarayonida anchagina mavhum tushunchalar, masalan, matematikada –nuqta, chiziq, tenglik, iks, kvadrat..., fizikada – kuch, solishtirma og'irlik, tezlik, amper, volt..., geografiyada – ekvator, qutb, kenglik, uzunlik..., tarixda – toj, taxt, hukmronlik, qul, davr, shaxsiy mulk, boylik, fuqarolar, zodagonlar va hokazolar vujudga keladi.*

O'smirlarning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, *aqlning tanqidiyligi* tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli o'laroq, o'smirlarning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanishini bildiradi. *Aqlning tanqidiyligi* ayrim hollarda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida «**anglashilmovchilik g'ovi**» ni vujudga keltiradi. Aqlning «*tanqidiyligi*» o'smir o'quvchi-yoshlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ko'pincha ular o'qituvchi va ota-onaning ayrim aytganlariga e'tiroz bildirishga, baholanishiga, xato va kamchiliklar topishga intilib, o'zgalar fikrini turli xil bahonalar, sabablar bilan yo'qqa chiqarishga qaratilgan bo'ladi.

Shu bois dastlabki davrda o'smirlarning nuqtayi nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarini yomonlash, izzat-nafsiga tegish mutlaqo mumkin emas. Aks holda o'smirlarning *aqliy o'sish*ining ajoyib sifatlari barbod bo'ladi va ularning o'zi jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qoladi.

Shuning uchun o'qituvchi o'smir o'quvchi-yoshlarning *aqliy-zakovatini* to'g'ri rivojlantirish uchun quyidagi imkoniyatlarni to'la ishga solishi lozim:

– o'smirlarga voqea-hodisalar mohiyatini to'g'ri ta'riflashni, tahlil qilishni, taqqoslashni, materiallarni mavhumlashtirish va umumlashtirishni o'rgatish;

– mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi aqlning turli shakllaridan foydalanish o'smirlarda aqliy faoliyat ko'nikma va malakalarini o'stiradi;

– yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun o'smirlar oldiga turli obyektlarni mustaqil holda taqqoslash, ulardagi o'xshash va tafovutli jihatlarni topishni yuklash;

o'smirlarning diqqatini quyidagi savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir: *«Bu holatda qanday umumiylik mavjud?», « Ushbu narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi?», «Mazkur narsalar va hodisalar o'rtasida qanday o'xshashlik belgisi bor?» va hokazolar.*

Umuman, o'smirlarni aqliy jihatdan kamol toptirish uchun ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish zarur. O'smirlarda to'g'ri mantiqiy fikrlarni rivojlantirishda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining roli juda muhimdir. O'qituvchi o'quvchi-yoshlarga to'g'ri jumla tuzishni, ravon mulohaza yuritishni, mantiqiy fikrlashni, yozishni, og'zaki va yozma nutq madaniyatini o'rgatib borishi foydalidir.

Ilk o'spirinlik davrida (15-16 yoshlarda) esa maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qishni tugatgach, o'spirin-yoshlarda o'zining dunyoqarashi, shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish va aql-zakovatini boyitish hamda bilim va aqliy qobiliyatini oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib sinab ko'rish imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O'qituvchining ayni shu paytdagi asosiy vazifasi–o'spirinlar tafakkuridagi yoki aqlidagi tanqidiy xususiyatlarni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqe-hodisalarga odilona, oqilona, tanqidiy nuqtayi nazardan qarashni o'rgatishdan iboratdir. Aql tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o'spirinlarning o'ziga xos xususiyatiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtayi nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, aqliy faoliyatiga, o'quv materiallarini o'zlashtirishga, ta'lim jarayonidagi tashabbuskorligiga, moddiy dunyo va o'rganilayotgan hodisa to'g'risida mantiqiy hukm va xulosa chiqarishiga yoki tasdiqlash va inkor qilish qobiliyatini rivojlanganligiga, mavjud o'qish ko'nikmasi va malakalariga alohida e'tibor berishi lozim.

Talabalik davrida o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib (17-22-25 yoshni o'z ichiga oladi), o'zining betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Bu davrda o'spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallash, ijtimoiy yetuklik, (barkamollik) va aqliy qobiliyatni, rivojlantirish bilan bog'liq hamda turmushda bajariladigan (oila qurish, farzandlarni tarbiyalash, mas'ul vazifada ishlash va boshqa) turli vazifalar paydo bo'ladi[1].

[1] I.G'oziev Psixologiya O'quv qo'llanma. –T «O'qituvchi», 1994, 148–180-betlar.

Shunday qilib, aqliy tarbiya – o'quvchi - talaba yoshlarga moddiy dunyo va atrof-muhitni o'rganish, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi bilim asoslarini berish, o'spirinlarning aqliy (bilish) qobiliyatini, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, yosh avlod tomonidan tabiat va jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir. Zero, hozirgi kunda tarbiyalanayotgan o'quvchi-talaba yoshlarimiz barkamol shaxs bo'lib yetishishlari uchun ularning **ilmiy dunyoqarashi** keng bo'lishi lozim. Buning uchun ular ijtimoiy, aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom, ruhiy tomondan yetuk bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, *fikr aqldan quvvat oladi. Aqlning dalili fikrdir.* Shunday ekan, **aql** *shaxs dunyoqarashini kengaytirishda va uning aqliy kamolotida muhim asos-zamindir. Aql-shaxsning o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtayi nazardan amal qilishdir. Zero, aql-inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning yordamida odam hayotda o'z o'rni va nufuziga ega bo'ladi. Demak, aql yordamida* **ong, fikr, qarash, g'oya va ta'limotlar** *paydo bo'ladi va bunda eng oliy mavjudot odam hamda uni o'rab turgan moddiy borliqning ahamiyati katta bo'lib, bularning hammasi* **inson dunyoqarashi** *bilan bog'liq va bu* ***dunyoqarash*** *orqali amalga oshiriladi.*

Dunyoqarashning turlari – e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatlilik kabi malaka va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi ham aqliy tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalar aqliy tarbiyasidan ***asosiy maqsad*** *inson shaxsining ma'naviy va intellektual salohiyati negizida ularning dunyoqarashini yuksaltirish, e'tiqodini mustahkamlash va ezgulik hamda aqliy go'zalligi kabi malaka va ko'nikmalarini shaxs sifatiga aylantirishdan iboratdir.*

O'quvchi - talabalar aqliy tarbiyasi bilan bog'liq ushbu asosiy **maqsadni** amalga oshirishda quyidagi **dolzarb vazifalar**ni bajarishga to'g'ri keladi:

1. *Shaxs tarbiyasidagi iste'dodni yuksaltirishga e'tiborni qaratish.*
2. *Shaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish.*
3. *Aqliy tarbiyada intellektual salohiyatga e'tibor berish.*
4. *O'quvchi - talabalarga aqliy tarbiya berishda intellektual mulkka tegishli tushunchalardan foydalanishga e'tiborni qaratish.*

5. O'quvchi-talabalar aqliy tarbiyasida ularning dunyoqarashini yuksaltirishga e'tibor berish va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, **aqliy tarbiya – tabiatan berilgan aqliy kuch, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirishdir.** *Aqliy tarbiya o'quvchi-talabalarga bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirishga, mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyatga moyillik va iqtidorini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi bilimdon, ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.*

8.3. AXLOQIY TARBIYA

Axloqiy tarbiya – *ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.*

15-shakl

Axloqiy tarbiya



Munosabat shakllari	Munosabatlar mazmuni
Vatanga	Vatanparvarlik, milliy g'urur, vatanga muhabbat
Jamiyatga	Ijtimoiy turmushga hurmat, jamiyatni huquqiy asoslarini hurmat qilish, millatlararo totuvlik
Mehnatga	Intizomlilik, tashabbuskor, mustaqillik, mehnatga layoqat

Odamlarga	Adolatli, halollik, ochiq ko'ngillik, sabrli
O'ziga	G'urur, o'z-o'zini tanqid, bosiqlik, o'zini qadrlash



Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib, ular shaxslarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib-qoidalar shaxslardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Shunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish-turishini axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: **«Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur»**[1]. Axloq-inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Ibn Sino: **«Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilish ilmidur»**, deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me'yori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: «O'qituvchi», 1992., 11-bet.

muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Demak, axloqning **rivojlanishi obyektiv shart-sharoitlari** bilan subyektiv omillarning **o'zaro munosabati** qay darajada ekanligi bilan bog'liqdir.

Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta'siriga tushadi. *Ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan* **shaxsning ma'naviy qiyofasi, yangi dunyoqarash, g'oya va tasavvurlari, jumladan, axloqi ham,** *shuningdek, unga bo'lgan qarashlari ham o'zgarib boradi.* Har qanday shaxs o'z dunyoqarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta'sirida shakllangan odat va ko'nikmalarini o'zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o'zini o'rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlariga, yurish-turishlariga va muomalalariga muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi.

Axloq-tarixiy hodisa. Axloq norma-qoidalari barcha zamonlar uchun bir xil, o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to'g'ri bo'lsa, boshqa davrlarga kelib, noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin.

Shuningdek, u yoki bu mamlakatlar, millat va elatlar uchun odatlar, rasm-rusumlar, axloqiy qoidalar bir xil bo'lishi mumkin emas. Bu qoidalar tarixan tarkib topgan bo'lib, iqlim va joy, an'ana va shart-sharoit ta'sirida o'zgarib, rivojlanib boradi. Ana shularning hammasini bilib, ularni o'z o'rnida to'g'ri tushunish ham tarbiyalanganlik belgisi hisoblanadi.

Ayni paytda, mintaqaviy hududni o'z ichiga oladigan bir qator xalqlarning turmush tarzidan, yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan qoidalar ham mavjuddir. Masalan, shu ma'noda **sharqona yoxud o'zbekona** degan iborani ishlatamiz.

O'zbekona, *milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doimo madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Chunki bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirinib kelinar edi. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz va* **ma'naviy - axloqiy tarbiya asoslari** *qaytadan tiklandi. Ulardan yoshlarni axloqiy me'yorlar va tamoyillar asosida tarbiyalashda foydalanish milliy tarbiyamiz uchun obyektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Buni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:*

16-shakl


Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari
Odob
Sivilizatsiya
Diyonat
Sharm-hayo, odob
Mehribonlik, rahmdillik
Izzat, hurmat, sadoqat
Umuminsoniy axloqiy me'yorlar va tamoyillar
Xushxulq, yaxshi fazilat, xislat, saxovat
Axloqiy asoslar umumiyligi
Axloqiy tarbiya
Asketlik, zohidlik (tarki dunyo qilish)
Insof
Diplomatik ish, iqtisodiy aloqa, muloqot va boshqa me'yorlar
Etik-estetik me'yor-lar
Altruizm (o'z manfaat-laridan kechish)
Odamshavan-dalik
Xushfe'llik, muloyimlik, ko'ngilchanlik
Behbudlik, omad, evdemonizmga berilish, keskinlik, tanqidiy qarash
Diniy qarash
Samimiylik

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar muqaddas «**Avesto**» kitobida, qadimgi bitiklar va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida shuningdek, Forobiyning «**Fozil odamlar shahri**» va «**Baxt-saodatga erishuv to'g'risida**», Beruniyning «**Hindiston**», «**Mineralogiya**» **va** «**O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar**», Ibn Sinoning «**Risolat at-tayr**», «**Tadbiri manzil**» **va** «**Hay ibn Yaqzon**», Mahmud Qoshg'ariyning «**Devonu lug'atit turk**», Yusuf Xos Hojibning «**Qutadg'u bilig**»; Kaykovusning «**Qobusnoma**»; Az-Zamashxariyning «**Atvoq o'z-zahab fi-l mave'u val-l-xutab**»; Ahmad Yugnakiyning «**Hibatul - haqoyiq**»; Shayx Najmiddin Kubroning «**Fi al-adab**»; Sulaymon Boqirg'oniyning «**Boqirg'on kitobi**»; Muslihiddin Sa'diyning «**Guliston**» va «**Bo'ston**»; Amir Temurning «**Temur tuzuklari**»; Alisher Navoiyning «**Mahbub ul-qulub**» va «**Nazmul-javohir**»; Abdurahmon Jomiyning «**Bahoriston**», «**Silatus-zahab**» va «**Iskandar Xiradnomasi**», Jaloliddin Davoniyning «**Axloqi Jaloliy**», Husayn Voiz Koshifiyning «**Axloqiy Muhsiniy**» va boshqa allomalarning asarlarida axloqiy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan.

Mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. *Shuning uchun ham Yurtboshimiz* «**Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch**» *degan asarida bu hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoladi.* Zero, barkamol inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati bilan bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladi. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi va ma'naviy - axloqiy kamolotga erishadi.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi, shuning uchun ham o'quvchi-talabalarda jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongni, o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Ta'lim muassasalari o'qituvchi-pedagoglari va tarbiyachilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini

qo‘llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo‘lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-tarbiyaviy taraqqiyotining negizi ekanligini tarbiyalanuvchilarga tushuntirishlari darkor.

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini tarkib topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro‘y beradi.

17-shakl



Ma’naviy-axloqiy tarbiya ma’naviy ongni bir maqsadni ko‘zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar o‘z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy axloqiy va e’tiqodni

shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Iymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – barpo etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir o'quvchi - talaba teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob me'yorlari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga va qonunlarimizga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, kichik va kattalarga mehr-muruvvatli va insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchi-talabalarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchi-talabalarning jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o'qituvchi-pedagoglarning eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchi-talabalarning jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham har bir o'quvchi-talabada jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongni, o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Ta'lim muassasalari o'qituvchi va pedagoglari darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi axloqiy fazilatlar va ma'naviy sifatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'quvchi-talabalarga tushuntirishlari darkor.

Axloqiy tarbiya – ta'lim va tarbiya berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari va vositalari uni tashkil etish shakl va me'yorlariga ega bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ular dars va darsdan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlarning birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan

bog'liqdir. Dars va darsdan tashqari ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirishi lozim. Buni quyidagicha ifoda etish mumkin:

18-shakl



O'quvchi-talabalarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda axloqiy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1.Tarbiyalanuvchini tiyib turish (o'quvchi-talabalarni boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish-bu vositaga xizmat qiladi). O'quvchi-talabalar uchun xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. O'quvchi-talabalarni o'ziga xos xususiyatlarini belgilab olish, ya'ni ularni shunday shart-sharoitga qo'yish kerakki, bu shart-sharoitda u «quloq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini» faqat o'qituvchi-pedagog yoki tarbiyachilarning ko'rsatmalarigagina emas, balki shu bilan birga o'z ongi va tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida «osoyishtalik va ravshanlik» bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni «tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi» uchun asos bo'lmaslik.

5. Ma'qullash va jazo berib turish yo'li bilan o'quvchi-talabalarning ko'nglini «to'lqinlantirib» turish.

6. O'quvchi-talabalarni noto'g'ri xatti-harakatlaridan «xabardor» qilib turish, ya'ni ularning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tomonlariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik his - tuyg'ularini barqaror bo'lishiga o'zaro muomala-munosabatda o'rnak, moyillik, diyonat, odillik, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish kabi axloqiy sifatlar faqat axloqiy tarbiya jarayonidagina yoshlar ongiga singdirilishi mumkin. Ana shu nuqtayi nazardan ham ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirish va shakllantirishda ma'rifiy-pedagogik ta'sir kuchiga egadir.

8.4. MEHNAT TARBIYaSI

Har tomonlama yetuk va barkamol avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasining o'rni hamda ijtimoiy - axloqiy ahamiyati beqiyosdir. Bo'lajak kadrlarning ijtimoiy-axloqiy va kasbiy-malakaviy rivojlanishining asosiy vazifalaridan biri ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarni kasb tanlash, mustaqil hayotga amaliy va fan-texnika innovatsiyalari talablari darajasiga muvofiq tayyorlashni taqozo etadi. Chunki, o'quvchi-talabalar ta'lim muassasalarini tamomlaganidan keyin ishlab chiqarishning butun tizimini bemalol boshqarishni

bilishlari va shu sohada ro'y berayotgan fan-texnika o'zgarishlarini tezda payqab olishlari kerak.

Har bir insonning kundalik turmush tarzi **mehnat va faoliyat** bilan bog'liqdir. Mehnat faoliyati jarayonida inson xulq-atvorini o'zgartiribgina qolmay, shu bilan birga o'zi ham o'zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, uning tabiat va jamiyatga qarashli tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat shaxsning aqliy qobiliyati jarayonini, o'z ijodiy faolligini namoyon qilib ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mehnat tufayli shaxsning ma'naviy munosabatlari, muomala madaniyati va xulq-atvori shakllanib, jismoniy jihatdan kamol topib o'z mehnat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantira boradi.

19-shakl



O'quvchi-talabalarning tashkil etilayotgan mehnat faoliyati bo'yicha bilim, tushuncha, tasavvurlarining shakllanganlik darajasini e'tiborga olish – *tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llash, tushunchaga tayanish imkoniyatini yaratib beradi, tarbiyalanuvchilarning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.*

O'quvchi - talabalarda mehnat faoliyatining ma'naviy - axloqiy asosda, ijtimoiy-g'oyaviy mazmuniga ega bo'lishi – o'quvchi-talabalarda Vatan ravnaqi, xalq baxt-saodati yo'lida mehnat qilayotganliklari, mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida manfaatlaridan ustun bo'lishiga harakat qilayotganliklarida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida o'quvchi-talabalarda fidoiylik, chidamlilik, sabr-toqatga ega bo'lish, onglilik, to'g'rilik, halollik, mehnatga nisbatan vijdonan yondashish kabi axloqiy xislatlar shakllanadi.

Mehnat topshiriqlarini bajarishda o'quvchi-talabalarning yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlarini hisobga olishi, mehnat topshiriqlarini almashtirib turish, jismoniy mehnatni aqliy mehnat bilan yoki maroqli dam olish bilan qo'shib olib borish, mehnatni tashkil etish chog'ida o'quvchi-talabalarning yoshi, orttirilgan hayotiy tajribasi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni kuchli zo'riqtirmaslik va toliqtirmaslik zarur.

Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo'lishi – ijtimoiy foydali mehnatning o'quvchi-talabalar tomonidan hayotiy ehtiyoj, zarurat sifatida oddiy mehnat turidan murakkabroq mehnat turiga o'tish tarzida olib borilishi tarbiyalanuvchilarda mehnat ko'nikmasi va malakasini hosil qiladi.

Mehnat faoliyatining ijobiy xususiyat kasb etishi – o'quvchi-talabalar mehnati orttirilgan tajriba asosida, shuningdek, tadqiqotchilik vazifalarini hal etish asosida bajarilganda, ularda mehnatga nisbatan muhabbat ijodiy munosabatni qaror toptirishi mumkin.

O'quvchi-talabalarni mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida bugungi kunda mehnat, tarbiyasining quyidagi vositalaridan foydalanilmoqda:

1. Ijtimoiy foydali mehnat.
2. Oilaviy mehnat
3. Mehnat faxriylari va turli mehnat vakillari bilan uchrashuv.

Mehnat ikki xil bo'ladi:

Aqliy mehnat

Jismoniy mehnat.

Aqliy mehnat – *shaxs uchun og'ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zo'r berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug'ullanishni talab qiladi. Bu mehnatning murakkabligi yana shundaki, bundagi natijalarning namoyon bo'lishi qiyinroq bo'ladi, bu natijalarni shaxs deyarli tushunmaydi.*

Aqliy mehnat jarayonida o'quvchi-talabalar turli darajada murakkablikka ega bo'lgan va mustaqillikni turli darajada talab qiladigan bir qator aqliy, hamda amaliy xarakterlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishi, aqliy faoliyatini samarali turlarini shakllantiradi.

Aqliy mehnat o'quvchi - talabalarning qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. O'quvchi - talabalarning qurbi yetmaydigan mehnat inson organizmiga ziyon yetkazadi. *O'qishdan ko'nglini sovitishi* mumkin. Shu sababli pedagog har bir o'quvchi-talabaning yosh xususiyatini va ta'lim olishga individual tayyorligini aniqlash, shaxsning e'tibori va tafakkuridagi xususiyatlarini bilishi, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilishi muhimdir. O'quv mehnatining bosh vazifasi – shaxsni o'qishga o'rgatishdan uni o'quv mehnati metodikasi va texnikasi bilan qurollantirishdan, o'zi mustaqil bilim oladigan bo'lish imkoniyatini yaratib berishdan iborat. O'quv mehnati jarayonida ta'sir qiladigan ko'nikma va malakalar o'quvchi-talabalarning ijtimoiy foydali unumli mehnatga qatnashishga tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi-talabalarni bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun yaxshi poydevor bo'ladi. Pedagogning o'quv muassasasi tarbiyalanuvchilarida darsliklar, kompyuter texnikasi bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda mehnat tarbiyasiga doir ish rejasi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O'quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati hosil qilinadi. O'rtoqlik, xayrixohlik, intizomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi. Binobarin, bularning bari mehnat tarbiyasini eng samarali hal qilish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda shunday umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, majburlash va zo'ravonlikdan holi bo'lgan ijodiy mehnatgina o'quvchi-talabalarga tarbiyalovchi omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Zero, aqliy mehnat sohasida ham, jismoniy mehnat sohasida ham ongli va ijodiy mehnat qilish tufayli erishilgan muvaffaqiyatlar

shaxsda zo‘r qoniqish va quvonch hislarini tug‘diradi, uning aqlini, irodasini, hissiyotini, xulq-atvorini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, shunday ijodiy va uyushqoqlik bilan samarali mehnat qilingandan keyin dam olishni ham to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil etish har qanday kishiga alohida zavq bag‘ishlaydi, bunday dam olish mehnat va faoliyat sari yangi intilishning manbaiga aylanadi. Shu tariqa shaxsni dangasalikka olib keladigan passivlikning oldi olinadi.

Uchinchidan, mehnat har qanday shaxsni ma’naviy - axloqiy jihatdan barkamol insonga aylantiradi, boshqalarning kasb-koridan qat’i nazar, mehnat samaralarini, mehnat ahlini hurmat qilish, dangasa va ishyoqmaslardan nafratlanish ruhida tarbiyalaydi. Yoshlar mehnat tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish ularning jamoa mulkini va shaxsiy mulkni ehtiyot qilishga, mehnati orqali yaratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, mehnat tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish o‘quvchi-talabalarda ahillik va o‘rtoqlik, do‘stlik, o‘zaro yordam va hamkorlik, jamoa mehnat samaradorligidan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek, ularda jamoatchilik xususiyatlari – iroda, xarakter, malaka va ko‘nikmalar mustahkamlanadi va nihoyat, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish, vatanparvalik, yurtparastlik, mehnatsevarlik singari ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga poydevor qo‘yiladi va mustahkamlanadi.

Beshinchidan, mehnat tarbiyasining asosiy mazmuni va bosh g‘oyasi o‘quvchi-talabalar shaxsida mehnat faoliyatini hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalashdan iboratdir.

Oltinchidan, mehnat tarbiyasi o‘quvchi-talabalarda mehnatga nisbatan muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish, har qanday mehnat faoliyatiga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lish, mehnat va uning mahsulini qadrlash, mehnatni tashkil etishga jamoa usulida yondashish; doimiy ravishda tashabbuslar bilan chiqish; mehnatni faol, ijtimoiy tashkil etish; aqliy va jismoniy quvvatga tayangan holda mehnat qilish ishtiyoqining ichki ehtiyojga aylanishi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; mehnatga nisbatan asosiy hayotiy zarurat sifatida munosabatda bo‘lish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Yettinchidan, mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarda mehnatga va kasb-hunar egallashga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchi-talabalarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini tushuntirib berish;

2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;

3. O'quvchi-talabalarda mehnat qilishga nisbatan muhabbatni uyg'otish va rag'batlantirishga odatlantirish;

4. O'quvchi-talabalarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida mas'uliyat bilan yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. O'quvchi-talabalar mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

6. O'quvchi-talabalarning mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. O'quvchi-talabalarda mehnat hayotiy inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish xislatini shakllantirish;

8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etib, o'quvchi-talabalarda mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish;

9. O'quvchi-talabalarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash va o'zlarining mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

10. O'quvchi-talabalarga bo'lajak kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga qiziqishni yuzaga keltirish va ongli tanlashda yordam berish;

11. O'quvchi-talabalarda mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash bilan birga, ularga mehnat tarbiyasi jismoniy va iqtisodiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqligini tushuntirish;

12. O'quvchi-talabalarni mehnat faoliyatining turlari – maishiy mehnat, o'quvchi - talabalar mehnati, ishlab chiqarish mehnati, texnik mehnat, ijtimoiy-unumli mehnat va boshqalar bilan tanishtirishdan iboratdir.

Bu vazifalar izchil ravishda pedagogik va metodik talablar asosida bajarilsa, u holda o'quvchi - talaba yoshlardagi **mehnat tarbiyasi** natijasi samarali bo'ladi.

8.5. JISMONIY TARBIYA

Jismoniy tarbiya deganda shunday pedagogik jarayon tushuniladiki, uning mohiyati shaxsning jismoniy rivojlanishi va jismoniy ta'lim-tarbiyani boshqarishdan iboratdir. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni va jismoniy tarbiyaning pirovard maqsadi jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yosh avlodni ma'naviy va jismoniy sog'lom, intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda:

«Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir...

Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi»[1]. Shu boisdan insonparvar demokratik huquqiy davlatimizda, kuchli fuqarolik jamiyatining hozirgi bosqichida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga va jismoniy kamolotiga alohida e'tibor berilayotganligi bejiz emas. Chunki hayot tajribasi «**Sog'lom tanda - sog'lom aql**» bo'lishi allaqachon isbotlangan. Jumladan, «**Umid nihollari**» (*o'rta umumta'lim o'quv muassasalari o'quvchilari uchun*); «**Barkamol avlod**» (*o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasasalari o'quvchilari uchun*); «**Universiada**» (*oliy o'quv yurtlari talabalari uchun*) kabi respublika miqyosidagi musobaqalar davlatimiz tomonidan o'quvchi-talabalarning ham jismonan, ham ma'naviy-axloqiy yetukligini o'ylab qilinayotgan tadbirlardir. Bu tadbirlar orqali yoshlarimizni jismoniy jihatdan sog'lom va baquvvat hamda irodali qilib tarbiyalashga erishamiz.

Demak, jismoniy tarbiyaning maqsadi o'quvchi-talaba yoshlarni har tomonlama jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli qilib tarkib toptirishdir.

Bular jismoniy tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini belgilab beradi:

1. *Har tomonlama garmonik rivojlangan, ya'ni ham jismonan, ham ma'naviy - axloqiy jihatdan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga, ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr -*

[1] Barkamol avlod arzusi. – T.: «Sharq» NMKBT, 1999., 55-bet.

bardoshlilik ko'nikmalarini tarkib toptirishga, sihat-salomatligini mustahkamlashga, uzoq umr ko'rishga yordam berish;

2. O'quvchi-talabalarni jismoniy tarbiya va sport shaxsning sog'ligini mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy barkamollashuvga asos yaratishi bilan bog'liq bilimlar bilan qurollantirish;

3. O'quvchi-talabalar ongida harakat faoliyat (tur)lari bilan bog'liq bo'lgan ijobiy his-tuyg'u va kechinmalar to'g'risida tasavvur hosil qilish, hamda shu asosda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga qiziqish, istak va ehtiyojni, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

4. O'quvchi-talabalarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi texnologiyalarini ishlab chiqish;

5. O'quvchi-talabalarga jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va jismoniy mashqlarni bajarish bilan bog'liq bilimlarni bayon qilishda yoshlarning sportga bo'lgan moyilligini hosil qilish, eng muhimi axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash va harakat faoliyatining to'laqonli xarakterini ta'minlovchi jismonan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

6. O'quvchi-talabalarni jismoniy tarbiyaga, ya'ni o'z sog'ligiga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni shaxsiy gigiyena va ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanishga, jismoniy mashqlarni bajarishga, madaniy va jismoniy yayov yurishlar va sayr qilishlarga odatlantirish lozim.

Jismoniy tarbiya qonuniyatlariga muvofiq ongli ravishda bajariladigan *jismoniy mashqlar-harakat faoliyatlari jismoniy tarbiyaning* asosiy vositalari hisoblanadi. Bunda gimnastika, harakatli o'yinlar va sport mashg'ulotlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Atrof-muhit (*ijtimoiy, geografik iqlim sharoitlari*); **tabiatning tabiiy kuchlari** (*quyosh, havo, suv, yer*) *va* **bir qator gigiyenik omillar** (*shaxsiy gigiyena, ovqatlanish, rejim*) *va hokazolar* **yordamchi vositalar** *jismoniy tarbiyaning* **zaruriy vositalari** *bo'lib hisoblanadi.*

Yordamchi, ya'ni zaruriy vositalar *quyidagi xususiyatlarga ega:*

– yordamchi jismoniy mashqlar organizmga bevosita ta'sirni aniqlovchi omil sifatida yuzaga chiqadi, bunga mashqlar bajariladigan iqlimiy va geografik sharoitlarni o'zgartirish yordamida erishiladi;

20-shakl

Jismoniy tarbiya



– jismoniy mashq mashg'ulotlari bilan birgalikda ular organizmiga umumiy ijobiy ta'sirni kuchaytiradi (qat'iy rejim, ovqatlanish, mashg'ulot o'tkaziladigan joyning ozodaligi va hokazolar);

– sog'liqni mustahkamlash uchun nisbatan mustaqil ahamiyatga ega (chiniqish maqsadida foydalaniladigan tabiatning tabiiy kuchlari: quyosh va havo vannasi, suvga cho'milish va hokazolar).

Shunday qilib, pedagogik jihatdan mos keladigan sharoitda jismoniy tarbiya vositalari yordamida o'quvchi-talabalarda matonatlilik, jasurlik, jur'atlilik, sabr-toqatlilik, haqqoniylik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, o'z imkoniyatlariga ishonch kabi ma'naviy - axloqiy xislatlar tarkibi kiradi.

8.6. ESTETIK TARBIYA

Estetik tarbiya – bu hayotga, mehnatga, ijtimoiy faoliyatga, tabiatga, san'atga, shaxsiy xulq-atvorga estetik, ya'ni go'zal munosabatni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirishdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – o'quvchi-talabalarda ma'naviy jihatdan go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san'at asarlarini sevishni shakllantirish, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg'otish, tabiatga ongli munosabatda bo'lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, yosh avlodning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish kerakki, uning yordamida o'quvchi-talabalarni Vatanimiz tabiati go'zalligi, tarixiy va me'moriy yodgorliklarimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlana oladigan ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalashga erishish lozim. Bu borada estetik zavqlanish o'quvchi-talabalarning ongli-intizomli va madaniyatli turmush tarzining, ya'ni o'qish faoliyatining asoslaridan birini tashkil etadi. Bunga sabab ular har tomonlama yetuk rivojlanish uchun ma'lum maqsadni ko'zlagan holda tejamli harakat qilishi, tabiat qo'ynida sayr qilishi yoki ozoda-shinam sport zalida harakatli mashqlar bilan shug'ullanishi, o'zi yoqtirgan musiqalarni tinglashi, teatr va muzeylar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, galereyalar, qadimiy tarixiy me'morchilik obidalari, san'at asarlari va tarixiy-madaniy joylarni

tomosha qilishi – bularning hammasi yoshlarda estetik, ya'ni nafosat his-tuyg'usini, aqliy tushunchasini, voqelikka bo'lgan estetik munosabatini va didini tarbiyalaydi. Shubha yo'qki, voqelikka va tabiat go'zalligiga bo'lgan munosabat, tushunchalar, estetik kechinma va his-tuyg'ularni yuzaga keltiradi, bu maqsadning ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go'zalligini ta'minlaydi.

Demak, estetik tarbiya keng qamrovli faoliyat bo'lib, unda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlarda natijalar yaqqol seziladi. Estetik tarbiya aqliy va jismoniy mehnatdagi go'zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga, shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go'zallik qonun-qoidalari asosida o'zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Bunda estetik tarbiyani aqliy, axloqiy, mehnat kabi boshqa tarbiya turlari bilan mushtaraklikda olib borilsa, o'quvchi-talaba yoshlarda estetik mulohaza va qiziqish, go'zallikni his qilish yuksalishi yuzaga keladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari uning **asosiy maqsadi**ni amalga oshirishdan iborat bo'lib, bular quyidagilar:

1. **O'quvchi-talabalarning estetik ehtiyojlarini,** *ya'ni go'zallikka ongli ravishda intilishini tarbiyalash;*

2. **O'quvchi-talabalarning estetik idrok va his etish,** *ya'ni go'zallikni bevosita idrok etish va his etish qobiliyatini tarbiyalash. Estetik idrok – bu atrofimizdagi olamni, ya'ni voqeilikni o'ziga xos tarzda «**jonli ko'ra olish**»dir. U atrof-muhitdagi predmet va hodisalar bilan sezgi orqali aloqada bo'lishni talab qiladi.*

3. **O'quvchi-talabalarning estetik tushunchalar, didlar, predmet va hodisani estetik baholash va u haqda fikr yurita bilishni tarbiyalash,** *ya'ni go'zallikni faqat idrok etish nuqtayi nazaridangina emas, balki uni baholash va tushunish ham demakdir. Estetik did o'quvchi-talabalarning go'zallik haqida to'g'ri fikr yuritishni shakllantirishgina emas, balki go'zallikni aniq his qilish va uni yaratish qobiliyatini rivojlantirishni ham ko'zda tutadi.*

4. **O'quvchi-talabalarning estetik tarbiyasini milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etish.** *Bunda o'zbek xalqining o'tmishdan bizga qoldirgan tarixiy va me'moriy yodgorliklari, shuningdek, qomusiy olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, davlat arboblari, xalq qahramonlarining hayoti va faoliyatidagi estetikaga oid materiallar yoshlarga estetik tarbiya berishda keng imkoniyatlar yaratadi.*

5. **O'quvchi-talabalarning estetik va badiiy - ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.** *Bunda o'zbek xalqining o'tmishdagi boy*

milliy-ma'naviy merosiga, xususan, badiiy boyliklarga va san'atiga egaligi muhim didaktik asos bo'ladi va o'qituvchidan har bir o'quvchi - talabada umumiy va individual badiiy - ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda fazoviy tafakkurni yuksaltirishni hisobga olib pedagogik faoliyat yuritishni talab etadi.

21-shakl

Estetik tarbiyaning maqsadi, vositalari, metodlari, shakllari, vazifalari



Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalarini to'la - to'kis ravishda hal etilishi o'quvchi-talabalardagi tashabbuskorlik, ijodkorlik, san'atkorlik, yaxshilikka va go'zallikka intiluvchanlik, kelajakni oldindan ko'ra bilishlik, milliy-ma'naviy qadriyatlarni ulug'lovchi, orzu qila bilishlik, ma'naviy yuksaklik, ma'rifatlilik, madaniyatlilik kabi ijobiy xislatlarni o'zida mujassam qilgan ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiyani samarali amalga oshirishda oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi go'zal va mazmunli muloqot, uy jihozlarining tartibli, mazmuni chiroyli qilib joylashtirilishi, oiladagi saranjom-sarishtalik va uyning barcha narsalarining did bilan joylashtirilishi, muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, galereyalar, tarixiy va me'moriy obidalar, turli san'at asarlari, tarixiy madaniy joylar, musiqa, ashula, badiiy chiqishlar, ommaviy - tarbiyaviy tadbirlar, hayot tarzimizdagi borlig'imiz hamda ulardagi go'zalliklar o'quvchi-talabalarni estetik ruhda tarbiyalash va kamol toptirishga **estetik-didaktik asoslar** vazifasini bajaradi.

Umuman, o'quvchi-talabalarni ma'naviy - estetik tarbiyalashda yuqorida qayd etilgan **estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari, vositalari** *uyg'un holatda olib borilsa kasbiy yetuk, estetik didi yuksak barkamol avlodni shakllantirishga erishiladi.*

8.7. IQTISODIY TARBIYA

«**Shaxs**» tushunchasi ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishdan hosil bo'lgan obraz – «**men**» obrazi deb atalib, uning qanchalik faolligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. **Shaxs shakllanishida iqtisodiy tarbiyaning o'z o'rni bo'lib, jamiyatga munosib kishi bo'lish uchun yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki ko'nikma va malakalari hali bola yoshligida, oilada shakllanadi va uning shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi.**

Shuni ta'kidlash kerakki, amerikalik mashhur iqtisodchi olim, Nobel mukofoti laureati **P.Samuelson «iqtisodiy nazariya – bu fanlarning qiroli», deb atagan edi. Shuningdek, u iqtisodiy nazariyani uzluksiz ravishda o'rganmaydigan odam, musiqa asarlariga baho berishga intiluvchi kar odamga o'xshaydi - degan edi.**

Hozirgi kunda har bir shaxs oldida bozor iqtisodiyoti qonunlarini qanday amalga oshirilayotganligini, bu qonuniyatlarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni, pirovard talab darajasida xizmat ko'rsatish va tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish sirlarini bilib olish vazifalari turadi.

Ushbu hayotiy zaruriyat ta'lim muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarida **«Iqtisodiy bilim asoslari», «Iqtisodiy biznes asoslari»** kabi iqtisod fanlarining o'qitilishini yo'lga qo'yishni taqozo etdi. Bunda iqtisodiyot olamiga ilk qadam tarzida iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlarning asoslari o'rganiladi. Oliy ta'lim tizimida esa zamonaviy **iqtisodiyot nazariyasi** va *boshqa iqtisodiy fanlarni o'rganish nuqtayi nazaridan iqtisodiy bilimlarning uzluksizligini ta'min etadi.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni berish shaxs iqtisodiy savodxonligini shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Binobarin, mazkur bosqichda o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarni tayanch asoslari o'zlashtirilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida oldi-sotti munosabatlarini tashkil etish qonun-qoidalari bilan yaqindan tanishish, ushbu jarayonning ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoit mavjud.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz iqtisodiy ta'limda iqtisodiy bilimlarni o'rganish mantiqiy qurilishi, tuzilmasi o'ziga xos yaxlitlikka ega. Bunda oddiy iqtisodiy tushunchalardan tortib, mamlakat, hatto jahon miqyosida yoki nisbatan kichik tarmoq xo'jaliklarini yuritishning, ya'ni kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining alohida turlariga taalluqli murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rganiladi. **«Iqtisodiy bilim asoslari» hamda «Iqtisodiy biznes asoslari»** kabi o'quv fanlari doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari mustaqil O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy asosini davlatning mafkuraviy tayziqidan holi bozor munosabatlari va raqobat tashkil etgan yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurni va iqtisodiy madaniyatni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisani tahlil qilish, muammoni ko'ra olish va hal qilish yo'llarini axtarish, nazarda tutilayotgan muammoni hal etishning eng qulay usullarini tanlash va hal eta olish, barkamol bo'lishi zarur bo'lgan batartiblik, javobgarlik,

mas'uliyat, qat'iy maqsadga egalik, o'zaro muloqotda uquvlilik, iqtisodiy-madaniy kabi malaka va ko'nikmalarini egallay boradilar. *Bunda o'quvchilar:*

asosiy iqtisodiy tushuncha, faktlarni chuqurroq bilish;

zamonaviy iqtisodiyot va uning rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va muammolarining mohiyatini tushunish va baholash;

– *davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushunish va baholash;*

– *davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushunish va baholay olish haqida tasavvurga;*

– *tadbirkorlik faoliyatining amaliy asoslarini bilish, amalda qo'llay olish malakasiga;*

– *iqtisodiy ma'lumot va axborotlarni tahlil qila olish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish;*

– *mavjud iqtisodiy - nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakasiga;*

– *iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va tejamkorlik sifatiga ega bo'ladilar.*

Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish uning samaradorligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi: mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyatlari va xalq xo'jaligini yuksaltirishni ta'minlash, ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmalarini bajarishning mohiyati, ishlab chiqarish mehnati samaradorligini oshirish hamda har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatli tayyorlash yo'llari, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorlik ko'rsatkichlari, mehnatni tashkil etishning asosiy tushunchalari, mohiyati, xo'jalik hisob-kitoblari va boshqalar; mehnat musobaqalarining roli; ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish va boshqalar.

Demak, o'quvchilarning uy-ro'zg'or, oila xo'jaligini yuritish, imkon qadar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda boshlang'ich iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ularning kelgusida mamlakat iqtisodiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'sha oluvchi muta-xassislar bo'lib yetishishlarida dastlabki qadam bo'lib xizmat qiladi. *Iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, o'quvchilarning kelgusida yuksak malakali mutaxassis; mas'uliyatli fuqaro; bilimdon iste'molchi; ehtiyotkor jamg'aruvchi va uddaburron tadbirkor, sarmoyador, global iqtisodiyot ishtirokchilari hamda savdo-sotiq, oila xo'jaligi, ijtimoiy*

boshqaruv, moddiy boyliklarga nisbatan munosabatda tadbirli shaxs bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarida va oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda fanlararo aloqadorlik va bog'liqlikdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. *O'quvchi-talabalarga iqtisodiy bilimlarni berishda* ***matematika*** *(talab va taklifni aniqlash, valuta kurslaridan xabardor bo'lish, qimmatbaho qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash, davlat (yoki oila) budjeti, zaxira hamda ehtiyojlar miqdorini aniqlash, mulkiy munosabatlarni tartibga olish, mavjud boyliklardan tejab-tergab foydalanish va hokazolarni amalga oshirishda),* ***tarix*** *(natural xo'jalik, ishlab chiqarish, ayirboshlash, pul hamda bozor munosabatlari kabilarning rivojlanishi, shuningdek, turli iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va iqtisodiy tashkilotlarning tashkil topish tarixi),* ***geografiya yoki iqtisodiy geografiya, mintaqa iqtisodiyoti*** *(iqtisodiy hududlar, mehnat taqsimoti, iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy-iqtisodiy hududlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar iqtisodiy ko'rsatkichlar, xo'jalik yuritish faoliyati shakllari va hokazolar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish), mehnat (ishsizlik, mehnat shartnomalari, mehnat bozori, mehnatga haq to'lash, raqobat, tadbirkorlik kabilarning mohiyatini tushunish) va* ***huquqshunoslik*** *(mulkiy munosabatlar, xo'jalik yuritish, firmalar ochish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, soliq siyosati, kredit, mahsulotlarni ayirboshlash, zaxiralar va boshqalarning mohiyatini anglash) kabi fanlar muayyan imkoniyatlarga ega.* Shu bois ushbu imkoniyatlardan iqtisodiy ta'lim-tarbiyada foydalanishi muvaffaqiyatga erishishni kafolatlaydi.

Ushbu jarayonni amalga oshirish o'ziga xos pedagogik yondashuvni taqozo etadi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish chog'ida fanlararo o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka erishish o'quvchi-talabalar tomonidan iqtisodiy bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik va bog'liqlikdan foydalanish o'quvchi - talabalar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi *(iqtisodiy qonunchilik, jamiyat taraqqiyoti, mulkka egalik tamoyillari va metodlari, hukumat tomonidan iqtisodiy sohada olib borilayotgan siyosat, ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnat resurlarini tejash, mehnat taqsimoti, ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyoji va mahsulotlarni ayirboshlash, iqtisodiy tahlil ko'nikmasiga ega bo'lish, ishlab chiqarish xo'jaligini oqilona yuritish*

va hokazolar to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish); maqsadga muvofiq, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan samarali sanalgan o'quvchi-talabalarning ijtimoiy-foydali ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish; vaqtdan oqilona foydalanish, moddiy boyliklar, tabiat hamda pulga nisbatan ehtiyotkorona va iqtisodiy onglilik asosida yondashish ko'nikmalarini qaror toptirishga xizmat qiluvchi darsdan tashqari ishlar, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini kasbga yo'naltirish kabi pedagogik harakatlar iqtisodiy ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mehnat jamoasi, ota-onalar va mikromuhit (mikrorayon)larda istiqomat qiluvchi jamoatchilikning iqtisodiy bilimlar samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatga alohida urg'u beriladi.

O'quvchi-talabalarda tejamkorlik sifati va mas'uliyatini tarbiyalash iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanishi zarur. Zero, tejamkorlik iqtisodiy ishlab chiqarishning asosi bo'lib, u o'quvchi-talabalarda mavjud tabiiy boyliklardan maqsadi va nes-nobud qilmay foydalanish, ularni ko'paytirishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptiradi.

O'quvchi-talabalarning iqtisodiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadirlar. O'quvchi-talabalarning iqtisodiy tayyorgarligi ular tomonidan iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxsda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning samaradorligi va sifatini oshirish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va ehtiyojni qondirish borasidagi iqtisodiy ahamiyatga ega sifatlar, ya'ni iqtisodiy tafakkur va xulq-atvorning shakllanishi, zamonaviy hamda istiqbol ishlab chiqarishda shaxsiy, shuningdek, ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtira olish jarayonini anglatadi.

Uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirmoq uchun avvalo, o'quvchi-talabalarga quyidagi iqtisodiy atamalar (tushunchalar)ning ma'nosini anglatish maqsadga muvofiqdir. Chunki elementar iqtisodiy bilim berishdan, to iqtisodiy madaniyatlilik darajasigacha bo'lgan jarayon har bir shaxsning hayotiy ehtiyojini qondirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan:

Iqtisodiy tarbiya — *jamiyatning shaxsga, mustaqil faoliyatida samarali ko'rsatgichlarni ta'minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar, iqtisodga bog'langan siyosat, qonunlar, qonuniyat asoslari va ularning amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarining yig'indisini o'zlashtirishga imkon beruvchi izchil, maqsadga muvofiq ta'siri.*

Iqtisodiy ta'lim — *ijodkor shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko'nikma, malaka yig'indisi, uzluksiz, izchil, maqsadga ko'ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dasturlar, metodikalar bilan yetkazish jarayoni.*

Iqtisodiy savodxonlik — *mustaqil faoliyat ko'rsatishga zarur bo'lgan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tarkib toptirish, har bir shaxs jamiyatda bo'lgan iqtisodiy siyosatni anglash, shunga ko'ra turmush darajasini oshirishga, shaxsiy ehtiyojini qondirishga yordam beruvchi samarali faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlovchi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka, yo'naltiruvchi qoida, usul, uslubiyatlar majmuidir.*

Iqtisodiy tayyorgarlik — *shaxs shakllanishida talab-ehtiyoj va imkoniyatiga ko'ra tanlangan sohalar, kasblar, mutaxassisliklar bo'yicha maxsus iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisini tarkib toptirish.*

O'zlashtirilgan aniq iqtisodiy nazariy va amaliy bilimlar, mustaqil faoliyatda samara berishga kafolatlar, ya'ni aniq iqtisodiy ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish institutlari va boshqalar.

Iqtisodiy tafakkur — *iqtisodiy bilimlar to'plash jarayoni bo'lib, o'quvchi - talabalar tomonidan ularga qulay, mos bo'lgan darajada ijtimoiy ishlab chiqarishning tushunchalar tarzidagi muayyan tizimidagi qonuniyatlarning aks etishi, iqtisodiy ongdagi konstruksiya qismini tutib turuvchi mantiqiy aloqadir. Bu tizim va mantiqiy aloqadagi axborotlardan olinadigan bilimlar hajmi yaxlit, o'zaro bog'langan fikrlar hosil qilib, bu fikrlar kengayadigan ana shu konstruksiya materiallaridir.*

Iqtisodiy tarbiyalanganlik — *shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlardan bo'lib, o'quvchi-talabalarning faoliyatiga iqtisodiy savodxonligini amaldagi ijrosi jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etilishi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi shaxs xatti-harakatidagi samarali, ijtimoiy-foydali, ijobiy faoliyat natijalari hayot talabi ekanligini anglash bilan belgilanadi.*

Iqtisodiy fikrga egalik — *iqtisodiy hodisalarni o'quvchi - talabalar tomonidan qulay, mos bo'lgan darajada bo'lishi, tahlil qilishi, iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalarni o'zlashtirishi, bilimlarni to'plash va iqtisodiy munosabatda to'g'ri mo'ljal olishi.*

Iqtisodiy ong — *subyekt tomonidan iqtisodiy munosabatlarni obyektiv tushunish natijasi hamda sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisalarga o'z fikrini bildirish va uni himoya qilib, amalga oshirish.*

Iqtisodiy madaniyat — *o'quvchi - talabalarning faoliyatlarida jamiyat, davlat va alohida ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat asosida uning vazifalarini hal etishdagi ishtirokining sifatiy ta'rifi va shaxsning xo'jalik yuritishdagi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, iqtisodiy tafakkur va ongning rivojlanish darajasi.*

Iqtisodiy fikrlash va savodxonlikni oshirish ma'lum mezonda, ya'ni mustaqil O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy faoliyatga tayyorlash, shuningdek, shaxs shakllanishidagi jahon talab etayotgan iqtisodiy madaniyatlilik darajasini tarkib toptirish deb qarash lozim.

Xususiy mulk – *vositasida tadbirkorlik, fermerlik, dehqonchilik qilib, o'z mehnati va yollanma mehnatdan foydalanish hisobiga daromad olish mumkin. Shaxsiy mulkni xususiy mulk bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Shaxsiy mulk xonadonning yoki shaxsning eng zarur turmush vositalaridir.*

Lizing – *mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga olish hisoblanadi. Lizing kompaniyasi-mana shu yuqorida sanab o'tilganlarni ijaraga berish kompaniyasi hisoblanadi.*

Qo'shma korxonalar – *xorijiy sarmoyalar va asbob-uskunalar, mutaxassislar va ishchilar ko'magida qurilgan korxonalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozorni turli mollarga to'ldirish, aholi ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xorijga chiqarib valutaga sotishga yaraydigan, jahon andozalari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadlarida tuziladi.*

Erkin narx – *bozor bahosi. Davlat yoki biror tashkilot tomonidan cheklab qo'yilmagan, bozor qonuniyatlari asosida paydo bo'ladigan baho.*

Yuridik shaxs — *mustaqil ish yuritish huquqiga ega bo'lgan, shaxs korxona, tashkilot muassasa.* ***Yuridik shaxs*** *bankda o'z hisob-kitob varaqasiga ega.*

Elektron pul – *hisob-kitob ishlarini elektron hisoblash vositasida bajarishni osonlashtirish uchun qo'llaniladigan maxsus kartochkalar.*

Emissiya — *(lat.) pul va qimmatbaho qog'ozlarni ishlab chiqarish yo'li bilan davlat budjetidagi kamomad qoplanadi. Emissiya miqdori yoki foizi davlat organlari tomonidan belgilanadi.*

Foyda — *korxonaning sof daromadi, korxona tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotning ulgurji bahosi (oborot solig'isiz) bilan uning tannarxi o'rtasidagi farq.*

Foydaning bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirish va kollektivni, ya'ni jamoani rag'batlantirish uchun korxona ixtiyorida qoldiriladi, qolgan qismi davlat budjetiga tushadi.

Diler — *ishbilarmon savdogar o'z hisobiga birja va savdo vositachiligi bilan shug'ullanadi.*

Embargo — *(isp.) man etish, ta'qiqlash, biror chet mamlakatga mol yoki* **biror turdagi mahsulotni chiqarish va uni keltirishning taqiqlab qo'yilishi.**

Deleping — *tovarlarni tashqi bozorda, ichki bozorga nisbatan arzon bahoga sotish.*

Barter — *pulsiz, valutasiz bevosita tovar ayirboshlash.*

Divident — *aksionerlik jamiyati foydasining aksiya egasining daromadiga aylangan qismi.*

Menejer — *yollanma professional boshqaruvchi.*

Birja — *standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori.*

Tannarx — *mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining mulki hisoblanadi.*

Mahsulot sifati — *mahsulotning iste'mol xususiyatlari, xalq xo'jaligi yoki aholining ma'lum ehtiyojlarini qondirishidagi uning foydaliligi yig'indisi. Mahsulot sifatini oshirish–ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun kurash yo'llaridan biridir.*

Debitor — *korxona, tashkilot, yoxud mahkamasidan qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.*

Mehnat unumdorligi — *ishchi tomonidan ma'lum vaqt birligida ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadigan mehnat sarfining samaradorligidir. Mehnat unumdorligini oshirish –ijtimoiy mahsulotni ko'paytirish va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omilidir.*

Ushbu yuqorida ta'kidlab o'tilgan atama (tushuncha)lar va shunga o'xshash kundalik ehtiyojga aylanib borayotgan iqtisodiy atamalarning mazmun hamda mohiyatini har bir darsda u yoki bu darajada ochib berish, ya'ni o'quvchi-talabalarda ana shu tushunchalarni shakllantirib borish imkoniyatlari katta. Jumladan, kasb-hunar kollejlarida va oliy o'quv yurtlarida yo'nalishlarga qarab, ishlab chiqarish bilan bog'liq

mahsulotning sifati, tannarx, foyda, mehnat unumdorligi kabi tushunchalarni shakllantirish bevosita zarur hisoblanadi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimning barcha bo'g'inlarida o'quvchi - talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy bilim va tushunchalarni shakllantirish, ularni iqtisodiy tarbiyalash va iqtisodiy faolliklarini oshirish hisobiga ularda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish davr talabidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan anglanadiki, *iqtisodiy tarbiya asosan uch bosqichda olib boriladi: o'quvchi - talabalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalar, ko'nikma va malakalar, oila va maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida shakllantiriladi; maxsus iqtisodchi mutaxassisligini olish uchun oliy ta'lim muassasalarida (institut, universitet, akademiyalarda) kasb sohasida olingan bilim, egallangan ko'nikma va malakalarni bo'lajak iqtisodchi kadrlarning barkamol shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi.*

Umuman, iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi o'quv mashg'ulotlarini olib borishda o'quvchi - talabalarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirish, shuningdek, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, iqtisodiy hisobkitobga, oila budjeti va boylikka mas'uliyat bilan qarash kabi iqtisodiy sifatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda **iqtisodiy tarbiyaning quyidagi muhim vazifalarini** ajratib ko'rsatish mumkin:

– jamiyatning har bir a'zosi bo'lgan shaxs o'z muqaddas burchi va sharafli bo'lgan mehnatga ongli va ijodiy munosabatini tarbiyalash;

– bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini tezda o'zlashtirib, o'z kundalik ish faoliyatlariga tatbiq etish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

– iqtisodiy tarbiya shaxsni ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishga, ishlab chiqarish va korxonalar faoliyatida ishtirok etishga ko'maklashadi;

jamiyat a'zolari bo'lgan har bir shaxsdan o'z kichik bizneslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni shakllantirishi lozim;

– eng muhimi iqtisodiy tarbiyaning vazifasi o'quvchi-talabalarda mustaqil O'zbekiston Respublikasining mas'uliyatli a'zosi hamda ishlab chiqarish jabhasining xo'jayini tuyg'usini mustahkamlashdan iboratdir.

Xullas, o'quvchi-talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish va tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari quyidagilardir:

1. Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq, izchil, tizimli amalga oshirish;

2. Iqtisodiy ta'lim va tarbiya o'rtasida, shuningdek, fanlararo o'zaro aloqadorlikka erishish;

3. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyani tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish (muammoli vaziyatlarni yaratish, ekskursiyalar, interfaol metodlar va rolli o'yinlardan samarali foydalanish);

4. O'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-iqtisodiy bilimlarni amaliyotga joriy etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

5. O'quvchi-talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish (to'garaklar, o'quvchi-talabalar ishlab chiqarish brigadalari yoki jamoalarini shakllantirish asosida);

6. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik hamkorligi asosida o'quvchi-talabalarda iqtisodiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalash;

7. O'quvchi-talabalarda tejamkorlik sifati, shuningdek, oldi-sotti munosabatlarini samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarining tarbiyalanishiga jiddiy e'tibor qaratish;

8. O'quvchi-talabalarda mehnat faoliyatining mahsuli bo'lgan pul (moddiy boylik)ka nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish hamda oila budjetini oqilona yuritish malakasini shakllantirish va hokazolar.

8.8. EKOLOGIK TARBIYA

Fan-texnika taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda har bir inson tabiatni asrash, avaylash uchun mas'uldir. **Bu borada pedagogika fani oldida turgan muhim va yechimini kutayotgan muammolardan biri o'quvchi-talabalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish hamda ularning ekologik madaniyatini shakllantirishdan iborat.**

Ekologik ta'lim *deganda o'quvchi-talabalarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.*

Ekologik tarbiya *esa insonning tevarak-atrofdagi muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.*

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi – *o'quvchi-talabalarga ekologik bilimlarni berish, ularda tevarak-atrof muhiti va vujud orasida*

bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatni va ekologik madaniyatni hamda ekologik muammolarning yechimlarini optimal yechimlarini topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ushbu ***vazifalarni*** *hal qilishga to'g'ri keladi:*

1. O'quvchi-talabalar ongiga quyidagi ayrim ekologik tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyati singdirilsa ekologik tarbiya borasidagi ishlarimiz samarali kechadi:

• **ekologiya** – *yunoncha so'z bo'lib,* ***Oikos*** *– uy, turar joy va logiya-(ta'limot) tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak - atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir. Bu atamani 1866-yilda nemis zoolog olimi E.Gekkel ilk bor fanga ilmiy-pedagogik muomalaga kiritgan;*

• **eko muhit (ekologik joy)** – *tabiatda barcha turdagi mavjudotlarning yashashi mumkin bo'lgan muhit omillari majmui.*

• **ekologik krizis, ya'ni ekologik tanglik** – *ekologik sistemalar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkinishi; vulqonlar otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa ofatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat;*

• **ekologik muvozanat** – *inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati;*

• **ekologik omillar** – *atrof-muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlari majmui;*

• **ekologik madaniyat** – *kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni qabul qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorligi va boshqalar;*

• **ekologik tanglik xavfi** – *XX asr davomida fan-texnikaning rivoji, xalq xo'jaligi va kundalik turmushni kimyolashtirish yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.*

2. Ekologik savodxonlikni shakllantirish – o'quvchi - talabalarning ekologik savodxonligini shakllantirishda quyidagi hayotiy misollardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi:

• tabiatni xushmanzara joylariga dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlari,

bakalashkalar hamda boshqa narsalarning sochilib yotishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida o'quvchi-talabalarning ekologik tasavvurini shakllantirish;

• daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat, jamiyat va insoniyatga zararli ta'sirini, o'quvchi-talabalar ongiga singdirish;

• o'quvchi-talabalarda tabiatga ehtirom hissini shakllantirishdan oldin ishni tabiatni tiriklik manba ekanligi, uning boyliklari-yu, mo'jizalaridan bizdan keyingi avlodlar yoppasiga tugab bitishdek xavf-xatar borasida ularni jiddiyroq o'ylab ko'rishga undashdan boshlash lozim;

• ekskursiyalar-sayohatlar o'quvchi-talabalarning ekologik masalalarni idrok etishlari uchun qulay bo'lgan tarbiya usulidir. Bunda o'quvchi-talabalar tabiat muzeylariga, shifoxonalarga ishlab chiqarish korxonalariga (zavod va fabrikalarga) tashrif buyurishi, zavod va fabrikalardagi ijtimoiy-ekologik ahvolni, zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini tushuntirishga erishish;

• sayohatlar davomida o'quvchi-talabalar o'zlari guvoh bo'lgan ekologik masalalar bo'yicha munozarali suhbatlarga tayyorlanish uchun zamin hozirlovchi vosita sifatda qaralmog'i lozim. Chunki, aynan sayohatlar munozarali suhbatlar uchun dalillar to'plash imkoniyatidir. Bundan tashqari o'quvchi-talabalar ongida tabiat, uning mohiyati, go'zalligi va fojealari borasida yorqin taassurotlar hosil qilish vositasi hamdir. Sayohat va munozarali suhbatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir;

• o'quvchi-talabalarning ekologik savodxonligini shakllantirishda eng samarali usullardan biri ular bilan olib boriladigan darsdan va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardir.

3. **O'quvchi-talabalarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish.** Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzotlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi. Demak, ekologik tarbiyaning mazmuni ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar)dan iborat. Bular o'quvchi - talabalarda quyidagi ekologik tushunchalar va qonuniyatlarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

• tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;

• tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

• atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;

• tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday bo'lsa, shundayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar[1].

4. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Ekologik tarbiya o'z oldiga ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik madaniyatning mohiyati, shakllanish yo'llari haqidagi qarashlar va amaliy chora-tadbirlar XX asrning eng dolzarb va murakkab muammolardan biri bo'lib qoldi. Bu muammo o'zining butun ko'lami, dolzarbligi, murakkabligi bilan XXI asr muammosi bo'lib qoladi, chunki XX asr bu muammoni keltirib chiqardi, ammo uni oxirigacha hal qilib bera olmadi.

Ekologik madaniyat, birinchi navbatda, inson hayoti bilan, uning salomatligi, farovon yashashi, qobiliyat va iste'dodini to'laroq namoyish etishi bilan bevosita bog'liq. Ekologik madaniyat boshqa madaniyat shakllarining, chunonchi, oilaviy, *aqliy, axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, huquqiy, estetik madaniyatlarning rivojlanishi uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.* Shuning uchun ekologik madaniyatning izdan chiqishi, bir tomonlama shakllanishi yoki shakllanmay qolib ketishi umuman madaniyatga va ma'naviyatga juda katta zarba bo'lib tushdi.

Ekologik madaniyatning mazmuni, mohiyati va ichki tarkibiy tuzilishi nimada?

Buning uchun birinchi navbatda insonning shakllanishi va tobora rivojlanib borishining asl mohiyatiga razm solish kerak. Bir ko'rishda tashqi muhit o'zicha inson hayoti o'zicha rivojlanayotganga o'xshaydi. To'g'ri, inson hayoti bilan tashqi muhit o'rtasidagi bog'liqlikni hech kim inkor etmaydi, ammo bu bog'liqlik bu aloqani ko'pincha yuzaki tushunamiz, uning rivojlanish imkoniyatlarini alohida mustaqil bir olam deb qaraymiz. Aslida mana shu nuqtayi nazar, yuzaki tasavvur insoniy muhitdan, tashqi olamdan ajratib qarashga olib keldi. Ekologik madaniyatning izdan chiqishi xuddi shu tasavvur bilan bevosita bog'liqdir.

Ekologik madaniyatning mazmuni inson oilada tabiatning birligini chuqur his qilish, inson hayoti bilan tashqi muhit qonuniyatlari o'rtasidagi ichki bog'lanishlarning asl mohiyatini yaxshi tushunib olish va hayotda unga amal qilishda namoyon bo'ladi.

[1] J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi), I-qism. –T.: «Fan va texnologiya», 2011, 269-277-betlar.

Ekologik madaniyatning yuksakligi chinakam insoniylik belgisidir, ekologik madaniyatning yemirilishi insoniylikning yemirilishidir.

Insonning biologik, fiziologik va ruhiy holatlariga bir razm solaylik. Inson organizmidagi har bir jarayon shunchalik dinamik tarzda o'zaro bog'langan holda ro'y beradiki, bu haqda hech kim o'ylab ko'rmaydi.

Qon aylanish sistemasi, asab sistemasi, ovqat hazm qilish sistemasi shunchalik puxta, izchil yaratilganki, birorta robot, birorta kompyuter unga tenglasholmaydi. Inson miyasi faoliyatiga teng keladigan texnika ixtirosi yaratilgani yo'q, yaratilishining iloji ham yo'q.

Ekologik madaniyat, eng avvalo, insonning o'z-o'zini bilishdan boshlanadi. Agar inson o'z organizmining ichki tuzilish tarkibini, ularning o'zaro aloqadorligini, ishlash, faoliyat xususiyatlarini yaxshi bilsa va uni normal ishlash uchun sharoit yaratsa va bu haqda chinakam, yuksak darajada g'amxo'rlik qilib borsa bu bilan uchta muhim vazifani bajargan bo'ladi.

Birinchidan, o'z salomatligini saqlash yo'lini ta'minlaydi, kasallikka kamroq chalinadi, doimo tetik, bardam yuradi va shu yo'l bilan u o'z umrini ancha uzaytirishga erishadi, Salomatlik eng katta boylik, eng katta baxt-saodat, bu inson umrining asl mohiyati va maqsadiga mos keladi. Bu ekologik madaniyat shakllanishining birinchi hal qiluvchi bosqichidir. Ekologik madaniyatning shakllanishidagi bu birinchi asosiy bosqich inson tarbiyasida muhim omil hisoblanishi kerak. Bu masala butun tarbiya tizimining markazida turishi, go'dak qalbida ekologik tushunchalarning barqarorlashib borishiga qaratilishi zarur.

Ikkinchidan, inson o'zini tabiatning, bu cheksiz olamning ajralmas bir bo'lagi deb bilsa va o'z organizmining ichki mohiyatini, yashash tartiblarini yaxshi tasavvur qila olsa, unda u butun tabiatning, koinotning ichki mohiyatini, yashash tartiblarini to'g'ri tushuna oladi.

Tabiatning ichki mohiyati, yashashi, o'zgarishi va rivojlanishi qonuniyatlari inson organizmining ichki mohiyatiga, uning yashash, o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlariga to'la mos keladi. Inson o'zini bilish orqali tabiatni bilishga o'tadi, o'zini hurmat qilish va asrash orqali tabiatni hurmat qilish, uni asrashga o'tadi. O'zini bilmagan odam hech qachon tabiatni bilolmaydi, natijada o'ziga ham, tabiatga ham ozor yetkazib, o'z organizmini ham, tabiat hodisalarini ham izdan chiqaradi.

Uchinchidan, inson o'zini bilish va asrash orqali tabiatni bilish va asrashga o'tadi, o'zini bilish tabiatni bilish, o'zini asrash va tabiatni asrash orqali u nihoyat jamiyatni bilish va uni asrashga o'tadi.

Insonning jamiyatda o'z munosib o'rnini topa bilishi jamiyatning ichki mohiyati, rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri tushunishi va bu qonuniyatlarga amal qilib yashashga o'rganishi faqat o'zini va tabiatni bilish orqali amalga oshadi. **Inson tabiat jamiyat yagona bir jarayon, aniqrog'i, yagona bir jarayonning turli ko'rinishlaridir.** *Mana shu yaxlitlikni chuqur his qilgan, uning mohiyatiga yeta olgan, bu uzluksiz va izchil jarayonlarga itoat qilib yashashga o'rgangan odamda albatta* **ekologik madaniyat** *shakllangan bo'ladi; bu narsa insonda o'ziga nisbatan ehtiyotkorlik, tabiatga nisbatan saxiylikni keltirib chiqaradi; o'ziga bo'lgan ehtiyotkorlik, tabiatga bo'lgan saxiylik esa o'z navbatida jamiyatga bo'lgan insoflilikni yuzaga keltiradi. Bu qonuniy jarayon buzilsa, albatta, ekologik madaniyat izdan chiqadi.* Biz yuqoridagi fikrlarimizni yakunlab shunday umumiy xulosaga kelamiz.

Birinchidan, XX asrda juda ko'p ekologik falokatlar ro'y berdi. Suv toshqinlari, to'fonlar, yer qimirlashlar, iqlimning o'zgarishi va boshqalar tabiat rivojlanishidagi muvozanatning buzilishidan dalolatdir. Yana tabiat ne'matlari, yer va suv zaxiralaridan noto'g'ri foydalanish singari ijtimoiy hodisalar ham ro'y berdiki, bular birinchi navbatda insonning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatlari natijasidir.

Ikkinchidan, ekologik fojealarning kelib chiqishiga asosiy sabab ekologik madaniyatning pasayib ketganidir. Agar biz ekologik madaniyatning mohiyatini to'g'ri tushungan holda butun e'tiborni o'quvchi-talaba yoshlarimizda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga qaratsak, buning uchun barcha chora-tadbirlarni izchillik va qat'iyat bilan olib borsak, XXI asrda o'z mamlakatimiz hududida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga erishgan bo'lamiz.

Uchinchidan, biz ma'naviyat haqida gapirganimizda, ma'naviyatni poklash va uni rivojlantirish haqida fikr yuritganimizda bevosita ekologik madaniyatni shakllantirishni ham ko'zda tutishimiz kerak. Chunki, ekologik madaniyat chinakam insoniylik belgisi, to'g'ri yashash, umrini savob ishlarga bag'ishlashning olijanob va muruvvatli bo'lishning asosidir.

To'rtinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish bilan uzviy aloqada bo'lish.

Beshinchidan, o'quvchi-talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda xalqimizning milliy, ma'naviy merosi, turmush tarzi, an'analari, urf-odatlaridan keng foydalanish.

Oltinchidan, ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlararo aloqadorlik va bog'liqlikdan foydalanib dunyoqarashi keng, irodasi baquvvat, o'z qadr-qimmatini anglaydigan, hayotda o'z nuqtayi nazariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash.

Yettinchidan, o'quvchi-talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning eng maqbul yo'nalishlarini belgilash va mazmunini boyitish, eng ilg'or shakl va metodlarni tanlash, bu borada eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash.

Sakkizinchidan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda an'anaviy ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va uni o'zgartirishga texnologik yondashish o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish.

To'qqizinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarning nazariy bilimini yuksaltirish, mustaqil fikrlashga yo'llash orqali ekologik madaniyati va ma'naviyatini shakllashtirishga yo'naltirish va hokazolar.

Demak, ma'naviyat ekologiyasi o'quvchi-talabalarning ekologik tarbiyasining muhim asosi hisoblanadi Ma'naviyat ekologiyasi tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u haqidagi tasavvurlarni hozirgi zamon fanlarining o'zaro hamkorligisiz asoslab bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, *ma'naviyat ekologiyasi tushunchasi jamiyat ma'naviy hayotining barcha qismlari, jumladan, fan va texnika, maorif va madaniyat, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, falsafa hamda huquq, iqtisodiyot barcha intellektual boyliklarning ekologiyalashuvi singari omillarni o'z ichiga oladi.*

Ma'naviyat ekologiyasidagi muammolar birdaniga paydo bo'lmay uzoq yillar davomida to'plana bordi. Sobiq sho'rolar tuzumi davridagi mafkuraviy yakka hukmronlik tabiatga, insonning yashash muhitiga nisbatan bir tomonlama yondashuvlarning, kishilar faoliyatidagi ko'r-ko'ronalikning onglilik ustidan hukmronligi, subyektivlikning (inson faoliyati) - obyektivlik (tabiatdagi jarayonlar) bilan nomuvofiq holatda munosabatda bo'lishiga olib keldi.

Hozirda mavjud ekologik ziddiyatlar ma'naviyat ekologiyasining o'tmishdagi qusurlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun bu qusurlardan holi bo'lmoq uchun ma'naviyat ekologiyasini har tomonlama rivojlantirish lozim.

Ma'naviyat ekologiyasining zamirida inson va tabiat munosabatlari yotganligi sababli bu munosabatlar orasida jamiyat taraqqiyotining ilk

bosqichlarida barqarorlik holatlari mavjud edi, ammo keyinchalik tabiatga nisbatan antropogen ta'sir kuchayib, bu barqarorlik holatlari buzildi. Jumladan, inson faoliyatining bevosita natijasi hisoblangan sun'iylik tabiat taraqqiyot darajasidan o'zib ketdi. Natijada ular orasidagi muvofiq holatlar hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Masalan, muayyan sun'iy mahsulotlar inson ma'naviy taraqqiyotining, yoki aniqroq qilib aytganda, ma'naviyat ekologiyasi rivojining bir tomonlama shakllana borayotganligi oqibatidir. Bu narsa ma'naviyat ekologiyasidagi xususiy manfaatlarning umumiy manfaatlardan ustunligi natijasidir. O'tmish madaniy va ilmiy merosimizga bir tomonlama yondashuvlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi uchun murakkabliklar keltirib chiqaradi. Ma'naviyat ekologiyasida inson qolaversa, uning manfaatlari yotadi.

Bir tomondan insonning aql-zakovati ma'naviyat ekologiyasi holatini yaxshilasa, ikkinchi tomondan bu aql - zakovat uning hayotiga, ma'naviyat ekologiyasiga putur yetkazishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, inson tafakkurining ba'zi natijalari, jumladan, turli qurollarning yaratilishi, ayrim ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, ma'naviyat ekologiyasining ajralmas qismi bo'lgan inson mavjudligi uchun jiddiy xavf-xatar vujudga keltirmoqda.

Binobarin, ma'naviyat ekologiyasini har tomonlama shakllantirish bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq o'tish davrida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov «**O'zbekiston buyuk kelajak sari**» *asarida ta'kidlaganlaridek:* «**Yashash muhiti, tabiat va ma'naviyat ekologiyasi bir-biridan ajralmasdir. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning ma'naviyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi**»[1].

Ko'rinib turibdiki, inson bilan tabiat o'rtasida hamnafaslik, me'yor darajasidagi munosabatlarning o'rnatilishi ma'naviyat ekologiyasi uchun nihoyatda zarur. Shuning bilan birga quyidagi masalalarga e'tiborni qaratish muhim deb hisoblaymiz:

– *ma'naviyat taraqqiyoti asosi – inson va tabiat munosabatini bir tomonlama emas, balki faqatgina inson ehtiyojinigina qondirishdan iborat deb bilmasdan, ayni paytda, tabiat ehtiyojini ham hisobga olmoq lozim;*

[1] Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998., 59-60-betlar.

– *ma'naviy tarbiyani dastlab ekologik bilishning empirik jihatlariga qaratish foydaliroq. Oila, inson yashayotgan muhit va tevarak-atrofni muhofaza qilish va asrab-avaylash ekologik ma'naviy tarbiyada dastlabki omil bo'lmog'i kerak;*

– *hozir ekologik ong yoki tafakkurni to'la ma'noda shakllantirishdan tashqari, ularning nisbiy mustaqilligi masalasi ham juda muhim. Ma'naviyat ekologiyasiga e'tibor qaratilganda tabiatdan oqilona foydalanishning metodologik jihatlari, jumladan, texnik, texnologik, estetik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, falsafiy qarashlarning o'zaro birligi va bir butunligini nazarda tutmoq lozim;*

– *obyektiv jarayonlar (tabiat) va subyektiv (inson) maqsadlari orasidagi amaldagi dialektik birlikni ta'minlamoq lozim;*

– *sun'iylik va tabiiylik orasidagi, nomuvofiqlikni amalda bartaraf etish, sun'iylikdagi tabiiylik holatlariga chuqur e'tibor berilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda ma'naviyatda sun'iylik bilan tabiiylik bir-birlarini istisno etadigan holatlarni emas, balki ularni bir-birlarini to'ldirib turadigan vaziyatlar bilan bog'liq dunyoqarash orqaligina ma'naviyat ekologiyasini qaror toptirish mumkin.*

Xulosa qilib aytganda, **ekologik tarbiya, ekologik madaniyat va ekologik ma'naviyat** tabiatni muhofaza qilish haqidagi ilmiy nazariy bilimlar majmuasi, hukmron iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy qarashlardan tartib, oddiy kundalik tasavvurlargacha o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida Respublikamizda olib borilayotgan ekologik siyosat va uning zamon talablariga qarab takomillashib borayotgani, yoshlarga umumiy, ijtimoiy, umumbashariy ekologiya haqidagi bilimlarni berishga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir. Ekologik tarbiya mavzusining dolzarbligini Yurtboshimiz **«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (-T.: «O'zbekiston , 1998, 112-113-betlar)** asarida keng yoritib bergan edi: **«Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi».** Shubhasiz, bu dolzarb muammolarni hal etish o'quvchi-talaba yoshlarning ekologik tarbiyasi, ekologik madaniyati va ma'naviyatini, ekologik bilimini yuksaltirishga, ongi va aql-zakovatiga bog'liqdir.

Shuningdek, I.A.Karimovning **«Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch»** *nomli asarida ham atrof-muhit, inson va tabiat, ekologiya va ekologik ma'naviyat haqida batafsil fikr yuritiladi.*

Tabiatni qo'riqlash va tabiat zaxiralaridan to'g'ri foydalanish masalalari iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu muammo Prezidentimizning **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** *nomli asarida atroflicha tahlil etilgan. Demak, bu muhim ekologik masalalarni hal qilish* «**Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi**» *asosida yaratilgan* «**Uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi**»*dagi o'quvchi-talabalarning ekologik savodxonligi darajasini oshirish, yosh avlodda huquqiy-ekologik ong va tafakkurni hosil qilish, bu sohada barcha o'quv predmetlarining ekologik ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etadi.*

YUNESKO yoki **Birlashgan Millatlar Tashkilot**ining **«Inson tabiatda va tabiat insonda»** dasturida o'quvchi-talabalarga yoshlikdan ekologik ta'lim-tarbiya berishni ta'minlash lozimligi nazarda tutilgan bo'lib, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat hamda ekologik ma'naviyat keng ma'noda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *har bir insonning tabiat uchun javobgarligini oshirish, uni sevishga o'rgatish;*

– *insonning tabiatga munosabati ilmiy bilimlarga asoslangan bo'lishi zarurligining ahamiyatini tushuntirish;*

– *ekologik madaniyat asosida yoshlarni tabiatdan foydalanish va uni saqlash ruhida tarbiyalash;*

– *yoshlarga ekologik boyliklardan ongli ravishda oqilona foydalanishni o'rgatish;*

– *tabiatdan foydalanish jarayonida ekologik muammolarni to'g'ri hal qilish yo'llarini o'rgatish.*

Bularning barchasi uzluksiz ekologik ta'lim tizimi asosida izchil amalga oshirilishi lozim.

8.9. HUQUQIY TARBIYA

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatning barpo etilishi va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ilk saboqlar davlat qurilishining tadrijiy rivojlanish maqsadlarini yanada chuqurroq anglash, hayotning o'zi dolzarb qilib qo'yayotgan muammolarni hal etishning strategik yo'nalishlarini aniqlab beradi. Darhaqiqat, mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, *yoshlarning huquqiy bilim saviyasi, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy ma'naviyati qancha yuksak bo'lsa, demokratik huquqiy davlat va kuchli*

fuqarolik jamiyati ham shuncha kuchli bo'ladi, mustaqilligimiz asoslari kun sayin mustahkamlanib, barqarorlashib boradi. Qonuniylik va huquq-targ'ibot tantana qilmasa, fuqarolar, ayniqsa, o'quvchi-talaba yoshlarimiz qonun-qoidalar va huquqiy normalarga qonuniy aktlarga, eng muhimi *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga katta ishonch - ixlos bilan munosabatda bo'lishga, iymon-e'tiqodga rioyaga qilishga odatlanmasa, demokratik huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati fuqarolarning ayniqsa, o'quvchi-talaba yoshlarning siyosiy ongliligi, siyosiy uyushqoqligi, hamjihatliligi, huquqiy bilimdonligi, madaniyatliligi, hushyor va ziyrakligi, har bir narsa va hodisaga ko'r-ko'rona emas, balki aql - idrok, bilim va tafakkur, fahm-farosat ila yondashganligi bilan kuchli, qudratlidir.* Ana shu g'oya va shu nazariy yo'l-yo'riqlar, Prezident Islom Karimovning asarlarida, ma'ruza va nutqlarida, Farmonlari va Farmoyishlarida o'z ifodasini topdi. Yurtboshimiz bu haqda shunday deydi: «**Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layogan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak**»[1].

Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviy barkamol inson haqida fikr bildirganda u birinchi navbatda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilim, huquqiy madaniyati va huquqiy ma'naviyatini shakllantirish hamda rivojlantirishni, aynan o'z haq-huquqlarini muayyan qonunlarga muvofiq himoya qilish borasida ko'nikmalar hosil qilish va shu asosda ijtimoiy faollik qilishni nazarda tutganligi ham bejiz emas. Shu bois ham hozirgi kunda yoshlarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidayoq odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda oila va bolalar bog'chalarining roli kattadir. Buning uchun ota-onalar va maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari huquqiy bilim, huquqiy madaniyat va huquqiy ma'naviyatdan xabardor bo'lishlari lozim.

Demak, farzandning kelajakdagi istiqboli bilimli, yetuk obro'li inson, farovon hayotining barpo bo'lishida bugungi kunda oilada sog'lom muhit, ota-onaning o'zi ma'naviy-huquqiy jihatdan savodxon

[1] Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T-7. –T.: «O'zbekiston» 1999, 381-bet.

bo'lishi talab etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ota-onalar o'z farzandlarining barkamol inson bo'lib voyaga yetishlarida jamiyat oldida javobgardir. Zero, bolani dunyoga keltirishdan ko'ra, uni jamiyatga nafi tegadigan, sog'lom e'tiqodli, ma'naviyatli solih farzand qilib tarbiyalash mushkulroqdir.

Shunday ekan, oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va uni milliy istiqlol g'oyalari ruhida mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik masaladir. Negaki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlar, undagi yutuq va kamchiliklar, salbiy oqibatlar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. *Oila – jamiyat negizi, har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu-maslaklar, ma'naviy - huquqiy qadriyatlar takomil topadigan, huquqiy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir.* O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy-huquqiy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridandir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga milliy istiqlol g'oyalarini, qonun ustuvorligini singdirish uchun qulay shart-sharoit yaratilgan bo'ladi.

Shuningdek, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida xulq-atvor qoidalaridan xabardor, ma'naviy-huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalarga ega bo'ladilar.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yoshlarining dunyoqarashi, milliy ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qiyofasini belgilab beruvchi e'tiqod, xislat, fe'l-atvor va boshqa fazilatlarning hammasi umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qish jarayonida shakllanadi, rivojlana boshlaydi.

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'qish jarayonida huquqiy bilim asoslarini yodlab olingan saboq tarzida emas, balki o'z qarashlari va e'tiqodlarining tizimi tariqasida qabul qiladilar. Huquqiy bilimlar asosida o'z huquq va erkinliklarini bilib oladilar, jamiyat, davlat, xalq va millat oldidagi burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligini chuqur his etib anglay boshlaydilar. **«Lo'nda qilib aytganda, - deydi Prezidentimiz Islom Karimov, – bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan**

yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»[1].

Huquqiy bilimlarni chuqurroq va mukammalroq o'rgatishni yo'lga qo'yishda, bu orqali talabalarning huquqiy madaniyatining yuksalishiga erishishda, boshqacha aytganda, tom ma'nodagi huquqiy ongni shakllantirishda oliy o'quv yurtlari – universitetlar, akademiyalar va institutlar nechog'lik katta o'rin tutayotganligini hech bir mubolag'asiz aytish mumkin.

Oliy o'quv yurtlari ilmning u yoki bu tarmog'i bo'yicha talabalarga mutaxassislik bo'yicha chuqur maxsus bilim beradi, ularni biron-bir kasbga, faoliyatga tayyorlaydi, yuqori malakali mutaxassislar qilib yetishtiradi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga - davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi **bakalavriat va magistraturaga** ega.

O'zbekiston Respublikasining **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** da belgilab qo'yilganidek, **«Bakalavriat»** *mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan* **tayanch oliy ta'limdir.**

Bakalavrlik o'quv dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha **«bakalavr»** *darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.*

Magistratura – *aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va ilmiy amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan* **«oliy ta'limdir»**.

Yetuk mutaxassis degan yuksak darajaga erishmoq oson emas, albatta. Buning uchun har bir bakalavr va magistrant o'zi tanlagan ixtisoslik bo'yicha oliy o'quv yurti dasturida belgilangan, Davlat ta'lim standartlaridan kam bo'lmagan hajmdagi bilimlarni chuqur egallashi, shuningdek, o'z bilimini doimo takomillashtirib borishi, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishi, keng nazariy-siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, falsafiy, pedagogik va psixologik bilimlarni egallashi lozim.

Darhaqiqat, zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo'lib yetishish uchun har bir bakalavr va magistrant zamonaviy bilim asoslarini, texnika va texnologiyalarni, ko'plab xorijiy tillarni egallashi, g'oyaviy-siyosiy yetukligi, huquqiy bilimdonlik va madaniyatlilik

[1] Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. – T.: «O'zbekiston», 1998, 325-bet.

darajasi yuqoriligi, irodasi mustahkamligi va iymon-e'tiqodini butunligi, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra olishi, elim deb, yurtim deb yashashi, faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir

Talaba yoshlarimiz barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun jamiyat belgilagan, davlat qabul qilgan qonunlarni, mavjud huquqiy mezonlarni bilmasdan, ularga so'zsiz rioya etmasdan turib ma'naviy - axloqiy yetuklikka erisha olmaydi. Buning uchun yoshlar **huquqiy ongga, huquqiy bilim, huquqiy madaniyatga va huquqiy ma'naviyatga** ega bo'lishlari zarur.

Huquqiy bilim *deganda, huquqiy jihatdan tarbiyalanganlik, huquqiy madaniyat, ma'rifat va ma'naviyat sohibi bo'lish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilgan fuqarolik huquqi, shaxs erkinliklari va burchlari nimadan iborat ekanligini bilish; qonunlarimizda ko'rsatilgan, hamma uchun majburiy bo'lgan huquqiy normalarga qat'iy amal qilish va qonunbuzarlikka murosasiz bo'lish tushuniladi.*

Huquqiy bilim o'z-o'zidan huquqiy madaniyatga aylanmaydi. Huquqiy bilimlar, huquqiy normalar shaxsning ongi va turmushiga singgan, amaliy faoliyatlarida qo'llanila boshlagan taqdirdagina huquqiy madaniyatga aylanadi.

Huquqiy madaniyat *deganda, har bir davlatning Konstitutsiyasi va huquq normalarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi, jamiyatda qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi hamda qonunlarni va huquqiy me'yorlarni buzgan shaxs istisnosiz javobgar bo'lishini chuqur his etishi tushuniladi.*

Zero, huquqiy madaniyatli shaxs jamiyatda qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarga muvofiq faoliyat ko'rsatadi, ularga zid harakat qilmaydi. Jamiyatning qonunlari va huquqiy normalari shaxsning huquqiy madaniyati darajasini belgilaydi. Negaki, qonun darajasida ustuvor bo'lolmaydi. Qonun – jamiyat madaniyatining ko'zgusidir.

Huquqiy madaniyat tarbiyaning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va huquqiy o'zgarishlarining natijasi va tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijobiy o'zgarishlar shaxsning huquqiy madaniyati saviyasini oshirishga yordam beruvchi sharoitlar yaratadi, salbiy o'zgarishlar esa, aksincha, huquqiy madaniyat darajasini oshirishda ma'lum darajada to'sqinlik hisoblanadi va yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning majburiy komponenti (tashkil etuvchisi) hisoblanadi. Biz shaxsning huquqiy madaniyati – bu huquqiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar, qadriyatlar, huquqiy xulqning shakllantirilganlik darajasi bilan tavsiflanuvchi integrativ sifat deb hisoblaymiz. Shu bois shaxs huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishida quyidagi falsafiy, huquqiy, pedagogik va psixologik komponentlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: **kognitiv, his-tuyg'u, qadriyatli, xulqiy, huquqiy ong, huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyat.**

Huquqiy madaniyatni **ijtimoiy ongga** singdirish juda murakkab jarayon. Chunki huquqiy madaniyatni shakllantirish barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari bahamjihat ma'rifiy-tashkiliy faoliyati natijasida amalga oshadigan ishdir.

Huquq ijtimoiy hodisa sifatida ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U haqiqiy voqelikning boshqa hodisalari kabi jamiyat ongida aks etib, nafaqat uning in'ikosiga, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan ichki fikrlash jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib yetish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'langan. Huquq va ong o'rtasidagi vujudga keladigan uzilmas bog'liqlikni ko'zda tutib, avvalo huquqiy ong tushunchasini aniqlab olish lozim.

Huquqiy ong – ijtimoiy ongning bir shaklidir. Shu bois har bir huquqiy ko'rsatma huquqiy ong sohasi orqali o'tgandan so'nggina aniq fe'l-atvorda yoki qilmishda amalga oshiriladi, maqsad ko'zlanadi va munosabatlarga kirishiladi. Oqibatda murakkab ruhiy hodisa bo'lmish **huquqiy ong ikki qismga: huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatga** ajratiladi. Shu birlikning har qaysisida hodisalar o'ziga xos aksini topadi.

Huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatning o'ziga xosligi ulardagi umumiylikni va o'zaro ta'sirni mutlaqo inkor etmaydi. Chunki ular bir-birlari bilan chambarchas bog'langan. Biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, shu tariqa huquqiy voqelik to'g'risida ilmiy asoslangan tushunchani hosil qiladi.

Huquqiy mafkura – har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtayi nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iboratdir. Huquqiy ongning mafkura qismida aksini topgan

hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda rivojlantirilib, ilmiy darajada anglab yetiladi.

Bundan ilmiy-nazariy asarlarning mazmuni o'quvchi-talabalarning ma'naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilim, mulohaza, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Shaxsning huquqni bilib olish jarayoni yuqorida qayd qilganimizdek yoki shunga yaqinroq tarzda kechadi.

Shaxsning huquqiy fe'l-atvori qandayligi uning madaniyati darajasiga, huquqiy bilimining kengligi va teranligiga bog'liqdir. Huquqiy mafkura shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantirib borib, shaxsning huquqqa bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy ruhiyat *huquqiy hodisalar bilan bog'liq holda ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan hislar, kechinmalar sohasini ifodalaydi. Huquqiy ruhiyat huquqiy hodisalarni hissiyot bilan tiklash sohasidir. Shaxs hissiz, o'ylamasdan fikr qiladigan, mashina emas. U nafaqat fikr qiladigan, balki idrok etadigan, sezadigan, tirik zotdir. Shuning uchun u ijtimoiy hodisalarni, jumladan, huquqiy hodisalarni ham nafaqat aql, balki sezgi bilan ham tushunib yetadi.*

Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab, huquqiy ong uch turga ajratiladi: **oddiy, ilmiy va kasbiy.**

1. Oddiy huquqiy ong odatda o'z-o'zidan vujudga keladi va shaxsning empirik tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi.

2. Ilmiy huquqiy ong esa ijtimoiy huquqiy haqiqatni u yoki bu darajada, aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi.

3. Kasbiy huquqiy ong esa yuridik oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish jarayonida shakllanadi va amaliyot natijasida sayqal topadi.

Huquqiy ma'naviyat – shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari, imkoniyatlari kamol topishiga va qadr-qimmatini, shaxsiy daxlsizligini, erkin yashashini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, baxt-saodatga erishishi, ehtiyojlarini qondirish, baxt-saodatga erishishi, yoshi va jinsi, irqi va millati, tili va dinidan qat'i nazar bir-birlarini hurmat qilish, o'zgalarning taqdirlariga befarq qaramaslik, insoniyatning farovonligi va baxt-saodati yo'lida tinmay mehnat qilish, Vatan uchun, xalq uchun o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarning uzviy bo'lagi sifatida o'sib, rivojlanib chiqqan, milliy, moddiy va ma'naviy - huquqiy qadriyatlarning axloqiy, huquqiy va ruhiy sifatlarini yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri, madaniyati va

ma'naviyatiga singdirishdan iborat bo'lib, shu yo'l bilan jamiyatda huquqiy qadriyatlarga, xususan, Konstitutsiyaga va qonunlarimizga nisbatan hurmat muhitini yaratish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy ma'naviyatini yuksaltirish shuningdek, har bir fuqaroning Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq, erkinlik va burchlarini to'la idrok etish orqali ma'naviy-huquqiy o'zligini mukammal anglab yetishishiga erishishdir. *Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida:* «**O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi**»,[1] *-deb ko'rsatilgan. Shu bois Konstitutsiya va qonunlarimizda mustahkamlangan huquq va burchlarini bilgan har bir shaxs o'zini erkin his etadi, qadr - qimmatini va sha'nini o'zi mustaqil himoya qila oladi.*

Huquqiy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishning puxta omillaridan biri ijtimoiy adolatdir. Xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga, shu jumladan, huquqiy qadriyatlarga sodiqligi uning adolatli va adolatparvarligidir. Chunki xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo'shnichilikni asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda.

Adolatparvarlik g'oyasi – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy yo'nalishlarda keng o'rin olishi uchun yoshlarimiz Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etishi ko'p jihatdan ularning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyati va huquqiy ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Darhaqiqat, milliy istiqlolimizning barqarorligini, ijtimoiy taraqqiyotimizning tezlashib borishi, iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish va integratsiyalashuv jarayonini tezlik bilan o'tkazish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishni inson omilisiz, ma'naviy barkamol insonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Eng og'ir, eng mushkul vazifa va muammolarni ham jahondagi jamiki umuminsoniy qadriyatlar ichra oliysi hisoblangan **hazrati Inson** *o'zining aql-idroki, tafakkuri, salohiyati, mehnati, qadoqli qo'llari bilan hal etadi.* Prezidentimiz Islom Karimov «**Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Mamlakatimizning mard, fidoyi**

[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: «O'zbekiston», 2008, 60-bet.

kishilar yurtiga, mehru shafqat, muhabbat barqaror bo'lgan, tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman»[1], deganda xuddi shuni nazarda tutadi.

Modomiki, biz mustaqil O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, bu ulug'vor vazifalarni hal etish ham eng avvalo barkamol inson kamolotiga, huquqiy ta'lim-tarbiyasiga, siyosiy onglilik va yetuklikka, huquqiy madaniyat, huquqiy ma'rifat va huquqiy ma'naviyat masalalariga borib taqaladi.

Binobarin, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat va huquqiy ma'naviyatning o'zagi ayni paytda ajralmas qismi bo'lgan **huquqiy tarbiyaga** birinchi darajali ahamiyat bermasdan turib, ma'naviy barkamol insonni kamolotga yetkazib bo'lmaydi.

Huquqiy tarbiya – *bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanishidir.* Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquqiy tarbiyani o'sib kelayotgan yosh avlodning kichik yoshidan amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy-huquqiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

Huquqiy tarbiya o'sib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk, hushyor va ziyorak qilib kamolotga yetkazishning samarali vositasi sanaladi.

Huquqiy tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlodni nafaqat Konstitutsiya va qonunlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish va unga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarda huquqiy normalarga so'zsiz itoat etish kerakligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga demokratik qonunchilik prinsiplariga doimo hurmat bilan qarashni singdirish muhimdir.

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – huquqiy ta'lim va tarbiya vositalari, shakl va metodlari yordamida shaxsning ongiga ta'sir ko'rsatib, unda Konstitutsiya va davlat tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga itoatkorlikni, davlat siyosatini ijro etish hamda o'z xatti-harakatini davlat tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga itoatkorlikni, davlat siyosatini ijro etish hamda o'z xatti-harakatini davlat talabiga muvofiq holda tanlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

[1] Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T-3. –T.: «O'zbekiston», 1996, 42-bet.

Demak, huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, ya'ni huquqiy normalarga hurmatni, ularga ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalashdir. Huquqiy tarbiya shaxsning bolalik chog'idan yetuklik davrigacha o'tkaziladigan uzluksiz tarbiyaviy jarayonni o'z ichiga oladi. Uzluksiz huquqiy tarbiyaning maqsadi yoshlarning huquqiy ongini bevosita ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Huquqiy tarbiyaning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Konstitutsiya va qonunlarimizning jamiyatdagi tutgan o'rni va ahamiyatini, mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga, tafakkuri, madaniyati va ma'naviyatiga singdirish;

– yoshlarning Konstitutsiyada mustahkamlangan huquqi, erkinliklari va burchlarini to'la idrok etishi orqali o'zligini mukammal anglab yetishishiga erishish;

– shaxsga Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqiy normalarga qat'iy amal qilish yo'llarini o'rgatish;

– shaxsda muayyan holatlarda zarur huquqiy normalarni qo'llay olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;

– huquqiy ta'lim va tarbiya vositalarini hamda usullarini takomillashtirish;

– umuminsoniy va milliy an'analar huquqiy qadriyatlar hamda jahon huquqiy tajribasidan foydalanish asosida yoshlarning huquqiy ongi, bilimi, madaniyati va ma'naviyatini shakllantirish;

– shaxsda huquqiy normalarni o'rganishga ehtiyoj uyg'otish, ya'ni o'zini-o'zi mustaqil ravishda huquqiy tarbiyalashga odatlantirish va hokazolar.

Huquqiy tarbiyaning shakllari quyidagilardan iborat:

– huquqiy bilim;

– huquqiy targ'ibot-tashviqot;

– jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ma'naviy-huquqiy ishlar;

– huquqiy himoya (muhofaza) qiladigan davlat organlarining ishlari bilan tanishish (tergov, sud jarayonlarida qatnashish);

– xalq deputatlarini nomzodlikka tavsiya qilish majlislarida, mahalliy hokimiyatlar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyalari ishlarida ishtirok etish;

– yoshlarni huquqiy bilim egallashida, huquqiy madaniyat, huquqiy ma'naviyat va huquqiy tarbiyasida, dars jarayonida ma'ruzalar, seminarlar, o'yin darslarini, viktorinalar hamda huquqni himoya qiluvchi davlat organlari xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazilishi,

savol javob kechalari va bahs-munozaralar tashkil etilishi ijobiy natija berishi mumkin;

huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga maxsus yuridik adabiyotlar tavsiya etilishi maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy tarbiya metodlari – bu bir necha muayyan yo'l va usullar yig'indisi bo'lib, ular asosida shaxsning ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda qonunga hurmat hissi uyg'otiladi va qonunning buzilmasligi ta'minlanadi.

Eng asosiy metod bu – **ishontirish metodi.** *Ishontirish metodi orqali natijaga erishilmasa* **majburlash metodi** *qo'llaniladi. Demak, huquqiy tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash mumkin.*

Ishontirish metodi *orqali yoshlarga huquq, qonun, qonun ustuvorligining jamiyat hayotida qanchalik ahamiyati zarurligi, bu qonun loyihalarini muhokama qilishda fuqarolarning shaxsan o'zlari qatnashish huquqiga ega ekanligi to'laroq tushuntiriladi.*

Huquqiy tarbiyaning ilmiy prinsiplaridan biri o'rganilayotgan qonun yoki qarorning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi qonun, qaror va qoidalarning vujudga kelishi, qabul qilinishini umumiy asoslarini tushunib olsa, hozir o'rganilayotgan huquqiy normalarning qabul qilinishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondashadi, o'zida huquqiy normaga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Huquqiy tarbiyaga ilmiy yondashish quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

– o'rgatilishi lozim bo'lgan qonun yoki huquqiy - normativ (me'yoriy) hujjatlarning nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirib olish;

– tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan huquqiy norma o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash;

– mazkur mintaqadagi huquqiy normaga aloqador huquqiy holatni (huquq-targ'ibotni, qonunchilikka munosabat) o'rganish va tahlil qilish;

– huquqiy normani tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish;

– huquqiy tarbiya vositalarini tayyorlash;

– tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol-javobga tayyorlanish;

– huquqiy tarbiyani shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida yagona shakl va metodlar asosida olib borish.

Bu vazifalarning yuksak darajada amalga oshirilishi o'qituvchi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritilishi,

yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi ta'lim-tarbiya oluvchilarni huquqiy ongiga tegishli o'zgartirish kiritadi, uni boyitadi. Huquqiy tarbiya tashkilotchisi, o'qituvchi-pedagog tarbiyachi vazifasini bajargan holda tarbiyalanuvchilar xususiyatini o'rganibgina qolmay, balki ularni tarbiya jarayonida o'zi bilan hamkorlik qilishga undashi, qiziqtirishi, shu yo'l bilan ularning huquqiy ongini yuksaltirish, yuqori saviyali, bilimli shaxs darajasiga erishishi kerak. O'qituvchi-pedagog tarbiyalanuvchilar hamkorligi huquqiy tarbiyaga keng yondashishning tashkiliy qismidir xolos. Huquqiy tarbiyaga mazmunan keng yondashish shaxs ijtimoiy ongining boshqa masalalarini ham tarbiya jarayonida hisobga olishdir. Masalan tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy ongiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish uchun huquqiy tarbiya g'oyaviy, axloqiy, etik, estetik tarbiya bilan uzviylikda olib boriladi. Ikkinchi tomondan, huquqiy tarbiyaning o'zi qanday huquqiy axborot berilayotganligidan qat'i nazar, huquqiy ongni shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy omillarni qamrab olgan bo'lishi kerak. Masalan, o'qituvchi-pedagog mehnat qonuniga kiritilgan o'zgarishlar bilan tarbiyalanuvchilarni tanishtirmoqchi deyaylik. Maqsad tarbiyalanuvchilarning ongiga yagona qonun mazmunini aks ettirgan holda mehnat munosabatlarida qonundagi o'zgarishga muvofiq ish ko'ra bilishni tarbiyalashdir. Buning uchun o'qituvchi-pedagog masalaga keng yondashib, qonun o'zgarishi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, yangi qonun mohiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda tutilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirishi kerak.

Binobarin, huquqiy tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: o'qituvchi (tarbiyachi)ning axborotli hujjatlarga (tarbiya mazmuniga) kiritiladigan omillar va tarbiyalanuvchilar xususiyatiga bog'liq omillar.

O'qituvchi-pedagogning axborotli hujjatlarga kiritiladigan omillari suhbat mavzusida qanday qonun, qonuniy ishlarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq.

Tarbiyalanuvchilar xususiyatiga bog'liq omillarda o'qituvchi-pedagog tarbiyalanuvchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, mahoratiga va boshqa xususiyatlarga e'tibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iboratdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkinki, o'quvchi-talaba yoshlarni huquqiy jihatdan tarbiyalashning mazmuni, asosiy yo'nalishlari, shakl va metodlari ko'p qirrali bo'lgani bilan asosiy maqsadi bitta, u ham bo'lsa o'sib kelayotgan yosh

avlodga *qonun, jinoyat va jazo nima ekanligini, qonunbuzarlik va jinoyat sodir etishning oqibatlari nimalarga olib kelishini sodda, hayotiy misollar yordamida tushuntirishdan iboratdir. Toki yoshlarimiz ongida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilgan fuqarolik huquqi, erkinliklari va burchlariga qonunlarimizdagi hamma uchun majburiy bo'lgan huquqiy normalarga hurmat uyg'onib, qonunbuzarlikka murosasiz bo'lish tuyg'usi shakllansin. Xuddi shunday olijanoblik tuyg'usigina barkamol inson tarbiyasida katta o'rin tutadi. Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning huquqiy madaniyati, huquqiy ma'naviyati va huquqiy tarbiyasida uzviy bir qismi bo'lib kelmoqda. G'oyaviy–siyosiy va ma'naviy-huquqiy jihatdan barkamollik darajasiga erishgan yoshlarimiz har bir narsani aql-idrok, mantiq, tafakkur tarozisiga solib ko'radi, qadamini o'ylab bosadi, oqibatini o'ylab ish qiladi, o'lsa-o'ladiki, Vataniga va xalqiga g'animlik g'oyasiga, iymon-e'tiqodiga xiyonat qilmaydi, elim deb, yurtim deb yashaydi.* Zero, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, huquqiy ma'naviyat va huquqiy tarbiya yoshlarimiz barkamolligining mezoni, muhim ko'rsatkichi, jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

8.10. FUQAROLIK TARBIYASI

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimizda barpo etilgan insonparvar demokratik huquqiy davlatni mustahkamlash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning qonuniy zaminlari va huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik va bilimdonlik darajasiga uzviy bog'liqdir.

Buning uchun O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasini puxta o'rganishi va uning mazmun-mohiyatini tushunib olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarining davlat huquqidan ustuvorligi tamoyili qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Unda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa huquq ham erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasida deyilgan.

Yuqorida keltirilgan talab va vazifalarni amalda joriy qilish, asosan ta'lim-tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Shu ma'noda o'quvchi-talaba yoshlarda **fuqarolik tarbiyasini** shakllantirish uchun ularni o'tmish

merosimiz va xalqimizning ming yillik qadriyatlari asosida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir.

Biz o'tmish merosimizga murojaat qilganimizda milliy qadriyatlarga asoslanishi zarur. Bunga sabab o'quvchi-talaba yoshlarda bu orqali *milliy g'ururni va fidoyilik, e'tiqod, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iyat, matonat, vatanparvarlik, insoniylik, uyushqoqlik* kabi xislatlarni shakllantirish samarali kechadi, bu esa barkamol avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri **fuqarolik tarbiyasi** va uning asosiy komponenti **fuqarolik madaniyatini** yuksalishiga olib keladi. Fuqarolik tarbiyasi – yosh avlod ongida kishilarning muayyan mamlakatga, yashab turgan makonga mansubligini aks ettirish va shu asosda unda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, o'z davlatining mustaqilligini mustahkamlash uchun fidoyi insonlar, bunyodkorlarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Fuqarolik tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan **fuqarolik madaniyati** esa fuqarolik jamiyatining poydevori, huquqiy tizim yetukligining ifodasi sifatida, fuqarolarning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'rganish, o'zlashtirish, ularni asrab-avaylash, ko'paytirish, o'zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatdir. Demak, fuqarolik madaniyati shakllangan shaxs yuksak aql-zakovat egasi bo'lib, u yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg'ulari bilan yashaydi, axloqiy - huquqiy burchni, mas'uliyatni teran anglaydi.

Fuqarolik madaniyati insoniyat madaniy taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida **«ideal odam», «ideal inson», «ideal shaxs»** tushunchalarining mazmuni va negizida tarkib topa borib, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash jarayonida kishilarning jamiyatda o'z o'rnini aniq topishi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Buni biz miloddan oldin VII-VI asrlarda vujudga kelgan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi «**Avesto**»da ifodalangan **ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal** uyg'unligini aks ettiruvchi g'oyaviy qarashlar vositasida anglaymiz. Fuqarolik madaniyatiga egalikka «**Avesto**»da shunday ta'rif beriladi: *«Inson fikran ham, xayolan ham hasadgo'y bo'lmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi hech qachon darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi, chunki johillik holatida u yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolatni unutib, nojo'ya harakatlar qiladi».*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni konstitutsiyaviy

normalar asosida bosh maqsad qilib belgiladi. «**Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, – bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni paytda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo qiladi»**[1]. *Buning uchun birinchi navbatda mamlakat aholisining, jumladan, yoshlarning fuqarolik madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularni g'amxo'r, mehribon, insonparvar, o'z burchi va mas'uliyatini teran anglaydigan qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Zero, yoshlarda fuqarolik madaniyatining shakllanishi ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.*

Bugungi kun fuqarolik madaniyatining mazmunida xalqimizning axloqiy-huquqiy burch to'g'risidagi tasavvurlari, milliy ruhiyati, yuksak insoniy fazilatlari, ma'naviyati, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot uchun kurashi, xolis maqsad-muddaolari, orzu-istaklari mujassamlashgan.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, fuqarolik madaniyati inson, ayniqsa, talaba yoshlar hayotida muhim o'rin egallaydi. Fuqarolik madaniyatining quyi darajasi inson hayotining barcha tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ba'zi yoshlarning iqtisodiy jihatdan kam ta'minlanganligi emas, balki ma'naviy qashshoqligi, madaniyatsizligi tufayli turli vayronkor oqimlarga qo'shilayotgani sir emas. *Zero, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega ekanligi Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanganligi bejiz emas.*

Fuqarolik tuyg'ularining pastligi va qashshoqligi, burch va mas'uliyat, o'z Vatanidan faxrlanish tuyg'usini, milliy iftixorni his qilmaslik yoshlarning ushbu oqimlarga ergashishiga sabab bo'lmoqda.

Jamoada u yoki bu darajada hurmat va e'tiborga loyiq bo'lish ham fuqarolik madaniyatining bir ko'rinishi bo'lib, u inson hayotining iqtisodiy va ma'naviy tomoniga u yoki bu yo'l bilan albatta ijobiy yoxud salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, inson halol, nomusli, pok qalbli, o'ziga talabchan bo'lmasdan turib, madaniyatli, yetuk bo'lishi

[1] Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O'zbekiston», 1998, 554-bet.

mumkin emas. Chunki har qanday inson muayyan vaziyatlarda o'zini boshqara olish, qabul qilingan tartib-intizom, axloqiy-huquqiy me'yor qoidalariga muvofiq yoki aksincha, mazkur qonun-qoidalarga xilof ravishda yo'l tutishni o'zi mustaqil hal qiladi, o'z xatti-harakati va qilmishlariga shaxsiy dunyoqarashi, fuqarolik madaniyati nuqtayi – nazaridan baho beradi. Ushbu o'rinda shuni ham alohida e'tirof etish joizki, har bir inson shaxsiy qiyofasining ma'naviy shakllanganligi, jumladan, fuqarolik madaniyatining tarkib topishi va rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishini inobatga olishi darkor.

Hozir biz butunlay yangi tarixiy sharoitda, davlat va xalq ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, inson orzu-intilishlari erkin hal bo'layotgan bir davrda yashayapmiz. Bunday sharoitda fuqarolik madaniyatini shunchaki axloqiy-huquqiy burchga munosabat, xalq va Vatan oldidagi mas'uliyat sifatida sodda tushunmaslik kerak. Fuqarolik madaniyatining har bir yo'nalishi va funksiyasi yangicha xususiyat kasb etib, chuqur mazmun bilan boyitib borilishi lozim. Chunonchi, fuqarolik madaniyati ma'naviyatli, ma'rifatli insonlar o'rtasidagi munosabatlardan tortib, dunyoviy muammolarni hal etishgacha bo'lgan vazifalarni qamrab olmoqda. Yoshlarning fuqarolik madaniyati yuksalgani sari ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirok etishlari tezlashib mukammallashmoqda.

Ma'lumki, bir ijtimoiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga o'tish davrida g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy sohada ham muayyan muammolarni hal etish zaruriyati yuzaga keladi. Bu qonuniyat totalitar tuzumdan insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tilayotgan bir sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy-madaniy masalalarni anglash, ularning mohiyatini tushunish va mas'uliyatni zimmaga olish ancha qiyin ishdir. Buning uchun, avvalo, har bir inson yangi tuzum, uning shart-sharoitlari, mazmun-mohiyatini teran anglashi, unga o'zini tayyorlab borishi, axloqiy-huquqiy burch, fuqarolik mas'uliyati ko'nikmalarini o'zida hosil qilishi darkor. Har bir fuqaro bunga ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lishga aql, tafakkur elagidan o'tkazishi lozim. Qotib qolgan tushunchalar qobig'ini singdirish, tubanlik, boqimandalik, madaniyatsizlik kayfiyatidan birdan holi bo'lish, albatta oson emas. Fuqarolik madaniyati ilg'or fikrlarni tez anglashga asoslanib, doimiy harakatdagi jonli pedagogik hodisadir.

Fuqarolik madaniyatining shakllanishi davr xarakteri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot shart-sharoitlari bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, har bir mamlakat o'z iqtisodiy-siyosiy ustqurmasiga asoslangan holda fuqarolar dunyoqarashini, shu jumladan, fuqarolik madaniyatining yangi-yangi tartiblari, me'yorlarini vujudga keltiradi. Bularning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi uchun vaqt zarur bo'ladi. Bugungi davr ham murakkab, o'z xususiyatlariga ega. Shuning uchun yoshlarda fuqarolik madaniyatining shakllanishi silliq va oson kechmaydi. Buning uchun vaqt va tarbiyaviy ta'sirlar tizimini yaratish kerak bo'ladi. Ammo ta'kidlash joizki, fuqarolik madaniyati va ongni yoshlarda shakllantirish bu kunning kechiktirib bo'lmaydigan masalasidir.

Fuqarolik madaniyatining inson hayoti uchun muhimligining yana bir tomoni uning barcha madaniyat sohalari uchun yetakchi ekanligidadir. *Ilg'or ilmiy ta'limotning ta'kidlashicha, fuqarolik madaniyati axloqiy-huquqiy burchga munosabatni anglatuvchi omil sifatida aqliy tafakkur, hayotiy tajriba va ruhiy malakalarga asoslanadi. Ko'p davrlarda fuqaro va inson tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida e'tirof etilib, fuqaroga kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining bir quroli sifatida qarab kelingan. Uning madaniy dunyosi, ruhiy olami, tafakkuri, yaratuvchanlik faoliyati e'tibordan chetda qolgan. Buni birinchilardan bo'lib aniqlagan va ruhiy-pedagogik muammo tarzida ko'rib chiqqan avstraliyalik psixolog olim Zigmund Freyddir. U insonni, uning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini* **«odam, shaxs, ruhiyat, fuqaro»** *tizimida o'rganib, ruhiyatning fuqaro madaniyatiga, madaniyatning inson bunyodkorligi, yaratuvchanligi, ijodiy faoliyatiga va haqiqiy shaxs bo'lib shakllanishiga ta'sirini ilmiy isbotlab berdi.* **Zigmund Freydning fikricha, insonning ruhiyati uning madaniyati bilan bog'liq holda ong, ong osti va ongsizlik kabi qatlamlardan iborat tarzda, insonning ijodkorligini, yaratuvchanligini, ruhiy energiyasini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi va ijobiy tus olgan taraqqiyotini ta'minlaydi. Shuning uchun ham madaniyat va ruhiyat fuqarolik va millat madaniyati hamda jamiyat madaniyatining shakllanishini tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.**

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida (2002-yil, 29-avgust) **«O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»** mavzusidagi ma'ruzasida O'zbekiston demokratik

o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning yetakchi yo'nalishlari xususida to'xtalib: «**Biz uchun eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad, tengsiz oliy ne'mat-mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi**»[1], -degan edi.

Yurtboshimiz alohida ta'kidlab o'tganidek, oliy ne'mat–mustaqillikni mustahkamlash, taqdirimizni o'z qo'limiz bilan qurish uchun mamlakat mehnatkashlari, eng avvalo, yoshlarning siyosiy-ma'naviy faolligini oshirish, **fuqarolik madaniyati** mazmunidan o'rin olgan **Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan tuyg'usi, Vatan faxri** kabi tushunchalarni ular ongiga singdirishi lozim. Shuning uchun ham bir ta'lim muassasasi o'qituvchi-pedagog va tarbiyachisi o'z o'quvchi - talabalarining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda mustaqillik g'oyasining mohiyat-mazmuni to'g'risida ma'lumot berar ekan, *avvalo, o'quvchi - talabalarda burch, mas'uliyat, fuqarolik tuyg'usi, faxr, iftixor birligini tarbiyalashga harakat qilmog'i zarur.* Shunga asosan o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar o'quvchi - talabalar bilan o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishda maxsus ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan oqilona foydalana olishlari darkor. Chunki o'quvchi-talabalarning faoliyati davr hayoti, tarixi bilan bog'liq va u milliy-madaniy harakatlarga ega. Zero, o'quv-tarbiya jarayoni o'quvchi-talaba yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, axloqiy-huquqiy dunyoqarashini shakllantirish, rivojlantirish jarayonidir.

Shuning uchun ham o'quvchi - talabalar shaxsini shakllantirish, ularda fuqarolik madaniyatini tarbiyalash uchun ma'lum talablarga rioya qilish, xatti-harakat, tartib-intizomni maqsadga yo'naltirish, ijrosini nazoratga qilish, ijtimoiy-tarbiyaviy tadbirlardan o'rinli foydalanish va boshqarish ishlarini amalga oshirmoq darkor. Ushbu asosda fuqarolik madaniyati o'quvchi - talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini anglashi, o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, axloqiy-estetik tuyg'u, ideallarning shakllanganligi, dovyuraklik va jasurlik, tashabbuskorlik va bunyodkorlikning shaxsiy fazilat tarkibida namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar har bir o'quvchi-talabada. fuqarolik madaniyatini shakllantirish dasturi va kundalik daftarlarini tashkil etsa hamda natijalarni ularda qayd etib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

---

[1] Islom Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakl va asosiy yo'nalishlari. – T.: «O'zbekiston», 2002, 5-bet.

Fuqarolik madaniyatining mohiyati-mazmuni va uning yoshlar hayotidagi o'rnini nazarda tutib, ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning kuchli fuqarolik jamiyatini qurish to'g'risidagi fundamental asarlari va ma'ruzalari asosida fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik madaniyatini shakllantirish bo'yicha mulohazalarni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini o'rganish yordamida talaba-yoshlarda axloqiy-huquqiy burch, mas'uliyat, fuqarolik tuyg'usini shakllantirish;

– turli millatga mansub bo'lgan ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalarida millatidan qat'i nazar o'z davlatining mustaqilligi, uning ramzlari – gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat bilan qarash, ulardan faxrlanish his-tuyg'ularini tarbiyalash;

– hozirgi davr – dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega bo'lib borayotgan bir vaqtda o'quvchi - talabalar mafkurasida ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik mas'uliyati ko'nikmalarini hosil qilish va ularni rivojlantirish;

– ta'lim muassasalari o'quv rejasidan o'rin olgan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchi–talabalarda fuqarolik madaniyati asoslarini tarbiyalashga erishish;

– fuqarolik madaniyati to'g'risida talaba-yoshlarga ma'lumot berib, ularda fuqarolik burchi, fuqarolik mas'uliyati, huquqi, odobi, faoliyati, his-tuyg'ulari va ko'nikmalarini tarbiyalash;

– o'quvchi–talabalarda o'tmish merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, an'analarga hurmat, ularni asrab-avaylash, ko'paytirish hamda ular bilan faxrlanish, g'ururlanish hissini tarkib toptirish;

– ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchi-talaba yoshlarda Vatan, xalq, millat ishiga sodiqlik, yurt, mehnatkashlar manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'ya olish va fidoyi, insonparvar fuqaro bo'lish ishtiyoqi va ehtiyojini tarkib toptirish hamda talaba-yoshlarga «**Faol fuqaro**», «**Komil fuqaro**», «**Yurtparvar fuqaro**», «**Mustaqil fuqaro**» *kabi tushunchalar haqida ma'lumot berib, bu tushunchalarni ular ongiga singdirish;*

– ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni yaratuvchi, uni e'zozlovchi hamda turli ofatlardan himoya qiluvchi fuqaro bo'lish his-tuyg'usini har bir o'quvchi-talaba yoshlar ongiga singdirish;

– *fuqarolik madaniyatining milliy g'oya va milliy ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini e'tirof etgan holda o'quvchi-talabalarda milliy g'oya va milliy ma'naviyatga ishonch, e'tiqod ko'nikmalarini hosil qilishga erishish;*

– *insonning insonligini ro'yobga chiqarishda fuqarolik madaniyatining yetakchi omil ekanligini inobatga olib, o'quvchi-talaba yoshlarda fuqarolik madaniyatining insonparvarlik, vatanparvarlik, o'zligini anglash, imon, e'tiqod kabi sifat ko'rsatkichlarining tarkib topishiga amaliy yordam ko'rsatish*[1].

Barkamol avlod tarbiyasida esa yosh avlodda **fuqarolik tuyg'usi** asoslarini shakllantirish va rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu xususda Yurtboshimiz **«O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»** nomli asarida : «**O'qituvchiga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim, ya'ni butun xalq farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun nima oldim? Zimmadagi burchni qanday ado etdim?**» *tarzidagi savollarga javob topish kerak, –deb, ta'kidlagan edi.*

Binobarin, fuqarolik tuyg'usi milliy ongi, psixik olamning eng yuksak ko'rinishida bo'lib, har bir o'quvchi-talabada ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida huquqiy qoidalar, tartibli burchlarga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, hayotda faol qatnashish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligini ifodalaydi. Demak, fuqarolikni tarbiyalash o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy va axloqiy normalarga ongli munosabatda bo'lishi: ularga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, fuqarolik faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish; o'quvchi-talabalarda xalq o'tmishi, qadriyatlarga muhabbat va ulardan g'ururlanish, iftixor hislarini paydo qilish Vatan, yurt ozodligini e'zozlash, ardoqlash va himoyalashni tarbiyalash, davlatimiz ramzlariga hurmat hissini shakllantirish; huquqiy madaniyatni tarbiyalash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Ma'lumki, o'quvchi-talaba yoshlarda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy-xulqiy odatlarni, huquqiy madaniyatni shakllantirib bo'lmaydi. Zero, o'quvchi-talaba yoshlarni e'tiqodli, fidoyi fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish bilan jamiyat rivoji ta'minlanadi.

---

[1] B.Xo'jaev. Fuqarolik madaniyatini egallash zaruriy ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. «UZLUKSIZ TA'LIM»,2006 yil. 5-son, 98-bet.

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan fuqarolik tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish har bir o'quvchi-talabada mustaqilligimiz, erkinligimiz va ezgu maqsadlarga to'la erishish his-tuyg'usini tarbiyalab, ularda fuqarolik madaniyatining muhim omili – Vatanimiz istiqlolini himoyalash fuqarolik burchi va mas'uliyatining oliy darajasi ekanligini anglashlariga ko'maklashadi. Zero, bu xususiyatlar har bir mamlakat fuqarosi uchun kuch-quvvat va ruhiy boylik bo'lib, ertangi kunimizning ishonchli poydevori va kafolatiga aylanadi. Vatanimiz taraqqiyotida yoshlarimizning fuqarolik madaniyati va fuqarolik tarbiyasi qudratli kuch bo'lib xizmat qiladi.

8.11. MUSTAQILLIK TARBIYASI

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodda imon, e'tiqod, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ishbilarmonlik kabi ma'naviy–axloqiy xislatlarni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya sohasida milliy umuminsoniy va islom an'analari, qadriyatlaridan foydalanish, umuman, o'quvchi-talaba yoshlarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsadi va vazifasidir. Aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat, shuningdek, milliy mas'uliyat tuyg'usini anglab yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mamlakatdagina mustaqil va barqaror rivojlana oladi.

Milliy istiqlol mafkurasi negizida yoshlarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash yotadi. **Mustaqillik ruhida tarbiyalash o'quvchi-talaba yoshlarni milliy g'urur, milliy ong, milliy tushuncha, milliy tafakkur, milliy o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi.**

Bugungi kunda yoshlarimizga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni obyektiv baholashi, mustaqillikning zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglashi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularning mustaqillik tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada, eng avvalo, *mustaqillik, mustaqil davlat, mulkiy mustaqillik, adolat, an'analar, umuminsoniy an'analar, milliy an'analar, Vatan, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik, milliylik, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, manfaatlar, milliy g'urur, urf-odatlar va rasm-rusumlar, ma'naviyat, milliy g'oya va boshqa qator asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini va pedagogik asoslarini yoritib berish zarur.*

Shu o'rinda, Prezidentimiz Islom Karimovning **«Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'»** nomli asarida qayd etilgan yoshlar mustaqillik tafakkurini va mustaqillik tarbiyasini rivojlantirish borasidagi **«Har bir insonning, ayniqsa, endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir»**, degan fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur fikrga asoslanib aytishimiz mumkinki, shaxsning mustaqillik tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatining asosli va aniq tarzda o'quvchi-talabalarga tushuntirib berilishi, ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqimiz turmush darajasining o'sib borishi kabi yo'nalishlarda tasavvur hosil qilish asosida dunyoqarashi o'zgartiriladi. *Shuningdek, o'quvchi-talabalarda Vatanga muhabbat, e'tiqod va sadoqat, davlat ramzlariga, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik, kelajakka ishonch tuyg'ularini,* **mustaqillik tafakkuri***ni shakllantiradi va* **mustaqillik tarbiyasi***ni rivojlantiradi. Buni biz quyidagi 1-shaklda shaxsni* **mustaqillik tafakkurini va mustaqillik tarbiyasini shakllantirish hamda rivojlantirishning pedagogik asoslari** *bilan bog'liq tushunchalarni mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritilishida ko'rishimiz mumkin.*

Hayotda **«mustaqillik»** *tushunchasi juda keng qo'llaniladi, masalan, davlat mustaqilligi, mulkiy mustaqillik, shaxs mustaqilligi, fikrlashda mustaqillik, hayot kechirishda mustaqillik, ma'lum bir vazifani bajarishda mustaqillik, ta'lim olishda va o'rganishda mustaqillik (mustaqil ta'lim), tarbiyada mustaqillik (o'zini-o'zi tarbiya) boshqaruvda mustaqillik kabi.*

Bunday iboralarni yana davom ettirish mumkin bo'lsa-da, bularning barchasiga, ya'ni xalqning yashashi, ijod qilishi, mehnat qilishi, o'zligini anglashi, fikrlashi, tafakkuri va e'tiqodi kabi yo'nalishlarda erkin va mustaqil bo'lishiga shart-sharoitlar yaratib beruvchi mustaqillik, bu butun bir xalqning taqdiri bilan bog'liq bo'lgan mamlakat mustaqilligi bo'lib, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

MUSTAQILLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA MUSTAQILLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

- **O‘zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish.**
- **O‘zining, o‘z xalqining, Vatanining qadru qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish.**

Yuksak g‘oyalar, yangi fikriy kashfiyotlarning, niyatlar og‘ushida mehnat qilib iste’dodi, bor imkoniyatini, kerak bo‘lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir.



«Mustaqillik degani shuki, biz, asrlar osha birovlarning og'ziga qarab yashagan xalq, nihoyat, o'z taqdirimizni, hayotimizni, kelajagimizni o'z qo'limizga oldik. Eng muqaddas vazifa bu buyuk ne'matni qo'ldan bermaslik»[1].

«Mustaqillik bizni mustabit va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, o'zbek xalqiga o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurish, o'z madaniyati va an'analarini, qadr-qimmati, dini va e'tiqodini, ona tili va ma'naviyatini qayta tiklash imkonini berdi»[2].

«Biz uchun mustaqillik – o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo, o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir»[3].

Mustaqillik-qadriyatlarni tiklash, rivojlantirishning asosi. Mustaqillik–xalqimizning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy qadriyatlarini, avvalo, ajdodlarimizning tarixiga, ilmu faniga, falsafasiga, madaniyatiga, ma'rifatiga, tiliga doir noyob merosni tiklash, asrab-avaylash, rivojlantirish asosidir.

Mustaqillik–xalq, Vatan har bir yigit va qizning, har bir fuqaroning jismoniy-ruhiy kamol topishining negizidir. Hur o'lkamizning keng bag'rida jismoniy-ma'naviy poklanish yuz bermoqda. Zero, jismoniy-ma'naviy poklik insonni barcha jonzotlardan ajratib turuvchi ulug'vor sifat hisoblanadi.

Mustaqillik iqtisod bilan ma'rifatni uyg'unlashtirdi, insonparvarlikni, insonning jismoniy va ma'naviy sog'lomligining ustuvorligini, komil insonni shakllanishini, muqarrar mag'rur yashashini ta'minlovchi sharoitlar yaratib berdi.

Mustaqillik zaminida xalqimizning milliy ongi, g'ururi, tafakkuriyu, shuuri uyg'onib, jo'sh urib turuvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehnat ahlining billur aqli va odobi rivojlanib, yashnab, farovon hayot qurishga yo'naltirilmoqda.

Mustaqillik O'zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon

[1] Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: «O'zbekiston», 1999, 175-176-betlar.
[2] Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992, 13-bet.
[3] Islom Karimov. Inson baxt uchun tug'iladi. –T.: «Sharq» 1998, 3-bet.

erkinligi va har bir shaxs kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inson o'z ehtiyojlarini qondirish va ko'zlagan maqsadlariga erishishi uchun tinchlik, mustaqillik, erkinlik zarur bo'lib, buning uchun, eng avvalo, yashayotgan yurt, ya'ni davlat mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etishini anglashimiz mumkin.

Demak, o'quvchi-talabalarga mamlakat mustaqilligi, uning mazmun-mohiyati va zaruriyati to'g'risida tushunchalar berishda **«mustaqil davlat»** tushunchasi mazmun-mohiyatining asoslanib berilishi tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'quvchi-talabalarga mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini tushuntirishda **mustaqil davlat** (arabcha, **«mustaqil»-qaram emas, erkin**) – *davlatning asosiy shakli ekanligi hamda davlat tushunchasining o'zi mustaqillikni anglatishi, mustaqil davlatning eng muhim belgilari, ya'ni shaxslarni fuqarolikka qabul qilish va ularni fuqarolikdan mahrum etish; xorijiy davlatlar bilan mustaqil ravishda aloqalar o'rnatish yoki bu aloqalarni uzish; o'z xazinasi va pul birligini – milliy valutasini joriy qilish; o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini o'zi belgilay olish; o'zi ma'muriy tizimini o'z belgilash; so'rov (referendum) e'lon qilish hamda hokimiyat va boshqarish organlari tartibini belgilash; sud tizimi, sud tuzilishi va sud ishlarini o'zi yuritish huquqlariga, shuningdek, davlat o'z asosiy qonuni, o'z Konstitutsiyasiga; jinoyat va fuqarolik, oila va nikoh, uy-joy, yer, suv to'g'risidagi qonunlarga; o'z davlat ramzlari: davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi va o'z poytaxtiga; o'zining asosiy tili (davlat tili)ga (butkul maxsus qonun asosida yoki tarixiy an'ana bo'yicha aniqlanishi); o'z davlat budjetiga, o'z mulkiga, moliya va moliya tizimiga; o'zining harbiy tuzilmasiga va milliy qo'shiniga dahlsiz o'z hududiga va daxlsiz davlat chegarasiga ega ekanligi hamda davlat hokimiyati uch asosiy tarmoqqa qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatiga bo'linishi haqida ma'lumotlar berilishi zarur.*

O'quvchi-talabalarga mustaqillik va uning mazmun-mohiyatini tushuntirishda mulkiy mustaqillik tushunchasi bo'yicha ma'lumotlar berish ham o'ziga xos ahamiyatga molikdir.

Mulkiy mustaqillik – fuqarolarda mulkka egalik qilish, boshqarish, foyda olish va hokazolar uchun beriladigan erkinlik huquqidir. Demokratik huquqiy davlat fuqarolarning eng muhim huquqlaridan biri, O'zbekistonning mulk to'g'risidagi qonunida mulkiy huquqlarning

barchasi ko'rsatilgan. Mazkur qonunning birinchi bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida mol-mulkning mavjud ekanligi va unga nisbatan egalik huquqining bo'lishi tan olinadi, har bir mulkdorning o'z mulkiga nisbatan huquqqa ega ekanligi inkor etilmaydi va u tegishli qonunlar orqali himoya qilinadi. Mulkdor boshqalarning emas, balki o'zining istagi, roziligi moyilligi, xohishiga ko'ra, o'z mol-mulkiga egalik qiladi.

Mustaqillik tufayli mulkiy mustaqillik vujudga keldi, hayotimiz boyidi, xalqimizning turmush darajasi o'sdi, dunyoqarashi o'zgardi, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, yangilanib bormoqda. Davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida belgilandi. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urf-odatlarning uyg'unligida shakllanib borayotganligi mustaqil O'zbekistonda adolat qoidalari tantana qilayotganligini ifodalaydi, deb aytishimiz mumkin.

Mustaqillik tufayli adolat qaror topdi, adolat qoidalarining tantana qilayotganligining umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy an'analarning tiklanganligida ham ko'rishimiz mumkin. Bularni qadrlash va asrash mustaqillikni mustahkamlash yo'nalishida qator vazifalarni belgilaydi.

Nazarimizda, qadriyatlar, umuminsoniy va milliy an'analar bo'yicha o'quvchi-talabalarning tushunchalarini rivojlantirib borish mazkur vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuminsoniy va milliy an'analar-jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi ajdodlar hayoti va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

Vatanga muhabbat, oilaga sadoqat, ota-onaga izzat-hurmat, kattalarga, qariyalarga ehtirom kabi an'analar umuminsoniydir. Chunki ular har bir millatda, elatda va el-yurtda bor. Ularning namoyon bo'lishi esa har bir xalqda turlicha. Bunday xilma-xillik xalqning, elning tarixi va hayotiy shart-sharoitlari bilan mushtarak.

Milliy an'analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish

ko'rinishi. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalardagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkazadi.

Milliy an'analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo'ladi. Millatning har bir avlodi milliy an'analarni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Millatning tanazzuli milliy an'analarning ham tanazzulidir.

Xalqimizning tarixiy qadriyatlaridan hisoblangan **Navro'z bayrami**ni milliy an'analardan biri sifatida keltirishimiz mumkin. **Navro'z** (*forschada,* **«navro'z»- yangi kun ma'nosini anglatadi**) – *Turon Movarounnahr, O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy an'anaviy* **Yangi yil bayrami.** *Shamsi hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22-martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navro'zni bayram qilib o'tkazish ahamoniylar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan.*

Mustaqillik sharofati bilan 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan **«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»**gi va **«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»**gi qonunlar qabul qilindi hamda **1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami** va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Eng quvonarli joyi shundaki, Mustaqillik kuni xalqimizning eng katta bayramiga, ya'ni milliy an'anaviy bayramiga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchi-talaba yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda milliy ma'naviyat va qadriyatlardan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

8.12. VATANPARVARLIK TARBIYASI

Ma'lumki, milliy istiqlol mafkurasining negizida yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash yotadi. *Mustaqillik ruhida tarbiyalash yoshlarni milliy g'urur, milliy iftixor, milliy ong, o'z-o'zini anglash,* **vatanparvarlik tuyg'ularini** *shakllantirishni taqozo etadi.*

Shu boisdan milliy istiqlol mafkurasi negizida **vatanparvarlik g'oyalari** *ilgari surilmoqda.*

Prezidentimiz I.A.Karimov «Mustaqillikni mustahkamlash asosan 4 ta negizga asoslanadi», – deb ko'rsatadi; ya'ni:

– umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

– xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish va rivojlantirish;

– insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

– vatanparvarlik[1].

Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. «**Vatan**» *arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida* «**Ona yurt**» *degan ma'noni anglatadi.* Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo'lgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o'z oilasiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Vatanparvarlik bu umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lib, u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarhadlarini tashqi dushmandan himoya qilish, uning mustaqilligi, obodligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok qilmoqdir.

Mustaqil O'zbekiston yoshlarining vatanparvarligi uning Vatanni his qilishida, Vatanga bo'lgan his-tuyg'usida ifodalanadi. *Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lish, xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodirligini tan olishdan, buyukligini e'tirof yetishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilish kerak. O'zbekiston deganda o'zbek xalqining, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas.*

Darhaqiqat, Vatan tuyg'usini o'zida mujassam etgan shaxsgina Mustaqil jamiyat va xalq manfaati, uning baxt saodati uchun kurashadi. O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil davlatimizning umumbashariyatga o'zining faolligi bilan tanishtiradi va xalqimizning o'rtasida inoqlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog'i kerak. Ayniqsa, yoshlarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatiga munosib qilib tarbiyalash ta'lim muassasalarida faoliyatni davr talablari, mustaqillik ruhi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari asosida tashkil qilishni talab qiladi. Shuning uchun chuqur mas'uliyatni his qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan Vatan tuyg'usi bilan hamnafas bo'lib yashaydigan yoshlarni tarbiyalash o'qituvchi-tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

[1] Islom Karimov. O'zbekiston kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998, 56-bet.

Vatanparvarlik — umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sodiqlikning negizi sifatida hayotimizni farovon va erkin qilish yo'lida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun jon fido etishga tayyor bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazishni talab qiladi.

Qadimgi yunon adiblaridan biri «**Vatan sha'niga**» *asarida: «Mening bu gaplarim g'oyat eski gapdir, lekin haqiqat shunday, o'z otasini hurmat qilmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qilmaydi, o'z Vatanini sevmagan kishi o'zgalar Vatanini qadrlay olmaydi» –deb yozgan edi. Bu gaplar hozir naqadar zamonaviydir.*

Vatan *– bu odamlar tug'ilib o'sgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini topgan, xalq tarixi bilan bog'langan hamda tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitdir.*

Vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, axloqiy his-tuyg'u sifatida insonning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ldi. Ijtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'lariga, elu yurtga, ona tiliga, urf-odatlarga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, jamiyat va sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib boradi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylanadi. Buyuk mutafakkirlardan biri: «**Biz tug'ilgan yurtimizdan uzoq ketsak, bizni tortib keladurg'on quvvat o'z Vatanimizning, ona tuproqning mehr-muhabbatidir**» deb bejiz aytmagan.

Biz «**Ona Vatan**», «**Vatan tuprog'i**», «**Vatan adabiyoti**», «**Vatan tuyg'usi**», «**Vatan tarixi**» deb baralla gapiramiz, chunki bularning hammasi inson uchun muqaddasdir. Xalqimizda Vatan haqida ko'plab naqllar bor. «**Bulbul chamanni sevsa, odam Vatanni**», «**Onaga bo'lgan muhabbat Vatanga bo'lgan muhabbatni kurtagi**», «**Har kimning o'z elati o'ziga shirin**» va hokazolar. Bu naqllar Vatan va uning zaminida yotuvchi vatanparvarlik tuyg'usiga xosdir. Vatanparvarlik tuyfayli Vatanimiz jahonga tanilmoqda.

Vatanparvarlik tuyg'usi, tarbiyasi, ota-onaga, o'z mahalla, qishlog'iga, tuman, shahar, viloyat, respublikasiga bo'lgan cheksiz muhabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo'lgan mislsiz va tengsiz hurmat va sadoqatdan boshlanadi.

Vatan tuyg'usi ko'z o'ngida qurayotgan narsadan qoyil qolishda, uni hayratlantiradigan va qalbida aks sado beradigan narsalardan boshlanadi.

O‘qituvchi-murabbiylarning vazifasi yoshlar oladigan ko‘plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo‘lganlarini: eng yaxshi kishilari, jonajon o‘lka tabiati va hayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, Vatanning gullab yashnashi yo‘lidagi mehnatni, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Jonajon ona tabiat yoshlarni Vatanga muhabbatini tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go‘zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o‘zgaruvchanlik rolini tushunishigacha – jonajon o‘lkaga muhabbatni shakllantirishning manbaidir.

Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Chunki uning obrazlarida Vatan o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Odam Vatanga bo‘lgan muhabbatini o‘zi tug‘ilgan va o‘sgan oilasi, bolalar bog‘chasi, maktabi, bolalar bilan o‘ynaydigan o‘yinlarni va joylari bilan bog‘laydi.

Vatanga muhabbat – eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bu his maktab yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazliligini e’tiborga olgan holda ma’lum izchillik bilan tarbiyalab borish lozim. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo‘lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Kichkina guruhda Vatanga muhabbat hissi o‘z uyiga, bog‘chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Bolalar ota-onalari va pedagoglar ularga qanday g‘amxo‘rlik qilayotganini ko‘radilar va his etadilar. Natijada bolalarda ularga bo‘lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g‘amxo‘rligi va himoyasiga ishonch hosil qiladilar.

Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Hadisi sharifda «**Vatanni sevmoq iymondan**»dir, deb bejiz aytilmagan.

O‘qituvchi-tarbiyachilarda yoshlarni Vatanga muhabbat, faxrlanish, xalq yutuqlaridan faxrlanish, uning dushmanlariga nafrat tuyg‘ularini tarbiyalashlari maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda:

1. Vatanni sevmoq uning burchi, vijdoniy burchi ekanligini anglab yetishga erishmoq lozim.

2. Ona-Vatanga muhabbat, uni sevish, e’zozlashga o‘rgatish, tug‘ilib o‘sgan oilasi, mahallasi, shahri va o‘lkasi bilan tanishtirish orqali unga muhabbatni shakllantirish.

3. Mustaqil O'zbekiston tushunchasining mohiyatini o'quvchi-talabalar ongiga singdirish.

4. Yoshlarni xalqimiz an'analariga, udumlariga, tili va madaniyatiga, ruhiyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatish.

5. Buyuk daholarimiz qoldirgan ma'naviy meroslarni asrab-avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish.

6. Yoshlarda sog'lom kuch, sog'lom tafakkur, imon-e'tiqodni uyg'otish.

7. Vatan oldidagi mas'uliyat, milliy manfaati uchun kurashning mohiyatini anglash.

8. O'quvchi-talabalarda unib o'sgan yurtga, voyaga yetkazgan ota-onasiga, ta'lim-tarbiya bergan ustoziga ta'zim qilish odobini shakllantirish lozim.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalar Vatan va vatanparvarlik egizak ekanligi haqida bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-siyosiy g'oyalar *(Vatanga sadoqat, mustaqillik uchun kurash)* go'zalligini tushunish va his etish har bir o'quvchi - talaba shaxsiy his-tuyg'ulari go'zalligini anglash va avaylash orqali vujudga keladi. Shaxsiy tuyg'ular musaffoligisiz fuqarolik tuyg'ularining sofligiga erishib bo'lmaydi.

Xullas, biz ijtimoiy tarbiyaning turli yo'nalishlari orqali yoshlarga oila, aqliy, axloqiy estetik, mehnat, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillik, vatanparvarlik tarbiyasi berish; iroda, his-tuyg'u, tasavvur, idrok, tafakkur, xotira, diqqatni takomillashtirishdan, shuningdek, xulq-atvor, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchini anglash va go'zallikni his etishni shakllantirish bilan bog'liq pedagogik masalalarni atroflicha ko'rib chiqdik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaning hamma yo'nalishlari – oila, aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillik, vatanparvarlik, barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Tarbiya individuallikni, subyektiv olamni taraqqiy qildirishga, ijtimoiy, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillik, vatanparvarlik va boshqa tarbiya tizimini jamiyat ideallariga muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan.

O'quvchi-talabalarni barkamol inson qilib tarbiyalashning hozirgi zamon **umumiy tarbiya tizimi asosida quyidagi tarkibiy qismlar**

yotadi: tarbiyaning maqsadi, vazifalari va sabablarini anglash; muayyan bilimlarni egallash; shaxsda maxsus qobiliyat, axloqiy sifatlarni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni amaliyotga tatbiq eta olish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga tayanuvchi **pedagogika nazariyasida** tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash birinchi holda quyidagi tamoyillarga asoslanadi: *shaxsning erkin rivojlanishi; insonparvarlik-shaxsning mutlaq qadriyatliligini tan olish; demokratiya – o'quvchilar va talabalar bilan muallimlar va pedagoglarning o'zaro munosabatida tengligi; fuqaroviylik – ijtimoiy sohada o'z o'rni va qadr-qimmatini anglash; retrospektivlik tarbiyalashni xalq pedagogikasi an'analari, Sharqning ulug' mutafakkirlari g'oyalari asosida olib borish; milliy, umumbashariy va boshqa me'yorlar hamda qadriyatlar ustuvorligi.*

O'quvchi-talabalarni tarbiyalash tizimining tashkiliy-mazmuniy asoslarini o'zgartirish va takomillashtirishga imkon beruvchi quyidagi **metodologik-pedagogik; psixologik-pedagogik; nazariy-pedagogik; huquqiy-pedagogik** ustuvor talablarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Birinchidan, o'quvchi-talabalarni tarbiyalashning metodologik-pedagogik talablariga quyidagilar kiradi: *shaxs, uni shakllantirish, rivojlantirish va tarbiyalashga doir talablari hamda qoidalari; tarbiyaning zamonaviy mafkurasi; tarbiyani jamiyatimizga xos g'oyaviy tamoyillar, ko'rsatmalar, yuksak axloq, ijobiy manfaat va ehtiyojlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi vatanparvar fuqaroni shakllantirishga yo'naltirish; tarbiyalanuvchilarni fuqaroviy, axloqiy, kasbiy, hayotiy jihatlardan o'zini-o'zi anglashga yo'naltirish zarurati; mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga muvofiq hayotiy pozitsiyani tarbiyalash ehtiyojini hisobga olish.*

Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarni tarbiyalashning psixologik-pedagogik talablari quyidagilarni hisobga olishni nazarda tutadi: shaxs rivojlanishi qonuniyatlari; tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari; o'quvchi-talabalarning individual o'ziga xosliklari; tarbiyalanuvchining shaxsiga e'tiborni kuchaytirish, uni mustaqil shaxs sifatida hurmatlash; tarbiya va ta'limning sabab, mavzu asoslarini tarbiya his-tuyg'u va fe'l-atvorini shakllantirishni aniq maqsadni ko'zlab boshqarish, yaxlit jarayon ekanligi; shaxs moyilligi, qobiliyati va qiziqishlarini uning imkoniyatlari hamda xohish-istagi, shuningdek, ijtimoiy talablarni hisobga olib rivojlantirish; tarbiyalanuvchining «ichki olami» (his-tuyg'u, sezgi, motivlar, qiziqishlar va ehtiyojlar; intellekt)ga ta'sir ko'rsatishning

intensivligi; bilimlarni chuqur anglagan e'tiqodga aylantirish, ongni shakllantirish.

Uchinchidan, tarbiyaning nazariy-pedagogik talablari *quyidagilarni nazarda tutadi: ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, nazariya va amaliyotni muntazam boyitib borish; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; tarbiya jarayonining murakkabligi, ko'p qirraliligi, o'sib boruvchiligi, harakatchanligi, o'zgaruvchanligi, uning davomliligi, uzluksizligi hamda dialektikligi, bosqichliligi va izchilligi; tarbiya jarayonining butligi - tarbiya va shaxsni shakllantirish g'oyasiga bo'ysundirilgan maqsad, vazifa, mazmun, shakl, uslublar, vositalarning birligi; mezonlar va ta'lim oluvchilarni tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirishning pirovard natijalari; ta'lim oluvchilarni erkin tarbiyalash; muayyan tushunchalar, tasavvurlar, bilimlar tizimini shakllantirish; yuksak madaniyatlilik, axloqiy, xulqiy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa fazilatlarni shakllantirish; tarbiya jarayonining mazmuni muayyan (aniq)ligi-u qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq faqat bilim berish emas, ayni paytda e'tiqod, ko'nikma, shaxsning sifat va fazilatlari, fe'l-atvoridagi barqarorlikni shakllantirish tizimi ekanligi; insondagi, jamiyatdagi ijobiylikka tayanish; tarbiyaning boy milliy o'ziga xosligi; tarbiyada xalqning milliy an'analari, uning madaniyati, estetik va badiiy qadriyatlarni yetkazish; tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashni uzviy birlashtirish orqali ta'lim oluvchilarni tarbiyalashini faollashtirish; o'quv muhitini tarbiyaga va olijanob insoniy his-tuyg'ular, munosabatlar hamda fe'l-atvorni shakllantirishga barqaror ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida nafislashtirish; tarbiyaga o'quv muassasasining atrof-muhit bilan o'zaro hamkorligining turli muqobillarni qamrovchi muhitiy yondashuv.*

To'rtinchidan, ta'lim oluvchilar tarbiyasiga huquqiy-pedagogik talablar quyidagilarni hisobga olishni taqozo qiladi: tarbiya jarayonini demokratlashtirish; o'qituvchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning tarbiyaviy ahamiyati; tarbiyaviy ta'sir sifatni ta'minlovchi shart-sharoitlar; tarbiyalovchilar faoliyatini aniq maqsadni ko'zlab uyushtirish; munosabatlar; shaxsni, birinchi galda, tarbiyalanuvchining emotsional, intellektual va irodaviy sohalarini qo'yilgan maqsad hamda ta'lim oluvchining ijtimoiy roliga muvofiq rivojlantirish; aniq tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi, ularning foydaliligi va amalga oshirilishining mumkinligi; axloqiy-etikaviy yo'nalishdagi tadbirlar; o'qituvchi-murabbiylarning va tarbiyalanuvchilarning ma'rifiy faoliyatini kuchaytirish;

shaxsni rivojlantirish, uni tarbiyalash, fe'l-atvori va faoliyatida yuz beradigan salbiy holatlarni bartaraf etish.

Beshinchidan, tarbiyaning ijtimoiy yo'naltirilganligiga *talabalar quyidagilarni hisobga olishni nazarda tutadi: shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat darajasida rivojlanayotgan inson sifatida tan olish; tarbiyaning maxsus ijtimoiy yo'naltirilganligi; hayot voqeligi bilan aloqalar, mamlakat ijtimoiy sohasi va iqtisodiyotiga, kasbning (mo'ljaldagi, tanlanayotgan yoki tanlangan) ijtimoiy ahamiyati; shaxsni, uning tarbiyasini ijtimoiylashtirish;ijtimoiy tajriba o'tkazish; muayyan ijtimoiy muhitda, jamiyatda hayotning, voqelikning yangi tomonlarini fe'l-atvorning yangi, yanada takomillashgan shakllari bilan egallash; ijtimoiy faollik tajribasi, ijtimoiy sifatlarni shakllantirishni rag'batlantiradigan ko'p qirrali, ijtimoiy ahamiyatli fe'l-atvorni rag'batlantirish; ijtimoiy yo'naltirilgan mashg'ulotlar, ishlar, topshiriqlar, amallar, tadbirlar vositasida ijtimoiy tarbilyalash; ijtimoiy tarbiyada tarbiyalanuvchilar va o'qituvchi-pedagog hamda tarbiyachilar hamkorligi; ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonda shaxslararo munosabatlar, o'zaro ta'sir, tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro aloqalarni uyushtirish; ta'lim oluvchilarning turmush tarzi, hayoti va faoliyatini uyushtirishni tarbiya jarayonining asosi sifatida bilish; ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni rivojlantiruvchi ijtimoiy uslublar, yo'llar, vositalar majmuasidan foydalanish; tarbiyalanuvchilarni o'zga kishilar hayot faoliyatida qatnashishga – barkamol shaxs bo'lishga ehtiyojini shakllantirish.*

Oltinchidan, tarbiya natijalariga talablar quyidagilardir: *Davlat ta'lim standartlarida, o'quv dasturlari topshiriqlarida tarbiya mezonlarini hisobga olish; tarbiyalanuvchilarning asosiy axloqiy va ijtimoiy sifatlariga, barkamol shaxs sifatidagi takomillashuviga ustuvorlik; tarbiya jarayonini nazorat qilish va yakunlarini chiqarishda olingan hamda mo'ljallangan natijalar mutanosibligini belgilash; tarbiyalanuvchilarga ko'rsatilgan ta'sirning ijtimoiy amaliyot (tarbiya va hayot) bilan muvofiqligini baholash.*

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlariga ega bo'lishni ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Oila tarbiyasi – bola shaxsini shakllanishi uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, u muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur, dunyoqarash shakllanadi.

Aqliy tarbiya – tabiatan berilgan aqliy kuch, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish haqida ko'zlangan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirish.

Axloqiy tarbiya – shaxsni axloqiy jihatdan yetuk qilib shakllantirishdir. Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i va madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan ishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Mehnat tarbiyasi–shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash demakdir.

Jismoniy tarbiya – muntazam ravishdagi jismoniy mashqlar orqali kishi organizmini har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sog'lomligini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq umr ko'rish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir.

Jismoniy madaniyat – keng tushuncha bo'lib, uning asosini jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish hamda ma'naviy takomillashuvlarning uyg'unlashgan ko'rinishidir.

Estetik tarbiya – o'quvchi - talabalarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, estetik tafakkurini shakllantirish.

Iqtisodiy tarbiya – jamiyat va davlat, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatni shakllantirish bilan bir qatorda tejamkorlikni, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, iqtisodiy hisob-kitob kabi iqtisodiy tushunchalarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarni yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Ekologik tarbiya – ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi-talaba yoshlarda atrofdagi olamga, atrof-muhit va uning muammolari yechimiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish.

Huquqiy tarbiya – o'quvchi-talaba yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarimizdagi fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, pensiya, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish borasida ular ongiga ijtimoiy-huquqiy normalarni shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirishdir.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasi mohiyatini anglash orqali o'quvchi-talabalarda yuksak darajadagi fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish va madaniyatini shakllantirish, ularni *Xalq, Vatan, Jamiyat uchun fidoyi insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir.*

Mustaqillik tarbiyasi – mustaqillik mazmun-mohiyatini va uning beshta tamoyilini turli vosita va omillar orqali yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Oila tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. O'quvchi-talabalarni tarbiyalashda oila-mahalla-o'quv muassasasi hamkorligining mazmun-mohiyati va vazifalari nimadan iborat?
3. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllarini tushuntirib bering.
5. Jismoniy tarbiyaning mohiyati va vazifalarini tushuntirib bering.
6. Jismoniy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
7. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati va vazifalari nimadan iborat?
8. Estetik tarbiya berishda asosiy vositalarning rolini izohlab bering.
9. Iqtisodiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
10. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.
11. Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
12. Ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
13. Huquqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.
14. Fuqarolik tarbiyasining mazmun-mohiyati va vazifalari nimadan iborat?

15. Fuqarolik tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning rolini izohlab tushuntirib bering.

16. Mustaqillik tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?

17. Mustaqillik va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari nimalardan iboratligini izohlab bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv muassasasi hamkorligi.
2. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.
3. Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.
4. Yoshlar dunyoqarashi va aqliy tarbiyasi masalalari.
5. Jismoniy tarbiya–barkamollik omili.
6. Yoshlarga estetik tarbiya berish yo'llari va usullari.
7. Iqtisodiy tarbiya mazmuni va uni amalga oshirish yo'llari.
8. Yoshlarni ekologik tarbiyasining dolzarb masalalari.
9. Huquqiy ta'lim-tarbiya demokratik huquqiy davlatni va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning poydevoridir.
10. O'zbekistonda istiqlol tantanasi va yoshlarni mustaqillik tarbiyasi.
11. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasining dolzarb masalalari.
12. Mehnat tarbiyasi va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. **Bilim, ko'nikma, malaka, aql, ong, fahm kabi tushunchalar qaysi tarbiya tarkibiga kiradi?**

a) axloqiy tarbiya;
b) aqliy tarbiya;
c) estetik tarbiya;
d) mehnat tarbiyasi;
e) jismoniy tarbiya.

2. **Go'zallikka muhabbat uyg'otish, did bilan kiyinish, tozalik, saranjom-sarishtalik qaysi tarbiya turining tarkibiy qismi hisoblanadi?**

a) huquqiy tarbiya;
b) axloqiy tarbiya;

c) ekologik tarbiya;
d) estetik tarbiya;
e) jismoniy tarbiya.

3. **Axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, mardlik, vatanparvarlik qaysi tarbiya turining tarkibiy qismi hisoblanadi?**

a) aqliy tarbiya;
b) axloqiy tarbiya;
c) huquqiy tarbiya;
d) estetik tarbiya;
e) mehnat tarbiyasi.

4. **Ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil nima?**

a) ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish;
b) ta'lim-tarbiyaning aloqadorligi;
c) o'qituvchi o'z oldiga qo'ya olgan maqsad;
d) axloqiy me'yorlar;
e) ijtimoiy ongni shakllantirish.

5. **Faollik, tejamkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabilar qaysi tarbiya turining tarkibiga kiradi?**

a) aqliy tarbiya;
b) axloqiy tarbiya;
c) ekologik tarbiya;
d) mehnat tarbiyasi;
e) iqtisodiy tarbiya.

6. **Ishchanlik, barqarorlik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, mustaqillik kabilar qaysi tarbiya turining tarkibiy qismi hisoblanadi?**

a) aqliy tarbiya;
b) mehnat tarbiyasi;
c) estetik tarbiya;
d) iqtisodiy tarbiya;
e) jismoniy tarbiya.

7. **Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

a) yoshlarda axloqiy did va ongni, xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini rivojlantirish, umumiy madaniyat va milliy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash;
b) yoshlarda estetik didni rivojlantirish;
c) yoshlarda estetik tuyg'u va jismoniy barkamollikka erishishni ta'minlash;

d) yoshlarda estetik ehtiyojni tarbiyalash, estetik ong va madaniyatni, badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

e) yoshlarni ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilishga o'rgatish.

8. **«Har kim bilim olish huquqiga ega» degan ibora O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida yozilgan?**

a) 41-modda;
b) 40-modda;
c) 39-modda;
d) 38-modda;
e) 37-modda.

9. **«Badantarbiya sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir» degan fikr qaysi allomaga tegishli?**

a) Abu Rayhon Beruniy;
b) Abu Nasr Forobiy;
c) Mirzo Ulug'bek;
d) Amir Temur;
e) Alisher Navoiy.

10. **Chiniqish, o'yinlar, sog'lom tan, harakat tushunchalari tarbiyaning qaysi turiga tegishli?**

a) mehnat tarbiyasi;
b) jismoniy tarbiya;
c) ekologik tarbiya;
d) axloqiy tarbiya;
e) estetik tarbiya.

11. **«Sog'lom fikr, axli axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarur» degan fikr qaysi ma'rifat-parvarga tegishli?**

a) M.Behbudiy;
b) A.Avloniy;
c) Fitrat;
d) Hamza;
e) Sadriddin Ayniy.

12. **Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat?**

a) Milliy va umuminsoniy qadriyatlar g'oyalarini tarkib toptirishdir;
b) axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritishdir;
c) chuqur vatanparvarlikni tarkib toptirish;

d) fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglash orqali o'quvchi-talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdir;

e) davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish.

13. **Tejamkorlik, sarf, isrof, foyda, mulk, mulkka egalik qaysi tarbiya turiga kiradi?**

a) mehnat tarbiyasi;

b) ekologik tarbiya;

c) iqtisodiy tarbiya;

d) huquqiy tarbiya;

e) fuqarolik tarbiyasi.

14. **Tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) aqliy va axloqiy tarbiya;

b) jinsiy va jismoniy tarbiya;

c) mehnat va estetik tarbiya;

d) huquqiy va iqtisodiy tarbiya;

e) a, b, c, d

15. **Oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlari bu...**

a) aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi hisoblanadi;

b) axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat;

c) vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish hisoblanadi;

d) insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat;

e) aqliy zakovat, insoniy fazilatlarni rivojlantirishdan iborat.

16. **Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalari...**

a) tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish;

b) tabiatga, insonga, hayvonlarga muhabbatni tarbiyalash;

c) tabiatni muhofaza qilish to'g'risida ekologik asosiy tushunchalarni bilish;

d) ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish;

e) a, b, c, d.

17. **Jismoniy tarbiya mazmuni birinchi navbatda qanday tushunchada o'z ifodasini topadi ?**

a) jismoniy ma'lumot;

b) sport ishlari;

c) jismoniy tarbiya madaniyati;

d) jismoniy holat diagnostikasi;

e) jismoniy kamolot.

18. **Shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o'rgatadigan tarbiya turiga qaysi biri kiradi?**

a) aqliy tarbiya;
b) axloqiy tarbiya;
c) estetik tarbiya;
d) ekologik tarbiya;
e) mehnat tarbiyasi.

19. **Yoshlarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni kamol toptirishda yordam beradigan tarbiya turini topib to'g'ri belgilang.**

a) axloqiy tarbiya;
b) huquqiy tarbiya;
c) jismoniy tarbiya;
d) aqliy tarbiya;
e) iqtisodiy tarbiya.

20. **«Ekologiya» so'zi qanday ma'noni bildiradi?**

a) «Ekologiya» yunoncha so'z bo'lib, tevarak-atrofdagi muhit;
b) tirik mavjudotlarning yashash sharoiti;
c) tevarak-atrofni muhofaza qilish;
d) tabiatga e'tibor;
e) tabiat boyliklarini avaylab-asrash.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

№	OT M va V	Tushuncha

2. Tarbiyada oila, mahalla, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning hamkorligi mazmunini tushuntirib bering.

№	TOT M va JHM	Tushuncha

3. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

№	AT M va V	Tushuncha

4. Axloqiy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

№	AT M va V	Tushuncha

5. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

№	JT M va V	Tushuncha

6. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

№	ET M va V	Tushuncha

7. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

№	MT M va V	Tushuncha

8. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

№	IT M va V	Tushuncha

9. Ekologik tarbiyaning mazmuni, maqsad-vazifalarini tushuntirib bering.

№	ET M M V	Tushuncha

10. Huquqiy tarbiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

№	HTM M va V	Tushuncha

11. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.

№	FTM M va V	Tushuncha

12. Yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	YoMG' va MRTMM	Tushuncha

13. Mustaqillik tarbiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	MTM M	Tushuncha

14. Jamoatchilik tarbiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	JTM M	Tushuncha

15. Ijtimoiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	ITM M	Tushuncha

16. Vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	VTM M	Tushuncha

IX bob. TARBIYA BILAN O'Z-O'ZINI TARBIYALASH VA SHAXSNI QAYTA TARBIYALASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

9.1. SHAXSNI O'Z-O'ZINI TARBIYALASH TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYAT

Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning dolzarb masalasiga aylanib borayotganligi bejiz emas. Mazkur masalani ijobiy hal etish nafaqat pedagogik-psixologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molikdir.

Tarbiya jarayonining samarali bo'lishi esa ko'p jihatdan tarbiyalanuvchilarning o'ziga, ularning ijtimoiy faolligiga, ongli faoliyatning muayyan maqsadga qaratilganligiga va shu maqsadga erishish uchun qat'iyat bilan kurash olib borishiga bog'liqdir. Xuddi shu sababdan hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z-o'zini tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash» *iborasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda asosan XX asrning o'rtalaridan ishlatila boshlangan bo'lsa-da,* **shaxsni o'z-o'zini takomillashtirish** *haqida qadim zamonlardan buyon fikr yuritiladi. O'z davrining ko'pgina faylasuflari, pedagoglari, psixologlari va sotsiologlari shaxsni axloqiy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirishning tub mohiyatini, uning jamiyatdagi rolini ochib berishgan. Ularning fikricha, o'z-o'zini tarbiyalash – shaxsning ijtimoiy, ijodiy, yaratuvchanlik, o'zgaruvchanlik faoliyatining ajralmas qismidir. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash tevarak-atrofdagi olamni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat jarayonida amalga oshiriladi.*

Shaxsning har tomonlama taraqqiy qilishi tevarak-atrofdagilar bilan o'zaro munosabatga kirishuvisiz tasavvur qilish qiyin. Individ sifatida dunyoga kelgan bolaning o'sishi hayoning umumiy qonuniyatlari, birinchi navbatda, ijimoiy munosabatlarga kirishuvi o'z-o'zini boshqarish va mustaqil rivojlanish kabi jarayonlarga ham bog'liqdir.

Mustaqil rivojlanishni shaxs o'zi anglagan yoki anglamagan bo'lishi mumkin. *Shaxs o'z rivojlanishini anglagandagina bu rivojlanish o'z-o'zini o'stirishga aylanadi. O'z-o'zini o'stirish o'z navbatida rivojlanib borib shaxsni takomillashtirishga, binobarin,* **o'z-o'zini tarbiyalashga** *aylanishi mumkin.*

Shaxsni shakllantirishda tarbiya mustaqil rivojlanishning anglangan (o'z-o'zini o'stirish, takomillashtirish) va anglanmagan (moslashish, ergashish) kabi shakllari bilan bog'liqdir. Tarbiyalanuvchi o'z shaxsining shakllanishi va rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Lekin bunday ishtirokning anglangan va faollik darajasi har xil bo'ladi. Masalan, tarbiyalanuvchi shaxs o'zi anglamasdan birov qilayotgan ish-harakatni unga ergashib bajarishga kirishadi. Bunday birovga ergashish borib-borib ongli harakatga, ongli harakat esa o'z navbatida o'z-o'zini tarbiyalashga aylanadi.

Tarbiya kuchayib, o'z-o'zini tarbiyalashga aylanish uchun muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar zarur bo'ladi. Ichki zaminlarga o'z-o'zini anglab-bilishning yuksak darajada bo'lishini, o'z-o'zini boshqara olishni tez rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni kiritish mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalashda tarbiyalanuvchi o'z shaxsini, shart-sharoitlarini, faoliyatining natijalarini, kuch va qobiliyatlarini o'stirish jarayonini yaxshi anglaydi. O'z-o'zini tarbiyalash irodaviy jarayon bo'lib, u tarbiyalanuvchi shaxs irodaviy sifatlarning butun majmuasidan iborat. O'ziga talabchanlik, o'zida norozilik, mashhur bo'lishga intilish, anglash, o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi.

O'z-o'zini tarbiyalashning bu ichki zaminlari muayyan ijtimoiy va pedagogik sharoitlarda va asoslarda ro'yobga chiqadi. *O'z-o'zini tarbiyalashning pedagogik asoslarini quyidagi asosiy belgilari mavjud:*

– o'z-o'zini tarbiyalash-o'zini anglash, o'zini-o'zi boshqarish (irodani) va rivojlanishga bo'lgan ehtiyojning yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi;

– o'z-o'zini tarbiyalashning paydo bo'lishi hamma vaqt muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar bilan bog'langandir. Ichki zaminlar bilan tashqi sharoitlar esa tarbiyaning natijasidir;

– o'z-o'zini tarbiyalash tarkib topishining hal qiluvchi shartlari va asosiy yo'nalishlarida tarbiyalanuvchi shaxs psixikasining rivojlanishini tezlatuvchi o'ziga xos omildir;

– o'z ustida ishlash tarbiyalanuvchi shaxsning barcha kuch va qobiliyatlarini jadallik bilan ishlatishni talab qiladi, bu o'z navbatida ularning tez rivojlanishini ta'minlaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, u tarbiyalanuvchi shaxs psixikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, uning eng muhim hayotiy zarur ongi, o'z-o'zini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va irodasini shakllantirish bilan bog'liq

bo'lgan ijtimoiy pedagogik-psixologik jarayondir. Chunki, o'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tashkil qilingan tarbiyaning natijasi hamda uning sharti sifatida namoyon bo'lib, unda o'z ustida muvaffaqiyatli ish olib boriladi, ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirish uchun tegishli qulay sharoitlar yaratiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash jarayonining murakkabligi, uning mazmun-mohiyati hali to'la, har tomonlama o'rganilmagan, shuning uchun ham bu tushunchani qisqa va aniq ta'riflashni qiyinlashtiradi. Turli pedagogik va psixologik adabiyotlarda o'z-o'zini tarbiyalash tushunchasi turlicha izohlanadi. Lekin ular o'z mazmun-mohiyati bilan bir-biridan keskin farq qilmaydi. Quyida shulardan ayrimlarini keltiramiz:

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda o'z-o'zini tarbiyalashning mazmun-mohiyati asosan atroflicha, ayrimlarida esa u yoki bu tomoni ko'proq yoritilgan. Lekin bu ta'riflarda tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligi, shaxsning o'zi boshqaradigan jarayon ekani aniq ifodalanmagan. Binobarin, o'z-o'zini tarbiyalash tarbiyalanuvchi o'z shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirsh jarayoni, bu jarayon esa tarbiyaning natijasi va psixik, ya'ni ruhiy rivojlanish ehtiyojlarining aks etishi, tarbiyachining funksiyalarini tarbiyalanuvchining o'zi bajaradigan jarayondir. Bu jarayon shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashdan oldin olingan tarbiya ta'siri ostida vujudga keladigan ehtiyojlar bo'lib, shaxs bu ehti-yojlarni qondirishga intiladi, o'ziga nisbatan tarbiyaning ham obyekti, ham subyekti sifatida munosabatda bo'ladi.

Umuman, o'z-o'zini tarbiyalashda shaxsning fazilatlari va odatlarini o'zgartirish yoki rivojlantirishga undaydigan turli ehtiyojlar katta rol o'ynaydi. Bu ehtiyojlar haqida gapirganda, o'quvchi-talabalarning ilmiy dunyoqarashini alohida ta'kidlash lozim. Tabiiyki, o'quvchi-talabalar dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishda **uzluksizlikda** topshiriqlar berishda o'tiladigan fanlar mazmunlariga va ularga tegishli fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga hamda ta'lim-tarbiya emas, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan va interaktiv usullar, turli o'yinlardan zakovat, intellektual treninglardan o'quvchi-talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish o'z burchini tushunishga, shaxsni o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar, fazilatlarni shakllantirishga, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi. O'z-o'zini tarbiyalash uchun shaxsning istiqbolni izlab topa olishi, yuksak ideallarga foydali bo'lishi zarur. Zero, jamiyat uchun yetishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir shaxsda axloqiy-ma'naviy idealga intilish paydo bo'ladi.

1-shakl

O‘z-o‘zini tarbiyalashning mazmun-mohiyati ta’riflari

O‘z-o‘zini tarbiyalash — bu shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilishning tarkibiy qismlaridan biridir. O‘z-o‘zini tarbiyalashda shaxs o‘zida axloqiy faoliyat qobiliyatini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantiradi, o‘zining axloqiy ongini shakllantiradi, ijobiy sifatlarini takomillashtiradi, salbiylarini yengadi

A.I.Kochetov

O‘z-o‘zini tarbiyalash tor ma’noda — bu shaxsning unday yoki bunday nuqsonlarini yo‘qotish va jamiyatni hamda o‘zini o‘stirish shaxsiy rejasining talablariga javob beradigan ijobiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘z ustida ongli va tizimli ish olib borishdir.

A.G.Kovalev

O‘z-o‘zini tarbiyalash — bu muntazam ravishda o‘z ustida ishlash, o‘z xulqini anglashga va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga muttasil intilish, o‘zida yomon xislat va odatlarni yo‘qotish, o‘zida axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash–bu o‘z - o‘ziga talabchanlikni doimiy oshirib borish, yaxshi yashashgagina emas, balki yaxshi inson bo‘lishga ongli ravishda intilishdir.

E.L.Vasina

Umumiy rejada olganda o‘z-o‘zini tarbiyalash bu insonning xilma-xil ijtimoiy tajribani egallashga, o‘zini shaxs sifatida tasdiqlashga, ijtimoiy-axloqiy idealga mos keladigan va shuning bilan birga hayotiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan axloqiy sifatlarning shakllanishiga qaratilgan harakatidir.

L.N.Ignatovskiy

O‘z-o‘zini tarbiyalash — insonning ichki tuyg‘ulari yordamida milliy qadriyatlarni, inson hayotidagi yutuq va muammolarni, tajribalarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

J.Hasanboyev, X.To‘raqulov, M.Haydarov, O.Hasanboyeva, N.Usmonov

Ma'naviy-axloqiy idealga intilish tabiiyki, muntazam ravishda o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishni, jamiyatning faqat bugungi manfaatlari haqida emas, balki uning kelajagi to'g'risida ham g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ijtimoiy burchni anglash, axloqiy namuna va idealdan tashqari shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan boshqa ehtiyojlar ham mavjud: *jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik va hokazolar.*

Shaxs jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik rivojlangan sari unda yangi-yangi ehtiyojlar, qiziqishlar, shu bilan birga jamiyat talablarini, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklarni bartaraf etish, o'zini yanada rivojlantirish ehtiyojlari paydo bo'ladi. Demak, bu ehtiyojni qondirish zaruriyati shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishga undaydi.

Bugungi kunda mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyatda sodir bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar yoshlarni chuqur va mustaqil bilim olishini, o'z-o'zini tarbiyalashini, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson bo'lib rivojlanishini obyektiv taraqqiyotining bu talabi birinchi navbatda barkamol shaxsni tarbiyalovchi – o'qituvchi-pedagoglar va murabbiylar o'z ustida muttasil ishlashlari, madaniy-ma'naviy va metodik saviyasini oshirib borishlari orqali qondiriladi. O'z tajribasiga ega bo'lmagan kasb egalari boshqalarni o'z ustida ishlashga ruhlantira olmaydi.

O'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan ikkinchi muhim ehtiyoj har bir o'qituvchi-pedagoglik kasbi egasiga xos bo'lgan oilada, o'z hamkasblari, o'rtoqlari, o'quvchi-talabalar orasidan o'qituvchi-pedagog va murabbiylar jamoasida, umuman, jamiyatda hurmat qozonishga intilishdir. Demak, obro'-e'tiborni qozonish maqsadida o'z-o'zini tarbiyalash boshqa kasb egalaridan ko'ra, ko'proq o'qituvchi-pedagog va murabbiylarga xos bo'lgan pedagogik faoliyatdir. Chunki ta'lim-tarbiyaviy ishda chuqur bilim, nozik muloqot va yuksak pedagogik mahoratsiz obro' va ulkan muvaffaqiyat qozonib bo'lmaydi.

Har bir o'qituvchi-pedagog va murabbiyning obro'yi uning pedagogik mahoratiga, o'z kasbiga munosabatiga, bilimdonlik va tayyorgarlik darajasiga, faolligi va darsda qo'llaydigan ta'lim-tarbiya metodlariga, xulq-atvor muomalasiga, o'z kasbdoshlari va tarbiyalanuvchilarning xatolarini ko'rsatib bera olishiga bog'liq bo'ladi. Bu fazilatlar ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya va mustaqil o'qish, pedagogik faoliyat jarayonida hosil qilinadi, o'z-o'zini tarbiyalash yo'li bilan mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash, o'z kamchilik va nuqsonlarini tuzatish, o'z shaxsini rivojlanirishga undaydigan eng kuchli – omil **bu tanqid va o'z-o'zini tanqiddir.** *Tanqid va o'z-o'zini tanqidning mohiyati shundan iboratki, ta'lim muassasalari o'qituvchi-murabbiylari faoliyatidagi va o'quvchi-talabalar xatti-harakatlaridagi mavjud kamchiliklarning hamma tomonlariga obyektiv baho berilishi, mavjud kamchiliklarni tugatish maqsadida ularni har tomonlama tahlil etish kerak. Shuningdek, mazkur kamchiliklarga va ularning kelib chiqishi uchun aybdor bo'lgan shaxslarga liberallarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik lozim. Bunda o'qituvchi-pedagog va murabbiy hamda o'quvchi-talabalarga ishonch va hurmat topshirilgan ish, topshiriq uchun yuksak talabchanlik bilan birga qo'shib olib borilishi kerak.*

Bu o'z navbatida o'z-o'zini tanqidning qadri uning samimiyligi bilan, xato va nuqsonlarni tuzatish uchun darhol kirishishga shay bo'lib turish mas'uliyati bilan belgilanadi.

Tanqid qilish – o'z faoliyatiga va xatti-harakatlariga tanqidiy qarash qobiliyati shaxsning axloqiy-ma'naviy yetukligining namoyon bo'lish shaklidir. Agar shaxs jamiyat oldidagi o'z burchini yuksak darajada his etmasa, o'z kamchiliklarini, jamiyat manfaatlariga, Konstitutsiya va qonunlarga xilof ishlarni qilganligini, lavozimini suiiste'mol qilib, huquqiy normalar va qonunlarni mensimaslik uning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk emasligini anglatadi.

Xayrixohlik ruhida bildirilgan adolatli tanqid shaxsning axloqiy pokligiga, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga va rivojantirishga asos bo'ladi.

O'ziga tanqidiy qarash, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni *birinchidan,* shaxs o'z kamchilik va nuqsonlarini bilish, shu asosda o'z oldiga maqsadlar qo'yishga yordam beradi. *Ikkinchidan,* u o'z-o'zini tarbiyalashning obyektiv maqsadi bo'lib qoladi. O'qituvchi-pedagog va murabbiylar va o'quvchi-talabalar o'ziga tanqidiy qarashni bilmasa, kamchiliklarini tan olmasa, unda o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun o'ziga tanqidiy qarash his-tuyg'usi, idrok va qobiliyatini yoshlikdan, muayyan tipdagi xulq-atvor qaror topmasdan oldin o'stira boshlash kerak. Zero, o'ziga tanqidiy qarash shaxs ongiga o'z vaqtida singdirilsa, keyinchalik u sekin-asta o'zida bunday fazilatlarni yetarli darajada shakllantirib boradi.

Tanqidiy qarash his-tuyg'usi, idroki va qobiliyatini avvalo o'zida, so'ngra esa o'quvchi-talabalarda shakllantirish o'qituvchi-pedagog va murabbiylarning muhim vazifasi hisoblanadi. Afsuski, ayrim ta'lim

muassasalarida o'qituvchi-pedagog va murabbiylar jamoasida o'z-o'zini tanqidning yo'qligi tufayli ba'zi bir o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar o'zlarini tajribali, yuksak pedagogik mahoratga ega hisoblab, manmanlikka berilib ketadilar, natijada o'z bilimi va pedagogik mahoratlarini oshirish bilan shug'ullanishmaydi.

Respublikadagi ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni va tajribali o'qituvchi-pedagog va murabbiylarning ilg'or tajribalarini o'rganish, ularning rahbarlari bilan o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, yuksak mahoratli o'qituvchi-pedagog va murabbiylar uchun o'z pedagogik faoliyatiga **tanqidiy qarash** beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan qaraydigan o'qituvchi-pedagog va murabbiylar uchun esa o'z ish natijalarini **yuksak baholash** xosdir. Bunday o'qituvchi-pedagog va murabbiylarning odatda o'z kasbdoshlari, pedagogik jamoa, o'quvchi-talabalar o'rtasida obro'yi bo'lmaydi. Majlislarda uning kamchiliklari tanqid qilinsa, u tanqidni tan olmaydi. *Tanqid go'yo ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchi-pedagog va murabbiylar jamoasi* **uning qadr-qimmatini kamsitayotgandek, «obro'yini» tushirayotgandek, g'urur va nafsoniyatiga tegayotgandek, uni «aybsiz, ayblayotgandek»** *bo'lib tuyuladi.* Bu esa kasbiy madaniyati va pedagogik mahorati darajasining pastligining, axloqiy-ma'naviy fazilatlarni tanqidiy baholay olmasligining natijasidir.

Har bir o'qituvchi-pedagog va murabbiy va o'quvchi-talaba o'z burchini vijdonan bajarishga xalaqit beradigan salbiy xislatlar *(qo'pollik, erinchoqlik, loqaydlik, pala-partishlik, dimog'dorlik, o'ziga bino qo'yishlik)*ni ongli ravishda yo'qotish va o'zida yetishmaydigan ijobiy fazilatlar *(odamlarga ishonish, o'ziga tanqidiy qarash, muloyimlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, talabchanlik va hokazolar)*ni shakllantirish qobiliyatiga ega.

O'qituvchi-murabbiylar va o'quvchi-talabalarning o'z odatlarini o'zgartira olmayman, deb nolishlari butunlay noto'g'ri. Xarakter shaxsning tug'ma xususiyati emas, u tarbiyaning mahsulidir. **O'zgartirib bo'lmaydigan, qayta tarbiyalanmaydigan xarakter yo'q. «Mening xarakterim shunaqa. Men o'zimni boshqacha qilaolmayman»** *degan fikr pedagogika va psixologiya fanlari nuqtayi nazaridan butunlay asossizdir. Har bir shaxs o'z xarakteri uchun o'zi javobgar, uni o'zi o'zgartira oladi.*

Demak, o'qituvchi-pedagog va murabbiylar ham, o'quvchi-talabalar ham o'z-o'zini tarbiyalashda o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishi kerak. O'z-o'zini baholash o'z bilimlari va qobiliyatlariga, o'zining jamoadagi

axloqiy mavqeiga, odat va malakalariga baho berishni nazarda tutadi. O'z-o'zini baholash shaxsning o'z fazilatlari va nuqsonlarini idrok qilishini aks ettiradi.

Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash vujudga kelishining **muhim ehtiyojlaridan biri namunadir.** Uning mohiyati ayrim shaxs yoki bir guruh odamlarning ishi, xatti-harakati, xulq-odobi bilan axloqiy ta'sir etishi orqali boshqalar uchun namuna bo'lishidir.

Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga obro'li tarbiyachilar, maktab, akademik litsey, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida esa o'quvchi-talabalarga talantli o'qituvchi-pedagog va murabbiylar namuna ta'sirini o'tkazadi. Qanday bo'lmasin, shaxs shakllanishining har bir bosqichida, turli yoshda obro'li tarbiyachi, o'qituvchi-pedagog va murabbiylar o'z hamkasbining ta'sirini sezadi. Eng yaxshi namunalarga tenglashishni barcha tarbiyalanuvchilar xohlaydi. Binobarin, o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat rag'batlantiriladi va o'z-o'zini rivojlantirishga undaydigan ehtiyojlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning **o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini** qondirishga bo'lgan intilishi ham o'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan muhim ehtiyojlardan biridir. Ma'naviy ehtiyoj va qiziqishlar bevosita hayotiy maqsadlarning qanday qo'yilishiga bog'liq bo'lib, u aqliy, axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Odam shaxs sifatida shakllana borishi jarayonida moddiy farovonlikka, oila qurish, bolalarni tarbiyalash, dam olish, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratishga intiladi. Zero, moddiy farovonlikka halol mehnat va tadbirkorlik, ishbilarmonlik, o'zining bilimlarini to'xtovsiz takomillashtirib borish, tajriba va malakasini hamda madaniy saviyasini oshirib borish, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish asosidagina erishish mumkin. *Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik faoliyatda o'qituvchi-pedagog va murabbiylar uchun moddiy manfaatdorlik yo'q, faqat ularni qiziqarli dars berishga, kasbiy pedagogik mahoratini oshirishga, o'z ustida tinmay ishlashga, asosan ma'naviy va pedagogik-psixologik omillar undaydi.*

O'qituvchi-pedagog va murabbiylarni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydigan omillardan biri uning o'quvchi-talabalarga va o'z kasbdoshlariga qanday muomalada bo'lishini belgilaydigan o'qituvchi-murabbiylik kasbiy burchining talabi bo'lib, uning pedagogik va tarbiyachilik faoliyati ta'lim muassasasi ma'muriyati va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib borish, kamchiliklarni tanqid qilish, o'z

burchini yaxshi bajarayotganlarni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning mazmun-mohiyatini yaxshi bilish va ulardan amaliyotda mohirona foydalanishgina barkamol shaxsni shakllantirish jarayonini samarali qiladi.

9.2.TARBIYA BILAN SHAXSNI O'Z-O'ZINI TARBIYALASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI VA UNING BOSQICHLARI

Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash tarbiyaning natijasi, shu bilan birga tarbiyaning samarali bo'lishi shartidir. O'z-o'zini tarbiyalash uchun shaxs ma'lum darajada tarbiyalangan, shaxs sifatida o'zini anglagan, o'zini idora qila oladigan bo'lishi kerak. Bunday xislatlar shaxs hayotining muayyan bosqichida hosil bo'ladi, rivojlanadi, tarbiyaning o'z-o'zini tarbiyalash natijasida shaxsning shakllanishi tezlashadi.

Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash shaxs rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy kuchlarning jadal o'sishini ta'minlaydi. O'z ustida ishlash davomida o'zini idora qilish rivojlanadi, ong bilan xulqning birligi ta'minlanadi, nazariya amaliy faoliyatga joriy etiladi, har bir ishni chuqur anglaydigan yangi kishi shakllanadi, e'tiqodlar mustahkamlanadi. O'z-o'zini tarbiyalash ongli, yuksak axloq va faol ijtimoiy foydali faoliyat uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantiradi.

Shaxsning kamol topshi nihoyatda murakkab, uzoq va umr bo'yi davom etadigan jarayon bo'lib, uni **uch bosqich**ga ajratish mumkin.

Shaxs hayotining **birinchi bosqichida** *u ijtimoiy tajribaning asoslarini o'zlashtiradi, mehnat malakalarini egallay boshlaydi, oddiy axloq normalarini (yaxshilik, yomonlik, nima foydali, nima zararli va hokazolarni)* anglay boradi va **burch, vijdon, qadr-qimmat** *haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'lib boradi. Bularning barchasi shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash tushunchasini tashkil etadi. Shaxsning kamol topshidagi* **birinchi bosqich** *asosan oila tarbiyasi va maktabgacha muassasalardagi tarbiya bilan bog'liq jarayondir.*

Ikkinchi bosqichda *ijtimoiy tajribani, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'zlashtirish uchun shaxs ancha kuch sarflaydi. Natijada, shaxsda o'z-o'zini tarbiyalash boshlanadi. Shaxsda namunali xislatlar, eng yuksak maqsadlar, estetik didlar shakllanib boradi. Bu bosqichda tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyalashning uzviy bir-biriga*

qo'shilib ketishi yaqqol ko'rinadi. Bu davrda shaxsga ta'lim muassasalarining o'qituvchi-pedagog va murabbiylar jamoasi, tengdosh o'smirlar va o'spirinlar, yaqin do'stlari, o'rtoqlarining ta'siri ancha kuchli bo'lib, oilaning ta'siri esa birmuncha kamayadi. Demak, bu sohada shaxsga tashqi muhit ta'siri ancha kuchayadi.

Shaxs rivojlanishining **uchinchi bosqichida** *o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy takomillashish jarayoni to'la amalga oshadi. Bu bosqichda shaxs o'z oldiga ancha murakkab axloqiy vazifalarni, maqsadlarni qo'yadi.*

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarining xarakterli xususiyati ularning kelajakka intiluvchanliklaridir. Bu esa shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini tarbiyalashi uchun ancha qulay, takrorlanmas shart-sharoitni yaratib beradi. Kelajak bilan bog'liq bo'lgan sabablarni katta ahamiyati atrofidagi kishilar doirasidan chiqish, atrofga nazar tashlash, chamalab ko'rish, o'z-o'zini tarbiyalashni aniqlashga intilishni vujudga keltiradi. *O'quvchi-talabalarning o'z shaxsiyatiga, atrofdagi kishilarga qiziqishi, egallaydigan kasbi va kelajakdagi katta hayoti haqida o'ylash, ya'ni* **«Kim bo'lsam ekan?»** *degan savolga javob izlab qolmay, balki* **«Qanday bo'lishim lozim?», «Hayotda mening qanday o'rnim bor?», «Men qanday insonman?»** *degan masalalarni hal qilish – bularning barchasi o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan qobiliyatni shakllantirish uchun qulay zamin yaratadi.* O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan qobiliyat shaxsning boshqa xususiyatlari dastavval maqsad, xarakteri, axloqiy rivojlanganlik darajasi bilan ham bog'liq. Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'qituvchisi (sinf yoki guruh rahbari) oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari yoki guruh murabbiylari o'quvchi-talabalarga o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda yordam bermog'i lozim. Dars jarayonida yigit-qizlarni o'z-o'zini tarbiyalash dasturi bilan tanishtirish mumkin, masalan: *nimaiki ishni muttasil bajarib borish belgilangan bo'lsa, har qanday vaziyatda bajarish; ishni bajarishda puxta qilish, agar biror narsani unutgan bo'lsang, o'zini fikrlab, eslab bajarishga harakat qil; bor imkoningni ishga solib, aqlingni peshla va hokazo.*

Eng muhimi hayotda yalqovlik, jizzakilik va laqmalikdan holi bo'lishga amal qilishdir.

O'quvchi-talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash dasturi haqida yana so'z yuritganda o'z-o'zini tanqidga, o'z-o'zini chetdan ko'ra olishga, o'z qobiliyati va imkoniyatini obyektiv baholashga, o'zining har bir

nomaqbul xatti-harakatini, noto‘g‘ri fikri, xulqidagi nuqsonini to‘g‘rilashga ham to‘xtab o‘tish zarur.

O‘z bilim doirasini kengaytirish, o‘zining intellektual rivojlanganlik darajasini oshirish, barqaror odat va mehnatga bo‘lgan muhabbatni oshirishga doimiy intilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash ishi uchun muhimdir. O‘z xatti-harakati va qilmishi uchun mas’uliyat hissini shakllantirmay turib, o‘z-o‘zini tarbiyalash mumkin emas.

O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida o‘z ustida ishlash rejasini tuzish g‘oyat ta’sirchan usullardan biri hisoblanadi. Ammo shaxsiy faoliyat va o‘z shaxsiyatini rejalashtirish belgilangan maqsadni, shubhasiz bajarishdagina ma’no kasb etadi. Bu yerda o‘z-o‘zini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Yetarli darajada rivojlanmagan nazoratsiz shaxsga o‘z-o‘zini tarbiyalash haqida gapirib bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda shaxs o‘z oldiga vazifa qo‘yadi, uni hal qilishning eng yaxshi yo‘lini o‘zi izlaydi, uni bajarilishini nazorat qilishning shakllaridan biri shaxsiy kundalikdir. O‘quvchi-talabalar shaxsiy kundalik tutish orqali o‘zining kundalik bajariladigan ishlarini rejalashtiradi va bu rejaning bajarilishi uchun o‘z-o‘zini nazorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash jarayoni shaxs hayotining so‘nggi daqiqalarigacha davom etadi. Tashqaridan beriladigan tarbiya rivojlanib, ichki tarbiyaga, ya’ni **haqiqiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga** *aylanadi.*

9.3. SHAXSNI O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASHNING TARKIBIY QISMLARI

Shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan biri – **bu mustaqil ta’lim***dir. Mustaqil ta’lim olish bugungi kunda ta’limning muhim yo‘nalishi sifatida dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Xususan, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan o‘quvchi-talabalarga umumta’lim va maxsus fanlarni chuqur o‘qitish bilan birga kasbiy mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ham yoshlarni o‘z ustida ko‘proq ishlashlari va o‘zlarining kasb mahoratlarini oshirib borishlarida mustaqil ishlarni tashkil etishning ahamiyati kattadir. Chunki mustaqil ta’lim o‘quvchi-talabalarda kuchli iroda, diqqat, xotira, tafakkur kabi psixologik xislatlarini mustahkamlash bilan birga ularda mas’uliyat, tartib-intizom, bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi tarbiyaviy sifatlarni ham shakllantiradi.

O'quvchi-talabalarning mustaqil ta'limini quyidagi ko'rinishlarda tashkil etish mumkin:

1. Kutubxonadagi qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.
2. Darsdan tashqari turli to'garak mashg'ulotlarida ishtirok etish.
3. Turli xil ko'rik-tanlovlar va fan olimpiadalariga tayyorlanish.
4. Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan foydalanish va h.k.

Hozirgi kunda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlashi uchun o'qituvchi-pedagog berilgan mustaqil ish mavzusiga qarab ularni to'g'ri yo'naltira olishi shart. Chunki o'quvchi-talabalar hali to'liq mustaqil ishlashga o'rganmagan, u qayerdan, nimadan, qanday foydalanish kerakligini to'liq anglay olmaydi. Bunday paytda, ya'ni o'quvchi-talabalarda berilgan mavzuni qanday bajarish haqida tasavvur paydo bo'lishi va ularning fikrlashini osonlashtirish maqsadida quyidagi pedagogik-metodik tavsiyalarni berib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Mavzularni o'quvchi-talabalarning qiziqishi va bilim saviyasiga qarab tanlash.
2. Mavzuni o'rganishga oid kerakli adabiyotlar ro'yxatini aniq berish va ulardan qanday foydalanishni tushuntirish.
3. Internetda qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun kerakli saytlarning aniq nomini belgilab berish.
4. O'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalarning mustaqil ishni bajarish jarayonida duch kelgan muammoli savollarga izoh berib borishi kerak.

O'quvchi-talabalar o'ziga berilgan mavzu bo'yicha to'plangan materiallarni qo'lyozma shaklida referat yoki kurs ishi loyihasi sifatida tayyorlasa, o'quvchi-talabalarning mazkur mavzu bo'yicha olgan bilimlari chuqurlashadi, malakasi kengayadi.

Mustaqil ishlash jarayonida o'quvchi-talabalarda quyidagi sifatlar tarkib topib boradi:

1. Ularning tafakkuri, xotirasi, diqqati va xayolini tarkib toptirish jarayoni takomillashadi va faoliyat darajasi kengayadi.

2. O'quvchi-talabalarning faoliyatida o'quv materiallarini o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan va dars jarayonida yuzaga keladigan muammoli savollar yechimini tez hal qilish, vaqtdan unumli foydalanish malaka va ko'nikmalari rivojlanadi.

3. O'quvchi-talabalarni o'z-o'zini nazorat qilish usullari kengayadi.

4. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida jamoa bilan ishlash, o'z fikrini himoya qila olish xususiyatlari tarkib topadi.

O‘quvchi-talabalarga mustaqil ish berish jarayonida mustaqil ish mavzularini ta’lim muassasalarining kutubxona fondi, texnika vositalari va mavjud shart-sharoitlarini hisobga olish kerak.

Demak, mustaqil ta’lim olishning maqsadi va motivlarini shakllantirish o‘quvchi-talabalarga chuqur bilim berishning asosi hisoblanadi. Buning uchun o‘quvchi-talabalarda bilishning maqsadi va motivlarini shakllantirish, ta’lim mazmunini yangilash, uning didaktik jihatlarini tushunib olishlariga ahamiyat berish lozim. Biz quyida mustaqil ta’limning motivlarini shakllantirish, bilim berish maqsadida amal qilishga doir pedagogik va metodik (uslubiy) talablarni tavsiya etamiz:

1. **Mustaqil ta’limning ijtimoiy maqsadini bilish va unga o‘zini tayyorlash motivi.** *Bunda o‘quvchi-talabalar mustaqil ta’limning ijtimoiy mohiyatini to‘la anglab olishlari, ta’lim mazmunini va ta’lim jarayonining yangilanishi, o‘zgarishning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, mustaqil ta’limning o‘quv jarayonlarini o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishini tushunib yetishlari o‘quv vazifalarini amaliy jihatdan ijodiy yondashuv orqali bajarishga tayyorlanish tushuniladi.* Ayniqsa, o‘quvchi-talabalarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonidagi mustaqil fikr yuritishi, muammoli topshiriqni bajarishi, mavzu yuzasidan darslik, o‘quv qo‘llanmasi, shuningdek, pedagogik va metodik adabiyotlardagi yangiliklarni anglashi, ta’limning zamonaviy metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limga joriy etishning ahamiyatini tushunib yetishi, kelajakda o‘z tajribalarida ularni qo‘llashga intilishlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘quvchi-talabalarda o‘quv maqsadiga erishishni ta’minlaydi. Uning subyektiv mohiyatini bilishga qiziqadi.

2. **O‘quvchi-talabalarda mustaqil ta’limning ijodiy fikrlashuv, aloqalashuv maqsadini to‘liq anglab yetishga tayyorlash motivi.** Bunda o‘quv materialining mazmuni uning mohiyatini to‘liq tushunishi va ijodiy fikrlashi orqali o‘quv materialini qayta ishlash qobiliyatini shakllantirish. Masalan, biror mavzu yuzasidan ilmiy izlanish olib borish, pedagogik muammolar tuzish, tanqidiy mulohaza yuritish, kuzatish va tajribalar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunday mashqlarda o‘qituvchi-pedagog o‘quvchi-talabalarning o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazishi, boshqalar bilan fikrlashni, malakalarini oshirishga ahamiyat beradi. Bu esa o‘quvchi-talaba yoshlarda mustaqil ta’lim olishning shakllarini bilish, hamkorlikda ishlash, o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarish hissini shakllantiradi. Yuqoridagi ishlar

mustaqil ta'limning aloqalashuv maqsadini ifoda etadi, o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalarning o'zaro fikrlashuvi, muammolarni ijodiy hal etishini ta'minlaydi. Ya'ni o'quvchi-talabalar mustaqil tarzda topshiriqlarni yechish yo'llarini izlaydilar, o'quv faoliyatida o'z fikriga ega bo'ladi, uni boshqalarga yetkazishga intilish motivlarining shakllanishiga erishadi.

3. **Mustaqil ta'limning axloqiy maqsadga yo'naltirilishi motivi.** Bunda bilish maqsadi, fanni egallash, mustaqil ta'lim olish orqali barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltiriladi. Bu esa har bir mutaxassislikning respublikamizda amalga oshirilayotgan **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»**da belgilab berilgan barkamol avlodni tarbiyalashga o'zini tayyorlashi, o'zini-o'zi tarbiyalashi, o'z faoliyati va intilishlarini mustaqil faollashtirish maqsadini ifodalaydi, ta'lim oluvchilarda o'zini boshqarish motivlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil ta'lim olishni shakllantirishda mustaqil ish mashqlarini bajarish, o'z bilimlarini amalda qo'llash, tajribalar o'tkazish ham muhimdir. Masalan kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim metodlarini takomillashtirish, innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish, talabalarning «**Internet**» tarmog'idan foydalanishlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, internet orqali o'quvchi-talabalar zamonaviy ta'limning eng so'nggi yangiliklaridan xabardor bo'lib, uni ta'lim jarayoniga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bularning barchasi mustaqil ta'limni pedagogik-psixologik va metodik jihatdan ta'minlaydi, mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi.

Demak, o'quvchi-talabalar mustaqil ta'lim orqali o'z bilimini oshiradi, o'zlashtirgan bilimlarini insoniyat to'plagan ma'naviy boyliklardan to'laroq va samaraliroq foydalanadi. Mustaqil o'zlashtirilgan, chuqur tahlil qilingan bilimlar o'z ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganadi, o'zining milliy mafkuraviy - siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan biri **o'zini ijtimoiy foydali mehnat va kasbga tayyorlash bo'lib,** shaxs uchun zarur bo'lgan kasbni, mutaxassislikni egallashga, ishlash va kasbiy mahoratini oshirishga, kasbga oid *bilimlarni takomillashtirishga*, jamoat ishlarida faol qatnashishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan faoliyatdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarning o'quv rejasiga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida shunday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishdan iborat. O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim davrida o'quv ustaxonalarida, o'quv-tajriba maydonlarida, otaliq korxonalarida, fermer xo'jaliklarida turli materiallarni tayyorlash va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayoni bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarda bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish) ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanishga oid ko'nikmalarni qaror toptirib qolmay, balki yoshlarda ishtiyoq bilan mehnat qilish va betartiblikni tarbiyalashga, o'qishga, kasb-hunar egallashga qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarida mehnat ta'limi va kasb-hunar yoki mutaxassislik to'g'risida ma'lumotni berish ishining muvaffaqiyati o'quvchilarning mazkur jarayonga tayyorgarlik darajasiga, shuningdek, uni tashkil etish sharoitlari bilan oldindan tanish ekanligiga, bunday sharoit mehnat qilish egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkoniyati bilan bog'liqdir. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda o'quvchilar o'rtasida mavjud kasb-hunar hamda mutaxassisliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, ularning xalq xo'jaligidagi tutgan o'rni va ahamiyati borasidagi targ'ibotni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchi o'quvchi-talabalar ishlab chiqarish jarayonida kasb-hunar va mutaxassisliklar bilan amaliy ravishda tanishadilar. Ularga mehnat ta'lim-tarbiyasini berishda va kasbiy malakalarini shakllantirishda ishlab chiqarish ustalari va tajribali mutaxassislar katta rol o'ynaydilar.

Kasbiy ta'limning keyingi bosqichlarida muayyan, ya'ni mutaxassislikni egallash davrida o'quvchi-talabalar ijtimoiy foydali mehnat, kasb-hunar va mutaxassislik (motivi)ning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari hamda ijtimoiy burch va mas'uliyatni his etish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Zero, jamiyat va el-yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun fidokorona mehnat qilish, o'quvchi-talaba yoshlar ijtimoiy foydali mehnati va

egallagan mutaxassisligining ijtimoiy-g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy asosidir.

Demak, o'zini ijtimoiy foydali mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga tayyorlash bilan birga shaxs o'z-o'zini ijtimoiy tarbiyalashi ham zarur. O'z-o'zini ijtimoiy tarbiyalash — bu o'quvchi-talabalarni ijtimoiy shaxs sifatida shakllantirishga va takomillashtirishga, o'tmish ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishga, jamiyat va xalqimiz an'analari, turmush tarzi, fuqarolik va oila burchlariga bo'ysunishga o'rgatish faoliyatidir.

O'quvchi-talabalar shaxsini estetik va jismoniy jihatdan shakllantirish hamda rivojlantirish ham o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridandir.

Shaxsning estetik madaniyatini, badiiy didini, estetik ehtiyojlarini, badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga, qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat o'z-o'zini estetik jihatdan tarbiyalashga kiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadi, voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi turli kasb egalarining ijtimoiy-kasbiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Bugungi kunda o'z-o'zini jismoniy jihatdan tarbiyalash shaxsning jismoniy yetuk organizmining sog'lom va chiniqqan bo'lishini nazarda tutadi va ishlash qobiliyatining uzoq yillarga saqlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

O'z-o'zini jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi har tomonlama jismoniy jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli, ham jismonan, ham ma'nan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

O'z-o'zini tarbiyalashning zamini ma'naviy-axloqiy tarbiyadir. Bu shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatga erishishda o'z-o'ziga baho berishi, o'zini tartibga solishi, pokiza xulq ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishga qaratilgan irodaviy faoliyatdir.

Pedagogika nazariyasida o'z-o'zini axloqiy jihatdan takomillashtirish tushunchasi ham ishlatiladi. Bu tushunchaga ko'ra shaxs shakllanishi va rivojlanishi ko'proq subyektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'z-o'zini axloqiy jihatdan takomillashtirishni shaxs axloqiy barkamolligining eng yuksak darajasi deb ta'riflash

mumkin. Bunday faoliyat o'z-o'zini rivojlantirishning muayyan davrida, shaxs ilmiy dunyoqarashi shakllangan, katta ijtimoiy-foydali maqsadlar va istiqbollar bilan ilhomlangan, qat'iy iroda, o'zini nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, intizomga bo'ysungan holdagina amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, o'z-o'zini takomillashtirish ma'naviy-axloqiy ijtimoiy tarbiyalangan, muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutadi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxs rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy-axloqiy sifatlarning jadal yuksalishini ta'minlaydi. O'z-o'zini takomillashtirish davomida o'zini idora qilish rivojlanadi, ong bilan xulqning birligi ta'minlanadi, e'tiqodlar mustahkamlanadi, ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari qaror topadi. Umuman, o'z-o'zini tarbiyalash shaxsda ongli, yuksak axloqli va faol ijtimoiy-foydali faoliyat uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantiradi.

9.4. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH SHAXS SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEZONI SIFATI

Mustaqillik yillarida barkamol shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. **Prezidentimiz I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»** *asarida quyidagicha fikr bildiradilar:* **«Bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi, keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar mavjud. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi»**[1].

Shu ma'noda insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini tuta bilishda, ya'ni o'z-o'zini nazorat qila bilishida ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida

[1] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 122–123-betlar.

uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir.

O'z-o'zini nazorat qilish bu o'zining hayotiy kuchini ancha yuqori darajada anglagan va ijodiy izlanishdan iborat shaxs xususiyatidir.

O'z-o'zini nazorat qilish shaxsning o'z jismoniy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati. *Bu sifat quyidagicha asosiy turlarga bo'linadi, ya'ni sensor, o'z-o'zini nazorat qilish, idrok qilish faoliyatini nazorat qilish bilan belgilanadi. Sensomotor o'z-o'zini nazorat qilish idrok bilan harakatlarning birgalikdagi faoliyatni nazorat qilish malakalarining tarkib topishida, harakatdagi xatolarni tuzatishda yaqqol namoyon bo'ladi.*

O'z-o'zini nazorat qilish asosan qilinayotgan va qilingan ishlarga, shuningdek, o'z maqsad va qabul qilgan qaroriga tanqidiy nuqtayi nazardan baho berish demakdir. Kishi qilayotgan va qilgan ishlariga baho berar ekan, ularni ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi, ayni vaqtda o'z ishlarining qo'yilgan maqsadga yoki qabul qilingan qarorga mosligi yoki mos emasligini nazarda tutadi. Qilinayotgan va qilingan ishlarga baho berganda, ularning maqsad va qarorga mos kelish yoki mos kelmasligi, foydali yoki befoyda ekanligi zarurligi, yoki keraksizligi va shu kabilar nazarda tutilishi mumkin.

Shaxsda o'z-o'zini nazorat qilishni tarkib toptirish uchun har qanday vaziyatlardan foydalanish mumkin. O'z-o'zini nazorat qilish mashg'uloti katta faoliyat maydonidir. Va uni quyidagi hollarda amalga oshirish mumkin, ya'ni ta'sirlanish va g'azab, tinchlikning sabrga, hasadning saxiylikka, ayyorlikning bag'rikenglikka, qattiqqo'llikning rahmdillikka almashishi va boshqalarni nazorat qilish shaxs munosabatini ifodalaydi. Ba'zi insonlar o'z ustilarida tinimsiz ishlasalar ham, o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, axir taqdirda yozilganidan qochib qutulib bo'lmaydi-ku deyishadi. Ayrimlari esa o'zlarini dono hisoblab, o'z-o'zini nazorat qilish kuchli deb o'ylashadi. O'ziga bo'lgan ishonchsizlik va haddan tashqari ishonch shaxsdagi harakatsizlik va bo'shashganlikka tenglashtiriladi. Shaxs kuchining rivojlanishi, bu avvalambor, o'ziga ishonch yetarli darajada qat'iylik va intilishni ko'rsatib, birinchi qadamni tashlasa, hamma narsaga erishish mumkin. Shundagina shaxs kuchining rivojlanishi kuzatiladi. *Konfutsiy shaxsda o'z-o'zini nazorat qilishning shakllanishi borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: «**Agar men har kuni bir savatdan tuproq olib kelsam, unda tog' paydo bo'ladi. O'ylamasdan, atrofga e'tibor bermasdan intilgan insonlar ba'zida o'ziga va o'zgalarga***

chegara tog'ini hosil qiladi. Eski yomon odatlardan xoli bo'lish qiyin, ammo yangi xulq-atvor tamoyillari va me'yorlarining shakllanganligi asosiy birinchi qadamdir. Insondagi anglangan faol xatti-harakatlar ijodiy imkoniyatlar shaxs kuchini rivojlantira oladi».

Shaxsda o'z-o'zini nazorat qilishga olib keladigan 3 ta mezon mavjud. Ular **qahramonlik, hamdardlik, sabr-toqatlilik.** Har biri o'zining tarkibida qolgan ikkalasini ham jamlaydi. **Birinchi mezon «Qahramonlik»** *so'zi* **«yurak»** *degan ma'noni anglatadi.* **Qahramonlik yurakdan tug'ilib, unda yashaydi, shu bois, sevgi, minnatdorchilik, sodiqlik, ishonch, do'stlik kabilar uni ilhomlantiradi, ruhlantiradi.** *Psixologik va pedagogik adabiyotlarda qahramonlik tushunchasiga bir qator ta'riflar keltiriladi. Shunga muvofiq,* **qahramonlik bu haqiqatni anglash va uning uchun kurashish qobiliyati. Qahramonlik – bu keraksiz, eski narsalarni yangi, foyda keltiradiganlari bilan almashtira olishdir. Qahramonlik bu o'zini qat'iy harakatlar bilan xavfga qarshi qo'ya olish. Qahramonlik – bu kelajak bilan to'qnashuv. Qahramonlik bilan zo'riqqan impulsiv hislarning yurakdan tug'ilishi va insonlarning keyingi faoliyatlarida ijodiy jihatdan harakatlantiradigan shaxs kuchidir. Rim faylasufi Seneka «Ba'zida yashashning o'zi ham qahramonlikdir»**, *deydi.*

Agar siz hayotiy qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz ko'rishguncha uyalib, o'zingizda kuch topa olsangiz, shunda **Mark Tvenning «Qahramonlik «** *yoki* **«botirlik» bu qo'rquvning ustidan g'alaba qozonishdir** *– degan fikrini yodga olish muhimdir.* **Qo'rquvni bilmaganni botir deb atash bema'nilikdir,** *degan iborasini esga olish o'rinlidir. Shaxsning o'z-o'ziga munosabatisiz botirlik bo'lmaydi. U faqatgina qo'rquvga tik qaray olgandagina o'zida botirlikni his eta oladi.*

Hamdardlik *o'z-o'zini nazorat qilishning ikkinchi mezoni hisoblanadi. Insonlarga va tiriklikka hamdard bo'lish insonda shu histuyg'u imkoniyatini ochib uni botirlik bilan harakatlantiradi. Boshqalarga nisbatan hamdardlik qilishni o'rganganimizda, o'zimizga nisbatan rahmimiz kamayib boradi. O'ziga nisbatan rahmni yenga olish bu shaxs kuchining shakllanishidagi birinchi qadam hisoblanadi. Rahm qilish va hamdardlik o'rtasida katta farq mavjud. Rahmlilik borasida Balzak quyidagi fikrlarni ilgari suradi:* **«Rahmga inson qiyinchilik bilan chidaydi, u g'azabni qo'zg'atadi. Rostdan ham agressiyaga qarshi qurol bo'ladi».**

Hamdardlik o'z-o'zini nazorat qilish jarayonida shaxsning atrof-muhitga nisbatan munosabatida emotsional chidamlilik asosida

botirlik va saxiylikni keltirib chiqaradi. Chidamlilik esa hamdardlik va tushunish asosida shakllanadi, bu boshqa insonlarga nisbatan ta'sirni nazorat qilish bilan birga, aynan shaxsning kuchi mustahkamlanadi.

Nihoyat, o'z-o'zini nazorat qilishning *uchinchi mezoni* bo'lgan **sabr-bardoshlilik va chidamlilik** hisoblanadi. O'z-o'zini nazorat qilish sekin-asta, nozik ishga o'xshab o'sadi va bu jarayonni ko'rish qiyinchilik bilan izohlanadi. Tabiiyki, sabr-toqatsiz o'z-o'zini nazorat qilish shakllanmaydi, aksincha shaxsning asosiy maqsadi esa o'z kuchiga nisbatan ishonchga ega bo'lishidir, o'z-o'zidan, sabr-toqat ham botirlikni, hamdardlikni talab etadi. Zamonaviy hayotda, axborotlar oqimi munosabatlari rivojlanayotgan vaziyatda, har doimgidek sabr-toqatli va chidamli bo'lish shaxsdan talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, shaxsda o'z-o'zini nazorat qilishning shakllanishi atrof-muhitdagi insonlar jamoasiga, shaxs xususiyatlarining tarkib topishiga, shuningdek, **o'z-o'zini anglash va «men» siymosi bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Aynan shaxsda o'z-o'zini anglash mexanizmlarini qaror toptirish orqali o'z-o'zini nazorat qilish, boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirishi lozim.**

O'z-o'zini boshqarish keng ma'no kasb etadi. O'z-o'zini boshqarish, o'z harakatlarini tartibga solish, insonning o'z-o'ziga, hayotga va boshqalarga nisbatan talabchan va faol munosabatda bo'lishi, o'quvchi-talabalar shaxsining yuksak axloqiy, ijtimoiy yo'nalganlik faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Faoliyatni anglagan o'z-o'zini boshqarish quyidagi komponentlarga ega: faoliyat maqsadi, ish faoliyat rejasi, modeli, dasturi, natijalarni baholash, ularni ish faoliyati jarayonida tuzatish, korreksiyalash shular jumlasidandir. Tajribalardan ma'lumki, komil inson ta'lim-tarbiya, mukammal irsiy omil bo'la turib, shaxsda faolligi, o'z-o'zini takomillashtirishga, o'z intilish istagi aniq faoliyatga undovchi sabab ehtiyoj bo'lmaganligi uchun ham mazkur shaxs o'rtamiyona, hatto juda ham omi inson bo'lib qolishi mumkin. Bu fikrdan mantiqan kelib chiqadigan xulosa shuki, ba'zan shaxs kamolotida yuqoridagi omillardan biri yetakchi va hal qiluvchi bo'lishi mumkin, ya'ni bu holat shaxsni o'z-o'zini boshqarish, o'z faolligi, o'z-o'zini tarbiyalashda yetakchi va muhim omil bo'ladi. Shu omil tufayli ba'zan noqulay ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya olishga imkonsiz bo'lgan shaxslar buyuk ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar. Masalan, A.Eynshteyn, D.Mendeleev, L.Tolstoy va boshqalar maktabda o'quvchilik yillarida va universitetda

talabalik davrida o'rtamiyona o'quvchi-talaba bo'lgan, buyuk notiq Demosfenning yoshligida nutqi nuqsonli bo'lgan, ammo bular uzluksiz mashq, o'z-o'zini takomillashtirish kabi oliy motivga ega bo'lganligi uchun ham dunyoni lol qoldira oldilar. Bu esa o'z-o'zini tarbiyalash va nazorat qilishning imkoniyatlari cheksiz ekanligidan dalolat beradi. Inson asab tizimini imkoniyatlari shaxsga nafaqat uning ayrim xususiyatlari, balki uning anchayin o'zgartirish, o'zini yangilash imkoniyati borligini ko'rsatadi. Bunga misol qilib A.S.Makarenkoning pedagogik tajribalari uning bolalar koloniyasida va kommunasida olib borgan ishlari asosida yaratilgan **«Pedagogik poema»**, **«Minora ustidagi bayroqlar»** asarlarida ilgari surilgan shaxsni qayta tarbiyalash nazariyasi amaliyotini misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'z-o'zini boshqarish va o'z faoliyatini tartibga solish g'oyasini psixolog O.A.Konopkin rivojlantirdi va uni ongli o'z-o'zini boshqarish tamoyili bilan boyitdi. Bu tamoyilga ko'ra, faoliyat obyektida o'quvchi-talabalarda o'z vazifasini faol va ongli boshqarish yuzaga keladi va natijada ular o'z-o'zini ongli boshqara olish darajasiga yetadi. *Faoliyatni ongli boshqarish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: faoliyat maqsadi, unga mos shart-sharoitlar, faoliyat modeli, rejasi, dasturi, natijalarini baholash, xatolarini tuzatish, o'z-o'zini boshqarish va o'z natijalariga baho berish bilan faoliyat yakunlanadi.* Faoliyat davomida uning shakli, dasturi, rejasi o'zgarishi va ular bir-biriga moslashishi mumkin. Ammo faoliyat maqsadi to shaxs unga yetmaguncha yoki boshqa maqsad uchun undan voz kechmaguncha o'zgarmaydi.

O'quvchi-talabalarda faoliyatni o'zlashtirish, takomillashtirish, o'zgartirish uni tuzatish jarayoni ro'y beradi, ularning kuch va imkoniyatlari takomillashadi, aqli o'sadi.

O'quv faoliyatini rejalashtirish, uni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'ziga baho berish bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'z-o'zini boshqarishni shakllanishida o'quvchi-talabalarning o'zi haqidagi tasavvurini, o'z kuchi va imkoniyatlarini bilishi va ularga to'g'ri baho berishi shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi-talabalar shu faoliyatni bajarar ekan, uning ish mahsulini avval o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilar, so'ngra uning o'rtoqlari, ota-onalari va nihoyat, uning o'zi baholaydi. Bu baholar bir-biridan ba'zan birmuncha, ba'zan esa keskin farq qiladi. Baholar orasidagi keskin har xillik ishni murakkablashtiradi. *Boshqalar bahosi bilan o'quvchi-talabalar o'ziga bergan bahosi uncha katta farq qilmasa, bu baho haqiqatga yaqindir. Ammo o'zgalarning bahosi bilan o'quvchi-*

talabalarning o'z-o'ziga bergan bahosi keskin farq qilsa, uni suhbat, anketa, kuzatish, tarjimai hol, reyting metodlari bilan birga test, eksperiment metodi bilan o'rganish mumkin.

Shaxsning o'z-o'ziga, o'z faoliyatiga baho berishi asosan ikki xil: *obyektiv (to'g'ri) yoki subyektiv (noto'g'ri) bo'lishi mumkin. Obyektiv baho berish o'quvchi-talabalarga yaxshi, samarali tarbiya berilgani va yaxshi namuna ko'rsatilganidandir. Ammo subyektiv baho berish ortiq yoki kam baho berish bo'lishi ham mumkin.*

Ortiqcha baho berishning uch darajasi aniqlangan: **manmanlikka moyillik, manmanlik, kibr-havolilikdir; kam baho berishi ham uch darajada: kamtarlikka moyillik, kamtarlik, xokisorlik** *bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga subyektiv baho berishni sabr-toqat bilan tarbiyalash lozim.*

9.5. SHAXSNI QAYTA TARBIYALASHNING MAZMUN-MOHIYATI VA MAQSAD-VAZIFALARI

Ma'lumki, jamiyatda va kundalik hayotimizda axloq normalarini qo'pol tarzda buzadigan, jamoat joylarida o'zini tuta bilmaydigan o'smirlar, hatto katta yoshdagilar ham goho uchrab turadi. Bu oila, mahalla, ta'lim muassasalarida, jamoat tashkilotlarida shaxsning ta'lim-tarbiyasi borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning oqibatidir.

Tarbiya nazariyasida bunday shaxslar bilan tarbiyaviy ta'sirga bo'lgan faol qarshiligini yengish, atrofdagi odamlarga munosabatini normallashtirish jarayoni qayta tarbiyalash deb yuritiladi.

Shaxsni qayta tarbiyalash tarbiyaning umumiy tizimidan ajralgan o'tkinchi jarayon emas. U tarbiya nazariyasining tarkibiy qismi, umumiy tarbiya bilan chambarchas bog'langan jarayondir.

Qayta tarbiyalashning mazmun-mohiyati shaxsning noto'g'ri shakllangan xulq-atvorini yengish, shaxsda ijobiy xislatlarni tarkib toptirishdan iborat bo'lmay, balki yomon tarbiyalangan shaxsning butun psixik hayotini normallashtirish, uning shaxsiga xos bo'lgan barcha ijobiy tomonlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish, ulardan tarbiya maqsadida foydalanishdan iboratdir. Chunki faqat normal psixik (ruhiy) hayot sharoitlaridagina shaxsning ijobiy tomonlarini rag'batlantirish, ularga tayangan holda uning nuqsonlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashish, yomon odat va qiliqlarini yo'q qilib, unda ijtimoiy foydali fazilatlarni tarkib toptirish mumkin.

Noto‘g‘ri tarbiyalangan shaxsni qayta tarbiyalashga kirishishdan oldin uning shaxsini va pedagogik vaziyatni o‘rganish kerak. Shaxsning nuqsonlarini imkon boricha kamayishiga yordam beradi.

Tarbiyasi qiyin shaxsning o‘z atrofidagi odamlar haqidagi fikri o‘z xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabati o‘zgara boshlagandan keyin ularga xatolarini, qarashlarining noto‘g‘riligini, muvaffaqiyatsizlik va yoqimsiz kechinmalarning sabablarini tushuntirish foydali bo‘ladi.

Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda jamoa, do‘stlar va o‘rtoqlar davrasi katta rol o‘ynaydi. Zero, shaxs faqat jamoada, o‘z do‘stlari va o‘rtoqlarining yordami va nazorati ostida o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladi. Chunki o‘z ustida ishlash, o‘z nuqsonlarini yo‘qotish, o‘zida axloqiy fazilatlarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojning paydo va uni amalga oshirishga kirishishda jamoadagi obro‘li odamlarning namunasi, jamoatchilikning fikri hamda ibratli do‘st-u birodarlarining ijobiy fazilatlari muhim rol o‘ynaydi.

Oila, mahalla, jamoatchilik, ta’lim muassasalari hamkorlikda o‘zlarining tarbiyaviy faoliyati bilan shaxsni yaxshi bo‘lishga undaydi, axloq normalariga yot bo‘lgan xulq-atvorga va qidirishdan ko‘ra ko‘proq qayta tarbiyalash uchun zamin bo‘ladigan uning yaxshi tomonlarini, barcha ijobiy imkoniyatlarini aniqlash lozim. Pedagogik vaziyatni o‘rganishda dastavval shaxsning atrofidagi odamlar bilan tengdoshlari va o‘zidan kichiklar bilan sog‘lom munosabatini o‘rganish, unga ta’sir o‘tkaza oladigan obro‘li odamlarni topish, unga kim, nima bilan va qanday ta’sir etishini belgilab olishi zarur.

Shaxsni qayta tarbiyalash jarayoni asosan to‘rtta–tiklash, kompensatsiya qilish, ya’ni tuzatish va rag‘batlantirish vazifalarini bajaradi.

Qayta tarbiyalashning boshlang‘ich davrida shaxsning oldingi ijobiy sifatlari osonlik bilan tiklanishi mumkin. *Lekin uning barcha ruhiy kuchlarini to‘la tiklashga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Shuning uchun har bir tarbiyasi qiyin bo‘lgan o‘smir yoki o‘spirin o‘zi sevgan va tezda muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo‘lgan sohadagi faoliyatni kuchaytirish bilan o‘z shaxsining u yoki bu kamchiligini* **kompensatsiya qilishga,** *ya’ni tuzatishga intiladi.*

Qayta tarbiyalashdagi **rag‘batlantirish** *tiklash va kompensatsiya qilish, ya’ni tuzatish vazifalari bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, u shaxsning ijobiy sifatlari ro‘yobga chiqadigan sohalardagi faoliyatini faollashtirishga, noto‘g‘ri xatti-harakatlarning bunyodkor g‘oyalarga*

qarshi bo'lgan buzg'unchi yot g'oyalarga keskin kurashadi. Yoshlarga yomon niyatdagi odamlarning ta'sir etishiga yo'l qo'ymaydi, ularning erkinligini «**tajovuzkor shaxslar**» dan *himoya qiladi.* Shuningdek, yoshlarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi, natijada oila, mahalla, jamoa va o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning hamkorligidagi talablari, tartib-qoidalari, rejimi va an'analari orqali barkamol shaxs tarbiyalanadi. Binobarin, qayta tarbiyalash jarayoni tezlashadi, shaxsning nuqsonlari bilan kurashish, ijobiy qobiliyatlarini aniqlab rivojlantirish osonlashadi, oila, mahalla va ta'lim muassasasi pedagogik jamoasida shaxs o'zining qiziqish va ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shaxsni qayta tarbiyalashda oila, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari, birinchi navbatda o'qituvchi-murabbiylar jamoasi shaxsga o'z qadr-qimmatini to'g'ri baholay bilishni, unda o'ziga tanqid nuqtayi nazaridan qarashni shaklantirishda yordam berishi lozim.

Shunday qilib, shaxsni qayta tarbiyalash jarayoni faqat ijobiy xulq-atvorni shakllantirishdangina iborat bo'lmay, balki noto'g'ri tushuncha va yomon odatlarni o'zgartirish hamdir. Shakllangan stereotipni buzish esa g'ayri tabiiy jarayon bo'lib, u o'z-o'zini ishontirish, qoralash, majbur etish kabi metodlar, o'z shaxsiy nazorati hamda jamoatchilik nazorati ostida o'tayotgan, uzoq davom etadigan mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Bunday faoliyatni tashkil etish va nazorat qilish jamoatchilik nazoratini ta'minlash — oila, mahalla, jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari o'qituvchi-pedagog va murabbiylarining hamkorlikdagi muhim vazifasidir.

9.6. TARBIYASI QIYIN YOSHLARNI XULQ-ATVORINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatlari ularning yosh, fiziologik va pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish yoshi hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish, murakkab va qiyin davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'smir faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda kattalar tomonidan

rahbarlik qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarida uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi o'smirlarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki o'smirning balog'atga yetish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar bolalik chog'ida unga odob - axloq o'rgatishni odatdagi shakl va usullaridan foydalanilgan bo'lsa, endi ular uning uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Avval bolalar ota - onalari, o'qituvchi va tarbiyachilarining axloq - odob haqidagi gaplarini bajonidil eshitgan bo'lsalar endilikda bunday ta'sir ularni zeriktiradi yoki yoqmay qoladi.

Natijada, o'smirlarda kattalarning fikriga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bu davr o'smirlar uchun «**qiyin**», «**murakkab**» davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smirlar bilan bo'ladigan munosabatlarda ularning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta har bir yosh shaxs bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilishdan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirlarga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o'smirlar real xatti-harakatlarining shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o'smirning psixik taraqqiyotini yanada yuksakroq bosqichga o'tishi amalga oshiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'smirlarning hayotida biologik va ijtimoiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'smirlik yoshidagi biologik, ya'ni jismoniy taraqqiyotning eng

muhim fakti jinsiy yetilishi, ya'ni jinsiy bezlarning ishlay boshlashidir. Natijada ko'pchilik o'g'il bolalar 15–16 yoshda, qiz bolalar 13–14 yoshda balog'atga yetadilar. Balog'atga yetish o'smirlarda o'ziga xos psixologik holatni vujudga keltiradi, ya'ni kishilarning ichki dunyosiga, ularning o'zaro munosabatlariga qiziqish, ularni his qilish va hali aniq tasavvur qilinmagan sevgiga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi. Bu esa shu davrga xos bo'lgan qiyinchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu qiyinchiliklar ayniqsa, o'sha yoshdagi o'smirlarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berish va ularga pedagogik-psixologik muomala bo'lmagan taqdirda keskinlashib ketishi mumkin. Bu davrni chet el psixologiyasida **«krizis» davri** deb ham ta'riflaydilar. O'smirlarning bunday o'ziga xos xususiyatini ijtimoiy - tarixiy hayot sharoitidan ajratib tushunish mumkin emas. Intizomsizlik, axloqsizlik hukm surgan mamlakatlarda, haqiqatda ham o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishi turli axloqsizliklarga olib kelishi mumkin. Bizda o'smirlarning hayot sharoiti, ularga beriladigan ta'lim-tarbiya va uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish orqali ijtimoiy foydali mehnat qilishga jalb qilish orqali qiyinchiliklar bartaraf qilinadi.

Lekin afsuski, ba'zan yoshlarimiz orasida **tarbiyasi qiyin** bo'lgan, qiyin tarbiyalanuvchi yoshlar ham uchrab turadi. Tarbiyasi qiyin bo'lishiga sabab nima?

Tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy o'smirlarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari ***pedagogik-psixologik*** *sabablari ham mavjud. Yoshlarda nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xilligidir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar guruhlarga ajratiladi.*

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy asab faoliyati va tempramentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar; irodaning bo'shligi, aql–idrokning zaif rivojlangani, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi. *Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar:*

a) axloqiy xislarning yetishmasligi;

b) o'qituvchi-pedagog, sinf yoki guruh jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot;

d) ishyoqmaslik;

e) bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va hokazolar salbiy holatlarini vujudga keltiradi.

Shuningdek, shaxsning, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

1) aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik;

2) bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, ta'lim muassasasi faoliyatidagi kamchiliklari:

1) o'qishdagi nuqsonlar:

2) *tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.*

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari nuqsonlar, chunonchi oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri;

Madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarning tipologik xususiyalariga qarab ularni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin:

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. *Bular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. O'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Ular betga chopar, o'jar, rahm-shafqatsiz, zo'ravon bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.*

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi-yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli orqa qanotda turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya», ya'ni jamoa fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf yoki guruh jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga *mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik yo'liga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarni qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzu qiladilar. Biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. Ularning xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kamchiliklarni tez unutadilar. Ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi.*

Injiq tabiatli qiyin tarbiyalanuvchilar jamoa va guruhlarda o'z o'rinlarini topa olmaydilar, ular arazchang, ginaxon bo'lib, o'z guruh va jamoalariga qo'shilib ketavermaydilar, tortinib o'zlarini kamsitilgandek his qiladilar. Ular ham qiyin tarbiyalanuvchi yoshlarning bir turidir. Jamoa o'rtasida obro' qozonishni, hurmatga sazovor bo'lishni juda xohlaydilar, lekin ulardagi tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatiga ishonchsizlik bunga imkon bermaydi. Ular ta'lim muassasasi jamoasini qoida va qonunlarini buzishga harakat qilmasalar ham, lekin bu jamoaning ish faoliyati va muvaffaqiyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida yetarlicha qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar, jamoa ishini orqaga suradilar va jamoa ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi:

Shaxsning biologik nuqsonlari: tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar turli-tumandir. Ularga: bolani ota-onasidan irsiy yo'l bilan o'tuvchi sezgi organlaridagi (ko'rish, eshitish va hokazo) kamchiliklar, asab tizimidagi kamchiliklar; bolaning psixik tomondan rivojlanishidagi kamchiliklar; ya'ni aqliy zaiflik, bilish, iroda, hissiyotdagi zaifliklar; qiziqish, intilish bilan bola rivojlanishidagi imkoniyatlarining nomutanosibligi sabab bo'lishi mumkin.

Tarbiyasi qiyin bo'lishiga yana bir sabab: bu – shaxsning oilaviy jamoatchilik tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidir. Oilada bola tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'ymaslik, oilani ta'lim muassasasi bilan o'smir tarbiyasidagi hamkorligining yo'qligi, mehnat tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'ymaslik, ta'lim-tarbiya jarayonini bolaning yoshlik, individual xususiyatlariga qarab tashkil etmaslik, ta'lim jarayoniga o'smirni

qiziqtirmaslik, ularda fikr yuritish jarayonlarini faollashtirishga e'tibor bermaslik kabilar oqibatida kelib chiqadigan qiyinchiliklardir.

Oilaviy sharoit, muhitning salbiy ta'siri, ya'ni oiladagi janjallar, er-xotin orasidagi qo'ydi chiqdilar, ichkilikbozlik, oilaviy turmushga, o'smirlar tarbiyasiga e'tiborsizlik, o'smirlarni haddan tashqari erkalatib yuborish, aytganini qilish, injiqliklarini ko'tarish, xatti-harakatlarini nazorat qilmaslik, keragidan ortiq pul bilan ta'minlash ham uning injiq, qaysar o'jar, intizomsiz, axloqsiz bo'lib qolishi uchun imkon beradi. O'smirlik yoshida ota-ona ham, o'qituvchi ham, hatto mahalla, qo'ni-qo'shnilar ham juda e'tiborli bo'lishlari lozim.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan individual munosabatda bo'lish muhimdir. Bunda har bir individuallikning fiziologik asosini va uning shaxs haqida ma'lum darajada ma'lumot beruvchi oliy asab faoliyati tiplari haqidagi bilimlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Asab tizimining kuchi asab hujayralaridagi moddalarning zapas miqdori bilan belgilanadi. Kuchli tipdagi asab tizimida bunday zapas ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir. Asab tizimining kuchi qo'zg'alish jarayoniga, shuningdek, tormozlanish qobiliyatida aks etadi.

2. Asab tizimining **kuchli tamoyiliga** muvofiq kuchli tipga *sangviniklar, flegmatiklar kuchsiz tipga esa melanxoliklar kiradi.*

3. Asab tizimining **ildamligi** miya po'stining tormozlanishi yoki aksincha tormozlanishning qo'zg'alishi bilan naqadar yengil alamashinuvidan iboratdir.

Tarbiyasi qiyin yoshlarni tarbiyalashda:

1) o'qituvchi-pedagoglar yoshlar asab tizimining **plastiklik** *xususiyatiga ega ekanligini, uning har qanday ta'sirlarga beriluvchanligini nazarda tutib, o'smirlar shaxsidagi salbiy xislatlarni yo'qotish mumkinligiga katta ishonch hosil qilishlari kerak;*

2) shuningdek, yoshlarning **g'oyaviy maslagini** *hisobga olish muhimdir. Yoshlar individualligining shaxs mazmuniga, avvalo uning g'oyaviy maslagi, ya'ni uning qiziqishlari, ideallarini bilishi kerak. Yoshlarga individual munosabatlarda bo'lishda ijtimoiy maslak sifatida ularning ijtimoiy qiziqishlarini bilish, ayniqsa, muhimdir;*

3) yoshlarni emotsional - irodaviy xususiyatlarini bilish ham ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bilan individual munosabatda bo'lishda uning qanchalik tinch, mo'minligi yoki emotsionalligi, hissiyotchanligini, ya'ni tevarak-atrofdagilardan farq etishi yoki farq etmasligini, **effektga moyil yoki moyil emasligini,** *o'z*

hissiyotini tuta olish-olmasligini va shuningdek, unda qanday hislar ustun ekanligini bilish juda muhim;

4) yoshlarning axloqiy xislatini hisobga olish ham muhimdir. Chunki yoshlarning g'oyaviy maslagining axloqiy xislatda ko'rinadi. Ammo ba'zan, axloqiy maslak bilan yoshlarning xulqi to'liq ravishda munosib kelmay qoladi. Kattalar har bir o'smir yoshning qanchalik hurmat qilishini, qanchalik to'g'riligi va vijdonliligini, o'rtoqlik va hamkorlikni qanchalik his qilishini kuzatib, bilib borishi zarur;

5) *salbiy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan o'smir yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbilarmonchilik kabilar kiradi va bunday xislatlarga ega bo'lgan o'smir yoshlarni tarbiyalash qiyin kechadi. Bunday yoshlarni tarbiyalash (jamoa orasida tarbiyalangan)da faqat ularga* **yakkama-yakka yondashish** *lozim.* Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini yoki tarbiya tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar. Ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lishgina talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin o'smir *yosh*lar bilan ishlash uning xarakteri, qiziqishlariga xos xususiyatlarni e'tiborga olish lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozni baland qilmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va ta'lim muassasasidagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina o'smir yoshlarda shunday bo'lishga havas tug'diradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini *ijobiy yo'nalishga* burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarshi vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarni kamaytirish mumkin.

Xullas, tarbiyasi qiyin o'smirlarning o'zlarini qiziqqan to'garaklariga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qolib boradi. Yana eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularni qo'lidan keladigan ishlarga e'tiborni berib, uni bajargandan keyin rag'batlantirish, uni yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki har

doim emas, balki qulay shart-sharoit yaratilganda tarbiyaviy ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa u ko'proq natija beradi.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

O'z-o'zini tarbiyalash — shaxsning o'zini anglash, o'zini-o'zi boshqarish, o'ziga talabchanlik, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini anglash va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojining yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlari — mustaqil ta'lim, o'zini ijtimoiy mehnat va kasb-hunar egallashga tayyorlash, axloqiy, estetik, jismoniy jihatdan takomillashtirish va hokazolar.

O'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlari — ijtimoiy burchni anglash, axloqiy ideal va namuna, obro' qozonish, tanqid va o'z-o'zini tanqid, o'z moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va h.k.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari — o'z-o'zini analiz (tahlil) qilish, o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berish, rag'batlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini ma'qullash, ruhlantirish, qoralash, tekshirish, o'z-o'ziga hisobot berish va h.k.

Shaxsni qayta tarbiyalash — yomon tarbiyalangan shaxslar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning tarbiyaviy ta'sirga bo'lgan har qanday qarshiligini yengish, jamiyat va atrofdagi odamlarga munosabatini me'yorlashtirish jarayonidir.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlang?
2. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.
3. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.
4. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlari deganda nimani tushunasiz?
5. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning qanday metodlarini bilasiz?
6. Shaxsni qayta tarbiyalashning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari.
2. Tarbiya bilan shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligi va uning tarkibiy qismlari.
3. O'z-o'zini tarbiyalashning shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati.
4. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlari va metodlari.
5. Shaxsni qayta tarbiyalashning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. O'z-o'zini tarbiyalash tushunchasining mazmun-mohiyati nima?

a) o'z-o'zini tarbiyalash-o'z-o'zini takomillashtirishdir;
b) o'z shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish jarayoni;
s) tarbiyaning natijasi va ruhiy rivojlanish ehtiyojlarining aks etishi;
d) tarbiyachining funksiyalarini tarbiyalanuvchining o'zi bajaradigan jarayon;
e) b, s, d.

2. Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari nechta?

a) shaxsning kamol topshidagi birinchi bosqich oila tarbiyasi va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiya bilan bog'liqdir;
b) ikkinchi bosqichda shaxsda namunali xislatlar, eng yuksak maqsadlar, estetik didlar shakllanadi;
s) uchinchi bosqichda shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy takomillashish jarayoni to'la amalga oshadi;
d) to'rtinchi bosqichda tarbiya rivojlanib shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashga aylanadi;
e) a, b, s.

3. Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlari qaysi javobda o'z aksini topgan?

a) mustaqil ta'lim;
b) o'z-o'zini ijtimoiy mehnat va kasbga tayyorlash;
s) o'z-o'zini axloqiy jihatdan takomillashtirish;

d) o'z-o'zini estetik va jismoniy jihatdan tarbiyalash;
e) a, b, s, d.

4. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlari qaysilar?
a) ijtimoiy burchni anglash, axloqiy namuna;.
b) jamiyatda hurmat-obro' qozonishga intilish;
s) tanqid va o'z-o'zini tanqid;
d) moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish;
e) a, b, s, d.

5. Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashning qanday metodlari mavjud?
a) o'z-o'zini bilish va kuzatish;
b) o'z-o'zini analiz (tahlil) qilish va ishontirish;
s) o'z-o'zini rag'batlantirish, nazorat qilish;
d) o'z-o'zini ma'qllash, ruhlantirish, qoralash, tekshirishi, o'z-o'ziga hisobot berish;
e) a, b, s, d.

6. Shaxsni qayta tarbiyalash tushunchasining mazmun-mohiyati nima?
a) tarbiyasi og'ir shaxslar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish;
b) tarbiyasi qiyin shaxslarning tarbiyaviy ta'sirga bo'lgan faol qarshiligini yengish ;
s) tarbiyasi qiyin shaxslarni atrofdagi odamlarga munosabatini normallashtirish jarayonini qayta tarbiyalash deb yuritiladi;
d) yomon tarbiyalangan yoshlarni qayta tarbiyalash;
e) a, b, s.

7. Shaxsni qayta tarbiyalash jarayoni nechta vazifani bajaradi?
a) tiklash;
b) kompensatsiya qilish;
s) tuzatish;
d) rag'batlantirish;
e) a, b, s, d.

8. Shaxs qayta tarbiyalash metodlari qaysi javobda ifodalangan?

a) qayta ishontirish;
b) rag'batlantirish;
s) jazolash;
d) maqtash, tashakkur bildirish;
e) a, b, s.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	ShO'O'TMM	Tushuncha

2. Tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.

№	TBO'O'TO'B	Tushuncha

3. Shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.

№	ShO'O'TTQ	Tushuncha

4. O‘z-o‘zini tarbiyalashning shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatini tushuntirib bering.

№	O‘O‘TShShA	Tushuncha

5. Shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyojlarini tushuntirib bering.

№	ShO‘O‘TE	Tushuncha

6. Shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalashning qanday metodlari mavjud va ulardan foydalanish yo‘llarini tushuntirib bering.

№	ShO‘O‘TQMM va UFY	Tushuncha

7. Shaxsni qayta tarbiyalashning mazmun-mohiyati va metodlarini tushuntirib bering.

№	ShQTMM va M	Tushuncha

8. Shaxsni o‘z-o‘zini va qayta tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining rolini tushuntirib bering.

№	ShO‘O‘ va QTOMTMHR	Tushuncha

X bob. PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI

10.1. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Darhaqiqat, «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**»da har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim, Davlat ta'lim standarti talablarini ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan puxta o'zlashtirgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan, yoshlarni tarbiyalovchi o'qituvchi-pedagogda yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik hamda yuksak **kasbiy pedagogik mahorat** bo'lishi talab etiladi. Shunday ekan, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan o'qituvchi-pedagogning ilmiy-metodik, ijtimoiy-siyosiy saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi-pedagog jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda u muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik-psixologik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Shundagina o'qituvchi-pedagogning pedagogik vaziyatlar mohiyatini va dialektikasini, zamonaviy ta'lim texnologiyasini va professional pedagogik mahoratni qay darajada egallaganligi namoyon bo'ladi. Pedagogik bilim va yuksak pedagogik mahorat egasi bo'lgan o'qituvchi-pedagog avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak.* Hozirgi kunda ta'lim tizimida mehnat qilayotgan o'qituvchi-pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini chuqur anglamoqdalar.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Pedagogik mahoratni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Ushbu savollarning mohiyatidan kelib chiqib pedagogik mahorat tushunchasi mazmunini *«Pedagogik ensiklopediya»* va pedagogik-psixologik adabiyotlarga asoslanib quyidagicha ta'riflash mumkin:

1-shakl

PEDAGOGIK MAHORAT TA'RIFLARI

Pedagogik mahorat – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan yondash sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan o'qituvchi-tarbiyachi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchining ustoz-murabbiylik fazilatlari, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy bilim va tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Zamonaviy pedagogik texnologiya-lardan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda o'qituvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichidan kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:
-o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
-o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
-o'qituvchi mavzu mohiyatini to'la ochib bera olishi kerak va zaruriyat bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;
-dars davomida befarq holda qatnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;
-o'qituvchining darsini yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab borish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;
-o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Pedagogik mahorat – o'qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatni, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida o'quvchi-talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchining o'z fanlarini o'rganishda erishgan tajribalarni o'z faoliyatida ijodiy qo'llangan holda o'quv- tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir.

O'qituvchining kasbiy yo'nalishidagi eng yuqori pog'ona–pedagogik mahoratini belgilaydi. Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi, pedagogik mahorat o'qituvchida yillar davomida shakllanib boradi. Mahoratli o'qituvchi hamisha ilg'or tajriba sohibi bo'la oladi. Shuning uchun «Pedagogik texnologiya» tushunchasi tarkibiga «yangi», «ilg'or», «novatorlik», «ijodkorlik», «kasb tafakkuri» kabi tushunchalar singdiriladi. Bu tushunchalarning rivoji pedagogik mahoratda namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarini mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy ifodasi tushuniladi.

Pedagogik mahorat quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy tarkibiy tuzilma (komponent)lardan iborat:

2-shakl


Pedagogik mahorat va uning tarkibiy tuzilmasi
Kuchli bilim va eng yaxshi insoniy fazilatlar pedagogik mahoratning poydevoridir.
Pedagogik mahoratning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari.
Zamonaviy o‘qitish va tarbiyalash vositalari hamda uslublaridan ishonch bilan foydalana olish.
Pedagogik faoliyatda shaxsiy yo‘l.
O‘quvchi-talabalar bilan o‘zaro aloqani bog‘lash va uni ushlab turish qobiliyati.
Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash va yuksak kasbiy salohiyatga ega bo‘lishi.
Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
Pedagogik qobiliyatlarni namoyish eta olish.
Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
O‘qituvchilik kasbiga sadoqat.
Savodli va sof adabiy tilida so‘zlash.
O‘quvchi va talabalar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish.
Pedagogik jamoada ishlay olish qobiliyati.
Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish.
Kulgi va tabassumda samimiylikni e’tirof etish.
Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.
Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish.
Ilg‘or o‘qituvchi, ijodkor o‘qituvchi, novator o‘qituvchiga xos xususiyatlar.
Talabchanlik, odillik, haqqoniylik, yaxshi niyatlilik, samimiylik, insoniylik.
Muosharat odobiga doimo rioya qilish.
Mimika va pantomimik harakatlardan o‘z o‘rnida foydalanish.
Aniq imo-ishoralarni o‘z o‘rnida ishlata olish.
Tushunarli, ta’sirchan va his-tuyg‘ularini jilovlay olish hamda ish va so‘z bilan namuna ko‘rsatish.
Pedagogik muloqot, nutq madaniyati va nutq texnikasini o‘zlashtirish.
Ma’noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.
Yangilikka intilish hissi.
Doimiy ijodiy faollik.
Tashabbuskorlik.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik mahoratining asosiy mazmun mohiyatini mezonlari va ko‘rsatkichlari–pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika sirlarini puxta egallash va yuksak kasbiy salohiyatga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar bilan o‘zaro muloqot olib borish taktikasini qo‘llash va ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardorligi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish, nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida xulq-atvorini va hissiyotlarini jilovlay olish va boshqa xususiyatlardan iborat.

Demak, professor K.Zaripovning ta’kidlashicha, yuksak pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘zida ham ilg‘orlikni, ham ijodkorlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim[1]. Buni quyida keltirilayotgan o‘qituvchining kasbiy mahorati mazmuni va mohiyati asosida ko‘rishimiz mumkin:

3-shakl

O‘qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyati mezonlari va ko‘rsatkichlari

↓

Ilg‘or o‘qituvchi, boshqa o‘qituvchilarga qaraganda o‘z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, o‘z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi.

↓

Ijodkor o‘qituvchining ilg‘or o‘qituvchidan farqi shundaki, ilg‘or o‘qituvchi mavjud manbalarni o‘rganib, shular asosida ta'lim-tarbiya bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o‘qituvchi bu manbalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Ko‘p hollarda mavjud metodik yo‘l-yo‘riqlarga o‘z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o‘zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi.

↓

Novator o‘qituvchi o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga, novator o‘qituvchilar ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlariga ham ega bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligida g‘oyat murakkab, boshqalar o‘ziga ishonmaydigan shart-sharoitlarda ham o‘z ishlarining to‘g‘ri ekanligiga ishonch bo‘ladi.

[1] K.Zaripov. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – T.: «O‘qituvchi», 1993, 97-bet.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiy mahoratining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo'lish bilan birga, quyidagi kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozim.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, o'z kasbiga sadoqat va olijanoblik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, vatanparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonchi, xushmuomalalik kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta iqtisodiy tamoyil rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf-odatlarini anglashi, siyosat, tarix, ma'naviyat va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, fan-texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, Umumiy pedagogika va psixologiyaga, etnopedagogika va etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazolar.

Xullas, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan o'qituvchilik kasbiy mahoratiga xos shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish lozim. Pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning o'qituvchilik kasbiga moslasha olishi, keng ma'nodagi o'qituvchining pedagogik mahoratini shakllanishiga bo'lgan talabga muvofiq holda pedagogik-psixologik bilimlarning nazariy va amaliy asoslarini egallashda aks etmog'i lozim. Shu boisdan ham oliy o'quv yurtlarining kasbiy ta'lim yo'nalishlariga o'qituvchi-pedagoglik kasbini sevgan, unga qiziqqan va moyilligi bo'lgan iqtidorli yoshlargina qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

10.2. PEDAGOGIK BILIMLAR – O'QITUVCHI KASBIY MAHORATINING NAZARIY ASOSI

Ma'lumki, pedagogik bilimlar o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahoratining nazariy asosi hisoblanadi.

Pedagogikaga oid umumiy bilimlar tizimi ta'lim va tarbiyani tashkil etishning qonuniyatlari, mohiyati va tamoyillarini, pedagogik amaliyotning in'ikosi, pedagogika nazariyasining empirik asosi sifatidagi pedagogik faktlar haqidagi empirik bilimlarning dialektik bog'lanishidan iboratdir.

Pedagogika nazariyasiga oid umumiy bilimlar guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

– pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish;

– pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari (tushunchalari)ni bilish;

– asosiy pedagogik faktlarni bilish;

– ta'lim-tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Birinchi guruh tarkibida quyidagi asosiy metodologik qoidalarni bilish zarur:

– ta'limning ijtimoiylashuvi;

– ta'lim-tarbiya maqsadlari, mazmuni va uslublari davlat va jamiyat talablarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar bilan belgilanishi;

– pedagogik jarayonning izchilligi va yaxlitligi;

– pedagogika nazariyasi va amaliyotining dialektik aloqadorligi;

– ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadlari, mazmuni, uslublari va shakllarining mushtarakligi;

– Davlat ta'lim standarti;

– o'quv dasturi;

– kalendar mavzusi rejasi;

– o'quvchi-talabalar uchun darsliklar;

– o'qituvchilar uchun ma'lumotnomalar (spravochniklar);

– o'qituvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanmalar;

Ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar:

– ta'lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi;

– ixtisosliklar Davlat ta'lim standarti;

– mutaxassisliklar bo'yicha namunaviy o'quv rejasi;

– fanlar bo'yicha o'quv dasturlari;

– fanlar bo'yicha ishchi dasturlari;

– fanlar bo'yicha ma'ruza matnlari;

– fanlar bo'yicha darslik, qo'shimcha adabiyotlar;

– fanlar bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmalar;

– talabalar uchun ma'lumotnomalar.

Yuqorida o'quv-metodik hujjatlarning qiyosiy tavsifnomasi tahlili quyidagilarni, ya'ni maktab, akademik litseylarda mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni mehnatga, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashda ta'lim mazmunida uzviylik darajasini aniqlashga hamda o'quv dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratishda uzviylikni ta'minlashga olib keladi.

Uzviylikni amalga oshirish maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarida ayrim mavzularni chuqurlashtirib, o'quvchi-talabalarning kasbiy moyilligiga va tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha bilim va ko'nikma egallashga imkoniyat yaratadi. Bu ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari va dasturlari asosida ta'lim jarayonini izchillik va uzviylik prinsipi asosida amalga oshirishga shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchi guruh tarkibiga ta'lim-tarbiyaning qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, shakl va uslublari, ta'lim muassasasini boshqarish va unga rahbarlik qilish, pedagogikaning nazariy g'oyalari, ma'naviy, estetik, jismoniy tarbiya usuli kabilarni bilishi lozim.

Uchinchi guruhga har qanday pedagogik tajriba mazmunining ajralmas qismini tashkil etadigan, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadigan pedagogik faktlarni bilish kiradi. Tahlil qilish, tushunib yetish va umumlashtirish nazariyani boyitadi. Eng noyob va muhim faktlar bilan boyigan nazariya esa yanada rivojlanadi va pedagogik amaliyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotining dialektik bog'lanishida bir muhim holatga to'xtalib o'tish lozim. Pedagogik faktlar pedagogik vaziyatlarni aniqlash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bilish sohasini tasniflashda uning quyidagi jihatlariga, xususan, faktlar, terminologiya, faktlarni saralash usullari, rivojlanish omillari, tasniflar, tekshirish va baholash mezonlari, tadqiq qilish uslublari, umumiy tushunchalar, hodisalar tushuntirish, qoidalar va bashorat qilish uchun zarur nazariyalar, qoidalar va qonunlarni bilish pedagogik vaziyatlarni aniqlash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy-pedagogik bilimlar tizimiga metodologik, nazariy va uslubiy bilimlar kiradi. Bu bilimlarni quyidagi to'rt turga bo'lib o'rganish mumkin:

– metodologik (pedagogik hodisalarni bilish yo'llari haqidagi) bilimlar;

nazariy (tushuntiruvchi va mo'ljal beruvchi) bilimlar;

pedagogikaga oid umumiy amaliy (pedagogik amallar va pedagogik vaziyatlarni bajarish usullari haqidagi) bilimlar;

amaliy (muayyan pedagogik jarayonlar uchun mo'ljallangan) bilimlar.

Qayd etilgan bilimlar guruhlari pedagogik madaniyat va pedagogik mahorat asoslarining shakllanish ehtiyojini yetarli darajada aks ettiradi, deb hisoblab, ushbu tasnifga ilmiy-pedagogik bilimning asosiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish va metodologik, nazariy va uslubiy hamda texnologik bilimlarni farqlash lozim.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, turli bilim darajalari farqlanadi:

– tanishish darajasi (narsalar va hodisalarni, ularni xossalarini tanish, farqlash va taqqoslash);

– ifodalash darajasi;

– bilim-ko'nikma hosil qilish (namuna bo'yicha);

– bilish, o'zgartirish.

– bilimlar tizimliligining to'rt darajasi mavjud:

– aloqalarning mahalliy xususiyati (muayyan tushunchalar, atamalar o'rtasidagi bog'lanishni ko'ra olmaslik, masalan, o'quvchi-talabalar qo'shimcha qiymat va daromadni o'zaro bog'lay olmaydilar);

– qisman tizimli aloqalar (muayyan mavzu, masala bo'yicha bog'lanishlar tizimi mavjud bo'lib, bunda boshqa masalalar bilan bog'lanish kuzatilmaydi);

– tizim ichidagi aloqalar (fan bo'yicha bilimlar hamda qonuniyatlar o'rtasidagi aloqalar tizimi mavjud);

– fanlararo aloqalar (fanga oid bilimlar bir necha fanlar ta'sirida shakllanadi).

Pedagogik bilimlar o'qituvchi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, uning pedagogik bilimlari hozirgi davr talablariga mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Pedagogik amaliyotdagi ko'pgina kamchiliklar o'qituvchining nazariya bilan qiziqmasligi natijasida ro'y beradi. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar ularning o'z faoliyatlarini psixologik va pedagogik jihatdan asoslab bera olmasliklarini ko'rsatadi.

Pedagogik bilimlar pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim, chunki, ularsiz pedagogik ko'nikmalar shakllanmaydi. Ma'lumki, bilim va ko'nikmalar o'rtasidagi

dialektik bog'lanish mavjud. Ko'nikmalar zamirida bilimlar yotadi, lekin ko'nikmalar taqlid qilish, o'rganish mexanizmi asosida, lozim darajada tushunib yetmasdan shakllanishi ham mumkin. Boshqa tomondan, ko'nikmalar bilim manbai hisoblanadi.

Amaliy faoliyatda bilimlardan samarali foydalanish muammosini yechishga oid muayyan umummilliy yondashuvlar bilimlarni o'zlashtirish muammosini umumiy tarzda tadqiq qiladigan semantika asosida belgilanadi. Tor ma'nodagi semantika–bu so'zlarning ma'nosi haqidagi fan, lekin so'nggi yillarda uning qamrov doirasi kengayib bormoqda. Keng ma'nodagi semantika o'quvchi-talabalarning shaxs yetuk mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida tabiat, jamiyat, texnika bilan o'zaro ta'sirga kirishishi asnosida oladigan axborotlari ma'nosini ifodalovchi fandir. Didaktikaning semantik muammolari pedagogika nazariyasi fani va pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishida o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborotlarning ma'nosi tansformatsiya va reduksiya jarayonida ko'pincha o'zgarib ketadi. Natijada, ilmiy ish mualliflari va tadqiqotchilariga mutlaqo tushunarli bo'lgan g'oyalarni obyektiv ifodalash ko'pincha qiyin kechadi. Bu pedagogika fanining o'zida ham jiddiy didaktik va semantik muammolar mavjudligini anglatadi.

Fikrimizcha, ushbu muammolarni hal qilishda pedagogika fani va amaliyoti o'rtasidagi bog'lovchi va o'zgartiruvchi bo'g'in hisoblanadigan oliy o'quv yurtlari o'qituvchi-pedagoglari zimmasiga muayyan vazifalar yuklanishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar pedagogik bilimlarni qabul qilish va tushunishga ma'lum tayyorgarlik zarurligini ko'rsatadi.

Mutaxassislarning tadqiqotlari natijasida o'qituvchilarning pedagogik bilimlarni qabul qilishga tayyorgarligining besh darajasi aniqlangan: **axborot, tezarus, uslubiy, texnologik, tadqiqot.**

Axborot darajasida *asosiy vazifa mavjud bilim haqida axborot olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.*

Tezarus darajasi *fan tili bilan bog'liq. Kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog bu tilni bilishi shart, chunki bilimlar ularni lozim darajada qabul qilish va tushunishni taqozo etadi. Tezarus darajasi bilim va inson o'rtasidagi axborotga oid to'siqlarni bartaraf etish va mutaxassislarning fan tilini erkin o'zlashtirishga imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.*

Uslubiy daraja *nafaqat ilmiy bilimlar, balki kasbiy ko'nikmalarning ham mavjudligini, pedagogik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarni o'zlashtirilganligini anglatadi.*

Texnologik daraja *ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg'or tajribani amaliyotga joriy etish maqsadida ularni sifatli va samarali aks ettirishni nazarda tutadi. Aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish degani emas. Bunda muayyan uslub qo'llanilayotgan shart-sharoit, xususan, o'quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, o'qituvchi-pedagoglarning texnologik madaniyat va pedagogik mahorat darajasi hisobga olinishi lozim.*

Ta'kidlash zarurki, o'qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratining tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli va yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o'qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o'qituvchi-pedagoglar amaliyotning ilmiy salohiyatini, tadqiqot faoliyati uchun maydonning mavjudligini namoyish eta oladilar.

Pedagogika nazariyasi fani va amaliyotining o'zaro uyg'unligini anglab yetish o'qituvchi pedagogik madaniyati va pedagogik mahoratining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagogika nazariyasi va amaliyotining o'zaro ta'sirini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini aniqlash uchun quyidagi masalalar yechimini hal qilish zarur: pedagogik bilimning amaliyotga ta'siri samaradorligini oshirish, pedagogik bilimni ta'lim-tarbiya faoliyatiga tatbiq etish jarayonini jadallashtirish, ta'lim nazariyasini o'qituvchi ijodiy izlanishlarining negiziga aylanishini ta'minlash, o'qituvchining ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga ehtiyoj sezilishini ta'minlash kabilar.

Shunday qilib, pedagogik bilimlar o'qituvchi-pedagoglarning ko'nikmalari tarkibiga amal qiladi va amaliy faoliyatda ular orqali ro'yobga chiqadi. Pedagogik bilim va ko'nikmalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli pedagogik ko'nikmalar o'qituvchi pedagogik madaniyati va pedagogik mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi.

10.3. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK PROFESSIONALIZMI VA KASB MAHORATI HAMDA QOBILIYATI MEZONLARI

O'qituvchining kasbiy fazilatlari (*chuqur bilimga egaligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi*) – ta'lim jarayonini

rivojlantirish, o'zgaruvchan sharoitlarda ta'lim muassasasiga moslashuvi, innovatsion faoliyat, nihoyat ta'lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta'sir etuvchi omillardan biridir. O'quvchi-talabalar qobiliyatlarining qay darajada namoyon bo'lishi va imkoniyatlarining qanday ochilishiga o'quvchi-talabalar va o'qituvchi-pedagog o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllari, umuman olganda o'qituvchining kasbiy yetukligiga bog'liq.

Har qanday faoliyatda professionalizm (*professional – biror kasb bilan doimiy shug'ullanadigan odam, professionalizm – o'z kasbini mohirlik bilan bajarish*) – standart kasbiy muammolarni yechishni bilishdir.

O'qituvchi shaxsining pedagogik qobiliyati va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda «**professionalizm**» tushunchasi «**shaxsning kasb mahorati**» sifatida o'rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs dinamizmi, ya'ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta'sir o'tkazish va mantiqiy ishontira olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi.

O'qituvchining professionallik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog'liq.

Birinchidan, *pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish,* **ikkinchidan,** *pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimiy-madaniy me'yorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi.*

Aslida pedagog bo'lish uchun kishidagi iste'dodning o'zi yetarli emas, pedagogga pedagogik layoqat, ya'ni pedagogik qobiliyat kerak. Bu masala shaklan oddiy tuyulsa-da, botinan jiddiy.

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobilyat – uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda subyektiv shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik qobiliyati va faoliyati zamirida takomillashib va rivojlanib boradi. *O'qituvchining pedagogik professionalizmi va o'z kasbiga* «**kompetentligi**» *(loyiqligi), binobarin, o'qituvchilik faoliyatining samaradorligi, ma'lum ko'rsatkichlarga, masalan, pedagogning nimaga va*

qanday qilib o'rgatishini qanchalik tushunishi, ham bilishi, uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada o'zlashtirib olgani, kasbiy pedagogik mahorati, ta'lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni qanchallik hal eta olish pedagogik qobiliyati bilan belgilanadi. Shunday ekan, **«O'qituvchi pedagogik qobiliyatlarini qanday baholash mumkin?»** *degan savollar tug'ilishi tabiiy hol. Bu borada* **«Pedagogik vaziyatlar»** *testi o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini va pedagogik mahoratini aniqlashga qo'l keladi deb o'ylaymiz.* **«Pedagogik vaziyatlar»** *testi o'qituvchining pedagogik qobiliyati va mahoratini testda keltirilgan pedagogik vaziyatlardan kelib chiqqan holda qanday chora-tadbirlar qo'llanishiga qarab baholash imkonini beradi*[1]. O'qituvchining pedagogik qobiliyati va mahoratini aniqlash bo'yicha tadqiqot-tekshiruv o'tkazishdan oldin sinaluvchi o'qituvchiga quyidagi mazmunda yo'l-yo'riqlar beriladi: *Sizning e'tiboringizga test tarzida ifodalangan pedagogik vaziyatlar taqdim etilmoqda. Har bir pedagogik vaziyatning mazmunini chuqur o'rganganingizdan keyin siz taklif etilgan variantlardan birini, ya'ni ayni vaziyatda to'g'ri deb hisoblangan variantingizni belgilaysiz. Agar sizning tanlashingiz uchun keltirilgan shu variantlarning birortasini ham ma'qul topmasangiz , u holda siz oxirida o'zingiz taklif etgan variantni (pedagogik vaziyat yechimini) yozib qo'yishingiz mumkin. Odatda, bu pedagogik vaziyat yechimi uchun keltirilgan yettinchi, ya'ni eng keyingi variant hisoblanadi.*

Quyida pedagoglarning kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan bir necha pedagogik vaziyatlarni keltirib o'tamiz.

Birinchi vaziyat. Deylik siz auditoriyada dars o'tyapsiz hamma talabalar tinchlandi, auditoriyada jimlik hukm surmoqda, ammo ko'p vaqt o'tmay talabalardan biri birdaniga qattiq kulib yubordi.

Siz ajablanib sababini bilish maqsadida kulgan talaba tomon nigoh tashlashingiz bilanoq, u sizga qarab shunday dedi: **«Domla, sizga qarasam negadir kulgim kelaveradi va shuning uchun ham siz dars o'tishni boshlashingiz bilanoq o'zimni to'xtata olmay kulib yuboraman. Hozir ham xuddi shunday holat yuz berdi».**

Bunday vaziyatda siz unga qanday munosabat bildirgan bo'lardingiz? Quyida bildirilgan munosabatlarning bir necha varianti so'zlar bilan ifodalangan.

---

[1] Р.С.Немов. Психология. Учебник для студентов, педвузов. (3-х томник), 3-книга. Экспериментальная педагогическая психология и психодиагностика. – М.: Просвещение: Владос, 1995. с.512.

Keltirilgan variantlardan birini tanlang va belgilang.

1. «Ana xoloo...s!»
2. «Xo'sh, senga nima kulgili tuyulyapti?»
3. «Kulging kelgan bo'lsa, mayli xohlaganingcha kulaver!»
4. «Nima, sen ahmoqmisan?»
5. «Xushchaqchaq insonlarni juda yaxshi ko'raman-da...»
6. «Agar men senga yaxshi kayfiyat bag'ishlagan bo'lsam, bundan juda xursandman».
7. ... ...

5. «Agar buning sababini sen menga tushuntirib bera olsang, juda yaxshi bo'lardi».

6. «Kel, yaxshisi bu masalani sen bilan birgalikda muhokama etib ko'raylik, balki sen haqdirsan».

7. ... ...

5. «Agar sen hozir o'qimay qo'ysang, keyin nima bilan mashg'ul bo'lmoqchisan?»

6. «Konsertga borishing (do'stlaring bilan sayr qilishing, musobaqani tomosha qilishing) sen uchun institutdagi mashg'ulotga qaraganda ham qiziqmi? Buning sababi bo'lsa kerak, bilsak bo'ladimi?»

7. … … …

ishning o'zi yo'q, faqat menda xohish bo'lsa bas, hamma yumushni uddalayman». Shu jumladan, siz saboq berayotgan o'quv predmetini ham hech qanday qiyinchiliksiz o'zlashtira olaman». Talabaning bu fikriga siz qanday munosabat bildirasiz?

1. «Sen o'z imkoniyatlaring haqida hech o'ylab ko'rganmisan?»
2. «Senda bunday qobiliyat borligiga men shubha bilan qarayman!»
3. «Bunday balandparvoz gaplarga qaraganda, sen o'zingga haddan ortiq bino qo'ygansan shekilli? Kamtarroq bo'lganing yaxshi».
4. «Albatta, hech shubham yo'q, bilamanki, agar sen astoydil harakat qilsang, hamma ishni eplaysan».
5. «Hoynahoy, bu sendan juda katta kuch talab qilsa kerak?»
6. «O'ziga haddan tashqari ishonish –ishga zarar keltiradi».
7. ... ...

6. «Sen hech o'ylab ko'rganmisan, nima uchun men bu haqda har doim senga eslataman?».

7. … … …

6. «Sen tashvishlanma, men ham talaba paytimda dastlab o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishda ancha qiynalgan edim. Mehnat qilsang hamma narsaga erishasan».

7. … … …

1-jadval

Pedagogik vaziyatlar tartib raqami	Tanlangan javob variantlari va uning ballardagi bahosi							
	1	2	3	4	5	6	7	8
1	4	3	4	2	5	5	-	-
2	2	2	4	3	5	5	-	-
3	2	3	4	4	5	5	-	-
4	2	3	3	4	2	5	-	-
5	2	2	3	3	5	4	5	5
6	2	2	3	4	5	5	-	-
7	2	2	3	4	4	5	-	-
8	2	2	3	5	5	3	-	-
9	2	4	3	4	5	4	-	-
10	2	3	4	4	5	5	-	-
11	2	2	3	4	4	5	-	-
12	2	3	4	5	5	5	-	-
13	3	2	4	4	5	4	5	-
14	2	2	3	4	4	5	-	-

«Pedagogik vaziyatlar» testi kaliti.

Eslatma: *erkin javoblar alohida baholanadi va tegishli ballarning umumiy yig'indisiga qo'shiladi.*

Pedagogik vaziyatlarning to'g'ri yechimini topa bilish qobiliyati sinaluvchi-o'qituvchining barcha pedagogik vaziyatlar bo'yicha (*ushbu testda 14 ta pedagogik vaziyat keltirilgan*) to'plangan ballarini 14 ga bo'lish natijasida olingan qiymat bilan belgilanadi.

Agar sinaluvchi-o'qituvchi 4,5 balldan ortiq o'rtacha bahoga ega bo'lsa (ayni metodika bo'yicha), uning pedagogik qobiliyati va mahorati ancha rivojlangan hisoblanadi.

Agar sinaluvchi-o'qituvchi olgan o'rtacha 3,5 balldan to 4,4 ballar oralig'ida bo'lsa u holda bu qiymat shu sinaluvchi o'qituvchining pedagogik qobiliyati va mahoratini rivojlanish darajasi o'rtacha ekanini ko'rsatadi.

Agar o'rtacha baho 3,4 balldan kichik bo'lsa, bu hol uning pedagogik qobiliyati va mahorati unchalik rivojlanmaganidan, ya'ni past darajaligidan dalolat beradi.

Demak, o'qituvchining professionalizmi bu faoliyat subyektiga berilgan sifat tavsifi bo'lib, uning kasbiy qobiliyatiga oid va pedagogik mahorati bilan bog'liq vazifalarni hal etish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish darajasi o'qituvchilarda turlicha bo'lib, buni yuqoridagi *«Pedagogik vaziyatlar»* testi javoblarida ko'rsatib o'tganimizdek, o'qituvchining kasbiy professionalizmi (*kasbiy qobiliyati va mahorati*) **yuqori, o'rta va past darajada** bo'lishi mumkin. *O'qituvchining kasbiy professionalizmi o'z fani orqali, ta'lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt ichida o'quvchi-talabalarda topshiriqlarni samarali bajarishga tayyorlikni shakllantirish san'atini qay darajada egallagani bilan belgilanadi.*

Bizning nazarimizda, o'qituvchining pedagogik professionalizmi shakllanishining muqaddimasi kasbda o'zini aniq anglash, o'z kelajagini rejalashtirish, ma'naviy «etalon» namunalarini shakllantirishdan boshlanadi.

Bu jarayonning xotimasi - «superprofessionalizm» deyiladi (endi o'qituvchi ilg'or o'qituvchiga, ijodkor o'qituvchiga, novator o'qituvchiga aylanadi).

O'qituvchining kasbiy professionalizmi – pedagogik mahorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik mahorati (*o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va o'quvchi-talabalar bilan o'zaro hamkorlik qila olish malakasi*) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to'rtta o'zaro bog'liq jihatlardir.

Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, o'qituvchi professionalizmi – bu shaxs va faoliyat subyektining murakkab va ko'p qirrali integral xususiyatlari kompleksi bo'lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

a) o'qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar;

b) o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (*me'yoriy professionalizm*).

d) o'qituvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari *(noyob professionalizm – mualliflar)*.

«Noyob professionalizm»ning asosiy tarkibiy qismlari sifatida **«kasbiy mahorat»**, **«pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi»**, **«pedagogik ijodkorlik»**, **«shaxsiy kasbiy salohiyat»***ni belgilash mumkin.*

Bular *«Mahorat – Uslub – Salohiyat»* formulasida o'z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va *«Noyob professionalizm»*ning ko'rsatkichlari hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik professionalizmiga doir ma'lumotlar va tushunchalar bo'yicha tizimli yondashuv nazariyasi nuqtayi nazaridan o'tkazilgan qiyosiy tahlillarimiz professionalizmining nafaqat mazmun, faoliyat va pedagog shaxsiga tegishli jihatlari, balki uning yaxlit (integral) komponentlarini ham belgilash imkoniyatini beradi.

Mazkur komponentlar quyidagilar:

– umumiy va maxsus qobiliyatlar;

– o'qituvchi shaxsning pedagogik yo'naltirilganligi;

– kasbiy-pedagogik jihatdan komponentlik;

– o'qituvchi-shaxsning kasbiy muhim sifatlari;

– pedagogik faoliyat va muloqotdagi individual uslubiy xususiyatlari;

– pedagogik mahorat;

– kasbiy-pedagogik tajriba;

– kasbiy-shaxsiy va ijodiy salohiyat.

Biz har bir komponent o'qituvchi professionalizmi shakllanishi va rivojlanishining individual xususiyatlari bilan, ya'ni o'qituvchining o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir etadi deb, hisoblaymiz.

Umuman, bu fikrlar hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasida ilgari surilayotgan metodologik tamoyillar subyekt yondashuvi g'oyalariga asoslanadi va kelajakda bu muammo yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab etadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchining professionalizmi empirik ma'noda o'z kasbini puxta egallagan, o'z bilim va tajribasini o'quvchi-talabalar bilan mashg'ulotlar olib borishda to'liq amalga tatbiq qila olishi bilan baholanadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan esa o'qituvchining professionalizmi, dunyoqarashi, intilishlari, ijtimoiy muhit va shaxsiy pedagogik tajriba ta'sirida shakllanuvchi noyob individual hodisalar sifatida o'rganiladi.

Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining professionalizmi – bu o'quvchi-talabalar bilan muloqot, hamkorlik va do'stona munosabatlar

jarayonida namoyon bo'ladigan «**ta'lim va tarbiya berish san'ati, pedagogik mahorat va erkin ijod**»dir.

10.4. O'QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATINI VA KASBIY QOBILIYATINI DIAGNOSTIKALASH (TASHXISLASH) USULLARI

O'qituvchi pedagogik faoliyatini, tajribasini va kasbiy qobiliyatini diagnostik o'rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va shu pedagogik jamoaning har bir a'zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o'rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o'z navbatida o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Shu munosabat bilan o'qituvchining pedagogik faoliyatida erishiladigan yutuqlarini belgilashda pedagogik diagnostika muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 4 va 5-shakllarda o'qituvchi pedagogik faoliyatini diagnostikalashning eng ko'p tarqalgan usullari ko'rsatilgan bo'lib, ularni tanlashda qo'llangan maqsad asos qilib olingan.

Pedagogik amaliyotda o'qituvchi pedagogik faoliyatini va kasbiy qobiliyatini «**diagnostikalash**» *ya'ni tashxislash deganda faqat uning mutaxassis sifatida tayyorgarlik darajasini aniqlash tushuniladi.* Bunday har tomonlama yondashuv pedagog faoliyatini va qobiliyatining boshqa qirra (komponent)larini ikkinchi darajadagiday talqin etilishiga sabab bo'lmoqda. Aslida esa o'qituvchi pedagogik faoliyatini samaradorligi bilan ta'minlanadi. Shu jihatdan qaraganda pedagogik qobiliyatlar va ularning namoyonlik darajasini aniqlash usuli muhim ahamiyatga ega.

Uslubiy matn orqali pedagogik qobiliyat va uning komponentlarini izohlash mumkin. *Buning uchun qobiliyat komponentlari bo'yicha* ***0-5 ball****gacha baho qo'yiladi. To'plangan ballar har komponent doirasida alohida va umumiy xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Qobiliyat komponentlari bo'yicha yiqqan umumiy ballarning yarmidan kam bo'lsa, shu yo'nalish o'qituvchi o'z ustida ishlashi lozimligini ko'rsatadi.*

Umumpedagogik mahorat va qobiliyatning rivojlanganlik darajasi o'lchovi esa quyidagicha bo'lishi mumkin:

4-shakl

O‘qituvchi pedagogik faoliyatini diagnostikalash usullari




O‘qituvchi-pedagogik faoliyatini har tomonlama (kompleks) diagnostikalash tartiboti va mazmuni
Diagnostika uslubini tanlash (ishlab chiqish)
Diagnostika o‘tkazish jarayoni (bosqichlari)
Diagnostika natijalari qayta ishlash va interpritatsiya
Diagnostika natijalarining tahlili asosida tavsiya-tadbirlar ishlab chiqish
Tavsiya va tadbirlar asosida uslubiy xizmat mazmunini belgilash
Diagnostika o‘tkazish mexanizmi ishlab chiqiladi. Eng qulay diagnostik usullar vositalar majmuasi tuziladi.
1.O‘qituvchining nazariy, uslubiy tayyorgarlik darajasini o‘rganish
2.O‘qituvchining pedagogik qobiliyati, mahorati va individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish.
Diagnostika natijalari tahlil etiladi. Ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi.
O‘qituvchining nazariy, uslubiy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, shaxsiy sifatlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish (tuzatish) va profilaktik ishlari belgilanadi.
Aniq maqsadga yo‘naltirilgan uslubiy xizmatning shakl va mazmuni belgilanadi.
Qayta diagnostikalash, uslubiy xizmat samaradorlik darajasini tahlil qilish

140-165 ball-yuqori darajada rivojlanganlik;
115-139 ball-o'rtadan yuqori;
82-114 ball-o'rta;
66-81 ball-past;
0-65 ball-juda past.

T-r	Qobiliyat qirralari	Qobiliyatlarning namoyonligi (izohi)	Ballar
1	2	3	4
1.	Dialektik qobiliyati	1.O'quv materialini aniq, tushunarli qilib o'quvchi-talabalarga yetkaza olish. 2.O'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning mustaqil fikrlashlarini faollashtirish. 3.O'quvchi-talabalarni yangi tushunchani o'zlashtirishga tayyorlash, ularning har birining tayyorgarlik darajasini bilish.	
2.	Akademik qobiliyati	1.O'zi dars beradigan fanning ilmiy-nazariy asoslarini mukammal bilish. 2.Mutaxassisligi bo'yicha fan yangiliklarini doimiy ravishda o'zlashtirib, o'zning nazariy tayyorgarlik darajasini muntazam ravishda o'stirib borish. 3. O'z fani bo'yicha ijodiy izlanish, kichik bo'lsada, ilmiy tadqiqot ishi olib borish (tajriba-sinov, dastur, darsliklar ustida ishlash).	
3.	Perseptiv qobiliyati	1.O'quvchi-talabalarning ichki his-tuyg'ularini, ruhiy holatlarini his qilish, sezish. 2.Psixologik kuzatuvchanlik. 3.O'quvchi-talabalarga hamdard bo'lish.	
4.	Nutqiy qobiliyati	1.Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilishi, urg'ularning to'g'ri qo'yilishi. 2.Nutqning mazmundorligi. 3.Nutq komponentlarining mantiqiy bog'liqligi, obrazliligi. 4.Nutq texnikasi:	

		– tovushning tiniqligi, – jarangdorligi, – diksiya (so‘zni talaffuz qilish uslubi)ning aniqligi; – nutq tempining to‘g‘ri amalga oshirilishi; 5.O‘z fikrini aniq, oddiy va tushunarli qilib o‘quvchi-talabalarga yetkaza bilishi.	
5.	Tashkilotchilik qobiliyati	1.Jamoani uyushtira olish, topshiriq va vazifalarni bajarishda o‘quvchi-talabalarni faollashtira bilish. 2.O‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish, darsni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va unumli foydalanish. 3.O‘z faoliyatini nazorat qilib borish, tekshira olish. 4.O‘quvchi-talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, ularda hamkorlik, o‘zaro va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.	
6.	Izzat-hurmat qozona olish qobiliyati (avtoritar)	1.O‘quvchi-talabalarga bevosita hissiy-irodaviy ta’sir ko‘rsata olish, ularni o‘ziga ergashtira bilish. 2.O‘z harakatlarida qat’iylik, talabchanlik, sabr-toqatlik obyektivlik. 3.Pedagogik mas’uliyatni his qila bilish, o‘quvchi-talaba shaxsini hurmatlash. 4.Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, maqtov, tanqid va tanbehdan me’yorida foydalana olish, haqiqatparvar bo‘lish.	
7.	Kommunikativ qobiliyat	1.Muomala madaniyati. 2.Pedagogik muloqot vosita va usullaridan to‘g‘ri foydalana olish, pedagogik takt. 3.O‘quvchi-talabalar bilan «til» topa olish, o‘z suhbati, so‘zlari bilan ularni qiziqtirish, jalb eta bilish.	
8.	Istiqbolni ko‘ra bilish qobiliyati (pedagogik	1.O‘z pedagogik harakatlari natijalarini oldindan tasavvur qilish, ko‘ra bilish. 2.Har bir o‘quvchi-talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini to‘g‘ri belgilash,	

	prognoz)	o'quvchi-talaba shaxsi rivojini istiqbolli loyihalash (rejalashtirish). 3.O'quvchi-talabalarning u yoki bu xususiyatlari, shaxsiy fazilatlarini qay darajada shakllantirish va ularning maqsadga muvofiqligini oldindan ko'ra bilish.	
9	Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati	1.Pedagogning diqqati: – hajmi; – kuchli (barqarorligi); – ko'chishi; 2.Kuzatuvchanlik. 3.O'quvchi-talabalar diqqatini samarali (optimal) tashkil eta olish.	

Ushbu metodika o'qituvchi faoliyatini va qobiliyatini har tomonlama **«diagnostikalash»** kompleksi sifatida qo'llanilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda tajribali o'qituvchi-pedagoglar, bitiruvchilar savodxonligini aniqlash uchun *dixomotik baholash usulidan* foydalanishi lozim. Bunda **«erishdi», «erishmadi», «o'tdi», «o'tmadi»** va hokazo mezonlar mavjud. Bunday baholashlar ta'lim standartida belgilangan bilim va malakalarga bo'lgan talablar mazmunidan kelib chiqmog'i lozim. *Dixomotik (ikkilik, muqobillik) shkala usulida* baholash ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek, DTSning kiritilishi bilan bog'liq Rossiya ta'lim tizimida ham shu usulni qo'llash tavsiya etilgan.

DTSning o'lchov birliklarini ishlab chiqish quyidagi talablarni bajarish bilan bog'liq:

– *o'lchov tizimlarida DTSning talablari bajarilgan yoki bajarilmaganligi qayd etilishi;*

– *o'lchov tizimlari barcha uchun (o'qituvchi-pedagoglar, ota-onalar, o'quvchi-talabalar, tekshiruvchilar va hokazolar) tushunarli, aniq bo'lishi.*

O'qituvchi uchun bu pedagogik diagnostika bo'lib, bu usul yordamida o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish va o'zlashtirilmaganligi aniqlanadi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik qobiliyati va mahoratiga baho beriladi.

YUNESKO materiallariga ko‘ra o‘lchovlar texnologiyasi, ya’ni uzluksiz ta’limni ma’lum bosqichini yakunlagan o‘quvchi-talabalar (ma’lum bir ta’lim sohasi yuzasidan) quyidagi ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak: **«terminlar» «nomma-nom aytib berish», «tushunchaga ega bo‘lishlari», «narsa va hodisalarning sababini aytib bera olishlari», «izohlash», «sharhlash», «farqlash», «misollarni keltira olish», «aniq, qisqa ta’riflay olish», «bilimlarni amaliy qo‘llay olish»** yoki *shuningdek, o‘quv malakasi (bilimlarni amaliy qo‘llay olish).*,

– o‘qituvchi yordamida topshiriqlarni yechish yo‘llari va usullarini aniqlash;

– o‘z faoliyatini baholay bilish, taqqoslay olish;

– o‘z-o‘zini nazorat qilishda kitoblardan foydalana olish;

– o‘z tengdoshlari ishini obyektiv baholay olish.

Kommunikativ malaka (farqlash):

– muhokama, munozara:

– fikrlash, ifodalash, tasvirlarni bayon etish.

Bilimlarni amaliy qo‘llash:

– munozaralarda ishtirok etish (boshqalarning fikriga diqqat qilish, savollar qo‘ya olish, to‘ldirish, savollarga javob berish).

Axloqiy madaniyat (farqlash):

– mehnatsevarlik-dangasalik, rostgo‘ylik;

– yolg‘onchilik, mas’uliyatlilik, mas’uliyatsizlik tushunchalaridan misollar keltirish zarurdir.

Yaxshi o‘qituvchilarni saralash bir yillik emas, balki ikki-uch yil sinov matnlari tahliliga binoan amalga oshiriladigan ishdir. Bilimdon pedagoglarni har bir fan o‘qituvchisining taxminan so‘nggi o‘n yillik faoliyati natijasiga ko‘ra aniqlash ham mumkin.

Shunday qilib, hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining shiddatli rivojlanishi maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan o‘quvchi-talabalarga chuqur bilim berish, ularni hozirgi zamon yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish har bir o‘qituvchi-pedagogdan doimiy ravishda o‘z kasbiy malakalarini va pedagogik mahoratini oshirib borishni taqozo qiladi. *Shunday ekan, uzluksiz ta’lim tizimida, xususan, oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchi-pedagoglar bilan shartnomalar tuzilishida va lavozimlarga qo‘yilishida pedagogik salohiyatga, o‘z malakasini oshirish va ilmiy tadqiqot natijalariga qarab qo‘yilishi ayni muddaodir.*

10.5. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI — TA'LIM VA TARBIYA SIFATI KAFOLATI

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli yuqori saviyadagi kasbiy madaniyat va pedagogik mahoratga ega, pedagogika-psixologiya va metodologiya, zamonaviy o'qitish texnologiyalari sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan oliy o'quv yurtlarida asosiy e'tibor bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarida ijodiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos usullarini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lish, avvalo, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi shaxsining o'z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va yoshlar bilan individual oliy o'quv yurtlarida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lish kasbiy-pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga ta'lim olish jarayonida va amaliyotda kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki barcha sohalarda bo'lganidek, kasb mahorati ham o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. Shu narsa alohida e'tiborga loyiqki, o'qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin pedagogik faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki kasb mahorati o'ta murakkab va milliy xususiyatga ega jarayon bo'lgani bois, uni egallash, o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi. Ammo pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida egallash har doim ham o'z samarasini bermaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega bo'lgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni, ya'ni barkamol shaxsni tarbiyalovchi o'qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo'lishi lozim. Hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zlashtirgan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning ta'lim tizimiga tatbiq eta oladigan o'qituvchidan yuksak kasb mahorati talab qilinadi.

O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun avvalo, o'zining individual kasbiy xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog'liq. Bu usul oliy ta'lim muassasalari faoliyatida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchisi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishi kasbiy-pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, kasbiy ta'lim o'qituvchisining pedagogik mahoratini namoyon qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida yuksak mahoratli omilkor o'qituvchi kasbiy-ta'lim o'qituvchisini shakllantirish uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

– o'z mutaxassisligi bo'yicha bazaviy puxta tayyorgarlik (kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlar);

– metodologik bilimlarni egallash madaniyati;

– pedagogik-ijodkorlik va kreativlik.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kasbiy ta'lim mutaxassisini shakllantiradi va uni murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis lozim bo'lgan kasbiy sifatlarning murakkab to'plamini an'anaviy ta'lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha ijobiy xususiyatlar

amaldagi ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to'ldirilib borilsa, unga ratsional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi bir-birini to'ldirib qo'llanilganda shakllantirilishi mumkin.

Quyidagi 6-shaklda oliy ta'lim muassasalari talabalarida, ya'ni bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini belgilab beruvchi yuqorida keltirilgan uchta yo'nalishdan har birining (*bazaviy, metodologik, ijodiy*) tashkil etuvchi muhim jihatlari ko'rsatilgan:

6-shakl



Darhaqiqat, har bir bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatlaridan qat'i nazar fundamental bilimlarga, pedagogik mahorat va qobiliyatga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalarni, yuksak pedagogik mahoratni egallashda, bo'lajak mutaxassis kasbiy ta'lim o'qituvchisiga o'z kasbiga oid u yoki bu muammo bo'yicha o'z nuqtayi nazarini aniqlab olish imkoniyatini beruvchi ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqil faoliyat tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, ta'lim muassasasida o'qitish jarayonidagi o'qituvchining faoliyati pedagogik mahorat imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchi-talabalarni fan asoslarini chuqur egallashga yo'naltirish, bilim olishga va kasbiy mahorat sirlarini bilishga nisbatan qiziqish uyg'otish, ijtimoiy borliqqa erkin va ongli munosabatni tarbiyalashdan iboratdir.

O'qituvchining ma'lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko'rinishida va ta'lim jarayonida quyidagi uchta bosqichda pedagogik mahorat muhim ahamiyatga ega: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).**

– **Tashxislashda** o'qituvchi didaktik jarayonda kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchi-talabalarning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish holatlari namoyon bo'ladi;

– **bashoratlash** o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'llashdir;

– **loyihalashtirish** (rejalashtirish) o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Shuningdek, o'qituvchining tarbiyachilik faoliyati va mahorati mazmunida esa oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlarining mohiyati aks etadi. O'qituvchi **tarbiya-mazmunini** shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilaydi. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyat avvalo o'qituvchilik faoliyatiga ham bog'liqdir.

O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – o'quvchi-talabalar dunyosiga kirib borishida, ularning mehr-muhabbatiga va hurmatiga sazovor bo'lishida, ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatni to'g'ri va ma'lum bir maqsadga yo'naltira olishida; o'quvchi-talabalarni har taraflama rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatlarni to'g'ri tashkil qila olish malakasida; o'quvchi-talabalar jamoasi va alohida shaxsga muhitni bir maromda tashkil qilishida; tarbiya qonuniyatlari va o'quvchi-talabalar jamoasi hayotini tashkil qilish qonuniyatlaridan amaliyotga o'quvchi-talabalar egallagan bilim va ijobiy tatbiq etishida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, unga asoslangan ko'nikma va malakalar o'qituvchi-pedagog tarbiyachilik mahorati mohiyatining asosi hisoblanadi. O'qituvchi-tarbiyachi sifatida yuqorida ta'kidlangan pedagogik mahorat bilan bog'liq qobiliyatlarni malaka va ko'nikmalarni yillar davomida shakllantirib borishi zarur. Ana shundagina ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifati kafolatlanadi va ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishiladi[1].

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Pedagogik mahorat – yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etilishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari – nutq malakasi va texnikasini o'zlashtirish; tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash, mimika va pantomimik harakatlaridan o'z o'rnida foydalanish; ma'noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash; hissiy-psixik va tasodifiy holatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlay olish; turli vaziyatlarda o'qituvchi-pedagog va tarbiyachiga xos bo'lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish; kulgi va tabassumla samimiylikni e'tirof etish; o'quvchi-talabalar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish; savodli va sof adabiy tilda so'zlash; ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish; ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini, pedagogika va psixologiyani chuqur bilish.

«Professionalizm» – shaxsni kasb mahorati va kasbiy qobiliyatini namoyon etishidir.

[1] Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, 158-173-betlar.

O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1.O‘qituvchining pedagogik mahorati qanday namoyon bo‘lishi mumkin?

2.Pedagog mahoratini oshiruvchi va takomillashtiruvchi omillarga nimalar kiradi?

3. Pedagogik texnika qanday malakalarni o‘z ichiga oladi?

4.Pedagogning o‘z ruhiy holatini boshqarish texnikasi deganda nimani tushunasiz?

5.Pedagogning nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?

6.Pedagogik qobiliyatning qanday turlarini bilasiz?

7.Pedagogik qobiliyatlarning o‘qituvchi faoliyatidagi rolini qanday baholaysiz?

8. Pedagogik qobiliyat bilan pedagogik mahorat qanday bog‘liqlikda bo‘ladi?

9. O‘qituvchilik kasbida kommunikativ qobiliyat nima uchun zarur?

10. Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning mohiyati nimalardan iborat?

11. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari nimalarni o‘z ichiga oladi?

12. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi ekanligini qanday baholaysiz?

13. O‘qituvchining pedagogik «professionalizmi» deganda nimani tushunasiz?

14. O‘qituvchining pedagogik faoliyatini diagnostikalashning qanday usullarini bilasiz?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

Pedagogik mahoratning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati.

1. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.
2. O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati.
3. Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.
4. O‘qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati.
5. O‘qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish yo‘llari va shart-sharoitlari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Pedagogik mahorat – bu .....

a) muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda shu maqsadni natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

b) o'qituvchi tomonidan pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omilidir;

c) didaktik hamda tarbiyaviy jarayonning o'qituvchi tomonidan samarali, mahoratli tarzda tashkil etishdir;

d) ta'lim va tarbiyaviy faoliyatda yuqori darajaga erishishni va uni doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyat bo'lib, har bir o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'ladi;

e) a,b,s,d.

2. Ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalarni belgilang?

a) ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyati;

b) standart-nostandart mashg'ulotlarni o'tkazish;

c) o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan puxta o'zlashtirishi;

d) o'quv materiallarini nazariy va amaliy jihatdan puxta o'zlashtirish;

e) a,b,s,d.

3. Pedagogik mahoratga to'g'ri tavsif berilgan javobni belgilang?

a) pedagogik-psixologik va metodik bilimlarni mukammal egallash;.

b) o'qituvchi shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirishni belgilovchi xususiyatlar;

c) o'z kasbiy bilimlarini, ko'nikma va malakalarni doimiy o'zlashtirib borish;

d) so'nggi axborot texnologiyalari va zamonaviy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi;

e) a,b,s,d.

4. Pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar?

a) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik-psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilish va baholash.

b) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etish;

c) fanlarni o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan keng foydalanish;

d) egallagan bilimlarini o'zlarining hayotiy va amaliy faoliyatida qo'llay bilishi;

e) a,b,s,d.

5. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlarini belgilang?

a) o'z kasbiga muhabbat, o'qituvchi-talabalarni seva olish, mutaxassisligi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi;

b) pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish, pedagogik texnikani qo'llay olish;

c) o'quvchi-talabalar jamoasiga singib keta olish;

d) o'qituvchini o'z pedagogik faoliyatini mukammal rejalashtira olish;

e) a,b,s,d.

6. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchiga zarur bo'lgan qobiliyat tizimini aniqlang?

a) bilimni tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, obro' orttira olish, muloqot qilish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish;

b) aniq maqsadni qo'llash, qat'iyatlilik, kamtarlik, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish;

c) diqqatni taqsimlay olish, yangilikka intilishi, o'ziga va o'zgaralarga talabchanlik;

d) tushunarli va ta'sirchan fikrni aniq ifodalash, samimiylik, muomala odobi;

e) a,b,s,d.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Pedagogik mahorat haqida umumiy tushuncha bering.

№	PMH	Umumiy tushuncha

2. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi ekanligini tushuntirib bering.

№	PBO'KMNA	Tushuncha

3. O'qituvchining pedagogik professionalizmi deganda nimani tushunasiz?

№	O'PP	Tushuncha

4. O‘qituvchining kasbiy qobiliyati va pedagogik mahoratini qanday baholash mumkin?

№	O‘KH va PM	Tushuncha

5. O‘qituvchi pedagogik faoliyatini diagnostikalashda qanday usullardan foydalaniladi?

№	O‘PFDU	Tushuncha

6. O‘qituvchining pedagogik mahorati – ta’lim va tarbiya sifati kafolati ekanligini tushuntirib bering.

№	O‘PMT va TSKE	Tushuncha

XI bob. MULOQOT – PEDAGOGIK TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

11.1. MULOQOT YOXUD MUOMALA MADANIYATI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Muloqot (arabcha so'z bo'lib – «uchrashish, ko'rishish; qabul qilish ma'nosini anglatadi») insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va fikr almashuv shaklining bir turi[1].

Shunday ekan, inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Tarixiy tajriba va amaliy faoliyat shundan dalolat beradiki, insonni jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotidan ajratib qo'yish uning shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradigan ijtimoiy sifat, xususiyat hamda fazilatlardan mahrum bo'lishiga olib keladi. Chunki muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini aks ettiradi. **«Hech kimga sir emaski, deb yozgan edi polyak psixologi E.Meliburd,- shaxslararo munosabat biz uchun nafas olayotgan havodek zarurdir».**

Bu xususda fransuz yozuvchisi Antuan de –Sent Ekzyuperining **«Yagona haqiqiy boylik bu insonlar orasidagi munosabat va muloqot boyligidir»** *degan fikrlari diqqatga sazovordir.*

Shu o'rinda tarixga bir nazar solib, buyuk yunon mutafakkiri Aristotel (Arastu)ning muloqot madaniyatiga doir ibratli maktab–Likeyni esga olsak bo'ladi. U Afinada maktab–Likey tashkil etib, bu maktabni 13 yil boshqargan.

Aristotelning maktab – Likeydagi ta'lim uslubi va o'quv texnologiyasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ta'lim jarayonida ko'p sonli tinglovchilar orasida o'zaro tenglik, bahs-munozara, erkin fikr, o'zaro hurmat hukm surgan. Ya'ni muloqot madaniyati, muomala madaniyati, bahs-munozara yuritish madaniyati, muzokara madaniyati, nihoyatda kuchli, nafis, ehtirosli bo'lganligidan darak beradi.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom, –Moskva, «Rus tili» nashriyoti, 1981, 636-bet.

Shu ma'noda muloqot va muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyatidir. Chunki nutq va unda ifodalangan so'z ohangi kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik (ruhiy) kuchga ega, u nafaqat so'zning mazmuni, balki so'zlovchining aytayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham uning ta'sir darajasi va qudrati yanada ortishi mumkin. *Zero, so'z boshi* **«Assalomu alaykum»** *kalomi hammamizga tanish, qadrdon. Arab tilida bu jumla* **«Sizga tinchlik va sog'lik bo'lsin»** *degan ma'noni anglatadi.* Shu bois barcha musulmon mamlakatlarida boshqacha aytganda, yer yuzidagi 1 mlrd. 650 million nafar insonga bu kalom birdek tushunarli va qadrli. Masalan, «**Assalomu alaykum**» *so'zining quyidagi turli ohangda ifodalanishining 10 dan ziyod shakli, ya'ni ma'nosi borligini bilish foydadan holi bo'lmaydi degan umiddamiz:*

1. Assalomu alaykum! – «Keling» degan ma'noda.

2. Assalomu alaykum! – «Xo'sh, xizmat» degan ma'noda.

3. Assalomu alaykum! – «Yana keldingmi?» degan ma'noda.

4. Assalomu alaykum! – «Juda vaqtida kelding» degan ma'noda.

5. Assalomu alaykum?! – «Men sizni tanimayapman» degan ma'noda.

6. Assalomu alaykum!!! – «Gap tamom» degan ma'noda.

7. Assalomu alaykum! – «Ha, ishing tushdimi!» degan ma'noda.

8. Assalomu alaykum! – «Bir pas kutib turing» degan ma'noda.

9. Assalomu alaykum! – «Vaqtim yo'q, ketaver!» degan ma'noda.

10. Assalomu alaykum! – «Mana ishim bitdi, gapir endi» degan ma'noda va hokazolar.

Shuningdek, «**Ha**» *so'zini ifodalashning 50 dan ortiq shakli bor bo'lsa,* «**yo'q**» *so'zini aytishning ham xuddi shunday ohangdagi ma'nosi mavjud, ammo bir, ya'ni bu so'zni yozishning faqat bir uslubi bor»*[1].

Bu fikrning zamirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim yashiringan. Zotan, kishilar muloqotining asosida so'z-fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir kishining saviyasi, ma'naviy dunyosi hamda madaniyatiga bog'liq. Falsafa, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarda keng qo'llaniladigan miqdor, sifat,

[1] M.Nazarov. Muloqot madaniyati haqida. «Muloqot», 2000 yil 6-son, 23-bet.

me'yor tushunchalari insoniy muloqot madaniyati uchun ham to'la muvofiq keladi, binobarin, muomalada ham me'yorni bilish zarur.

Muhimi shundaki, muloqot jarayonida kishilar o'rtasida fikriy mushtaraklik, o'zaro ta'sir hamda axborot almashinuvi yuzaga kelishi bilan birga, ular ijtimoiy ma'noda bir-biriga tarbiyaviy ta'sir ham o'tkazadilar. Lekin inson tabiatining shunday murakkab qirralari borki, uni mukammal bilish va o'zlashtirib olish mumkin emas. Buyuk mutafakkir Ahmad Donish ta'biri bilan aytganda: *Olamdagi jonli narsalarda hayvoniy va shaytoniy sifatlar bor. Bu quvvatlar birlashtirilib* ***«hosil bo'lgan xamirdan bir jonli narsa yaratilib, uning otini inson deb aytganlar, haqiqatan, – deb davom etadi mutafakkir – inson ulug' olamdir»***[1]. *Insonning fazilatlari hamda nuqsoni haqida u shunday yozadi:* ***«Agar sen tafakkur daryosiga cho'msang, yetti osmonni xayoling qutichasiga joylaysan: agar qahri g'azabing kelsa, yo'lbarsni mushukdek ham ko'rmaysan, agar mehribonliging tutar ekan, bechora chumolini kipriging ustida saqlaysan; agar saxiyliging jilva qilsa, kiygan to'ningni muhtojga berib, o'zing yalang'och qolasan; agar baxilliging tutsa, qumursqa og'zidagi donni talashasan»***[2].

Kundalik faoliyatimizda kishilar bilan bo'lgan muloqot, suhbat hamda muzokaralarda haqiqatni anglatadiga yagona tushuncha bu mantiqiylik deb hisoblanib, barcha xatti-harakatlarimizni mantiqiylik va mantiqsizlik degan tushuncha bilan baholashga o'rganib qolgan edik. Mustaqillik davriga kelib esa pedagoglar va psixologlarning konsepsiyasi asosida muloqot madaniyatining o'ziga xos tomoniga daxldor bu tasavvurlar o'zgarib ketdi. Ularning ko'rsatishicha, insonning xulq madaniyati ikki **kuch–tafakkur va hissiyot, aql va qalb** o'rtasidagi musobaqa natijasi emas, balki bu ikki kuchning qo'shilishi hamda unga ta'sir qiluvchi **tajriba (jismoniy va madaniy) muhit** kabi ko'plab omillar asosida shakllanadi.

Shu o'rinda ibratli bir rivoyatni eslash o'rinli: **«Iskandardan so'rabdilar: «Ozgina sarmoya va oz sonli askar bilan bunday ko'p mamlakatni qanday xislat bilan qo'lga kiritding?»** *Iskandar:* **«Lutf va yumshoq muomala bilan dushmanlarni qo'lga kiritdim. Ahd-paymon yo'li bilan do'stlarni yo'lga soldim, shu jihatdan ko'p mamlakatni egalladim»**, *deb javob berdi.*

---

[1] Ahmad Donish. Navodirul vaqoe. – T.: «Fan», 1964, 325-bet.
[2] O'sha joyda, 325-326-betlar.

Shunday ekan, insonning tili shirin, muomala madaniyati yuksak bo'lsa u qisqa vaqt ichida xalq orasida katta obro'-e'tibor topadi.

1-shakl



Zero, kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik «**Muosharat odobi**» deyiladi. Mushorat odobi, ya'ni ilk muomala madaniyati bolaning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllanadi. Shu

bois ham xalqimiz «**Qush uyasida ko'rganini qiladi**» deb bejiz aytmagan. Shaxs ta'lim muassasasida, balog'atga yetib ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda va jamoada ko'nikma hosil qilish jarayonida, oilasida o'rgangan muosharat odobining kuch-qudratida yosh avlodda muosharat odobini, ya'ni muomala madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi-pedagogning o'zi xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchi-talabalar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo'lib, o'rnak bo'lishi muhim ahamiyatga egadir.

Muomala va munosabatda o'quvchi-talabalar qalbiga yo'l topaolgan, xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi yaxshi, tili shirin o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadi va hurmat-e'tibor qilishadi, ulardan ibrat ham olishadi.

Darhaqiqat, o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning muomala madaniyati, aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. *Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi.* Shunday ekan o'qituvchi-pedagog va murabbiylar o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyot bo'lmog'i lozim. Eng avvalo, o'quvchi-talabalarga muomala madaniyatini, yoshi kattalar oldida o'zini tuta bilishini, ularning gapini bo'lmaslik va yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatishi zarur.

Shunday qilib, bizning kelajagimiz bo'lgan yoshlarning butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. Shu bois o'quvchi-talabalar fe'l-atvorini o'zgartirish, ularni bir-biriga, qolaversa, insonlarga mehru-muruvvatli bo'lishga o'rgatish diniy aqidaparastlik, jaholat tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish eng muhim dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Aslida bu vazifa inson va jamiyat paydo bo'lgandan buyon kun tartibida turgan bo'lib, hali-hanuz muloqot va muomala madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. *Atoqli adib Bernard Shou so'zlari bilan aytganda:* «**Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni o'rganib olgan bo'lsak-da, bizga bir narsa, yerda insondek yashashni o'rganib olish yetishmaydi**».

Shunga ko'ra, muloqot va muomala madaniyatiga bo'lgan ehtiyojni oqilona anglab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, pedagogik muloqot va muomala madaniyati asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchi-pedagogning ijodiy mehnati mahsulidir.

Xullas, o'qituvchi-pedagog har bir vaziyatni oqilona baholashi, uni to'g'ri rejalashtirishi, ta'lim va tarbiya jarayonlarida aql-idrok bilan muloqot va muomala madaniyatini tashkil etishi lozim.

11.2. TARBIYALANUVCHILARDA SHAXSLARARO INSONPARVAR-AXLOQIY MULOQOTNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Muloqot — bu bir vaqtda boshqa insonlar bilan harakatlar, fikrlar, sezgilar, hayajonlar almashish hamda insonning o'z qalbiga, xotiralariga, vijdoniga, orzulariga murojaat etishidir[1].

Muloqot – ijtimoiy-faol, individual-ijodiy, amaliy-predmetli faoliyatdir. Muloqotda asosiysi – birdamlik, do'stonalik, bag'rikenglik, fidokorlik hisoblanadi.

Muloqot – bu **«Shaxsning eng yaxshi tomonlarini aniqlash va ochib berishga yordam beruvchi ijodkorlik shaklidir. U boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan axloq, odatlarning oddiy qoidalariga amal qilishga asoslanishini»**[2] *esda saqlash zarur.* Muloqotning nazariy asoslarini L.S.Vigotskiy, V.N.Leontev, M.G.Davletshin, E.G'oziyev, Sh.K.Mardonovlar o'rganganlar, ushbu tushunchaning faoliyatdagi mantiqiy-metodologik izohlarini ishlab chiqqanlar.

Amerikalik olimlar madaniyatlararo muloqotlar imkoniyatlarini o'rganishgan. Bu tadqiqotlar biz uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, turli yoshdagi, ijtimoiy va etnik guruh vakillarining birgalikdagi faoliyatlari, o'zaro aloqalari hamda muloqotlarini ko'zda tutuvchi kommunikativ vaziyatlarda idrok etish tuzilmalarining shakllanishi hamda rivojlanishi muammosi qiziqarlidir.

Shuningdek, L.A.Radzixovskiy, A.V.Brushlinskiy, A.N.Xaritonov va boshqa olimlar muloqotda (so'zlashuv)ning o'rni muhimligini alohida ko'rsatib berganlar. Ular fikrlashning rivojlanishini o'qitishning faol dialogik metodlari, idrok etish va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish orqali o'rganganlar.

Shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish-muloqot subyektining ma'naviy axloqiy ko'rsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va o'ziga xoslik kabi yo'nalishlari bilan belgilanadi.

---

[1] Словар по етики. Под. Ред И.С.Кона. – Москва; «Политика», 1983, С.228.
[2] O'sha joyda, 228-bet.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot subyektlarining ma'naviy-axloqiy yo'nalishigina emas, balki ko'p jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bog'liq bo'ladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik rejalashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilardan iborat.

E'tibor berish, qiziqish, ma'qullash, hamdardlik, istiqbolni ko'ra bilish yordamida ta'sir ko'rsatish, tushunilgan va anglab yetilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo'naltirish, emotsional muhit yaratish, rag'batlantirish, yo'naltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo'naltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e'tibori, qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida ma'no, onglilik, ishonch va qat'iylikni talab qiladi.

Muloqotning ma'noli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda o'z individualligini ko'rsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qo'zg'atuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informativ, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda individning potensial-shaxsiy, kasbiy-ehtiyojli hamda amaliy-idrok etish jarayoni sodir bo'ladi.

«**Muloqot va faoliyat**» tushunchasiga ijtimoiy faollikning o'ziga xos shakli va ayni bir vaqtda individual mustaqillik sifatida qaraladi. Bu yerda muammoni qo'yish, uning maqsadi, vazifasi, masalalari, muloqot vaziyat-sharoit, muhit omillari, elementlari, muloqot subyektiga talab (*bir so'z bilan aytganda, bu faoliyat subyekti bilan shaxslararo muloqotni modellashtirish*) muhim hisoblanadi. Bu jarayonda boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan odob, axloq, etiket bo'yicha oddiy qoidalarga amal qilish zarur. Shu bilan birga, emotsional-ijobiy omil, simpatiya, empatiya muhim o'rin tutadi. So'z, nutq, hikoya qilib berish, xabardor qilish, gapirish, suhbatni olib borishni bilish (*sherigiga e'tibor, diqqat, tushunish va hurmat bilan qarash, so'zsiz-emotsional tipdan mohirona foydalanish*) muhim ahamiyatga ega. Muloqot, albatta, ma'naviy, insonparvarlik hamda yuksak odoblilik darajasida bo'lishi kerak, asosiysi–shaxslararo muloqotda o'zini suhbatdoshi o'rniga qo'yishni bilishi zarur (2-shakl).

2-shakl


Jim turish
Tinglash
O'ylash
Struktura tuzish+ tartiblash
Ochiq-oydinlik
Dovyuraklik
To'g'rilik
Onglilik, ishonch va qat'iylik
E'tibor berish
Qizig'ish
Ma'qullash
Hamdardlik
Istiqbolni ko'ra bilish
Emotsional muhit yaratish
Rag'batlantirish
Hamkorlik
Mazmun pog'onasi
Munosabat pog'onasi
Da'vat
O'z-o'zidan ravshan bo'lish
Modellar, Mavzuning 4 pog'onasi
Kamdan-kam, aniq haqiqiy
Motivatsiya
Demotivatsiya
Xa[illegible]ndlik
Umidsizlik
Dinamika
Instrument
Ritorika, nutq madaniyati
Notiqlik qobiliyati
Argumentlashtirish
Shaxsiy stil
Savol qo'yish usullari
Point of no retum (ortga qaytib bo'lmas chiziq)
Aktiv tinglash
Hurmat qilish
Chidash
Konfliktlar
MULOQOTNING MOHIYATI, TURLI FUNKSIYALARI, MOTIVLARI
Ta'sir
So'zli (verbal)
So'z /til/ (Oz-oz)
So'zsiz (noverbal)
Mimika
Jestlar
Gavdani tutish
Yordamchi vositalar
Narsali (predmetli)
Tasvirli-vizual vositalar
Audio-vizual vositalar
Odamlarga qaratilgan
Mazmunga qaratilgan
Introvert
Ekstrovert

Shaxslararo muloqot-o'zaro aloqali, o'zaro bir-birini tushunish, idrok etish, axborot almashish, o'rgatish, rivojlantirish, tarbiyalash, o'zini namoyon etish, o'zini dolzarblashtirish, o'zini tasdiqlash, ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega.

Insonparvarlik (lotincha humfnis-insoniylik) – inson o'z huquqlari va qadr-qimmati, shaxs sifatidagi qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar to'plami, uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risidagi g'amxo'rlikdir.

Insonparvarlik-insonning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishiga asoslangan qarashlar to'plamidir.

Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish jihati suhbatdoshlarning intellektual **ma'naviy imkoniyatlarini faollashtirish** va shaxsiy-ijtimoiy o'zligini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Mana shunday muloqotda o'quvchi-talabalar shaxsi shakllantiriladi, chunki bu jarayonda ularning ichki imkoniyatlari, shaxsiy insonparvarligi to'la namoyon etiladi. Bu yerda bo'lajak mutaxassislarni shaxs, inson va insoniylik sifatlari to'g'risidagi bilimlari va muloqot madaniyati namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik asosidagi muloqot – bo'lajak mutaxassislar uchun shaxsiy, ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatlarining turli sohalarida insonparvarlik g'oyalari va qadriyatlarini amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi. Bu davlat ta'lim siyosati hamda *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*ning asosiy qoidalariga mos keladi.

Muloqotning insonparvarlik jihatlari ma'naviy-amaliy asosga – axloqiylikka asoslanadi. Inson ijtimoiy hayoti jarayonida ishlab chiqilgan (avlodlar hayotiy tajribalari asosida) va axloqiy kategoriyalarda aks ettirilgan g'oyalar, ideallar, qoidalar – me'yoriy axloqiylikka asoslanadi.

Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

– muloqotda asosiysi-insondir;

– muloqotda asosiysi-insonparvarlarcha muloqotda bo'lish – do'stonalilik, samimiylik, inoqlik, totuvlikdir.

Ushbu muloqotda suhbatdosh o'zini obyekt sifatida emas, balki muloqotda teng ishtirokchi sifatida his etadigan yo'l, vosita, metod hamda shakllarini topishi zarur.

Shunday qilib, muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi, o'zini namoyon etuvchi

bo'lishi kerak. *Quyidagilar insonparvarlik asosiga quriladi: suhbatdoshi (sherigi) shaxsiga e'tibor, do'stona suhbat, muloqot sharoitlariga mos, suhbatning ritorik jihati ko'zda tutiladi. Suhbatlashuvchi odob, axloq, ma'naviy sifatlarini namoyon etadi, suhbatdoshida kerakli sezgilarni uyg'otib, istalgan fikr va mulohazalarni yuzaga keltiradi. Sherigiga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun muloqot subyekt-obyekt xususiyatida, insonparvarlashtirilgan mazmunda mahsuldor-ijodiy asosda amalga oshiriladi. Muloqotda insorparvarlik – bu suhbatdoshiga o'zaro aloqa obyekti sifati emas, balki o'zini namoyon etuvchi obyekt sifatida qarashdir.*

11.3. O'QITUVCHI-PEDAGOGLARNING TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK MUOMALA MADANIYATI

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning aql-idrokini o'stirish, ilmu ma'rifat ziyosidan bahramand qilish uchun o'qituvchi-pedagogning bilim saviyasi, kasbiy mahorati va muomala madaniyat yuksak bo'lishi hayotiy ehtiyojdir.

Ayniqsa, pedagog-ustoz bo'lish uchun pedagogik faoliyatda tarbiyalanuvchilarga pedagogik tashxis qo'ya bilish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiyani aniq maqsadlar asosida amalga oshirish o'quvchi-talabalarning holati, aqliy va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda ularga amaliy jihatdan ko'mak berish kabi bir qator pedagogik talablarga rioya qilishni taqozo etadi. **Tashxis har bir o'quvchi-talabaning ichki va tashqi qiyofasini aniqlash, ta'lim-tarbiyaning zamon talablariga mosligini e'tiborga olish, ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ta'lim-tarbiya metodlari samarasini belgilab olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va o'quvchi-talabalar shaxsi qobiliyatining rivojlanish darajasini, me'yorlarini aniqlash imkonini beradi.** O'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalar guruhlari bilan ayrim-ayrim gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanishi, umuman, butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi lozim. **O'quvchi-talabalar jamoasi bilan muomala ko'pincha suhbat, ma'ruza, axborot va hokazolar shaklida bo'ladi.** Birinchi navbatda, suhbatni qanday boshlash, qanday qilib o'qituvchining

gaplariga o'quvchi-talabalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida quyidagi fikrlarni bildiramiz.

Mavzuga o'quvchi-talabalar diqqatini tortishga urinib ko'rish lozim. Bunda mavzuni bayon etishni erkin, qiziqarli faktni ma'lum qilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Suhbat jarayonida o'quvchi-talabalarda doimiy qiziqish uyg'otishi uchun bir qator murakkab bo'lmagan usullardan foydalanish zarur. Eng muhim so'zlar va iboralarni intonatsiya bilan ajratib ko'rsatish va aksincha, intonatsiyani o'zgartirish, unchalik muhim bo'lmagan materialni bayon qilish kerak, ovoz va nutq ohangini o'zgartirish foydalidir.

Hamkorlik muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi-pedagog ma'lum yo'l-yo'riqlarga ega bo'lishi, o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikni muayyan natijaga erishishning zarur sharti deb bilishi, hamkorlikka barcha o'quvchi-talabalarning jalb etilishi, hamkorlik jarayoniga o'zining hissiy jalb qilinganligi zarur ekanligini anglab yetishi lozim.

Agar o'quvchi-talabalarning faoliyati jamoa faoliyati sifatida tashkil etilsagina o'qituvchi-pedagogning o'quvchi-talabalar bilan hamkorligi paydo bo'ladi, ya'ni hamkorlik qilishni talab etadi va buning uchun shart-sharoit yaratadi.

Hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy ishlar dolzarb bo'lishi yoki o'quvchi-talabalarning xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. O'quvchi-talabalarni biror faoliyat sohasiga, biror aniq ishga jalb etar ekan, o'qituvchi-pedagog ularga psixologik va pedagogik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, ya'ni to'g'ri yo'l-yo'riq berishi kerak.

O'quvchi-talabalar belgilangan narsani amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi-pedagog ayni bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham kuzatuvchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Muomala *bilish jarayonidir. Bilish o'quvchi-talabalarning miqdorlar tizimini o'zlashtirish va hosil qilish tarzida namoyon bo'ladi. U o'quvchi-talabalarga olamni va unda o'zini tushunish imkonini beradi.* Bilish faoliyati va uning jarayonidagi muomala o'quvchi-talabalarga o'zlarining bilishga doir qiziqishlari va mayllariga to'garak mashg'ulotlarida, ilmiy jamiyatlarda, olimpiada va tanlovlarda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Muomala har qanday axborotni idrok etishga va ularning o'quvchi-talabalar tomonidan talqin qilinishiga ham ta'sir o'tkazadi. O'quvchi-talabalarning muomalasini

tashkil etish pedagogik ta'sir ko'rsatishning shunday guruhiga kiradiki, u faqat alohida bir o'quvchi-talabaga qaratilib qolmasdan, balki o'quvchi-talabalarning muayyan birligiga-ta'lim muassasasi jamoasidan tortib o'rtoqlari guruhiga ham mo'ljallangan bo'lishi lozim. Shu munosabat jarayoni o'quvchi-talabalar jamoasining mazmuni asosiga aylanadi. Jamoada muomalani tashkil etish butun ta'lim-tarbiya jarayonidan va jamoaning butun faoliyatini tashkil etishdan ajralib qolgan qandaydir bir narsa emas.

Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligining eng muhim sharoitlaridan biri – bu jarayonning o'quvchi-talabalar muomalasi uchun ma'lum darajada imkon yaratib berishdir.

Ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishining butun mazmuni amalda o'quvchi-talabalar muomalasi mazmunining asosi hisoblanadi. Biroq o'qituvchi-pedagoglar har bir o'quvchi-talabani o'z subyektiv vaziyatiga qo'yish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etganlaridagina bu imkoniyatni faollashtirish sodir bo'ladi. Bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, o'quvchi-talabalar jamoa faoliyatining subyektiga aylanadi. Bu shart-sharoitlarning eng muhimligiga to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, *jamoaning faoliyati o'z mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lsa,* **ikkinchidan,** *bu faoliyatni o'qituvchi-pedagoglar boshqarib borishi lozim.* **Uchinchidan,** *o'quvchi-talabalar jamoasida tashkil etiladigan faoliyat, ularning ijodkorligiga katta imkoniyatlar yaratib bersa,* **to'rtinchidan,** *bu faoliyat o'quvchi-talabalar jamoasini uyushtirishining xilma-xil shakllarini birga qo'shib olib borishi lozim.*

O'quvchi-talabalarning jamoa topshiriqlarini bajarishlarining boshqa **shaxslar** – yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kursdagi talabalar o'z jinsidagi va boshqa jinsdagi tengdoshlari bilan aniq maqsadga qaratilgan muomalasini taqozo etadi. Katta yoshdagi o'smirlar jamoat topshirig'ini bajarar ekan, ko'pincha faoliyatning tashkilotchisi mavqeida bo'ladi. Ularning oldida birgalikda bajariladigan ishga o'rtoqlarini jalb etish zarurati bo'ladi. Xilma-xil pedagogik vazifalar doimo vujudga kelib turadigan pedagogik faoliyatda hal qilishning mazkur tarkibiy qismi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u biror faktga pedagogik faoliyatning umumiy materiallariga baho berish imkonini beradi. *Tasavvur qiling: siz darsda savol berdingiz va o'quvchi-talabalar qo'l ko'tardilar. Endi kimdandir so'rash kerak. Vazifami? Ha, ancha oddiy bo'lib tuyuladi. Ko'pdan beri hech kimdan so'ramagan bo'lsa, shuni turg'azaman deb o'ylaysiz yoki vaqt oz*

3-shakl

- **PEDAGOGIK MUOMALA MADANIYATI**

- **O‘qituvchining o‘quvchi-talabalarga ta’sir o‘tkazish usullarining muayyan tizimlari**

- **Hamkorlik ishtirokchilarining o‘zaro axborot almashinuvi;**
- **Turlicha kommunikativ vositalar yordamida o‘qituvchi-pedagog tomonidan o‘quvchi-talabalar bilan o‘zaro ta'sir va o‘zaro munosabatni tashkil etish;**
- **Muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o‘tkazish funksiyasini bajaradi;**
- **O‘quv faoliyatini yakkahol bajarishning vositasi;**
- **Tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi;**
- **Ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi o‘qituvchi-pedagog bilan o‘quvchi-talabalarning o‘zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli;**
- **O‘quvchi-talabalar *individualligini takomillashtirish*, iste’dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi;**
- **Yakkahol faoliyatning subyekti sifatida ro‘yobga chiqarish asoslidir;**
- **O‘qituvchi va o‘quvchi-talabalar jamoasining o‘zaro ta'sir malakasi, usuli, tizimi anglashinib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishi, ta’limiy va tarbiyaviy ta'sir o‘tkazish o‘zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish.**

Jamshiddan yoki Anvardan so'rayman ularning ikkalasi ham har gal to'g'ri javob beradi deysiz.

Tarbiyaviy jarayonni yoki alohida tarbiyalovchi ta'sirni rejalashtirish faqat pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari, usullari va yo'llarini aniqlashdangina iborat bo'lmay, balki pedagogik muomala tizimini, albatta, aniqlashni ham bildiradi.

Aniq maqsadli vazifa va tarbiya usulini tanlash vazifasi bo'lgan umumiy pedagogik vazifani hal qilib bo'lgandan keyin ulardan bevosita o'zaro aloqani tashkil etish uchun vosita bo'lgan fikr almashishga doir vazifani vujudga keltirish zarur. O'zaro fikr almashishga doir vazifa muammoli aloqa vaziyatidan iborat bo'lib, uni hal qilish tarbiya usullarini pedagogik muomala tizimi orqali amalga oshirish uchun zarurdir.

Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. O'quvchi-talabalar bilan o'zaro munosabatning boshlanishi, o'zaro fikr almashishiga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muomala obyektlarining diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir.

Yuqoridagi o'qituvchi-pedagoglar va o'quvchi-talabalar o'rtasida teng huquqli hamkorlikni vujudga kelishini, ular o'rtasida ruhan muloqot paydo bo'lishiga yetaklovchi pedagogik faoliyat shaklini **muomala** deb atash mumkin. Quyidagi *pedagogik muomalaga kirishimlilik testida* buning mazmun-mohiyatini ko'rishimiz mumkin:

PEDAGOGIK MUOMALA TESTI

Pedagogik muomala – *o'quvchi-talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqa o'rnatilishi va hamkorlik rivojlanishidan iborat jarayon bo'lib, bu jarayon ularning o'zaro hamkorlik qilishga nisbatan ehtiyojlari asosida vujudga keluvchi quyidagilarni o'z ichiga oluvchi faoliyatdir:*

– *o'zaro tushunish va anglash;*

– *o'zaro bir-birini idrok qilish;*

– *o'zaro axborot almashish;*

– *o'zaro harakat qilishning yagona uslubini ishlab chiqish.*

Muomalaviy boshqaruv – *xodimlar ustidan rahbarlik qilish maqsadida amalga oshiriladigan muomala jarayonidir.*

Muomalaviy boshqaruvning maqsadi:

– *buyruq va ko'rsatmalar, tavsiyanomalar, maslahatlar berish;*

– topshiriq bajarilganligi to'g'risida qatnashchilardan axborot olish va ularni taqqoslash;

– ijrochilar tomonidan bajarilgan topshiriqqa baho berish.

Muomalaviy boshqaruvning asosiy bosqichlari:

a) ishtirokchilarga ko'rsatmalar beruvchi ma'lumotlarni kuzatish;

b) qayta (ikkinchi marta, takroran) ma'lumot olish;

d) qatnashchilar tomonidan to'plangan ma'lumotga baho berish.

Ko'rsatmalar beruvchi ma'lumotlar uzatishning shakllari:

a) direktiv-buyruq ko'rsatma, talabnoma;

b) demokratik –tavsiya, maslahat, iltimos.

Pedagogik muomala – *o'quvchi-talabalarga ta'lim va tarbiya berish maqsadida maxsus ravishda amalga oshiriluvchi, pedagogik-psixologik odob (takt)ga asoslanuvchi hamkorlik negizidan iborat muomala jarayonidan biridir.*

Pedagogik muomalaning maqsadi – *o'quvchi-talabalar bilan o'zaro samarali ijtimoiy va pedagogik-psixologik hamkorlik qilishga erishish;*

– o'quvchi-talabalar bilan o'zaro shaxsiy munosabatlarni shakllantirish;

– o'qituvchi o'quvchi-talabalarning bir-birlarini yanada chuqurroq tushunishlariga hamda anglashlariga yordam berish.

Agar biz ta'limning mohiyati o'quvchi-talabalarda bilish faoliyatini bevosita boshqarish ekanligini hisobga olsak, u holda **pedagogik muomala bilan muomalaviy boshqarishning** ko'pgina vazifalari o'rtasida o'xshashlik mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Xuddi shu boisdan ham **muomalaviy boshqarish** jarayoniga berilgan tavsiya-nomalar **pedagogik muomala faoliyatiga** bevosita xosdir. Muomalaning eng muhim xususiyatlari o'zaro bir-birini anglash va o'zaro bir-birini idrok qilishda o'z ifodasini topadi.

O'zaro bir-birini anglash quyidagi omillarga bevosita bog'liqdir:

– adabiy tilning milliy birligi;

– kasbiy atamalar bilan milliy tilning o'zaro uyg'unligi;

– ma'lumotning to'laligi, uning mantiqiy jihatdan izchil ravishda bayon qilinishi;

– suhbatdoshlarning aqliy darajasi, madaniy saviyasi va kasbiy tayyorgarligini hisobga olish;

– shaxslararo munosabat qatnashchisi diqqatini obyektga to'play olish imkoniyat uquvi;

– muhokama qilinayotgan masalani hal qilishda suhbatdoshlarni shaxsiy qiziqishlarining mutanosibligi;

– o'zaro idrok qilish esa ushbu holatlar bilan uzviy bog'liqdir;

– suhbatdoshning nufuzi, obro'si, uning mutaxassisligiga oid bilimi, malaka va ko'nikmalari;

– o'zaro shaxsiy munosabatning holati, uning his-hayajonga serobligi;

– rahbar o'z suhbatdoshlarida qanchalik ko'p ijobiy hissiy holatlar, chuqur kechinmalar uyg'ota olsa, u taqdirda ularning o'zaro idrok qilishi tez sur'atda (lahzada) amalga oshishi mumkin;

– o'zaro shaxsiy munosabatda hissiy holatning namoyon bo'lishida;

– darajasiga ko'ra ishtirokchilarda: simpatiya, empatiya, do'stlik yoqtirib qolish, befarqlik, nafrat, yoqtirmaslik singari salbiy hissiy kechinmalar, tuyg'ular yuzaga keladi. Shuning uchun ham muomalaviy boshqaruv jarayonidagi eng muhim qoida har qanday yo'l va usul yordami bilan bo'lsa ham, eng avvalo, suhbat jarayonida ijobiy hissiy holatlarni vujudga keltirishdan iboratdir.

Mazkur holat qanchalik kuchli, yuksak ko'tarinki sur'atda namoyon bo'lsa, demak, **muomalaviy boshqaruv** shunchalik yengil kechishi mumkin.

PEDAGOGIK MUOMALA TESTI

№	Savollar	Ha	Yo'q	Ba'zan
1	Siz ish yuzasidan uchrashuvga borishga shaylanib turibsiz, kutish sizni asabingizni buzadimi?	2	1	0
2	Sizni biron yig'ilish, kengashga yoki shu singari yig'ilishlarda nutq so'zlashga taklif qilishsa, norozilik paydo bo'ladimi?	2	1	0
3	Sizni tobingiz bo'lmasa oxirgi daqiqalargacha shifokorni chaqirishga urinmaysizmi?	2	1	0
4	Sizga hech bo'lmagan shaharga xizmat safariga borishni taklif qilishsa, siz bundan o'zingizni olib qochasizmi?	2	1	0
5	Siz kechinmalaringizni biror kishi bilan baham ko'rishni xohlaysizmi?	2	1	0

6	Ko‘chada notanish kishi sizga iltimos bilan murojaat qilsa (biror ko‘chani, uyni ko‘rsatib yuborish uchun vaqt so‘rab) asabiylashasizmi?	2	1	0
7	«Ota bilan bola» muammosi har xil avlodlarni bir-birlarini tushunmasligi bois yuz beradi, deb hisoblaysizmi?	2	1	0
8	Siz tanishingizga bir necha oy oldin olgan pulni qaytarishni unutganligini aytishga uyalmaysizmi?	2	1	0
9	Sizga oshxonada mazasiz taom berishdi. Tarelkani jahl bilan surib, jimgina o‘tirasizmi?	2	1	0
10	Siz notanish kishi bilan yolg‘iz qoldingiz, siz uni birinchi bo‘lib gapirishini kutasizmi?	2	1	0
11	Siz kutilmagan navbatga turib qoldingiz, siz o‘z niyatingizdan voz kechmasdan, navbatni oxirigacha kutasizmi?	2	1	0
12	Nizoli vaziyatni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibiga kiritishdi, siz bu holatdan qochishga urinasizmi?	2	1	0
13	Sizda badiiy adabiyot, san’at, madaniyat, boshqalar fikrini noma’qulligini belgilovchi shaxsiy individual mezoningiz bormi? Shundaymi?	2	1	0
14	Sizga oshkor bo‘lgan masala bo‘yicha kimdir noto‘g‘ri nuqtayi nazar bildirishdi. Siz bahslashmasdan jim o‘tirasizmi?	2	1	0
15	Sizga bo‘sh vaqtingizda u yoki bu o‘quv mavzu va xizmat vazifalari bo‘yicha murojaat qilib turishadimi?	2	1	0
16	Sizda o‘z fikringizni og‘zaki bayon etishdan ko‘ra yozma ifodalash qulaymi?	2	1	0

Eslatma: sizning e'tiboringizga pedagogik muomala testida bir nechta oddiy savollar havola qilindi. Siz tez javob berishga harakat qiling **«ha», «yo'q», «ba'zan».**

Natijalarga ko'ra, **muomalaga kirishimlilik qobiliyatini belgilovchi darajalar** *quyidagilarga ajratiladi?*

30-32 ball. *Sizni mutlaqo muomalaga kirishishingiz qiyin. Siz ko'proq o'zingizni ichki tuyg'ularingizga berilib, atrofdagilar bilan chiqishishga ancha qiynalasiz.*

25-29 ball. *Berk, tund odamsiz.*

19-24 ball. *Siz ma'lum darajada muomalaga kirishish imkoniyatiga egasiz.*

14-18 ball. *Normal.*

9-13 ball. *Muomalaga juda yaxshi kirisha olasiz.*

4-8 ball. *Muomalada yetakchilik qilaolasiz, har xil vaziyatlarda ham muomalada mavzu tanlay olasiz.*

3 va undan kichik ball. *Sizda muomalaga kirishimlilik yuqori, ammo odamlar sizdan qochishga harakat qilishadi.*

11.4. O'QITUVCHI-PEDAGOGNING KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOTNING PEDAGOGIK TIZIMI

O'qituvchi-pedagogning eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchi-talabalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik-psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida o'qituvchi-pedagog sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyat to'g'risida ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan.

O'qituvchi-pedagog o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchi-talabalarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qilaolish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika-psixologiya sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi-pedagogning integral fanlar asoslarini va o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarni o'quvchi-talabalarga faqat jonli va bevosita muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi-pedagog va o'quvchi-talabalarning jonli muloqoti, ta'lim

muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Inson hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor va h.k.) u kasbiy mehnat asosini tashkil etadigan kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar o'rtasidagi odatiy o'zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda muloqot muhim funksional, o'qituvchi-pedagog uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lim va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladiki, bunda muloqotning muhim shartlari va qonuniyatlariga, qo'shimcha vazifalariga rioya qilishga to'g'ri keladi.

Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonida esa, muloqotning pedagogik tizimi ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada o'qituvchi-pedagog pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi.

4-shakl



Tasavvur qiling, sizga auditoriyada, minbarda turib, o'quvchi-talabalar oldiga chiqib gapirib berish taklif etildi. Siz kommunikatsiyani amalga oshirish vazifasini, avvalo muloqotning tabiiy shakllari o'rniga

kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi-pedagog va ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi-pedagoglar bu jarayonning faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Taniqli psixolog A.A.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: **faol pedagogik muloqot-o'qituvchi-pedagoglarning, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarni bilish va o'rganish kaliti, o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi-talabalar shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy (psixologik) to'siqlar paydo bo'lishining oldini oladigan, o'quvchi-talabalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchi-pedagogning o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir**[1].

Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchi-talabalarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish hamda taniqli pedagog-psixolog olimlarning pedagogik foliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, aynan o'quvchi-talabalar bilan o'qituvchi-pedagog muloqotining pedagogik ta'sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi. Pedagogik muloqot – shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas, avvalo, har qanday kasbiy-axloqiy fenomen (hodisa). Jamiyatda axloq normalariga qat'iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarning ilg'or jarayonlarni amaliy hayotga keng tatbiq qilish uchun *o'quvchi-talabalar bilan o'zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallashi lozim.*

[1] А.А.Леонтев. Деятелност. Сознание. Личност. Москва: «Прогресс», 1975, с. 19.

*Shunday «**texnologiya**»larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab berdi.*

O'qituvchi-pedagogning kommunikativ faoliyati maqsadli pedagogik faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligida.

Pedagogik muloqot o'qituvchi-pedagogni pedagogik ijodkorligining yaxlit tizimida qanday ahamiyat kasb etadi? Pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, garchi o'qituvchi-pedagog faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir-biriga o'xshash ko'rinsa-da, o'qituvchi-pedagogning ushbu vaziyatlardagi har bir xatti-harakati mutlaqo noyob va betakrordir. Ijodiy pedagogik jarayon tahlil qilinganda muloqot jarayonida pedagogik ta'sirning uch vositasiga e'tiborimizni qaratamiz: birinchisi – verbal ta'sir; ikkinchisi – paralingvistik ta'sir; uchinchisi – noverbal ta'sir.

5-shakl



O'qituvchi-pedagog va o'quvchi-talabalarning hamkorlik asosidagi bevosita ta'lim-tarbiyaviy maqsadlariga qaratilgan ijodkorligidir.

O'qituvchi-pedagogning pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu o'qituvchi-pedagogning o'quvchi-talabalarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi, ular bilan o'zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorligi, o'quvchi-talabalarga bevosita ta'sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi, o'z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o'zini-o'zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik, o'quvchi-talabalar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonidagi ijodkorligi. Modomiki, shunday ekan, ta'kidlashimiz lozimki, o'qituvchi-pedagogning muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo'lib, pedagogik faoliyatda o'qituvchi-pedagog tomonidan ko'plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir.

O'qituvchi-pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi: masalan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirayotganda, o'quvchi-talabalarga ichki tartibni buzganlik aybi uchun dashnom berishda, o'qituvchi-pedagog avvalo nimalarga e'tibor berishi kerak: *birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi: ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan variantlari saralanadi, bu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi) va faqat shundan keyingina pedagogik ta'sir o'tkazishning optimal metodlari tanlanadi. Biroq hali tanlangan ta'sir o'tkazish metodiga adekvat bo'lgan, u orqali pedagogik ta'sir amalga oshiriladigan muloqot tizimi topilishi kerak. Ya'ni ma'lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan so'ng, ta'sir o'tkazish metodini bevosita tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.*

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda ishlab chiqariluvchi xarakterga ega bo'lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero, u pedagogik vazifadan kelib chiqib, vazifaning asosini aks ettirib unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lgan jarayondir.

Pedagogik amaliyotlar natijasi shundan dalolat beradiki, o'qituvchi-pedagog o'quvchi-talabalar bilan o'zaro hamkorlikning to'g'ri metodini tanlab hamda vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ko'pincha o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan ta'minlay olmaydi, ya'ni kommunikatsiyani o'zaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi. Pedagogik ta'sirning o'qituvchi-pedagog tomonidan tanlanib

qo'llaniladigan metodlari bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, mazkur jarayonni yuksak mahorat bilan, ongli ravishda qurish, pedagogik faoliyatda oldinda turgan har qanday vaziyatda bu jarayonni tahlil qilish zarur. Buning uchun o'qituvchi-pedagog pedagogik ta'sir etishning mantiqiy obrazi(shakli)ni tuzib, o'zi uchun kerakli xulosalarni yozib olishi mumkin (*6-shaklga qarang*).

Har xil pedagogik faoliyatga (stajga) ega bo'lgan o'qituvchi-pedagoglar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va suhbatlar natijasida quyidagilar aniqlandi: ularning ko'pchiligi, kommunikativ vazifani pedagogik jarayonning muhim zaruriy elementi sifatida to'g'ri anglab yetadilar.

Pedagogik ta'sir etishning mantiqiy shakli

6-shakl

Pedagogik vazifa va uni hal qilish jarayoni	**Belgilangan vazifani hal qilish uchun tanlangan pedagogik ta'sir metodlar tizimi**	**Pedagogik ta'sir metodikasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ vazifalar tizimi**	**Pedagogik ta'sir ko'rsatish**

Bunda deyarli barcha o'qituvchi-pedagoglar o'z pedagogik vazifalarini doimiy amalga oshirish uchun tanlangan ta'lim va tarbiya metodlari tizimini hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish kabi komponentlarni yaxshi anglab yetadilar.

O'zining pedagogik mahoratini doimiy ravishda tahlil qiladigan o'qituvchi-pedagog kommunikativ vazifalarni o'z faoliyatining asosiy vositasi sifatida anglashi qanchalik muhim ekanligini, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ta'sir modeli qanchalik oydinlashishini, ta'sirning o'zi yanada jozibali, aniq, yorqin bo'lishiga ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, tajribali o'qituvchi-pedagoglar o'z faoliyatida qo'llagan pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasida foydalanilgan metodlar, aksariyat hollarda ta'lim-tarbiyada mo'ljalni aniq olib, tarbiyalanuvchilar muloqotda vaziyatni to'g'ri tashkil qilish bilan belgilanishini

*ko'rish mumkin. Ayrim hollarda o'ziga xos «**yuzma-yuz hujum**», ba'zan tarbiyalanuvchining o'qituvchi bilan bevosita muloqotisiz ham gap nimada ekanligini tushunish imkoniyatini beradigan muloqot, yig'ilishlarda rasmiy suhbat tizimi, sinf yoki guruh jamoasi bilan turli tadbirlarni birgalikda o'tkazish, bunda har bir o'quvchi-talabaning nimalarga qodir ekanligini anglab yetish imkoniyati paydo bo'ladi. O'qituvchi-pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanadigan ta'sir ko'rsatish metodlari orasida aynan jamoaviy va yakka tartibdagi suhbat metodlari muhim ahamiyatga ega. Biroq bu metodlardan foydalanish samaradorligi va muloqot jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlar turlicha bo'lishi mumkin. Aynan shu metodlar ta'lim-tarbiyada ta'sir o'tkazish metodlarining samaradorligini ta'minlaydi.*

11.5. PEDAGOGIK MULOQOT – BO'LAJAK YUKSAK MALAKALI MUTAXASSIS SHAXSINI SHAKLLANTIRISH SHARTI SIFATIDA

Ma'lumki *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»*da oliy ta'lim tizimida bilimdon, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallagan, yuksak madaniyatli, yuqori intellekt egasi bo'lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Albatta, bu o'rinda bo'lajak mutaxassislarda mukammal kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik, siyosiy va iqtisodiy bilimdonlik, hayotiy faollik kabi sifatlar bilan bir qatorda muloqot qobiliyatini ham shakllantirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. *Shuningdek, Yurtboshimizning nutqlari va fundamental asarlarida ham ana shunday keng tafakkurli, ongli, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, hayotda o'z o'rnini yo'qotmaydigan barkamol shaxslar yetishib chiqishi bir necha marta qayd etilgan.*

Pedagogik muloqotga asosan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, bo'lajak mutaxassislar o'quv-bilish faoliyatini boshqarishda muhim omil sifatida qaraladi. Pedagogik-psixologik muloqotni bir necha guruhlarga bo'lib tasniflashga harakat qilinadi. *Pedagogika va ilmiy-uslubiy jihatdan o'qituvchi-pedagoglar va talabalar o'rtasida kechadigan pedagogik muloqotni uchta asosiy guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:*

1) barqaror ijobiy, ya'ni ushbu guruhga mansub o'qituvchi-pedagoglar chuqur bilimdonligi, pedagogik mahoratining yuksakligi, tafakkurining kengligi, samimiyligi bilan talabalarning hurmatini qozonadilar. Ular talabalar bilan do'stona va hamfikrlilik

nuqtayi nazaridan munosabatga kirishadilar, zarur hollarda o'z yordamlarini ayamaydilar. Talabalar bunday o'qituvchi-pedagoglarni xush ko'radilar va ular bilan muloqot qilishga oshiqadilar;

2) sust-ijobiy bunday o'qituvchi-pedagoglar doimo talabalar davrasida, ular qalbini tushunishga harakat qiladilar. Lekin ularning bu munosabatlari turg'un emas va ayrim paytlarda bunday o'qituvchi-pedagoglar kayfiyatga beriluvchan bo'ladilar;

3) salbiy – bunday o'qituvchi-pedagoglar talabalar bilan rasmiy munosabatda bo'ladilar va ko'pincha ularga pand-nasihatlar qilib turishni o'zlarining burchi deb hisoblaydilar. Talabalar bunday o'qituvchi-pedagoglardan yiroq bo'lishga harakat qiladilar, muloqot qiyinchilik bilan amalga oshadi va bu esa ular o'rtasida keskin vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin.

Tarbiyalanuvchilar o'z ustozlaridagi kasbiy va nazariy bilimdonlik bilan bir qatorda kamtarlikni, samimiylikni, bag'rikenglikni, vazminlikni, haqqoniylikni, adolatparvarlikni qadrlaydilar. Bunday o'qituvchi-pedagoglar bilan til topishish oson, chunki ular talabalar shaxsiga hurmat bilan qaraydilar, rasmiyatchilikdan yiroq bo'ladilar. O'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali kechishi ko'p jihatdan pedagogik muloqotning maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishiga bog'liq. Shuni unutmaslik lozimki, o'qituvchi-pedagoglar shogirdlari nazarida o'zlarining shaxsiy fazilatlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini boshqara olishlari, pedagogik muloqot madaniyati kabi sifatlari bilan hayotiy namuna bo'la olishlari lozim deb hisoblaymiz. Pedagogik muloqotda o'qituvchi-pedagoglar nutq texnikasiga rioya qilishi, ohangning muloyimligi, badiiy til ifoda usullarining boyligi kabi qator omillarga ham e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Ba'zan o'qituvchi-pedagoglarda ayrim talabalar haqida noto'g'ri taassurotlar paydo bo'lib qolishi mumkinki, bu esa o'z navbatida pedagogik muloqotda noxush holatlarga olib keladi. Bu tasavvurlar kasbdoshlarning talaba haqidagi subyektiv fikrlari, birlamchi noto'g'ri taassurotlari, shogirdlarining individual xususiyatlarini e'tiborga olmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Albatta, ta'lim-tarbiyaning har qanday shakllarini amalga oshirishda pedagogik muloqotni to'g'ri yo'lga qo'ya bilish juda ahamiyatlidir. Dars jarayonida pedagogik muloqot muayyan o'quv materiali asosida olib boriladi va talabalar shaxsini kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning innovatsion metodlariga asoslangan hamkorlik, o'zaro xayrixohlik, tolerantlik ruhida olib borilgan muloqotgina

shubhasiz ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Muloqot jarayonida o'qituvchi-pedagog bo'lajak mutaxassislarning qiziqishlari va ular o'zlarini namoyon qilishga bo'lgan intilishlarini inobatga olishi lozim. U ta'limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish prinsiplariga amal qilgan holda talabalar shaxsining rivojlanishi uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida va amaliyotda samarali foydalanilmoqda. Endilikda talabalar o'qituvchi-pedagoglardan tayyor bilimlarni qabul qilib oluvchi shaxs emas, balki ta'limning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Binobarin, talabalar o'rganilayotgan muammoni mustaqil tadqiq qiladi, chuqur mushohada yuritadi, masalaning yechimini topishga harakat qiladi. Bu o'rinda muloqot bahs-munozaralar, mini-konferensiyalar, davra suhbatlari, talabalar minbari kabi ko'rinishlarda olib borilishi mumkin. Do'stona o'zaro hurmat ruhida tashkil qilingan muloqot natijasida talabalarda o'z imkoniyatlariga ishonch paydo bo'ladi va o'zlarini shaxs sifatida kengroq namoyon qilishga intiladilar. Ular muayyan ilmiy, madaniy va tarixiy jarayonlarning faol ishtirokchilariga aylanadilar. Nazariy gipotezalarni tahlil qiladilar va ularga davr nuqtayi nazaridan tanqidiy baho beradilar. Bunda o'quv fanlarining mantiqiy tuzilishi, bilimlarni o'zlashtirishda qo'llaniladigan metodlarning tanlanishi, o'quv materialini o'rganish uchun ajratilgan vaqt kabi omillarni ham hisobga olish zarur deb o'ylaymiz. O'qituvchi-pedagog o'zi o'qitayotgan fanning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rnini doim his qilib turishi kerak.

Shuningdek, o'qituvchi-pedagog pedagogik muloqotni tashkil qilar ekan, talabalarda noxush kechinmalar, salbiy tuyg'ularning kelib chiqishiga yo'l qo'ymasligi va guruhda ishchanlik, ko'tarinkilik, hamkorlik va ijodkorlik vaziyatini yarata bilishi juda ahamiyatlidir.

Xullas, oliy o'quv yurtlarida pedagogik muloqot turli vaziyatlarda, ya'ni darsda va kurs ishlari, referatlar tayyorlashda hamda pedagogik amaliyot jarayonida ro'y beradi va har bir talabaning yuksak malakali mutaxassis sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, talabalar bilan o'tkaziladigan turli ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy mavzularga bag'ishlangan munozaralar ham ularning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarning erkin mulohaza yuritishi, xulosalarini aniq bayon qilishi, o'zgalar fikriga e'tiborli, sabr-toqatli bo'lishi muloqotni tashkil qilishning muhim shartlaridandir.

Buguni talaba – ertangi bo'lajak yuksak malakali mutaxassis sifatida shakllanar ekan, uning ko'z o'ngida unga sabr-toqat va mehr-shafqat bilan saboq bergan ustozlari gavdalanadi. O'zgalar bilan insoniylik nuqtayi nazaridan muomalada, munosabatda, muloqotda bo'ladigan o'qituvchi-pedagoglar o'z shogirdlari qalbida mangu saqlanib qoladilar va yo'lchi yulduzdek ularning hayot yo'lini yoritib, yuksaklikka chorlaydilar.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Muloqot (*arabcha so'z bo'lib*) – uchrashish, ko'rishish, qabul qilish ma'nosini anglatadi.

Insonparvarlik (*lotincha himanus-insoniylik*) – inson huquqlari va qadr-qimmati, shaxs sifatidagi qadr-qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar majmuasi, uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi g'amxo'rlikdir.

Muloqotning ko'rinishlari – rasmiy, norasmiy, shaxsiy, ijtimoiy, guruhdagi predmetga yo'naltirilgan.

Muloqotning vazifalari – suhbatdoshlarining o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlash; ijtimoiy tajribaga asos solish; shaxsni u yoki bu faoliyatga hozirlash, ruhlantirish.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
3. «Muloqot va faoliyat» tushunchasini izohlang.
4. Muomala nima?
5. Muomala madaniyati nima?
6. Pedagogik muomala nima?
7. Pedagogik muloqot yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishda qanday ahamiyatga ega?

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Tarbiyalanuvchilarda shaxslaro insonparvar-axloqiy muloqotlarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslari.

2. O‘qituvchi-pedagoglar faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.

3. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.

4. Pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.

5. O‘qituvchi-pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi muloqotni tashkil etish usullari va muloqotda tarbiyaviy jarayon tamoyillari.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Pedagogik jarayonning harakat vositasi?

a) faoliyat;

b) pedagogik o‘zaro ta’sir;

s) pedagogik vaziyat;

d) pedagogik hodisa;

e) a, b,s,d.

2. O‘quvchi-talabalarga «pedagogik ta’sir ko‘rsatish» deganda tushuniladigan g‘oyani belgilang?

a) tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish, unga muntazam va tizimli ta’sir ko‘rsatish ;

b) tarbiyaviy va amaliy faoliyatni doimiy nazorat qilish, o‘quvchi-talabalar tafakkurini shakllantirish;

s) ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo‘ladigan faoliyat;

d)ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro faoliyati;

e) pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatish.

3. O‘qituvchi-pedagogning dilkashligi uchta tarkibiy qismni birlashtiruvchi jarayon bo‘lib, u .....

a) muloqotda zaruriyatning mavjudligi, yaxshi kayfiyat, kommunikativ ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish;

b) o‘qituvchilik qobiliyati; perseptiv qobiliyat; ta’limni oqilona tashkil etish;

s) o‘quvchi-talabalarni ishontira olish; muloqot madaniyatiga erishish; pedagogik mahoratni mukammal egallash;

d) o‘quvchi-talabalar jamoasini boshqara olishi; ota-onalar bilan kommunikativ munosabat; o‘z-o‘zini doimiy nazorat qilishi;

e) a, b, s, d.

4. Kasbiy pedagogik muloqot deganda.....

a) pedagogik mahoratni dars jarayonida mukammal qo'llay olish va yutuqlarga erishish;

b) o'qituvchi va ta'lim-tarbiya jarayoni obyektlarining o'zaro hamkorlik tizimi o'zaro axborot almashish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;

s) notiqlik qobiliyatini qo'llagan holda o'quvchi-talabalar ongiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;

d) kommunikativ qobiliyatning ko'nikma va malakalarini mukammal egallash asosida o'quvchi-talabalar bilan suhbatlashish;

e) a, b, s, d.

5. Pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi-pedagogning kommunikativ tomoni nimalarda namoyon bo'ladi?

a) o'quvchi-talabalar ichki dunyosini, individual xususiyatlarini o'rganishda;

b) o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga qarab kommunikativ muloqot ishlab chiqiladi;

s) xushmuomalalik bilan psixologik muhit tashkil qilinadi; obyektni psixologik jihatdan zabt etish amalga oshiriladi;

d) muloqotda demokratik tizimdan foydalaniladi, erkin muloqot qilishga imkoniyat beriladi;

e) a, b, s, d.

6. O'qituvchi-pedagogning o'quvchi-talabalar bilan muloqotda shirinsuxanligi, xushmuomalaligi, muloyimligi....?

a) kommunikativ qobiliyatdir;

b) pedagogik taktning yuksakligidir;

s) induktiv va deduktiv metodlardan foydalanishi;

d) suhbatlashish va tushuntirish odobidir;

e) muosharat odobidir.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Pedagogik mahorat haqida umumiy tushuncha bering.

№	PMNU	Umumiy tushuncha

2.Shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

№	ShIAMMM	Tushuncha

3.O'qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan muomala madaniyatini tushuntirib bering?

№	O'PTBMM	Tushuncha

4.Pedagogik muloqot mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatidaligini tushuntirib bering.

№	O'PKFMPT	Tushuncha

5.Pedagogik muloqot mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatidaligini tushuntirib bering.

№	PMMShShS	Tushuncha

XII bob. TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

12.1. TA'LIM MUASSASALARIDA BARKAMOL SHAXS TARBIYASINI AMALGA OSHIRISHGA YAXLIT TIZIMLI VA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi yaxlit ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni taqozo etadi. **Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal tizimigina, yaxlit tizimli va texnologik yondashuvgina barkamol shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi samaradorligini ta'minlaydi.** Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, talabalarga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama-qarshi ta'sirlarning oldini olishga, bo'lajak mutaxassislarga bir xil talablar qo'yish va yaxlitlik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda tarbiya tizimi haqidagi masalaga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. Pedagog olimlarning asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini ishlab chiqishga imkon beradi. Ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalash tizimini yaratish oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan barcha tarbiyaviy ishlarning maqsadi, mazmuni, tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi va texnik vositalar, tarbiyaning shakl-usullarini belgilashga yordam beradi. Tarbiyaviy ishlar tizimi turli kurslarning talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlarda izchillik va ketma-ketlikni saqlashga yordam beradi. Yoshlarga yagona pedagogik talablar qo'yish, yigit-qizlarning individual xususiyatlarini va axloqiy kamolot darajasini e'tiborga olishni yengillashtiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi nima? Tizim – qismlardan tuzilgan bir butun, ya'ni ma'lum tartibda joylashtirilgan bir-biri bilan bog'liq qismlardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni anglatadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida axloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki aniq maqsad, xilma-xil shakllar, vositalar va metodlar, har xil faoliyat turlari ta'sirida, ya'ni tarbiya tizimi natijasida shakllanadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi ma'lum vazifani bajaradigan, tuzilish jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab qismlarni o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy tizim barkamol avlodni, yuksak axloqiy fazilatli mutaxassislarni shakllantirish maqsadiga bo'ysundirilgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va mos keladigan shakl, usul va vositalarning yaxlit birligidan iborat. Tizim tarbiya jarayonini boshqarish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Tizimning qismlari o'zaro bir-biriga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Bu qismlar biri ikkinchisidan ajralgan holda emas, balki ma'lum bir aloqada mavjud bo'ladi. Masalan, *yaxlit pedagogik jarayonda faqat ma'naviy-axloqiy tarbiyagina emas, balki aqliy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik va mehnat tarbiyasi ham amalga oshiriladi.*

Aloqadorlik (bog'lanishlar) – tarbiyaviy maqsad, mazmun, shakllar, vositalar, usullarning o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, buning natijasida tizim hosil bo'ladi. Aloqalar to'ppa-to'g'ri yoki bevosita bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining qismlari ham o'zaro bir-biri bilan ana shunday aloqada bo'ladi. Masalan, mehnatni biz aqliy tarbiya tizimining tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Mehnat faoliyati jarayonida yoshlar axloqiy jihatdan ham kamol topadi. Axloqiy kamolot o'z navbatida kishining mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Oliy o'quv yurtida ta'lim jarayonida talabalarda axloqiy sifatlar shakllanadi, shuningdek, axloqiy kamolot o'z navbatida ilmiy va professional pedagogik bilimlarni chuqurroq egallashga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu yerda axloqiy tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalarini belgilashda va uni tashkil etishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan, umuminsoniy va milliy axloq talablaridan kelib chiqadigan **kasb odobi normalariga** asoslaniladi.

Barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni unga mos keladigan shakllarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tizimi mazmundorlik bilan birga unga mos keladigan tashkiliy shakllarning xilma-xil, estetik ta'sirli, ixcham bo'lishini taqozo qiladi. Ma'lumki, pedagogik faoliyat hamma vaqt bir qolipda ish tutishni yoqtirmaydi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllariga yetarli darajada e'tibor bermaslik, bir xil tadbirni

hadeb takrorlayverish tarbiyaviy ishning samarasini kamaytiradi, bunday hollarda, hatto tadbirning mazmuni mafkuraviy va ilmiy jihatdan juda qimmatli bo'lsa ham, u talabalarning ongiga, his-tuyg'ulariga juda oz ta'sir etadi. Shuni nazarda tutish lozimki, tarbiyaviy ishning shakllaridan birortasi ham universal bo'lishi, ya'ni hamma holatlar va har qanday sharoitda qo'llanaverishi mumkin emas.

Talabalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning shakllari, usullari uning mazmuni bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, kasbiy pedagogik faoliyatning maqsadi va qonuniyatlarini aks ettiradi va oliy o'quv yurtida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning metodlari va vositalari bilan chambarchas bog'liqdir. Tarbiyaning mazmuni faqat uning shakli tufayligina emas, balki metodlar orqali ham amalga oshiriladi. ***«Shakl»*** va ***«metod»*** tushunchalari bir xil ma'noni anglatadi deb bo'lmaydi, shuningdek, ularning birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yish, ular o'rtasidagi birlikni rad etish ham mumkin emas. Tarbiyaning tashkiliy shakllari metodlar va usullar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaning shakl va usullari bevosita o'zaro bir-biriga o'tib turadi, ular ko'pincha, vazifasiga qarab o'zgarib turadi va ularning biri ikkinchisidan, ma'lum darajada, shartli ravishda ajratiladi. Shuning uchun ham ayrim o'quv qo'llanmalarida konferensiya, ekskursiya, amaliy ishlar, ma'ruza, munozara, suhbat kabi tushunchalar ba'zan ish shakli deyilsa, ba'zan metod deb talqin qilinadi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiyaning shakl va metodlarini tasnif qilishga mualliflar turlicha yondashadilar. Tarbiyaviy ishlar odatda, tarbiyaning maqsadi va vazifalariga, uning xarakteri va davom etish vaqtiga qarab guruhlarga ajratiladi. Masalan, ommaviy ishlar, to'garak ishlari, individual ishlar. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarini quyidagi uch guruhga birlashtirish ham mumkin: *1) og'zaki bayon etish shakllari: ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, ma'naviyat soatlari, konferensiyalar, uchrashuvlar va hokazo; 2) amaliy ishlar: laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy foydali ishlar, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyot, badiiy havaskorlik va ilmiy to'garaklar, sport seksiyalari, ekskursiya kabilar; 3) ko'rsatmali ishlar: muzeylar, ma'naviyat xonalari, ko'rgazma va stendlar, shon-shuhrat xonalari va boshqalar. Tarbiyaviy ishning bu shakllari yaxlit tizimli va o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.*

Tarbiya tizimi tarbiyaviy ishlarning barcha turlarini yuqori darajada samarador bo'lishini talab etadi. Buning uchun esa quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim: tarbiyaviy ishning shakli

tarbiyaning maqsadi va mazmuniga mos kelishi lozim. Shaklning tarbiyaviy kuchi uning chuqur mazmundorligidadir, lekin mazmun o'ziga mos keladigan yorqin shaklga ega bo'lmasa, u talabalarga kuchli ta'sir o'tkaza olmaydi, tarbiyaviy ishning shakli talaba yoshlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy e'tiqod, fuqarolik burchi va mutaxassislikka xos yuksak professional-axloqiy sifatlarni shakllantirishga maksimal darajada yordam berishi zarur. U yoki bu tarbiyaviy ishning qimmati talaba yoshlarni ijtimoiy faoliyatga ko'proq jalb etib shu tariqa boshqalar bilan aloqa, muomala qilishga qanchalik keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishiga ham bog'liq.

Tarbiya metodlari o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning qo'lida o'ziga xos qurol bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida talabalar onggiga ta'sir etiladi, bo'lajak mutaxassislarning hayot faoliyati yo'naltiriladi va uyushtiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya metodlari quyidagicha tasnif qilinadi: **ishontirish metodi; aqliy xatti-harakatlarni mashq qilish metodi; namuna, ibrat ko'rsatish metodi; rag'batlantirish va jazolash metodlari.**

Oliy o'quv yurtlarida tarbiya metodlarini qo'llashning samaradorligi quyidagi pedagogik talablarga rioya qilishga bog'liq: tarbiyaning metodlari shu paytda, shu kursda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak; tarbiya metodlari talabalarning yosh va individual xususiyatlariga, shuningdek, ularning hayotiy tajribasiga mos bo'lishi lozim; tarbiyaviy ish jarayonida tarbiya metodlarini birini ikkinchisidan ajratgan holda emas, balki o'zaro bog'liq holda qo'llash zarur.

Har qanday tarbiya tizimining asosiy belgilaridan biri izchillik, ketma-ketlikdir. Oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi ham ana shu qonuniyatga bo'ysunadi. Bu talab tarbiyaviy ishning mazmunidan kelib chiqadi va tarbiyaga doir ishlarni tartibli, rejali uyushtirishni taqozo qiladi.

Oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan barcha tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir dasturga binoan amalga oshirish, talabalarning ta'lim muassasalarida ta'lim olish davriga mo'ljallangan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini tuzish zarurligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida tarbiya jarayonini yaxshilash uchun har bir talaba, ya'ni bo'lajak mutaxassis egallab olishi zarur bo'lgan kasbiy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning ilmiy jihatdan asoslangan, puxta o'ylab tuzilgan dasturi kerak.

Tarbiya tizimi bir necha qismlardan tuziladi. Umumiy tizimning har bir qismi o'zining ichki tizimiga ham ega bo'ladi. *Masalan, oliy o'quv yurtlarida talabalarga berilayotgan professional ta'lim ma'lum bir tizim bo'lib, u yoshlarga ijtimoiy-gumanitar, psixologik-pedagogik, ixtisosiy bilimlar va ma'naviy-axloqiy tarbiya berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan har bir predmet tuzilishi jihatidan o'zining ichki tizimiga ham ega.*

Ma'naviy-axloqiy va kasbiy tarbiya guruh murabbiylari, jamoat tashkilotlari, talabalar va professor-o'qituvchilar jamoasi ishida ham *tizim bo'lishi* talab etiladi. ***Tizim*** ayrim tarbiyaviy tadbirlar bilan guruh, kurs, fakultet talabalarining faoliyat turlari o'rtasida bog'lanishlar bo'lishini, shuningdek, talabalarga jamoaviy ta'sir o'tkazish bilan individual ishlar o'rtasida ham bog'lanishlar bo'lishini taqozo etadi.

Tizim tushunchasiga barcha tarbiyaviy ishlarni aniq uyushtirish ham kiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimi oliy o'quv yurtlarining butun jamoasi, kasaba uyushmasi, jamg'armalar, kamolot yoshlar tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g'ayrat sarflashi natijasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu tashkilotlar aniq, yaxshi ishlashi, talabalarga bir xil ta'sir o'tkazishlari zarur.

Shunday qilib, *tarbiya tizimi* quyidagilarni taqozo qiladi; oliy o'quv yurtlari ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalarini izchil va muntazam ravishda amalga oshirish; tarbiyaviy ishlarning mazmunini har bir kurs talabalarining kuchiga mos qilib belgilash; tarbiyaviy ishning xilma-xil shakllari, vositalari va usullarini birgalikda, bir-biri bilan bog'liq ravishda qo'llash; tarbiyaviy ishlarda uzviylik, izchillik va ketma-ketlikka amal qilish; tarbiyaviy ishlarning natijalarini muntazam ravishda hisobga olib, tahlil qilib, baholab borish.

Tarbiya tizimi talabalarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish yillari davomida deyarli o'zgarmaydi. Faqat uning mazmunigina yangilana boradi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda bu vazifalarni hal etishga yordam beradigan faoliyat turlari, tarbiyaning shakllari, metodlari, turli ichki va tashqi ta'sirlar natijasida barkamol shaxsning kamolotga erishish bosqichlari, darajalari tarbiya tizimining asosiy qismlari hisoblanadi.

Talabalar egallab olishi zarur bo'lgan kasbiy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar tarbiyaning aniq vazifalari sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Tarbiya tizimida ular o'zaro bog'liq bo'lib, yaxlit holda shakllana boradi. O'qituvchi-pedagog va murabbiy biror fazilatni shakllantirishga asosiy diqqatni qaratgan paytda tarbiyaning maqsadi, vazifasini ham

aniqroq qilib belgilaydi, lekin odatda, pedagogning ***«biror fazilatni shakllantirish»*** sohasida amalga oshirgan tarbiyaviy ishlari shaxsning butun ma'naviy qiyofasini o'zgartirishga xizmat qiladi. Barkamol shaxs tarbiyasi sohasida belgilangan vazifalar butun pedagogik jarayonni jonlantiradi, uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, barkamol shaxs tarbiyasi, avvalo, fan asoslarini egallash jarayonida amalga oshiriladi. U talaba yoshlarda kasbiy, axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, odatlar, mehnat malakalari va xulqni shakllantirishni, shuningdek, shaxsning tashqi olamga, jamiyatga, jamoaga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini nazarda tutadi. Tarbiya tizimi talabalarga axloq-odobga doir muntazam, izchil bilimlar berishni taqozo etadi.

O'quv predmetlarining tarbiyaviy imkoniyatlari ularning mazmunida obyektiv ravishda mavjud. Lekin bu imkoniyalarni yuzaga chiqarish masalasi pedagogning mahoratiga bog'liq. Oliy o'quv yurtlarining mavjud o'quv dasturlari tarbiyaviy g'oyalarga va uni amalga oshirish uchun aniq materiallarga boydir. Ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik va psixologik-pedagogik fanlarning o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarida bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan o'stirishga yordam beradigan fakt va misollar yetarlicha berilgan. Ularda, ayniqsa, vatanparvarlik va insonparvarlik, mas'uliyat, axloqiy-irodaviy, professional va boshqa sifatlarni o'stirish uchun asos bo'ladigan materiallar mavjud.

Ijtimoiy-gumanitar, pedagogik-psixologik va ixtisoslik fanlarini o'rganish jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi. Chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ilmiy dunyoqarash, bo'lajak mutaxassislarda barkamol shaxsga mos sifatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Ilmiy bilimlar g'oyaviy e'tiqodlarning asosidir.

Birinchi kurs talabalari ilg'or ideallar, umuminsoniy va milliy axloq to'g'risidagi ma'lumotlarni *«O'zbekiston tarixi» kursini o'rganish jarayonida bilib oladilar. Professor-o'qituvchilar dastur materiallarining mazmuni va shaxsiy ibrat ko'rsatish yo'li bilan yoshlarga mustaqil O'zbekiston davlatiga sadoqat, ijtimoiy burchni anglash, o'z xatti-harakatlari va ishi uchun mas'uliyatni sezish, o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini baholash kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarning shakllanishiga ta'sir o'tkazadilar.*

«Axloqshunoslik», «Etika», «Estetika» *fanlarini o'rganish talabalarga burch, sharaf, vijdon, baxt singari axloqiy tushunchalarni oydinlashtirish, nafosat va go'zalikka bo'lgan qarashini o'stirishga*

yordam beradi. Ularning amaliy faoliyatida bu tushunchalar turmushga tatbiq etiladi.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlar paytida talabalar guruh, kurs va fakultet jamoasida mavjud bo'lgan munosabatlarning mohiyatini va boshqalarga nisbatan o'zining mas'uliyatini anglaydi. Har bir talabadan jamoat topshiriqlarini bajarish, turar joylarda joriy etilgan ichki tartib-qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Jamoada ishlay olish malakasi, o'rtoqlik va do'stlik, boshqalarga yordam berish va o'zaro hamkorlik malakalari hosil bo'ladi. Yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, yigitlik g'ururi, qizlik sha'ni, xushmuomalalik va o'zaro hurmat kabi his-tuyg'ular tarbiyalanadi.

Ikkinchi va uchinchi kurs talabalarida ta'lim jarayonida umuminsoniy va milliy axloqqa doir bilimlar va birinchi kursda hosil qilingan malakalar takomillashadi. **«Falsafa» va «Umumiy pedagogika»** *fanlarini o'rganish jarayonida talabalar axloqning ilmiy asoslari va normalari haqidagi bilimlarni egallaydilar, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-talabalarga beriladigan ijtimoiy-axloqiy tarbiyaning mazmuni va metodlarini bilib oladilar. Ularda o'z-o'zini baholay olish malakasi, o'z-o'zini tarbiyalashga intilish xislati shakllanadi.*

Talabalar barkamol shaxs va jamoa manfaatlariga zarar yetkazuvchilarga murosasiz bo'lishlari, axloqqa to'g'ri kelmaydigan va jamoaga qarshi xatti-harakatlarni keltirib chiqaradigan sabablarni bilib olishlari va ularning oldini olish uchun kurashishlari kerak. Hosil bo'lgan axloqiy-kasbiy ko'nikma va malakalarni talabalar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot davrida qo'llaydilar.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining obyektiv qonunlarini chuqur o'rganish asosida yuqori kurs talabalarida ijtimoiy hodisalarni va o'z xatti-harakatlarini baholay olish malakasi hosil bo'ladi. **«Psixologiya»** *fanini o'rganish natijasida iroda, xarakter, chidamlilik, botirlik va qahramonlik, qiyinchiliklarni yenga olish kabi xislatlarning ilmiy asoslarini tushunib oladilar. Ularda kelajagi buyuk Vatanimiz – O'zbekiston bilan faxrlanish hissi, xalqimiz oldidagi yuksak burchni anglash, o'zining shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olish malakasi, zarur bo'lganda jasorat ko'rsatishga tayyor turish hissi takomillashadi. Yoshlarda muhabbat tuyg'usi asosida quriladigan oila, oilaviy hayot haqida tasavvurlar hosil bo'ladi, ular bola tarbiyasida ota-onaning burchi va mas'uliyatini tushunib oladilar.*

Malakaviy amaliyot o'tayotgan talabalar maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida umuminsoniy va milliy axloqni tarbiyalashga doir o'zlari egallab olgan bilim, ko'nikma va malakalarini pedagogik amaliyot davrida amalda qo'llaydilar.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ularda professional-pedagogik sifatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarining yangi o'quv rejalari va dasturlarini professional hamda axloqiy - kasbiy tarbiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish – ularning bu sohada juda katta imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatdi.

Barcha kurslarda talabalarning tanlagan kasbini egallashga yo'naltirilgan faoliyati, ularda professional bilimlar va malakalar hosil qilishga, shuningdek, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatida yuksak mavqeini anglab, bo'lajak mutaxassis uchun zarur bo'ladigan axloqiy sifatlarni egallab olishga yordam beradi. Bu vazifani barcha kafedralarning professor-o'qituvchilari va jamoat tashkilotlari maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Shu maqsadda talabalarning eng yaxshi va tajribali o'qituvchilar bilan, murabbiylar, tarbiyaviy ishlarning tashkilotchilari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining rahbarlari bilan uchrashuvlari muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. Talabalar va yosh o'qituvchilarning ilmiy-metodik konferensiyalari tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalariga axloqiy-kasbiy tarbiya berishda barcha kafedralarning professor-o'qituvchilari faol ishtirok etishlari lozim. Fakultetda ixtisos fanlardan dars beradigan o'qituvchilar o'quv dasturiga tez-tez murojaat etib, talabalar olgan bilimlarni maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida qaysi fanlarni o'qitishda qo'llash mumkinligiga e'tiborni jalb etadilar. Axloqiy sifatlar nutq va tafakkurni o'stirishga yordam beradigan mavzularda referat va ma'ruzalar yozdirib, ularni seminar va konferensiyalarda tinglab, muhokama qiladilar. Ixtisos fanlari kafedralari talabalar uchun turli maxsus kurs va seminarlar, to'garaklar uyushtiradilar. Bulardan maqsad talabalarga maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni uyushtirishga doir bilim va malakalarni o'rgatishdan iborat.

Oliy o'quv yurtlarining talabalari ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarda nazariy va metodik bilimlarni egallab oladilar. Shu bilan birga talabalar o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni bajarishga ham bevosita jalb etiladi. Birinchi kurs talabalari maktabdan tashqari

muassasalarda, mehribonlik uylarida, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bilan tarbiyaviy tadbirlarni bajaradilar; ikkinchi (uchinchi) kurslarda yozgi oromgohlarda tarbiyachi bo'lib ishlaydilar. Yuqori kurs talabalari maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida pedagogik amaliyot davrida o'quv-tarbiya ishlarini bajarish sohasida malaka va ko'nikmalar hosil qiladilar.

Talabalarda professional-axloqiy sifatlarni o'stirish ikkinchi kursdan boshlanadi. «Pedagogika» fanini o'rganish bunga katta yordam beradi. Talabalar kasbiy ta'lim o'qituvchisi degan sharafli kasb haqida, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda uning roli to'g'risida ma'ruzalar tinglaydilar. O'zbekistonda ta'lim tizimi, *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»* bilan tanishadilar, ta'lim, tarbiya, ma'lumot kabi tushunchalarni o'rganadilar. *«Pedagogika»* fani bilan bog'liq ravishda maktab va maktabdan tashqari tarbiya muassasalariga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga borib, ularning faoliyati bilan tanishadilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi.

Talabalar o'quvchi-talabalarning kun tartibi va ta'lim muassasalari gigiyenasi talablarini bilib oladilar. Mehnat va dam olish tartibiga amal qilish zarurligini o'quvchi-talabalarga tushuntiradilar, ularni o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etadilar. Yoshlar uchun shu mavzularda yozilgan kitoblarni o'qib, kinofilm va spektakllarni ko'rib, o'quvchilar bilan u haqda suhbatlar o'tkazadilar.

Oliy o'quv yurtlarining ikkinchi kursida axloqiy-kasbiy tarbiya «Falsafa», «Pedagogika», «Psixologiya» va boshqa fanlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Talabalar *«Falsafa»*ni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarash va axloq to'g'risidagi bilimlarni egallab oladilar. Bo'lajak mutaxassislar tarbiya to'g'risidagi ta'limotni, mashhur allomalarning asalarini, O'zbekiston davlatining ta'lim haqidagi qonun hujjatlarini, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji Nizomini, o'quvchi-talabalar uchun xulq qoidalarini o'rganadilar. Natijada, ular maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining faoliyati va bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurishda uning roli haqida keng tushunchaga ega bo'ladilar.

Talabalarda bo'lajak mutaxassisga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'stirish, vaqtli ommabop adabiyotlarni o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida kafedralar, dekanat va jamoat tashkilotlari oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, axloq-odob masalalariga doir mavzularda munozara va konferensiyalar uyushtiradilar. Talabalar

o'zlari egallayotgan mutaxassislikka doir fanlarni chuqur o'rganadilar, kafedra o'qituvchilari bilan birgalikda o'quvchi-talabalar olimpiadalarini tashkil etish va o'tkazishda, har xil turnirlar va konkurslarda, fan olimpiadalarida ishtirok etadilar, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi fan to'garaklariga rahbarlik qiladilar. Talabalar yozgi oromgohda amaliyot o'tashga puxta hozirlik ko'radilar. *«Kasb ta'limi»* kafedrasi tarbiyaviy ishlarni olib borish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etadi. Bu tadbirlar natijasida talaba o'smirlar va yoshlar tashkiloti, «Kamolot» ijtimoiy harakati faoliyatining mazmuni va asosiy yo'nalishlarini bilib oladilar. O'quvchi-talabalar bilan bajariladigan ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va ish natijalarini hisobga olishni o'rganadilar. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish, har turli o'yinlarni uyushtirish metodikasini egallaydilar. Pedagogik kundalik yuritishni, pedagogik amaliyot uchun kerakli hujjatlarni to'ldirishni, psixologik-pedagogik kuzatish materiallarini umumlashtirib, axborot yoki doklad tayyorlashni o'rganadilar.

Uchinchi (to'rtinchi) kurs talabalari o'zlari o'qitadigan fanlardan dars berish metodikasini o'rganadilar, dars o'tish malakasini hosil qiladilar, o'zlari va o'rtoqlari o'tgan darsni tahlil etadilar. Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'qituvchisining ilg'or tajribasini o'rganib, dastur asosida ish rejasini tuzadilar, darslik va boshqa o'quv qurollarini tahlil qiladilar.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari sinf yoki guruh rahbari ishining metodikasini o'rganib oladilar, ayrim o'quvchi-talabaga va sinf-guruh jamoasiga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzib, shu asosida jamoa oldida turgan vazifalarni belgilaydilar va ma'lum vaqtga mo'ljallangan tarbiyaviy ish rejasini tuzadilar va uni bajarishda qatnashadilar. Darslardan bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchi-talabalar bilan ishlash yo'llarini o'rganib oladilar.

Talabalar fan to'garaklari, foto va kino to'garaklari, badiiy havaskorlik to'garaklari, sport seksiyalarining ishini uyushtiradilar va ularga rahbarlik qiladilar. Oliy o'quv yurtlarida egallab olingan bilim va ko'nikmalar bu ishda juda qo'l keladi. Bo'lajak mutaxassislar o'smirlar va yoshlar tashkilotlari ishlariga pedagogik rahbarlik qiladilar. Ota-onalar bilan pedagogik mavzularda suhbat o'tkazish malakasini egallab oladilar. Ular pedagogik amaliyot jarayonida maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash sohasidagi tajribasi bilan tanishadilar.

Bitiruvchi kursda talabalarning professional ta'limi va axloqiy tarbiyasi takomillashtiriladi. Ular o'quvchi-talabalarning umuminsoniy va milliy axloq ruhida tarbiyalash sohasida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oila va jamoatchilik oldida turgan vazifalarni to'la tasavvur etadilar, ta'lim muassasalari va oila bu sohada hamkorlik qilishini, bolaga bir xil ta'sir o'tkazish zarurligini bilib oladilar.

Bitiruvchilar o'qituvchi va sinf yoki guruhning rahbari sifatida sinfda va guruhdagi barcha ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishni o'rganib oladilar, sinf-guruh jamoasi va ayrim o'quvchi-talabalar bilan ishlashni, pedagogik-psixologik, axloqiy mavzularda doklad va ma'ruzalar tayyorlab, o'quvchi-talabalar oldida, ota-onalari hamda o'qituvchilar oldida so'zga chiqish malakasiga ega bo'ladilar.

Bitiruvchi kurs talabalari ilg'or pedagogik tajribalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishni, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida bajariladigan metodik ishlar tizimini bilishi lozim. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida ular har bir darsni ilmiy jihatdan yuqori saviyada o'tkazish malakasini va pedagogik mahorat asoslarini egallaydilar. Vaqtli matbuot va pedagogik adabiyotlar ustida mustaqil ishlay olish malakasini hosil qiladilar.

Oliy o'quv yurtlarida ta'limning professional yo'nalishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalarning professional faoliyati ularda tanlagan kasbiga xos ma'naviy-axloqiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarni tarbiyalash vazifalari umuminsoniy va milliy axloqning mohiyatini anglash, uni qat'iy e'tiqodga aylantirish, professional bilim va malakalar asosida xulq me'yorlarini egallab olish bilan birga, bo'lajak mutaxassisning butun ma'naviy qiyofasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislarga mehnat tarbiyasi berishning maqsadi talabalarda mehnatga ijodiy munosabatni qaror toptirish, shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirib ishlashga intilish, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini hosil qilishdan iborat. Talabalar oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan paytlaridayoq o'quvchi-talabalarni ijtimoiy foydali va aqliy mehnatini uyushtirish malakasini, o'smir yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini o'rganib oladilar.

Talabalarning mehnati asosan tanlagan kasbini egallab olishga qaratilgan bo'ladi. Professional pedagogik ish yoshlarda maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining bo'lajak o'qituvchisi uchun zarur ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalar o'quv jarayonida va auditoriyadan tashqari ishlarda mehnatning inson hayotidagi rolini tushunib oladilar. Fakultetda, guruhda bajariladigan ishlarda faol ishtirok etib, bilimlarni qunt bilan egallaydilar, guruhda, fakultetda, o'quv binosi va turar joylarda navbatchilik qilib, o'quv binosini, auditoriyalarni toza saqlashda qatnashadilar.

Talabalarda o'quv mehnatiga nisbatan mas'uliyat hissi; mustaqil ishlar rejasini tuzish va uni bajarish malakasi hosil bo'ladi. *«Kasbiy pedagogika va kasbiy psixologiya»* fanlarini o'rganish natijasida talabalar mehnat tarbiyasida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining roli to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar, o'quvchilarning o'quv ishlari, sinf-guruh, sinfdan va auditoriyadan tashqari mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini, mehnat tarbiyasi metodlarini bilib oladilar. Talabalar bu sohadagi o'z bilimlarini pedagogik amaliyotda qo'llaydilar.

Oliy o'quv yurtlarining har bir talabasi ijtimoiy foydali mehnatda, sog'lomlashtirish sport lageri va agrouchastkada bajariladigan ishlarda, turar joylar atrofini, o'quv yurti va shahar hududini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish kabi ishlarni bajarishda qatnashadilar.

Pedagogik amaliyot davrida sinf-guruh jamoasi va ayrim o'quvchi-talabalarning mehnat tarbiyasiga rahbarlik qilib, ijtimoiy foydali ishlarni rejasini tuzib chiqadilar va o'quvchi-talabalar mehnatini bevosita uyushtiradilar. O'quvchilarning mehnat tarbiyasiga doir ma'ruza va dokladlar matni tayyorlab, ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazadilar.

Tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan bunday mehnat jarayonida talabalarda mehnat intizomini buzuvchilarga nisbatan murosasizlik, tejamkorlik hamda mulkka to'g'ri munosabat tarbiyalana boradi. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida intizomlilik, tashkilotchilik, mas'uliyat kabi muhim ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllanadi va mustahkamlanadi.

Oliy o'quv yurtlari, professor-o'qituvchilari, ota-onalar, jamoat tashkilotlari – talaba yoshlarning o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarini tarbiyaviy ishlari faqat shulardangina iborat emas. Tevarak-atrofdagi muhit ham yigit va qizlarning axloqiy tarbiyasiga jiddiy ta'sir etadi. Bu ishda keng jamoatchilik ham katta rol o'ynaydi. Matbuot, radio, televidenie, badiiy adabiyot, kino, teatr, ommaviy sport ishlari va boshqalar yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.

Oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalarida tavsiya etilgan fakultativ mashg'ulotlar, maxsus kurs va seminarlar ham bu sohada katta imkoniyatlarga ega. Fakultativ mashg'ulotlar, ayniqsa, mahalliy

sharoitni, har bir viloyat, oliy o'quv yurti va fakultetning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalarning bilim saviyasini, professional-axloqiy tayyorgarligini oshirishga imkon beradi.

Talabalar fakultativ mashg'ulotlarga ixtiyoriy ravishda qatnashadilar. Bu bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga, mustaqil ishlash va o'z-o'zini tarbiyalashga imkon beradi. Talabalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, egallayotgan kasbiga mos keladigan fakultativ mashg'ulotlar jarayonida erkin muomala va fikr almashuv uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi. Talabalar u yoki bu masalaga doir o'z fikr-mulohazalarini bayon etadilar, faollik va tashabbuskorlik ko'rsatadilar. Bu bo'lajak mutaxassislarda axloqiy qarashlar va e'tiqodni mustahkamlashga yordam beradi, jamoa bilan shaxs o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabatlar vujudga keladi va bu munosabatlar jamoaning har bir a'zosiga ijobiy ta'sir etadi.

1-shakl

Tarbiyaga tizimli yondashuv



Oliy o'quv yurtlarida talabalarning professional qiziqishlari va intilishlari bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshirilayotgan klub ishlari ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Xullas, ma'naviy-axloqiy va kasbiy tarbiya tizimining barcha qismlari talabalarning xilma-xil faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu faoliyat jarayonida talabalar jamoasida obyektiv axloqiy munosabatlar vujudga keladi. Mashg'ulotlar va faoliyat turlarini bajarish natijasida obyektiv munosabatlar ularning shaxsiy odob, muomala munosabatiga aylanadi va shu jarayonda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy-kasbiy fazilatlari kamol topa boradi.

Tarbiyaviy ishlarga texnologik yondashuv.

Texnologiya – yunoncha *so'z bo'lib,* **«techne»** *– san'at, mohirlik, o'quv va* **«logos»** *– ilm, ta'limot ma'nolarini anglatadi.* Texnologiya moddiy ishlab chiqarish – sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish hamda ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik, qurilish texnologiyasi va boshqalar.

Masalan, qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig'indisidan tashkil topgan: yer ishlari (yerni tekislash, transheyalar qazish); poydevor yotqizish; devor tiklash; tom yopish; elektr, gaz, suv tarmoqlarini o'tkazish; pardoz ishlari va hokazo. Har qaysi operatsiyaning o'ziga xos bajarish usullari bor.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino va boshqalar) shunchalik sifatli bo'ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiyalar ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipovoy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar, uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim.[80]

Tarbiyaviy ishlarga texnologik yondashuv:

– tarbiya jarayonini o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratishni;

[80] Qarang: O'zbek milliy ensiklopediyasi. 8-jild, – T.: 2004, 411-bet.

– tarbiyadan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

– mo'ljallangan (loyihalashtirilgan) ishlarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Tizim (sistema) tushunchasi bo'laklardan tashkil topgan yaxlit bir narsa yoki hodisa, birikma ma'nolarini bildiradi. **Pedagogik tizim** *– ta'lim-tarbiya texnologiyasining asosi, zamini hisoblanadi: 1) pedagogik tizim bir butun, harakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u, tarbiyalanuvchi; 2) ta'lim-tarbiyaning maqsadi; 3) ta'lim-tarbiyaning mazmuni; 4) ta'lim-tarbiya jarayoni; 5) tarbiyachi, texnik va boshqa vositalar; 6) ta'lim-tarbiyaning shakl-usullaridan tuziladi.*

Ta'lim-tarbiyaning **maqsadi** obyektiv xususiyatiga ega. U har bir jamiyatning moddiy-ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi; ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida umumiy tarzda ifodalanadi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi tizim hosil qiluvchilik xususiyatiga ega. Pedagogik tizimning barcha komponentlari ta'lim-tarbiyaning maqsadiga bog'liq bo'ladi va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. **O'zbekiston Respublikasida barkamol shaxsni, yuksak ma'naviy-axloqli, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalash maqsadi ta'lim-tarbiya ishlarining mazmunini belgilaydi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni tarbiyaviy vazifa shaklida ifodalanadi, aniqlanadi.** *Tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi yoki tarbiyaning texnik va boshqa vositalari, ta'lim-tarbiyaning shakl-usullari tarbiya texnologiyasi deb ataladi.* Pedagogik amaliyotda tarbiya texnologiyasi yordamida aniq ifodalangan tarbiyaviy vazifani tarbiyalanuvchi o'zlashtirib, egallab oladi. Tarbiyachi boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik rolini bajaradi.

Ayrim amaliyotchi pedagoglar **«pedagogik texnologiya»** *deganda texnologik yondashuvga asoslanmagan ba'zi foydali, samarali usullarni yoki ta'lim-tarbiya jarayonida texnik vositalarni qo'llashni tushunadilar. Vaholanki, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar va xususiyatlarga ega bo'lgan, tizimli, texnologik yondashuvga asoslanadi. U pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining mahsuli, texnokratik ilmiy fikr (ong)ning ta'lim-tarbiya sohasidagi loyihasi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini ma'lum darajada standartlashtirish, takrorlanadigan pedagogik siklga aylantirishdir.*

2-shakl



Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik sikl (jarayon)ni yaratish oson ish emas. Bunga ta'lim-tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim-tarbiya mazmuni va o'quv-biluv materiallarining har xilligi, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlari, xotira, iroda kabi ruhiy xususiyatlari bir xil emasligi kabi qator faktorlar sabab bo'ladi. Shunga qaramay rivojlangan mamlakatlarda pedagog, psixolog olimlar pedagogik texnologiyani ishlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya takrorlanadigan pedagogik sikl bo'lib, ta'lim-tarbiyaviy ishda rejalashtirilgan (loyihalashtirilgan) natijalarni kafolatlaydi.[1]

Oliy o'quv yurtlarining talabalarida ma'naviy-axloqiy va kasbiy fazilatlarni tarbiyalashning samaradorligi ko'p jihatdan bo'lajak

[1] Qarang: OCHILOV M., OCHILOVA N. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI. – T.: 2008, 182-bet.

mutaxassislarning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga, ijobiy odatlar, yaxshi fazilatlarni o‘zida ongli ravishda hosil qila olishiga bog‘liq. Shaxsda o‘z xulqini, xatti-harakatlarini, tartibga solish odati, ko‘nikmasi hosil bo‘lsagina ma’naviy- axloqiy va kasbiy tarbiyani to‘la amalga oshirish mumkin. Vijdon, mas’uliyat hissi o‘sgan bo‘lishi ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash kabilar shaxsni o‘z-o‘zini takomillantirishga undovchi kuch hisoblanadi.

Jahon xalqlari tajribasida mashhur pedagoglar tarbiya sohasida erishgan yutuqlarining muhim omillaridan biri – ular tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirib, yoshlarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi masalasini oqilona uyushtira bilganligidadir. Ular amalga oshirgan tarbiya tizimi ta’sirchanligining boisi tarbiya jarayonini o‘z-o‘zini tarbiyalashga rahbarlik qilish jarayoniga aylantira bilganliklaridadir. Tarbiyaning maqsadini tarbiyalanuvchilar oldiga qiyinchiliklarni yengish va kelgusidagi yutuqlarga erishish vazifasi qilib qo‘ya bilishdadir. Darhaqiqat, bo‘lajak mutaxassislarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jarayoni faqat, shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalashga faol kirishgan va bu ishni muntazam davom ettirgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

O‘z-o‘zini tarbiyalash talabalarda hosil bo‘lgan ma’naviy-axloqiy va kasbiy kamolotning natijasidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash talabalar ongining o‘sishi, faolligi, ijodkorligi, irodasining yuksak darajada chiniqqanligi natijasida amalga oshiriladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash uchun shaxs o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi, o‘zining kuch va qobiliyatiga ishonishi lozim. O‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyoji ma’lum shart-sharoitlar va tarbiya ta’sirida hosil bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash uchun yigit va qizlar o‘zlarining jamiyatda tutgan o‘rni va burchini yaxshi tushunib olgan bo‘lishlari kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash natijasida shaxsda tashqi tarbiyaviy ta’sirlarga ongli munosabat hosil bo‘ladi va u o‘z-o‘zini tarbiyalashning xususiyatiga bog‘liq ravishda tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi muhitning va oliy o‘quv yurtlaridagi mavjud tarbiya tizimining ta’siri bilan belgilanadi. Bu yerda tarbiyaning obyekti ham, subyekti ham talabaning o‘zidir.

Talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi bo‘lajak mutaxassislarning ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishini davom ettiradi, to‘ldiradi, chuqurlashtiradi, barcha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi.

Odatda talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi masalasiga kam e'tibor beriladi. Buning sabablaridan biri o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyatini tushunib yetmaslik, oliy o'quv yurtlari, fakultet rahbarlari va professor-o'qituvchilar o'z-o'zini tarbiyalash ishining ahamiyatiga yetarli darajada e'tibor bermasligidadir. Shuni nazarda tutish lozimki, oliy o'quv yurtlarining ko'pchilik talabalari – O'zbekiston Respublikasi maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining kelajakdagi kasbiy ta'lim o'qituvchilaridir. Ular ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini bajarish bilan birga o'quvchi-talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi sohasidagi ishlarni ham uyushtirishi, tashkil etishi kerak. Shuning uchun ham bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilari talabalik chog'idayoq o'z-o'zini tarbiyalash metodikasi bilan qurollanishi zarur. Oliy o'quv yurtlarining talabalarida o'z bilimlarini takomillashtirishga, mustaqil ishlash, o'qib-o'rganishga intilish xislati mavjud. Ba'zan ana shu imkoniyat, intilish, o'z-o'zini tarbiyalash malakasi, tajribasi kamligi tufayli ro'yobga chiqmay qoladi. Chunonchi oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalari talabalarga ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga doir bilim va malakalar berish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Talabalarda o'zlarining xatti-harakatlari va xulq-odatlariga tanqidiy va jiddiy qarashlarining oqibatlarini shaxsiy va jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan baholay olish odatini hosil qilish o'z-o'zini tarbiyalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlari talabalarini o'rtoqlarining fikrlariga quloq solishga, ularning tanqidiy mulohazalarini hisobga olishga o'rgatish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash ishining samarali bo'lishi uchun avvalo, talabalarda motiv, ijobiy-axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi, yigit va qizlarning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va xulqi uchun ma'lum tartib o'rnatish talab etiladi. Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi ulardagi ijobiy sifatlarni o'stirish va mavjud bo'lgan ayrim salbiy xislatlarni bartaraf etishdir.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalar bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlarini uyushtirish va ularning o'z-o'zini tarbiyalashiga ko'maklashish uchun **«Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash dasturi»**ni tuzishi lozim. Dasturning birinchi qismida bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari ko'rsatiladi. Oliy o'quv yurtlari talabalari o'qish davrida bu sifatlarni o'zida tarbiyalashlari, kamol toptirishlari lozim. Ikkinchi qismida faoliyat turlari ko'rsatiladi.

Talabalar ularni bajarish natijasida o'zlarida bu zaruriy sifatlarni hosil etadi.

Dasturning birinchi qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti, shuningdek, **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** asosida ta'limning yangi mazmuniga o'tish – yangi o'quv rejalari va dasturlarining joriy etilishi oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashning sifatini tubdan yaxshilashni talab etadi, bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy, mafkuraviy va ilmiy saviyasini yanada oshirish psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarligini kuchaytirishni taqozo qiladi. O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti sharoitida, masalan, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mustaqillik mafkurasini, milliy istiqlol g'oyasini chuqur o'zlashtirib olgan, o'zi dars beradigan fanni puxta biladigan, yuksak pedagogik mahorat va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan o'qituvchigina muvaffaqiyatli ishlay olishi mumkin.

Shuningdek, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bo'lajak o'qituvchisi milliy-ma'naviy qadriyatlarni va milliy axloqni egallagan bo'lishi zarur. O'qituvchining kuchi va tarbiyaviy ta'siri, avvalo mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi uning e'tiqodiga aylanganligidadir. Oliy o'quv yurtlarida yangi o'quv rejalari va dasturlari joriy etilishi, milliy madaniy qadriyatlarga doir adabiyotlarning ko'plab nashr etilayotganligi, yuqori malakali professor-o'qituvchilarning mavjudligi talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan tarbiyalash ishini yuksak darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Bo'lajak mutaxassislarga berilayotgan bilimlar doirasini tobora kengaytira borish, ixtisoslik fanlariga doir bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir. Shu bilan birga yosh mutaxassislar mustaqil o'qib, o'z bilimlarini muntazam oshira borish ko'nikmasini hosil qilishlari zarur.

Bo'lajak mutaxassislar chuqur psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchisi pedagogika fanining nazariyasi va tarixini, didaktikani, tarbiya nazariyasi va metodologiyasini, xususiy metodikalarni, psixologiya va yoshlar fiziologiyasini yaxshi bilishi lozim.

Bo'lajak mutaxassisga xos shaxsiy, kasbiy, ma'naviy axloqiy sifatlarni egallash uchun talaba, avvalo, tanlagan kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab olishi, unda pedagoglik kasbiga qiziqish va

ishtiyoq bo'lishi zarur. Bu fazilat shaxsning pedagogik yo'nalishini tavsiflaydi.

O'qituvchi shaxsini tavsiflaydigan muhim sifatlardan yana biri pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligidir. Pedagogik kuzatuvchanlik, mushohada, muloqot madaniyati, pedagogik takt, tashkilotchilik, kasbiy mahorat, iqtidor kabilar pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligini ko'rsatadi.

Demokratik huquqiy davlat va uning zaminida shakllanayotgan kuchli fuqarolik jamiyatida pedagogik faoliyatning xarakteridan kelib chiqadigan bu talablar bo'lajak mutaxassis qanday fazilatlarni egallab olishi zarurligini talabalarga batafsil tushuntirib berish lozim bo'ladi. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchisi egallab olishi lozim bo'lgan bu shaxsiy sifatlar ularning intilishi uchun istiqbol marra, ideal bo'lib xizmat qiladi.

Dasturning ikkinchi qismida talabalar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, ya'ni faoliyat turlari ko'rsatiladi. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida bo'lajak mutaxassislar uchun zarur bo'lgan professional axloqiy fazilatlarni egallab oladi. Dasturda jumladan, quyidagilar ko'rsatiladi:

- **Ma'naviy-mafkuraviy ishlar.** Mustaqil O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatidan xabardor bo'lish. Prezidentimizning nutqlari, asarlari, Oliy Majlis qabul qilayotgan qonunlarni, mamlakatimizda nashr etilayotgan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, shuningdek, ixtisoslikka doir gazeta va jurnallarni o'qib borish: *«Xalq so'zi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Ma'rifat», «Oila va jamiyat» kabi gazetalarni, shuningdek, «Xalq ta'limi», «Boshlang'ich ta'lim», «Oila», «Sog'lom avlod uchun» va boshqa ta'lim-tarbiyaga doir gazeta-jurnallarni muntazam o'qib borishga odatlanish.*

O'quvchi-talabalar bilan, shuningdek, ota-onalar orasida ma'naviyatga, mafkuraga doir mavzularda suhbatlar o'tkazishni, gazeta va jurnallarni ovoz chiqarib o'qish, ijtimoiy-siyosiy mavzularda ma'ruza matnlari tayyorlash va o'qishni o'rganib olish.

Guruhda, shuningdek, o'quvchi-talabalar orasida va mahallada targ'ibotchilik vazifasini bajarish. Targ'ibotchilik malakasi, ko'nikmalarini puxta egallab olish. Jamoat topshirig'ini, agar u juda kichik va juda oddiy bo'lsa ham har kuni muntazam ravishda bajarish.

- **Aqliy mehnat.** Aqliy mehnat gigiyenasini bilish va unga amal qilish. Tartib bilan ishlashga odatlanish. Ma'ruzalarni tinglash va uni yozib borishga odatlanish. Kitob bilan mustaqil ishlashni o'rganib olish,

turli predmetlardan qachon va qanday dars tayyorlashni oldindan rejalashtirib, belgilab qo'yish. Majlislarda va munozaralarda so'zga chiqish uchun yozma nutq tayyorlashni va nutq so'zlashni o'rganish, konferensiyalarda qatnashish uchun doklad va axborotlar tayyorlashni o'rganish, bunday paytlarda aniq takliflar kiritish va o'z taklifini asoslab berishga odatlanish. Bibliografiyadan foydalanishni, shuningdek, ta'lim-tarbiya masalalariga doir mavzularda, ixtisosga doir mavzularda bibliografiya tuzishni o'rganib olish. O'qigan kitoblarni kundalik daftarga yozib borish, ulardan muhim joylarini ko'chirib olishga, annotatsiya va taqrizlar yozishga odatlanish. Sharq allomalari, Vatanimiz va jahon fani va madaniyatining mashhur arboblari kitob ustida qanday ishlaganliklarini, o'z asarlarini qanday yaratganliklarini bilib olish. Aqliy mehnatni uyushtirishning ilmiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lish. Kompyuterda ishlashni o'rganish, kompyuter vositasida kerakli ilmiy axborotlarni yig'ib borish va h.k.

• **Tashkiliy mehnat.** Yosh mutaxassisning, tarbiyachining ishi, avvalo, tashkiliy mehnat ekanligini bilib qo'yish. Shuning uchun ham tashkilotchilik va boshqarishning mohiyati hamda prinsiplarini bilib olish. To'g'ri rahbarlik qilish rejalashtirishga, jamoa a'zolarining tashabbuskorligi va faolligiga asoslanadi. Jamoa a'zosi boshqarishni ham, bo'ysunushni ham bilishi kerak. Rahbar ishchan, odobli, obro'li bo'lishi lozim, u har bir ishda boshqalarga ibrat, namuna bo'la olsin, jamoa oldida mas'uliyatni his etishi. Rahbar o'zini jamoaning vakili deb hisoblashi, o'z-o'ziga talabchan bo'lishi, tanqid va o'z-o'zini tanqidni qo'llab-quvvatlashi zarur.

O'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchan bo'lish, buyurishni ham, itoat etishni, bajarishni ham bilish, o'rtoqlarining tanqidiy fikrlariga quloq solish. Sezgir, hushyor bo'lish, o'rtog'ining o'qishda, turmushda, jamoat topshiriqlarini bajarishda qanaqa yordamga muhtojligini bilib olish va xushmuomalalik bilan unga ko'maklashish. O'rtog'ining faoliyatida sezgan kamchilikni to'ppa-to'g'ri uning o'ziga aytish, bu nuqsonni tugatishni talab etishni, majlisda uni tanqid qilishni bilish. Kishi bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, bir-birini shunchalik hurmat etadi, bir-biriga nisbatan shunchalik talabchan bo'ladi, shu bois bu qoidaga amal qilishga odatlanishi lozim.

Jamoat topshiriqlarini bajarishda va shaxsiy ishlarda tashabbus ko'rsatish. Guruh tashkilotchisining va to'garak rahbarining vazifalari

nimalardan iborat ekanligini, yoshlar tashkilotchisining vazifalarini bilib olish. Jamoat topshiriqlarini muntazam bajarish.

O'quvchi-talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning rejasini tuzishni o'rganish, uni bajarishda ishtirok etish. Sinfda yoki guruhda umumiy majlisni, faollar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishni o'rganish. Axloqqa doir mavzularda suhbat, munozaralar o'tkazishni, kitobxonlar konferensiyasini tayyorlash va o'tkazishni, o'quvchi-talabalarni teatrga, kinoga, sayrga olib borishni, devoriy gazeta chiqarishni, majlis qarorini yozishni, bajarilgan ishlar haqida hisobot yozishni, ayrim masalalarga doir ko'rgazmali vositalar tayyorlashni, jamoat oldida hisobot berishni, qabul qilingan qarorga bo'ysunushni bilib olish.

- **Maishiy mehnat.** Uy-ro'zg'or ishlari hajmida maishiy xizmat bajarishni o'rganib olish.
- **Nafosat tarbiyasi.** San'at inson hayotida juda katta rol o'ynaydi. Shaxsni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning muhim vazifasi kishida estetik bilim va madaniyatni oshirishdan iborat. Madaniyat estetik qiziqishlarning kengligi va go'zallikni chuqur his etishda, kishilarning turmushi va mehnatida go'zallikning, nafosatning qaror topishida ifodalanadi.
- **Mehnat estetikasi.** Mehnat qilishga odatlanish, hech qachon erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmaslik. Hamma vaqt ijodiy ishlashga intilish. Mehnatni tashkil etishda o'zi rahbarlik qilayotgan o'quvchi-talabalar jamoasi va o'rtoqlarining faolligi va tashabbuskorligiga tayanish. Faqat ijodiy mehnat qilgan kishigina o'z ishidan qanoat hosil qilishi mumkinligini unutmaslik.

Chidamli va qat'iyatli bo'lish, har doim kun tartibiga binoan ishlash. Agar boshlagan ishni tugallash imkoni bo'lsa, uni hech qachon chala qoldirmaslik. Mehnat estetikasi ishni puxta bajarish, tejamkorlik, halollik, kuch-g'ayrat sarflash, ishga ijodiy munosabatda bo'lish kabilarda namoyon bo'lishini esda tutish.

Kishini, kelajagi buyuk Vatanimiz – O'zbekistonning istiqloli, ravnaqi, baxt-saodati yo'lida bajarayotgan halol mehnati uchun qadrlashni o'rganishi lozim. Inson o'z mehnati bilan go'zalligini, mehnat insonni ulug'lashini doimo yodda saqlashi. O'z mehnatini, faoliyatini to'g'ri baholay olishni o'rganishi kerak. O'zini kamtar tutish, erishgan yutuqlari bilan mag'rurlanib ketmaslik, o'z tajribasini o'rtoqlari bilan baham ko'rish, boshqalarning yutug'idan quvonish.

O‘zi o‘qiydigan auditoriyani, dars tayyorlaydigan joyni toza va tartibli saqlashga odatlanish, doskaga va daftarga xatni chiroyli qilib yozish, suratlarni ham chiroyli chizish, doskaga bo‘r bilan yozayotganida qo‘lni, kiyimlarini iflos qilmaslik, ishni aniq va o‘z vaqtida bajarish, doimo hushyor bo‘lish.

• **Maishiy turmush estetikasi.** O‘zi yashaydigan xonani ozoda tutishni, buyumlarni did bilan joy-joyiga qo‘yishni, tartibli saqlashni o‘rganish, bu ishga o‘rtoqlarini ham jalb etish. Kiyimni oddiy, ozoda va did bilan kiyishga odatlanish, o‘ziga va oila a’zolariga mos keladigan kiyimni tanlay bilish. Ko‘ylak, kostyum, oyoq kiyimlarni ehtiyotlab kiyish, asrash, kiyimlarni yuvish, yamash va dazmollashni o‘rganish. Kiyim- kechaklarni taxlab, joy-joyiga qo‘yishga odatlanish, ust-bosh kiyimlarini stulning suyanchig‘iga ilib qo‘yish, krovatga tashlashga odatlanmaslik.

Talabalar turar joylarida yashash qoidalariga rioya qilish. Muomala madaniyatini o‘rganish, xushmuomala bo‘lish.

• **Ekologik tarbiya.** Tevarak-atrofdagi tabiatning go‘zalligiga e’tibor berish va uni asrash. Gullar, daraxtlar, o‘simliklarning nomlarini bilib olish. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratlarni tushunish va ulardan zavqlanishni o‘rganish, ayniqsa, O‘zbekiston va jahon rassomlari chizgan suratlar haqida o‘quvchi-talabalar bilan suhbat o‘tkazishga tayyorlanish. Tabiat to‘g‘risida o‘quvchi-talabalar bilan *«Erta bahor», «Tong payti», «Bahorda, yozda, kuzda va qishda tabiat manzarasi»* kabi mavzularda suhbatlar o‘tkazish. Yozgi oromgohlarga borish uchun tayyorlanish va oromgohda pedagogik amaliyot o‘tish paytida tabiatni, tabiiy manzaralarni diqqat bilan kuzatish va asrash.

• **San’atning asosiy sohalari.** Musiqa san’atidan xabardor bo‘lish. Musiqa inson madaniyatining eng yuksak ko‘rinishlaridan, muhim sohalaridan, ijtimoiy ong, mafkura shakllaridan biridir. Musiqa hayotni bilib olish va unga ta’sir etish vositasi hisoblanadi. Musiqa badiiy obrazlarining latifligi bilan kishiga zavq va huzur bag‘ishlaydi.

• **Musiqa asboblari:** *fortopiano, skripka, bayan, do‘mbra, dutor, rubob, doira, chang, klarnet, violonchel, kontrabas, fleyta, arfa. Instrumental ansambl va orkestrlar.*

• **Ovoz turlari:** *bas, tenor, soprano, metstso-soprano (o‘rta soprano). Vokal ansambl va xorlar. Musiqaning janrlari, turlari, ifodalash vositalari. Melodiya va jo‘r bo‘lish. Maqom, estrada va xalq qo‘shiqlari, instrumental musiqa. Taronalar, ballada, fantaziya, sonato (har xil temp va xarakterga ega bo‘lgan bir necha qismdan iborat*

musiqa asari), konsert, opera, balet, simfoniya, kantata (tantali ruhda yozilgan musiqa asari), oratoriya (umumiy xor, yakka ashulachi va orkestr uchun yozilgan musiqali dramatik asar).

Xalq musiqasi va ashulalari.

Mumtoz kompozitorlar ijodi, o'zbek kompozitorlari, hozirgi zamon chet el musiqasidan xabardor bo'lish.

- **Tasviriy san'at.** Rassomlik san'ati tasviriy san'atning bir turi, borliqni badiiy obrazlar vositasi bilan aks ettirishning va inson hayotiga ta'sir etishning vositalaridan biri. *Rassomlik san'atining turlari: hashamatli suratlar, devorga osib qo'yiladigan suratlar, dekorativ suratlar, bezak suratlar, maxsus dastgohda ishlangan – o'rtacha kattalikdagi rasmlar, miniatura (juda mayda, nafis va chiroyli qilib ishlangan rasm).*

Rassomlik san'atining turlari: tarixiy janr; turmushni, urf-odatlarni tasvirlovchi suratlar, jang manzaralarini tasvirlovchi suratlar; portret janri, animalistik (hayvon rasmini chizish) janri, manzara janri, natyurtmort (jonsiz narsalarning suratini solish) janri.

Rassomlik san'atining texnikasi: moy bo'yoq (sir), akvarel (suvda eritib ishlatiladigan bo'yoq), keramikaga oid, mozaika (naqsh) va boshqalar.

Rassomlik san'atining qisqacha tarixi. O'tmishda yashagan mashhur rassomlar, hozirgi zamon rassomlarini bilib olish. Kartinalarni tushunish, rasm doskasiga surat chizishni o'rganish.

- **Teatr.** Inson hayotida teatrning ahamiyati va o'rni katta. Teatr tarixi, teatrning janrlari va turlari, teatrning taniqli arboblari, atoqli san'atkorlarni bilish. Pesa (sahna asari) mazmuni, pesa tanlash va spektakl qo'yishni, sahna asari ustida ishlash metodikasini, qo'g'irchoq teatri, drama to'garagini, teatrga borish, spektaklni ko'rish va muhokama qilishni o'rganish lozim.

- **Kino va televidenie.** Ular san'atning keng tarqalgan ommaviy turi, siyosiy va ilmiy tashviqotning, shuningdek, kundalik voqealar haqida axborot olishning muhim vositasi, mafkuraning ta'sirchan qurollaridan biri.

Kino va televidenie tarixi. Kino-telefilmlarning muhim turlari: ilmiy-ommabop filmlar, o'quv filmlari, hujjatli filmlar, badiiy filmlar, O'zbekiston va chet el kino san'atining mashhur vakillarini bilib olish. Kinoteatrlarga borish, kino-telefilmlarni ko'rish va muhokama qilish, o'quvchi-talabalarga kino-telefilmlarni ko'rsatish metodikasini o'rganish.

• **Badiiy ijod.** Badiiy tarbiya to'garaklaridan (drama to'garagi, xor to'garagi, raqs to'garagi, rasm to'garagi, amaliy san'at to'garagi) birida qatnashish. Badiiy havaskorlik to'garaklarining konsertlarida, *«Jonli gazeta»*da ishtirok etish. Musiqa asboblaridan birida kuy chalishni o'rganish.

• **Jismoniy faoliyat.** Sportning biror turi bilan muntazam shug'ullanish va sport razryadiga ega bo'lish. Oliy o'quv yurtini bitirguncha sport seksiyalaridan birida qatnashish. Jismoniy tarbiya va sportning asosiy turlarini bilib olish, sport bilan shug'ullanish malakasiga ega bo'lish, sport normalarini topshirish.

Fizkultura-sport bo'yicha jamoatchi – instruktorlik qilish uchun kerak bo'ladigan darajada bilim va malakalarni egallash. Sportning muhim turlari bo'yicha o'yinlar, musobaqalar uyushtirishni bilib olish. Har xil yoshdagi kishilar uchun ertalabki gimnastika mashqlari majmuini tuzib chiqishni va unga rahbarlik qilishni o'rganish. Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun gimnastika normalarini esda saqlash. O'zbekistonning sport sohasidagi yutuqlarini va jahon rekordlarini bilib qo'yish. Gavdani chiniqtirish qoidalarini o'rganib olish va unga muntazam amal qilish. Jarohatlangan: zaharlangan, biror joyi singan, yarador bo'lgan, oftob urgan, suvga cho'kkan, hushdan ketgan kishilarga tez yordam ko'rsatish usullarini bilib olish.

Uy-joy, kiyim-kechak, sport anjomlari, sport binolari va boshqalarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena qoidalarini bilib olish va ularni bajarish. Turistik safarlarda qatnashish, turistik yurishning rahbari yoki a'zosi sifatida kechqurunlari palatkada, gulxan yonida, ochiq havoda tunashga odatlanish. Gulxanda ovqat pishirishni, notanish joyda kompasga, soatga, yulduzga, mahalliy buyumlarga qarab mo'ljal olishni o'rganish.

Turistik safar rejasini tuzishni, marshrut muddatini belgilashni, kerakli anjomlar, kiyim-kechak, oziq-ovqatlar mo'ljalini bilib olish. O'quvchilarni va talabalarni turistik safarga olib chiquvchi rahbar vazifasini bajarishni o'rganish.

Bu dastur mustaqil ishlarni rejalashtirish va tashkil etish uchun oliy o'quv yurtlarining talabalariga tavsiya etiladi. Shu asosda har yili guruhda bajariladigan ishlarning rejasi tuzib chiqiladi. Guruhning har bir talabasi ham o'zining qobiliyati va imkoniyatiga qarab bir yillik va semestrga mo'ljallab individual reja tuzib chiqadi. Dastur eng yaxshi guruh uchun tashkil etiladigan musobaqa-konkurs shartlarini tuzib chiqish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

3-shakl



Bunday dastur talabalar egallab olishi lozim bo‘lgan ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik, professional-pedagogik bilim va ko‘nikmalar, ma’naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit holda talabalar ko‘z o‘ngida gavdalantirishga imkon beradi. Shu bilan birga u o‘z-o‘zini tarbiyalash vazifalarini bir qadar oydinlashtirib, talabani bu vazifalarni, faoliyat turlarini bajarish uchun safarbar etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo‘lajak – mutaxassisning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari bilan kasbiy faoliyatning talablari o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etish zarurligini anglab, tushunib olishdan iborat. Bunday tushunchaning hosil bo‘lishi har bir yigit va qizda o‘z bilimlarini oshirish ustida mustaqil ishlashga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish hissini uyg‘otadi. Ushbu dastur ana shu maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi.[1]

12.2. TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM-TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Hozirgi kunda *«Umumiy pedagogika va psixologiya» hamda «Kasbiy pedagogika va psixologiya»* fanlari oldida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish vazifasi turibdi. Bundan kelib chiqqan holda talabalarni

[1] Qarang: OCHILOV M., OCHILOVA N. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI. – T.: 2008, 225-237-betlar.

pedagogika va psixologiya turkumi fanlari asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim turlari bilan birga noan'anaviy ta'lim metodlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin. U yoki bu metodni tanlashda talabalarni har tomonlama *(kasbiy bilim, mahorati, ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va h.k.) va turli metodlardan foydalangan holda (qiziqarli o'yinlar kechasi, aniq mavzu ustida musobaqa (polemika), seminar-brifing, seminar-suhbat, seminar-konferensiya, seminar-disput va h.k.)* ustida faol, mustaqil ishlashga yo'naltirish lozim. Bunda talabalar diqqati faqat bitta masalaga qaratilmasdan, ularni qiziqtiradigan mavzular bo'yicha kechalar, sevimli mashg'ulotlari bo'yicha estafetalar uyushtirish, musiqiy-badiiy kechalar tashkil etishga, kasbiy faoliyatni aks ettiruvchi vaziyatni tahlil qiluvchi so'zsiz o'yinlar (immitatsiya), rebus, krossvordlar tuzish va yechish, millatlar do'stligi masalasiga bag'ishlangan yig'inlar, fakultetda gazeta, jurnallar tashkil etish. Ularni har tomonlama rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda foydalanish ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. Mashg'ulotlarni bunday tashkil etish talabalarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan birga, ularni har tomonlama rivojlantiradi. Chunki bitta masala ustida ishlash talabalar diqqatini susaytirib, zeriktiradi. *Talabalarga tayyor bilimlarni bermasdan, ma'lum bir muammo qo'yilib, yechimini talabalarning o'zlariga toptirish lozim.* Talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini tashkil etishda ilmiy konferensiyalar, ma'ruzalar bilan chiqish, seminar-konferensiya kabilardan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Konferensiya dasturiga talabalarning o'zlarini qiziqtirgan, o'qish, bilishga bo'lgan faolligini oshirishga qaratilgan *«Mustaqil ilmiy izlanish yo'llari», «Imtihonga tayyorlanish tajribasidan», «Bo'sh vaqtdan qanday foydalanaman?»* singari mavzularning kiritilishi ijobiy natijalarni beradi. Konferensiyada 4-5 talaba qisqa ma'ruza qiladi. Talabalarning savol-javoblari tugagandan so'ng **«Aqliy hujum»** metodi yordami bilan ko'tarilgan masalalar bo'yicha umumiy xulosa chiqariladi.

Ma'ruzalarda respublika ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan mavzularni kiritish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, respublikamizda ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan eng ustuvor yo'nalishlar, Sharq mutafakkirlarining o'qituvchilik kasbi haqidagi qarashlari, jamiyatimiz ma'naviy rivojlanishi sohasida belgilab berilgan vazifalar va bunda yoshlarning o'rni, Milliy istiqlol mafkurasining eng

asosiy g'oyalari kabi masalalarga doir mavzularning kiritilishi talabalarning qiziqish va faolligini oshiradi. *Talabalarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, erkin bahs yurita olish qobiliyatlarini rivojlantirishda muammo qo'yish, muammoli vaziyatlar yaratish, inversiya, ijodiy topshiriqlar, evristik suhbat tarzidagi savol-javoblar, aqliy hujum, guruhli bahslar, kichik guruhlarda ishlash, sinektika (jamoaviy fikrlashni tashkil etish) kabi maxsus metodlardan foydalanish ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.*

Bulardan eng ko'p qo'llaniladigani – **muammoli o'qitish,** *talabalarda izlanish faoliyatini shakllantirshga qaratilgan. Mazkur metod asosida bitta muammoni olg'a surish va asoslash yotadi. Agar muammo talabalarni qiziqtirsa, unda o'z-o'zidan muammoli vaziyat yuzaga keladi. Muammoli vaziyat tarkibiga: savol tarzida vazifalar qo'yish, farazlarni olg'a surish, nazariy asoslovchi vazifalar, konsepsiya, o'rganilayotgan muammo sxemasi, modeli, ularni yechish yo'llari kiritiladi, Muammoli vaziyat o'qituvchi tomonidan shakllantirilib, muammo tarzida bayon etiladi, talabalar esa o'ylab fikr yuritish asosida muammoni yechadilar yoki savol tarzida vazifalar talabalar tomonidan qo'yilib, ularning o'zlari mustaqil yechadilar.*

Bunday yo'l bilan tushuntirilgan masalalar talabalar xotirasida uzoq saqlanadi. **Guruhli bahs metodi** – *ma'lum muammo, mavzu yuzasidan erkin fikr almashish uslubi bo'lib, bunda barcha ishtirok etuvchilar teng holda, o'zlari noto'g'ri deb bilgan barcha masalalarga tanqidiy munosabat bildiradilar. Eng asosiysi – faktlar asosida mantiqiy isbotlash bo'lib, barcha takliflar, izlanishlar, yechimlar o'rganilib, jiddiy tahlil qilinadi. Guruhli bahs metodining bir qancha afzalliklari bor. Ko'tarilgan har bir masala bevosita mashg'ulot jarayonida yechimini topadi. Talabalarning fikrlash qobiliyatini tezlashtirib, o'rganilayotgan fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, talabalar kelajakda mustaqil ilmiy izlanish yo'llarini o'rganib boradilar. Bu metodni qo'llashdan avval talabalarga bir oy oldin mavzu, foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.*

Bahs mavzusi ma'ruza matnlarini takrorlamasligi va aniq javobni topish uchun turli manbalardan foydalanish nazarda tutiladi Har xil manbalarni (ilmiy maqola, monografiya) o'qish jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash malakalari shakllanadi.

Bu metodlardan tashqari **«inversiya»** (lotincha *aylantirish, qayta joylashtirish*) – isbot qilingan tezisga qarama-qarshi isbot metodlari ham ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda. Shulardan biri amerikalik U.Gordon

tomonidan taklif qilingan **sinektika metodi** bo'lib, u to'rtta vosita yordamida jamoaviy fikrlash faoliyatini tashkil qilish metodidir: *muammo qanday berilgan bo'lsa, unga shundayligicha qarash; ma'lum yechimdan qochish; uni muammoga o'xshash, yaqin bo'lgan narsa bilan taqqoslash; muammoning umumiy ko'rinishdagi ta'rifini umumlashtirish.*

Bunda har xil xarakterdagi muammolarni yechish analogiyasini izlash, qidirish taklif qilinadi. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri (shunga o'xshash vazifalar qanday hal qilinadi); **shaxsiy** (*obyektdagi «vazifa ichiga kirish va shu nuqtayi nazardan fikr yuritish*), **ramziy** (*ikki og'iz so'z bilan vazifa mohiyatini obrazli tasvirlash*); **xayoliy** (*bu vazifani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edi*) yechish usullari.

Biz yuqorida sanab o'tgan barcha metodlarlarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

Ta'lim turlari: *pedagogika nazariyasi; pedagogika tarixi; pedagogik mahorat; pedagogik psixologiya.*

Ta'lim metodlari: *guruhlar tashkil etish; evristik suhbat; aqliy hujum, guruhli bahs-munozara; sinektika metodi; savol-javob.*

Ta'lim shakllari: *Muammoli ma'ruza; seminar, laboratoriya mashg'ulotlari; ma'ruzalar bilan chiqish; seminar-brifing; seminar-konferensiya; seminar-bahs; davra suhbati; ishchanlik o'yinlari, rollar ijro etish; muammolar tahlili; referatlar yozish.*

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar: *fakultativ mashg'ulotlar; ijodiy kechalar; to'garaklar: voizlar guruhi, siyosiy muxbirlar; mustaqil ilmiy izlanish: kurs ishi, diplom ishi, referat, olimpiada, ko'rik-tanlovlarda qatnashish; ilmiy konferensiyada qatnashish; pedagogik amaliyot; kitobxonlar uyushmasi; bayramlar: Mustaqillik bayrami; Konstitutsiya kuni, har xil mavzudagi qiziqarli kechalar; talabalarning sevimli mashg'ulotlari ustida estafetalar.*

Ta'lim metodlarini qo'llashni quyidagicha ko'rsatish mumkin: talabalarda tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mustaqil ilmiy izlanish, o'z fikrini himoya qila olish, bahs yuritish ko'nikmalarini shakllantirishda guruhlar tashkil etib, ijodiy topshiriqlar berish, guruhlararo bahs yuritish, aqliy hujum metodi, evristik metod, klaster metodi kabilardan foydalaniladi. Talabalarda ijrochilik, boshqaruvchilik, ular bilimlarini sinab ko'rishda ma'ruza bilan chiqish, diskussiya (bahs)lar, muammo qo'yish, muammoli ma'ruza qilish ham yaxshi natijalar beradi. Talabalarda malaka oshirish, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun immitatsion (o'xsha-

tuvchi) mashqlar, rollar ijro etish orqali erishish mumkin. Ularni yangi g'oya yechimini yaratish, ularni shaxsiy tajribaga yoki vaziyatga bog'lash, bahsli g'oyalarni ma'qullashga o'rgatish uchun esa guruhli bahslar, ma'lum bir holatlar tahlili, savol-javob, so'rovnomalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xullas, bu boradagi qiziqish quyidagi pedagogik talablarga amal qilinganda samarali natijalar beradi: ta'lim jarayonining puxta loyihalanganligi; maqsadlarning aniqligi; talabalarni birlashtira olish, vazifalarni to'g'ri bo'lib berish, ishni to'g'ri rejalashtirish; didaktik talablar: o'quv materialini saralash va tayyorlash, ko'rgazmali qurollar, jihozlar, o'quv materialini aniq, ishonarli tarzda yetkazib berish; perseptiv talablar: talabalar ma'naviy dunyosiga kira olish, ularning emotsional holatlarini obyektiv kuzata bilish; tadqiqotchilik qobiliyati. Pedagogik holatlarni aniqlash va obyektiv baholay olish; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olish va h.k.

12.3. TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish talabalar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi yondashuv hisoblanadi. Bizga yaxshi ma'lumki, *«ta'lim texnologiyasi»* tushunchasi talim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchi va talabalar o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi. **«Pedagogik texnologiya»** *tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra, pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur.* Biroq so'nggi yillar mobaynida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatni uyushtirish jarayonida ulardan foydalanish mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barchasida ta'lim jarayonining texnologiyalashtirish muammosi uchun asosiy obyekt tarzida qabul qilinganligining guvohi bo'ldik. Holbuki, barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – *aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir.* Ta'lim jarayonidan farqli o'laroq, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda ushbu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talabalar va o'qituvchi-pedagoglar o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondashish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalashtirishning asoslari qatoriga: 1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish; 2) tarbiyaviy tadbirning maqsadi va vazifalarini belgilash; 3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish; 4) tarbiyaviy tadbirning shakli, metodlari va vositalarini tanlash; 5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash; 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish; 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, ularning faollik darajalarini norasmiy (talabalarni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash; 8) loyihani amaliy faoliyatda qo'llash; 9) tarbiyaviy tadbirni amaliy jihatidan tashkil etish jarayoni; 10) tarbiyaviy tadbirning o'tkazilish holati (samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tashkil etilganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish kiradi.

Oliy o'quv yurtlari amaliyotidan ma'lumki, uzoq yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning aksariyati tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan *«Tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga majburman»* qabilida yondashib kelganlar. Ularning asosiy e'tibori o'zlari rahbarlik qilayotgan guruh talabalarini avvaldan tayyorlangan ssenariyni yod olish va unga qat'iy amal qilishga majburlash, shuningdek, *«Oliy o'quv yurtlari ma'muriyati hamda jamoasi oldida izza bo'lib qolishga yo'l qo'ymaslik»* tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishga qaratilgan edi. Endilikda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan bunday yondashuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirlarni tashkil etish jarayonida uning asosiy subyektlari bo'lgan talabalar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi tarzida ko'zga

tashlanadilar. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga zamin hozirlaydi. Xususan: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi; 2) talabalarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining shakllanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi; 3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lmay, balki guruhning oliy o'quv yurtlari jamoasi oldida *«soxta obro'»* orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning qaror topishi uchun imkon yuzaga keladi.

Oliy o'quv yurtlarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondashuv quyidagi holatlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi: tarbiyaviy tadbirlarning mavzu g'oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy hamda ularning xohish-istaklari asosida belgilash; tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqishda talabalarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; tarbiyaviy tadbirlar mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabalarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish; tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur o'rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish; tarbiyaviy tadbirlar maqsadining natijalanganligini guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish. Muhokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbehlarning berilishiga yo'l qo'yilmasligi, aksincha, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar talabalarning o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirlarni o'tkazish jarayonida mazkur kamchiliklarning takrorlanmasligini oldini olish) yo'lida ma'lum chora-tadbirlarning belgilanishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati ushbu jarayonda talabalar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga ahamiyatni qaratishni ham taqozo etadi: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi; 2) talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil eta olish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari; 3) tarbiyaviy tadbirlar g'oyasini talabalarning ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil

etishga texnologik yondashuv va loyihalash nafaqat ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlab qolmay, balki ularning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi, shuningdek, ularda bir qator ma'naviy-axloqiy va kasbiy sifatlarning shakllanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

Tizim – qismlardan tuzilgan bir butun, ya'ni ma'lum tartibda joylashtirilgan bir-biri bilan bog'liq qismlardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni anglatadi.

Texnologiya – yunoncha *«tashne»* – san'at, mohirlik, o'quv va *«logos»* – ilm, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Pedagogik tizim – ta'lim-tarbiya texnologiyasining asosi, zamini hisoblanadi. U tarbiyalanuvchi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayoni, tarbiyachi, texnik va boshqa vositalar, ta'lim-tarbiyaning shakl-usullaridan iborat.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiyaning metodologik asoslarini tushuntirib bering.
2. Barkamol shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs, inson, odam, kishi, subyekt, individ, individuallik, komil inson deganda nimani tushunasiz?
4. Individ, shaxs, subyekt taraqqiyotining tadqiqotida qanday ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi kerak?
5. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda nimalarga ko'proq e'tibor beriladi?
6. Oliy ta'lim muassasasi doirasida va fakultet bo'yicha qanday tadbirlar o'tkaziladi?
7. Texnologiya nima?
8. Tarbiyaviy ishlarga texnologik yondashuv deyilganda nimani tushunasiz?
9. Tarbiya texnologiyasi nima?
10. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va bu jarayonni loyihalashtirishni tushuntirib bering.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaning metodologik asoslarining barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi.
2. Oliy o'quv yurtlarida barkamol shaxsni shakllantirishda tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va metodlari.
3. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.
4. Oliy ta'lim muassasalarida barkamol shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonini amalga oshirishga yaxlit, tizimli va texnologik yondashuv.
5. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.
6. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Talabalar bilan bajariladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturini tuzishda talabalar faoliyatini qanday turlarga bo'lish maqsadga muvofiq?

a) bilish faoliyati;
b) ijtimoiy-mafkuraviy faoliyat;
s) mehnat faoliyati;
d) professional-kasbiy faoliyat;
e) a, b, s.

2. YUNESKOning «Yangi ming yillikda» nomli ma'ruzasida ta'lim-tarbiya vazifasi qanday tavsiflangan?

a) o'qishga o'rgatish;
b) yashashga o'rgatish;
s) birgalikda yashashga o'rgatish;
d) mehnat qilishga va mablag' topishga o'rgatish;
e) a, b, s, d.

3. Tarbiya texnologiyasiga nimalar kiradi?

a) tarbiyaviy jarayon;
b) tarbiyachi yoki tarbiyaning texnik va boshqa vositalari;

s) ta'lim-tarbiyaning shakl-usullari;
d) ta'lim-tarbiyaning maqsadi;
e) a, b, s.

4. Ta'lim metodlari qaysilar?
a) pedagogik mahorat, pedagogik psixologiya;
b) guruhlar tashkil etish;
s) evristik suhbat va aqliy hujum;
d) guruhli bahs-munozara, sinektika, savol-javob;
e) b, s, d.

5. Tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv qanday omillarga bog'liq?
a) talabalarda ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi;
b) muayyan tajribalarga ega ekanliklari;
s) tarbiyaviy tadbir g'oyasi talabalarning ichki ehtiyojlariga mos kelishi;
d) ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun sharoit hosil qilish;
e) a, b, s.

6. Kadrlar tayyorlash milliy modelini nechta asosiy qismga bo'lish mumkin?
a) ilmiy-uslubiy ta'minot;
b) o'quv va ilmiy ishlab chiqarish;
s) tarbiya jarayoni;
d) shaxs, ishlab chiqarish, ta'lim jarayoni;
e) a, b, s.

INTELLEKTUAL TRENING

1. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaning metodologik asoslarini barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligini tushuntirib bering.

T/r	OTMTMABShShQ	Tushuncha

2. Oliy ta'lim muassasalarida barkamol shaxsni shakllantirishda tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

T/r	OTMBShShTJO'XX	Tushuncha

3. Oliy ta'lim muassasalari doirasida va fakultetlar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar tizimi nimalarni o'z ichiga qamrab olishini tushuntirib bering.

T/r	OTMD va FBO'TTNO'IQO	Tushuncha

4. Talabalarning tarbiyalanganlik darajasini qanday mezonlar va ko'rsatkichlar yordamida bilib olish mumkin?

T/r	TTDQM va KYoBOM	Tushuncha

5. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi nima?

T/r	MATT	Tushuncha

6. Barkamol shaxs tarbiyasini yaxlit tizimli va texnologik yondashuvlarga asoslanishini tushuntirib bering.

T/r	BShTYaT va TYoA	Tushuncha

7. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirishning asoslariga nimalar kirishini tushuntirib bering.

T/r	TJTMJLANK	Tushuncha

XULOSA

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini va kadrlar tayyorlash sohasini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa «**Ta'lim to'g'risida**»gi Qonun hamda «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**»ning (1997-yil 29-avgustda) yaratilishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtayi nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «**Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi**»[1].

Yurtboshimizning bu fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, **birinchidan,** *bu ko'rsatmalar pedagogika nazariyasi va amaliyoti faniga ham, shuningdek, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi-pedagoglarga ham, umumiy metodologik asos vazifasini o'taydi.*

Ikkinchidan, *pedagogika nazariyasi va amaliyoti hamda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar oldiga qo'yilgan mas'uliyatli va murakkab vazifa «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**»ni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali bajariladi. Yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiyaning yangi **Milliy modeli**ni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan keyingi yillarda yaratilgan o'quv-uslubiy majmualar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda pedagogikaga bag'ishlangan darslik va o'quv qo'llanmalarining ko'pligi pedagog olimlar va amaliyotchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim va tarbiya amaliyotiga qo'llashga intilishining samarasidir. Natijada mustaqillik davri uzluksiz ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri – ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga yuz tutdi. *O'quvchi-talabalar ta'lim jarayonining obyektivlikdan o'zining tarbiyalanishi va bitimlarni o'zlashtirishi jarayonida bevosita faoliyat yuritishi lozim bo'lgan subyekt darajasiga ko'tarildi. Endilikda darsda*

[1] Karimov Islom. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1999, 78-bet.

o'qituvchi hokim emas, balki o'qituvchi-pedagoglar o'quvchi-talabalarning yaqin hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo'lmoqda.

Uchinchidan, ta'lim jarayonini bugun o'quvchi-talabalarni tarbiyalashga, o'qitishga emas, balki uni o'z-o'zini tarbiyalashga, bilimlarni o'zi mehnat qilib o'zlashtirishiga yo'naltirishga qaratilgan. *Bugungi pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanida o'quvchi-talabalarni ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash yetakchilik qilmoqda. Chunki ma'naviy kamolot yo'lini tutgan inson ta'limni o'zi qidiradi va unga erishishga harakat qiladi.*

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 26-avgustdagi «**Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida**»gi Qarori pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani oldiga yangi mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Jamiyatimiz milliy istiqlol g'oyasi bilan shug'ullanuvchi taniqli pedagog, faylasuf, huquqshunoslar va boshqa olimlar tomonidan mafkuraviy tarbiyani amalga oshirishga oid yangi tipdagi o'quv dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalari yaratildi. Jamiyatimizda milliy istiqlol g'oyasini o'rgatish, tushuntirib berish va yoshlar ongiga singdirish metodologiyasi tubdan yangilandi. Bu borada ayniqsa, pedagogika fanlari doktorlari Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov va R.Ahliddinovlar hamkorligida yaratilgan «**Yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish**» nomli kitobni alohida ta'kidlash kerak.

Beshinchidan, Prezidentimiz Islom Karimovning «**Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch**» nomli asarida: «**... milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalash**»[1] dek g'oyat sharafli vazifa qo'yildi. Demak, Yurtboshimizning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyaga oid qarashlari, fikrlari asosida hozirgi kunda yangi mafkuraviy ishlar pedagogikasi shakllanmoqda.

Oltinchidan, bugungi kunda «**Ta'lim to'g'risida**»gi Qonun, «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**», «**Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida**»gi

[1] Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008, 75-bet.

qaror, «Pedagogika fani konsepsiyasi», «Pedagogika fanini rivojlantirish va istiqbolga yo'naltirish dasturi», «Ta'lim jarayoni va o'quv metodik majmualarini ta'lim texnologiyalariga o'tkazish bo'yicha Nizom», «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash to'g'risida»gi kabi me'yoriy hujjatlar mustaqil O'zbekiston Respublikasida pedagogika nazariyasi va amaliyotidan keng ko'lamli tadqiqotlar, o'quv-metodik ishlarni yaratishda ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari va ta'lim-tarbiya muassasalari o'qituvchi-pedagoglari uchun me'yoriy asos, dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yettinchidan, *Mustaqillik yillarida Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish muammolariga bag'ishlangan hamda pedagogik innovatsiyalarni ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni tizimiga izchil tatbiq etish muammolariga bag'ishlangan salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, bir necha monografiyalar, darslik, o'quv qo'llanmalari yaratildi. Jumladan, bu borada* **M.Quronovning «Milliy tarbiya», R.Ahlidinovning «Maktabni boshqarish san'ati» monografiyalari; M.Ochilovning «Oliy maktab pedagogikasi»; J.G'.Yo'ldoshev va S.Hasanovning «Pedagogik texnologiyalar», H.Omonov va S.A.Madiyarovaning «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat», A.Xoliqovning «Pedagogik mahorat», J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov, A.Usmonovning «Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi)», N.Fayzullayeva va B.Xidirova «Pedagogik mahorat» va «Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti», Sh.S.Shodmonova, N.S.Mirsagatova, G.N.Ibragimova, M.T.Mirsoliyevaning «Pedagogik texnologiyalar», B.Xidirovaning «Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llashning nazariy va amaliy asoslari» Sh.M.Zufarovning «Pedagogik innovatika» N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanovning «Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi)** kabi o'quv qo'llanmalari Respublikamiz **«Pedagogika nazariyasi va tarixi hamda amaliyoti»** faniga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi va Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi hamda ta'lim muassasalari xodimlarida katta qiziqish uyg'otdi. Albatta, hozirgi kunda bu kabi ilmiy tadqiqotlarimiz ma'rifiy-pedagogik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman, **mustaqillik davri pedagogika nazariyasi va amaliyoti** *yetakchi tendensiyalari ustuvorligi quyidagilardan iborat:*

– o'quvchi-talabalar shaxsini ta'lim jarayoni obyekti va subyekti darajasiga ko'tarichi;

– o'quvchi-talaba shaxsi ma'naviyatini shakllantirish ustuvorligini ta'minlash;

– o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

– o'quvchi-talabalarning tarbiyalanishi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bevosita o'zlarining ishtirokini ta'minlash;

– o'quvchi-talabalarni ilmiy tadqiqotlar va hayotiy kashfiyotlar yaratishdan lazzatlanishni tuydirish;

– ta'lim amaliyotida pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishga erishish va hokazolar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2005.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonuni. Oliy ta’lim Me’yoriy hujjatlar to‘plami – T.: «Sharq», 2004.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori (1998-yil 5-yanvar). Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami – T.: «Sharq», 2001.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –T.: «O‘zbekiston», 1992.
5. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. –T.: «O‘zbekiston», 1995.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
8. Karimov I.A. Inson baxt uchun tug‘iladi. –T.: «Sharq», 1998.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «Sharq», 1998.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-tom – T.: «O‘zbekiston», 1998.
11. Karimov I.A. Kuchli davlatdan –kuchli jamiyat sari. –T.: «Sharq», 1998.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
13. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
14. Karimov I.A. Biz kelajakni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7- tom. – T.: «O‘zbekiston», 1999.
15. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «Sharq», 1999.
16. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
17. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. – T.: «O‘zbekiston» 2000.

18. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakl va asosiy yo‘nalishlari. –T.: «O‘zbekiston», 2002.

19. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat», 2008.

20. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2010.

21. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. –T.: «Fan», 1975.

22. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-tom. –T.: «Fan», 1996.

23. Анталогия педагогической мысли Узбекистана. –Москва, 1986.

24. Abdullayeva Sh., Axatova D.A., Sobirov B.B., Saitov S. Pedagogika. (O‘quv qo‘llanma). –T.: «Fan», 2004.

25. Abduquddusov A., Rashidov X. Kasb-hunar pedagogikasi. –T.: 2009.

26. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: «O‘qituvchi», 1992.

27. Ahmad Donish. Navodirul vaqoe. –T.: «Fan», 1992.

28. Ayubjonov I. Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda pedagogika fanining o‘rni. //Iqtisodiyot va ta’lim. 2002-yil, 3-son.

29. Boymurodova G. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablar// UZLUKSIZ TA’LIM, 2007-yil 3-son.

30. Бабанский К.Ю. Принсип обучения к современной образовательной школе// Журнал «Народное образование», 1979 г.№2.

31. Boboyev H, Do‘stjonov T., Hasanov S «AVESTO» – Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. –T.: « IQTISOD MOLIYA », 2004 .

32. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», NMUBT., 1998 .

33. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999.

34. Воинова М.Г., Ахрарова Г.П. Педагогика. Учебное пособие.–Т.: ТГЮИ, 2006.

35. Do‘stjonov T., Mirhamidov M., Hasanov S. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. – T.: «IQTISOD MOLIYA », 2006.

36. Дружинин В.Н., Психология общих способностей. СПБ. Питер, 1999.

37. Ziyomuhamedov B, Abdullayeva Sh. Pedagogika. Darslik. – T.: 2000.

38. Ziyomuhamedov B. Pedagogika. – T.: 2001.

39. Zunnunov A., Mahkamov U.Didaktika (ta'lim nazariyasi) O'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», NMAKBT.,2006.

40. Ibragimov X, Abdullayeva Sh. PEDAGOGIKA NAZARIYASI. –T: «FAN VA TEXNOLOGIYA» 2008.

41. Ismoilova Z.K. O'qituvchi va uning jamiyatda tutgan o'rni. «UZLUKSIZ TA'LIM», 2004-yil 2-son.

42. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy dars. –T.: 2007.

43. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA» 2008.

44. Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD MOLIYA», 2009.

45. Коджаспирова Г.М. Педагогика. Учебник – Москва, «Гардарики» 2004.

46. Кузмина Н.В.Методы системного педагогического исследования. Ленинград,ЛГУ, 2008.

47. Леонтев А.Н., Деятелност. Сознание. Личност. «Прогресс», Москва, 1977.

48. Mavlonova R. Voxidova N. Raxmonqulova N. Redagogika nazariyasi va tarixi (darslik).– T: «FAN VA TEXNOLOGIYA» 2010.

49. Малдова А. Современная школа США. – Москва, «Педагогика» 2007.

50. Mardonov O'., Arslonov Yu. Shaxslararo insonparvar axloqiy muloqotlar// UZLUKSIZ TA'LIM, 2008-yil 5-son.

51. Mavlanova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Darslik.–T.: «O'qituvchi». 2001.

52. Mullajonov M. Yangicha tafakkur va milliy pedagogikaning shakllanishi//. Iqtisodiyot va ta'lim, 2000-yil 1-son.

53. Nazarov M. Muloqot madaniyati haqida. //Muloqot, 2000-yil 6-son.

54. Ochilov M.Muallim qalb me'mori. –T.: «O'qituvchi», 2001.

55. Ochilov M., Ochiloya N. Oliy maktab pedagogikasi. – T.: 2008.

56. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Prof.A.Munavvarov tahriri ostida. T.: «O'qituvchi». 1996.

57. Педагогика профессионалного образования. Под редаксии В.А.Сластенина. – Москва, «Академия», 2005.

58. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –T.: «O‘qituvchi», 1993.
59. Roziqov O va boshqalar. Didaktika. –T.: «FAN».1997.
60. Rahmonova Yo. Hamshiralik ishida pedagogika. Darslik. –T.: 2007.
61. Rahimov S. Abu Ali Ibn Sinoning psixologik-pedagogik qarashlari. –T.: «O‘qituvchi» 1978.
62. Rashidov X, Habibov X., Zokirov A. Kasbiy pedagogika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. . –T.: 2007.
63. Реджерс К., Ангелский К. Учител и инноватсия. –Киев, 1992.
64. Rasulova F., Do‘stjonov T., Hasanov S. Xorazm Ma’mun Akademiyasining olis-yaqin yulduzlari. – T.: «IQTISOD MOLIYA», 2005.
65. Сарансов Г.И. Методы обучения и категория методики преподования // Журнал «Педагогика», 1998 г.№1.
66. Saidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi xususida. // Xalq ta’limi 2000-yil 1-son.
67. Saidahmedov N. Zamonaviylik, metodologiya, pedagogika //UZLUKSIZ TA’LIM, 2004-yil 2-son.
68. Sa’diy. Guliston – T: «O‘zdavnashr», 1968 y.
69. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Михенко А.И., Шиянова Э.Н. Педагогика. –Москва. «Школная пресс», 2004.
70. Saifnazarov I. Yoshlar tarbiyasi-ta’lim islohotlarining bosh vazifasi// Iqtisod va ta’lim, 2001-yil 1-son.
71. Toxirov M. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari. –T.: «Fan», 1998.
72. Tursunov I, Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – T.: «O‘qituvchi», 1997.
73. Utebayev T.T. Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanishi//.Maktab va hayot, 2008-yil 1-son.
74. Xo‘jayev N., Ismoilova U. Ta’lim va tarbiyada pedagogika fanining roli.// Iqtisod va ta’lim, 2003-yil 3-son.
75. Xo‘jayev B. Fuqarolik madaniyatini egallash zaruriy ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida./ UZLUKSIZ TA’LIM, 2006-yil 5-son.
76. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T.: «IQTISOD MOLIYA», 2009.
77. Xidirov B. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va shaxs kamoloti. UZLUKSIZ TA’LIM, 2003-yil 3-son.
78. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi. –T.: «O‘qituvchi», 1995.

79. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom., Moskva. «Rus tili» nashriyoti. 1981.

80. Quronov M. Milliy tarbiya. –T.: «Ma'naviyat», 2007 .

81. G'oziyev E. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1994.

82. G'aybullayev A., Yodgorov R., Mamatqulova R.Pedagogika (O'quv qo'llanma). –T.: 2005.

83. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). 1-qism.,– T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA» 2011.

84. Hasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari.–T.: «Adolat»., 2004.

85. SAYTLAR: http://evrika.tsi/v/center.php – Evrika nauchnыy portal.

86. http://msk.treko.ru/showdict - Evristika.

87. http://www.eduhmao.ru/portal/dt?/astfalse&provider-HMAOtticclepage Containers Hmao Atticlela-ARTICLE 47714&hMAOSECSID SECTION 29973 Razvivayuщee evristicheskoe obuchenie.

MUNDARIJA

Kirish..... 4

I BO'LIM. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

I bob. PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Pedagogika fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari..... 6
1.2. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning pedagogik asoslari..... 14
1.3. Pedagogika fanining metodologik asoslari..... 31
1.4. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari va tarmoqlari..... 45
1.5. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va ilmiy tadqiqot metodlari..... 50

II BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA JAMIYAT TARAQQIYOTI

II bob. PEDAGOGIKA NAZARIYASINING JAMIYAT VA SHAXS TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

2.1. Ijtimoiy-pedagogik jarayonlar jamiyat va shaxs taraqqiyotining obyekti va subyekti sifatida..... 65
2.2. Jamiyatda shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlari..... 97
2.3. Pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat va pedagogik mahorat o'ziga xos pedagogik jarayon sifatida..... 106
2.4. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni..... 120

III BO'LIM. TA'LIM NAZARIYASI

III bob. DIDAKTIKANING UMUMIY ASOSLARI

3.1. Didaktikani ta'lim nazariyasi sifatidagi taraqqiyoti..... 133
3.2. Didaktikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari).... 154
3.3. Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari... ... 159
3.4. Ta'lim mazmuni va mohiyati..... 175
3.5. Ta'lim qonuniyati, qonunlari va tamoyillari..... 190
3.6. Ta'lim metodlari..... 218

IV bob. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA VOSITALARI

4.1. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari.... 247
4.2. Ta'limning asosiy shakli – dars va unga qo'yiladigan didaktik talablar..... 259
4.3. Zamonaviy dars turlari (tiplari) va darsni tashkil etishning shakllari..... 264
4.4. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi..... 306
4.5. Dars jarayonida ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanishning didaktik vazifalari..... 322
4.6. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish..... 330

V bob. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

5.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi va ularning turlari tavsifi..... 347
5.2. Innovatsion ta'lim texnologiyasi..... 357
5.3. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish... 366
5.4. Loyihali ta'lim metodi 376
5.5. Muammoli ta'lim metodi 380
5.6. Kreativ ta'lim metodi 386
5.7. Evristik ta'lim metodi 390
5.8. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash..... 396
5.9. Masofaviy ta'lim metodi 399
5.10. Media ta'lim metodi 414
5.11. On-layn loyihali metodlaridan o'quv jarayonida foydalanish..... 418

IV BO'LIM. TARBIYA NAZARIYASI

VI bob. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI, MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFALARI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, QONUNIYATLARI, QOIDALARI, TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

6.1. Tarbiya jarayonining tasnifi..... 431
6.2. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni..... 440
6.3. Tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari..... 447

6.4. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari (prinsiplari)..... 459

VII bob. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

7.1. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni to‘g‘risida umumiy tushuncha..... 478
7.2. Ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlari..... 484
7.3. Tarbiyada ijobiy namuna va ibrat ko‘rsatish metodlaridan foydalanishning ahamiyati..... 493
7.4. Tarbiyada rag‘batlantirish, jazolash va o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlarining tutgan o‘rni..... 495

VIII bob. TARBIYA TURLARI (SHAKLLARI)GA UMUMIY TASNIF

8.1. Oila tarbiyasi..... 514
8.2. Aqliy tarbiya..... 526
8.3. Axloqiy tarbiya..... 559
8.4. Mehnat tarbiyasi..... 567
8.5. Jismoniy tarbiya..... 573
8.6. Estetik tarbiya..... 576
8.7. Iqtisodiy tarbiya..... 579
8.8. Ekologik tarbiya..... 588
8.9. Huquqiy tarbiya..... 597
8.10. Fuqarolik tarbiyasi..... 609
8.11. Mustaqillik tarbiyasi..... 617
8.12. Vatanparvarlik tarbiyasi..... 623

IX bob. TARBIYA BILAN O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASH VA SHAXSNI QAYTA TARBIYALASHNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

9.1. Shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati..... 642
9.2. Tarbiya bilan shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro bog‘liqligi va uning bosqichlari..... 650
9.3. Shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalashning tarkibiy qismlari..... 652

9.4. O‘z-o‘zini nazorat qilish shaxs shakllanishining pedagogik-psixologik mezoni sifati..... 658
9.5. Shaxsni qayta tarbiyalashning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari..... 663
9.6. Tarbiyasi qiyin yoshlar xulq-atvorini tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslari..... 665

X bob. PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI

10.1. Pedagogik mahorat haqida umumiy tushuncha..... 678
10.2. Pedagogik bilimlar-o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi..... 682
10.3. O‘qituvchining pedagogik professionalizmi va kasb mahorati hamda qobiliyati mezonlari 687
10.4. O‘qituvchi pedagogik faoliyatini va kasbiy qobiliyatini diagnostikalash (tashxislash) usullari..... 699
10.5. O‘qituvchining pedagogik mahorati – ta’lim va tarbiya sifati kafolati..... 706

XI bob. MULOQOT – PEDAGOGIK TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

11.1. Muloqot yoxud muomala madaniyati haqida umumiy tushuncha..... 716
11.2. Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslari..... 721
11.3. O‘qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati..... 725
11.4. O‘qituvchi-pedagogning kasbiy faoliyatida muloqotning pedagogik tizimi..... 733
11.5. Pedagogik muloqot – bo‘lajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatida..... 739

XII bob. TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV

12.1. Ta’lim muassasalarida barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishga yaxlit tizimli va texnologik yondashuv..... 747

12.2. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiya-larning o'rni va ahamiyati..... 772
12.3. Ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv va uni loyihalash..... 776

Xulosa..... 784

Foydalanilgan adabiyotlar 788

QAYDLAR UCHUN

NILUFAR ATAYEVA, MUHABBAT SALAYEVA,
SOLIJON HASANOV

UMUMIY PEDAGOGIKA

(Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari)

DAVLAT
35000c 4/3
IN 2015
KUTUBXONASI

O'quv qo'llanma

II kitob

URDU
KIROATXONA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M. Xolmuxammedov
Musavvir:	E.Majidov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

Nashr.lis. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 4.09.2015 yil. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Times Uz» garniturasi. Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 50,0. Nashr bosma tabog'i 49,75. Tiraji 300. Buyurtma № 76.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-10-884-4

FAN VA TEXNOLOGIYALAR